

323  
T 71

323(545.1)

O'ZBEKISTON AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA  
KOMMUNIKATSIYALA RINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI  
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI  
AKT SOHASIDA KASBIY TA'LIM FAKULTETI

“Gumanitar fanlar” kafedrası

“MILLIY ISTIQLOL G'UYASI: ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR.  
O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH  
NAZARIYASI VA AMALIYOTI” kursidan  
MA'RUZALAR MATNI

Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti  
17 2872  
Axborot Resurs Markazi

Toshkent – 2014

10'QU

“Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” kursidan tayyorlangan ushbu o'quv qo'llanmada demokratik jamiyat to'g'risidagi dastlabki qarashlar va ularning rivojlanish bosqichlari, O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishda o'tish davrining zarurligib mustaqillik va demokratik jamiyat qurilishining «O'zbek modeli», mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish omillari, jamiyat iqtisodiy hayotini erkinlashtirish va demokratishtirish jarayonlari, demokratik jamiyat shakllanishida oila, mahalla va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, nodavlat va jamoat birlashmalarining o'mi, O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligida demokratik tamoyillarga asoslanishi, shuningdek milliy g'oyaning tarixiy ildizlari, shakllanish bosqichlari, g'oyaviy tahdidlarning yo'nalishlari, mafkuraviy tajovuz va axborot xavfsizligi, jamiyat barqarorligini ta'minlashning ijtimoiy-g'oyaviy asoslari hamda globallashtirish jarayonida mafkuraviy immunitetni shakllantirish vazifalari bilan bog'liq masalalar o'rin olgan.

Mazkur o'quv qo'llanmadan talabalar “Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanidan tayyorlangan ushbu ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik olib borishda keng foydalanish mumkin.

Ushbu o'quv qo'llanmada Oliy o'quv yurtlari talabalari hamda professor-o'qituvchilari uchun mo'ljallangan.



## KIRISH

XXI asrda kechayotgan global integratsiya jarayonlari, dunyoning g'oyaviy-mafkuraviy qiyofasini o'zgartirib, yangicha tafakkur uslubini taqozo qilmoqda. SHu bois, O'zbekistonda ta'limning ijtimoiylashuviga alohida e'tibor berilib, o'qitilayotgan fanlarning mazmunini zamon talablariga moslashtirilishi bo'yicha islohotlar amalga oshirilmogda. Bu "Ta'lim to'g'risidagi" Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish jarayonida o'z ifodasini topmoqda. Xususan, talaba yoshlarimizni Vatan va millat manfaatlariga yo'lida fidoyilik ko'rsata oladigan, mustaqilligimizning mohiyatini va qadrlarini anglaydigan, uni har qanday xavf-xatardan asrashni o'zining muqaddas burchi deb biladigan, muayyan mutaxassislikni, kasb-hunarini chuqur egallagan, mustaqil, erkin fikrlaydigan, ma'naviy va jismonan barkamol insonni tarbiyalash uchun oliy ta'lim tizimida gumanitar va ijtimoiy fanlarning dasturlarini zamon talabi asosida qayta ko'rib chiqishni taqozo qilmoqda. Bu esa yoshlarda tarixiy voqeikka ob'ektiv baho berish va to'g'ri xulosa chiqarish malakalarini shakllantirishni talab qiladi. Zero, Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek: "Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi - bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi"<sup>1</sup>dir.

Mustaqillikning o'tgan o'n yildan ortiq davri mobaynida mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotida tub ijobiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Yangilanish, mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish jarayoni barcha sohalar kabi ijtimoiy fanlarni o'qitish, ularning mazmun-mohiyatini davr talablari asosida qaytadan o'zgartirish vazifasini qo'ydi. Prezident I. A. Karimov O'zbekiston Respublikasi ta'kidlab o'tganidek: "bizning asosiy uzoq muddatli va strategik vazifamiz avvalgicha qoladi bu demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish jarayonlari va bozor islohatlarini yanada chuqurlashtirish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarini mustahkamlash yo'lidan og'ishmay izchil va qat'iyat bilan borishdir"<sup>2</sup>

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida ikki qutbli dunyodan ko'p qutbli dunyoga o'tish, inson ongi va qalbi uchun kurash jarayoni hech qanday g'oyaviy bo'shliqqa yo'l qo'ymasligimizni ko'rsatmoqda. SHu boisdan ham «bugun dunyoda borayotgan kurashlar ichida eng katta, eng ta'sirchan kurash, avvalo, mafkura maydonlarida olib borilmoqda. Va shu kurashda engish uchun juda katta mablag', imkoniyat va kuchlar safarbar qilinmoqda»<sup>3</sup>. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fani milliy istiqbol mafkurasi tamoyillariga tayangan holda ana shu siyosiy jarayonlarni, siyosiy hayot, siyosiy munosabatlari sohasida mavjud bir qator dolzarb muammolarni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qiladi, o'rganadi. Zero, «ko'p asrlik tariximiz shuni ko'rsatadiki, - degan edi Prezidentimiz Islom Karimov, - inson dunyoqarashining shakllanishida ma'rifatning, xususan, ijtimoiy fanlarning o'rni beqiyos. Bu jamiyatshunoslik bo'ladimi, tarix, falsafa, siyosatshunoslik bo'ladimi, psixologiya yoki iqtisod bo'ladimi - ularning barchasi odamning intellektual kamolotga erishuvida katta ta'sir kuchiga ega»<sup>4</sup>.

Ushbu o'slubiy qo'llanmada hozirgi kunda mamlakatimizda kecha etgan demokratik davlat fuqarolik jamiyatini qurish bilan bog'liq keng qarmovli jarayonlar, jamiyatning siyosiy hayoti va siyosiy munosabatlarda, jahon siyosatida ro'y berayotgan voqea-hodisalar, o'zgarishlar, shuningdek, obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etayotgan xalqimiz taraqqiyotining g'oyaviy tamoyillarini, mamlakatimiz hayotida ustivor bo'layotgan yurt tinchligi, Vatan ravn aqi, xalq farovonligi g'oyalari gadoqat tuyg'ularini shakllantirishga yordam beradigan milliy g'oyani shakllantirish jarayonlari o'rin olgan..

<sup>1</sup> Karimov I.A. YUksak ma'naviyat - engi l mas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008. - B. 62

<sup>2</sup> Karimov I. A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. -T.: "O'zbekiston", 2005, 34 - b.

<sup>3</sup> Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - mirovard maqsadimiz. T 8 - T.: «O'zbekiston», 2000, 466-bet.

<sup>4</sup> O'sha joyda, 504-bet.

Mazkur fanning maqsadi ezgu g'oyalardan va sog'lom mafkuradan mahrum biron bir millat va jamiyatning uzoqqa bora olmasligini, har qanday xalq va davlat o'z taraqqiyotining g'oyaviy-mafkuraviy tamoyillarini belgilab olishi zarurligi ijtimoiy jarayonlarning muqarrar qonuniyati ekanligini yoshlarning qalbi va ongiga singdirishdan iboratdir. Bu esa kelajagimizni yaqqol tasavvur etish, jamiyatimizning ijtimoiy-ma'naviy poydevorini mustahkamlash, yot mafkuralar tajovuziga qarshi tura oladigan, har tomonlama barkamol insonlarni voyaga etkazish, g'oyaviy bo'shliq bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, va nihoyat, yurtimizning yuksak taraqqiyotini ta'minlash uchun milliy istiqlol g'oyasini chuqur o'rganish ehtiyojini yuzaga keltirdi «Ushbu ta'limonni qanday zarurat shakllantirdi?» va «Undan ko'zlanayotgan maqsad-muddaolar nima?» - degan savollarga javoblar Prezidentimiz Islom Karimovning ko'p yillik izlanishlari, asarlari dagi fikr-mulohazalarida o'z aksini topdi. Avvalo, shuni ta'kidlash lozimki, milliy istiqlol g'oyasi tasodif emas, balki o'ziga xos falsafiy asosi, ilmiy-nazariy va tarixiy ildizlariga ega bo'lgan yaxlit nazariyadir. SHu ma'noda, u mamlakatimiz taraqqiyotining ob'ektiv zaruriyati, qonuniy hosilasi, xalqimiz maqsad-muddoalarining ifodasidir.

## I – BO'LIM: "O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH NAZARIYASI VA AMALIYOTI" FANI

### I - MAVZU: "O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH NAZARIYASI VA AMALIYOTI FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI. DEMOKRATIK JAMIYAT TO'G'RISIDAGI DASTLABKI QARASHLAR VA ULARNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI" – 2 soat

#### Reja:

1.1. Demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanining predmeti, ob'ekti va muammolar doirasi.

1.2. Milliy davlatchilik va demokratik jamiyat.

1.3. O'zbekistonda davlatchilik nazariyasining paydo bo'lish tarixi. Davlatchilik g'oyalarning nazariy asoslari va ularning shakllanishi.

1.4. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishining rivojlanish bosqichlari.

Jamiyatning ko'p asrlik taraqqiyoti jarayonida shakllanib, doimo rivojlanib kelayotgan har bir fanning o'ziga xos predmeti mavjud. O'zbekistonda yangi demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti kursi bundan istisno emas. Mazkur kursning predmetini O'zbekistonda davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi, demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish, bozor munosabalariga asoslangan ko'p ukladli iqtisodiyotni qror toptirish, jamiyatimizni ma'naviy qayta tiklash va yuksaltirish, O'zbekistonning teng huquqli hamkorlikka asoslangan tashqi siyosati nazariyasi va amaliyotini tashkil etadi. Bundan yaqqol ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda yangi demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fani bir - biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan quyidagi besh turkum muammolardan tarkib topgan.

1. O'zbekiston davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi va uning tarixiy ahamiyati bilan bog'liq bo'lgan muammolar.

O'zbekiston davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi muhim ijtimoiy-siyosiy, tarixiy va olamshumul voqea hisoblanadi. Bunga biz tasodifiy ravishda yoki bo'lmasa, opa-osegin: erishganimiz yo'q. Uni hech kim bizga hadya etgan ham emas. Mustaqillikka xalqimiz ko'p yillar davom etgan jiddiy va mashaqqatli kurashlar evaziga erishdi. Ajdodlarimiz tomonidan olib borilgan kurashlar bo'lmaganda, biz hech qachon Mustaqillikka erishmasdik.

O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi – bu jamiyatimizning o'z taraqqiyoti tomonidan tayyorlangan, bosqichma-bosqich jiddiy kurashlar tufayli sodir bo'lgan ob'ektiv va qonuniy jarayondir.

Xalqimizning asriy orzusi bo'lgan Mustaqillikni qo'lga kiritishda Prezidentimiz Islom Abdug'anievich Karimovning xizmatlari katta. YUrboshimizning o'zbek xalqini ozodlashtir

chiqarib, siyosiy va iqtisodiy inqiroz botqog'idan olib chiqish yo'lidagi sa'y-harakatlarini butun dunyo e'tirof edi.

Mustaqillikka erishish tarixini batafsil o'rganmasdan turib mazkur hodisaning mohiyati va ahamiyatini to'g'ri anglab olish mumkin emas.

2. O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati asoslarining barpo etilishi va xususiyatlari.

Respublikamizning mustaqil davlat deb e'lon qilinishi bilan jamiyatimizda siyosiy islohotlar avj olib ketdi. O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat qurishning nazariy asoslari va ulami hayotga tatbiq etish yo'llari ishlab chiqildi. SHunga muvofiq, respublikamizda eski ma'muriy buyuqbozlikka asoslangan hokimiyat tizimidan milliy davlatchilik tizimiga o'tish mexanizmi yaratildi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati barpo etildi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari – viloyat, shahar, tuman hokimiyatlari tashkil etilib, ularning vakolatlari belgilab berildi. Demokratik institutlar va fuqarolik jamiyatini qaror toptirish siyosati ishlab chiqildi va hayotga joriy etildi. Siyosiy partiyalar, nodavlat jamoa tashkilotlari va boshqa jamoat birlashmalarning O'zbekiston respublikasi hayotidagi o'rni asoslab berildi.

SHuningdek, davlat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, islohotlar huquqiy asoslarini yaratish, inson huquqlarini himoya qilish, huquqiy ongning rivojlanish bilan bog'liq bo'lgan nazariy va amaliy tadbirlar ishlab chiqildi. Mazkur masalalar «O'zbekistonda yangi demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» kursning asosiy muammolari deb hisoblanadi.

3. Iqtisodiy islohotlar, bozor munosabatlarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan muammolar.

Mazkur muammolar turkumiga O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'li, uning asosiy tamoyillari va xususiyatlari, iqtisodiy islohotlar va bozor iqtisodiyotining huquqiy asoslarini yaratish va ularni hayotga tatbiq etish, ko'p ukladli iqtisodiyot va mulkdorlar sinfining shakllanishi, tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, bozor infratuzilmasini shakllantirish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish, aholini ijtimoiy muhofaza qilish kabilar kiradi. Mazkur masalalarni chuqur va atroflicha anglab olish jamiyatimizda sodir bo'layotgan iqtisodiy islohotlarning mohiyatini ongli ravishda idrok etib faoliyat ko'rsatishning muhim omilidir.

4. Jamiyatimizning madaniy-ma'naviy tiklanishi va yuksalishi bilan bog'liq bo'lgan muammolar. Mustaqillikni qo'lga kiritgach, dastlabki kunlardan ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosimiz, milliy qadriyatlarimizni tiklash-davlat siyosatining muhim yo'nalishlariga aylandi. Natijada xalqimiz o'z taqdirining chinakam egasi, o'z tarixining ijodkori, o'ziga xos milliy qadriyatlarning, madaniyatining sohibiga aylandi.

Davlatimiz tomonidan ma'naviy tiklanishning ijobiy, bunyodkorlik mohiyatini kuchaytirishga qaratilgan, bir-birini to'ldiradigan siyosiy, iqtisodiy va madaniy dasturlar majmuasi ishlab chiqildi. «Ushbu dasturlar, — deydi I.A. Karimov, — birinchi navbatda, qayta tiklanayotgan merosga farqlab yondashishga, eng muhimi, umurninsoy qadriyatlarini boyitadigan hamda jamiyatimizni demokratiyalash va yangilash talablariga javob beradigan, axloq jihatdan ahamiyatli an'analarni, urf-odatlarini tanlab olish zaruriyatiga asoslangan edi».

Mazkur dasturning hayotga izchillik bilan tatbiq etilishi natijasida ma'naviy hayotimizda muhim o'zgarishlar ro'yobga chiqdi. Milliy merosimiz, qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analарimiz tiklandi, dinga munosabatimiz o'zgardi, ona tilimizga davlat maqomi berildi, milliy iftixori o'sdi. Ta'lim-tarbiya sohasida, kadrlar tayyorlash tizimida muhim o'zgarishlar bo'layotir. Milliy qadriyatlarimiz mazmunan boyib jahon madaniyatiga qo'shilishda vositachilik rol o'ynab kelmoqda.

Jamiyatimizning ma'naviy hayotidagi tub sifat o'zgarishlarni sinchiklab anglab olish O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish jarayonini ilmiy asoslab berishda katta ahamiyat kasb etadi.

5. O'zbekistonning milliy manfaatlar ustuvorligi va teng huquqli hamkorlikka asoslangan tashqi siyosati bilan bog'liq bo'lgan muammolar.

Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganidek, O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan ko'p tomonlama faol tashqi siyosatni amalga oshirish – davlatimizning mustaqilligini mustahkamlash, iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish va xalq turmushini yaxshilashning zarur sharti va g'oyat muhim vositasidir. SHuni e'tiborga olgan holda Respublikamiz o'zining xalqaro obro'-e'tiborini qozonish va mustahkamlash, xalqaro huquqning teng huquqli sub'ekti sifatida o'zini qaror toptirishga qaratilgan tashqi siyosati, uni amalga oshirish yo'llarini belgilab oldi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini mamlakatimiz milliy xavfsizligini ta'minlash, unga tahdid solib turgan mintaqaviy mojarolar, diniy ekstremizm va fundamentalizm, buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik, etnik va millatlararo ziddiyatlar, korrupsiya va jinoyatchilik, mahalliychilik va urug'-aymoqchilik, ekologik muammolarning oldini olish, jamiyatimizda tinchlik, barqarorlikni saqlab qolish, O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan o'zaro manfaatli aloqalari. MDH, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan ko'p tomonlama va ikki tomonlama hamkorligi kabilab tashkil etadi.

Mazkur masalalar ham O'zbekistonda yangi demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti kursi muammolari doirasiga kiradi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan yo'nalishlarga dahli bo'lgan muammolar bir-biri bilan uzviy bog'langan, shuning uchun ham ularning birini ikkinchisidan ajratib qarash mumkin emas.

SHuni ham aholida eslatib o'tish joizki, «O'zbekistonda yangi demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» kursning predmeti, muammolar doirasi hayotiy ehtiyojlardan kelib chiqqan holda mazmunan boyib, o'zgarib turadi. SHu tariqa, eski muammolar hal etilgandan keyin uning o'rnini yangi muammolarning qalqib chiqishi tabiiy holdir. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, mazkur kursni o'zlashtirishda har bir masalaga ijodiy yondashish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekistonda yangi demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti predmeti doirasiga kiradigan muammolar bilan Davlat va huquq asoslari, Iqtisodiyot nazariyasi, Ma'naviyat asoslari, Siyosatshunoslik, Falsafa, Sotsiologiya va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar ham o'qitiladi.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti kursi jamiyatning umumiy tuzilishi, uning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy, millatlararo va davlatlararo munosabatlarining shakllanishi va taraqqiy etish qonuniyatlari bilan shug'ullanadi. SHu sababli u, boshqa jamiyatshunos fanlariga nisbatan kishilarni keng ko'lamli ma'lumotlar bilan qurollantiradi. Mana shu xususiyati bilan O'zbekistonda yangi demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti kursi jamiyatni falsafiy tushunishga yordam beradi. Lekin mazkur kurs falsafaning o'rnini bosa olmaydi. CHunki, Falsafa O'zbekistonda yangi demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti faniga nisbatan nafaqat jamiyat, balki tabiat, inson tafakkurining eng umumiy aloqadorlik va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadigan fandır. SHuning uchun ham u barcha tabiiy va ijtimoiy fanlarning umumiy metodologik asosini tashkil etadi.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish kabi oliy maqsadning tanlanishi mustaqillik bilan bog'liq. Mustaqillik qo'lga kiritilmaganida, O'zbekiston o'z taraqqiyoti yo'lini o'zi tanlay olmas edi. Mustaqillikning qo'lga kiritilishi O'zbekiston oldiga ma'suliyatli vazifani qo'ydi.

O'zbekistonda qanday davlat quriladi? Dunyo jamoatchiligi ham bunga alohida e'tibor bilan qaradi. O'zbekistonning istiqloli va insonlarning taqdiri ham, ularning qanday hayot ta'minlashga bo'lishi, milliy-ma'naviy meros bilan umumbashariy tamoyillarning uyg'unligini ta'minlash ham, uning oldida ko'ndalang bo'lib turgan davlatchilik qurilishining qanday asosda amalga oshirilishi bilan bevosita bog'liq edi.

O'zbekiston islomiy davlat qurish emas, dunyoviy davlat qurish yo'lini tanladi. Buning ham o'ziga xos sabablari mavjud. Buning uchun dunyoviy davlatning islomiy davlatdan farqli jihatlari shundan iboratki, O'zbekiston O'rta Osiyoda islomga e'tiqod qiluvchi eng qadimiy zaminlardan biri bo'lish bilan birga, musulmonchilik ilmining islom olamida hamma tan olgan an'analariga ham ega. Islom madaniyati bir necha asrlar davomida o'zbek xalqi ma'naviyatining

asosi bo'lib kelgan, hozir ham shunday. SHu bilan birga, Prezident I.A.Karimov, O'zbekiston uchun mamlakatri dunyoviy asosda rivojlanirish, dunyoviy davlat qurish yo'lidan borishga alohida ahamiyat berib kelmoqda. Bu demokratik davlat qurilishida muhim. Bu masalada I.Karimov shunday deydi: "Biz, din bundan buyon ham aholini eng oliy ruhiy, axloqiy va manaviy qadriyatlardan tarixiy va madaniy merosdan bahramand qilishi tarafdorimiz. Lekin biz hech qachon kurashga, siyosat, iqtisodiyot va qonunshunoslikka aralashish uchun bayroq bo'lishga yo'l qo'ymaymiz. Chunki bu hozir davlatimiz xavfsizligi, barqarorligi uchun jiddiy xavf-xatar deb hisoblaymiz".

O'zbekiston Konstitutsiyasida «dunyoviy davlat» degan atama yo'q bo'lsada, uning mohiyati bir qancha moddalarda berilgan deb aytish mumkin. Bunga misol qilib quyidagi fikrni ko'rsatish mumkin:

"Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan... Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi" (61-modda), "...Diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning ham jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati ta'qiqlanadi" (57-modda), "...Hech qaysi mafkura davlat mafkurası sifatida o'rnatilishi mumkin emas" (12-modda).

Dunyoviy davlat qanday tamoyilga tayanadi:

- inson huquqlari va davlat suvereniteti g'oyalari asoslanadi;
- demokratiya va ijtimoiy adolatni e'tirof etadi;
- xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalar ustunligi tan olinadi;
- fuqarolarning munosib hayot kechirishlarini ta'minlash maqsadi;
- insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni ko'zlaydi;
- o'zbek davlatchiligining tarixiy tajribasiga tayanadi.

O'zbekistonda davlat va jamiyat qurilishining huquqiy asoslari uning Konstitutsiyasida belgilab qo'yiladi va unga tayanib ish olib borishni anglatadi. Mustaqillik O'zbekiston xalqi hayotida yangi tarixiy davrni boshlab berdi. O'z mustaqilligini, erkini qo'lga kiritgan har bir xalq o'z taraqqiyoti yo'lini izlaydi, yangi jamiyat bunyod etishda o'z andozasini ishlab chiqishga harakat qiladi.

O'zbekiston ham o'zining milliy davlatiga xos bo'lgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy kamolot va taraqqiyot yo'lini belgilab oldi. Bu bozor iqtisodiyotiga, ochiq tashqi siyosatga asoslangan demokratik huquqiy davlatni, fuqarolik jamiyatini barpo etish degan g'oyada o'z ifodasini topdi. Hamda bu jamiyatning oldida turgan maqsadni ta'kidlar ekan I.A.Karimov shunday deydi: "Biz quradigan jamiyat O'zbekiston xalqining munosib tumushini, huquqlari va erkinliklarini kafolatlashi, milliy qadriyatlarimiz va madaniyatimiz qayta tiklanishini, insonning ma'naviy ahlokiy barkamolligini ta'minlashi kerak".

Bu erda gap umuman demokratik jamiyat qurilishi to'g'risida ketmayotganligini aniq hisobga olish muhim. SHuning uchun ham O'zbekiston quntlayotgan demokratik jamiyatning boshqa jamiyatlardan farqli jihatlari hamda umumiy tomonlarini ham aniqlash muhim.

Masalan, O'zbekiston demokratik jamiyat qurish yo'lini tanlar ekan, sobiq totalitar tuzumidan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi:

- kommunistik mafkura ga tayanilmaganligi bilan;
- sinfiylik, partiyaviy tamoyillardan mutlaqo begonaligi bilan;
- inson-eng ulug' ne'mat degan fikrga asoslanilganligi bilan;
- «davlat-jamiyat-fuqaro» munosabatidan tubdan farq qiladigan «fuqaro-jamiyat-davlat»

o'rtasidagi o'zaro munosabatning oqilona huquqiy asosiga qo'yilganligi bilan ajralib turadi.

Demokratiya O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayoti tarixida tushunish qiyin bo'lgan kontseptsiyalardan biridir. O'zbekiston milliy davlatchiligi tarixida «demokratiya» tushunchasi uchramaydi. Lekin 3000 yillik tarixga ega bo'lgan bugungi O'zbekiston uchun, uning ko'rinishlari, demokratik tamoyillarning negizlari bo'lgan degan xulosa kelib chiqmaydi.

"Avesto" (mill.avv. VII-VI), Beruniy, Xorazmiy, "Siyosatnoma" (XI asr), "Qobusnoma", "Hidoya", "Qutadg'u bilig", Temur tuzuklari, "SHayboniyнома", "Xorazm shajarasi", Navoiy asarlari, Ulug'bek "To'rt ulus tarixi"da va h.k.

- C Hor Rossiyasining istilosi (1860-1917) davridagi ijtimoiy hayot;
- mustabid Sovet davri. Sotxa demokratiya davri bo'ldi (1918 yildan 1991 yilgacha);
- mustaqillik — yangi O'zbekiston davlatining tashkil topishi (1991 yildan ...

hozirgacha);

— “demokratiya” xalq hokimiyati, degan lug'aviy ma'noni bildiradi;

— Demokratiyaning vazifasi — fuqarolarning huquqlari tan olinadigan va himoya qilinadigan, ularning burchlariga rioya etiladigan va bajariladigan jamiyatni qurishdan iborat bo'lgan va shunday bo'lib qoladi. Lekin hozirgacha hech kim bunga mukammal erishmagan, faqat unga maksimum harakat qilgan;

-demokratik boshqaruvda siyosiy hayotda ishtirok etish nafaqat fuqarolarning huquqi, balki ularning burchlari hamdir.

Demak, demokratik jamiyat-fuqarolarning huquqlari tan olinadigan va himoya qilinadigan, ularning burchlariga rioya etiladigan va bajariladigan, boshqaruvda fuqarolar faol ishtirok etadigan jamiyatdir.

Demokratik jamiyat qo'llaydigan tushunchalarni o'rganishda quyidagi uchta jihatni hisobga olish kerak:

1) Ijtimoiy gumanitar fanlarga tegishli bo'lgan umumiy tushunchalarni: masalan: jamiyat, tsivilizatsiya, erkinlik, huquq, qonun, madaniyat, taraqqiyot, demokratiya.

2) Ijtimoiy siyosiy fanlar bilan yaqin bo'lgan tushunchalar huquqiy davlat, xususiy mulk, fuqarolik jamiyati, siyosat, siyosiy hokimiyat, siyosiy tashkilotlar, siyosiy tizim, siyosiy rejim, siyosiy plyuralizm, siyosiy ong, siyosiy madaniyat va boshqalar.

3) Ko'proq O'zbekiston bilan bog'liq holda ishlatiladigan tushunchalar:

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishi nazariyasi va amaliyoti fani o'rganadigan tayanch tushunchalar: “O'zbekistonning o'ziga xos va mos taraqqiyot yo'li”, erkinlik, mustaqillik, demokratiya, qonun ustuvorligi, “demokratik davlatchilik”, “demokratik jamiyat”, “demokratiya”, “demokratik jamiyat to'g'risidagi qarashlar”, “demokratik jamiyatning milliy-ma'naviy”, “milliy-ma'naviy qadriyatlar”. O'zbekiston iqtisodiy hayotining demokratlashuvi, ijtimoiy hayot va demokratiya, siyosiy hayotning demokratik tamoyillari, “demokratik qadriyatlar», “O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurilishi”, “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot”, “O'zbekiston va jahon hamjamiyati”.

Kursning predmeti — O'zbekiston demokratik fuqarolik jamiyatining shakllanishi, qaror topishi va amal qilishi qonuniyatlari:

Kurs ob'ekti: O'zbekiston jamiyati hayoti sohalari.

Kurs uslublari: tajriba, qiyosiy tahlil, empirik-sotsiologik va ilm-fanning boshqa zamonaviy uslublari.

Kurs vazifasi: bilish, nazariy, dunyoqarash, tarbiya, aksiologiya, safarbar etish.

Masalan: falsafa ongning insonga xos xususiyati jamiyat rivojining muhim omili sifatida; sotsiologiya g'uruh ongi muammosi sifatida; Politologiya siyosiy ong; huquqshunoslik huquqiy ong; demokratik jamiyat demokratik ong ko'rinishida o'rganadi.

Kurs qonuniyatlari: umumiy qonuniyatlarga tayanadi va xususiy alohidalikni hisobga oladi.

Masalan: O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishining o'ziga xos va mos bo'lishi qonuniga quyi dagilarni kiritish mumkin:

— demokratik jamiyat qurilishida milliy xususiyat ari hisobga olish qonuni;

— demokratik jamiyat qurilishining milliy-ma'naviy qadriyatari bilan bog'liqligi;

— o'ziga xos xususiyatlarni O'zbekiston iqtisodiy, ijtimoiy- siyosiy hayoti bilan aloqadorligi qonuni;

— O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishining umumbashariy qonuniyatlari.

Hozirgi zamon Milliy demokratik davlatga xos jihatlari:

— demokratik normalarga tayanadigan huquqiy davlat;

— demokratik zid bo'lmagan holda tarixiy an'analar va jamiyat hayotining muhim sohalaridagi milliy xususiyatlar saqlanadi;



- barcha fuqarolarning tengligiga asoslangan milliy siyosat olib boradi;
- uning geosiyosiy mavqei iqtisodiy, ma'naviy va harbiy texnik imkoniyatiga, salohiyatiga mos bo'ladi;
- fuqarolar ijtimoiy ongida demokratik tafakkuriga amal qiladi;
- mustaqil ichki va tashqi siyosat olib boradi;
- o'z taraqqiyoti yo'lini mustaqil tanlaydi va amalga oshiradi;
- o'z qobig'ida yashash mumkin emasligi qoidasiga tayanadi, ochiq demokratik davlat hisoblanadi.

Jahon tajribalari guvohlik berishicha, inson taraqqiyotining hozirgi bosqichida davlat qurilishining oliy, madaniy shakli demokratiyadir va u quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- xalqning erkin xohish irodasi;
- fuqarolarning teng huquqliligi;
- inson huquqlarining ustuvorligi;
- hokimiyat organlarining saylab qo'yilishi;
- ularning saylovchilarga bo'ysunishi;
- tayinlash yo'li bilan shakllanadigan davlat organlarining saylab qo'yiladigan organlar oldida hisob berishga burchliligi;
- hokimiyat tarmoqlarining taqsimlanganligi.

YUqorida ko'rsatib o'tilgan tamoyillarni tushuntirishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi dunyo miqyosida eng mukammal demokratik konstitutsiyalar safidan o'rin egallaganligi qonunlarning ustuvorligi, ularning inson manfaatlarini ko'zlab ish to'tishga qaratilganligi ilmiy dalillarga asoslanganligi muhimdir.

Demokratiya shaxs bilan jamiyatning uyg'unligini ta'minlovchi omildir. Bu uyg'unlik qancha takomillashgan bo'lsa, jamiyat taraqqiyoti shunchalik ildamlashadi. Demokratiya shaxs erkinligini ta'minlovchi va uni tartibga soluvchi omildir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov Oliy Majlis qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma majlisidagi "Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va islohot etishdir" mavzusidagi ma'ruzasida "Davlat qurilishi va boshqaruv sohasidagi eng muhim vazifa bu — qonunchilik hokimiyati bo'lmish mamlakat Parlamentining roli va ta'sirini kuchaytirish, ijro va sud tarmoqlari O'rtasida yanada mutanosib va barqaror muvozanatga erishishdan iborat".

Xulosa qilib aytganda, demokratik jamiyatda davlat idoralari emas, balki jarnoat tashkilotlari, nodavlat tashkilotlar ustuvor bo'ladi. YUqoridagilarga asoslanib, O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanini o'qitishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

1. Prezident I.A. Karimov asarlarini fundamental-ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o'rgatish.
2. O'tish davri mavzusini taraqqiy etgan mamlakatlar tarixiy tajribalaridan foydalanib keng ilmiy dalillar asosida tushuntirish va talabalarni imkon qadar darsda faol ishtirok etishlariga erishish.
3. Fan bo'yicha tayyorlanayotgan ma'ruza matnlari va ishchi dasturlarini muntazam yangilab borish va ommaviy axborot sahifalarida chop etilayotgan yangiliklar bilan boyitish.
4. Darslarni imkon qadar davlatimizda qo'lga kiritilayotgan yutuqlarga oid filmlar yordamida ilmiy dalillar asosida tushuntirish.
5. Darslarni erkin muloqot tarzida o'tish, talabalarni erkin fikrlashga o'rgatish.
6. Auditoriyani keng ko'lami islohotlar jarayoniga oid plakatlarni bilan jihozlab, mavzularni mustaqil o'zlashtirishlari uchun talabalarga imkon yaratish.

Har qanday davlat o'z jamiyatining tarixiy madaniy va axloqiy merosi negizlari asosida rivojlanadi. Bunday uyg'unlik xalqni rivojlanishida yangi bosqichlarga ko'taradi, uning istiqbol omillarini kengaytiradi. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ana shunday davlatchilik merosi insoniyat tarixi rivojiga ulkan hissa qo'shgan.

Prezident I.A. Karimov tarixchi olim va jurnalistlar bilan bo'lgan uchrashuvda — "Hozir O'zbekiston deb ataluvchi hudud, ya'ni bizning Vatanimiz nafaqat SHarq, balki umumjahon

bugun tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu-fuzalolar, olim-ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar etishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan”, deydi.

Darhaqiqat, Movarounnahr orailigida paydo bo'lgan ulkan daviatchilik madaniy merosi insoniyat tarixi ibtidosida eng dastlabki hamda qadimiy davlatchilik madaniyat sifatida ma'lum. Ayni paytda, bunday meros mustaqilligimiz sharofati bilan milliy davlatchilik to'g'risidagi ta'limotlarni o'rganish imkoniyatlarini ochib berdi.

Ma'lumki, O'zbekistonda milliy davlatchiligimiz to'g'risidagi eng qadimgi manba “Avesto”dir. U eramizdan oldingi 3 minginchi yillarda ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ilk davlatchilik to'g'risidagi ijtimoiy qarash hisoblanadi. Agar “Avesto”da ilgari surilgan g'oyalarga e'tibor beradigan bo'lsak bugungi adolatparvar demokratik jamiyat barpo etishga qaratilgan g'oyalarimiz bilan hamohang ekanligini ko'ramiz.

Davlatchilik asoslarini shakllantirish borasida “Avesto” deyarli barcha ijtimoiy masalalar, qadimgi geografik tushunchalar, etnik jamoalar, viloyat hududlari, ularning nomlari, qadimgi mamlakatlarning ro'yxati, iqsodiy va ijtimoiy munosabatlari, ijtimoiy va siyosiy tuzum asoslari, zardushtiylarning falsafasi, dunyo tarixining rivojlanishi haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Manbada, avvalo, inson erki, komilligi, ruhiy sog'lomligi masalalari ustuvor qo'yiladi. Masalan: “Men yaxshi fikr, yaxshi so'z, yaxshi ishga shon – shavkat baxsh etaman” deyiladi YA.sning 14 kitobida. Axura Mazda, insonlar o'rtasida bo'layotgan munosabatlar o'zaro sarrimiylik, hurmat, beg'arazlik, yordam va oqibatli bo'lish zarurligiga, yomon fikrlardan holi bo'lishga ishora qiladi. Kattaga hurmat va kichikka izzat, sabr-bardosh, halollik mehr-oqibat va boshqa bir qator tamoyillar borki, milliy g'oyamizning asosiy tamoyillariga uyg'un keladi.

G'oyalarning bunday tarzda qo'yilishi dunyo ana shu kuchlarning yonma —yon yashashdan iborat, degan falsafaning mohiyatini anglashga undaydi. SHu tariqa “Avesto” o'sha zamonda yashagan odamlar o'rtasidagi munosabatlarni barqarorlashtirishda davlatga bo'lgan ehtiyoj va zaruriyati o'laroq yuzaga kelgan manba bo'lib hisoblanadi.

“Avesto”da eng muhim masalalardan biri bu — huquqiy munosabatlarning nazariy jihatdan shakllanganligidir. Unda inson hayoti va odamlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar huquqqa asoslanganligi haqida ma'lumot bor. Haqiqat, yaxshi so'z va maqsad, poklik va ezgulikka intilish, suv, er, olov, xonadon va chorvani asrab avaylash axloqiy burch bo'lib sanalgan. Inson o'zining ishlari va fikrlari bilan, yaxshilik yorug'lik va baxt keltiruvchi, hayot va haqiqat beruvchi oliy tangri Axura Mazdaga yordamchi bo'lib xizmat qiladi.

Oila va jamoada berilgan so'zdan yoki qasamdan voz kechish, odamlar o'rtasida tuzilgan ahdnomani buzish katta gunoh hisoblangan: “O Spitama, shartnomani bo'zuvchi kishi butun mamlakatni buzadi, shu bilan birga Artaga tegishli barcha mulku-mollarga putur etkazadi. O Spitama, axdingni buzma...” (“YAsh”, X bob).

Tarixiy xujjatlar asosida aytish mumkinki, “Avesto”ning “YASna”, “Visprat”, “YAsh”, “Videvat” kitoblarida ilgari surilgan huquqiy ta'limotlar Rim huquqidan qadimiyroq hisoblanadi, boz ustiga, ular keyinchalik tashkil topgan davlatlar siyosiy tizimining shakllanishi manba bo'lib ham xizmat qilgan. SHu tariqa “Avesto” grek mutafakkirlari va Rim huquqshunoslari ijodiga o'zining har tomonlama mukammalligi bilan ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, inson huquqi, jismoniy va huquqiy shaxs erkinligi, inson erkinligi, erkak va ayolning tengligi masalasi, ozchilikning huquqi, voyaga etmaganlar huquqi, vijdon, e'tiqod va din erkinligi, jamoa va guruhlarning huquqi, mol-hol huquqi, oila shartnomalarning majburiylik huquqi, jinoyatning qasddan yoki ehtiyotsizlik natijasida sodir etilgan jinoyat turlari ishiab chiqilgan, o'g'rilik yoki bosqinchilik farqlari tasniflangan, himoya huquqi va sud ishlarini yuritish hamda tashkil etish kabi boshqa huquqiy tamoyillar o'z ifodasini topgan.

Bundan tashqari, “Avesto”dagi adolati qonunlar va yaxshi hokimlar to'g'risida ilgan surilgan g'oyalarga tayanib aytish mumkinki, ular umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lgan demokratik ta'limotlarning nazariy ko'rinishlari sifatida o'z ifodasini topgan.

Inson tabiati erkinlikka, ezigulikka intilib yashaydi. Bunday ehtiyojlarning barcha uchun umumiy bo'lgan qoidalari va ularning tartibotlarini tashkil etishda davlatga bo'lgan ehtiyoj vujudga keladi. Mana shunday ehtiyoj ma'rifiy va madaniy ta'lim otlarning hosilasi sifatida umuminsoniy qadriyatlarining mezonlarini shakllantirib kelgan. Ayni paytda, kishilik jamiyatining o'zaro urushlar va ixtiloflar bilan bog'liq davrlarida yangi ma'rifiy ta'lim otlar xalokkor g'oya sifatida vujudga kelgan, aynan IX va XIII asrlar O'rta Osiyo tarixida shunday murakkab davr bo'lgan.

Xalqning o'z mustaqilligi uchun kurashishi, bunda hurriyat va inson erkinligi g'oyalari millatni ma'naviy yuksalishiga olib kelgan. Bu davrda dunyoga mashhur Xoraziniy, Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, YUsof Xos Hojib, Nizomulmuik kabi faylasuf, siyosatchi tarixchi olimlar shu davrda yashab ijod etdilar. Bu davr o'z mazmuni, salmoqi jihatidan O'rta Osiyo uyg'onish davri deb tarixga kiradi. Uyg'onish davri madaniyatining o'ziga xos tomonlari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat edi:

1. Dunyoviy ma'rifatga intilish, bu yo'lda o'tmish va qo'shni mamlakatlarning madaniyati yutuqlaridan keng foydalanish, ayniqsa, tabiiy-falsafiy, diniy, tarixiy hamda ijtimoiy ilmlarni rivojlantirish.

2. Tabiatga qiziqish, tabiatshunoslik ilmlarining rivoji, ratsionalizm. aql kuchiga ishonish, asosiy e'tiborni haqiqatni topishga qaratilgan fanlarga berish, haqiqatni inson tasavvuri, ilmining asosi deb hisoblash.

3. Insonni ulug'lash, uning aqliy, tabiiy, ruhiy badiiy, ma'naviy fazilatlarini asoslash, insonparvarli, yuqori axloqiy qonun va qoidalarni namoyon etish, korril insonni tarbiyalash.

4. Universallik-qomusiylik barcha tabiat hodisalari bilan qiziqish va uning mohiyatiga intilish.

5. Davlat qurilishi va boshqaruvining nazariy negizlar adolat, axloq tamoyillarida shakllantirish, ularning huquqiy hamda amaliy asoslarini rivojlantirish.

6. Davlat rahbari va xizmatchilarining faoliyat darajalari tasniflari, mas'uliyati mezonlari tizimining nazariy negizlarini yaratish.

Shu davming yirik namoyondalaridan biri Abu Nasr Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida insoniyat jamiyatining vujudga kelishi va rivojlanishining muayyan tabiiy davlatga bo'lgan ehtiyojlarning paydo bo'lishini, unda adolat va axloqning shakllanishi qonuniyatlarini nazariy jihatdan tasnifini yaratganligi bilan mashhurdir. SHu tariqa olim davlat shakllari va unda boshqaruvning muntazam, izchil siyosiy tizimini yaratishga erishadi. Masalan, fozil shahrlarining (davlat nazarda tutilgan) tarkib topishi va unda qanday axloqiy sifatdagi shaxsning rahbar bo'lishi tasniflari bugungi demokratik jamiyat qurishning bevosita nazariy talablari bilan uyg'un keladi. "Ularning o'zlaridan saylangan rahbar yoki boshliqlar hokimi mutloq bo'lmaydi. Ular odamlar ichidan ko'tarilgan, sinalgan eng olijanob, rahbarlikka loyiq kishilar bo'ladi. SHuning uchun bunday rahbarlar o'z saylovchilarini to'la ozodlikka chiqaradilar, ularni tashqi dushmandan muhofaza qiladilar", deb davlat boshqaruvida demokratik tamoyillarni ta'minlash bilan bog'liq axloqiy qadriyatlarini tizimlashtiradi.

E'tiborli jihati shundaki, Forobiy qarashlaridagi "hokimni mutloq bo'lmasligi", "saylovchilar irodasi", "ozodlik" kabi fikrlari na faqat shu davrda, balki bugunda ham insoniyat madaniyatining — demokratiyaning bosh g'oyasi bo'lib xizmat qiladi.

Ayni paytda, Forobiy Fozil shaharning (davlatning) ziddi bo'lgan shaharlarning ijtimoiy mohiyatini ochib beradiki, bu totalitar davlat tizimiga xos keladi. Masalan, razolat va badbaxtlik shahri, obro'parastlar shahri, amalparastlar, hadimiyatparastlar shahri va h.k. turlarini ko'rsatadi. Bunday shaharlar adolatli jamiyat qurish to'g'risidagi ta'limotlarga zid ekanligi ko'rsatiladi.

Davlat va uning boshqaruviga daxldor masalalar YUsof Xos Hojib ijodida ham katta o'rin tutgan. U "Kutadg'u bilig" dostonida davlatni boshqarish amallari, qoidalari va siyosiy-axloqiy munosabatlarni jamiyatda qaror toptirishga qaratilgan qarashlari bilan e'tiborlidir. U davlat boshqaruvi va xizmatini tashkil etish turlarini hamda shu darajalarga muvofiq sifatlarini tasniflaydi, "SHohlikka davog'arlar onadan ajib bir iste'dod bilan tug'iladilar va ular darhol

yaxshi-yomonni ajratish fitratiga ega bo'ladilar. Bundaylarga Xudo idrok farosat va yumshoq bir ko'ngil ato etadi, qolaversa yaxshi ish yuritish uquvi bilan ham siylaydi", deydi olim.

Ayni paytda, ana shunday isle'dodning tasniflarini Forobiy singari 12 sifatlarini ko'rsatish bilan birga uning vazifa va majburiyatlarini belgilaydi. Bunda u jamiyat tabaqalarini 15 toifaga ajratib, har biriga ko'rsatilishi lozim bo'lgan muruvvatni adolatli davlatni mustahkamlashda va uning boshqaruvi tashkil etishda muhim omil ekanligiga e'tiborni qaratadi. Masalan, u, ziyolilar to'g'risida shunday deydi: "Haqiqiy ziyoli haqiqa: tayanchi bo'ladi. Agar ki olamda donishlar bo'lmaganda, erda rizq ro'z ummas edi. Ularning ziyosi xalq, yo'lini yorituvchi mash'aldir. Donishlarga shirin so'z bilan bahra ber, moddiy manfaatini qodirishga harakat qil".

Unga zamondosh bo'lgan qomusiy olim Ibn Sino O'rta Osiyo tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy fikrlarning buyuk namoyondasi, tibbiyot, falsafa, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy ta'limot tarixiga ulkan hissa qo'shgan mutafakkirdir. Ibn Sino falsafani nazariy va amaliy falsafa sifatida ikkiga bo'ladi. Ijtimoiy-siyosiy masalalar, davlat, inson jamiyatining tuzilishi, vazifalari, jamoani boshqarish, inson uyushmalarining faoliyati, insonning xulq-odatlari, axloq, jamoa va oiladagi axloq mezonlarini o'rganadi.

U amaliy falsafani o'z vazifasi va predmetiga qarab uch qismga bo'ladi. Axloqshunoslik — bu inson shaxsiyatining fazilatlarini, axloqiy tushunchalar, qoidalar; iqtisodiyot — oilani boshqarish, uning talablarini, vazifa va faoliyatini ta'minlab turish uchun zarur bo'lgan masalalar; siyosat — bu davlatni idora etish va boshqarish, xukumat va fuqarolarni hamda davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni ta'minlash masalalarini o'rganishi tasniflanadi. Uning "Ishorat va Tanbixot", "Risodatu tadbiri manzil", "qush tili" kabi asarlari bevosita davlat boshqaruvining adolatparvar va axloqiy asoslariga bag'ishlanadi.

Adolatli davlat boshqaruvi, uning mukammal tizimini yaratish borasida ulkan ilmiy meros qoldirgan o'rta asrlar mutafakkiri Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asari muhim mamba hisoblanadi. U amaldorlarni axloqiy fazilatlariga karab tanlash, adolat va insofni oyoq osti qiladigan kishilarni davlat ishlariga aralashtirmaslikni, davlatni boshqarishda kengash bilan olib borish, faoliyatlarni muntazam nazorat qilish, itoat ijro va sifatli to'g'risidagi fikrlari bilan ahamiyatlidir. Ayniqsa, Nizomulmulkning "Ko'pchilik bo'lib qabul qilingan tadbir eng savobli bo'ladi va shunday yo'l to'tish kerak", degan qarashlari ajdodlarimizning davlat qurilishining demokratik tartibotlariga nechog'li darajada ahamiyat berganligidan dalolat beradi.

Ma'lumki, islom dini ijtimoiy dunyoqarash sifatida keng tarqala borishi bilan uning nazariy, falsafiy, huquqiy tomonlarini ishlab chiqishga e'tibor ham tobora ortib borgan. SHu tariqa IX — XII asrlarda Movarounnahrda ilm-fan, madaniyat, islom falsafasining nazariy jihatdan yuksak darajada rivojlangan davri bo'ldi. Ulardan Imom al-Buxoriy, Imom At-Termiziy, al-Motrudiy, Muhammad Imom Razzoliy, Mahmud az-Zamaxshariy, Burhonuddin al-Marg'iloniy, Ahmad YAssaviy, Najmiddin Kubro, Abdulholiq G'ijduvoni, Bahovuddin Naqshband, Jaloliddin Rumiy kabi buyuk allomalar o'zlarining ilmiy tadqiqotlari bilan jahon madaniyatiga ulkan hissa qo'shdilar.

Diniy-ilmiy tadqiqotlarda borliq, ilohiy qudrat, inson komiligi, adolat, insof, diyonat, vijdon, adolat kabi g'oyalari inson ruhiyatini poklash orqali erkin jamiyatga chorlanadi. Bu borada J.Rumiy shunday deydi: "Inson buyuk bir mo'jiza va uning ichida hamma narsa yozilgan. Biroq, zulmat va pardalar borki, ular yozuvlarni o'qishga imkon bermaydi. Zulmat va pardalar, turli tuman mash'ulotlar insonning dunyo ishlari borasida olgan tadbirlari va ko'ngilning so'ngsiz orzularidir". Darhaqiqat, J.Rumiyning qarashlarida insonning farqi uning komilligiga asoslanadi. SHuning uchun u dunyoga irqi, dini, millati, tabaqasidan qat'iy nazar, barcha insonlariga barobar murojaat qiladi. "Menga vahdai mayini tutil, o'zgalarni ham ondu bahramand etgil, toki jam o'at jam bo'lib, faqat suratda bo'lmish tafuvtlarni bartaraf etaylik. Biz hammamiz yagona og'ochning butoqlari, yagona qo'shinning navkarlarimiz". Jaloliddinning bashariyat birligi haqida gapirishi o'sha davr uchun mislsiz jasorat edi

Ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot rivojining ma'naviy asoslarini o'rganishda O'rta Osiyoda vujudga kelgan tasavvufchilik oqimining ahamiyati ham alohida muhim o'rin tutadi. Tasavvuf

garchi islom bag'rida nish urib, Qur'on va Hadislar hikmatidan oziqlangan, ko'p hollarda shariat ahkomiga suvangan bo'lsa-da, lekin u rasmiy diniy aqidaparastlik va mutaasiblikka hamda hokim tabaqalarning ayshuishratlarga g'arq tumush tarzi, talonchilik va manfaatparastlikka zid o'laroq mehnatkash xalq noroziligini ifodalab keladi. Ushbu ta'limotning el orasida yo'yilib, fikriy yangilanishlarga qanoat bergani, xaq va haqiqatga tashna ziyolilar yuragini band etganini sababidir.

Tasavvuf ta'limoti asosida adolat, haqiqat, to'g'rilik, mehr-shafqat, insof, imon, e'tiqod, ilm, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi umuminsoniy g'oyalarni targ'ibot qiluvchi muruvvatga asoslangan bir qancha diniy siyosiy oqimlar paydo bo'ldi. Ular jamiyatning axloqsiz unsurlariga g'oyaviy kuch sifatida qarshi qo'yiladi. Bu borada, A.YAssaviy shunday deydi: "SHayx uldurkim, niyoz olsa, mustaqihlarga, g'arib, bechoralarga bergaylar. Agar olib o'zi esa, murdor et emishdek bo'lg'ay. Agar to'n qilib kiya, ul to'n to'ng'o'zcha Hak ta'olo namoz, ro'zasini qabul qilmag'ay va agar olg'an niyozidin non qilib esa, haq ta'olo oni do'zaxda turluk azobga giriftor qilgay. Va agar ondog' shayxga har kishi e'tiqod qilsa kofir bo'lg'ay".

YAssaviyning hikmatlarida rahbar shaxslarning sifatleri to'g'risidagi talqinlar deyarli ijodining asosini tashkil etadi. Chunki, shu davrda xalq, orasida katta obro'-e'tiborga ega bo'lgan so'fiy shayxlar siyosatga bevosita aralashib kelganlar. Bu borada Amir Qo'lolning o'g'li Amir Umarning qarashlari (1406 y. o'lgan) siyosatning nazariy va amaliy mohiyatini ochishda e'tiborlidir. Unda siyosatga shunday ay nisbat beriladi: "Bilgilkim siyosat — tutib turish va tartibga solishdir..., yomon kishilarni qo'rqinch va itiroqda tutmoq, yaxshilarni taqdiramoq kerak. Agar siyosat bo'lmasa, davlatning muhim ishlari amalga oshmaydi: agar tartibot jazo qonunlari bo'lmasa davlat ishlari ham o'nglanmaydi, chunki hukmdorning, jamoaning ko'rtki, davlat va dinning rivoji siyosatdir". YA'ni din orqali siyosatda umuminsoniy qadriyatlar ifoda etilishi va bunday siyosat esa bevosita davlat qonunlari orqali amalda o'z tasdiqini topishiga erishmoq lozim deb hisoblangan.

XIII—XIV asrlarda O'rta Osiyoni mug'ullar tomonidan istilo qilinishi iqtisodiy va ma'naviy hayotga katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatda jabr-zulm va zo'ravonlik kuchayadi, mehnatkash xalq, qattiq eziladi. Juda ko'p madaniy boyliklar, ilm maskanlari, Madrasa va kutubxonalar yo'q qilinadi, san'at va ilm-fan vakillari: olimlar, shoirlar va yozuvchilar, munajjimlar, me'morlar va musavvirler o'ldiriladi, omon qolganlari SHimoliy Hindistonga, g'arbiy Eron va Xuroson viloyatlariga qochib jon saqlab qoladilar.

Aynan mana shunday murakkab davrda Amir Temurning (1370 yil) siyosiy sahnaga kelishi hamda mustaqil davlat barpo etishi O'rta Osiyo xalqlarining mo'g'ul istilosidan, ichki o'zaro nizolardan qutulishiga olib keladi. Mamlakatda o'rnatilgan barqarorlik markaziy davlatning tez orada mustahkamlanishiga, siyosiy kuchlar tarqoqligini bartaraf etishga, ayni paytda, turli islohotlarning amalga oshirilishiga, ilm — fan va madaniyatning rivojlanishiga turki bo'ldi.

Bu davrda milliy davlatchilik to'g'risidagi qarashlarning rivojlanishida Amir Temurning xizmatlari katta bo'ldi. Uning tuzuklarida davlat tizimi, uni idora qilish uslublari va vositalari, undagi turli lavozim, vazifalar darajasi, tabaqalarning toifalanishi, harbiy qo'shinlarning tashkil etilishi, jang olib borish mahoratlari, davlat xizmatchilari rag'batini tashkil etish omillari, adolatli soliq turlarining joriy etilishi, mamlakatni obodonlashtirish tadbirlari milliy davlatchilikning yuksak madaniy va huquqiy darajada shakllantirilganligidan dalolat beradi. Bunday siyosatning asos — mohiyati adolatli davlat, insonparvar jamiyat negizlarini qaror toptirishga xizmat qiladi.

Bu borada Ibn Arab SHoh shunday deydi: "Temur tang'asining naqshi "rosti rasti" bo'lib, bu "hakgo'y bo'lsang najot topasan", demakdir. Uning otlaridagi tang'a tangayu tillolariga zarb beriladigan belgi ham mana shunday uch xalqadan iborat edi. Ko'pincha uning majlisida uyatsiz so'zlar, qon to'kish, asir olish, nahbu g'orat qilish va haram haqorat gaplar bo'lmasdi. Temur qo'rqmas, shijoatli, botir kishilarni itoat qildiruvchan bo'lib, jasoratli kishilarni, dovyurak va mardlarni yoqtirar edi. U ular yordamida dahshatli joylar kulfallarini fath etib, odamlar sherlarini o'lja qilardi, ular zarbalari bilan baland tog'lar cho'qqilarini vayron qilardi. U bexato (nishonga uruvchi) fikrli, ajoyib farosatli, mislsiz (darajada) baxtli, ulug'vorligi

(o'ziga) muvofiq, qat'iy azm bilan so'zlovchi. (boshiga) kulfat tushganda ham hakgo'y (kishi) edi".

Amir Temur ana shunday sifatleri sohibi sifatida davlat boshqaruvining demokratik asoslarini yaratishga erishadi. U mamlakat ishlarini doimo, kengash, mashvarad maslahat, xushyorligi, mulohazakorlik ehtiyoqkorlik bilan amalga oshirganligini ta'kidlaydi. Ayni paytda, mamlakat ishlarini Kengash asosida olib borish bu aslida fuqarolarning rizoligi va ixtiyori demak. Undan chiqdi bunday yondashuv bevosita davlat boshqaruvi taqsimotining ilk ko'rinishlari to'g'risidagi qarashlarning rivojlanishiga zamin yaratgan.

Sohibqiron har bir ishda siyosati adolat bilan amalga oshirishga va bunda turli vositalar asosida uning izchilligini ta'minlashga erishadi. YA'ni adolatga qaratilgan maqsadlarni adolati vositalar bilan uyg'unlashtirish asosida davlat boshqaruvining texnologik ta'limotlarini amaliy jihatdan boyitadiki, saltanatda adolati ta'minlovchi muruvvatlar yuzaga keladi. Masalan, u, nafaqat davlat xizmatchilarining qanday sifatga ega bo'lishini, balki shunday sifatlarini qanday qilib davlat boshqaruviga kelishini ta'minlashning choralarini ishlab chiqadi. Bu borada u shunday deydi: "Agar har narsani va har kimni o'z martabasida saqlay olmasang, saltanatingga bundan ko'p halal va ziyon egray. Demak har kimning qadr-qimmatini, tutgan mavqei va hap narsaning o'lchovini belgilab olishing va shunga muvofiq ish yuritishing kerak". SHu tariqa, u, masalaning nazariy asoslarini oydinlashtirish bilan uning amaliy tadbig'ini ham o'z "Tuzuk"larida amalga oshiradi. Jumladan,: "Kimning aqli va shijoatini sinov tarzusida tortib ko'rib, boshqalamnikidan ortiqroqligini bilsam, uni tarbiyatimga olib, amirlik darajasiga ko'tar edim. So'ngra ko'rsatgan xizmatlariga yarasha martabasini oshirib borardim", deydi.

Amir Temur o'z davridagi xizmatlarining eng asosiysi va eng buyugi — bu uning davlat arbobi sifatida adolat g'oyalari asoslangan milliy davlatchilik ta'limotlarining huquqiy negizlarini yaratganligi hamda uni tadbig' etib berganligidir. SHu tariqa u o'z siyosiy faoliyatini shunday xulosalaydi: har mamlakatning yaxshi kishilariga men ham yaxshilik qildim, nafsi yomonlar, bo'zuqlar va xloqsiz odamlarni mamlakatimdan quvib chiqardim. Pastkas va razil odamlarga o'zlariga loyiq ishlar topshirdim, xayda xadlaridan oshishlariga yo'l qo'ymadim. Ulutlarini va sharaf — e'tiboli kishilarni hurmatlab, martabalarini oshirdim. Har mamlakatta adolat eshigini ochdim, zulm sitam yo'lini to'sdim".

SHu davrning yirik klassik namoyondalardan biri — Alisher Navoiydir. U nazariyotchi va amaliyotchi sifatida davlat siyosatining adolati asoslari va uning ma'naviy mezonlarini rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. Ayniqsa, adolatsizlik va zulm davlatni tanazzulga, jamiyatni jaholatga olib kelishi to'g'risidagi qarashlari o'z ifodasini topadi: "...davlat ishi bilan mashg'ul bo'lgan amaldorlik chog'larimda ko'ngil mulkini turli odatlarning hujumi bulg'aladi. Goh amirlik o'rnida o'tirdim va hukumat mahkamasida xalqning arzodini surdim va goh podshoh yonida vazirlik qildim va menga umidvor nazar bilan qarab turgan elga muruvvat ko'rsatdim", — deydi.

A.Navoiy adolat to'g'risidagi qarashlarida inson ruhiyati bilan borliq ijtimoiy illatlarning mohiyatini izlaydi. Jamiyatda yovuzlikning kelib chiqish sabablarini tahlil etadi. Adolati jamiyatga erishishda nafaqat podshohning odilligi, balki fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarning adolati, ma'nan sog'lom bo'lishi lozimligiga e'tiborni qaratadi: "Olamda bo'lmish har nav odam bilan ko'rishdim; katta- kichikning fe'lu atvorini o'rgandim: yaxshi-yomonning xislatlarini tajribadan o'tkazdim; yaxshilik va yomonliklarning sharbatini ichib, zahni totib ko'rdim. Baxl va pastkaslarning zaxmini, sahovatli kishilarning malhamini ko'nglim darhol sezadigan bo'lib qoldi", — deydi.

Ayni paytda, inson ruhiyati bilan bog'liq illatlar mohiyatiga shunday nisbat beradi: "Yaxshilikka mukofot — qo'polliq odob bilan qilingan xushmuomala evaziga kekkeyish, takabburlardan o'z-gacha munosabat ko'rmaysiz. Birovga bir xizmat qilsang, undan o'n zab eyishga tayyor turmoq kerak: kimgaki bir tavoze' ko'rsatsang, ming qo'polliq va dilsiyohlikka hozir bo'lib turmog'ing lozim". SHu tariqa, u, "Mahlub ul qulub" asarida har xil odamlarning fe'l-atvori va ahvoli, yaxshi fe'l hosiyyati va yomon xislat kasofati haqidagi qarashlari asosida

jamiyat ijtimoiy munosabatlarining yaxlit nazariy tizimi, fuqaro-jamiyat-davlat o'rtasidagi axloqiy majburiyatlarni umumlashtirishga erishadi.

Adolat g'oyasi Navoiyning juda ko'p asarlarida turli tarzda ifodalangan. "Hayrat ul-abror", "Saddi Iskandariy", "Farhod va SHirin", "Sabb'ai sayyora" dostonlarining, "Mahbub ul-qulub" asarining bosh g'oyasi adolatdir. Yana shuni aytish kerakki, Navoiyda insondagi juda ko'p ijobiy hislatlar, chunkinchi sadoqat, vaf, hayo, sahovat kabilar ham adolat bilan bog'lab tushuntiriladi. Zero, kishida adolat tuyg'usi bo'lmasa, unda boshqa sifatlar ham bo'lmaydi deb qaraydi.

A.Navoiy zamon doshlari — Arastu, A flotun, Forobiy, Ibn Sino, Nasriddin Tusiyning ilmiy merosi, asarlarini qunt bilan o'rgangan, ularning ilmiy va insonparvarlik g'oyalardan xabardor bo'lib, o'zi ham shu yo'nalishda katta meros qoldirgan ijodkorlar Zahiriddin Muhammad Bobur, Husayn Voiz Koshfiy va Jaloliddin Davoniylardir. Ular davlatshunoslik, axloqshunoslik adabiyot, ta'lim-tarbiya, nasr va nazm sohalarida ijod qilgan yirik olimlardir. Davlat boshqaruvi va uning siyosati bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-axloqiy masalalarni Boburning "Boburnoma", Koshfiyning "Axloqi Muhsiniy" asarlarida atroflicha bayon qiladi.

Ularda jamiyatning paydo bo'lishi, ijtimoiy tabaqalar, davlat va uni boshqarish yo'llari, adolati va adolatsiz podshohlar, ularning fuqarolarga munosabati, axloq va ta'lim-tarbiya masalalarini tahlil etgan. Davlat boshqaruviga oid ijtimoiy qarashlari o'z navbatida o'tmish davlatchilik madaniy merosimiz bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlarimizni yanada boyitishga xizmat qilgan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek XIV—XV asrdagi ijtimoiy va madaniy yuksalish o'z mazmun mohiyati bilan IX—XII asrlardagi O'rta Osiyodagi Uyg'onish davrining uzviy davomi edi. Bunday madaniy meroslarning monandlikka intilishi, uning davriy uyg'unlashuvi xalqlar hayotida taraqqiyot hamda yuksalishiga poydevor bo'lgan nazariy ta'limotlarning rivojlanish bosqichlarini kuzatamiz.

Ammo, O'zbekiston xalqlari davlatchilik tarixi o'z taraqqiyotida bir xilda rivojlangan emas XVI—XIX asrlar O'rta Osiyo hayotida murakkab va keskin burilish davri bo'ldi. Uning murakkabligi, avvalo Amir Temur imperiyasining parchalanishi hamda vorislar o'rtasidagi nizolar bilan bog'lanadi. Doimiy ittiloflar maydoniga aylanib qolgan Movaraunnahr SHayboniyxon lashkarlari tomonidan bosib olinadi. Davlatda egasizlik boshbodoqlik xukm suradi.

Mana shunday sharoitda haqiqiy ilm o'rni diniy aqidaviy qarashlar egallaydi, natijada aniqsa tabiiy fanlar quvg'unga uchraydi, ayniqsa, matematika va astronomiya orqada qoladi. Buning oqibatida ilm-fan rivojining darajasi keskin pasayib ketadi. Ayni paytda, bu davr oldingi mutafakkirlarning ilg'or g'oyalarining o'zaro faol ta'siri zaiflashuvi bilan xarakterlanadi. Din bevosita davlat siyosatining asosiga, hokimiyat uning rahnomalari qo'lida manfaatlarini niqoblovchi mafkuraga aylanadi. Natijada jamiyatda diniy tazyiq kuchayadi. Din peshvolari davlat siyosatiga bevosita aralashish oqibatida bir yoqlama mafkuraviy zug'um ortib boradi. Har qanday ijodiy hur fikr ta'qibga olina di.

SHunga qaramay O'rta Osiyoda ijtimoiy fikr, falsafa adabiyot, tarix, musiqa fanlari, mehrorchilik, tasviriy san'at rivojlandi, qator Madrasa va machitlar qurildi. Jumladan, Ibn Muhammad YUSUF Al-Qorabog'iy, Muhammad SHarif, Mashrab va Sufi Olloyor, Nodira, Uvaysiy, Dilshod, Komil Xorazmiy, Avaz O'tar, Bedil, Fuzuliy, Ahmad Donish, Muqimiy, Ogahiy, Furqat, Muqimiy, Mulla Olim Mahmud Xoji ijodiyotida ilg'or ijtimoiy g'oyalar yaratiladi.

SHu davr SHarq mutafakkirlarining ijtimoiy qarashlarini chuqur o'rgangan olim I.Mo'minov ayniqsa, Bedilning falsafiy ijodiga katta baho beradi. Bedil dastlab islom falsafasi bo'lgan kalomni, so'ngra mashhur so'fiylarning asarlarni hamda hind falsafasini o'rgangaligini qayd etadi. Uning g'oyalari ma'rifatli bo'lishga, bilim va hunarni o'rganishga, ayni paytda, yovuzlikka murosasiz bo'lishga davlat qilganligini ko'rsatadi. E'tirofli jihat: shundaki, shu davr ijodkorlari qaysi sohada ijod qilmasin, shaxs va ziyoliylikka xos qudratda ularning asosiy diqqati xalq va uning turmush dardi bilan bevosita bog'liq bo'lganligiga amin bo'lamiz. Mullo Olim

Mahmud Hojining "Tarixi Turkiston" asarida shunday deydi. "Turkiston xonlari vaqtidagi musulmoniyalar nihoyat darajada ahvoli olamidanda xabarsiz bo'ldilar. Zolim hakamlarga rost va to'g'ri so'zni aytadurg'onlar qolmay, zolimlar uchun besh-o'n tillo badaliga ertadan kechgacha xushomad so'zlar aytib, alar qanday so'z aytmasa ma'qul deyadurg'onlar bo'lg'on edilar.

Ilmu-maorifda bo'lsa Turkistonda o'tgan Ibn Sino, Forobiy Ulug'bek Aliqushchi o'rni o'lg'unga olim, faylasufi zamon deganlarimiz izzatu nafs va riyokorlikga tabdil bo'lub, jahl balosiga'na muhtalo bo'lg'on edilar. Hakam va ulutlarimiz fuqarolardan o'z joyiga va masrafiga sarf qilmay, o'z xohishlari va yo'sha'lariga harj va sarf qilar edi. Hukumat ishida mutlaqo muantazam qoida va qonun yo'q edi, fuqarolar ularning o'z molidek hisob qilinur edi".

Mavjud manbalarni o'rganish milliy davlatchilik tariximizda tanazzulga tortgan siyosiy kurashlar va o'zaro itiloflarning sabablarini o'rganish bilan birga, undan saboqlar chiqarish imkoniyatlarini beradi.

Ma'lumki, Movarounnahr davlatchilik tarixi va uning taraqqiyotini islom falsafasidan ayri holda ko'ra olmavmiz. Ajdodlarimiz dunyoviy va diniy ilmlarni bevosita uyg'un tarzda olib borishgan. U xoh diniy xoh dunyoviy yo'nalishda bo'lmasin, uning asosida inson — jamiyat — davlat muammosi yotadi. Faqat bir yoqlama mafkuraga asoslangan mustamlakachilik bosqichi so'ngra, sobiq shero hukmron siyosati xalqni madaniy merosidan mahrum etishga harakat qildi. Oqibatda ma'naviy meros ta'qib ostiga olinib milliy ma'naviy merosni o'rganishda bo'shliq paydo qilindi. Fan va ta'limot o'z zaminidan uzilgan aqidalar va mavhum g'oyalar ta'siriga tushib qoldi.

Anno, tarixning ana shunday murakkab davrida ham O'zbekistonda hurriyat bilan yo'g'rilgan ijtimoiy-siyosiy qarashlar to'xtagan emas. Aksincha, bunday istak har bir vatandoshimiz qalbida milliy istiqlol g'oyasining vujudga kelishiga turki bo'ldi, O'rta Osiyo xalqlarining mustamlakachilik siyosatiga qarshi milliy ozodlik kurashi va uning asosiy bosqichlarini shartli ravishda uch bosqichga bo'lib o'rganish mumkin.

a) Birinchi bosqich: 1860—1904 yillar;

b) ikkinchi bosqich: 1904—1918 yillar;

v) uchinchi bosqich: 1918—1991 yillar.

Birinchi bosqichda mustamlakachilik asoratiga tushishning ijtimoiy-siyosiy sabablarini ochib beruvchi manbalarni o'rganish orqali shu davrdagi milliy tarqoqlik davlat boshqaruvi ishlarida marifatsizlik mahalliy amaldorlarning nafs va riyokorlik botqog'iga botishiga e'tibor qaratilishi muhim.

Ikkinchi bosqich — Turkiston milliy davlat mustaqilligi uchun kurashda ozodlik harakatlarning o'ziga xos xususiyatlari hamda shart-sharoitlarini siyosiy jihatdan tahliliga e'tibor qaratish. Bunda jadidlarning mustaqillik uchun g'oyalarning paydo bo'lish jarayonlari nazarda tutiladi.

Millat ozod bo'lib, o'zining mustaqil davlatini o'rnatmaguncha, ijtimoiy adolatni tiklab bo'lmaydi. Bu Behbudiy bergan birinchi xulosalardan edi, ayni paytda, bunday g'oya milliy istiqlolchilik harakatining asosini tashkil etgan.

Ayni paytda, jadidchilar asosiy e'tiborini jamiyatda ma'naviyatni rivojlantirishga qaratadilar. Ular yangi usuldagi maktablarni tashkil etish, gazetalar chiqarish, darslik va o'quv qo'llanmalarini nashr ettirish, g'arbning yangi madaniyat va texnologiya uslublarini joriy etish zaruriyatini hamda uni Turkistonda targ'ib etish orqali milliy — dunyoviy ta'limni yuzaga keltirish, ma'naviy hayotni yangilash va boyitish orqali milliy o'zlikni anglashni yuksaltirishga zamin yaratishga intilganlar.

SHu tariqa, Turkistonda mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurash va uning ijtimoiy-siyosiy asoslarini yorituvchi manbalar Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li, Behbudiy, Firat. Avloniy, Huvaydo va boshqa milliy istiqlol qahramonlari asarlarida atroflicha yoritilgan.

E'tiborli jihati shundaki, o'z davrida jadidlar milliy-madaniy muxtoriyat qurilishi tamoyillarini ishlab chiqqan va bunda o'lkani rivojlantirishning amaliy dasturlari mavjud bo'lgan. Turkistonda davlatchilik shakli va uni boshqarish vakolatlari, barcha sohalar bo'yicha qonunlarni joriy etish, sud organlarini tashkil qilish, davlat tuzilmalarini yaratish kabi



masalarga e'tibor berilgan. Ammo, shu davr siyosiy sharoiti hamda erli xalqning tushunchasida Turkistonda mustaqil demokratik jamiyat qurish to'g'risidagi qarashlari bir muncha cheklanganligini ko'ramiz. Behbudiyning "Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasi" dasturida to'la mustaqil demokratik jamiyat to'g'risida emas, davlatning avtonomiya shakli nazarda tutiladi.

1917 yildagi Umumturkiston musulmonlarining qurultoyida ham davlatchilik qurilishi to'g'risidagi qarashlar demokratik yoki federativ shakllari to'g'risida bahs olib boriladi. Ammo, ularning demokratiya va federatsiya to'g'risidagi qarashlari ham aslida konstitutsion monarxiya tuzumidan tashqariga chiqqan emas. Turkistonda shu tariqa, milliy davlatchilik g'oyalarning tiklanishiga bo'lgan urinishlar va shu yo'ldagi siyosiy harakatlarining ma'naviyati to'g'risida B.D. Stqoraevning "O'zbekistonda yangi davlatchilik ma'rifati" nomli maqolasidan tanishish mumkin bo'ladi.

Uchinchi bosqich — millatning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini tinch yo'l bilan amalga oshirish mumkin emasligini tushunib etgan mahalliy xalq, vakillari 1917 yil 26-28 noyabr kunlari Qo'qonda o'lka umummusulmonlarining favqulotda qurultoyga to'planib, "Qo'qon muxtoriyati"ni tashkil etilganligini e'lon qildilar. Lekin 1918 yil 23 yanvarda Turkiston sovetlarining IV o'lka qurultoyi Qo'qon Muxtoriyatining Muvaqqat hukumati va uning a'zolarini qonundan tashqari, deb e'lon qilishdi va qurol-yarog'i deyarli bo'lmagan muxtoriyatchilar joylashgan eski shahar to'plardan o'qqa tutilib 18 ming odamning qurbon bo'lishiga sabab bo'ladi.

Aynan shu davr voqea-hodisalarni bayoni, tafsilotlari hamda muvaffaqiyatsizlikning sabablariga M.Chuqay "Istiqlol jallodlari" asarida quyidagicha ta'rif beradi: "Birinchidan, ob'ektiv omillar: ...Biz kurashga o'zimiz tanlagan fursatda emas, Rusiya inqilobi jarayonini keltirib chiqqan vaziyat ijoboti bilan kirishdik. Ikkinchidan, sub'ektiv, ya'ni o'zimizdan bo'lgan omillar: milliy manfaatlar yo'lida kurashish lozimligini bilganlari holda Turkistonliklar o'zaro kuchli birlik ko'ra olmadilar va bunga ulgurmadilar".

Turkiston Muxtoriyatining tashkil topishi, uning siyosiy faoliyati, so'ngra inqirozi masalalari S.A'zamxo'jaevning "Turkiston Muxtoriyati" nomli asarida tarixiy-ilmiiy ma'lumotlar asosida ifodalangan.

Milliy istiqlol uchun kurash yo'llari va shu yo'ldagi maqsad mushtaraklikda bo'lgan emas. Mustaqillikka erishish kurashlari afsuski, turlicha anglagan va yondashilgan. Ammo, milliy ozodlik harakatining mag'lubiyati yoxud ko'plab ziyoli namoyondalarning qatag'on qilinishi, shahid bo'lishi bilan millatning hurriyatga bo'lgan intilishini bir soniya ham to'xtagan emas. O'zbekiston ziyolilarining mustaqillik uchun olib borgan kurashi 30-40 yillarda ham so'ngra 50-60 yillarda ham turli siyosiy ko'rimishlarda davom etib boradi.

XX asming 80 yillariga kelib kommunistik mafkura zug'umi ostida qatag'onlik siyosati yangi pallasiga kirdi. Markaz xodimlari tomonidan uyushtirilgan "o'zbeklar ishi", "paxta ishi" bilan 11 mingdan ortiq O'zbekistonlik rahbarlar va oddiy fuqarolar ta'qib ostiga olindi, jazolandi. Xalqning turmushi nihoyatda og'irlashib bordi.

Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning ziddiyatlashuvi va hodisalarning keskinlashuvi "qayta qurish" yillarida ham o'z ta'sir ko'lamini kengaytirib keldi. Natijada respublikada jamiyat yaxlitligini parchalaydigan hamda vujudga kelgan egasizlik holati fuqarolar o'rtasida parokandalik muhitini yuzaga keltirdi, millatlararo ziddiyatlar, millatlar to'qnashuvlar, ayniqsa, davlat boshqaruvida qonunsizlik parokandalik holatlari vujudga keladi.

Mana shunday qat'iy vaziyatda, 1989 yil 23 iyunda I.A.Karimov O'zbekistonning birinchi rahbari sifatida o'z faoliyatini boshladi. U qisqa vaqt ichida O'zbekistonda vujudga kelgan ijtimoiy tanglik sharoitini barqarorlashtirishga qaratilgan tubdan yangi milliy siyosatni shakllantirishga erishadi. Natijada, siyosiy beqarorlik fuqarolar va millatlararo nizolar oldi olindi, davlat boshqaruvi mustahkamlandi, O'zbekistonda mustaqil davlat tashkil etishining barcha siyosiy va huquqiy zaminlari yaratildi.

1991 yil 31 avgust O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi e'lon qilindi. Ammo, mustamlakachilik siyosatidan so'ngra o'lgan siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy me'ros bilan

10'QUV 242  
17 2892  
Axborot Resurs Markazi

mustaqillikni mustahkamlash va uning istiqbol yo'lini aniqlash, aslida undanda murakkab vazifa edi. Bunday vazifa mamlakatda demokratik huquqiy davlat qurish, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish, uning jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlash bo'yicha qat'iy va izchil siyosat yurgizishdan iborat bo'ldi. O'zbekiston yalpi yangilanishlarning nazariy jarayoni ikki o'zaro uzviy bog'langan yo'nalishlarda amalga oshirildi.

Birinchi yo'nalish, mamlakatning ichki dunyosida, ya'ni iqtisodiyot, ma'naviyat, siyosat, tumush tarzida, xalq xarakteri va mentalitetida rejayiy asoslarda amalga oshirilayotgan yangilanishlar majmuidan iborat.

Ikkinchi yo'nalish xalqaro ijtimoiy muhit manzarasini takomillashtirish, ya'ni qarama qarshi kuchlar o'rtasidagi ziddiyatlarni barqarorlashtirish, kolliziya muhitida murosas hamkorlik munosabatlari, tinchlik madaniyatiga o'tish, millatlararo, davlatlararo, konfessiyalararo tolerantlik munosabatlarni chuqurlashtirish, insoniyatga umumiy xavf tug'diruvchi terrorizm, narkobiznes, ekstremizmga qarshi xalqaro tashkilot tuzilmalariga asos solish va boshqa faoliyatlar majmuidan tashkil topadi.

## II-MAVZU: «O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT BARPO ETISHDA O'TISH DAVRINING ZARURLIGI. MUSTAQILLIK VA DEMOKRATIK JAMIYAT QURILISHINING «O'ZBEK MODEL»-2 soat.

### Reja:

1. O'tish davri tushunchasi mohiyati va zaruriyati. O'tish davrining "model"lar va ularning o'ziga xos xususiyatlari.

2. Mustaqillik va demokratik jamiyatga o'tishning o'zaro mushtarakligi. O'zbekistonda demokratik jamiyatga o'tishning o'ziga xos xususiyatlari.

3. Mustaqillik va demokratik jamiyat qurilishining «O'zbek modeli»

O'tish jarayoni haqida juda ko'plab ilmiy asarlar yaratilgan. Ammo "o'tish davri" mustaqil mavzu sifatida ilmiy adabiyotlarda juda kam o'rganilgan. Buning asosiy sababi, uning aniq mezonini va boshlanishi bilan "poyoni" (oxirgi muhlati) masalasini aniq belgilash murakkabligicha qolmoqda. Bundan tashqari, ba'zi olimlar, jamiyat taraqqiyoti to'fqaroviy jamiyat darajasiga ko'tarilguncha faqat "o'tish davri" davom etadi, u uzluksiz jarayon, — deb hisoblasa, yana bir xil olimlar "o'tish davri"ning muhlati va mohiyatidan ko'ra, undagi jarayonlarni o'rganish muhimroq ekanligini ta'kidlaydilar. Xullas, uni o'rganish o'sib kelayotgan talab darajasidan orqada qolmoqda. Chunki, uning boshlanishi va oxirgi mezonlarini aniqlamasdan turib u sodir bo'ladigan, yoxud sodir bo'lishi mumkin bo'lgan, jarayonlar haqida aniq konseptual g'oyalarni ishlab chiqish ham qiyin bo'ladi. Bu jarayonlar nega turli mamlakatlarda turlicha sodir bo'ladi va ularning muhlati nega har xil davom etadi — degan savollarga javobni faqat ana shu o'tish davrining o'zini mustaqil Mavzu sifatida o'rganish orqaligina javob berish mumkin bo'ladi.

Mazkur masalani o'rganish bugun o'z boshida murakkab "o'tish davri"ni kechirayotgan O'zbekiston uchun ham nazariy va amaliy ahamiyatga egadir. Uni o'rganish biz qarayotgan jamiyatning darajalarini belgilash va unga etib borishda sodir bo'ladigan jarayonlar to'g'risida aniq tasavvurlar berish imkonini beradi.

1. O'tish davri tushunchasi mohiyati va zaruriyati.

O'tish davri barcha davlatlar taraqqiyoti jarayonida sodir bo'ladigan oraliq hisoblanadi. U har qanday davlat uchun umumiy qonuniyatdir. Chunki, davlatlar vujudga kelishi bilan bir vaqtinicha yuksak taraqqiyot darajasiga birdan ko'tarila olmaydi, balki u avvalo shakllanadi va ma'lum taraqqiyot bosqichlarini o'z boshidan o'tkazdilar.

Har bir davlatning vujudga kelish, rivojlanish va yuksak darajasiga ko'tarilish jarayonlari olimlar tomonidan o'rganilgan va bugungi kunda o'rganish davom etmoqda.

Ammo, o'tish davri o'zi nima, nima uchun o'tish davri deb aytiladi? — degan savollarga javob ilmiy adabiyotlarimizda juda kam o'rganilgan. Ammo, uni mukammal tarzda o'rganmasdan turib mamlakatlar rivojlanish xususiyatlarini aniq tasavvur qilib bo'lmaydi. Zero, bugun yuksak rivojlangan yoki kam taraqqiy qilgan yoxud endigina rivojlanish tomon qadam tashlayotgan mamlakatlarning bir iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy tuzumdan ikkinchisiga o'tish jarayoni aynan ikkinchisida takrorlanmaydi. To'g'ri, o'tish davri uchun barcha mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlar ham mavjud. Ammo, ularni amalga oshirish ham davlatlar va unda yashayotgan xalqning mintaliteti bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Xo'sh, nega shunday? o'tish jarayonida tayyor andozalardan "model"dan foydalanib pirovard maqsadni amalga oshirishga kirishilga bo'lmaydimi?

Xuddi ana shu savolga javob berish uchun ham o'tish davri haqidagi qarashlarni o'zida uyg'unlashtirgan kontseptsiyani ishlab chiqishga ehtiyoj oshib bormoqda.

Ayniqsa, bu ehtiyoj mamlakatlar taraqqiyotida sodir bo'layotgan turli-tumanlik, muammolarning yuzaga kelishi va ularni hal qilish omillarini ishlab chiqish jarayonida yana ham kuchayib bormoqda.

Aslida o'tish davri nazariyasi deganda nimanı tushunmoq kerak?

O'tish davri nazariyasi deganda mamlakatlarning ma'lum bir ijtimoiy taraqqiyotdan ikkinchisiga o'tish uchun zarur bo'lgan oraliq bosqich, uni o'rganish, tadqiq qilish natijasida shakllangan ilmiy asoslangan qarashlar tizimi tushuniladi.

Albatta, berilayotgan bu ta'rif oxirgi haqiqat sifatida qabul qilinmasligi mumkin. Chunki, o'tish davriga bo'lgan qarashlar rivojlanib borgan sari, boshqa olimlar tomonidan to'lg'azilib boriladi. Biz tom onimizdan berilayotgan ta'rif ana shu yo'nalishdagi urinishlarimizning natijasi sifatida shakllandi.

O'tish davriga munosabat bildirgan Germaniyalik olim Leonid Levitin shunday yozadi: "Odatda, "o'tish davri" so'zlarini aynan tushunib, uni o'tmish va kelajak oraliq'idagi bugun, deb o'ylaydilar. "O'tish davri"ning paydo bo'lishida, bunday qarashlarga ko'ra, o'tmish — sabab, kelajak esa — maqsad tarzida voqea bo'ladi".

Bu keltirilgan fikrdan ko'rinib turibdiki, "o'tish davri", "oraliq" ma'nosini anglatmoqda. Albatta bunday qarash ham o'tish davri nazariyasining ishlab chiqilishida muhim asos bo'lishi mumkin.

O'tish davri haqida turli fikrlar mavjud, ularni aniq tizimga solingan nazariyasini shakllantirish borasida urinishlar davom etmoqda. Aslida o'tish davri keng va o'ta murakkab tushuncha bo'lib, davlatlar taraqqiyotining bir bosqichdan ikkinchi bosqichiga kirib borishi bilan bog'liq jarayon hisoblanadi. Uning kengligi shundaki, o'tish davri boshlanishida yuzaga keladigan muammolarning ko'lami nihoyatda keng bo'lib, uni ularni echishda aniq andozalarni ya'ni bir mamlakat tajribalarini ikkinchisida aynan qo'llab bo'lmasligi, aynan har bir mamlakat uchun xos bo'lgan modelni ishlab chiqish va uni realikka aylantira bilishda namoyon bo'ladi. Uning murakkabligi shundaki, har bir mamlakatning mavjud ichki imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun zarur bo'lgan vaziyatning (barqarorlikning yuzaga kelishi) yuzaga kelishi va ommani uyushqoqlik bilan maqsadga yo'naltirilgan vazifalarni izchillik bilan hal qilishga qodir bo'lgan uyushgan intellektual bo'lgan ehtiyojning har doim ham yuzaga kelmasligi bilan bog'liq bo'ladi.

Xuddi ana shu jarayon mamlakatlar yuzaga kelgan dastlabki paytidan ularning keyingi bosqichiga o'tishi uchun zarur bo'lgan umumiy qonuniyat hisoblanadi. Chunki, o'tish davri davlatchilik paydo bo'lib uning taraqqiyotning quldorlik, feodalizm va kapitalizm kabi ijtimoiy — iqtisodiy taraqqiyotga o'tishi uchun ham zarur bo'ladi.

To'g'ri, yuqorida keltirilgan taraqqiyotning bosqichlari keyingisi oldingisi ichidan o'sib chiqqan. Ammo, ana shu "o'sib chiqish" juda murakkab kechgan, u turli davlatlarda turli ko'rinishlarda bo'lgan va o'sib kelayotgan ehtiyojni qondirishga qaratilgan. SHuning bilan birga o'tish davrining muhlati (davomiyligi) ham turli mamlakatlarda o'ziga mos ravishda sodir bo'lgan. SHu ma'noda ham o'tish davrining muhl atini oldindan belgilab bo'lmaydi.

O'tish davri mamlakatlar taraqqiyotining bir ijtimoiy-iqtisodiy bosqichdan ikkinchiga o'tishi umumiy qonuniyat bo'lishi bilan birga ana shu bosqichlarga o'tish jarayoni ham turlicha namoyan bo'ladi. Ulardagi asosiy umumiylik eskining taraqqiyot ehtiyojlariga javob beraolmaganligi oqibatida yangi bosqichga o'tish zaruriyatini keltirib chiqarishi bilan bog'liq. SHu ma'noda o'tish davridagi bosh yo'nalish «orqaga qaytish» emas, balki «oldinga» yurish. pastdan yuqoriga ko'tarilish yoki oldingi darajaga qaraganda taraqqiy qilish tomon ko'tarilish hisoblanadi.

Eski tuzumni saqlab qolish yo'lidagi turli urinishlar, qon to'kishlar, xalq boshiga tushadigan turli fojialarga qaramasdan ularning qaysi darajadan sodir bo'lishidan qat'iy nazar baribir o'tish davrining bosh yo'nalishi o'zgarmas bo'lib qolaveradi. SHu ma'noda Leonid Levitinning quyidagi fikriga qo'shilish mumkin. "Postkommunistik o'tish davri — o'tish davrining ko'rinishlaridan biridir holos. Insoniyat tarixida bunday davrlar ozmuncha yuz bermagan. Ular o'zaro bir-bindan qanchalar salmoqli tafovudlar bilan farq qilmasin. biroq asosiy ma'nolari bitta — jamiyatni uning iqtisodini, siyosatini, uning madaniyatini zamonaviylashtirish", deb yozadi.

Ammo, ana shu "zamonaviylashtirish"ni qaysi o'lchov mezonidan kelib chiqmogi kerak. — degan savolga javob topish zarur bo'ladi. Zero, "zamon" o'zgaruvchan, shiddat bilan oldinga intiluvchi jarayon holos. Agar ana shu nuqtai nazardan qaraladigan bo'lsa, o'tish davri qachon tamom bo'ladi, uning tamom bo'lish mezonlari mavjudmi yoki «zamon» kabi to'xtovsiz jarayon hisoblanadimi? — degan savollar yuzaga kelaveradi.

Aslida, yuqorida bizning unga bergan ta'rifimizda uni davlat taraqqiyotining bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzumdan ikkinchisiga o'tish uchun zarur bo'ladigan alohida bosqich ekanligi haqidagi kontseptual g'oyamizga muvofiq o'tish davri shu ma'noda ham alohida bosqichki, albatta u ma'lum muddatdan keyin o'z poyoniga etadi va jamiyat ilgariga qaraganda yuqori taraqqiyot bosqichida yashay boshlaydi.

Biz ana shunday jarayonning aniq tasavvur qilishimiz va tushunishimiz zarur bo'ladi. Aks holda insoniyat o'z boshidan o'tish davrini o'tkazish bilan yashaydi va bu oxiri yo'q bo'lgan jarayon — degan noto'g'ri xulosa kelib chiqadi.

Fikrimizcha bir ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tuzumdan ikkinchisiga o'tish uchun zarur bo'ladigan "o'tish davri" yoki aniqrog'i "oralig" bosqichining muddati ana shu yangi yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tuzum o'z imkoniyatlarini to'la yuzaga chiqarib barqaror taraqqiy qilish jarayoni yuzaga kelishi bilan tugaydi.

Bu erdagi kontseptual g'oya shundaki, insoniyat faqat "o'tish davri" bilan yashamaydi, balki uning boshlanishi bo'lganidek poyoni ham mavjuddir. Xuddi ana shu "poyoni" taraqqiyot darajalarini yoki tuzumlarining birini ikkinchisi bilan farqlash imkonini beradi. "Poyoni" yoki o'tish davrining oxiri yangi tuzumning normal ishlash ta'minlanganligi sharoiti yuzaga kelishi bilan tugaydi.

Bunday sharoitda zamonning ehtiyoji va rivojlanish darajalarida yangi vujudga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tuzumning turli sohalarida mavjud bo'ladigan mexanizmlarining barqaror ishlashini amalga oshiradi. Yana ham aniqrog'i, zamon nuqtai nazaridan davlat hayotida barqaror taraqqiy qilish jarayoni sodir bo'ladi.

SHu nuqtai nazardan ham L.Levitining o'tish davri "zamonaviylashtirish" mezon sifatida qaraganligi haqidagi fikriga qo'shilish mumkin. Uning: "Bunday zamonaviylashtirish ruvayyan yakun topguncha, ya'ni mamlakat barqaror iqtisodiy rivojlanish, siyosiy barqarorlik darajalariga erishguncha bo'lgan davr "o'tish davri", deb ataladi" — degan ta'rifiga faqat zamon nuqtai nazardan qaralsagina to'g'ri bo'ladi.

"O'tish davri"ga faqat ana shunday qaralsagina insoniyat va jamiyatlar rivojlanish jarayonlariga to'g'ri baho berish mumkin bo'ladi. Zero, insonlar ehtiyojlarining to'la ta'minlanishi va jamiyat taraqqiyotining yuksak darajaga ko'tarilishi fuqarolik jamiyati qurilgandagina amalga oshadi. Ammo, fuqarolik jamiyatini insoniyat ehtiyojlarini qondira o'ladigan, jamiyatning eng yuqori pog'onaga ko'tarilgan va uning bundan keyin rivojlanishiga

ehtiyoji bo'lmaydigan "oxirgi" "manzil" sifatida qarash ham ilmiy nuqtai nazardan to'g'ri bo'lmaydi.

CHunki, faqat ehtiyojni riq yuzaga kelishigina taraqqiyot zaruriyatini keltirib chiqaradi. U to'xtagan daciqadan boshlab taraqqiyot ham to'xtaydi. Ammo, insoniyatning hali to'la ma'nodagi fuqarolik jamiyati sharoitida yasha yotgan makonni aytish qiyin. SHu ma'noda ham bugun uni insoniyat o'zining ideali sifatida qaramoqda va uni qurish uchun faollik ko'rsatmoqda.

"O'tish davri" haqida fikr yuritganimizda shuni alohida ta'kidlash lozimki, fuqarolik jamiyatigacha bo'lgan barcha tuzumlarning insonlar manfaatlarini va ehtiyojlarini to'la qondira olmasligi bo's ularning birinchisidan ikkinchisiga ob'ektiv ravishda o'tishi uchun ehtiyojni yuzaga keltirib turadi. Bu o'z navbatida yangi tuzumga o'tish davrini boshlab beradi.

Albatta, ibtidoiydan quldorlikka, undan feodalizmga, undan esa kapitalizmga o'tish jarayonlarida mamlakatlar hayotida qanday alg'ov-dalg'ovlar, insonlar hayotida ham juda katta qiyinchiliklar, urushlar va ularning oqibatida qon to'kishlar sodir bo'lganligiga qaramasdan bu ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlarining birining ichidan ikkinchisining o'sib chiqishi ob'ektiv zaruriyat sifatida sodir bo'lib kelgan.

Ammo, kapitalizm demokratik tamoyillar asosiga qurilgan jamiyatga o'tish bir qator o'ziga xos xususiyatlar bilan farqlanadi. Ular quyidagilardir:

**Birinchidan**, ayrim mamlakatlarda demokratik jarayonlar kapitalizm tuzumining ichida shakllandi va bu uning xalq uchun farovon hayotini ta'minlash yo'lidagi faoliyatida namoyon bo'ldi. To'g'ri, bu jarayon ham silliqlik bilan amalga oshmaydi, balki o'ta murakkab kechadi, juda katta taofatlarni o'z bosidan kechiradi. Xuddi ana shu murakkab muammolarni hal qilishda to'g'ri yo'lni tanlashdagi ya'ni jamiyat taraqqiyotini xalq manfaatlariga qaratilganligi kapitalizمنى xalq «kapitalizm»ga uning farovonligi to'la ma'nodagi huquqlari va erkinliklarini ta'minlovchi jamiyatga aylanishiga olib keladi.

**Ikkinchidan**, ayrim mamlakatlarda hali kapitalizm to'la ma'nodagi jamiyat sifatida o'z imkoniyatlarini yuzaga chiqarib ulgurmasdan kuch ishlatish yo'li bilan g'ayri ilmiy, soxta xalq "farovonligi"ni ta'minlovchi kommunistik jamiyatga o'tish yo'lidan borildi. Bu yo'lning tanlanishi tajribasi ko'rsatdiki; a) jamiyat taraqqiyotini sun'iy ravishda jadallashtirib bo'lmagilini; b) kuch ishlatish, zo'ravonlik ko'rsatish jamiyat hayotini tubdan o'zgartirmasligi va ularning zaminida albatta aynan shu ko'rinishda bo'lmagilida boshqa ko'rinishlarda pirovard maqsadlarga erishish yo'lida kuch ishlatish va zo'ravonlikni qo'llash davom etishi mumkinligi ko'rsatadi; v) o'tish davri muhlatini siyosiy hokimiyat hukmronligining to'la ta'minlanganligi bilan emas, balki xalq farovonligining, uning barcha yo'nalishlarda erkinligi qaysi darajada ta'minlanganligi bilan belgilash asosiy mezon sifatida bo'lishi kerakligini tasdiqlaydi; g) kapitalizmnning barcha imkoniyatlari yuzaga chiqmasdan turib, demokratik jamiyatga o'tib bo'lmagilini va o'z navbatida kapitalizmnning o'zini ham sun'iy ravishda joriy qilib bo'lmagilini, albatta ma'lum o'tish davri zarur ekanligini ko'rsatdi; d) kapitalistik munosabatlari shakllanmasdan, uning imkoniyatlari yuzaga kelmasdan turib feodalizmdan demokratik jamiyatga o'tib bo'lmagilini tajribada tasdiqlandi.

Mamlakatlar feodalizmdan, tashqari dan ko'rsatilgan "beg'araz" yordamlar bilan kapitalizمنى chetlab kommunistik darajasiga ko'tarila olmagilini, omma manfaatlarini "ifodalovchi" va "farovonligi ni" ta'minlovchi soxta kommunistik jamiyatga o'tib bo'lmagilini, albatta ana shu kommunistik jamiyat zaminida kapitalistik munosabatlar rivojlanib borishligini va bu o'z navbatida o'tish davri muhlatining cho'zilish ketishiga olib kelishini tasdiqladi. CHunki, bunday sharoitda nafaqat o'tish davri muammolari, shuning bilan birga kapitalizm tuzumiga taalluqli muammo larini ham hal qilish vazifasi yuzaga keladi.

O'tish davri yuksak darajadagi moddiy imkoniyatlarning yuzaga kelishi bilan tugamaydi, balki ularning xalq farovonligini ta'minlashga qaysi darajada qaratilganligi insonlarning erkinliklarining ta'minlanganligi bilan bog'liq bo'lgan jarayon hisoblanadi. Ular nafaqat mamlakatlarga bog'liq shu bilan birga ularda yashayotgan aholiga, ularning jarayonlar bilan hamohang bora bilishlariga ham bog'liq bo'ladi. Bularning hammasi tarixiy taraqqiyot bosqichlarida shakllanib va rivojlanib keladi.

YUqoridagilardan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

**Birinchi**dan, bugungi kungacha, o'tish davrining mustaqil fundamental nazariyasi ishlab chiqilmagan. Buning oqibatida mamlakatlarning ma'lum tarixiy bosqichni bosib o'tmasdan uni "chetlab" demokratik jamiyatga o'tishga bo'lgan xatti-harakatlari sodir bo'lmoqda. Bu, o'z navbatida, ular hayotida ayrim holatlarda katta fojialarni keltirib chiqarmoqda.

**Ikkinchi**dan, feodalizm munosabatlari sharoitida yashayotgan mamlakatlarga "chetdan" demokratik jarayonlarni "eksport" qilib bo'lmaydi. Bunday urinishlar mamlakatlarda beqarorlikka, uni taraqqiyotdan orqaga ketishiga olib kelishi mumkin. Bu jarayonda ya'ni mamlakatlarga demokratiya eksport qilinishi kerak emas, balki uning shakllanishi uchun shart-sharoit yuzaga kelishiga imkoniyat yaratilishiga qaratilishi lozim bo'ladi.

**Uchinchi**dan, o'tish davri ijtimoiy - iqtisodiy, siyosiy tuzum emas, balki mamlakatlarning ularga o'tishi uchun zarur bo'ladigan zaminlarni shakllantirish ketadigan tarixiy oraliq bosqich hisoblanadi. Uning boshlanishi mamlakatlarda bo'ladigan, eng avvalo, siyosiy o'zgarishlar va uning zaminida esa iqtisodiy, ijtimoiy hamda ma'naviy sohalaridagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lsa, "poyoni", "oxiri" yangi vujudga kelgan jamiyatning o'z imkoniyatlarini to'la yuzaga chiqara bilishi, zamon nuqtai nazaridan barqaror taraqqiyot uchun imkoniyatlarini ta'minlanganligi bilan bog'liq bo'ladi.

**To'rtinchi**dan, o'tish davri qanchalik turli tuman bo'lmasin, baribir barcha ijtimoiy - iqtisodiy va siyosiy tuzumlar uchun zarurdir. CHunki u har bir yangidan vujudga keladigan jamiyat uchun zamin tayyorlash imkoniyati hisoblanadi. Bu zamin nafaqat iqtisodiy, shuning bilan birga shu jamiyatda yashaydigan insonlarning o'zlarni ham yangi jamiyatga "moslashtirish"i uchun ham zarur bo'ladi.

2. YUqorida o'tish davrining tushunchasi, mohiyati va zarurligining umumiy nazariya masalalarini ko'rib o'tdik. Endi mamlakatlarning turli ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy taraqqiyot bosqichlaridan demokratik tamoyillar asosida faoliyat ko'rsatadigan jamiyatga o'tishining turli "model"lari, ularning o'ziga xos xususiyatlari ustida to'xtalamiz.

Turli ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy bosqichlardan demokratik jamiyatga o'tish o'ta murakkab jarayon hisoblanadi. Uning murakkabligi, ungacha sodir bo'lgan taraqqiyot bosqichlari ob'ektiv ehtiyoj sifatida birining ichida ikkinchisi shakllanib kelgan, davlat va uning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari shaklan o'zgargan bo'lsa ham, mazmunan u, baribir ommani itoatda ushlab turishga, uning ustidan hukmronlik qilishga qaratilganligicha qolavergan. Ular yana bir xususiyat omma davlat uchun degan tamoyilning amal qilganligi bilan ham karakterlanadi.

Demokratik jamiyatda esa, eng avvalo, siyosiy tuzum tubdan o'zgarib, xalqning hokimiyati bevosita yoki bilvosita ishtirokida boshqaruvi amalga oshadi va omma davlat uchun emas, aksincha, davlat omma uchun, degan tamoyilning ustuvorligi asosida davlat boshqaruvi amalga oshadi.

SHu ma'noda, ham demokratik jamiyatga o'tish jarayoni davlatlarning barcha sohalarida tub o'zgarishlarining amalga oshirilishi natijasi sifatida sodir bo'ladi.

Demokratik jamiyatga o'tishda siyosiy sohada, davlatning amaldagi mexanizmlari tugatiladi, uning o'rniga qurilayotgan jamiyat manfaatlariga javob bera oladigan mexanizmlari shakllantirilib boriladi, iqtisodiy sohada bozor munosabatlari qaror topadi, taraqqiyot ommaning o'z moddiy manfaatdorligini erkin qondira olishi asosida umumiy iqtisodiy rivojlanish sodir bo'ladi. ma'naviy-ma'rifiy sohada inson omili, uning qadr-qimmati yuksak qadriyat darajasiga ko'tariladi, jamiyat yuksak intellektual kuch asosida rivojlanishi reallikka aylanadi.

Ana shuning uchun ham bugungi kunda insoniyat demokratik jamiyatga o'z ideali sifatida qaramoqda va uni vujudga keltirish uchun faollik ko'rsatmoqda. Ammo demokratik jamiyatga o'tishning barcha mamlakatlari uchun yagona bo'lgan aniq andozalari, yana ham aniqrog'i, "model"lari yo'q va u bo'lishi mumkin emas. CHunki har bir mamlakatning nafaqat o'z tuzilishi, iqtisodiy taraqqiyot darajalari, imkoniyatlari, intellektual imkoniyatlari biri ikkinchisidan farqlanadi, xuddi shuningdek, o'z xalqining mentaliteti, turmush tarzi, urf-odatlari va qadriyatlari bilan ham farq qiladilar. Ularni hech qachon bir qolipga solib bo'lmaydi, bunga

harakat qilish hech qanday samara bermaydi, balki og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkinligini tarixiy tajriba tasdiqladi.

SHuning bilan birga, demokratik jamiyatga o'tishning barcha mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlari ham mavjud. Jumladan, siyosiy tizimni isloh qilish, bozor munosabatlarini shakllantirish, insonning o'z ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlarni vujudga keltirish, jamiyat taraqqiyotida yuksak intellektual salohiyat ustuvorligini ta'minlash va boshqa bir qator qonuniyatlarni barcha demokratik jamiyat qurishga intilayotgan mamlakatlar uchun umumiy hisoblanadi.

Demokratik jamiyatga o'tish deganda mamlakatlarning turli tuzumlardan demokratik tamoyillar asosida rivojlanishi uchun vujudga keltiriladigan imkoniyatga ketadigan oraliq vaqt tushuniladi. Xuddi ana shu vaqt ichida demokratik jamiyat uchun zarur bo'ladigan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy imkoniyatlar yaratiladi. "Oraliq" vaqtning boshlanishi va uning o'z poyeniga etishi o'tish davri masalalari qatorida eng muhim ahamiyatga molikdir. CHunki bugun bu masala ilmiy adabiyotlardan o'zining ilmiy echimini topganicha yo'q. Unga aniqlik kiritmaslik esa "o'tish davrining" boshli va oxiri qardaligini bilib olish imkonini bermaydi.

To'g'ri, o'tish davri eng avvalo siyosiy hokimiyatda pirovardida demokratik jamiyatga olib boruvchi tub o'zgarishlarning sodir bo'lishi va uning bazasida iqtisodiy hamda ma'naviy-ma'rifiy sohalarida olib boriladigan islohotlarning boshlanishi bilan xarakterlanadi.

O'tish davrining tugashi esa, demokratik tamoyillarning to'raligicha hayotiy reallikka aylanishi bilan bog'liq bo'ladi. Bugungacha demokratik tamoyillar asosida rivojlanayotgan mamlakatlarning unga o'tish davri tajribalariga asoslanib, o'tishning uchta asosiy yo'li yoki "model"ni shakllanganligini ta'kidlash mumkin.

Uning birinchi klassik yo'li hisoblanadi. Bu yo'lining asosiy xususiyati shundaki, u uzoq tarixiy bosqichda amalga oshadi va o'tish davrida siyosiy sohada qancha buhronlar sodir bo'lishiga qaramasdan asosiy o'tishning islohotlari iqtisodiy sohada amalga oshirila boshlanadi. Bu sohadagi muhim tadbir xususiy mulkchilikni qaror toptirish hisoblanadi. Xuddi ana shu tadbirning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, mamlakat hayotining boshqa sohalarini, xususan, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-madaniy sohalarida ham islohotlarning amalga oshirilishi imkonini beradi.

O'tish davrining klassik yo'lidagi bunday jarayonning xarakterli tomoni shundaki: iqtisodiy sohada xususiy mulkchilikning rivojlanishidan aholining aksariyat ko'pchilik qismini rozi bo'lmaydi. CHunki asosiy moddiy boylik bir qism odamlar qo'lida to'planadi, boshqalar esa unga qaram bo'lib qoladilar oqibatda mamlakat ichki hayotida katta buhronlar, hatto fuqarolar urushlari sodir bo'lishi mumkin. Bu jarayon mulk egalarning aholi farovonligini ta'minlash tomon qiladigan harakatlari o'zining samarasini bera boshlaganicha davom etadi.

Buning samarasi dastlabki paytda aynan shu maqsadga yo'naltirilmasdan, balki mulk egalari o'zlarining moddiy boyishini rivojlantirish yo'lida, ishlab chiqarishni rivojlantirish, yangi korxonalar qurish, ularni zamonaviy texnika bilan qurollantirish, yangi ish joylarni vujudga keltirish kabi katta ishlarni amalga oshiradilar.

Bu yo'ldagi muhim tomon shundaki mamlakatda barcha olg'ov - dalg'ovlar xuddi ana shu iqtisodiy sohadagi xususiy mulkchilik kuchayishining dastlabki paytda sodir bo'ladi. CHunki bu jarayondan aholining noroziligi kuchayadi, mamlakat hayotida beqarorlik holati kuchayib boradi, buning oqibatida katta g'alayonlar sodir bo'lishi mumkin. Xuddi ana shu jarayonlar zaminida aholining siyosiy ongi ham o'sib boradi. Ularning o'z huquqlarining ta'minlanishiga erishish intilishi kuchayadi. Bu, o'z navbatida, mamlakat siyosiy hayotida demokratik jarayonlarning yuzaga kelishi va uning o'sib borishiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

O'tish davri klassik yo'lining boshlanishi kapitalistik munosabatlarning yuqori bosqichi, uning iqtisodiyotda islohotlar o'tkazmasdan taraqqiy qilishiga imkoniyat etmay qolishi oqibatida yuzaga keladi.

Bu yo'ning klassik (an'anaviy) yo'l deyilishiga sabab shuki, mamlakatlarning demokratik jamiyatga o'tishi dastlab xuddi ana shu ko'rinishda namoyon bo'ldi va bugun yuksak taraqqiyotga erishgan mamlakatlarning aksariyati ana shu yo'ldan bordilar.

Klassik yo'l muammolarning ko'pligi ularni hal qilishning murakkabligi, aholining bu jarayonga "ko'nikib" borishi kabi masalalar bilan bog'liq bo'lganligi uchun ham Evropa mamlakatlarida 2-2,5 asrgacha davom etdi. Ana shu muhat ichida mamlakatlarda iqtisodiy sohadagi yutuqlarning zaminida demokratik qadriyatlar ham shakllandi va ularda bugun fuqarolik jamiyatini takomillashtirish jarayonlari davom etmoqda.

Demokratik jamiyatga o'tishning ikkinchisi inqilobiy yo'l hisoblanadi. Uning xarakteri xususiyati shundaki, davlatlarda vujudga keltirilgan katta iqtisodiy salohiyat aksariyat ko'pchilik aholining turmush tarzi nisbatan yuqori bo'lganligiga asoslanib, dastlab mamlakat siyosiy hayotida keskin o'zgarishlar amalga oshiriladi. YA'ni amaldagi hokimiyat shakli barbod bo'ladi va uning o'miga yangi — demokratik jarayonlarni rivojlantirishga moyil bo'lgan hokimiyat shakli va uning infrastrukturasi vujudga keladi. Ular, o'z navbatida, iqtisodiy hayotda keskin islohotlar o'tkazadilar, xususan, amaldagi milliy valyuta bekor qilinadi (sindiriladi).

Aholining qo'lidagi pul mablag'lar ham o'z qiymatini yo'qotadi va mamlakat siyosiy hayotida bo'lgani kabi iqtisodiy hayotda ham demokratik jarayonlarning rivojlanishi sodir bo'ladi. Inqilobiy yo'l uchun zarur bo'lgan asosiy omillar qatorida:

- a) sobiq tuzum sharoitida xususiy mulk kurtaklarining saqlanib qolganligi;
- b) demokratik qadriyat kurtaklarining mavjudligi;
- v) mamlakat hayotini demokratik tamoyillar asosida qayta qurishga qodir bo'lgan intellektual salohiyatning etarli bo'lishi;
- g) aholining ma'lum bir qismi ana shu demokratik jarayonga hech bo'lmaganida "moyil" bo'lishi kabilari hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Ularning har biri inqilobiy yo'l uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, intellektualning rolini olib ko'raylik. Ular mamlakat hayotida bo'ladigan har bir o'zgarishni yuzaga keltiruvchi asosiy qudrat hisoblanadi.

Xalq hokimiyatdan ko'ra ularga ishonadi, ularga ergashadi. SHu ma'noda ham ular ommani uyushtiradi va demokratik jarayonlarga yo'naltiradi. SHuning bilan birga intellektualning o'zi ham demokratik jarayonlarning murakkab muammolarini hal qilishda bardosli bera oladigan, uyushgan kuch darajasiga ko'tarilgan bo'lishi lozim.

Intellektualning xarakterli xususiyati shundaki u boshqa ijtimoiy tabaqalardan ko'ra jamiyat hayotida yuzaga keladigan jarayonlarni oldin bilishga intiladi va bu o'zgarishlarning boshida tura oladi. YOki aholining ma'lum bir qismining mamlakatning o'tish davridagi murakkab sharoitlarga (moyilligi) bo'lishi zarurligi omilini ko'raylik.

Hamma gap shundaki, avvalo, aholi murakkab muammolarni hal qilishda kuzatuvchi emas, ularni hal qilishda faol ishtirok qilmas ekan, inqilobiy yo'l hech qanday samara bermaydi, aksincha, u mamlakatni taraqqiyotdan orqaga ketishiga olib keladi. Ayniqsa, ular intellektual bilan yakdillikda ana shu keskin o'zgarishlarning uyushgan tashkilotlari va harakatlantiruvchi kuchlariga aylanishi lozim.

Agar ana shu omillar etarli bo'lsa, inqilobiy yo'l ham o'zining samarasini berishi mumkin. Bu yo'ldan Evropaning sobiq sotsializm tuzumida yashagan Polsha, Vengriya, Germaniya Demokratik Respublikasi, Bolgariya va Rossiya kabi mamlakatlar bormoqdalar. Ammo, ularda ham ichki ziddiyatlar kuchaydi, ommaning ahvoli og'irlashdi, ulardan qat'iy nazar ularda inqilobiy yo'l bilan o'tish uchun zarur bo'lgan yuqoridagi omillar qaysidir darajada mavjud edi. SHuning uchun ham demokratik jamiyatga o'tish jarayoni keskin rivojlanib ketdi.

Uning mazmuni shuki, siyosiy hayotda keskin burilish sodir bo'ldi, u mamlakatlar siyosiy tizimida, boshqaruvning mohiyatan butunlay yangi shakli, iqtisodiyotda davlat mulkini xususiy lashtirishda, ma'naviy-ma'rifiy sohada eski mafkuradan voz kechishning keskin amalga oshirilishi sodir bo'ldi. Ammo ular o'zaro ichki kurashlarning avj olishi, ba'zi mamlakatlarda qon to'qilishining sodir bo'lishigacha bo'lgan og'ir jarayonlar shaklida amalga oshdi. SHunga qaramasdan, yuqorida ko'rsatilgan omillarning u yoki bu darajada mavjud bo'lishi inqilobiy



yo'ning ham samara berayotganligini ana shu mamlakatlarda sodir bo'lgan va bo'layotgan ijobiy o'zgarishlardan ko'rib turibmiz.

Bu yo'l qanchalik murakkab, mamlakat hayotida juda katta buhronlarga olib kelishini hisobga oladigan bo'lsak, uni har mamlakat o'z xususiyatlari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holatiga amalga oshirishi mumkin. Ammo, shuni ham hisobga olish zarurki, yuqoridagi omillar mavjudligining o'zi ham mamlakatlarning demokratik jamiyatga inqilobiy yo'l bilan o'tishiga "majbur" etadi. Chunki ana shu omillar jarayonni tezlashtiruvchi asosiy qudrat hisoblanadi.

Demokratik jamiyatga o'tishning uchinchi yo'li — evolyutsion yoki bosqichma-bosqich yo'l hisoblanadi. Uning xarakterli xususiyati shundaki, mamlakatda amaldagi siyosiy hokimiyat tugatilib, uning o'miga yangi hokimiyat vujudga kelishi bilan eski keskin, bir "zarb" bilan tugatilmadan bosqichma-bosqich, vazminlik bilan tugatilib boriladi. Hatto ularning ayrim imkoniyatlaridan ham foydalani**b** boriladi. Xuddi ana shu jarayonda iqtisodiy islohotlarni olib boriladi va bu yo'nalishda yangi munosabatlar shakllantiriladi.

Siyosiy va iqtisodiy hayotda o'tkazilayotgan islohotlar bilan hamohang ravishda ma'naviy-ma'rifiy sohalar ham yangi ehtiyojlar asosida rivojlantirilib boriladi.

Xo'sh nima uchun asta - sekin, bosqichma—bosqich o'tish zaruriyati tug'ildi? Agar asta-sekin o'tiladigan bo'lsa, uning klassik yo'ldan farqli tomoni nima-da, unda ham asta-sekinlik bilan demokratik jamiyatga o'tilgan-ku? Albatta, evolyutsion yo'lning klassik (an'anaviy) yo'ldan farqli tomonlari mavjud va ular quyidagilardan iborat:

Birinchidan, klassik yo'lida demokratik qadriyatlar mavjud jamiyat ichida yuzaga keladi va u mavjud tuzumning taraqqiy qilishi, mulk egalarning ham, xuddi shuningdek, oddiy xalqning ham ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirib boradi. Bundan har ikki tomon ham manfaat ko'radi. YA'ni demokratik qadriyatlar taraqqiyotning kapitalistik munosabatlarining "ma'rifatlashib", xalq farovonligini ta'minlash orniliga aylanishning "mevasi" sifatida yuzaga keladi.

Ko'pchilik hollarda evolyutsion yo'l mamlakatlarning totalitarizm yoki diktaturalar hukmronligining barbod bo'lishi va uning oqibatida demokratiyaga o'tishi uchun xos bo'lib, mamlakatlar hayotida keskin o'zgarishlarni amalga oshirishning imkoniyatlari bo'lmaganligi bilan bog'liqdir.

Aslida, totalitarizm ham mohiyatan, kapitalistik munosabatlarning "ma'rifatlasha" olmaganligi, mavjud siyosiy tuzumning zo'rlik bilan barbod qilinishi, mulkdorlar mulkining tortib olinishi va ularning manfaatlariga xizmat qiluvchi ma'naviy-mafkuraviy salohiyatning yuzaga keltirilishi natijasida vujudga kelgan yangi ko'rinishdagi kapitalizmdir.

Agar klassik o'tish davriga xos bo'lgan kapitalizm munosabatlarida siyosiy tuzum, iqtisodiy munosabatlar va ma'naviy-ma'rifiy salohiyatlardagi o'zgarishlar asta-sekin umummanfaatlar yo'lida demokratik qadriyatlarga asoslangan jamiyatga "bo'shatib" berish yo'lidan borgan bo'lsa, totalitarizm mavjud kapitalistik munosabatlarni zo'rlik, kuch ishlatish yo'li bilan tugatilib, uning o'miga yangi - o'ziga xos "kapitalistik" munosabatlarning shakllantirish oqibatida yuzaga kelgan jamiyat edi. Chunki, bu jamiyatda davlat xalqqa emas, balki xalq davlatga uning tepasi da shakllangan hokimiyatni qo'lida ushlab turgan elitaga xizmat qiladigan darajaga ko'tarilgan edi.

Ikkinchidan, klassik o'tish yo'lida ommaning dunyoqarashi mavjud sodir bo'ladigan o'zgarishlarga mos ravishda o'zgarib yoki tuzumning o'zgarishiga ta'sir o'tkazib kelgan bo'lsa, totalitarizm - ommaning ongini to'raligicha o'z manfaatlariga bo'yusundirgan jamiyat edi. Uni bir "zarb" bilan demokratiyaga "maslashtirish" ham nihoyatda murakkab muammo hisoblanadi. Chunki ongni o'zgarish qisqa vaqtda amalga oshadigan jarayon emas, u jamiyat hayotida bo'ladigan o'zgarishlarga mos ravishda sodir bo'ladi.

Ayniqsa, bu jarayon san'at ishlab chiqarishi kam taraqqiy qilgan agrar sektor etakchilik qiladigan mamlakatlarda asta-sekinlik bilan amalga oshadi. Chunki, bunday mamlakatlarda aholining tarqoqligi, siyosiy madaniyati keskin o'zgartirishlar ehtiyojlaridan orqada qolgan bo'ladi.

Uchinchidan, klassik o'tish uchun xos bo'lgan kapitalistik munosabatlar sharoitida demokratiyaga o'tishda eski tuzum xavf tug'dirmaydi, balki u o'mini taraqqiy qilayotgan yangi demokratik munosabatlarga "bo'shatib" bera boshlaydi.

Totalitarizm esa yangi demokratik jarayonlar uchun xavf tug'diradi. CHunki uning hukmronligi davrida shakllangan nihoyatda kuchli munosabatlar, kuchlar va ma'naviy-ma'rifiy salohiyat demokratik jarayonlar rivojlanishi uchun qarshilik ko'rsatib turadi Buni albatta hisobga olmaslik mumkin emas.

SHuning bilan bir qatorda, mamlakatning taraqqiyot darajalari, xalqning mentaliteti, urf-odatlari va qadriyatlarini hisobga olish evolyutsion yo'lining katta imkoniyatlari bo'li, bu o'tish davrida nisbatan kam talofatlar sodir bo'lishiga sabab bo'ladi.

SHuning uchun ham bugun ko'pgina olimlar evolyutsion yo'l bugungi o'tish davri uchun eng maqbul yo'l sifatida qaramoqdalar. Jumladan, Rossiya Fanlar Akademiyasining akademigi, sobiq SSSRda qayta qurish nazariyasini ishlab chiqishda faollik ko'rsatgan A.N.YAKovlev shunday yo'zadi: "... Inqilob bu-boshi berk ko'cha, yo'lmi yo'qotish demakdir. O'zaro janjal va to'polonlar sharoitida ham quyidan, ham yuqoridan boshlanadigan jinoyatlar avj oladi. Shu tariqa Lyupenlar jinoyati va hokimiyat bir-biriga aralashib ketadi. Inqilob davrida shavqatsizlik misli ko'rilmagan darajaga etadi. U olg'a rivojlanish haqidagi hayotlarni yaratadiyu, oxir oqibatda o'zi ana shu harakat yo'lida to'g'anoq bo'ladi.

Faqat tabiiy, tadjriiy yo'l insonga qoniqish tuyg'usini, jamiyatga esa o'z taraqqiyotini izchil puxta o'ylangan, rejali tarzda amalga oshirish imkonini beradi".

EvoLyutsion yo'lining yana bir afzalligi shundaki, bugun insoniyat juda katta intellektual kamolat darajasiga ko'tarildi, shuning bilan birga uning ehtiyojlari ham unga mos ravishda rivojlanib bormoqda. Ana shu ikki jarayonni uyg'un holatda rivojlantirish imkoniyatini faqat evolyutsion yo'ldan borish bilan hal qilish mumkin bo'ladi. Bugun xuddi ana shu yo'l fojialarga olib keluvchi qarama-qarshiliklarning oldini olish va taraqqiyotga murosa-yu madora yo'i bilan erishish imkonini beradi.

Bu yo'l bugun o'z mustaqilligini qo'lga kiritib endi taraqqiyot yo'lga krayotgan Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi mamlakatlari uchun ham samara beradigan yo'l hisoblanadi. Ular hozir taraqqiyotning qaysi bosqichlarida bo'lishlariga qaramasdan, taraqqiyotning barcha bosqichlarini o'z boshlaridan kechirishlari umumiy qonuniyat bo'lganidek, demokratik taraqqiyot bosqichiga ham tabiiy tadjriiy yo'ldan borishni bosh yo'nalish sifatida belgilab olsagina va unga real amal qilsagina pirovard maqsadga erishishlari mumkin.

Amma ularning ichki hayotiga aralashuv, demokratiyani tashqaridan bir "zarb" bilan kiritishga bo'lgan har qanday urinishlar kutilgan natija bermaydi, balki ichki ziddiyatlarning kuchayishiga, mamlakatni taraqqiyotdan orqaga uloqtirib yuborishga olib keishi mumkin.

Xullas, evolyutsion yo'l bugun dunyo mamlakatlarining rivojlanishi va mintaqalarda barqarorlikning yuzaga kelishi hamda umumiy taraqqiyot uchun samara bera oladigan yo'l sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'tish davrining umumiy qonuniyatlari O'zbekiston uchun ham umumiylikka egadir. Ular o'tish davrining boshlanishi uchun xos bo'lgan, amaldagi siyosiy hokimiyatning tugatilishi, uning zaminida iqtisodiy sohadagi islohotlarning amalga oshirilishi uchun zamin tayyorlash va mavjud ma'naviy - mafkuraviy zo'ravonligidan qutulish kabilardir. Ular qaysi darajada bo'lishidan qat'iy nazar demokratik tarqoyillar asosida rivojlanish yo'lini tanlagan barcha mamlakatlar uchun umumiy zaruriyat hisoblanadi.

Amma, hammasi masala o'tish davrining ichida amalga oshiriladigan vazifalar strategiyasini belgilash, ularni hal qilishning mexanizmlarini ishlab chiqish va ularni reallikka aylantirish kabilarda har bir mamlakatning o'ziga xos xususiyatlar mavjud bo'ladi. Bir mamlakatning yoxud bir necha mamlakatlarning o'tish davrida qo'llagan tajribalarini aynan ikkinchi mamlakat qo'llay olmaydi. CHunki demokratik jamiyatga o'tishda nafaqat mamlakatlarning taraqqiyot darajalarini belgilovchi ahamiyatga ega bo'adi, xuddi shuningdek, har bir mamlakatda yashayotgan xalqning mentalitetini hisobga olish ham muhim ahamiyatga molikdir. Uni hisobga olmaslik esa pirovard maqsadga erishish imkonini bermaydi.

Xuddi ana shuning uchun ham O'zbekistonda uning o'ziga xos va o'ziga mos bo'lgan evolyutsion tadirijiy yo'li ishlab chiqildi. Bu yo'ning O'zbekiston uchun eng maqbul yo'l ekanligi Prezident Islom Karimov tomonidan ilmiy asoslandi va uning kontseptual g'oyalarini fundamental tarzda bosqichma-bosqich amalga oshirishga kirishildi.

Bu yo'l Prezident tomonidan ishlab chiqilgan besh tamoyilda o'z ifodasini topdi. Xuddi ana shu tamoyillarni ishlab chiqirishga qarab, Prezident shunday ta'kidlagan edi: "SHuni alohida ta'kidlash zarurki, soxta inqilobiy sakrashsiz, fojiali oqibatlarisiz va kuchli ijtimoiy larzalarsiz, evolyutsion yo'l bilan normal, madaniyatli taraqqiyotga o'tish - tanlab olingan yo'ning asosiy mazmuni va mohiyatidir".

Bu bosh g'oyani Prezident Islom Karimov jahon mamlakatlarining tajribalarini chuqur tahlil qilish asosida ilgari surdi va O'zbekistonga xos o'tish davri "model"ini ishlab chiqishda uning dunyodagi birona ham davlatlardagi "model"lariga aynan o'xshamasligiga asosiy e'tiborni qaratdi.

U mamlakatimiz o'z mustaqilligini endigina qo'lga kiritgan va mustaqillikning xavfi hali batartom tugamagan sharoitda 1992 yilda bu kontseptual g'oyani ilgari surdi. U shunday yozadi: «O'zbekistonning chinakam mustaqilligiga erishishdan iborat o'z yo'li respublikani rivojlantirishning quyidagi asosiy o'ziga xos xususiyatlari va shart - sharoitlarini har tomonlama hisobga olishga asoslanadi.

Avvalo, u aholining milliy-tarixiy turmush va tafakkur tarzidan, xalq an'analari va urf-odatlaridan kelib chiqadi.

Chuqur ildizi o'tmishdagi an'anaviy jamoa turmush tarziga borib taqaladigan kollektivchilik asoslari O'zbekiston xalqiga tarixan xosdir. Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, ochiq ko'ngillilik, millatidan qat'iy nazar odamlarga hayrixohlik bilan munosabatda bo'lish, o'zgalar qo'lfatiga hamdard bo'lish va o'zaro yordam tuyg'usi kishilar o'rtasidagi munosabatlarning me'yori hisoblanadi. o'zbeklar diyoriga, o'z Vatanga mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, bilimga, ustozlarga, ma'rifatparvarlarga nisbatan alohida hurmat-ehтиrom O'zbekiston aholisiga xos fazilatlaridir. Ichki va tashqi siyosatni ishlab chiqib, amalga oshirish chog'ida islom dinini e'tiborga olish muhim ahamiyatga ega. Odamlarning turmush tarzida, ruhияtida, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini shakllantirishda, islornga e'tiqod qiluvchi xalqlar bilan yaqinlashish istagida ham shu omil namoyon bo'lmoqda.

Mazkur mintaqaning qadimiy tarixi va madaniyati, bunda yashab o'tgan SHarq mutafakkirlari va faylasuflarining jahon madaniyatini rivojlantirishga qo'shgan g'oyat katta hissalari ham bu erda yashayotgari odamlar turmushini barcha tomonlariga sezilarli ta'sir o'tkazmoqda. o'tmishdagi allomalarning bebaho merosi qanchadan - qancha avlodlarning ma'naviy-ruhiy ongini va turmush tarzini shakllantirgan edi va u hamon ta'sir ko'rsatmoqda.

Respublikadagi o'ziga xos demografik vaziyat — g'oyat muhim xususiyatlardan biridir. Respublikamizda aholi va mehnat resurslari har yili yuksak sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Aholining yamidan ko'prog'i qishloq joylarda yashaydi va asosan, dehqonchilik bilan shug'ullanadi. Aholi tarkibida 60 foizdan ko'prog'i bolalar, o'smirlar, 25 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlardir.

O'z ajdodlari qadimdan yashab kelgan joylarga bog'langanlik, ko'chib yurishga moyillikning yo'qligi respublika aholisiga xos xususiyatdir. Respublikaning yana bir xususiyati — milliy tarkibining o'ziga xosligidir. Etnik tarkibda tub aholi ustun mavqeni egallaydi. SHu bilan bir vaqtda respublika hududida o'z madaniyati va an'anasiga ega bo'lgan yuzdan ziyod millat vakillari yashab turibdi. O'zbekistonning milliy - madaniy jihatdan g'oyat rang-barangligi milliy o'zligini anglash va ma'naviy qayta tiklanishning kuchayib borishi bilan uzviy birlikda jamiatni yanilash, uyi "ochiq jamiatga aydantirish uchun qudratli omil ko'lib xizmat qiladi va respublikaning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi uchun qulay sharoitlarni vujudga keltiradi.

Respublika qulay geostrategik mavqega ega. Tarixan hozirgi O'zbekistonning hududi shunday joy bo'lganki, bu erda juda ko'lina savdo yo'llari (mashhur Buyuk Ipak yo'li) tutashgan, jo'shqin tashqi aloqalar va turli madaniyatlarining bir - birini o'zaro boyitishi jarayoni kechgan, hozirgi kunda O'zbekiston o'zining mustaqil energetika va suv tizimlariga ega bo'lgan sobiq

sovet O'rta Osiyosining markazida turibdi, ko'pgina masalalarda respublikalar o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in bo'lib xizmat qilmoqda va xorijiy mamlakatlar bilan munosabatlarni rivojlantirishda tobora faol rol o'ynamoqda.

O'zbekistonda islohotlarni amalga oshirish yo'llari va yondashuvlarini tanlashga tabiiy - iqlim sharoitlarining o'ziga xosligi belgilovchi ta'sir o'tkazmoqda. Respublika qishloq xo'jaligi aksariyat sun'iy sug'orishga va sug'orilgan dexionchilikka asoslanadi. O'zining suv imkoniyatlari juda cheklangan. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi, butun xalq xo'jaligi tarkibida paxtachilik etakchi o'rin tutadi. O'zbekiston mustaqil O'rta Osiyo Respublikalari orasida g'oyat katta eksport imkoniyatiga ega bo'lgan juda muhim strategik xom ashyo — paxta va undan tayyorlangan mahsulotni etishtiruvchi hamda etkazib beruvchi asosiy respublikadir. Iqlim sharoitlari meva sabzavot mahsulotlari, pilla va boshqa g'oyat qimmatli qishloq xo'jalik xom ashyosini nafaqat o'z ehtiyojlarini qondirish uchun, balki boshqa mamlakatlarga etkazib berish uchun ham zarur miqdorda etishtirishni ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikaning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini himoya qilish imkonini beradigan etarli potentsialga ega. Er bag'ining g'oyat qimmatli mineral xom ashyolarga bog'liqlik chugur tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirish, respublikaning jahon bozoriga chiqishini ta'minlaydigan tarmoqlarni rivojlantirish imkonini bermoqda. SHu jihatdan xalq xo'jaligining, asosan, xom ashyo etishtirishga yo'naltirilganligini bartaraf etish va shu sababli iqtisodiyot tuzilmalari haddan tashqari bir tomonlama rivojlanganligiga, sobiq markaz o'tkazib kelgan yakkahokimlik siyosatining natijasi bo'lmish qaramlikka, ya'ni texnologiya va resurs jihatdan boshqa respublikalarga qaram bo'lib qolishga barham berish hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Keyingi o'n yillar mobaynida ma'lum qadriyatlarga ega bo'lgan kishilarning muayyan ijtimoiy engi shakllanganligini ham e'tiborga olmaslik mumkin emas. Bir tomondan, bu ijtimoiy tenglikka, kafolatlangan mehnat qilish huquqiga, yalpi bepul ta'lim va tibbiy xizmatga qat'iy tarafdorlikka intilishida namoyon bo'lmokda. Ikkinchi tomondan esa, yakkahokimlikdan iborat ma'muriy - buyruqbozlik tizimi keltirib chiqargan insonni mulkka egalikdan va xo'jayinlik tuyg'usidan begonalashtirilganligi, tayyorga ayyorlik ruhiyati yuzaga keltirilganligida ko'rinmokda.

Yuqorida qayd etilgan o'ziga xos shart - sharoitlar ham alohida, ham birgalikda hozirgi bosqichda O'zbekiston ichki va tashqi siyosatining o'ziga xos xususiyatlarini belgilab beradi».

Prezident Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan kontseptsiyadagi ana shu xususiyatlarni hisobga olish mamlakatimizda beqarorlikni vujudga kelishining, sotsial ziddiyatlarning kuchayib ketishining, aholining murakkab vaziyatga tushib qolishining oldini olish imkonini berdi. Ular o'z navbatida yuzaga kelayotgan yangi ijtimoiy - siyosiy va iqtisodiy qiyinchiliklarni sobitqadamlik bilan hal qilishda muhim rol o'ynadi va boshlangan islohotlar o'z samarasini bera boshladi. O'zbekistonning o'tish davri muammolarini hal qilishning o'ziga xos strategiyasi jahon jamoatchiligi tomonidan e'tirof etilib uni «o'zbek» modeli nomi bilan aytila boshladi. «O'zbek» modeli deganda o'zbek millatining o'ziga xos metaliteti, urf - odatlari, an'analari, qadriyatlarini, uning demografik jarayonlari, aholining milliy tarkibi, O'zbekistonning geostratik holati va boshqa bir kator omillarni hisobga olishga asoslangan demokratik jamiyat qurishning shakli tushuniladi.

Ullarni hisobga olish islohotlarning samara berishi uchun zamin tayyorladi. O'zbekistonning bu tanlangan yo'lida yana bir muhim salbiy omilni olish uning nafaqat o'zgalarga qaramligi sharoitida yuzaga kelgan yo'qotishlari, o'tkazilgan zo'raonliklar bilan bog'liq, shuning bilan birga u mustaqillikni qo'lga kiritgan sharoitda mavjud bo'lib turgan totalitar tuzumning kuchi ta'siri bilan ham bog'liqdir. CHunki u jamiyat hayotining barcha sohalarida davlatning to'la hukmronligi o'rnatilganligi bilan alohida ajralib turadi. Uning murakkabligi shundaki, bir tomondan mavjud totalitarizm vakillarning osongina hokimiyatdan ketishni xohlamasliklari, bo'ladigan har qanday o'zgarishlarga qarshilik ko'rsatishlari sodir bo'lsa, ikkinchi tomondan totalitarizm yashab kelayotgan xalqning ham yuzaga kelayotgan demokratik o'zgarishlarga ishonchsizligi, ikkilanishi, shubha bilan qarashi, tezda ko'nika

olmasligi kabi bir qator holatlarning mavjud bo'lishi, nafaqat demokratik jarayonlar rivojlanishini, xuddi shuningdek, mustaqillikning qo'ldan ketib qolish xavfini ham yuzaga keltiradi. Chunki bu davrda hali o'zgalarni o'z qo'li ostida ushlab turishga o'rganib, o'z hukmronligini, xohish - irodasini o'tkazib kelgan sobiq markaz va uning tarafdorlari endigina mustaqillikni qo'lga kiritgan yosh davlatlarni yana o'ziga qaram qilish niyatidan voz kechmagan bo'ladi. Xuddi ana shu holatlar nuqtai nazardan ham demokratik jamiyatga o'tishning "O'zbek" modeli o'zining hayotiyligini tasdiqladi.

O'zbekiston mustaqillik yillarida demokratik jamiyatga o'tishning uchta bosqichini bosib o'tdi. Ularning har biri Prezident Islom Karimov tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi birinchi chaqiriq VI sessiyasida (1996 yil 29 avgust) "Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari". Birinchi chaqiriq o'n to'rtinchi sessiyasida "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" (1999 yil, 14 aprel) va nihoyat, ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning to'qqizinchi sessiyasida "O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari" (2003 yil) qilgan ma'ruzalarida ko'rsatib berildi.

Albatta, ana shu bosqichlar biri ikkinchisidan keskin farq qilmasa-da ulardagi asosiy g'oya demokratik jarayonlarning olg'a tomon rivojlanishini va ma'lum bir vaqtga kelganda bu jarayonga yangi kuch, kudrat hamda faollik baxsh etishdir. Chunki, jarayonlar izchillik bilan tahlil etilmas, undagi asosiy muammo aniqlanmasa va istiqboldagi vazifalar belgilanmasa rivojlanish ham bo'lmaydi. SHu ma'noda ham Prezident demokratik jamiyat qurish borasidagi vazifalarni "chuqurlashtirish" (1996 yil) "erkinlashtirish" (1999 yil) va "chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyat asoslarini shakllantirish" (2003 yil) kabi kontseptual g'oyalarda belgilab bergan.

Ammo, bu degani o'tish davrining mustaqil ravishda bir necha bosqichlardan iborat ekan, degan xulosa kelib chiqishiga asos bo'lmasiligi kerak. Chunki, o'tish davrining o'zi mamlakatning turli tuzumlardan demokratiyaga o'tishdagi mustaqil "oraligi", "ko'prigi" hisoblanadi. Yuqorida ko'rsatilgan bosqichlar o'tish davrining uzluksizligini ifodalaydigan ko'rsatkichdir.

Albatta, o'tish davri ham mamlakatlarning taraqqiyoti ma'lum bosqichga etgandan keyin o'z poyoniga etishi mumkin, ayniqsa, bu «poyon»ni belgilash demokratik jamiyatga o'tish davri uchun murakkab hisoblanadi.

Bugungi kunda dunyoda ana shu "poyon"ning mezonlari quyidagilar amal qilishining realikka aylanishi bilan belgilanishi e'tirof etilgan:

1. Fuqarolarning davlat va jamiyat hayotiga dahldor qonunlar qabul qilinishidan qanchalik xabardorligi;

2. Ana shu qonunlarni qabul qilishda bevosita yoki bilvosita ishtirok qilishining real amalga oshganligi;

3. Fuqarolarning qabul qilingan qonunlarning ijrosi ustidan nazoratining to'la o'rnatilganligi amal qilinishi bilan;

4. Oddiy fuqarolarning davlat hayotiga daxldor bo'lgan va o'zini qiziqtirgan ma'lumotlarni (informatsiyalarni) bemalol, hech qanday to'siqlarsiz olish imkoniyatlarining realikka aylanishlari bilan demokratik jamiyatning fuqaroviy jamiyat darajasiga ko'tarilishi belgilanadi va o'tish davri o'z poyoniga etib, fuqaroviy jamiyatni takomillashtirish vazifalarini amalga oshirilishi jarayoni boshlanadi.

Bundan ko'rinib turibdiki, fuqaroviy jamiyat demokratik jarayonlarning rivojlanishi, uning yuksak darajaga ko'tarilishining mahsul-i hisoblanadi.

Bugun O'zbekiston demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishning vazifalarini izchillik bilan amalga oshirishdan iborat bo'lgan o'tish davrini o'z boshidan kechirmoqda.

O'zbekistonda mustaqillik e'lon qilinganidan so'ng xalqimiz hayotida juda muhim o'zgarishlar ro'y berdi. SHu tarixiy sanadan boshlab, yangi mustaqil milliy va zamonaviy davlatchilikni shakllantirish, uning milliy taraqqiyot strategiyasini belgilash vazifasi ko'ndalang bo'ldi. Ma'lumki, u yoki bu davlatning umurnijahon tizimida egallab turgan mavqeiini belgilash

uchun ko'p yillar mobaynida o'sha mamlakatning aholisi, harbiy imkoniyati, ijtimoiy infratuzilmasi va aloqa vositalari hamda geografik joylashishi hisobga olingan.

XXI asrga kelib er yuzi da shunchalik ulkan siljishlar sodir bo'ldiki, endilikda, bu to'rtta ko'rsatkich davlatning jahon siyosatida tutgan o'rnini belgilashda birdan-bir asos bo'lmay qoldi. Er kurrasi bugun har doimgidan ko'ra murakkab va tahdidlidir. SHu bois bunday paytda dunyoda o'z o'rnini belgilash yo'lida bekamu ko'st ish olib borish zarur. Agar mustaqilligimizning dastlabki paytlarni ko'z o'ngimizga keltirsak, bu murakkab davrda o'z o'rnimizni aniq belgilash jarayonida ba'zan noaniqliklar bilan to'qnash kelgan paytlar ham bo'ldi. Bu tabiiy, ammo keyingi taraqqiyot yillarida O'zbekiston o'z manfaatlarini xavfsizligini ta'minlash borasida zarur xulosalar chiqarish va ulkan marralarni qo'lga kiritishga erishdi. Bu, o'z navbatida, xalqaro miqyosda O'zbekistonning obro'-e'tiborini oshirdi.

O'zbekistonimizning demokratik jamiyat sari o'ziga xos yo'l bilan ilgari lab borishi Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan mohiyatan tadiriy, ta'limotiga asoslanib, hozirgi davrda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, mamlakatni modernizatsiya va isloh etish hamda yangilanish bosqichini muvaffaqiyat bilan boshdan kechirmoqda.

O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, u yoki bu mustaqil davlatning jahon siyosat maydonidagi o'rnini boshqa birov belgilab bermaydi. Bu yo'l da jiddiy muammolarga e'tiborini qaratgan va paydo bo'lgan barcha savollarga javob topgan holda dunyo voqealarining shiddatli o'zgarishlariga davlatning o'zi har doim tayyor turishi kerak.

Jamiyatni va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni yangilashning o'z yo'li ikkita ibtidoiy asosning birikuviga asoslanadi:

1. Jahon tajribalarini har tomonlama o'rganish, iqtisodiy islohotlarni o'tkazish bo'yicha jahon tajribasida to'plangan barcha ilg'or ishlarni keng qo'llash.

2. Respublikaning o'ziga xos sharoitini, an'analari, urf-odatlarini, O'zbekiston xalqining hayot tarzini har tomonlama keng va to'la hisobga olish.

SHu o'rinda yurtboshimiz ta'kidlaganidek: "Bunday sharoitda o'z ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'li va andozasini tanlab olish juda katta ahamiyatga molik. Bu yo'l va andoza iqtisodiyoti bozor munosabatlari asosiga qurilgan, rivojlangan mamlakatlarining ko'p asrlik tajribasiga, shuningdek, O'zbekiston xalqining milliy tarixiy merosi, turmush tarzi, an'analari va ruhiyati xususiyatiga tayanishi lozim"<sup>1</sup>.

Iqtisodiy taraqqiyotning "O'zbek modeli", "o'tish davri"ning asosiy hayot qonuniyatiga aylanmoqda. Bugungi kunda sodir bo'layotgan barcha o'zgarishlarning islohiy asosi "evolyutsion-tadiriy" yo'nalishdagi, nazariy fikrlari, Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan 5 tamoyil shaklida berilgan davr talabidir.

Mamlakatimiz Prezidenti O'zbekiston fuqarolarining har biri uchun oliy ne'mat bo'lgan mustaqillik to'g'risida so'z yuritar ekanlar, uni jamiyat rivojining asosi, bugungi va uzoq istiqboldagi taraqqiyotimizning sharti, barcha islohotlarimizning mezonini va nihoyat, barchamiz amal qiladigan bosh tamoyil deb atadi.

Iqtisodiyotni isloh etishning tamoyillari quyidagilardir:

1. Iqtisodiyotni mafkuradan batamom holi qilish. Iqtisodiyot siyosatdan ustun turmog'i, uning ichki mazmunini tashkil qilimg'i kerak.

2. O'tish davrida davlatning o'zi bosh islohotchi bo'lishi zarur. Davlat butun xalqning manfaatlarini ko'zlab, islohotlar jarayonining tashabbuskori bo'lishi, iqtisodiy taraqqiyotning etakchi yo'nalishlarini belgilashi, iqtisodiyotda, ijtimoiy sohada va suveren davlatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida tub o'zgarishlarni amalga oshirish siyosatini ishlab chiqishi va izchil ro'yogba chiqarishi kerak.

3. Yangilanish va taraqqiyot jarayoni qonunlarga asoslanmog'i zarur. Iqtisodiy o'zgarishlar sinalgan, amaliy kuchga ega bo'lgan qonunga tayangandagina bu o'zgarishlar sezilarli natija berishi, muqarrar bo'lishi mumkin.

<sup>1</sup> Karimov I. O'zbekiston - bozor munosabatlari o'tishning o'zi ga xos yo'li. - T.: O'zbekiston, 1993. - 5-bet.

4. Demografiya sohasidagi real ahvolni, aholining mavjud turmush darajasini hisobga olgan holda bozor munosabatlariga o'tish bilan bir qatorda odamlarni ijtimoiy himoyalash sohasida kuchli chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak. Ijtimoiy himoyalash va kafolatlarning kuchli, ta'sirchan mexanizmi mavjud bo'lgandagina ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlagan holda bozor iqtisodiyoti sari tinimsiz rivojlanib borishni ta'minlash mumkin.

5. Iqtisodiy islohotlar, bozor munosabatlarini shakllantirish puxta o'ylab bosqichmas-bosqich amalga oshirilishi lozim.

Millat faoliyatining o'zagi bo'lgan mustaqillik jamiyat a'zolari oldiga muttasil yangi yangi vazifalarni qo'yib boradi va bajarilishini talab qiladi. Taraqqiyotning har bir bosqichi bu — muammolar va ularni bartaraf etish yo'lidagi yangi vazifalar demakdir, deb ta'kidlaydi davlatimiz boshlig'i.

Katta va kichik millatlar, davlatlar va qo'aversa, xalqaro hamjamiyat tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, vujudga kelgan muammolar echimida sustkashlik qimmatga tushishi mumkin. Zotan, har qanday muammo boshqa qator xavf-xatarlarni keltirib chiqaradiki, bu o'z navbatida, har qanday davlat taraqqiyotini ancha murakkablashtiradi. Demak, mamlakat taqdiri uchun mas'ullikni o'z zimmasiga olgan hokimiyat tuzilmasi bu borada bir nafas ham beg'arnlikka yo'l qo'ya olmaydi, doimo uyg'oq va harakatda bo'lishi lozim.

Mustaqillik — tom ma'noda inson erki, ozodligi va haq-huquqlari bilan bog'liq bo'lgan ulkan qadriyat. Har qanday mustaqil davlat o'zini siyosiy mustaqilligini bevosita fuqarolar taqdiri bilan bog'liq bo'lgan erkin jamiyat va ozod shaxs timsolida ko'rsatmog'i lozim.

Ko'rib turganimizdek, mustaqillik milliy taraqqiyot yo'lini erkin tanlash uchun beqiyos imkoniyat yaratdiki, bu nuqtai nazardan mustaqillikni demokratiya uchun shart-sharoit, deb hisoblasak bo'ladi. Bunday tarixiy paytlarda bugun va kelajak bir-biriga chambarchas bog'liq ikki muammoning aniq echimiga borib taqaladi.

**Birinchi**dan, u — demokratiya borasida jahon xalqlari tajribasini olish va **ikkinchi**dan, undan omilkorlik bilan foydalanish, ya'ni demokratiyadan millat ravnaqi manfaatlari yo'lida foydalanish bilan bog'liq vazifalarni hal qilish kerak.

Ulardan biri, ya'ni jahon demokratik tajribasidan foydalanish masalasi nihoyat darajada murakkab, millatdan ulkan intellektual va ruhiy qudratni talab qilishini inobatga olish alohida ahamiyatga ega. Zero, bu masala bevosita millatning demokratiyani jamiyat taraqqiyotining muhim vositalaridan biriga aylantirish qobiliyati, salohiyati bilan o'lchanadi. Demak, O'zbekistonda bu masala qanday echimni topdi va unda O'zbekistonning hissasi qanday bo'lganligiga e'tiborni qaratish foydalan holini emas.

Ma'lumki, o'zida dunyo tajribasini mujassamlashtirgan jamiyatni idora etish uslubi sifatida demokratiya insoniyat taraqqiyotiga behisob hissa ko'shdi va o'zining afzalligini har doim isbot qilib kelgan. Lekin bu uni shunchaki qanday bo'lsa shunday O'zbekistonga tadbir etsak bo'laveradi degani emas. Bu muammoni muvaffaqiyatli echish uchun millatning aql-zakovati ish berishi zarur edi. Xo'sh muammo nimada?

Muammo shundaki, davlat yoki millat umrboqiylikka yo'g'rilishi uchun aholisi va jamiyat joylaridan tashqari, o'ziga xos va mos urf-odat va axloq qonunlari majmuasi, bosh qonus, ya'ni Konstitutsiya hamda ularga tayanib tuzilgan milliy boshqaruv uslubi ya'ni davlatchilik va hayot tarzini shakllantirish shart. Demokratiyaga nisbat qiladigan bo'lsak, muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun O'zbekiston aynan shu yuqorida keltirilgan omillar bilan u hamohanglik etishi zarur edi va shunday bo'ldi. Natijada demokratiya "O'zbekiston modeli"ga aylandi, qizig'i shundaki, milliy davlat bu erda, ya'ni siyosiy muqobilsizlik vaziyatini boshidan kechirgan.

Demokratiyaning O'zbekiston uchun ma'qul boshqaruv uslubiga aylanishi uchun hisobga olinishi zarur bo'lgan sotsiomadaniy xususiyliklar esa vazminlik, bag'rikenglik, o'zaro hurmat va muruvvat, insofilik, atrof-muhitga falsafiy munosabat, donolik, o'z qarori va ajdodlar o'g'riga sodiqlik va jamoachilik ko'nikmalaridan tarkib topadi. Demokratiyaning "O'zbekiston modeli"ning yurtimizda ravnaqini ta'minlash uchun, qo'aversa geografik joylashuv, unga monand holda asrlar osha shakllangan xo'jalik yuritish vositalari va ko'nikmalari hamda

insonlararo aloqalar ham hisobga olishni taqozo etadi. Ana shundagina, demokratiya xalqimizga beminnat xizmat qilish mumkin.

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq O'zbekistonda "islohotlar islohot uchun emas, islohot inson uchun" tamoyili ilgari surildi va u izchillik bilan amalga oshirildi. YA'ni har qanday islohot, yangilanishlar eng avvalo inson ongi va tafakkuri, qalbi va tuyg'ulari orqali amalga oshirilmo'g'i lozim. Buning uchun dastlab odamlarni islohotlarga tayyorlash, unga butun imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratish erkinlik berish zarur edi. Bu o'z o'zidan jamiyatni erkinlashtirish, demokratik tamoyillarini chuqurlashtirishni taqozo etadi. Ana shu jihatlarini nazarda tutib, Prezident I.Karimov "Demokratik o'zgarishlar va yangi demokratik jarayonlarni boshqarishni va hayotga tadbir etishni hamda ularni himoyalashni jamiyatning o'zi anglamog'i dalkor", — degan edi.

Ana shu nuqtai nazardan qaraganda O'zbekiston tanlagan yo'li inson manfaatlarini to'la himoya qilingan, uning erki, ozodligi har tomonlama huquqiy kafolatlangan fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lidir. Aytish joizki, O'zbekiston tarixiy taraqqiyot taqozosi tufayli paydo bo'lgan imkoniyatdan shu tariqa foydalandi. Bu albatta, inson ongi va tafakkuridagi mutelik va tobekik ruyiyatini o'zgartirish, turmush tarzini yangilash orqali ochiq jamiyatni vujudga keltirishning yaxlit va to'laqonli tizimini ishlab chiqishni, mazkur tizimni ijtimoiy amaliyotga yo'naltirish yo'riqlarini barpo etishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida inson ongi va qalbi bilan bog'liq bo'lgan, uni isloh qilish, yangilash, ma'naviy-ruhiy "tamirlash" kabi sermaslaqat yo'ldan bordi. Bu juda katta sabr-bardosh, siyosiy qudrat, siyosiy madaniyat va siyosiy iroda talab etadigan ijtimoiy zarurdir.

Prezident I.A.Karimov "Aholimizning siyosiy faolligi hali zamon talablari darajasida emasligini, harmon sust ekanligini qayta-qayta ayushga to'g'ri kelmoqda. Barcha muhim qarorlar yuqoridan qabul qilinib, bizlarni bor - yo'g'i itoatli ijrochilarga, ba'zan o'ylanmay qabul qilingan qarorlar qurboniga aylantirgan ma'muriy-buynqbozlik, mustabid tuzum illatlaridan judo bo'lishimiz qiyin kechyapti", — degan edi. Bu jamiyatni erkinlashtirish va shu asosda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishda eng katta g'ov bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy holatlardan biridir.

Milliy siyosiy madaniyatning yo'nalishi, siyosiy ong darajasi jamiyat hayotida inson ishtiroking qandayligini belgilaydi. Zotan, siyosiy madaniyat va siyosiy ong yuksak bo'lgan joyda odamlar hokimiyat ishida faolroq ishtirok etishadi. Qarorlar qanday qabul qilinishi, uning ijrosi qanday nazorat qilinayotganligini kuzatib borishadi, munosabat bildirishadi, o'z hayotlariga dahldor bo'lgan ma'muriy tadbirlarga befarq qarashmaydi. Aksincha, ularni tayyorlashda ishtirok etishadi, natijada qarorlar ijrosi uchun o'zlari manfaatdor sifatida mas'uliyatni his qilishadi.

Prezident I.A.Karimov aholining siyosiy faolligini kuchaytirish, jamiyatda manfaatlar va qarama-qarshi kuchlar o'rtasida muvozanatni ta'minlaydigan kuchli mexanizmlarni shakllantirish zarurligiga alohida e'tibor berib kelmoqda. Bu mexanizm, eng avvalo, jamiyatni erkinlashtirish orqali odamlarning saylovlarga munosabatini o'zgartirishni yaqin o'tmishimizga xos xususiyat bo'lgan soxta saylovbozlik va siyosiy o'yinlardan voz kechishni taqozo etadi.

Odamlar o'z manfaatlarini va maqsadlarini amalga oshirish, haq - huquqlarni himoya qilish uchun saylovlarda ishtirok etish zarurligini anglay boshladilar. Saylash va saylanish huquqi har bir fuqaro siyosiy faolligini, jamiyat taraqqiyotiga dahldorligini belgilovchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonda saylovlar o'tkazishning demokratik tamoyillari jahon saylov o'tkazish tajribalari asosida dunyoga keldi va shakllanmoqda. Fuqarolar esa uni to'la-to'kis qo'llab-quvvatlamoqda.

Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, uning ehtiyojlarini qondirishda davlat qurilishi, boshqaruv tizimi va jamiyatni erkinlashtirish alohida ahamiyatga ega. Bu borada Prezident I.A.Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridayoq mamlakatning strategik maqsadlarini aniq va ravshan ifodalab berdi va davlat vakolatlarini asta - sekinlik bilan,



bosqichma-bosqich nodavlat va jamoat tashkilotlari zimmasiga o'tkazish, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlarining rolini oshirib borish orqali demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish zarurligini aytgan edi. Ana shu tamoyilning o'zi fuqarolarning bir jihatdan erkinligi va ozodligini ta'min etsa, ikkinchi tomondan o'z hayotlarini izga solishga, demakki, jamiyatni boshqarishga ishtiyogini kuchaytiradi.

SHaxs o'zini jamiyat hayotining hamma sohalariga dahldor, uning oldida mas'uliyatli ekanligini anglab boradi. Bu mamlakatda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy va huquqiy islohotlar singari insonni "isloh" qilish, yangi jamiyat fuqarosini shakllantirish, eski tuzumda tug'ilib, dunyoqarashlari cheklangan insonni "yangilash", tasavvurini kengaytirish singari "insoniy islohotlar"ning samarasini ko'rsatadi.

Prezident I.A.Karimov taraqqiyotning O'zbekistonga xos va mos tamoyillarni ishlab chiqar ekan, avvalo, yaratilajak jamiyat qanday bo'lishiga e'tibor beradi va O'zbekistonda bunyod etiladigan jamiyat barcha "izm"lardan holi va u qanday nomlanishidan qat'iy nazar, adolatli, xalqchil, insonparvar jamiyat bo'lmog'i lozim ekanligiga alohida urg'u beradi.

SHuning uchun ham, mamlakat ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari natijada chinakam mustaqil O'zbekistonda yangi, adolatli jamiyat barpo etishga qaratildi. "Respublikada sobitqadamlilik bilan xalqchil, adolatli jamiyatni bunyod etish — bosh vazifadir", — deb uqtiradi Prezident. Bu boradagi fikrini davom ettirib u: "O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. Bu — mustaqil, demokratik, huquqiy davlatdir. Bu -insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millat, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodlardan qat'iy nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlatdir. Xalq davlat hokimiyatining manbaidir", — degan qoidani ilgari surdi.

Ijtimoiy hayot, mamlakatda yuz berayotgan jiddiy o'zgarishlar va inson hayoti dahlsizligi omilining chuqurlashuvi shaxsning davlat va jamiyatga bo'lgan munosabatlariga doir yangidan yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Odamlar esa shu muammolarni birin-кетин hal etish jarayonida o'z erki va haq-huquqlarini himoya qilib boraveradi.

Jamiyat taraqqiyotiga mos ravishda aholi "tarbiyalanib", shakllanib, barkamollashib boradi. Ayni paytda biz xuddi ana shunday jarayonlarni boshdan kechirayapmiz.

YUqoridagi xulosalardan kelib chiqib Prezident I.A.Karimov mamlakatning siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirishning yangi kontseptsiyasini ishlab chiqdi. Unda quyidagi mas'alalarga alohida e'tibor berildi:

—demokratik institutlar faoliyatlarini ko'rlamlarini kengaytirish;

—aholining siyosiy faolligini kuchaytirish va siyosiy

madaniyatini oshirish;

—jamiyatda manfaatlar, turli xil qarashlar siyosiy va e'tiqodiy raqobatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash;

—jamoat birlashmalarining hozirgi bosqichdagi ijtimoiy mavqegini oshirish;

—siyosiy partiya faoliyatini takomillashtirish;

—iqtisodiy hayotni erkinlashtirish;

—davlat qurilishini erkinlashtirish va fuqarolik

jamiyatini shakllantirish;

—hokimiyat bo'linish prinsipining insoniyat tomonidan umum-e'tirof etilgan tamoyillarini amalda qo'llash;

—davlat hokimiyati organlarining vakolatini nodavlat va jamoat tashkilotchilariga o'tkazish va boshqalar.

O'tish davrida ko'p millatli mamlakatda millatlararo murosalar muhitini yaratishning demokratik tamoyillari katta ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega. Ayniqsa, O'zbekistondan 130 dan ortiq millat va elatga mansub turli dunyoqarash va turmush tarziga ega bo'lgan aholi yashaydigan, 10 dan ortiq diniy konfessiyalar faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatda ijtimoiy murosalar muhitini yaratish favqulodda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur muammo

mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq hal etilishi dolzarb masala sifatida davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Darhaqiqat, jamiyatda turli diniy va g'oyaviy qarashdagi aholi tabaqalari intilishlarini uyg'unlashtirish, ularni mamlakat taraqqiyotini belgilaydigan g'oya atrofida birlashtirib yo'naltirish favqulodda katta salohiyat taqozo etishi ravshan. Ayni chog'da umumiy fikrlarga kelish har bir inson erkinligi shaxsiy talablari va rag'batini bo'lg'ish hisobidan bo'lmasligi ham zarur. Zero, inson ilohiy va tabiiy qismatiga ko'ra mutlaq betakror hodisadir.

Abu Mansur al-Moturiy mazkur masalaga alohida urg'u berib insonga berilgari muqaddas huquqlardan biri ixtiyoriy tanlov, me'yoriy muvozanatga intilish va haqni o'z rag'batiga ko'ra topa bilish salohiyati ekanligini ta'kidlaydi va barcha amallarni, xususan, me'yorlar, e'tiqodlar, qoidalar faoliyatlarini Alloh yaratadi, ammo ularning barchasini inson tanlaydi va o'z ixtiyor qilish jarayonlarida insonning mas'uliyati, e'tiqodiy javobgarligi namoyon bo'ladi", — deydi.

Darhaqiqat, millatidan, irqidan va dunvoqarashidan qat'iy nazar mamlakat fuqarosi o'z ehtiyojlarini qondirish uchun barcha inkoniyatlarga ega bo'lishi, o'z hayotini ixtiyoriy tanlov asosida yo'lga qo'yishi kerak. Ayni paytda u jamiyatda barqarorlik muvozanatini saqlash, murosaga kelish va bir-birini tushunish, bahsli tomon dalillariga adolat mezonlari bilan yondashish, umumiy hamjihatlik ruhini tarkib toptirishga o'z hissasini qo'shishi lozim. Ana shu holatning o'zi jamiyatdagi demokratik tartibotning ma'naviy qiyofasini ko'rsatadi.

Millat o'z-o'zini anglash, ma'naviy tiklanish jarayonlarida milliy mahdudlik va xudbinlikka yo'l qo'yimaslik muhim ahamiyatga egadir. Milliy uyg'onish jarayonini boshdan kechirayotgan har bir xalq o'zining milliy qadriyatlarini umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liq holda his qilishi lozim. Millatning o'zini millat sifatida anglashi dastavval insonning inson sifatida o'z-o'zini anglashidan boshlanadi. Aks holda milliy mahdudlik, milliy kalondimog'lik, milliy mansubligi orqali o'ziga bino qo'yish illatlari avj oladi va natijada demokratik tamoyillar barbot etiladi.

Milliy qadriyatlar insonning inson sifatida anglash, o'z-o'zini himoya qila olishi, erishgan zafar yo'li va mag'lubiyatlari, sitamli odamlarining yodnomalaridir. Har bir xalq dunyoga o'zining ana shu tarixiy dasturi bilan kirib keladi.

Demak, inson o'zini bashariyatning uzviy bir bo'lagi deb his etishi orqali milliy biqlik, tor manfaatparastlik, hudbinlik botqog'idan xalos etadi. SHundaygina u olam va odam o'rtasidagi munosabatlar alohidalik va umumiylik o'rtasidagi bog'liqliklar haqida o'ylashga qodir bo'ladi. Ana shu ma'naviy, intellektual-ruhiy, axloqiy imkoniyatlar insonni har qanday tor doiralardan keng dunyoga olib chiqadi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan yalpi yangilanishlar jarayonida demokratik tamoyillar alohida o'rin tutadi. U demokratiya jarayonlarini chuqurlashtirishda, jamiyatni erkinlashtirishda, fuqarolar siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda tub o'zgarishlarning "O'zbek modeli" sifatida jahon islohcilik tajribasida o'ziga xos va o'ziga mos hissa bo'lib ko'shiladi. Boshqacha qilib aytganda, jamiyatni erkinlashtirishning bunday tamoyillari O'zbekistonda vujudga keltirildi va u ijtimoiy boshqarishning xalqaro andozalariga muvofiq samarali yo'nalishi sifatida tan olinmoqda.

### III-MAVZU: "MAMLAKATIMIZDA DEMOKRATIK ISLOHOTLARNI YANADA CHUQURLASHTIRISH VA FUQAROLIK JAMIYATINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI" — 2 soat

#### Reja

1. Qonun ustuvorligi tushunchasi va uning mohiyati.
2. Jirnoiy jazolarni liberalashtirish - qonun ustuvorligining muhim sharti.
3. Qonun ustuvorligini ta'minlash — huquqiy davlat barpo etishning asosiy mezonlari.
4. Sud hokimiyatining mustaqilligi qonun ustuvorligining asosiy belgisi.

5. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish omillari.

1. Ma'lumki, O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin o'ziga xos bo'lgan taraqqiyot yo'lini — ya'ni bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan erkin, ochiq demokratik davlat qurish vazifasini asosiy maqsad qilib belgilab o'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlab o'tganidek: «Biz shunchaki demokratik jamiyat emas, demokratik odil jamiyat qurmoqchimiz... Adolat va haqiqat g'oyasi ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarini qamrab olmog'i darkor. Adolat va haqiqat g'oyasi qonunchilik faoliyatimizning zamini, bosh yo'nalishi bo'lmog'i shart.

Darhaqiqat, adolat tushunchasi bilan qonun ustuvorligi tushunchasi chambarchas bog'liqdir. YUrtboshimiz belgilab berganlaridek, qabul qilinayotgan qonunlarimizning zamirida adolat yotishi lozim. Adolatga asoslangan qonunlarning hayotga tatbiq etilishi adolatning tantana qilishiga olib keladi.

Demokratik jamiyat qurish uchun mamlakatda qabul qilinayotgan qonunlar adolati bo'lishi, o'zida xalq manfaatlarini ifoda etishi shart. Bunday qonunlarga og'ishmay itoat etilishiga, jamiyatda demokratiya qaror topadi va mustahkam bo'ladi. Chunki barcha demokratik institutlar, inson huquq va erkinliklari qonun vositasida joriy etiladi.

Demokratik jamiyatning eng muhim belgilaridan biri - jamiyat a'zolarining qonun oldidagi tengligini, Konstitutsiya va qonunlarning ustunligini ta'minlanganligidir. SHu bilan birga Konstitutsiya va qonunlarning pirovard maqsadi inson, uning huquq va erkinliklarini ta'minlashdan iborat bo'lmog'i lozim.

«Qonun ustuvorligini ta'minlash, shaxs, oila, jamiyat va davlatning huquq va manfaatlari muhofazasini kuchaytirish, aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, fuqarolarni qonunga bo'ysunish va ahrolning ruhida tarbiyalash — bu rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan chinakam demokratik, huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurishning nafaqat maqsadi, balki uning vositasi, eng muhim sharti hisoblanadi»<sup>1</sup>.

Qonun ustuvorligining mohiyati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qator moddalarida belgilab berilgan. Konstitutsiyaning III bobi ikkita 15 va 16-moddalaridan iborat bo'lib, Konstitutsiya va qonun ustunligiga bag'ishlangan.

Konstitutsiyaning 15-moddasiga muvofiq «O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi.

Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar».

O'z faoliyatini Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq amalga oshirish sanab o'tilgan sub'ektlarning konstitutsiyaviy burchi hisoblanadi. Agarda davlat organlari, nodavlat tashkilotlar, mansabdor shaxslar yoki fuqarolar o'zlarining bu burchlarini bajarmasalar, ularga nisbatan tegishli javobgarlik choralari qo'llanishi mumkin.

Konstitutsiya va qonunlarga rioya etmagan shaxslarning javobgarligi Konstitutsiyaning o'zida yoki tegishli qonun hujjatlarida mustahkamlab qo'yilgan bo'ladi. Masalan, Konstitutsiya 93-moddasining 12-bandiga muvofiq Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan tuman va shahar hokimlarini Respublika Prezidenti o'z qarori bilan lavozimidan ozod etishga haqli.

Bu borada shuni ham aytib o'tish lozimki, Konstitutsiyaning normasi boshqa qonunlarning normalariga nisbatan ustunlik xarakteriga ega. Chunki Konstitutsiya barcha boshqa qonunlar uchun poydevordir.

SHuning uchun ham Konstitutsiyaning 16-moddasida mustahkamlangan qoidaga binoan «Birorta ham qonun yoki boshqa normativ huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga

<sup>1</sup> Karimov I.A. Adolat qonun ustuvorligida. Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining oltinchi sessiyasidagi ma'ruza. 2001 yil 29 avgust. «Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak» kitobida, 10-j., -T., O'zbekiston, 2002, 28-bet.

zid kelishi mumkin emas». Agarda birorta normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiyaga zid keladigan boʻlsa, u bekor qilinishi lozim.

Oʻzbekiston Respublikasida normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga mosligini taʼminlash mexanizmi ishlab chiqilgan va amalda qoʻllaniladi.

Xoʻsh, Konstitutsiyaning bu moddasiga binoan qonun voki boshqa normativ-huquqiy hujjatning Konstitutsiyaga mosligini qaysi organ nazorat qiladi, degan savolning tugʻilishi tabiiydir.

Normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga mosligini nazorat qilishni uning qaysi bosqichida amalga oshirilishiga qarab, quyidagi ikki turga boʻlish mumkin:

**Birinchiidan, dastlabki nazorat.** Bu nazorat normativ-huquqiy hujjatlar loyiha shaklida tayyorlangan vaqtda ularni huquqiy ekspertizadan oʻtkazish orqali amalga oshiriladi. Oʻzbekiston Respublikasining «Normativ-huquqiy hujjatlar toʻgʻrisida»gi 2000 yil 14 dekabrda qabul qilingan qonunining 18-moddasiga muvofiq «Huquqiy ekspertiza normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlagan organing yoki normativ-huquqiy hujjatni qabul qiladigan organing yuridik xizmati, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan amalga oshirilishi mumkin».

**Ikkinchiidan, keyingi nazorat.** Bu nazorat normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinganidan keyin amalga oshiriladi. Keyingi nazoratning oʻzini ham ikki turga boʻlish mumkin.

a) Normativ-huquqiy hujjat qabul qilinganidan keyin, ammo u hali kuchga kirishidan avval amalga oshiriladigan nazorat. Bu nazorat ham Adliya vazirligi tomonidan vazirliklar, davlat qoʻmitalari va idoralar qabul qilgan umumijburiy xarakterga ega boʻlgan normativ-huquqiy hujjatlarni davlat roʻyxatidan oʻtkazishdan avval amalga oshiriladi. Bu normativ-huquqiy hujjatlar davlat roʻyxatidan oʻtkazilgandan keyingina kuchga kiradi.

Oʻzbekiston Respublikasida vazirliklar, davlat qoʻmitalari va idoralarning umumijburiy xarakterdagi normativ-huquqiy hujjatlarining Konstitutsiya va qonunlarga mosligini taʼminlash maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1993 yil 17 iyunda «Vazirliklar, davlat qoʻmitalari va idoralarning umumijburiy tusdagi normativ hujjatlarining huquqiy ekspertizasi va ularni davlat roʻyxatiga olish toʻgʻrisidagi Nizomni tasdiqlash haqida» va 1997 yil 9 oktyabrda «Vazirliklar, davlat qoʻmitalari va idoralar meʼyoriy hujjatlarining qonuniyligini taʼminlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida» qarorlar qabul qildi.

Bu qarorlarning mohiyati shundaki, ular umumijburiy xarakterdagi idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat roʻyxatidan oʻtkazilishining majburiyligini taʼminlab berdi. 1997 yil 9 oktyabrda qarorda belgilanishicha, agar shunday hujjatlar davlat roʻyxatidan oʻtkazilmasa, ular yuridik kuchga ega boʻlmaydi. Konstitutsiya yoki qonunga zid boʻlganlari esa davlat roʻyxatiga olinishi mumkin emas. Ana shunday yoʻl bilan idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga va qonunlarga mosligi taʼminlanmoqda.

b) Kuchga kirgan normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga mosligi yuzasidan nazorat. Bunday nazoratni barcha davlat organlari amalga oshiradilar.

Umuman olganda, qonunlarning ijro etilishi va normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga va qonunlarga mos boʻlishini nazorat qilish qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatini amalga oshiruvchi davlat organlari tomonidan olib boriladi.

Qabul qilingan qonunlarning ijro etilishini nazorat qilib borish Oliy Majlis faoliyatida oʻziga xos oʻrin tutadi. Oliy Majlis tomonidan qonunlarga rioya qilinishini nazorat qilish, ularning taʼsirchanligini oʻrganish, qonun hujjatlaridagi kamchiliklarni, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi nuqsonlarni oʻz vaqtida bartaraf etish maqsadini koʻzlaydi. Oliy Majlis qoʻmitalari va komissiyalari har yili qariyb 50 ta qonunning ijrosini oʻrganadilar. Qonun hujjatlari talablari qanday bajarilayotganligi deyarli barcha vazirliklar va idoralarda, viloyatlarda tekshiriladi.

2. Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini taʼminlash yuzasidan parlament nazoratini amalga oshirishda Oliy Majlisning Inson huquqlari boʻyicha vakili

(Ombudsman) instituti muhim rol o'ynaydi<sup>1</sup>. Er yuzida inson borki, u doimo o'z huquqi va erkinligini himoya qilish uchun imkoniyat izlagan, Ombudemanning tashkil topishi esa, davlat bilan fuqaro o'rtasidagi munosabatlarga yanada aniqlik kiritdi. Ombudeman fuqarolarning haq-huquqlarini himoya qiluvchi, munosabatlarni nazorat qiluvchi vakildir. Ombudeman (Hombutsman) shvedcha so'z bo'lib, hukumat idoralari faoliyatini taftish, nazorat qiluvchi mansabdor shaxs yoki vakil ma'nosini anglatadi<sup>2</sup>.

Ushbu faoliyat turiga oid ma'lumotlar hozirgi zamon huquqiy adabiyotlarida keng tarqalgandir. Biroq jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashda Ombudeman institutining o'ziga xos taqini va tarixiy ildizlari mavjud. SHu nuqta nazardan, amerikalik mutaxassis Din Gotteremning bildirgan fikrlari diqqatga sazovordir. U shunday deb yozadi: Ombudsman institutining ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaladi. Ombudsmanning tarixiy ildizlaridan biri Qur'oni Karim va islom mafkurasiining bir qismi sifatida odillik tamoyillaridan kelib chiqadi<sup>3</sup>. O'sha payt inson huquqi va erkinliklarini himoya qilish, mulkiy, oila va nikohga oid huquqlarni tartibga soluvchi hamda shikoyatlarni qabul qilish va nizolarni hal qilish uchun muxtasib mansabi dastlab halifa Umar tomonidan tashkil etilgan edi. Keyinchalik ana shunday muxtasib mansabi Movarounnahrda mavjud xonliklarda ham tashkil etilgan bo'lib, ular asosan, fuqarolarning shikoyatlarini adolat nuqtai nazaridan hal etishga intilganlar.

SHunday qilib, Ombudsman institutining ildizlari Din Gotterer ta'kidlaganidek, SHarq mamlakatlari davlatchiligiga borib taqaladi. Biroq, Er yuzida rasmiy ravishda esa, birinchi marotaba Ombudsman instituti 1709 yil SHvetsiya qirolligi huzurida tashkil topgan. 1709 yili SHvetsiya qiroli Karl XII Poltava janglarida mag'lubiyatga uchrab, Turkiya davlatiga qochib ketadi. Qirolsiz qolgan SHvetsiyada tartibsizlik boshlanadi. Bundan xabar topgan Karl XII Turkiyada turib, 1713 yil SHvetsiya qirolligi huzurida Ombudsman tashkil qilish haqidagi qonunga imzo chekadi. Bugungi kunda deyarli barcha demokratik mamlakatlarda Ombudsman instituti tashkil etilgan. Ombudsmanning muhim xususiyatlaridan biri uning mustaqilligidir.

Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) demokratik yo'ldan borayotgan jamiyatimizdagi inson huquqlari bilan bog'liq muammolarni hal qilishda faol ishtirok etmoqda. Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili Ombudsman 1997 yil 24 aprelda qabul qilingan qonunda berilgan vakolatlariga muvofiq faoliyat ko'rsatmoqda. Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda alohida ahamiyatga ega bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonuni 26-moddasining birinchi qismiga muvofiq «Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga zid keladigan qarori O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan bekor qilinadi».

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 93-moddasining 1-bandiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining Prezidenti «fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, Konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishining kafilidir».

Bu nomga ko'ra, Prezident birinchidan, qabul qilinayotgan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda fuqarolarning huquq va erkinliklariga rioya etilayotganligini, ikkinchidan esa, ularning Konstitutsiyaga mosligini nazorat qilish boradi.

Konstitutsiyaga ko'ra, qonunlar Respublika Prezidenti tomonidan imzolaniadi, boshqacha qilib aytganda, o'zining rasmiy tasdiqini topadi. Agar Prezident qabul qilingan qonunda fuqarolarning huquq va erkinliklariga rioya etilmagan yoki u Konstitutsiyaga zid deb hisoblasa, Konstitutsiya 93-moddasining 14-bandiga muvofiq qonunga o'z e'tirozlarini ilova etib, uni takroran muhokama qilish va ovozga qo'yish uchun Oliy Majlisga qaytarishga haqli. Agarda boshqa normativ-huquqiy hujjat, masalan, Vazirlar Mahkamasining qarori, vazirning buyrug'i,

<sup>1</sup> Xalilov E.X. O'zbekiston Respublikasining Parlamenti: Birinchi chaqiriq Oliy Majlisning faoliyati. -T.: O'zbekiston, 1999, 11-17 betlar

<sup>2</sup> Mustaqillik: izohli ilmiy-ombabop lug'at. -T.: SHarq, 1998, 179-b.

<sup>3</sup> Gotterer D. Ombudsman haqida //Demokratlashtirish va inson huquqlari. -1999, 1-son, 27-b.

hokimning qarori Konstitutsiyaga yoki qonunlarga zid bo'lsa, Respublika Prezidenti shu moddaning 13-bandiga muvofiq uni to'xtatishga yoki bekor qilishga haqli.

«Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunni 26-moddasining ikkinchi qisminiga muvofiq «Hokimlarning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Hukumat hujjatlariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining davlat manfaatlariga zid keladigan hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tomonidan to'xtatiladi va bekor qilinadi».

Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, qonun ustuvorligini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qonunchilik tashabbusi asosida inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunlar loyihalarining kiritilishi ham katta ahamiyatga ega.

Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan insonparvarlik, adolatparvarlik g'oyalari asoslangan jinoyat, jinoyat-protsessual qonun hujjatlarini takomillashtirishga, jinoiy jazolarni liberallashtirishga qaratilgan bir qator qonun loyihalari Oliy Majlisga kiritildi. Ularning qabul qilinishi mamlakatimiz ijtimoiy hayotida o'zining samarasini bermog'da.

Masalan, Respublikamiz Prezidenti tomonidan loyihasi kiritilib, 2001 yil 29 avgustda Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan «Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Mamuriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida»gi Qonun bilan jinoiyatlarni tasniflash engillashtirish ma'nosida takomillashtirildi, yarashuv instituti joriy etildi, Jinoyat kodeksidagi o'lim jazosini nazarda tutuvchi moddalar soni keskin kamaytirildi, mol-mulkni musodara qilish jinoiy jazo sifatida bekor qilindi va shu kabi inson huquqini himoya qilishga qaratilgan qator chora-tadbirlar qo'llanildi.

O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi 2001 yil 29 avgustda yangi tahrirda qabul qilingan Qonunining 20-moddasiga muvofiq «Vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning harbiy qismlari, harbiy tuzilmalari, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi, shuningdek, ular tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqi nazorat prednети hisoblanadi».

3. Huquqiy davlat tushunchasi demokratik davlat tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, demokratik, huquqiy davlat kuch, inqilob bilan emas, balki tabiiy-tarixiy evolyutsion yo'l bilan barpo etiladi. Albatta, har qanday jamiyatda huquqiy davlat tushunchasi yoki bu qonunlarning mavjudligi bilan belgilanmaydi. Negaki, qonunlar huquqiy normalar majmui sifatida har bir davlatda mavjud va har qanday hokimiyat ularidan foydalanadi. Hamma gap o'sha qonunlarning qandayligida va ularning qanday bajarilishi dadir.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ruzalarida «Huquqiy davlatning mazmun-mohiyatini belgilaydigan amaldagi kodekslar, qonunlar, me'yoriy hujjatlarni tanqidiy bahoilagan holda huquqiy davlatni shakllantirish borasida birinchi galda qabul qilishimiz zarur bo'lgan yangi qonun va me'yoriy hujjatlarni aniqlab olishimiz kerak» deb ta'kidlab o'tdilar<sup>1</sup>.

Mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlashda yurtboshimizning 1996 yil 31 oktyabrda «Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi»ni tuzish to'g'risidagi farmoni alohida ahamiyatga ega bo'lmoqda. Bugungi kunda Milliy markaz mamlakatimiz va butun jahondagi inson huquqlari, erkinliklarini jahon xalqaro huquq normalar asosida himoya etishning ta'sirli vositasi sifatida faoliyati ham ibratli bo'lmoqda. Biroq bu borada demokratik tamoyillarni hayotga to'liq joriy etilishida jiddiy ayrim muammolar ham mavjud. Ulardan biri tom ma'nodagi sud mustaqilligiga erishishdan iboratdir. Prezidentimiz

<sup>1</sup> Karimov I. A. Ozod va obod Vatan. erkin va farvon hayot pirovardi maqsadiniz. -T.: O'zbekiston, 29-bet.

I.A. Karimov ta'kidlaganidek, «Sudlar tom ma'nodagi mustaqil bo'lgan holdagina qonunlarning qat'iy ijrosi, ularning haqiqiy ustuvorligi so'zsiz ta'minlanadi. Qaerda sud mustaqil bo'lmas ekan, shu erda qonun talablari va adolat buzilishi muqarrar»<sup>1</sup>. Darhaqiqat qonun ustuvorligini, insonning huquq va erkinliklari himoyasini ta'minlamasdan turib, demokratik va fuqarolik jamiyatini qurish haqida so'z yuritishga hech qanday asos qolmaydi.

4. Sudlar tomonidan davlat organlari huquqiy hujjatlarining Konstitutsiyaga va qonunlarga mosligini nazorat qilinishi - sud organlarining vakolatlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 12-moddasi «Davlat organining yoki fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organining hujjatini haqiqiy emas deb topish», deb nomlangan bo'lib, uning birinchi qismiga muvofiq «Davlat organlarining yoki fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organining qonun hujjatlariga muvofiq bo'lmagan hamda fuqarolarning yoki yuridik shaxslarning fuqarolik huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzadigan hujjati sud tomonidan haqiqiy emas, deb topilishi mumkin».

Sud huquqiy hujjati haqiqiy emas, deb qaror chiqargan taqdirda, bu qaror hamma davlat organlari va boshqalar uchun ham majburiydir. CHunki Konstitutsiyaning 114-moddasida «Sud hokimiyati chiqargan hujjatlar barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir», deb mustahkamlab qo'yilgan.

Sud qaroriga ko'ra haqiqiy emas deb e'lon qilingan huquqiy hujjat - yuridik kuchga ega emas. Agarda biron-bir hujjatning qonuniyligi to'g'risida sud qarori mavjud bo'lsa, o'sha hujjat yuzasidan fuqarolar yoki tashkilotlar sudga yana shikoyat qilishlari mumkin emas.

Qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar tomonidan chiqarilgan normativ-huquqiy hujjatlarining konstitutsiyaviyligini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudiga yuklatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi qonunlarning va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qabul qilgan boshqa hujjatlarining, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlarining, Hukumat qarorlarining, davlat hokimiyati mahalliy organlari qarorlarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mosligini aniqlaydi.

Konstitutsiyaning ushbu moddasida ko'rsatilgan normativ-huquqiy hujjatlarining Konstitutsiyaga yoki qonunlarga mosligini umumiy yurisdiksiya yoki xo'jalik sudlari nazorat qilishga haqli emaslar. Ularning Konstitutsiyaga mosligini aniqlash Konstitutsiyaviy sudning mutlaq vakolatiga kiradi.

SHu erda yana bir savol tug'iladi. Konstitutsiyaviy sud faqatgina normativ-huquqiy hujjatlarining Konstitutsiyaga mosligini nazorat qiladimi yoki normativ bo'lmagan individual huquqiy hujjatlarining ham Konstitutsiyaga mosligini nazorat qiladimi? Bu to'g'rida Konstitutsiyada ham, boshqa qonun hujjatlarida ham aniq ko'rsatilmagan. Ammo, O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunining 13-moddasini oxirgi qismiga muvofiq «O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyruqlari va boshqa hujjatlari (individual xususiyatga ega bo'lgan hujjatlar bundan mustasno) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga zid bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining qarori asosida bekor qilinadi» degan norma mustahkamlangan.

Agar shu norma asos qilib olinadigan bo'lsa, fikrimizga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi respublika Prezidentining individual xarakterga ega bo'lgan farmonlarining yoki Vazirlar Mahkamasining individual xarakterga ega bo'lgan qarorlarining Konstitutsiyaga mosligini ham nazorat qilmasligi lozim.

Prokuror qabul qilgan qarorlar ustidan, shuningdek, respublika Bosh prokurori qabul qilgan individual xarakterga ega bo'lgan buyruqlar va boshqa hujjatlar ustidan amaldagi qonun hujjatlariga ko'ra, sudga shikoyat qilish mumkin emas. CHunonchi, «Prokuratura to'g'risida»gi

<sup>1</sup> Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l - demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T. II. -T.: O'zbekiston, 2003, 31-bet.

qonunning 7-moddasida prokuror qabul qilgan «qaror ustidan yuqori turuvchi ppokypogga shikoyat qilinishi mumkin» degan qoida mustahkamlab qo'yilgan.

Fikrimizcha, bu normaning o'zi Konstitutsiyaga mos emas. Konstitutsiyaning 44-moddasida «Har bir shaxs o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayri-qonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlari anadi», deb ko'rsatilgan.

Agarda umumiy yurisdiksiya sudlarida yoki xo'jalik sudlarida Konstitutsiyaning 109-moddasida sanab o'tilgan normativ-huquqiy hujjatlarining Konstitutsiyaga mosligiga shubha bo'lsa yoki bu masalada fuqarolarning shikoyatlari bo'lsa. Oliy sudning raisi, Oliy xo'jalik sudining raisi ushbu normativ-huquqiy hujjatning Konstitutsiyaga mosligini aniqlab berishni ko'pab, Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilishi mumkin.

Bunda y holda ular Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilishlari shartni yoki bu ularning huquqlarini, degan o'rinni savol tug'iladi. «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi qonunning 19-moddasiga muvofiq bu ularning huquqlaridir. Demak, ular xohlasalar Konstitutsiyaviy sudga masalani ko'rib chiqish uchun murojaat etadilar, xohlamasalar yo'q.

Normativ-huquqiy hujjatlarni Konstitutsiyaga mosligini nazorat qilishda ko'rsatib o'tilgan organlarning jumladan, Konstitutsiyaviy sudning vakolatlari muhim ahamiyat kasb etadi va mamlakatimizdagi islohotlarning keyingi bosqichlarida yana ham takomillashib boradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, qonun ustuvorligi quyidagi uchala holat bo'lgandagina, o'zining to'liq ifodasini topadi.

Birinchiidan, qabul qilinayotgan qonunlar va boshqa normativ-hujjatlar adolat printsipliga, inson huquqi va manfaatlaridan kelib chiqib, ijtimoiy asoslangan bo'lishi shart.

Ikkinchiidan, barcha qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talabi barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolar tomonidan qat'iy bajarilishi zarur.

Uchinchiidan, barcha normativ-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya va qonunlarga mos bo'lishi – qonun ustuvorligini ta'minlashning asosiy mexanizmlarini tashkil etadi. Demokratik jamiyatning muhim tamoyili bo'lgan qonun ustuvorligi mamlakatimizda barpo etilayotgan fuqarolik jamiyati qurishning asosidir. Albatta, demokratik jamiyat qurish faqat qonun ustuvorligi bilan cheklanib qolmaydi, balki xalqimizning milliy-ma'naviy negizlariga tayanishni taqozo etadi va zaruriy sharti qilib qo'yadi.

5. 2010 yil 12 noyabrda O'zRSi Prezidenti I.Karimovning O'zR Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi" e'lon qilindi, asoslab berdi. Unda quyidagi yo'nalishlarni demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor vazifalari sifatida belgilandi: 1) Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish; 2) Sud-huquq tizimini isloh etish; 3) Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash; 4) O'zbekistonda saylov huquqi erkinligini ta'minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish; 5) Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish; 6) Demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish.

I. Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish. Kontseptsiyada o'tgan davr mobaynida mamlakatimizda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar o'ta muhim bir maqsadga, ya'ni hokimiyatlar bo'linish-konstitutsiyaviy printsipini hayotga izchil tatbiq etish, hokimiyatlar o'rtasida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini shakllantirish, markazda va joylarda qonun chiqaruvchi va vakillik hokimiyatining vakolatlari hamda nazorat vazifalarining to'liq kuchaytirish, sud tizimini liberallashtirish va uning mustaqilligini ta'minlash bo'yicha g'oyat dolzarb chora-tadbirlar amalga oshirilganligi qayd etildi.

SHunin gdek, maldagi qonunchilikka qator ko'shimcha va o'zgartirishlar kiritish takliflari bildirildi. O'zR Bosh vaziri nomzodi O'zR Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovlarda eng ko'p deputatlik o'mini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi deputatlik



o'rinlarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiyalar tomonidan taklif etilishi; O'zR Prezidenti taqdim etilgan Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko'rib chiqqanidan keyin o'n kun muddat ichida uni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining ko'rib chiqishi va tasdiqlashi uchun taklif etishi; Bosh vazir nomzodi uning uchun tegishli O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining yarmidan ko'pi tomonidan ovoz berilgan taqdirda tasdiqlangan, deb hisoblanishi; O'zR Vazirlar Mahkamasining a'zolari Bosh vazir taqdimiga binoan O'zR Prezidenti tomonidan tasdiqlanishi; O'zR Bosh vaziri va O'zR Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi o'rtasida ziddiyatlar doimiy tus olgan holda Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan O'zR Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo'yicha O'zR Oliy Majlisi palatalarining qo'shma majlisi muhokamasiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masala kiritilishi; Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish tartibi va h.q. takliflar kiritildi. Bugungi kunda ushbu takliflar O'zR Konstitutsiyasini 78,98 -moddalariga kiritilgan.

**II. Sud-huquq tizimini isloh etish.** Mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichdagi eng muhim yo'nalishlaridan biri bu — qonun ustuvorligi va qonuniyligni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirishdan iboratdir. Avvalo, sud hokimiyatini bosqichma-bosqich mustahkamlab borish, sudning mustaqilligini ta'minlash, uni sobiq tuzumda bo'lgani kabi qatag'on quroli va jazolash idorasi sifatidagi organ emas, balki inson va fuqaro huquq va erkinliklarini ishonchli himoya va muhofaza etishga xizmat qiladigan tomonidagi mustaqil davlat institutiga aylantirishga qaratilgan keng ko'lamli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Fuqarolarning sud orqali himoyalaniish kafolatlari jiddiy tarzda kuchaytirildi, ushbu kafolatdan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirishni ta'minlash bo'yicha katta ko'lamdagi chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda prokuror va advokatning tengligini, jinoyat va fuqarolik ishlari bo'yicha sud faoliyatining barcha bosqichlarida o'zaro tortishuv bo'lishini ta'minlashga, odil sudlovning sifati va tezkorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar izchil amalga oshirilm oqda.

Ayniqsa, 2008 yilda «Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi bu borada g'oyat muhim ahamiyat kasb etdi. SHu asosda amaldagi qonunchiligimizga sud-huquq tizimini liberallashtirish, inson huquqlari himoyasini ta'minlash jarayonining eng muhim tarkibiy qismi bo'lgan advokatura mustaqilligini yanada mustahkamlashga qaratilgan bir qator o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

SHuni alohida qayd etish lozimki, jinoiy-huquqiy sohadagi siyosatni takomillashtirishda jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini yanada liberallashtirish va insonparvarlik tamoyillariga muvofiqlashtirish eng muhim yo'nalishga aylandi.

Iqtisodiyot sohasidagi jinoyat ishlari bo'yicha qamoq va ozodlikdan mahrum etish jazolari o'rniga jarima shaklidagi iqtisodiy sanksiyani qo'llash imkoniyati ancha kengaytirildi. Jinoiy jazo tizimidan insonparvarlik tamoyillariga mutlaqo zid bo'lgan mol-mulkni musodara qilish tarzidagi jazo turi chiqarib tashlandi.

SHuningdek, Jinoyat kodeksining 11 ta moddasiga etkazilgan moddiy zaraming o'rniga qoplangan taqdirda ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanmasligi haqidagi qoidalar kiritildi.

Aytish kerakki, jazo tizimini liberallashtirish bo'yicha amalga oshirilgan bunday chora-tadbirlarning naqadar to'g'ri bo'lganini hayotning o'zi tasdiqlab bermoqda. Ishonchim komil, xo'jalik ishlari bilan bog'liq jinoiy ishlar a odamlarni qamash shart emas — bu davlatga juda qimmatga tushadi, qolaversa, bunday jazo turi mahkumlarni tarbiyalash va qayta tarbiyalash vazifasini hal qilmaydi.

Jinoiy jazolarni liberallashtirish borasidagi bunday choralar natijasida O'zbekistonda hozirgi kunda qamoqdagilar soni jahon miqyosida eng past ko'rsatkichni, ya'ni har 100 ming

nafar aholiga 166 kishini tashkil qiladi. Qiyoslash uchun aytish mumkinki, Rossiyada bu ko'rsatkich 611 kishini, AQSHda 738 kishini tashkil etadi. Mamlakatimizda so'nggi o'n yilda ozodlikdan mahrum qilish joylarida saqlanayotgan mahbuslar soni ikki barobardan ko'proq kamayganining o'zi ham bu sohada olib borilayotgan islohotlarimizning qanday ijobiy natijalar berayotganidan dalolatdir.

**Ma'lumki, O'zbekistonda 2008 yilning yanvaridan boshlab o'lim jazosi bekor qilindi va uning o'rniga umrbod yoki uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazo turi joriy etildi.**

Mamlakatimizda o'lim jazosining bekor qilinishi xalqaro hamjamiyatning katta e'tibori va e'tirofiga sazovor bo'lgani albatta ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga molik o'ta muhim voqeadir. Nufuzli xorijiy ekspertlarning ta'kidlashiga ko'ra, ushbu chora va bu sohada yuqorida ko'rsatilgan boshqa bir qator ishlarning amalga oshirilishi bilan O'zbekistonda dunyodagi eng liberal jinoiy jazo tizimlaridan biri yaratildi. Xalqaro ekspertlarning bu boradagi ijtisoiy tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi Germaniya va Polshada 5 ta, Belgiya va Rossiyada 6 ta, Daniyada 9 ta, SHvetsiyada 13 ta, Frantsiyada 18 ta, Gollandiyada 19 ta jinoyat turi bo'yicha tayinlanishi mumkin.

O'zbekistonda esa umrbod ozodlikdan mahrum qilish favqulodda jazo chorasi bo'lib, faqat ikki turdagi jinoyat, ya'ni javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirish va terrorizm uchun tayinlanadi. Ushbu jazo turi bizning mamlakatimizda xotir-qizlarga, jinoyat sodir etgan paytda 18 yoshga etmagan shaxslarga va yoshi 60 dan oshgan erkaklarga nisbatan qo'llanilishi mumkin emas.

Mamlakatimizda o'tgan davr mobaynida dastlabki tergov bosqichida sud nazoratini kuchaytirish, mazkur sohada sud faoliyatini liberalashtirish bo'yicha ham keng ko'lami chora-tadbirlar ko'rilganini ta'kidlash lozim.

Bu borada «Xabeas corpus» institutining joriy etilishi, ya'ni 2008 yildan ehtiyoj chorasi sifatida qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi prokurordan sudga o'tkazilishi printsiptial qadam bo'ldi. Ushbu qarorning o'z vaqtida va puxta o'ylab qabul qilingani bugungi kunda ko'pgina amaliy misollarda o'z isbotini topmoqda. Mazkur institutning amaliyotga tatbiq etilishi insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari, uning daxlsizligini himoya qilishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu institut joriy etilgan 2008 yilning yanvaridan buyon sudlar tomonidan dastlabki tergov organlariga 700 martadan ortiq holatda mazkur ehtiyoj chorasini qo'llash rad qilingani ham buni yaqqol tasdiqlab turibdi.

Mamlakatimizda jinoiy-huquqiy sohani liberalashtirish borasidagi islohotlar haqida gapirganda, jinoyat-protsessual qonunchiligimizga kiritilgan o'zgartishlarga muvofiq tergov va shaxsni qamoqda saqlash muddatlari qisqartirilganini ta'kidlash lozim.

Shuningdek, huquqni qo'llash va sud amaliyotiga 2001 yildan boshlab yarashuv instituti kiritildi va u samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Yarashuv institutining talabiga ko'ra, ijtimoiy xavfli katta bo'lmagan jinoiy qilmishni sodir etgan shaxs jbrlanuvchiga etkazilgan zararni to'liq qoplab bergan taqdirda jinoiy javobgarlikka tortilmaydi.

Mazkur institutning samaradorligi hamda o'zbek xalqining ramdillik va kechirimlilik kabi ko'p asrlilik an'analariga mosligi uning izchillik bilan kengayib borishiga asos bo'ldi. Hozirgi kunda 53 ta jinoyat tarkibi bo'yicha yarashuv institutini qo'llash imkoniyati nazarda tutilgan.

SHu borada yana bir misolga e'tibor beraylik. Yarashuv institutining joriy etilishi natijasida o'tgan davr mobaynida 100 ming nafarga yaqin fuqaro jinoiy javobgarlikdan ozod etildi.

So'nggi yillarda yurtimizda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida qonuniy tadbirlar ta'minlash borasida jiddiy ishlar amalga oshirildi. Birinchi navbatda, prokuratura faoliyatini isloh qilish, uni sobiq tuzum davrida bo'lganidek partiyaviy elita qo'llilagi jazolash quroli emas, balki qonunlarning qat'iy ijro etilishini, mamlakatimizda demokratik islohotlarning izchil rivojlanishini, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta'minlaydigan organga aylantirish bo'yicha salmoqli ishlar qilindi.

Masalan, 2001 yilda yangi tahrirda qabul qilingan «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunga muvofiq fuqarolar prokuror nazorati obektlari qatoridan chiqarildi. Ayni paytda prokuraturaning inson huquq va erkinliklari, uning qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlash uchun mas'uliyati oshirildi.

SHuningdek, sud qarorlari ijrosini to'xtatib turish huquqi prokuratura vakolatlari doirasidan chiqarildi. Tuman va shahar prokurorlarining esa tergov va ayblanuvchini qamoqda saqlash muddatlarini uzaytirish huquqlari bekor qilindi.

Bugungi kunda siyosiy, iqtisodiy, davlat-huquqiy munosabatlarning butun tizimini modernizatsiya qilish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, inson huquq va erkinliklarini himoya etish bo'yicha oldimizda turgan keng ko'lamlı vazifalar sud-huquq tizimini yanada demokratlashtirish masalasini kun tartibiga qo'yayotganini biz o'zimizga albatta yaxshi tasavvur etamiz.

Bu boradagi vazifalarni samarali hal qilish maqsadida qator tashkiliy-huquqiy choralarni amalga oshirish taklif etiladi.

**Birinci.** Bundan o'n yil oldin qabul qilingan amaldagi «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi Qonunning yangi tahririni qabul qilish. YA'ni, o'tgan davrda qonun ijodkorligi jarayoni kengaygani va murakkablashgani, normativ-huquqiy hujjatlarning asoslanganiga va sifatiga nisbatan talablar sezilarli darajada oshgani bu sohada qonuniylikni ta'minlashning yangi va yanada samarali mexanizmlarini yaratishni, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning qonunlarga, sotsial-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy islohotlar ehtiyojlariga mos bo'lishini taqozo etmoqda.

**Ikkinchi.** O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 29- va 31-boblariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish. Bu o'rinda sudga qadar ish yurituv bosqichida qo'llanadigan choralar, ya'ni lavozimdan chetlashtirish va shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi protsessual majburlov choralari faqat sudyaning sanksiyasi asosida qo'llash tartibi nazarda tutilmoqda.

Ushbu vakolatlarning prokurordan sud organlariga o'tkazilishi surishtiruv va dastlabki tergov jarayonida sud nazoratini kuchaytirish, jinoyat protsessida «Xabeas korpus» institutini qo'llash sohasini yanada kengaytirish imkonini beradi. Eng muhimi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida umumiy tirof etilgan printsiplar va xalqaro huquq normalarining amalga oshirilishini ta'minlaydi.

**Uchinchi.** O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 439-moddasiga o'zgartish kiritish va unga muvofiq birinchi instantsiya sudida ish bo'yicha ayblov xulosasini o'qib eshittirish majburiyatini faqat prokuror zimmasiga yuklashni nazarda tutadigan norma o'rnatish. Chunki amaldagi qonunchilikda davlat ayblovchisi, ya'ni prokurorning sud majlisida ayblov xulosasini o'qib eshittirish bo'yicha majburiyati aniq belgilanmagan. SHuning uchun ayblov xulosasi ko'pincha sudylar tomonidan o'qib eshittiriladi. Bu esa sudning vazifa va maqsadlariga mos kelmaydi. Jinoyat-protsessual qonunchiligiga yuqorida ko'rsatib o'tilgan normaning kiritilishi sudning mustaqilligi, xolisligi va beg'arazligini ta'minlashga, jinoyat protsessida tortishuv printsiplarini kuchaytirishga xizmat qiladi.

**To'rtinchi.** O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 321-moddasidan sudning jinoyat ishi qo'zg'atishga doir vakolatini chiqarish. Ma'lumki, jinoyat ishini qo'zg'atish avvalo surishtiruv va dastlabki tergov organlari, jinoyi ta'qibni amalga oshiradigan boshqa huquq-tartibot organlarining vazifasi hisoblanadi. Suddan esa shaxsga qo'yilgan ayblovning qonuniy va asosli ekanini xolis baholash talab etiladi.

Vaholanki, hozirgi paytda sud tomonidan jinoyat ishini qo'zg'atish tarzidagi protsessual harakatning amalga oshirilishi mohiyatan jinoyi ta'qibning va undan kelib chiqadigan barcha oqibatlarning boshlanishi hisoblanadi. Bu esa sudni jinoyi ta'qib ishtirokchilari toifasiga kiritib qo'yadi. Aytish kerakki, bunday amaliyot sudning oliy maqsadi bo'lgan odil sudlovni amalga oshirish tamoyiliga mulliqo mos kelmaydi.

**Beshinchi.** Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish printsiplari, asoslari, shakl va uslublari, uni olib boradigan organlar tizimini belgilab beradigan «Tezkor-qidiruv faoliyati

to'g'risida»gi Qonunni qabul qilish. Ushbu qonurning maqsadi tezkor-qidiruv xususiyatidagi tadbirlarni o'tkazishda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, qonuniylikka rioya qilishning real huquqiy kafolatlarini yaratishga yo'naltirilgan. Bu qonunning qabul qilinishi demokratik davlatlarning umume'tirof etilgan amaliyotiga mos keladi. Ta'kidlash kerakki, bu qonun jinoyatlar sodir etilishining dastlabki bosqichlaridayoq ularning oldini olish va o'z vaqtida to'xtatish bo'yicha choralarning samaradorligini, shuningdek, surishtiruv va dastlabki tergovning sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ayni paytda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning, avvalambor, ichki ishlar idoralarning bu sohadagi faoliyatining yanada liberallashtirishini ta'minlashga olib keladi.

**Oldinchi.** Faol rivojlanib borayotgan demokratalashtirish jarayonlarini inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksini har tomonlama qayta ishlash va yangi tahrirda qabul qilish.

1994 yilda qabul qilingan amaldagi mazkur kodeksga o'tgan davr mobaynida 60 marta dan ko'proq o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan. Uning yangi tahriri sud-huquq tizimini liberallashtirish munosabati bilan ma'muriy qonunchilik va jinoyat-huquqiy siyosatda yuz bergan katta miqyosdagi printsiplial o'zgarishlarni o'zida tizimli va keng ko'lamli tarzda aks ettirishi lozim.

Bunda avvalambor jinoyat qonunchiligini tobora liberallashtirish, ya'ni, ayrim qonunbuzarlik holatlarini jinoyat yurisdiksiyadan ma'muriy yurisdiksiyaga o'tkazishni ko'zda tutish zarur. Kodeksning yangi tahrirda qabul qilinishi bugungi kunda o'nlab normativ-huquqiy hujjatlarda o'z aksini topgan ma'muriy javobgarlikka oid qonunchilikning unifikatsiyalashuvini, ya'ni birixillashuvini ta'minlaydi.

Shuningdek, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rishning protsessual mexanizmlarini takomillashtirish, demokratalashtirish, bu sohada qonuniyligni ta'minlash va fuqarolarning huquqlarini ishonchli himoyalash bo'yicha choralarni ham mazkur kodeksda ko'zda tutish lozim.

**Etinchi.** Rivojlangan demokratik davlatlar tajribasini inobatga olgan holda, davlat hokimiyati idoralari, huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalar, shu jumladan, prokuratura faoliyatida qonunchilik talablariga rioya qilish va qonun ustuvorligini ta'minlash bo'yicha adliya organlarining rol ini yanada kuchaytirishga qaratilgan yangi huquqiy mexanizmlarni o'rnatadigan hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish.

Adliya organlarining huquq ijodkorligi sohasi va huquqni qo'llash amaliyotida yagona davlat siyosatini o'tkazishdagi rolini kuchaytirish uchun ularga zarur bo'lgan tegishli vakolatlarning berilishi mamlakatimizning huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari tizimida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali mexanizmini yaratish imkonini beradi hamda ushbu organlar faoliyatida qonuniylig va qonun ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

**Sakkizinchi.** Jamiyatning demokratiya yo'lidan jadal rivojlanishi va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan odamlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyat darajasiga bog'liqdir. Yuksak huquqiy madaniyat — demokratik jamiyat paydevori va huquqiy tizimning etuklik ko'rsatkichidir.

Shu munosabat bilan, bugungi siyosiy-huquqiy voqealarni hisobga olgan holda, mamlakatimizda huquqiy ta'lim va ma'rifatni, jamiyatda huquqiy bilimlar targ'ibotini tubdan yaxshilashga yo'naltirilgan maqsadli keng ko'lamli chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish zarur. Ushbu dasturning amalga oshirilishi aholining inson huquq va erkinliklariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishini, fuqarolarda qonunga itoatkorlik tuyg'usining yanada ortishini ta'minlaydi.

### III. Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash

Bugun biz demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, aholining siyosiy faolligini oshirish, fuqarolarning mamlakatimiz siyosiy va ijtimoiy hayotidagi amaliy ishtiroki haqida so'z yuritish ekanimiz, albatta, axborot erkinligini ta'minlamasdan, ommaviy axborot vositalarini odamlar o'z fikr va g'oyalarni, sodir bo'layotgan voqealarga o'z munosabati va pozitsiyasini erkin ifoda

etadigan minbarga aylantirilmagan turib, bu maqsadlarga erishib bo'lmagligini o'zimizga yaxshi tasavvuretamiz.

Ma'lumki, fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta'minlash masalasi insonning axborot olish, axborotni va o'z shaxsiy fikrini tarqatish huquqi va erkinligini o'zida mujassam etgan bo'lib, bu O'zbekistonda demokratik jamiyat asoslarini barpo etishning muhim sharti, ta'bir joiz bo'lsa, tamal toshi hisoblanadi.

Mamlakatimizda o'tgan yillar davomida, ayniqsa oxirgi 10 yilda ommaviy axborot vositalarini yanada liberallashtirish, so'z erkinligini ta'minlashga qaratilgan keng qamrovli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

YUrtimizda avvalo ommaviy axborot vositalari rivojini ta'minlaydigan, demokratik talab va standartlarga to'la mos keladigan mustahkam qonunchilik bazasi yaratildi. Ushbu davrda ommaviy axborot vositalarini erkin va jadal rivojlantirishga, axborot sohasining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan lo'g'a yaqin qonun hujjatlari qabul qilindi.

«Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi har kimning axborotni erkin va moneliksiz olish hamda foydalanish huquqlarini amalga oshirishda, shuningdek, axborotning muhofaza qilinishi, shaxs, jamiyat va davlatning axborot borasidagi xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

So'nggi yillarda yangi tahrirdagi «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi Qonunga, shuningdek, «Telekommunikatsiyalar to'g'risida», «Reklama to'g'risida», «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida»gi va boshqa bir qator qonunchilik hujjatlariga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Bu esa yangi siyosiy shart-sharoitlarda ommaviy axborot vositalari sohasidagi demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirishni ta'minladi. SHu bilan birga, nodavlat ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish, ularning axborot sohasini demokratishtirishda faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan keng qamrovli institutsional islohotlar amalga oshirildi.

Nodavlat ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash, ularning moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash maqsadida bir qancha jamoat tashkilotlari tashkil qilindi. O'z tarkibida 100 dan ortiq elektron ommaviy axborot vositasini birlashtirgan Nodavlat elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, O'zbekiston mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi shular jumlasidandir.

YUridik va jismoniy shaxslarning, axborot texnologiyalari va tizimlarini qo'llagan holda, axborot resurslaridan foydalanish mexanizmlarini belgilab bergan yangi tahrirdagi «Axborotlashtirish to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi ommaviy axborot vositalarini modernizatsiya qilishni jadal rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

O'zbekistonda keyingi yillarda sun'iy yo'ldosh aloqa tarmog'i orqali teleradiodasturlarni tarqatish yo'lga qo'yildi. Bugungi kunda mamlakatimiz telekommunikatsiyalar tizimi dunyoning 180 ta mamlakatiga 28 ta yo'nalish bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri chiqadigan xalqaro kanallarga ega. YUrtimizdagi teleradiokanallar tomonidan tayyorlanayotgan ko'rsatuv va eshittirishlar Internet global tarmog'i orqali real vaqt rejimida jahonga uzatilmoqda.

Dunyodagi etakchi mamlakatlarda tajribasiga tayangan holda, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash milliy tizimining takomillashtirilishi axborot sohasidagi faoliyatning sifati va saviyasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimida ko'p jihatdan hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi.

Bunday keng miqyosdagi ishlar natijasida faqat keyingi 10 yilning o'zida bosma ommaviy axborot vositalarining soni 1,5 barobar, elektron ommaviy axborot vositalarining soni esa 7 barobar ko'payib, bugungi kunda ularning umumiy soni qariyb 1200 taga etdi. Mavjud barcha telekanallarning qariyb 53 foizi, radiokanallarning esa 85 foizi nodavlat ommaviy axborot vositalari hisoblanadi. Ommaviy axborot vositalari O'zbekistonda yashaydigan millat va elatlarning 7 ta tilida faoliyat olib boradi, shuningdek, bosma materiallar va teleko'rsatuvlar ingliz tilida ham tarqatilmog'da.

Yana bir muhim yangilik efir orqali uzatiladigan materiallarni tayyorlash jarayoniga zamonaviy raqamli va multimedia texnologiyalari joriy qilinayotganida namoyon bo'lmoqda. Yurtimizda Internet tizimidan foydalanuvchilar safi jadal sur'atlar bilan kengayib bormoqda. Bugungi kunda ularning soni 6 milliondan ortib ketgani ham buni tasdiqlab turibdi.

Mamlakatimizda fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta'minlash borasida amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlarni tanqidiy baholar ekanimiz, muhim bir masalaga alohida e'tibor qarataшимiz zarur. YA'ni, bu o'rinda gap ommaviy axborot vositalari va davlat hokimiyati organlari o'rtasidagi munosabatlarning ustuvor jihatlarni to'g'ri belgilash, jumladan, ommaviy axborot vositalari faoliyati ustidan nazorat qilishning iqtisodiy mexanizmlarini, axborot manbalarining yopiqligini, shuningdek, tahririylarlarga hokimiyat organlari va ma'muriy tuzilmalar tomonidan bo'layotgan ma'lum darajadagi bosimlarni bartaraf qilish bilan bog'liq muammoli masalalarni hal etish haqida bormoqda.

**IV. O'zbekistonda saylov huquqi erkinligini ta'minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish**

Erkin saylov va o'z xohish-irodasini erkin bildirish printsiplari, birinchi ravbatda har bir shaxsning davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish bo'yicha konstitutsiyaviy huquqi milliy davlatchiligimiz modelining asosini tashkil etadi. Saylovlar — bu mamlakatimizda amalda bo'lgan huquqiy normalarning nechog'liq demokratik ruhda ekanini namoyon etadigan, demokratik huquqiy davlatning uzviy belgisi, xalqning o'z xohish-irodasini erkin ifoda etishining, fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokining asosiy shakli bo'lib, o'ta muhim va hal qiluvchi ahamiyatga ega masaladir.

Ma'lumki, Konstitutsiyamizga, shuningdek, «Saylovchilar huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi hamda yangi tahrirdagi «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida», «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi qonunlarga 2003 va 2008 yillarda tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

SHu bilan birga, ushbu davrda mazkur sohaga oid ko'plab qonun hujjatlari qabul qilindi. Bularning barchasi milliy saylov tizimining izchil va bosqichma-bosqich liberallashuvini, ikki palatali parlament saylovlarining qonun talablari va umume'tirof etilgan xalqaro printsiplari va normalarga to'la mos holda o'tkazilishini ta'minlaydigan mukammal qonunchilik bazasining shakllanishiga olib keldi.

Ushbu qonunlarda davlat hokimiyati vakillik organlariga saylovlarning faqat ko'ppartiyaaviylik asosida o'tkazilishi qat'iy belgilab qo'yildi. Mamlakat Prezidenti lavozimiga, Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlarni siyosiy partiyalar tomonidan, maha'lliy Kengashlar deputatligiga nomzodlarni esa — siyosiy partiyalarning joylardagi tegishli organlari tomonidan ko'rsatilishi to'g'risidagi printsiplari qoida mustahkamlandi. Deputatlikka nomzodlarning davlat hokimiyati ijro organlari tomonidan ko'rsatilish amaliyoti bekor qilindi va bu mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlarni chuqurlashtirish yo'lidagi printsiplari qadam bo'ldi.

SHu borada saylov qonunchiligimizga saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan, eng rivojlangan demokratik davlatlar tajribasida ham kamdan-kam uchraydigan mutlaq vakolatlarning Markaziy saylov komissiyasiga berilishini ko'zda tutadigan o'zgartishlarning kiritilishi o'ta muhim ahamiyatga molik ulkan voqea bo'ldi. Amaldagi qonunchiligimizga ko'ra, saylov kampaniyasi jarayoniga davlat va hokimiyat tuzilmalari, jamoat birlashmalari tomonidan aralashishga qaratilgan har qanday urinish qonun bilan taqiqlanishi ham buni yaqqol ko'rsatib turibdi.

2009 yilgi saylov arafasida Markaziy saylov komissiyasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari sayloviga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish bo'yicha Kontseptsiya ishlab chiqildi. Mazkur Kontseptsiya xorijiy ekspertlar tomonidan fuqarolarning saylov va o'z xohish-irodasini erkin bildirish borasidagi konstitutsiyaviy huquqlariga rioya etilishi bo'yicha noyob hujjat sifatida baholangan edi. Haqiqatan ham, ushbu Kontseptsiyaning amalga oshirilishi saylovning qonun talablariga

to'la muvofiq holda, siyosiy partiyalarning o'ta faol ishtirokida, saylov jarayoniga markaziy va mahalliy davlat hokimiyati organlarining aralashuviga yo'l qo'ymasdan o'tkazilishini ta'minlashda g'oyat muhim rol o'ynadi.

Bizning qonunchiligimizda saylov kampaniyasining biron-bir ishtirokchisi uchun qandaydir alohida imtiyoz va preferentsiyalar berilmasligi belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qoidalariga muvofiq, Prezident saylovi, parlament va davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov hozirgi vaqtda qonun bilan belgilangan yagona kunda – ularning konstitutsiyaviy vakolatlari muddati tugaydigan yilning dekabr oyi uchinchi o'n kunligidagi birinchi yakshanba kuni o'tkaziladi.

Ayish kerakki, bizning saylov tizimimiz rivojida 2008 yili saylov qonunchiligimizga kiritilgan o'zgartishlar muhim bosqich bo'ldi. Qonunchilik palatasidagi deputatlik o'rinlarining soni 120 tadan 150 taga ko'paytirildi, shundan 135 nafar deputat siyosiy partiyalardan saylanadi. Bugungi kunda atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari nihoyatda muhim va dolzarb ahamiyat kasb etib borayotganidan kelib chiqqan holda, quyi palatamizdagi 15 ta deputatlik o'ri O'zbekiston Ekologik harakatidani saylangan deputatlarga berildi.

Bundan tashqari, qonun hujjatlariga saylov jarayonining yanada liberallashtirishini ta'minlaydigan bir qator normalar kiritildi. Jumladan, saylovda ishtirok etadigan siyosiy partiyalarning ro'yxatdan o'tishi uchun o'rnatilgan muddat 6 oydan 4 oygacha tushirildi.

Ayni vaqtda siyosiy partiyalarning saylovda ishtirok etishi uchun ruxsat berish masalasini hal etish borasida zarur bo'ladigan saylovchilar imzosining miqdori avvalgi 50 ming imzo o'rniga 40 ming qilib belgilandi.

Shuningdek, deputatlikka nomzodlarning ishonchli vakillari soni 5 nafardan 10 nafargacha ko'paytirildi. SHular qatorida saylov to'g'risidagi qonun hujjatlariga siyosiy partiyaning «vakolatli vakili» degan yangi institut kiritildi, unga imzo varaqalarning to'g'ri to'ldirilishini tekshirishda, saylov uchashtalarida ovozlarni sanab chiqishda ishtirok etish huquqi berildi.

Yana bir muhim yangilik — qonun hujjatlariga saylov komissiyalarining saylovga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish bilan bog'liq faoliyatida oshkoralikni ko'proq ta'minlashga qaratilgan normalarning kiritilishida o'z aksini topdi.

SHu asosda saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishning barcha bosqichlarida, shuningdek, saylov kunida ovoz berish xonalarida va ovozlarni sanab chiqishda deputatlikka nomzodlar ko'rsatgan siyosiy partiyalardan bittadan kuzatuvchi, ommaviy axborot vositalari vakillari, xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar va harakatlardan ham kuzatuvchilar qatnashish huquqiga ega bo'ldi.

SHunisi e'tiborga sazovorki, bizning saylov tizimimiz xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini, ularning davlat va jamiyat qurilishi sohasidagi mavqeiini oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Saylov to'g'risidagi qonun hujjatlariga siyosiy partiyalardan ko'rsatiladigan deputatlikka nomzodlarning kamida 30 foizini ayollar tashkil etishi shart ekani to'g'risidagi norma kiritilgani buning yaq qol tasdiqidir.

2009 yilgi saylovlar jarayonida ayni ana shu norma kiritilishi parlamentning quyi palatasiga umumiy deputatlar sonining 22 foizini tashkil etadigan 33 nafar xotin-qiz deputatni saylash imkonini berdi.

Senat a'zolari etib saylanganlarning 15 foizi ayollardir, mahalliy vakillik organlarida faoliyat ko'rsatayotgan ayollar esa bugungi kunda jami deputatlar sonining 20 foizidan ortig'ini tashkil etadi.

Bir so'z bilan aytganda, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va demokratik o'zgarishlarning muhim tarkibiy qismi hisoblangan saylov tizimimiz muntazam takomillashib bormoqda. SHu bilan birga, bugungi kunda hayotning o'zi, ayniqsa, oxirgi saylovda biz to'plagan tajriba yurimimizda saylov jarayonlarini yanada demokratlashtirish masalalarini kun tartibiga qo'yimoqda.

**V. Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish**

O'zbekistonimiz bosib o'tgan keyingi o'n yillik davr aholimizning keng qatlamlari qo'llab-quvvatlaydigan turli xil fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlarning jadal shakl anishi va rivojlanishi davri bo'ldi.

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq Konstitutsiyamizda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga doir asosiy printsiplarning mustahkamlab qo'yilgani barcha aholi qatlamlari manfaatlarini aks ettiradigan bunday tashkilotlar keng tarmoqlarining rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratdi.

Bugungi kunda mamlakatimizda jamiyat hayotining turli sohalarda 5100 dan ziyod nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat yuritmoqda va bu ko'rsatkich 2000 yilga qaraganda 2,5 barobar ko'pdir. Fuqarolar yig'inlari va o'zini o'zi boshqarish organlari - mahallalar soni 10 mingdan ortiqni tashkil etadi. Bular qatorida «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi, «Sog'lom avlod uchun», «Nuroni» jamg'armalari, «Ijod» fondi, Nodavlat notijorat tashkilotlar milliy assotsiatsiyasi va boshqa jamoat tashkilotlarini sanab o'tish mumkin.

Fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hozirgi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda. fuqarolarning o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashmoqda.

Bunday tashkilotlarning obro'si oshib, mustahkamlanib borgani sari fuqarolik jamiyati institutlarining davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi roli jamiyatimizda tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda jamoatchilik va fuqarolik nazorati instituti jamiyatning davlat bilan o'zaro samarali aloqasini ta'minlash, odamlarning kayfiyatini, mamlakatda kechayotgan o'zgarishlarga munosabatini aniqlashning muhim vositalaridan biriga aylanmoqda.

Mamlakatimizda Ombudsman, inson huquqlari bo'yicha milliy markaz, «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik markazi, Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti kabi inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar va boshqa bir qator tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. O'tgan davr mobaynida mamlakatimizni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik institutlarining roli va ahamiyatini kuchaytirishga, fuqarolarning eng muhim sotsial-iqtisodiy muammolarini hal etishga qaratilgan 200 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilingani ham bu soha rivojiga bo'lgan katta e'tiborni ko'rsatadi.

Aytish kerakki, fuqarolik jamiyati institutlari tizimida nodavlat notijorat tashkilotlarini tobora rivojlantirish, ularning mustaqil ish yuritishi va chinakam mustaqilligini ta'minlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, faoliyatini tashkiliy-huquqiy, moddiy-texnikaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga qaratilgan «Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunni qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi.

So'nngi yillarda «Jamoat fondlari to'g'risida»gi, «Homiylilik to'g'risida»gi qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishiga ko'maklashish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori va boshqa qator hujjatlar qabul qilindi va ular fuqarolik jamiyati institutlari ijtimoiy faolligini kuchaytirishda muhim omil vazifasini bajarmoqda.

Shuningdek, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati Kengashlarining «Nodavlat notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qo'shma qarori ham alohida ahamiyatga ega bo'ldi. O'z navbatida, Oliy Majlis huzurida Jamoat fondi hamda tarkibiga nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoat tashkilotlarining vakolatli vakillari bilan birga deputatlar, moliyaviy tuzilmalarning mas'ul xodimlari kirgan Parlament komissiyasining tashkil qilinishi ham e'tiborga sazovordir.

Mazkur komissiyaning faoliyati «uchinchi sektor» deb nom olgan fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlashga davlat budjetidan ajratilgan moliyaviy mablag'larni yanada



ochiq, oshkora aniq yo'naltirilgan va eng muhimi, demokratik asosda taqsimlashni ta'minlash imkonini bermoqda. Bu esa nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-texnikaviy va iqtisodiy negizini mustahkamlashga samarali ta'sir ko'rsatmoqda.

Faqat keyingi uch yilning o'zida fuqarolik jamiyati institutlari taqdim etgan turli ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish uchun Oliy Majlis huzuridagi Jamoat foidi tomonidan 11 milliard so'mdan ortiq mablag' ajratildi.

Yurtimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa fuqarolik institutlari rolini yanada kuchaytirish fuqarolik jamiyatini shakllantirish, demokratlashtirish va mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi bo'yicha o'z oldimizga qo'ygan maqsadimizni ro'yobga chiqarishda hech bir mubolag'asiz hal qiluvchi omil ekanini, kimgadir uqitirib o'tirishga zarurat bo'lmasa kerak.

Fuqarolik jamiyati institutlarining yanada rivojlanishiga erishish, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning ochiq-oshkorligi va samaradorligini ta'minlashda, ularning rolini kuchaytirishda «Ijtimoiy sheriklik to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu qonunda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirish, gumanitar muammolarni hal etish, mamlakatimiz aholisi turli qatlamlarining huquq va erkinliklari, manfaatlarini himoya qilishda nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat tuzilmalari bilan o'zaro munosabatlardagi aniq chegaralarni belgilash va tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish kabi masalalar bo'yicha huquqiy normalar ko'zda tutilishi dardkor.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish instituti — mahalla faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, uning vazifalari ko'lamini kengaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan o'zaro yaqin munosabatlarni ta'minlash alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bu vazifani hal qilishda «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritish maqsadga muvofiqdir. Bunda mahallani aniq yo'naltirilgan asosda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylantirish, shuningdek, uning davlat boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati olib borish tizimidagi vazifalarini yanada kengaytirishga jiddiy e'tibor qaratish lozim.

SHu bilan birga, «Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari raislari saylovi tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha oqsoqollar va ularning maslahatchilari eng munosib fuqarolar ichidan saylanishini, fuqarolar ijtimoiy faolligini kuchaytirishda mahallaning ahamiyati va roli oshirilishini ta'minlaydigan chora-tadbirlarni nazarda tutadigan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish taklif qilinadi.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamiyat fuqarolik institutlari nazoratini amalga oshirishning tizimli va samarali huquqiy mexanizmini yaratishga qaratilgan «O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to'g'risida»gi Qonunni qabul qilish fursati etdi. Qonunda jamoatchilik nazoratining turlari, shakllari va subektlarini, nazorat predmetini, uni amalga oshirishning huquqiy mexanizmlarini, shuningdek, mazkur sohada amaldagi qonun hujjatlarini ijro etmagani uchun mansabdor shaxslarning javobgarligi shartlarini belgilab qo'yish zarur.

SHu nuqtai nazardan qaraganda, Inson huquqlari sohasida milliy harakat dasturini ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega. Ushbu dastur eng avvalo huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari tomonidan inson huquq va erkinliklarining himoya qilinishini ta'minlash, jamiyatda inson huquqlari bo'yicha madaniyatni shakllantirish va shu kabi boshqa sohalarga oid qonunlarga rioya etilishi ustidan jamoatchilik monitoringini olib borishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'zida mujassam etishi kerak.

SHuningdek, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga jamiyat va davlat qurilishi, hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning turli sohalarida nodavlat notijorat tashkilotlari huquqlarini belgilab bergan qonun hujjatlari talablarini

buzganlik uchun davlat organlari mansabdor shaxslarining javobgarligini kuchaytirishni nazarda tutadigan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish lozim.

SHular qatorida sog'liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, aholini, ayniqsa, yoshlarni ish bilan ta'minlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash va shu kabi katta sotsial ahamiyatga molik boshqa masalalar bo'yicha muhim davlat dasturlarini amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari ishtirokining huquqiy asosini yaratib beradigan qonun hujjatlari majmuasini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Xususan, atrof-muhitni himoya qilishni ta'minlash tizimida nodavlat notijorat tashkilotlarning roli va o'rni belgilashga qaratilgan «**Ekologik nazorat to'g'risida**»gi Qonun loyihasini ishlab chiqish va boshqa qator qonun hujjatlarini qabul qilish zarur.

**VI. Demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish**

Barchamizga ayonki, mamlakatimiz mustaqil taraqqiyotning dastlabki bosqichida, ya'ni 1991 yildan 2000 yilgacha bo'lgan davrda ulkan o'zgarishlarni amalga oshirishda asosiy e'tiborimiz markazlashtirilgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga barham berish va bozor iqtisodiyotining asoslarini, avvalambor, qonunchilik bazasini shakllantirish uchun sharoit yaratishga qaratildi.

SHu borada qabul qilingan o'ta muhim qonun va normativ hujjatlar qatorida Fuqarolik, Er, Soliq va Bojxona kodekslari, «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish to'g'risida», «Banklar va bank faoliyati to'g'risida», «CHet el investitsiyalari to'g'risida», «CHet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi qonunlarni qayd etish mumkin.

Islohotlarimizning keyingi bosqichida «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida», «Xususiy korxonalar to'g'risida», «Valyutani tartibga solish to'g'risida», «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida», «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonunlar, yangi tahrirdagi Soliq kodeksi va iqtisodiyotni isloh qilish bo'yicha umumiy hisobda 400 dan ziyod qonun hujjatlari ishlab chiqilib, qabul qilindi va joriy etildi. Ularning barchasi iqtisodiyotimizni yanada liberallashtirish va modernizatsiya qilishda nafaqat mustahkam huquqiy asos, balki amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining ortga qaytmassligining kafolati bo'lib xizmat qilmoqda.

SHu bilan birga, xolisona tahlil, islohotlarimizning mantiqi va izchilligi, ularning eng zamonaviy bozor normalariga muvofiqligini baholash iqtisodiyotni boshqarish tizimini yanada chuqurlashtirish, takomillashtirish va liberallashtirish bo'yicha jiddiy ehtiyoj mavjudligini ko'rsatmoqda.

Birinchi navbatda, xususiy mulkning huquq va himoyasini mustahkamlashimiz, har qaysi xususiy mulkdor qonuniy yo'l bilan qo'lga kiritgan yoki yaratgan o'z mulkining daxlsizligiga aslo shubha qilmasligini ta'minlaydigan ishonchli kafolatlar tizimini yaratishimiz zarur. Har bir tadbirkor avvalo shuni aniqlash kerakki, davlat xususiy mulkdor huquqlarining himoyachisidir. SHuning uchun ham tadbirkorlar o'z biznesiga bexavotir investitsiya kiritishi, ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirishi, mahsulot hajmi va olayotgan daromadini ko'paytirishi, o'z mulkiga o'zi egalik qilishi, foydalanishi, tasarruf etishi lozim. Ayni shu maqsadda bozor iqtisodiyotining negizi hisoblangan xususiy mulkka nisbatan davlat tomonidan berilayotgan asosiy kafolatlarni mustahkamlashga qaratilgan «Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunni ishlab chiqish va qabul qilish zarur.

SHuningdek, boshqaruv tizimini takomillashtirish, ortiqcha byurokratik to'siqlarni bartaraf etish maqsadida «Tadbirkorlik faoliyati sohasida ruxsat berish tartib-qoidalari to'g'risida»gi Qonunni ishlab chiqish va qabul qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun zarur bo'lgan ruxsat berish tartib-qoidalarning qat'iy cheklangan ro'yxati va turlarini aniq belgilab qo'yish, qonunda nazarda tutilmagan ortiqcha ruxsatnoma va ruxsat berish tartib-qoidalarning yangi turlari kiritilishini qonun bilan keskin taqiqlash zarur.

Bugungi kunda kichik biznes va tadbirkorlikni kengaytirish uchun biznesning yangi tashkiliy-huquqiy shakli sifatida oilaviy biznesni qonuniy belgilab qo'yish vaqti keldi. Mamlakatimizda biznesni tashkil qilishning ushbu shakli biznesni yuritishda yuzaga kelgan milliy an'analarimizga, xo'jalik yuritish faoliyatining mavjud holatiga to'la mos keladi. Ishonchim komilki, bunday biznesni tashkil qilishning qorunchilik bazasi yaratilsa, oilaviy biznesning huquqiy kafolatlarini kuchaytirish, iqtisodiyotning turli sohalarida uning jadal va keng rivojlanishi va yangi ish o'rinlarining ochilishiga sharoit tug'iladi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida mamlakatimiz moliya-bank tizimi o'zining barqaror va ishkorchi ekanini isbotladi. SHu bilan birga, bu tizimning yanada mustahkamlanishi xususiy banklar va xususiy mulkka asoslangan lizing, sug'urta kompaniyalari, kredit uyushmalari, mikromoliyaviy tashkilotlar kabi moliyaviy institutlarni tashkil etishning qonunchilik asoslarini shakllantirish hisobidan bank-moliya sohasiga xususiy kapitalni jalb qilish bilan ham bog'liq. Bu esa bank va boshqa moliyaviy xizmatlar bozorida raqobatning kengayishi hamda mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatining oshishiga imkon beradi va eng yuksak xalqaro standartlar talabiga mos zamonaviy bozor infratuzilmasining rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

Yurtimizda o'tgan yillar davomida bozor iqtisodiyoti sohasidagi o'zgarishlarning ishonchli qonunchilik bazasini shakllantirish borasida amalga oshirilgan ulkan ishlar hech kimga sir emas, albata. Bularning barchasini e'tirof etgan holda, mavjud qonunlarimizning ko'pchiligini ulami qo'llash amaliyoti va mamlakatimizda bozor munosabatlari rivojlanishining hozirgi davrdagi yangi real holatidan kelib chiqib, jiddiy qayta ko'rib chiqish zarur.

Hozirgi vaqtda yana bir muhim masala — mamlakatimiz iqtisodiyotida kichik biznes, birinchi navbatda xususiy tadbirkorlikning roli va ulushini yanada kengaytirishni ta'minlay oladigan qonunlarni qabul qilish masalasi biz uchun dolzarb bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining sur'ati va mantiqiy talablaridan kelib chiqqan holda, erkin bozor iqtisodiyoti munosabatlarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladigan bir qator qonunlar qabul qilishni hayotning o'zi taqozo etmoqda. «Kredit byurolari faoliyati va kredit axboroti almashuvi to'g'risida», «Garov reestri to'g'risida», «Rieltorlik faoliyati to'g'risida», «Investitsiya va pay fondlari to'g'risida», «Innovatsiyalar va iqtisodiyotni modernizatsiya qilish to'g'risida»gi va boshqa yangi qonunlar qabul qilish zarur.

#### IV-MAVZU: "JAMIYAT IQTISODIY HAYOTINI ERKINLASHTIRISH VA DEMOKRATLASHTIRISH" — 2 soat

##### Reja:

1. O'zbekistonda jamiyat iqtisodiy hayotini erkinlashtirishning maqsad va bosqichlari.
2. Bozor munosabatlarining qaror topishi va mulkdorlar sinfining shakllanishi.
3. Moliya-kredit siyosati, narhlarni erkinlashtirish va bozor infrastrukturasi shakllantirish.
4. Qishloq xo'jaligini isloh qilish siyosati.

1. Vatanimiz mustaqilni qo'lga kiritgach, taraqqiyotning qaysi yo'lidan borish, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda qanday tamoyillarga tayanish kabi bir qarashda jo'n ko'rinadigan, lekin xiyla murakkab va ziddiyatli, mamlakatning taqdiri bilan bog'liq o'ta muhim muammolarga duch keldi.

Mamlakat Prezidenti Islom Karimov bu iqtisodiy, ijtimoiy — siyosiy muammolarni hal etishga qaratilgan davlat qurilishi va iqtisodiyotni tubdan isloh qilishning besh asosiy tamoyili (qoidasi)ni ilgari surdi. Yurtboshimiz O'zbekistonning iqtisodiy siyosati, yangilanish va ijtimoiy taraqqiyot yo'lining umumiy printsiplari va o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida dastlab 1992 yilda «O'zbekistonning o'z istiqloli va taraqqiyot yo'li» deb nomlangan risolasida fikr yuritgan edi. So'ngra 1993 yilda e'lon qilingan «O'zbekiston — bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga

xos yo'li» asarida tub iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning beshta printsipti (tamoyili) ni chukur va atroflicha ilmiy asoslanadi.

Iqtisodiyotni mafkura aqidalaridan holi qilish, davlat boshi islohotchi ekani, bozor munosabatlariga bosqichma – bosqich o'tish zarurligi, hayotning barcha sohalarida qonun ustivorligini ta'minlash lozimligi, kuchli ijtimoiy siyosat yurg'izish ana shu beshta asosiy tamoyillarni tashkil etadi.

Bozor munosabatlariga o'tish bo'yicha qabul qilingan hujjatlarning aksariyati ushbu tamoyillarga asoslangan yoki ularni rivojlantirishga, yoxud ularni hayotga tatbiq etishga bag'ishlangan. Bu qoidalarning naqadar to'g'ri ekani hayot to'la tasdiqlanadi, shu bois, ular hozir ham, bundan keyin ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Zotan, besh tamovil bozor munosabatlariga tayangan mustaqil, milliy iqtisodiyotning asosiy shakl va shamoyillarini tarkib toptirish va uni iqtisodiy yuksalish sari izchil harakatlantirish imkonini berdi. Chunki ular mamlakatimizda yangi, oldingisidan tubdan farq qiladigan ijtimoiy-iqtisodiy tizimni qaror toptirishning o'ziga xos dasturi edi. Bu qoidalar istiqloq va taraqqiyot yo'lini tanlagan jamiyatimizning bu yo'ldan og'ishmay ilgari lab borishi uchun asos etib qabul qilindi. Bu qoidalarning rivojlantirilishi va hayotga tobora dadilroq joriy etilishi ijtimoiy – siyosiy barqarorlikni yanada mustahkamladi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining o'zi ijtimoiy ustqurmaning poydevorida butun jamiyat miqyosida demokratik o'zgarishlarni amalga oshirish uchun asos, shart – sharoit hozirlaydi. Bozor iqtisodiyotining o'zi barchaga bir xil imkoniyat (imtiyoz) berish bilan iqtisodiy demokratiyadir. SHu bois, endi mamlakat ichkarisida ham, uning tashqarisida ham, ishlab chiqarish munosabatlarini bozor, bozor bo'lganda ham tartibli asosga qurilgan bozor belgilaydigan bo'ldi. Endi kim bilan savdo – iqtisodiy aloqalarni o'rnatish va rivojlantirish, aksincha, kim bilan esa bunday munosabatlarga kirimaslik yuqoridan belgilanmaydi. SHuning uchun ham hozirgi iqtisodiy hamkorlarimiz orasida nafaqat hamdo'stlik mamlakatlari, balki yangi va eski dunyo ham, rivojlangan Evropa va rivojlanayotgan Afrika ham, demokratik Amerika va totalitar Xitoy ham, o'zaro nizoli arab dunyosi va Isroil ham bor. Lekin, ular o'rtasidagi nisbat o'rni almashgan bo'lishi mumkin. Agar ilgari mamlakatimiz, asosan, sobiq ittifoq respublikalari bilan tovar ayirboshlagan bo'lsa, bugungi kunda 70 foiz savdo – sotiqni yuksak taraqqiy etgan – AQSH, Angliya, Belgiya, Niderlandiya, Janubiy Koreya, SHveytariya, Finlandiya kabi davlatlar bilan amalga oshiryapti. Endi sheriklarni bozorni o'zi tanlamogda. Bu jarayonlar eksport va import tarkibida jiddiy o'zgarishlar bilan sodir bo'lmoqda eksport tarkibida paxta tolasining hissasi jiddiy qisqardi. Mashina va asbob uskunalar energiya tarqatgichlar, transport vositalarining hissasi esa ortmoqda. Importda oziq-ovqat maxsulotlarning hajmi kamayib bormoqda.

Ikkinchi tamoyilga muvofiq bozor munosabatlariga o'tish davrida davlat bosh islohotchi, islohot taqdiri uchun javob beradigan asosiy kuch – qudrat, kafolat bo'lishini ko'zda tutar edi. Bu borada boshqa yo'l ham bo'lishi mumkinmidi? Yo'q bozor munosabatlariga o'tish davrida davlatdan boshqa qudratli iqtisodiy kuch yo'q. Yirik korxonalar eski kooperativ aloqalarning uzilgan, bozor sharoitiga hali moslashmaganligi tufayli kerakli mablag'ga ega emasdi. CHet el banklarida katta mablag'larimiz yo'q, okean ortida puldor «tog'» larimiz ham deyarli yo'q, aholining esa start imkoniyatlari aytarli bir xil, kichik va o'rta biznesni, oilaviy tadbirkorlikni moliyalashtirish uchun etarli emasdi. Davlat esa ilgari dan mustaqillikacha katta iqtisodiy mavqe va qudratga ega, barcha ishlab chiqarish vositalarining 90 foizini birlashtirgan edi. Bunday uyushgan, bir joyda jamlangan ulkan salohiyatdan oqilona foydalanmaslik xato bo'lar edi, albatta. Buning ustiga ijtimoiy yo'naltirilgan bugungi zamon bozor iqtisodiyotining asosiy unsurlarini tez va izchil qaror toptirish uchun, bozorga o'tish to's – tupolonidan iqtisodiy, moliyaviy tizimlarni qo'ldan chiqarib yubormaslik, aholi manfaatlari yo'lida milliy daromadni taqsimlashni iloji boricha odilona va oqilona amalga oshirish uchun ham davlat mexanizimidan foydalanish zarur edi. Bozor munosabatlariga o'tishda, ayniksa, uning dastlabki baosqichida davlat islohotlarda faol ishtirok etdi, islohotlarni kat'iylik va izchillik bilan amalga oshirdi, ishbilarmon va tadbirkor kadrlarni tayyorlashga bosh – qosh ham bo'ldi. Bulardan tashqari xalq

xo'jaligida amalga oshirilgan bu gungi tub tarkibiy qayta qurishni, kuchli va ko'p tarmoqli ishlab chiqarish infratuzilmasini vujudga keltirilishni faqat davlatning kuchi bilan uddalash mumkin edi. O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tishni yo'lga ko'yishda davlat o'zining tarixiy vazifasini bajardi. Endi bundan keyin bozor munosabatlari mustahkamlanib borgani sari davlatning iqtisodiy roli susayib boradi. Iqtisodiy vazifalarning aksariyati yirik milliy korporatsiyalar, korxonalar, chet el ishbitaronlari va xususiy tadbirkorlik zimmasiga o'tadi. Tarixiy taraqqiyot tendentsiyasining o'zi shuni taqozo etadi.

Bu tendentsiya davom etaveradi. Bugungi kunda qishloq xo'jaligi, savdo umumiy ovqatlanish, xizmat ko'rsatish sohaslarida davlatning ulushi yanada past. Lekin bu davlat iqtisodiy vazifa bilan mutlakol shug'ullanmaydi, degani emas. Iqtisodiyotda davlat sektori xukm surishi, u stansiyada qatnashishi, qulayotgan korxonalariga jon bahshida etib, uni ena xususiy qo'llarga yoki jamoaga qaytarishi mumkin, shuningdek, davlat bundan keyin ham o'zining moliya, kredit, soliq, valyuta siyosati, narxni nazorat qilishi va boshqa dastaklar orqali iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni izga solib turadi.

Ammo, davlatning iqtisodiy qudrati naqadar bo'lmasin, bu qudratdan qanchalik oqilona foydalanmaylik, baribir uchinchi tamoyil – bozor iqtisodiyotiga bosqichma – bosqich o'tishi zarur edi. U asosiy qoidalardan biri sifatida ilgari surildi bu borada shoshma – shosharlikka berilmaslik, «yangisini qurmay, eskisini buzmaslik» tarzida ish tutish yo'lidan borildi. Chunki luqmani birdaniga yutaman deb tiqilib qolish ham hech gap emasdi.

Bozor munosabatlari ki shilarning yangicha dunyoqarashi, psixologiyasi, ko'nikma va xulq – atvori, ta'bir joiz bo'lsa, hayot tarzi hamdir. Ularning qaror topishi va rivojlanishi uchun esa ma'lum vaqt, sabr – toqat, izchillik darkor. SHuning uchun dastlab mulkni tasarrufdan chiqarish va xususiy lashtirish, mulkchilikning davlatga qarashli bo'lmagan shakllari – xususiy, oila, hissadorlik, jamoa va boshqa turlariga asoslanib yangidan tashkil etilayotgan xo'jalik yuritish usullarini qo'llab – quvvatlash yo'li bilan aralash, ko'p qirrali (ukladi) iqtisodiyotni shakllantirish yo'lidan borildi.

Bu qadar zalvorli yumushlarni bir hamla bilan hal etilmaydi. Buning o'zi bir jarayondir, jarayonni esa ma'lumki, sun'iy ravishda tezlashtirib bo'lmaydi. Bizda davlat tassarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish, savdo, umumiy ovqatlanish, xizmat ko'rsatish shahobchalaridan boshlandi. Binobarin, avvalambor, kichik xususiy lashtirish amalga oshirilib, 1994 yil oxiriga kelib amalda iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichi yakunlandi, keyini xiyla ko'larni va murakkab bosqich sari yo'l ochildi.

Narxni belgilash borasida ham shunday yo'l tutildi. Narx – navo tizimini birdaniga ko'ldan chiqarib yuborish oxir – oqibatda pulning eplab bo'lmaydigan qadrsizlanishiga – giperinflatsiyaga sabab bo'lishi muqarrar edi.

Iqtisodiy islohotlarni bosqichma – bosqich amalga oshirish tamoyili ayniqsa, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan ustuvor sohalarni belgilashda xalq xo'jaligini ariq maqsadli investitsiyalashda juda samarali bo'ldi. YOqilgi – eneretika, mashinasozlik, aloqa, transport, yo'l kurilishi, yuksak darajada qayta ishlashga o'tish, tayyor mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish ana shunday ustuvor sohalari deb belgilanadi. Qishloq xo'jaligida bunday ustuvor soha donchilik (g'allachilik) bo'ldi. Bu tadbirlarning amalga oshirilishi taqchil mahsulotlar yuzasidan mamlakatni tashqi bozorga qaramlikdan holos etibgina qolmasdan, unga katta miqdorda valyutani tejash imkononini ham berdi. Bu tejalgan mablag' endi boshqa sohalarni rivojlantirishga shart – sharoit hozirlab, sanoat umumiy taraqqiyotini ta'minlamoqda. Tasavvur eting, mustaqillikning dastlabki yillarida zarur neftning 80 foizi chetdan olib kelinar edi. Bu hol hali o'zini o'nglab olmagan iqtisodiyot uchun og'irlik qilar edi. Endi esa o'zimizni neft va boshqa eneretika vositalari bilan to'liq ta'minlash imkoniyatiga egamiz.

Bugun qishloq xo'jaligidagi islohotlarga muhim e'tibor berilmoqda. Lekin rivojlangan sanoatsiz rivojlangan qishloq xo'jaligi bo'lishi mumkin emas. Gap shundaki, bugungi kunda qishloq xo'jaligi sohasi sanoatdan boshlanib (ishlab chiqarish vositalari va ma'danli o'g'itlar ishlab chiqarish), sanoat bilan yakunlanadi (yuksak darajada qayta ishlash, tayyor mahsulot

ishlab chiqarish). Sanoatda tejaladigan yirik samoya maʼlagʻlari endi qishloq xoʻjaligiga yoʻnaltirildi. Bozor iqtisodiyotiga izchillik bilan bosqichma - bosqich borishning maʼnosi ham shu. Bu sohaning davlat tomonidan qoʻllab - quvvatlanishi, uni rivojlantirishi yuzasidan qabul qilingan dastur, qonun va qarorlarning amalga oshirilishi qishloq xoʻjaligini yanada yuksa pogʻonaga koʻtaradi. Bu mamlakat qishloq xoʻjaligida tovar ishlab chiqaruvchilar manfaatlarini himoya qilingan; chet el oziq - ovqatlari toʻgʻridan - toʻgʻri kirib kela olmaydi. Mintaqamiz tabiat kataklizmlaridan ham ancha yiroq. SHuning uchun ham bugun bu sohani sanoatga monand rivojlantirish sharoitlari etilmoqda. Endi qishloq xoʻjaligi qoloqlik ramzi boʻlmasligi lozim.

Ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishning huquqiy negizini shakllantirish, hayotning barcha jabhalarida qonun ustuvorligiga erishish muhim vazifalardan boʻlib, munosabatlariga oʻtish jarayonida tanlangan toʻrtchi tamoyil edi. Taʼkidlash joizki, mustaqillik yillarida amalda yangi huquqiy tizim yaratildi. Bozor munosabatlari oʻzini - oʻzi boshqaradigan demokratik tizindir. Bu jarayonga bilib - bilmay aralashish, maʼmuriyatchilikka, ayniqsa, ortiqcha markazlash tirishga urinishning imkoniyatlarini cheklashi, oxir - oqibatda esa obroʻsizlantirishi mumkin. Bozor iqtisodiyotining oʻz qonuniyatlari bor, unga aralashish valyutarizimga yoʻl qoʻyish, mensimaslik koʻngilsiz oqibatlar keltirishi mumkin. SHu bois qonunga boʻyisim bozor munosabatlariga oʻtishning etakchi tamoyillaridan biridir, huquqiy davlatning oʻziga xos xususiyatidir.

Prezidentimiz kuchli ijtimoiy siyosat yuritishni iqtisodiy oʻzgarishlarni amalga oshirishning ishoratli kafolati, Oʻzbekistonning yangilanish va taraqqiyot yoʻlini namoyon etuvchi eng muhim tamoyillardan biri deb bildilar. Bozor munosabatlariga oʻtish jarayonida aholini ijtimoiy himoyalashning butun bir tizimi yaratildi. Kishilarning ijtimoiy himoyalash va kafolatlashlarining kuchli mexanizmi jamiyatda yaratilgan milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlashdangina iborat boʻlib qolmadi. Bu vazifani hal etishda davlat mabalaridan tashqari mehnat jamoalari, jamoat tashkilotlari va hayriya jangʻarmalarining imkoniyatlaridan keng foydalanildi.

Bozor munosabatlariga oʻtish hech qachon va hech qaerda silliq, ijtimoiy qiyinchiliklarsiz kechmagan. Bu davrda aholini ijtimoiy ximoyalashga, qoʻllab - quvvatlashga etarli eʼtibor bermaslik omma orasida yalpi qashshoqlashuvni kuchaytirgan, lyumpenlar, pauperlar (juldurvoqilar) qatlamining paydo boʻlishiga olib kelgan boʻlar edi. Lyumpenlashgan olomon uchun muqqadas narsaning oʻzi yoʻq, ular uchun toʻrt tomoni qibla. Prezidentimiz shuning uchun ham lyumpenlashuv va pauperizmning paydo boʻlishiga qarshi oʻrta mulkdorlar sinfini shakllantirish, kichik va oʻrta biznesni, tadbirkorlikni rivojlantirish gʻoyasini ilgari surdi. Kishilar chinakam mulkdor boʻlgandagina pirovard natijalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va uning harajatlarini pasaytirish jamiyatda barqarorlikni saqlab qolish uchun kurashadi.

Oʻzbekiston sobiq SSSR respublikalari orasida birinchi boʻlib dastlab iqtisodiy barqarorlikka, keyin esa oʻsish va yuksalishga erishdi. Mustaqillikning dastlabki yillarida paydo boʻlgan tanglikdan rivojlanish surʼati bilan chiqib oldi. Bunday yutuqqa erishishda, shubhasizki, oʻsha besh tamoyilga izchillik bilan rioya etilgani muhim ahamiyatga ega boʻldi.

1995 yil Oʻzbekiston iqtisodiyoti uchun burlish yili boʻldi. Oʻshanda yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishning pasayishi keskin sekinlashdi, 1996 yilning boshidan to bugungacha yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishning barqaror ijobiy dinamikasi davom etmoqda; 1996 yilda uning oʻsishi 1,7, 1997 yilda 5,2 foiz boʻldi. SHunday qilib mamlakatimiz 2000 yilgacha ichki mahsulot hajmining 1990 yil darajasiga erishadi deb hisoblashga toʻla asoslar bor. Sanoat ishlab chiqarishi hajmi boʻyicha bu darajaga mamlakatimiz 1995 yilda toʻla erishgan edi.

SHunisi quvonarliki, bizda yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish hajmining oʻsish surʼatlari aholi soni oʻsish surʼatlaridan ustun boʻlishiga erishildi. Bu oʻta muhim sifat koʻrsatkichi boʻlib, iqtisodiyotimizda 1980 yildan keyin kuzatilmagan edi. Natijada yalpi ichki mahsulot miqdorini aholi jon boshiga 3,2 foizga oshirishga muvaffaq boʻlindi. Bu esa, mamlakat iqtisodiy qudrati va aholi hayot darajasini belilaydigan muhim mezonlardan biri boʻlib hisoblanadi.

1998 yildan boshlab ijtimoiy ishlab chiqarish hajmining o'sishi iqtisodiyotda band bo'lganlar sonning ko'payishi, inflyatsiyaning past darajasi, yalpi ichki mahsulot hajmidan jamg'arish va investitsiyaning yuqori ulushi va boshqa sifat ko'rsatkichlari bilan birga kechmoqda.

Bozor munosabatlariga o'tish davri O'zbekistonda siliq, qil sug'urgandek kecha'di, desak xato bo'lar edi, albatta. Bu jarayonning murakkabligi shundan iborat bo'ldiki, bozor ta'siridan iloji boricha holi bo'lgan mustaqil milliy iqtisodiyotni barpo etish va bozor munosabatlariga o'tish ham, makroiqtisodiy barqarorlashtirish va bozor qayta qurishlari ham bir vaqtning o'ziga to'g'ri keldi. Natijada, makroiqtisodiy barqarorlashtirish bilan bog'liq tadbirlar tizim bozor o'zgarishlariga ijobiy ta'sir etibgina qolmay, shu bilan birga ba'zi bir holatlarda bu jarayon sur'atini pasaytirdi. Pul massasining cheklangan, ayniqsa, naqd pulning, xom ashyo bozori hali etarlicha muvozanatlanmagan bir sharoitda kichik biznesning ishlab chiqarish imkoniyatlarini toraytirib qo'ydi. Tijorat banklari kredit imkoniyatlari cheklangani esa, korxonalarга aylanma mablag'larni to'ldirish uchun qisqa muddatli qarz berish imkoniyatini kamaytirdi. Pul massasining etarli bo'lmagani xalq xo'jaligida korxonalar to'lov qobiliyatining pasayib ketishiga ham sabab bo'ldi. Bu jarayonlar bozorga o'tish va mikroiqtiyodiy barqarorlashtirish jarayonlariga biroz salbiy ta'sir ko'rsatadi, ammo ularni to'xtatib qola olmadi. Bozor munosabatlariga o'tishning ikkinchi bosqichida har ikki yo'nalishda ham keskin ijobiy siljishlar yuz berdi.

Yuqorida bayon qilingan mulohazalardan ko'rinib turibdiki, ushbu besh tamoyil yurtimizda barqarorlikni mustahkamlabgina qolmasdan, iqtisodiy yuksalishimiz yo'lidagi muhim omil ham bo'ldi, o'zbekona taraqqiyot yo'lining o'ziga xos xususiyatlarini ham belgiladi.

2. Bozor munosabatlarining qaror topishi va mulkdorlar sinfining shakllanishi davlat mulkini xususiyashtirish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, erkin sohibkorlik va raqobatni rivojlantirish kabi muammolarga bog'liq. Bu muammolarni hal etmasdan turib bozor iqtisodiyotiga o'tishni ta'minlash mumkin emas. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning birinchi bosqichida xususiyashtirishni amalga oshirish raqobat va tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy va iqtisodiy negizlari yaratildi. Bu o'rinda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida» (13.10.1990), «O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to'g'risida» (15.02.1991), «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish to'g'risida» (19.11.1991), «Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risida» (21.12.1995), «Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida» (27.12.1996), «Aktivadorlik jamiyatlar va aktivadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida» (25.04.1996) kabi boshqa o'nlab qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, hukumat qarorlari hamda farmoyishlarini eslab o'tishning o'zi kifoya.

Amalga oshirilgan tadbirlarning natijasi o'larok mamlakatimizda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish jarayoni ancha chuqurlashib bormoqda. Mulchilikning turli shakllari paydo bo'lib, ko'p ukldli iqtisodiyot asoslari yaratilmokda, nodavlat sektori rivojlanib, iqtisodiyotning barcha asosiy tarmoqlarida uning hisssasi ortib bormoqda.

Nodavlat sektorida 1998 yilda yalpi ichki mahsulotning 64,5 foizi, sanoat mahsulotining 64,1 yalpi qishloq xo'jalik mahsulotining 98,7, qurilish-montaj ishlarining 77,1, chakana tovar oborotining 95,3 aholiga ko'rsatilgan pullik xizmatning 51,6 foizi yaratildi. Mulchilikning nodavlat sektoriga oid korxonalarda mehnat qilayotganlarning umumiy hisssasi 74,2 foizni tashkil etmoqda.

Bozor munosabatlariga o'tish shuning uchun ham zarurki, u insonlarning mehnat va ijodiy imkoniyatlarini, qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga, boqimandalik kayfiyatiga barham berishga, egalik hissini tiklash va rivojlantirishga olib keladi. Insoniyat bozor munosabatlaridan takomillashganroq boshqa mexanizmini hali yaratgan emas. Sotsializm insonlarda joylashgan cheksiz imkoniyatlarni ochishga qodir emas edi. Ishlab chiqarishda, taqsimotda tekislik hukm surgan joyda taraqqiyotga erishib bo'lmaydi. To'g'ri, ekstensiv omillar, xalqni qullarcha ezib

ishlatish, ularga kam haq to'lash hisobiga ma'lum natijalarga erishish mumkin. Ammo u qisqa muddatli, vaqtinchalik samara beradi, holos.

Mamlakatda chinakam o'rta mulkdorlar sinfi shakllangan taqdirdagina islohotlar sezilari samara beradi, mulkchilik masalalari hal bo'ladi, — deb yozadi mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov o'zining «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida (196-bet).

Iqtisodiy jihatdan sobitqadam va barqaror jamiyatni shakllantirish, eng avvalo tadbirkorlik va mulkdorlar sinfi davlat va jamoat qurilishida, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlab turish va mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Ayni o'rta mulkdorlar sinfi shakllantirilayotgan fuqarolik jamiyatining tayanchidir.

Agar mulk shakllari xilma-xilligi va birinchi navbatda xususiy mulk har qanday davlatning demokratik negizlari barqarorligining iqtisodiy asosi hisoblansa, real ishlab chiqarish vositalarining o'rta mulkdorlaridan iborat kuchli qatlamning mavjud bo'lishi uning siyosiy asosi ekanligini bildiradi. Aholi orasida haqiqiy mulkdorlar o'rta qatlamining ko'pchilikni tashkil etishi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni ortiga qaytarish imkoniyatlarini bartaraf etishning kafoloti hisoblanadi, — deb yozadi Prezidentimiz.

SHu sababli iqtisodiy o'zgarishlar jarayonini mamlakatda o'rta mulkdorlarning chinakam sinfini shakllantirishdek dolzarb vazifani hal qilish bilan bog'liq. Odam o'zini chinakamiga mulkdor deb his etmas ekan, o'z huquqlari uchun, pirovard natijalar va ishlab chiqarish samaradorligi uchun kurashmaydi. Jamiyatda barqarorlikni saqlab qolish va himoya qilishga intilmaydi. CHinakam mulkdorlar sinfi ham mulkni davlat tasarrufida chiqarish va xususiy lashtirishni izchil amalga oshirish hisobiga, ham kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish, qimmatli qog'ozlar bozorini yaratish hisobiga ko'p ukladli iqtisodiyotni vujudga keltirish yo'li bilan shakllantiriladi.

Bizning mamlakatimizda ko'p ukladli iqtisodiyotni vujudga keltirish vazifasi qo'yilgan. Bunda ustuvorlik xususiy mulkka, kichik va o'rta biznesga berilmoqda.

O'lkamizning o'ziga xosligi, ishchi kuchining haddan tashqari ko'pligi, rivojlangan qishloq xo'jalik va xom ashyo bazasi, aholining an'analari, ruhiyati kichik va oilaviy biznesni, xususiy tadbirkorlikni faol rivojlantirishni ob'ektiv zarurat qilib ko'yadi. Bu o'rinda 1999 yilning boshida mamlakatimizda 99,8 mingga kichik va o'rta biznes korxonalarining faoliyat ko'rsatilganligini qayd etishning o'zi kifoya. SHundan 85,7 mingga kichik va 14,1 mingga o'rta biznesga tegishlidir. O'rta va kichik biznes ayniqsa Toshkent, Samarqand shaherlarida, Toshkent, Samarqand, Andijon va Farg'ona viloyatlarida rivojlangan.

Kichik biznes — jamiyatda ham iqtisodiy, ham siyosiy vaziyatni mu'tadillashtirishga yordam beradigan o'rta tadbirkorlar sinfining paydo bo'lishi demakdir. Bu — respublika bozorini zarur iste'mol tovarlari va xizmatlar bilan boyitishdir. Bu yangi ish o'rinlaridir. Faqat kichik va xususiy tadbirkorlikni keng, hamma joyda rivojlantirishgina g'oyat keskin muammoni — aholining (ayniqsa, ortiqcha mehnat zaviralari mavjud bo'lgan qishloq joylar va mintaqalarda) ish bilan bandligini ta'minlash vazifasini hal qilishga qodir.

Halqning tarixiy ildizlaridan, ruhiyatidan foydalangan holda ichki bozorni zarur iste'mol tovarlari bilan boyitibgina qolmay, shu bilan birga tashqi bozorlarda ham raqobatga bardoshli mahsulot chiqarishga qodir kichik korxonalarimizning keng tarmog'ini vujudga keltirish mumkin.

YAqin kelajakda kichik va o'rta biznes respublikaning ishlab chiqarish tuzilmasida va eksport tuzilmasida iqtisodiyotning harakatchan, oson o'zgartiriladigan sohasi sifatida etakchi o'rinni egallaydi.

Biz uchun ahamiyatga ega bo'lgan ushbu siyosatni ro'yobga chiqarishda aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari samaradorligi va mahsuldorligini yanada oshirish, ularga davlat yordamini ko'rsatish muhimdir.

Bunda kichik va o'rta korxonalar ibtidoiy, eskirgan asosda emas, balki sifatli va zamonaviy texnika negizida barpo etilishi kerakligi barchaga ma'lum. Buning uchun ularni rivojlantirishning yangi manbalari ham chet el investitsiyalarini keng jalb qilish hisobiga, ham kichik manbalar, bank kreditlar hisobiga doimo rivojlantirilib borishi dardor.



O'zbekistonda islohot yillarida kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga yordam beradigan huquqiy shart-sharoitlar va institutsional tuzilmalar vujudga keltirildi. Bular – tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi, Biznes-fond, «Madad» sug'urta agentligidir. SHuningdek, konsalting, injiniring hamda lizing firma va kompaniyalar, biznes-inkubatorlar tarmog'i mavjud.

Eng asosiysi, kichik va o'rta korxonalar hozimig o'zidayok katta iqtisodiy kuchga aylandi. Muhimi – kichik va o'rta korxonalar iqtisodiyotning hamma sohalarida tashkil etilmokda. Qishloq xo'jaligi sohasiga ham uning keng kirib borayotganligi diqqatga sazovordir. 20 mingdan ortik dehqon (fermer) xo'jaligi tashkil etilganini aytib o'tishning o'zi kifoya.

Bozor tuzilmasi rivojlangan mamlakatlarning tajribasi haqiqiy o'rta mulkdorlar qatlamining asosiy qismi aholining pul mablag'larini qimmatli qog'ozlar bozoriga, odamlar uchun foydali turli bank depozitlariga va omonatlarga jalb etish vositasida shakllanayotganligidan dalolat beradi. Binobarin, qimmatli qog'ozlar bozorining ahvolidi qarab bozor munosabatlarining qaror topish jarayoni qay darajada jo'shqin borayotganligi haqida fikr yuritish mumkin, — deb yozadi Prezidentimiz Islom Karimov.

Qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirish hisobiga aholining bo'sh turgan mablag'lari aylanishga jalb etiladi. Bu ayni chog'da iqtisodiyotni hal qilishga barqarorlashtirish sohasidagi muhim vazifani hal qilishga pul muomalasini, milliy valyutani mustahkamlashga yordam beradi.

Eng asosiysi – aktsiyalashtirish, fond bozorida qatnashish orqali aholida qimmatli qog'ozlarning egasi bo'lishiga qiziqish, ular bilan muomala qilish ko'nikmalari va madaniyati paydo bo'ladi.

Muhimi, ular shunchaki aktsiyalarning egasi bo'lganlik uchungina emas, balki mol-mulk bir qismining real mulkdorlari hisoblanganliklari hamda mulkdorlar sifatida korxonaning ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatiga ta'sir ko'rsatish huquqiga ega bo'lganliklari uchun ham aktsiyadorlar deb atalishi darkor. Odamlar qimmatli qog'ozlarni sotib olishga qodir bo'lganlaridagina mulkdorlar sinfi amalda vujudga keladi.

Respublikada qimmatli qog'ozlar bozorini jadal shakllantirgan, bizning bozorimiz xalqaro fond va valyuta bozorlariga chiqqan hamda qo'shib ketgan taqdirdagina chinakamiga erishish mumkin.

3. Moliyaviy muno-sabatlar va ularga xizmat qiluvchi maxsus muassasalar mamlakatning moliya tizimini tashkil qiladi. Davlat pul mablag'larining asosiy bo'g'ini xizmat qiladi. Uning asosiy vazifasi moliyaviy vositalar yordamida iqtisodiyotni samarali rivojlantirish va umumdavlat miqosidagi ijtimoiy vazifalarni hal qilish uchun sharoit yaratishdir. Moliya-kredit siyosati, narxlar, umuman, iqtisodiyotni erkinlashtirish hamda bozor infrastrukturasi shakllantirish muammolari I.Karimovning qator asarlarida o'z ifodasini topgan.

Mamlakat Markaziy banki pul-kredit tizimini markazlashgan tartibda boshqaradi va davlatning yagona kredit siyosatini amalga oshiradi. U barcha banklarning faoliyatini o'zaro muvofiqlashtiradi, jumladan, ular o'rtasidagi hisob-kitoblarni tashkil etadi, qimmatli qog'ozlarni chiqaradi, pul muomalasini tartibga soladi, davlat byudjetining kassa ijrosini nazorat etadi.

Mamlakatning pul-kredit siyosatini olib borish yuzasidan ulkan me'yoriy-huquqiy negiz tayyorlandi. Respublikamizda iqtisodiy islohotlarning ikkinchi bosqichida pul-kredit siyosatining asosiy maqsadi milliy valyutaning xarid quvvatini oshirish, inflyatsiyani kamaytirishga, ishlab chiqarishni barqarorlashtirish uchun zamin tayyorlashga qaratilgan harakatlar orqali iqtisodiy tanglikni engib o'tish, bozor iqtisodiyotining zarur shart-sharoitlarini yaratish, jahon moliya-kredit tizimi bilan aloqalarni uzviy olib borishni yanada rivojlantirishga qaratilgan. Amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosati natijasida respublikada moliyaviy va iqtisodiy barqarorlik ta'minlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 16 iyulda e'lon qilingan «O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasini muomalaga kiritish to'g'risida»gi Farmoniga muvofiq 1994 yil 1 iyuldan boshlab O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so'm muomalaga kiritildi. So'm O'zbekiston Respublikasining valyuta birligi hisoblanadi.

Respublikada byudjet munosabatlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va respublikaning boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

O'ZR hozirgi byudjet tizimi davlat byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, shuningdek, viloyat, tuman, shahar, byudjetlarini o'z ichiga oladigan mahalliy byudjetlarning majmuidan iborat. O'zbekiston Respublikasi byudjeti Oliy Majlisi tomonidan, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti Jukorgi Kengesi tomonidan, qonun tarzida tasdiqlanadi, mahalliy byudjetlar xalq deputatlari mahalliy Kengashlari qarori bilan tasdiqlanadi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha byudjet daromadlari qismining ijrosini nazorat qilishni davlat soliq organlari ta'minlaydilar.

Byudjetni bajarish jarayonida O'z R Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, hokimliklar o'zlariga berilgan vakolatlar doirasida respublika va tegishli mahalliy byudjetlarning daromadlar va harajalar qismlariga o'zgartirishlar kiritishlari mumkin. Barcha darajadagi byudjetlarning muvozanatlangan bo'lishi byudjet-moliya siyosatining zarur sharti hisoblanadi. Mamlakatda hamma darajadagi byudjetlarning kassa ijrosini O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki o'z muassasalari va tijorat banklari orqali amalga oshiradi.

O'ZR Vazirlar Maxkamasi 1994 yil 13 dekabrda qaroriga ko'ra 1995 yildan respublikaning umumiy (to'planma) byudjetiga amaldagi qonunlarga muvofiq tashkil etiladigan byudjetdan tashqari jamg'armalar: ijtimoiy sug'urta jamg'armasi, bandlikka yordam jamg'armasi, kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi jamg'armasi, mineral-xom ashyo resurslarini takror ishlab chiqarish jamg'armasi, yo'l jamg'armasi, O'zbekiston Davlat jamg'armasi, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining maxsus jamg'armalari ham ko'shiladi.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida sug'urta ishi muhim ahamiyat kasb etdi. 1993 yil 6 mayda O'ZRning «Sug'urta to'g'risida» Qonuni qabul qilindi. Sug'urta ishini monopoliyadan chiqarish bo'yicha faol ishlar boshlandi. 1992 yildan boshlab Respublikada sug'urta kompaniyalari, firmalari, aksiyadorlik jamiyatlari, qo'shma korxonalar taklif etadigan sug'urta xizmati bozori shakllandi va rivojlanmoqda. Bu bozorda ixtisoslashgan davlat-aksiyadorlik kompaniyalari etakchi mavqeni egallaydi.

Hozir sug'urta tashkilotlari aholiga, korxonalar va tashkilotlarga 40 dan ortiq turdagi sug'urta xizmati ko'rsatadi.

Mamlakatimizda sug'urtaning majburiy va ixtiyoriy turlari bor. Respublikada majburiy sug'urta bilan faqat davlat-aksiyadorlik sug'urta tashkilotlari shug'ullanadi va ular majburiy sug'urtaning qishloq xo'jaligi korxonalari mo'l-mulki; fuqarolarning mo'l-mulki; yo'lovchilar; harbiy xizmatchilar; soliq xizmati xizmatchilari; uchuvchilar tarkibi; xavfli kasblar; fuqarolik mas'uliyati sug'urtasi turlarini amalga oshiradi.

Eng yirik sug'urta kompaniyalari: «O'zagrosug'urta» davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi, «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi, «Kafolot» davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi 1997 yil tashkil etilgan. Bulardan tashqari «Banksug'urta», «Birasvadosug'urta», «Madad», shuningdek, 80 dan ortiq nodavlat sug'urta kompaniyalari bor.

1991 yil 15 fevralda O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti sessiyada respublika hududidagi banklar faoliyatining huquqiy asoslari belgilab berilgan O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi va shu vaqtdan boshlab mamlakatning haqiqiy, mustaqil bank tizimi shakllana boshladi.

O'ZR bank tizimini shakllantirish va rivojlantirish strategiyasi iqtisodiyotni xo'jalik yuritishning bozor sharoitlariga bosqichma-bosqich o'tkazish dasturiga mos keladi va mazkur islohotlarni o'tkazish dasturining beshta asosiy tamoyillariga asoslanadi. O'tgan davrda bank islohotlarining rivojlanishida quyidagi muhim yutuqlar qo'lga kiritildi: milliy bank tizimining ikki bosqichli strukturasi (yuqori bosqichda - Markaziy bank, kuyi bosqichda-tijorat banklari) huquqiy jihatdan mustahkamlandi; tijorat banklarining soni va ular ko'rsatadigan xizmat turlari ko'paydi, banklar faoliyatini ta'minlaydigan tizim (muassasalar) yaratildi.

1995-1996 yillarda bank qonunchiligi yanada takomillashdi. «O'ZR Markaziy banki to'g'risida» 1995 yil 21 dekabrda Qonun bank tizimining huquqiy asoslarini to'ldiribgina

qolmasdan, O'zRi Markaziy bankining alohida maqomi, maqsadlari, vazifalari hamda vakolatlarini ham aniq belgilab berdi. O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida» 1996 yil 25 apreldagi Qonuni esa tijorat banklari faoliyatining barcha huquqiy asoslarini aniq belgilab berdi.

Tarkibida 13 viloyat va Toshkent shahri boshqarmalari bo'lgan mamlakat Markaziy banki O'zbekiston Respublikasining bosh banki hisoblanadi.

Bank tizimining quyi bosqichini psichilik, aksiyadorlik asosida, shuningdek, chet el kapitali ishtirokida tashkil etilgan tijorat banklari, ularning filial va vakolatxonalari, kooperativ va xususiy banklar tashkil etadi.

Bank sohasini monopoliyadan chiqarish bank islohotlarining eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Dastlabki bosqichda bu asosan iqtisodiyotning ayrim sohalariga xizmat ko'rsatuvchi ixtisoslashtirilgan banklarni tuzish yo'li bilan amalga oshirildi. Ixtisoslashtirilgan banklarning tashkil etilishi bozorga yo'naltirilgan bank tizimini yaratish yo'lidagi zaruriy va tabiiy bosqich bo'ldi.

«Asaka» ixtisoslashtirilgan davlat-aksiyadorlik-tijorat banki, «Aloqabank» aksiyadorlik-tijorat banki, «Toshkentijtimoiy uy-joybank» aksiyadorlik tijorat banki, «Sayohatinvestbank» O'zbekiston aksiyadorlik-tijorat investitsiya banki va «Zamin» ixtisoslashtirilgan davlat aksiyadorlik ipoteka banklari tashkil etildi. «O'zdehqonsanoatbank» aksiyadorlik-tijorat bankiga, «O'zjam'armabank» «Halq banki»ga aylantirildi. Tijorat banklari halk xo'jaligi turli sohalari, korxonalar va tashkilotlari kreditlash, moliyalash va ularga hisob-kitob xizmati ko'rsatishni amalga oshiradi. Bu banklar to'la mustaqildir. Xususiy resurslari etmay qolganda ular boshqa banklardan yoki Markaziy bankdan kredit olishlari mumkin.

O'zbekistonning barcha mintaqalarida 790dan ortiq filiallarga ega bo'lgan 40 aksiyadorlik-tijorat, shuningdek, xususiy kapital asosida tashkil etilgan banklar faoliyat ko'rsatadi.

Respublikada xususiy banklar ham paydo bo'ldi. Ularning faoliyati uchun huquqiy bazani rivojlantirishda Respublika Prezidentining 1997 yil 24 apreldagi «Xususiy tijorat banklarini tashkil qilishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» Farmoni muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 1998 yilda «Umarbank», «Olimbank», «Alp Jamol», «Turkiston», «Istiqlol», «O'ktambank» xususiy banklari ishlagi.

Chet el banklari, ularning sho'ba banklari va filiallarini ochish O'zbekiston moliya tizimini rivojlantirishda juda muhim yo'nalish hisoblanadi. Hozir Respublikada O'zbekiston – Gollandiya «O'zprivatbank», O'zbekiston – Turkiya «O'Tbank», O'zbekiston-Koreya «O'zDEUbank» va boshqa qo'shma banklar faoliyat ko'rsatadi. 11 ta chet el banki Toshkentda o'z vakolatxonalarini ochgan. Bular qatorida Hindiston Davlat banki, Doyche Bank, Berliner Bank, Meybank, Kredit Suiss (SHveysariya), «Rossiyskiy kredit» va «Sakurabank LTD» (Yaponiya) banklari bor.

O'zbekistonda milliy moliya bozorining shakllanishi iqtisodiyotning bozor munosabatlarga o'tish zarurati bilan belgilanadi. Moliyaviy mablag'larni tarmoqlararo yo'naltiruvchi tijorat banklari va boshqa moliyaviy vositalarni o'z ichiga oluvchi moliya institutlari majmuasi respublika moliya bozorini tashkil etadi. SHU munosabat bilan turli sug'urta kompaniyalari, fond birjalari va boshqa moliyaviy vositachilar tashkil etilmoqda, tijorat banklarining soni ko'paymoqda.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlarga o'tgan mamlakatlarda mavjud bo'lgan banklar bilan birgalikda davlat moliya tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadigan ixtisoslashtirilgan bozor infrastrukturasi tuzish ishi jadval olib borildi.

Bunday jarayon ob'ektiv xarakterga ega bo'lib, har xil tipdagi moliya institutlari o'rtasida kredit sohasini taqsimlash zarurati bilan chiqadi. SHU tariqa ixtisoslashtirilgan bozor infratuzilmasi – «Biznesfond», «Madad» sug'urta kompaniyasi, «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi, xususiy sug'urta va investitsiya kompaniyalari dunyoga keldi. Bunday infratuzilmani kelgusida yanada rivojlantirish maqsadida hukumat va Markaziy bank O'zbekiston banklar uyushmasi va boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda banklar

faoliyatini, shuningdek, sug'urta, tarst va lizing kompaniyalari kabi moliya muassasalari faoliyatini aniq chegaralab qo'yish asosida bankdan tashqari moliya institutlari faoliyatining qonuniy asoslarini ishlab chiqishni amalga oshirmoqda.

1996 yilning 28 martidan boshlab Markaziy bank hukumat agenti sifatida davlat qisqa muddatli obligatsiyalari ko'rinishidagi davlat qimmatbaxo qog'ozlarini joylashtirishga kirishdi. 1996 yilning may oyi oxiridan davlat qimmatbaho qog'ozlari 3 marta chiqarildi.

Fond bozorining huquqiy bazasi shakllanishi, shuningdek, 1995 yilda xususiy lashtirishning ikkinchi bosqichi boshlanishi tijorat banklarining qimmatbaho qog'ozlar operatsiyasiga jalb etilishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratdi. Qimmatbaho qog'ozlar bozorini shakllantirishda O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 2 sentyabrda qabul qilingan «Qimmatbaho qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida»gi Qonuni asosiy hujjat hisoblanadi. Xususiy lashtirish jarayonini faollashtirish korxonasi va tijorat banklari aksiyalarining birlamchi bozori keng rivojlandi, hisob-kitob va to'lov vositasi sifatida ishlatilgan qimmatbaho qog'ozlar bozori vujudga keldi.

O'zR valyuta birjasi (O'zRVB) pul bozorining tarkibiy qismiga aylandi. 1992 yil 22 iyunda yopiq tUSDagi aksiyadorlik jamiyati sifatida tuzilgan. Respublika valyuta birjasi faoliyatining asosiy vazifasi chet el valyutasi savdosini tashkil qilishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi so'zining barqarorlashib borishi natijasida O'zRVBda 1994 yil 15 apreldan muntazam savdo o'tkazilmokda.

Prezidentimiz I.Karimov jamiyat hayotining barcha jabhalarini, shu jumladan, iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish (liberallashtirish) masalasiga alohida to'xtalmoqdaki. Bu tasodifiy emas edi, albatta.

To'g'ri, bu borada ilgari ham katta ishlar amalga oshirilgandi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'li tanlangandan keyin mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish orqali iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayoniga keng yo'l ochilgan edi. Ammo, bu masala bugun yanada keskinroq qo'yilmoqda, uni hal etishning asosiy yo'nalishlari aniqroq belgilanmoqda.

Haqiqatan ham, iqtisodiyotni erkinlashtirishni ta'minlash ancha chuqur, miqdor va sifat o'zgarishlari bilan bog'liq, ijtimoiy-iqtisodiy jarayon bo'lib, ayrimlar o'ylaganidek, individual bitimlar tuzish huquqini kengaytirish, ishlab chiqarish vositalaridan xususiy mulk sifatida foydalanishni rag'batlantirishdangina iborat emas. Bu jarayon sanoat taraqqiyoti yo'lini tutgan davlatlarning rasmiy iqtisodiy siyosatiga aylangan.

Iqtisodiyotni erkinlashtirishning muhim ko'rinishlaridan biri narxlarni liberallashtirishdir. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni o'tkazishning muhim xususiyatlaridan biri shu bo'ldiki, narxlarni erkinlashtirish makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash dasturining ajralmas qismi, deb hisoblanadi. Va bu tadbir qat'iy pul-kredit siyosati orqali amalga oshirildi. Aks holda, inflyatsiya surunkali va yuqori tus o'lishi, hatto giperinflyatsiya (pulning boshqarib bo'lmaydigan darajadagi kadsizlanishi)ga aylanishi mumkin edi. Tovar va xizmatlarning alohida tor doirasini va «tabiiy monopoliyani» hisobga olmaganida, asosan, narxlarning erkinlashtirilishiga erishildi. «Tabiiy monopolistlar»ning mahsulodari (elektr energiyasi, gaz, transport, Kommunal xizmat va boshqalar)ga narx va tariflarni belgilash inflyatsiya sur'atlariga muvofiq baholar darajasini qayta qarish, ishlab chiqarish rentabelligini cheklash yo'llari orqali boshqarildi. Hozirning o'zida ham bir qator tovar va xizmatlar davlat tomonidan dotatsiyalashtirilmokda.

Ishlab chiqarish monopoliyasi tarixan yuqori bo'lib kelgan mamlakatdan narxlarning birdaniga erkinlashtirilishi tovar va xizmatlarni taklif qiluvchilar tomonidan narxlarni sun'iy oshirib yuborishi xavfiri tug'dirishi tabiiy. Monopolizm sharoitida iste'molchida tanlash imkoniyati umuman bo'lmaydi. Agar monopolizm hukmron bo'lgan joyda ishlab chiqaruvchining aytgani aytgan bo'lsa, raqobat bor joyda iste'molchining degani degan. SHuning uchun ham antimopol siyosatning ishlab chiqilishi va yurgizilishi bozorga o'tishda institutsional islohotlarning muhim bo'lagi hisoblanadi.

SHunday qilib, bugun bozor infrastrukturasini shakllantirildi deb hisoblashga to'la asoslar bor. Bank, moliya, soliq tizimlari, fond va tovar-xom ashyo birjalari, sug'urta, auditorlik, lizing kompaniyalari, qimmatli qog'ozlar bozori va boshqa bozor tuzilmalarining yangi ko'p-qirali

tarmog'i vujudga keltirildi. Birja markazi faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning hammasi bugun amalda ish olib bormokda. «Keng tarmoqli bozor infratuzilmasi-fond va ulgurji bozorlar, birjalalar, kredit va moliya muassasalari, lizing va konsalting kompaniyalari, tadbirkorlarga xizmat qilishi lozim bo'lgan boshqa tuzilmalar tom ma'noda shakllantirilmas ekan, ular ulo'la kuch bilan ishlamas ekan, biz iqtisodiyotimizni ochiq, erkin, eng muhimi, samarali, qisqa qilib aytganda, haqiqiy bozor iqtisodiyotiga aylantira olmaymiz», – deb ta'kidladi mamlakatimiz prezidenti I.Karimov o'zining «O'zbekiston XXI asrga intilmokda» nomli risolasida.

4. Xalq xo'jaligida band bo'lganlarning 40 foizi yaqini qishloq xo'jaligida mehnat qilmoqda. Mamlakat aholisining qariyb 65 foizi qishloq joylarida istiqomat qiladi. SHuning uchun ham qishloq xo'jaligida islohotlar chuqurlashmas ekan, iqtisodiyotning boshqa sohalarida ham bu masalani hal etish oson kechmaydi.

Qishloqda islohotlarni amalga oshirish yuzasidan bir qator tadbirlar belgilanmoqda. Farnonlar, qarorlar qabul qilinib, qishloq xo'jaligini moddiy va moliyaviy, texnikaviy jihatlardan qo'llab-quvvatlash choralari ko'rilaypti.

Bu jarayonda «Fermer xo'jaliklari to'g'risida», «Dexqon xo'jaliklari to'g'risida», «Qishloq xo'jaligi kooperativlari to'g'risida» qonuniy aktlarning qabul qilinishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Natijada qishloqda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar doirasi yanada kengaydi.

1990 – yillari O'zbekistonda xalq xo'jaligini, uning muhim bo'g'ini sanoatni rivojlantirishda ijtimoiy ishlab chiqarish tuzilmalarini takomillashtirishda alohida muhim bosqich hisoblanadi. Bu davrda bir vaqtning o'zida ikki yirik tarixiy vazifa ilgari surildi va muvaffiqiyatli echilmoqda. 1) Ular bozor iqtisodiyotiga o'tish. 2) Milliy iqtisodiyotni barpo etishdir. CHunonchi, Andijonda, Buxoroda, Qo'qonda, Xorazmda, Navoiyda, Toshkentda yirik zavod va fabrikalar ishga tushirildi. Ular bugun mahsulot bera boshladi, milliy iqtisodiyotga, mustaqillikni iqtisodiy va moliyaviy mustahkamlashga, yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning ko'payishiga xizmat qilmoqda. Bu borada amalga oshirilgan keng qo'llamli ishlarining ahamiyati faqat shulardagina iborat emas. Xalq xo'jaligi, sanoat strukturasi takomillashtirishda, mamlakat borgan sari industrial qiyofa kasb etmoqda, minglab kishilarimiz ish bilan ta'minlandi. Mustamlakachilik yillarida qaror topgan sanoat taraqqiyotidagi nomunosibliklarga, ziddiyatlarga barham berila boshlandi. Mamlakatimiz sanoat ishlab chiqarishi notekist, asosan, Toshkent, Samarqand va Farg'ona viloyatlarida to'plagan edi. Mustaqillik yillarida qurib ishga tushirilgan korxonalar hisobiga, sanoat ishlab chiqarish geografiyasi ancha kengaygandi.

Jahondagi taraqqiy etgan mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, sanoatsiz xo'jaligini rivojlantirib bo'lmaydi. Qishloq xo'jaligi barcha xalq xo'jaligi majmui tarmoqlari, eng avvalo, sanoat bilan chambarchas bog'liq, u hozir sanoatdan boshlanib (ishlab chiqarish vositalari, ma'danli o'g'itlar ishlab chiqarish), sanoat bilan tugallandi (etishtirilgan xomashyo va mahsulotlarni qayta ishlash, tayyor mahsulotga aylantirish). Bu ikki tarmoq ustidagi aloqa vertikal integratsiya yoki agrosanoat integratsiyasi jarayoni bo'lib, borgan sari chuqurlashib boraveradi. Gosht, sut, sabzavot va boshqa mahsulotlar iste'molchi dasturxoniga tushishdan oldin sanoatga qayta ishlodvan o'tadi. Bu ob'ektiv jarayon.

SHunday qilib, mustaqillik yillarida sanoatda qishloq xo'jaligi taraqqiyoti uchun mustahkam negiz. Umuman prioritet (ustunlik) degan tushunchaning mohiyati ham shunday kelib chiqadi. Oldin jadal rivojlantirish uchun ayrim, eng zarur sohalarni tanlanardi va kelgusida qolgan sohalarni rivojlantirish uchun tarmal toshi rolini o'taydi. Urishdan keyigi yillarda Germaniyada ham, Yaponiyada ham shunday yo'l tanlangan edi. Xuddi shuningdek, tarmoq ichida ham ustun, soha va yo'nalishtirish belgilanishi mumkin. SHuni tan olish kerakki, boshqa sohalarda bo'lganidek, qishloq xo'jaligidan ham bizga og'ir meros qolgan edi. To'g'ri, 1970 – 1980 yillarda qishloq xo'jaligiga qarz berish, harid narxlarini oshirish, qishloq xo'jaligini rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish soliq siyosati bir necha bor qayta qurilib, agrosanoat majmui foydasiga go'yo hal etildi. Bir necha o'n yillar davomida qishloqqa nisbatan o'tkazib kelingan adolatsizlikni, bir oz bo'lsada, yumshatmoqchi bo'lishdi. Ammo bu siyosat eski ishlab

chiqarish usullarini saqlab qolishga, yirik kolxoz va sovxoz ishlab chiqarish monopoliyasini mustahkamlashga, sanoat uchun kerakli bo'lgan texnika ekinlari etishtirishni rivojlantirishga xizmat qildi, qishloqda xo'jalik yuritish shakllarini kengaytirishni rag'barlantimadi.

Er davlatniki, u jamoa va davlat xo'jaliklariga foydalanish uchun berib qo'yilgan sababli ham xarid narxini belgilash davlat monopoliyasi bo'lib keldi. Mana, nima uchun qishloq xo'jalik mahsulotlariga belgilanadigan xarid narxlari uzluksiz ravishda industrial ishlab chiqarish vositalariga belgilanadigan sanoat ulgurji narxlaridan, ana shu qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan ishlab chiqariladigan xalq iste'moli mollariga belgilanadigan davlat chakana baholaridan uzluksiz o'rqada qolib ketdi. Bu uzoq yillar davomida shakllanib kelgan xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlarini agrar soha hisobiga rivojlantirishdan boshqa narsa emas edi.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyotining uchta tayanch nuqtasi bor. Ular xususiy mulk, erkin tadbirkorlik (sohibkorlik) va raqobatdir. Bizningcha, qishloq xo'jaligida xususiy lashtirish, ayniqsa, erini sotish va sotib olish ob'ektiga aylantirish masalasi ancha murakkab. Bizning sharoitimizda dehqonchilik, asosan, sug'orishga asoslangan, ekinga yaroqli er maydonlari ko'p jihatdan cheklangan, katta miqdorda ekinlari qiladigan texnika ekinlari, shu jumladan, paxta jamoa bo'lib mehnat qilishni taqozo etadi. Bundan tashqari, mamlakat miqiyosida er kadastirining ishlab chiqilishi, erlar baholanishi kerak. Bu ma'lum vaqt talab qilinadigan katta yumushlardir. O'tish davri hali to'la tugalanmagan, baholar turli ichki va tashqi omillar ta'sirida tebranib turgan paytda bugungi mezonlar ertangi vaziyatni to'la ifodalay olmasligi ham mumkin.

Va nihoyat, bu erda qaror topgan an'analarni ham nazardan soqit qilolmaymiz. Ehtimol erini xususiy mulk ob'ektiga aylantirish borasida istagancha gapirish, yoish va tortishish mumkindir. Lekin bizning o'lkada hamisha dexqon er egasimas. erning o'ziga birkirtilgan, Rossiyada esa krepostnoy dexqon pomeschikniki bo'lib kelgan. Birgina shu fenomenning o'zi ham xususiy mulkchilik erga egalik qilishning yagona shakli bo'la olmasligini ko'rsatadi.

Dexqonchilikda oilaviy qudrat shaklini qo'llash, erga egalik qilishda, daromadni taqsimlashda esa psichilik usulidan foydalanish, pay orqali mulkka erga bo'lish, daromad olish, shartnoma asosida ishlash bugun maqsadga muvofiq deb hisoblanmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda aholining 3 - 5 foizini tashkil etadigan fermerlar oziq ovqat mahsulotlari bilan o'z xalqini to'la ta'minlabgina qolmay, ayni paytda ularni boshqa davlatlarga ham eksport qiladi. SHundaylikka shunday, lekin xuddi shu Gollandiyada yoki Amerikada fermerlarga servis xizmat ko'rsatish bo'yicha qanchadan - qancha aholi band ekanligini e'ubordan soqit qilib bo'lmaydi. Fermer o'z uyida yoki fermasida turib, kerakli urug'lik, ma'danli o'g'it yoki texnika xizmati uchun, arzon va ishonchli ta'minotchi hamkorligiga buyurtma berish va uni o'z vaqtida olishi mumkin. U ehtiyot qismlar, yoqilg'ini haftalab kutib o'tirmaydi. Toki dexqon (fermer) o'zining asosiy ishi - hosil to'plash va yig'ish bilan shug'ullanmas ekan, uning ishida unum, samara ham bo'lmaydi.

Prezidentim izning qishloqda xizmat ko'rsatish sohasini etarlicha tashkil qilish zarurligini, dexqonlarga davlat yordamida ayamaslik kerakligini qayta - qayta ta'kidlayotganini boisi shunda. Rasmiy statistika ma'lumotlariga ko'ra, 1996 yilda yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlarining 53,1 foizni aholi shaxsiy yordamchi hujjatlarida etishtiriladi. Ijara korxonalari, shirkatlar va fermerlar xo'jaliklarining ham hissasi ondi. Agar ularga o'z vaqtida kerakli miqdorda yordam ko'rsatiladigan bo'lsa, qabul punktlari va qayta ishlash korxonalari quvvati etarli bo'lsa, ular bundan ham ko'proq mahsulot ishlab chiqarishi va iste'molchi bozorini boyitishi mumkin.

Bugun islohotlar markazi qishloq xo'jaligiga ko'chmoqda. Sanoatimiz kabi qishloq xo'jaligi ham jahon andozalariga mos keladigan sohaga aylanishiga to'liq asoslar bor. Belgilanayotgan reja va dasturlarning amalga oshirilishi tanlangan yangilanishi va islohotlar yo'lining to'g'riligini yana bir isbotlaydi.

Prezidentimiz ijtimoiy infratuzilmani, avvalo qishloq joylarda yanada rivojlantirish, aholini tabiiy gaz va ichimlik suv bilan ta'minlash yuzasidan qabul qilingan Davlat dasturini bajarish lozimligini ta'kidladi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda agrar munosabatlarning yangi tipi yaratildi. Agar munosabalar davlatning erga mulkchilik munosabatlar va erda xo'jalik yuritish usullarini takomillastirishga qaratilgan chora – tadbirlari majmuidir.

O'zbekistonda bozor tizimini yaratishga qaratilgan yangi agrar munosabatlar davlat va jamoat xo'jalik erining bir qismi (jami 500 ming) aholiga tomorqa tarzida foydalanish uchun berildi. Natijada 1998 yilda aholining tomorqa xo'jaligida er 640 mingdan oshib ketdi. Yangi agrar munosabatlarning ikkinchi yo'nalishi – bu qishloqni fermerlashtirish, ya'ni davlat va jamoat xo'jaliklari o'miga dehqon va fermer xo'jaliklarini tashkil etishdan iborat. Erga davlat mulki saqlangan holda er xo'jalik yuritish merosga o'tish sharti bilan dehqonlarga berildi. 1998 yilda jami 20 mingdan ziyod dehqon va fermer xo'jaligi ishladi. Agrar munosabatlarning uchinchi yo'nalishi saqlanib qolgan davlat va jamoat xo'jaliklarda.

Birinchidan, inson huquqlari sohasida Milliy harakat dasturini ishlab chiqish, inson huquqlarini himoya qiladigan muassasalarning yaxlit tizimini barpo etish.

Insoni mezonlar, hukumatga qarashli bo'lmagan huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar va ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish masalalari bo'yicha Evropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish lozim. Respublika mintaqalarida Inson huquqlari bo'yicha vakil samarali faoliyat ko'rsatishi uchun shart – sharoit yaratish, Ombudsman institutining haqiqiy mustaqilligini ta'minlash zarur.

Ikkinchidan, inson huquqlari sohasidagi asosiy xalqaro shartnomalarga qo'shilishga doir ishlarni davom ettirish kerak.

Yangi xalqaro shartnomalarga qo'shilibgina qolmay, shu deklaratsiyalar bo'yicha zimmanizga olgan xalqaro majburiyatlarni bajarishning, barcha organlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar bu deklaratsiyalar talablariga so'zsiz rioya qilishning mexanizmini qonuni bilan ishlab chiqish zarur.

Uchinchidan, fuqarolarning ijroiya organlariga murojaatlarining huquqiy asoslarini takomillastirish, fuqarolarning shikoyatlarini o'z vaqtida va odilona qurib chiqish uchun, davlat organlari mas'uliyatini oshirish maqsadida «Davlat organlari tomonidan fuqarolarning shikoyatlari va arizalarini ko'rib chiqish tartibi to'g'risida» qonun qabul qilish zarur.

Mazkur tadbirlarning amalga joriy etilishi fuqarolarning huquq va erkinliklarini so'zda emas amalda himoya qilib huquqiy demokratik davlat qurishda muhim vosita bo'lib xizmat qilishi shak – shubhasizdir.

## V-MAVZU: "DEMOKRATIK DAVLAT SHAKLLANISHIDA NODAVLAT VA JAMOAT BIRLASHMALARI, OILA, MAHALLA VA FUQAROLARNING O'ZINI-O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING O'RNI"- 2 soat.

### Reja:

1. Nodavlat, notijorat tashkilotlari tushunchalarining mazmun va mohiyati, funktsiyalari hamda O'zbekistonda demokratik jamiyatni barpo etishdagi ahamiyati.
2. Demokratik jamiyat, fuqarolik jamiyatini shakllanishida oilaning o'rni va huquqiy asoslari.
3. Mahalla va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining demokratik davlat qurishdagi o'rni

1. Nodavlat notijorat tashkilotlar dastlab jamiyatni o'zini-o'zi boshqarishi va uni mustaqil ijtimoiy birlik sifatida yashashini ta'minlash ehtiyojlari manfaatlarini asosida paydo bo'ldi. XX asrning o'rtalariga kelib esa nodavlat va notijorat tashkilotlar demokratik jamiyatning muhim, asosiy institutlaridan biriga aylandi. SHunga ko'ra, nodavlat notijorat tashkilotlar mazmun va mohiyatini chuqur anglash, ularning demokratik fuqarolik jamiyatining muhim hamda asosiy institutlaridan biri ekanligi to'g'risidagi tushunchalarni o'rganishga ehtiyoj sezilmoqda. SHuningdek, demokratik jamiyat tushunchasi to'g'risidagi tasavvurlar nodavlat notijorat tashkilotlarni chuqur idrok etishga imkoniyat beradi.

Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning IX sessiyasi (2002 yil 29-30 avgust) mamlakatda fuqarolik jamiyati qurishni avj oltirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Sessiyada mamlakat Prezidenti I. A. Karimov «O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari»ga doir ma'ruzasi bilan so'zga chiqdi. O'z nutqi bilan Prezidentimiz adolati demokratik jamiyat qurishning kontseptual nazariy asoslarini yanada boyitdi. Xususan, Prezident I. A. Karimovning ushbu ma'ruzasida mamlakatda fuqarolik jamiyat barpo etishning asosiy yo'nalishlari va maqsadlarini belgilab berildi: «Beshinchi ustuvor yo'nalish fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim sharti bo'lib, bu jamiyat hayotida nodavlat va jamoat tashkilotlarining o'rnini va ahamiyatini keskin kuchaytirishdan iborat. YOki boshqacha qilib aytganda, bu — «Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari» degan tamoyilni amalda hayotga joriy etish demakdir. Hammamizga ayonki, bu yo'nalish ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liq ko'p masalalarni hal qilishda davlat tuzilmalarining rolini kamaytirish va bu vazifalarni bosqichma-bosqich jamoat tashkilotlariga o'tkaza borishni taqozo etadi. Buning uchun, avvalambor, davlatning iqtisodiy sohaga, xo'jalik yurituvchi tuzilmalar, birinchi galda, xususiy sektor faoliyatiga aralashuvini cheklash lozim».

Mamlakatda XXI asr boshlarida «Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari» kontseptual siyosiy dasturni amalga oshirish maqsadlaridan kelib chiqib, markaziy davlat organlarining ayrim vakolatlarini mahalliy davlat hokimiyati, o'zini-o'zi boshqarish organlari va jamoat tashkilotlariga bosqichma-bosqich berib borish asosida jamiyat qurilishini erkinlashtirish jarayonlari boshlandi. Bu sohada quyidagi yo'nalishlarda islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmog'da:

— birinchidan, jamiyat a'zolarining ongi, irodasi, madaniyati, ma'naviyati va bilimi yuksak darajada bo'lishiga erishish, ularning huquqiy ongi hamda huquqiy madaniyatiga alohida e'tibor berish;

— ikkinchidan, jamiyat a'zolarining manfaatlari uyg'unlashuvi jarayonlarini shakllantirish, jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlar bilan mushtarakligiga erishish;

— uchinchidan, jamiyatning takomillashuvi, yangilanishi uchun kuchli va real siyosiy, iqtisodiy, madaniy imkoniyatlarni shakllantirish;

— to'rtinchidan, jamiyat a'zolari va tuzilmalari o'rtasidagi hamkorlik asosida jamiyatning umumiy manfaatlarini uyg'unlashtirish;

— beshinchidan, jamiyatdagi munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy qoidalar ta'sirini kuchaytirish, ularga ongli ravishda bo'ysunish amaliyotini vujudga keltirish;

— oltinchidan, siyosiy hokimiyatning o'z vazifalarini to'liq bajarishiga kengroq va qulayroq imkoniyatlar yaratish, siyosiy hokimiyatga nisbatan jamiyat a'zolari ishonchini kuchaytirish, uning aholi tomonidan keng va faol qo'llab-quvvatlanishiga erishish kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Mamlakatda kuchli demokratik jamiyat barpo etish maqsadlarida davlat hokimiyati vakolatlarini kamaytirish, ya'ni davlat hokimiyati tasarrufida, asosan, konstitutsion tuzumni, mamlakatning mustaqilligini hamda hududiy yaxlitligini himoya qilish, huquq-tartibot, mudofaa qobiliyatini ta'minlash inson huquqlari va erkinliklarini, mulk egalarning huquqlarini, iqtisodiy faoliyat ekinligini himoya qilish, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, samarali tashqi siyosat olib borish kabi vazifalarni qondirish ko'zda tutilmog'da.

SHuningdek, strategik ahamiyatga molik masalalar, muhim iqtisodiy va xo'jalik masalalari, pul va valyuta muomala bo'yicha qarorlar qabul qilish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining huquqiy shart-sharoitlarini yaratish, ekologiya masalalari, umumrespublika transport va muhandislik kommunikatsiyalarini rivojlantirish, yangi tarmoqlarni vujudga keltiradigan ishlab chiqarishni barpo etish masalalari davlat miqyosida hal etilishi, davlatning boshqa barcha vazifalarni bajarishga doir vakolatlari esa mahalliy davlat hokimiyati, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat va jamoat tashkilotlariga berib borish jarayonlari boshlandi. SHuningdek, davlat organlari faoliyatini nazorat qilish vakolatlarini



ham, asosan, o'zini-o'zi boshqarish organlari, nodavlat va jamoat tashkilotlariga berish belgilandi.

Nodavlat notijorat tashkilotlar to'g'risida tasavvurga ega bo'lish uchun avvalo manfaatlar va ijtimoiy manfaatlar tushunchasini o'rganish talab etiladi. Ijtimoiy-siyosiy munosabatlarda ijtimoiy manfaatlarni hisobga olish, turli qatlamlar va guruhlarining siyosiy ehtiyojlari hamda manfaatlarini uyg'unlashtirish, ularni qondirishning ahamiyati demokratik fuqarolik jamiyati takomillashib borganida sayin yanada kuchaydi.

Ma'lumki manfaatlar — individlar va guruhlarining ijtimoiy xatti-harakatlarini belgilovchi sabablardir. O'z vaqtida Tomas Gobbe «Hokimiyatga intilish inson xulqini harakatga keltiruvchi kuchlarning dushmanligi — shaxsiy manfaatlarining mantiqiy natijasidir», deb ko'rsatgan edi. Gegel esa: «Inson o'z ozodligini hayotga tabiiq qilishi lozim, bu uning bosh manfaatini tashkil qiladi, uning faoliyati shundan tashkil topadi... Manfaat — men faqat harakatlanuvchi, mening harakatlanishimning sub'ektiv irodasidir, shuningdek, manfaatli bo'lish shunga tengki, men harakat qilayotganimda men ishtirok etishim lozim», deb ko'rsatgan edi.

Fuqarolarning ma'lum ijtimoiy guruhga mansubligidan kelib chiqib nodavlat va notijorat tashkilotlarga uyushishi natijasida manfaatlar uyg'unlashuvi ro'y beradi. SHaxsning qanday ijtimoiy guruhga a'zoligi uning manfaatlaridan qay biri ustuvor va barqaror ahamiyatga ega ekanligidan kelib chiqadi, u o'zi uchun muhimroq bo'lgan ijtimoiy guruhga a'zo bo'ladi. Ana shunday ahamiyatli guruhlar ta'siri ijtimoiy tuzilmalar irodasini ifodalaydi. Bunday guruhlar manfaatlarini hukumat doirasi ostiga olishi lozim.

Institutlashgan ijtimoiy guruhlar shaklini olgan manfaatlar guruhlari turli mamlakatlarda ularning tarixiy tajriba va an'alaridan kelib chiqib, turlicha nomlanadi. Masalan, AQSHda manfaatlar guruhlari fuqarolik institutlari, volontyorlar tashkilotlari, umumiy manfaatlar guruhlari, bosim o'tkazish guruhlari deb atalsa, G'arbda nodavlat notijorat tashkilotlari, xayriya tashkilotlari, jam'armalar kabi nomlar bilan ataladi. G'arb sotsiologiyasida esa bu tashkilotlar manfaatlar guruhlari nomi bilan keng tarqaldi. O'zbekistonda esa mustaqillikning ilk davridan boshlab bu tashkilotlar jamoat tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ijtimoiy tashkilotlar nomi bilan keng ommalashdi.

Nodavlat notijorat tashkilotlar jamiyatda mavjud bo'lgan barcha manfaatlarni qamrab olib, ularni ifodalagandagina, ular o'z maqsadlarini samarali bajaradilar. Jamiyatda turlicha, jumladan, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy, milliy, mafkuraviy, maclaniy, ekologik, hududiy, mintaqaviy, diniy, shuningdek, yana o'nlab alohida sohalarga doir manfaatlar mavjuddir. Manfaatlar guruhlari ana shu manfaatlarining ifodachisi sifatida paydo bo'ladi va faoliyat yuritadi. Manfaatlarning guruhlar vositasida ifoda etilishi siyosiy qarorlar qabul qilish uchun yordam berishidan tashqari, ular davlat va hukumat organlari ehtiyoj sezayotgan axborotlar va boshqa ma'lumotlarni etkazib berib turishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkilotlar fuqarolarning ixtiyoriy birlashmalaridir. Ular siyosiy partiyalardan farq qilib, hokimiyatni egallash, lavozimlarga nomzodlar ko'rsatish bilan shug'ullanmaydilar. Lekin ular hukumat va boshqa siyosiy tashkilotlarga ta'sir qilish uchun harakat qiladilar. Bu sohadagi faoliyat siyosiy tashkilotlar vositasiz bo'lishi lozim. Manfaatlar guruhlarining harakat usullari siyosiy organlarni ishontrish, maslahat berish, jamoatchilik fikrini shakllantirish, siyosiy arboblarga ijtimoiy guruhlarining ehtiyojlarini etkazish, o'z manfaatlarini qondirish uchun tashkiliy tadbirlar o'tkazish bilan chegaralanadi.

SHuningdek, siyosiy partiyalar faoliyatining muhim xususiyatlarini tahlil qilish nodavlat notijorat tashkilotlar, guruhlar, turli birlashmalar, tashkilotlarning faoliyati va harakat doirasini o'rganmay turib, amalga oshmaydi. Lekin klassik demokratik nazariyalarda siyosiy guruhlarining maqsadlari ma'lum bir siyosiy yo'lni amalga oshirish uchun hokimiyatni egallash hisoblangan bo'lsa, manfaatlar guruhlarining maqsadi siyosatga ta'sir ko'rsatishdan iboratdir, deb ifodalangan. Siyosiy partiya, asosan, turlicha siyosiy manfaatlar, ko'rsatmalar va yo'nalishlarga ega bo'lgan kishilarni birlashtirsa, manfaatlar guruhlari ko'proq o'z a'zolari uchun xos bo'lgan manfaatlar, asosan, bir yoki bir necha muammolarni hal qilishga o'z diqqat-e'tiborini qaratadi. Nodavlat notijorat tashkilotlar samarali raqobat yo'llarini va siyosiy jarayonda

o mmaviy tarzda qatnashish usullarini shakllantiradi. Ular o'z manfaatlarini himoya qilgan holda davlatning u yoki bu sohadagi siyosati harakatlarini muvozanatda saqlab turish irnkoniyatlariga ega bo'ladi. SHuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar har bir alohida fuqaro (shaxs)ga, siyosiy etakchiga ta'sir o'tkaza olish va unga siyosatda ishtirok etish imkoniyatini yaratadi.

Nodavlat notijorat tashkilotlarning funksiyalari turli-tumandir. Lekin ularning asosiy funksiyalaridan biri turli ijtimoiy guruhlar va qatlamlar manfaatlarini artikulatsiya qilishdir. Manfaatlarni guruhlar individuallarning turli yo'nalishdagi qarashlar va fikrlarining bir tizimga kelitiradi, biron-bir tashkilotning bir qolipga solingan manfaatlar tizimini asosida tashkilot harakat dasturining shakllanishiga yordam beradi. Guruhlar a'zolarining ayrim olingan manfaatlari siyosiy jarayonlarga manfaatdor guruhlar vositasida aniq, bir tizimga solingan talablar tarzida tatbiq etiladi. SHuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar ko'plab ayrim manfaatlarni agregatsiya qilish (munozaralar va muhokamalar yordamida turli manfaatlarni uyg'unlashtirish va ular o'rtasida ma'lum bir munosabatlar tizimini o'rnatish)ni ham amalga oshiradi. Bu jarayonda eng asosiy va muhim ahamiyat kasb etadigan, guruh a'zolarining keng qatlamlari qarashlarini ifoda etadigan manfaatlar tanlab olinadi va ularni amalda qondirishning zaruriy chora-tadbirlari ko'riladi.

Nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan ma'lum bir ijtimoiy guruhning turli manfaatlari bir tizimga solinib, ularning keng jamoatchilikning xohish-irodasi sifatida davlat va hukumat organlariga etkazilishi siyosiy qarorlar qabul qilish uchun muhim ahamiyatga egadir. Qolaversa bunda ko'plab manfaatlar guruhlari va ijtimoiy qatlamlar o'rtasida kelishuv va muvofiqlashuv ro'y beradi.

SHuningdek, manfaatlar guruhlari faoliyatida keng ishtirok etish uning a'zolari huquqiy va siyosiy madaniyatlarining shakllanishiga, demokratik jamiyat sharoitlarida jamoat ishlarida faol ishtirok etishlarini rag'batlantirishga amaliy tajriba sifatida katta yordam beradi.

Nodavlat notijorat tashkilotlar ichida faqat siyosiy partiyalariga siyosiy faoliyat bilan bevosita shug'ullanishi mumkin. Siyosiy partiyalarning davlat bilan xalq ommasi o'rtasidagi munosabatlarida turli ijtimoiy qatlam va guruhlarning siyosiy manfaatlarini va irodalarini ifodalashi muhim ahamiyat kasb etadi. Siyosiy manfaatlar deb, ijtimoiy faoliyat sub'ektlarning o'z holatini siyosiy kurash vositasida barqarorlashtirish hamda yaxshilashning ob'ektiv va sub'ektiv imkoniyatlarini anglashga aytiladi. Siyosiy manfaatlar sub'ektlari, asosan, ijtimoiy qatlamlar, individuallar va tashkilotlardan iboratdir. Ijtimoiy qatlamlar sinfiy, etnik, kasbiy, hududiy, demografik, mehnat jamoasi ko'rinishlariga ega bo'ladi. Tashkilotlar esa davlat, jamoat birlashmalari, konfessiyalar, ijtimoiy harakatlar shaklligiga ega bo'ladi. Siyosiy manfaatlar xarakteri siyosiy tuzumga nisbatan turlichadir. Siyosiy manfaatlar tuzumini o'zgartirish, uni modernizatsiya qilish, shuningdek, mavjud tuzumni barqaror saqlashga yo'naltirilishi mumkin. Ijtimoiy taraqqiyotga nisbatan esa manfaatlarning xarakteri progressiv, reaksiyon va mo'tadil shakllarda ifodalanadi.

Siyosiy manfaatlar xarakterini ifodalash uchun odatda siyosiy yo'nalishlarga nisbatan «ultra-so'l», «so'l», «so'l mo'tadil», «mo'tadil», «o'ng mo'tadil», «o'ng va ultra-o'ng» tushunchalari ishlatiladi. Tashkilotlarga nisbatan esa «davlat», «siyosiy partiya», «jamoat tashkilotlari», «jamoat harakatlari» va individuallar tushunchalari qo'llanadi.

Hozirgi davrda AQSHda tadbirkorlar manfaatlarini ifoda etuvchi manfaatlar guruhlari uyushmalarga a'zo bo'lib, Mustaqil Biznes Milliy federatsiyasiga birlashganlar. Germaniyada esa Nemis kasaba uyushmasi federal birlashmasi, Nemis ish beruvchilari uyushmasi federal birlashmasi, Germaniya sanoatchilari federal birlashmasi, Soliq to'lovchilar uyushmasi, Demokratik olimlar uyushmasi, Nemis sport uyushmasi kabi bir qancha manfaatlar guruhlari faoliyat ko'rsatadi. Hududiy, mintaqaviy va federal darajalarda ham hunarmandlar, talabalar, vrachlar, madaniyat arboblari, turli iste'molchilar uyushmalari va tashkilotlari faoliyat ko'rsatadi. Germaniyada 4 — 5 ming atrofida ana shunday birlashmalar faoliyat yuritmoqda. Boshqa rivojlangan mamlakatlarda ham manfaatlar guruhlari jamiyatning asosiy qismini tashkil etadi. AQSHda 1 mln.dan ko'proq nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyat yuritadi. Ularda Amerika aholisining 7,8% i xizmat qiladi.

AQSHda aynan jamoat tashkilotlari sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat, san'at va fuqarolarni ijtimoiy ta'minlash va muhofazalash sohasida davlatning asosiy hamkori hisoblanadilar. Dunyoning boshqa rivojlangan mamlakatlari hukumatlari ham muhim iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqa muammolarni hal etishda jamoat tuzilmalariga, birinchi navbatda nodavlat notijorat tashkilotlariga tayanadilar. Rivojlangan 22 ta mamlakatda ish bilan band aholining 4,9 foizi bevosita nodavlat sohada mehnat qiladilar. Bu ko'rsatkich Niderlandiyada 12,4, Irlandiyada 11,5, Belgiyada 10,5, Isroilda 9,2, Avstraliyada 7,2, Buyuk Britaniyada 6,2 foizga tengdir.

Manfaatlar guruhleri hukumatning siyosiy strategiyasini shakllantirishga ham katta hissa qo'shadi. Ularning siyosiy partiyalar bilan hamkorlik qilishi partiya a'zolarining huquqiy va siyosiy madaniyatini oshiradi hamda ichki intizomni mustahkamlaydi. Buning sababi shundaki, odatda manfaatlar guruhleri etakchilari u yoki bu partiyaning rahbar organlarida ta'sirchan mavqelarni egallab turadilar.

Keyingi o'n yilliklar ichida ijtimoiy-siyosiy hayotda nodavlat notijorat tashkilotlar va siyosiy partiyalar o'rtasidagi munosabatlarda ma'lum o'zgarishlar ro'y berdi. Partiyaviylikka intilishning susayishi sababli ko'plab kishilar manfaatlar guruhleri tomon og'a boshladilar. Ba'zi siyosiy kuzatuvchilarning fikricha, manfaatlar guruhlarining o'sishi shu darajada tezlashdiki, bu guruhlar endi partiyaning ba'zi funksiyalarini o'z zimmasiga olmoqda. Ba'zi ta'sirchan manfaatlar guruhleri esa o'zlarining siyosiy harakat qo'mitalarini tashkil etayotganligi ko'zga tashlanmoqda. Bu qo'mitalarning siyosiy hayotdagi o'rni ham kuchayib bormoqda. Hozirgi davrda AQSHning o'zida shu kabi qo'mitalarning soni to'rt mingdan ortib ketdi.

Nodavlat notijorat tashkilotlarning hokimiyatga daxldor maqsadlari, parlament vositasida hal qilinishi lozim bo'lgan muammolari faqat partiyalar bilan hamkorlikda bajarilishi yoki hal bo'lishi mumkin. O'z navbatida, siyosiy partiyaning ham manfaatlar guruhlarisiz saylov kampaniyalarida muvafaqiyatga erishishi, jamiyatni anglashi qiyin kechadi.

Demokratik jamiyatning muhim belgilaridan biri, bu — ko'ppartiyaviylik bilan bir qatorda o'z a'zolarining yuksak siyosiy madaniyatiga tayangan manfaatlar guruhlarining mavjudligi, ularning jamiyat va davlatning barcha institutlari bilan o'zaro teng huquqlilik asosida faol munosabatda bo'lishidir. Siyosiy partiyalar o'z o'mida nodavlat notijorat tashkilotlarning turli manfaatlarini birlashtiradi, o'zida ifoda etadi. SHu bilan birga, o'z manfaatlari yo'lida bu guruhlardan foydalanadi va hamkorlik qiladi.

O'zbekistonda davlat mustaqilligi e'lon qilingan dastlabki yillardan boshlab mamlakat prezidenti I.A.Karimov boshchiligidagi hukumat fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish maqsadlaridan kelib chiqib, nodavlat notijorat tashkilotlarini demokratik tamoyillar asosida isloh etishga muhim e'tibor berib kelmoqda. Mamlakat prezidenti I.A.Karimov mamlakat taraqqiyoti to'g'risida so'zlar ekan, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning strategik maqsadlarini quyidagicha ifodalaydi: «Pirovard maqsadimiz ijtimoiy yonalirilgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, ochiq tashqi siyosatga ega bo'lgan kuchli demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etidan iboratdir».

Mustaqillik davridagi demokratik islohotlar natijasi o'laroq, 1992 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan barcha qonunlar majmuasi mamlakatimizda demokratik o'zgarishlarni chuqurlashtirish orqali fuqarolik jamiyatni qurishga qaratilgandir. Ayniqsa, Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning VIII sessiyasida qabul qilingan «Referendum yakuinlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy printsiplari to'g'risida»gi Konsitutsiyaviy Qonunning 2-moddasiga binoan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish hamda fuqarolik jamiyatini shakllantirishiga doir qonun hujjatlarini takomillashtirishning asosiy printsiplari quyidagicha ifodalandi:

—qonun ustuvorligini, hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud tarmoqlari o'rtasida muvozanatni, ulardan har birining haqiqiy mustaqilligini ta'minlash;

—xalqaro huquqning umume' tirof etilgan printsiplari va normalari asosida inson huquqlari

va erkinliklari kafolatlarini ta'minlash;

—siyo siy hayotning, davlat va jamiyat qurilishining barcha jabhalarini izchil erkinlashtirish;

—nodavlat notijorat, jamoat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa demokratik institutlari yanada mustahkamlanishi hamda rivojlantirilishi uchun kafolat va sharoitlarni ta'minlash;

—fukarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini har tomonlama mustahkamlash va davlat hokimiyati markaziy organlarining vakolatlarini joylardagi boshqaruv organlariga bosqichma-bosqich o'tkazish, ijro etuvchi hokimiyat organlari, shu jumladan, mudofaa va xavfsizlikni ta'minlovchi tuzilmalar faoliyati ustidan jamoat nazorati mexanizmini shakllantirish va kuchaytirish.

Mustaqillik davrida mamlakatda demokratik jamiyat qurishning haqiqiy asoslari yaratildi. Konstitutsiyaning g'oyalari, maqsadlari, ruhi, uning har bir qoidasi BMT ning «Inson huquqlari umumijohon Deklaratsiyasi», aslari mobaynida ilg'or va etakchi mamlakatlarda shakllangan demokratik qadriyatlar, milliy davlatchilik, shuningdek, bir necha ming yillardan buyon avdoddan-avlodga meros bo'lib kelayotgan milliy va sharqona davlat hamda jamiyatni adolatli idora etish, mamlakatni boshqarishda xalqning ham bevosita ishtirok etishi an'analarini o'zida mujassamlashtirdi.

Milliy mustaqillikning dastlabki davridayoq mamlakatda fuqarolik jamiyatini qurish yo'lida uning muhim institutlaridan biri bo'lgan nodavlat notijorat tashkilotlarning erkin va mustaqil faoliyat yuritishlari uchun huquqiy asoslar yaratildi. Konstitutsiyaning alohida «Jamoat birlashmalari» deb nomlangan bobi respublikada fuqarolik jamiyati va ko'ppariyaviylik tizimini qaror toptirish uchun ham huquqiy, ham amaliy jihatlardan shart-sharoitlar yaratadi. Unga binoan jamoat birlashmasi, kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar kabi tushunchalarga huquqiy aniqliklar kiritildi. Endi ular demokratik talqinlar asosida ta'riflana boshlandi. Ayniqsa, Konstitutsiyaning 58-moddasidagi «Davlat jamoat birlashmalarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi ta'minlaydi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etishi uchun teng huquqli imkoniyatlar yaratib boradi. Davlat organlari va mansabdor shaxslarini jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashishiga, shuningdek, jamoat birlashmalarining davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi», 34-moddadagi «O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar. Siyosiy partiyalarda jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek, hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muholidatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas», degan fuqarolik jamiyat mustaqilligini ta'minlashga doir huquqiy printsipning e'tirof etilishi respublikadagi jamiyat taraqqiyoti insoniyat hayotining bir necha asrlar mobaynida ajribalaridan va sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan fuqarolik jamiyati sari intilayotganigini bildiradi. O'zbekistonda saylov tizimi uchun Konstitutsiyaning «Saylov tizimi» deb nomlangan bobidagi 117-moddaga binoan respublika «fuqarolari erkin ravishda vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar».

Hozirgi davrga kelib, O'zbekistondagi nodavlat notijorat tashkilotlar, jamoat tashkilotlari va siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining «Jamoat birlashmalari to'g'risidagi Qonuni (1991 yil fevralda qabul qilingan. 1997 y. aprelda esa qo'shimcha va o'zgarishlar kiritilgan), O'zbekiston Respublikasining «Kasaba uyushmalari, uarning huquqlari va faoliyati kafolatlari to'g'risidagi Qonuni (1992 y. yul), O'zbekiston Respublikasining «Siyosiy partiyalar to'g'risidagi Qonuni (1996 y. dekabr), O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida» yangi tahrirdagi Qonuni (1999 y. aprel), O'zbekiston Respublikasining «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida» gi Qonuni (1999 y. aprel), O'zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida» Yangi tahrirdagi Qonuni (1998 y. may) kabilar bilan muvofiqlashadi.

Oliy Majlis tomonidan 1999 yil 14 aprelda qabul qilingan «Nodavlat notijorat

tashkilotlar to'g'risida» gi Qonunga binoan «Nodavlat notijorat tashkiloti — jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foйда) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini-o'zi boshqarish tashkilotidir. Nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarini himoya qilish, ijtimoiy, madaniy, shuningdek, ma'rifiy maqsadlarga erishish, ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi».

O'zbekistonda amaldagi qonunchilikka binoan nodavlat notijorat tashkilotlariga quyidagi huquqlar berilgan:

- o'z a'zolari va qatnashchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;
- ijtimoiy hayotning turli masalalariga doir tashabbuslar bilan chiqish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga takliflar kiritish;
- davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining qarorlarini ishlab chiqishda, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ishtirok etish;
- o'z faoliyati to'g'risida axborot tarqatish;
- ommaviy axborot vositalarini ta'sis etish hamda belgilangan tartibda noshirlik faoliyatini amalga oshirish;
- ustavda belgilangan vazifalarni bajarish uchun tadbirkorlik tuzilmalarini tashkil etish;
- o'z ramziy belgilarini ta'sis etish;
- o'z faoliyatiga taalluqli masalalar yuzasidan yig'ilishlar, konferentsiyalar o'tkazish;
- qonun hujjatlariga muvofiq vakolatxonalar ochish va filiallar tashkil etish.

Demokratik jamiyat qurishga doir islohotlar siyosiy partiyalarning mustaqil tashkilot sifatidagi maqomini oshirishga yo'naltirilgan. 2004 yil dekabrda bo'lgan saylovlarda siyosiy partiyalarga Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar ko'rsatishning to'la huquqlari berilishi, xalq deputatlari kengashlari — vakillik organlaridan esa bu kabi huquqning olib qo'yilishi partiyalarning jamiyatda tutgan o'rnini yanada yuksak ko'tarishga qaratilganidir.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirish omillaridan biri siyosiy maydonda demokratik mamlakatlarga xos bo'lgan partiyaviylik tizimini qaror toptirishdir. Faqat ko'ppartiyaviylikka asoslangan ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni majmuasiga fuqarolik jamiyatini qurish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. Har bir mamlakatdagi davlat, hukumat va parlamentni shakllantirishda siyosiy partiyalarning qanday mavqega egaligi, bu jarayonlardagi ishtirokining qanday kechishi xalqning partiyaviylik tizimi asosida kechgan saylovlardagi faollik darajasi hozirgi davrga kelib demokratiya me'yorlarini belgilab bormoqda.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida fuqarolik jamiyatining muhim instituti bo'lgan siyosiy partiyalarning demokratik tamoyillar asosida faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan barcha huquqiy asoslar Konstitutsiya va qonunlarda o'z ifodasini topdi. Jumladan, «Siyosiy partiyalar to'g'risidagi Qonunda siyosiy partiyalar tuzish, ularning faoliyat ko'rsatish printsiplari, partiya ga a'zolik, siyosiy partiya faoliyatining kafolatlari, ustavi, ro'yxatga olish, partiyalarning mulkiy munosabatlarga doir barcha huquqiy maqomlarning mujassamlashgani O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimini qaror toptirishning kafolatlaridan biriga aylandi. Mazkur qonunlarga binoan siyosiy partiyalar fuqarolarning siyosiy irodalari shakllanishini ta'minlash uchun erkinlik hukuqiga ega bo'ldilar, partiyalarning o'zaro huquqiy tengligi. Shuningdek, ularning jamiyat oldidagi mas'uliyati qonunlashtirildi.

Shuningdek, respublikada ko'p partiyaviylik tizimini qaror topib, saylovlarni ko'ppartiyaviylik asosida o'tkazish oddiy bir demokratik qadriyatga aylandi. Davlat hokimiyatini shakllantirishda siyosiy partiyalar hamda jamoat birlashmalarining taklif va istaklarini mubotga olish ham siyosiy hayot tarziga aylanib bormoqda. Siyosiy partiyalar va fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroklarini ta'minlash, avj ol dirish uchun ham barcha imkoniyatlar, shart-sharoitlar yaratilmokda.

Mamlakatda fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan demokratik siyosiy tizimning o'ziga xos xususiyatlari, uning demokratik printsiplari, siyosiy tizimni rivojlantirish masalalari Prezident I.A.Karimovning Birinchi chaqiriq Oliy Majlisning VI va XIV sessiyalarida, Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning I, VIII va IX sessiyalaridagi ma'ruzalarida, shuningdek, «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, qarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» nomli isarida, uning Oliy Majlis Qorunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi (2005 yil 28 yanvar)da nazariy va konseptual jihatlardan asoslab berildi.

Mamlakatda nodavlat notijorat tashkilotlar mustaqilligini ta'minlash, shuningdek, ularni fuqarolik jamiyatining muhim institutiga aylanishini tasminlash maqsadlarida davlatning «Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari» konseptual siyosiy dasturi qabul qilindi. Unga ko'ra, avvalambor, hokimiyat vakolatlarining ma'lum bir qismini markazdan mahalliy hokimiyat organlariga o'tkazishga qaratilgan mavjud qonun va huquqiy hujjatlarni bir tizimga keltirish va ularga qo'shimcha tarzda yangilarini ishlab chiqish lozim.

Jamiyat siyosiy tizimini yanada erkinlashtirish masalalari mazkur siyosiy dastur qabul qilinganidan keyin yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jahon jomoatchiligi tomonidan tan olingan «O'zbek modeli» asosida jamiyatni har tomonlama isloh etishning asosiy yo'nalishi fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishga qaratildi. Jamiyatning siyosiy tizimi ijtimoiy guruhning xilma-xil ehtiyojlari va manfaatlarini o'zida ifodalashga, ularni hayotga tabiiq etishga qaratilgan. O'z o'rnida, nodavlat notijorat tashkilotlar va siyosiy institutlar bevosita yoki bilvosita siyosiy hokimiyatning amal qilishiga hissa qo'shadi yoki bu jarayonlarda ishtirok etadi. SHuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyati natijasida jamiyat siyosiy tizimi kengliklarida jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy hayotiga mansub bo'lgan turli-tuman ijtimoiy tabaqalar manfaatlari o'zaro ziddiyatlashuvi natijasida rivojlanish ro'yi beradi. SHuningdek, bu jarayonlar turli ijtimoiy qatlam va gurhlarning taqazo kelishuvi, hamkorligiga imkoniyatlar yaratadi.

Hozirgi o'tish davri va demokratik mezonlar har bir siyosiy partiyani mustaqil institut sifatida o'z ijtimoiy bazasi bo'lgan ijtimoiy tabaqalar manfaatlari va dunyoqarashiga mos harakat dasturlariga ega bo'lishi, siyosiy plyuralizmi shakllantirib, turlicha qarashlar raqobati va musobaqasi asosida fuqarolik jamiyati shakllanishi uchun zamin tayyorlashini talab etmoqda.

Mamlakatda fuqarolik jamiyatining asosi bo'lgan demokratik institutlarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlariga doir islohotlar ham tobora chuqurlashib bormoqda. Hozirgi davrda respublikada 309ta respublika ahamiyatiga molik jamoat birlashmalari faoliyat ko'rsatib, ulardan 64 tasi xalqaro tashkilotlar maqomiga egadir. Ularning 48tasi jamg'arma, 78tasi jamiyat, 5tasi siyosiy partiya, 42tasi federatsiya, 16 tasi kasaba uyushmalari, 2tasi ijtimoiy harakat, 20tasi markaz, 48tasi assotsiatsiya, 20tasi uyushma, 5tasi qo'mita, yana 22tasi turli nomlarda rasmiy ro'yxatdan o'tganlar. SHuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarda mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan 237ta jamoat birlashmalari faoliyat ko'rsatmoqda.

Hozirgi davrga kelib O'zbekistonda 5 ta siyosiy partiya faoliyat yuritmoqda. Mustaqillikning dastlabki davrida O'zbekiston Xalq demokratik partiya, o'tgan asrning 90-yillari o'rtasida O'zbekiston «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi, O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi, asr so'ngida esa «Fidokorlar» milliy demokratik partiyasi tashkil topdi. 2003 yilning 15 noyabrida esa mulkdorlar va o'rta ijtimoiy qalam siyosiy qarashlarini ifodalovchisi sifatida Tadbirkorlar va ishlabarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal demokratik partiyasi tashkil topdi. Hozir Oliy Majlisda O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining 28 ta, O'zbekiston «Adolat» sotsial-demokratik partiyasining 10 ta, O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasining 11 ta, «Fidokorlar» milliy demokratik partiyasining esa 18 ta deputatdan iborat partiya fraksiyalari mamlakatdagi qonun chiqarish jarayonlarida faol ishtirok etmoqda.

Mustaqillikning dastlabki davrlarida O'zbekiston «Mahalla» xayriya jamg'armasi tashkil topdi. O'tgan davr ichida «Sog'lom avlod uchun» xalqaro nohukumat xayriya jamg'armasi, «Ekosan» xalqaro ekologiya va salomatlik jamg'armasi, Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati Assambleyasi, Xalqaro Amir Temur jamg'armasi, Xalqaro Inom Buxoriy jamg'armasi, «Oltin

meros» jamg'amasini, respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi, «Xalq birligi» harakati. O'zbekiston faxriylarini qo'llab-quvvatlash «Nuroniyy» jamg'amasini, O'zbekiston ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish va qo'llab-quvvatlash ijtimoiy-siyosiy jamg'amasini (hozirda O'zbekiston jurnalistlar ijodiy uyushmasi), O'zbekiston yoshlarining «Kamolot» ijtimoiy harakati, Jamoatchilik fikrini o'rganish «Ijtimoiy fikr» markazi, Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar Palatasi, Milliy matbuot markazi, Baynalmilal madaniy markazi, respublika «Ustozi» jamg'amasini (hozirda «Istiqbol») kabi nodavlat tashkilotlari tuzildi. O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi demokratik printsipal asosida butunlay qaytadan tashkil etildi. SHu bilan birga, «O'zbekiston tadbirkor ayollar uyushmasi», «Ayol va salomatlik», ayollarning «Mehri» tashkiloti, «Ayollar resurs markazi», «Ayol va jamiyat» instituti kabi xotin-qizlar muammolarini echish va ular manfaatlarini ifodalaydigan nodavlat tashkilotlar faoliyat yuritmoqda.

O'zbekistonda BMT Rivojlanish Dasturlari asosida o'nlab xorijiy tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. SHuningdek, «Britaniya Kengashi», Konrad Adenauer jamg'amasining Markaziy Osiyo mamlakatlari bo'yicha vakolatxonasi, Fridrix Ebert jamg'amasini vakolatxonasi. Ta'lim va tillar o'rganishda hamkorlik qilish bo'yicha Amerika Kengashi (AKSELS), YUNESKO vakolatxonasi Germaniyaning «Gyote instituti» Frantsiyaning «Alyans Franse» kabi yana o'nlab xorijiy mamlakatlarda nodavlat tashkilotlari vakolatxonalari va filiallari O'zbekistonda turli sohalarida keng faoliyat yuritmoqda.

2.Dunyoda yuz beradigan har qanday o'zgarishlar, xoh u iqtisodiyotda, xoh ma'naviy-siyosiy sohalarida bo'lsin, o'z ta'sirini dastavval oila muhitida namoyon etadi. So'nggi yillarda iqtisodiyotda globallashuv jarayonlarning faollashuvi, ma'naviyat va axloqiy tarbiyada G'arb ma'naviyatiga xos bo'lgan individualizmning kuchayishi hayotimizning barcha jabhalariga va ayniqsa, oila muhitiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Darhaqiqat, oila barcha islohotlar, o'zgarishlar, tanazzul va taraqqiyotlarning ibtidosi va intihosi hisoblanadi.

Mamlakatimizni qorloq istiqbolini ta'minlashda boshqa ijtimoiy institutlar bilan bir qatorda oila omiliga ham katta e'tibor qaratilayotganligi bejiz emas. SHunday ekan, oila muhitida mamlakatimizning umumiy rivojlanishiga munosib hissa qo'sha olishga qobil va tayyor shaxslarni shakllantirish uchun birinchi g'aldan nimalar qilishimiz lozim? Dastavval, o'sib kelayotgan yosh avlod ongi, shuuri, ma'naviyatida Vatan tuyg'usini mustahkam qaror toptirish ishi xalqimiz uchun taqdirbomon vazifa sanaladi. Negaki, qadim-qadimdan oila — muqaddas Vatan sanalgan. Zero, oilaga sadoqat, ota-onaga oqibat, aka-ukalarga mehrlilik Vatan tuyg'usining debochalaridir. Oilaga samimiy sadoqat bo'lmagan joyda, fazandalar oldida ota-ona hurmati yuq. Bunday holatda na qarindoshlarga, na mahallaga va na Vatanga muhabbat tarkib topadi. SHu boisdan ham Prezidentimiz I.A.Karimov «Oilaga e'tiboringizni tubdan o'zgartirish, oilalarni avvalo ijtimoiy jihatdan himoyalash, e'zozlash, qo'llab-quvvatlash — butunlari kunimiz uchun va ertangi istiqbolimiz uchun naqadar muhim va dolzarb ekanligini yaxshi tushunishimiz va anglashimiz darkor», deya alohida qayd ekanliklari bejiz emas.

Oilalarning mustahkamlanishi bir tomondan, oilaga davlat va jamiyat e'tiboringiz kuchayishiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi jihatdan, oilaning sub'ektiv, ya'ni ichki imkoniyatlarini to'laroq yuzaga chiqarish bilan bog'liqdir. Oilaning ichki imkoniyatlarini deganda, oila tarkibi, oila a'zolarining ijtimoiy mo'ljalari, o'z oldilariga qo'yayotgan maqsadlari, farzandlar tarbiyasi, ta'lim, shaxsning individual taraqqiyoti, axloqiy tarbiya, mehri, sadoqat, sabr, muhabbat omillarining oila muhitida amal qilishi ushuniлади.

Dastavval, oila tarkibi va farovonligi masalasi to'xtalib. BMTning YUNISEF tashkiloti tomonidan o'rganilgan holatlar natijasiga ko'ra, O'zbekiston aholisining yarmidan ko'prog'i, ya'ni 11 millioni 18 yoshgacha bo'lganlarni tashkil etib, har bir oila boquvchisi o'zi bilan o'rtacha 5,2 kishini boqish mas'uliyatini zimmasiga olib yashaydi. Taqqoslash uchun mamlakatimizga aholi nufuzi bo'yicha birmuncha yaqinroq bo'lgan Ruminiya yoki Polshani misol qilib olsak, bu davlatlarda har bir boquvchi zimmasiga 0,5 bolani boqib, o'stirish to'g'ri kelmoqda. 35 millionlik Polsha aholisining 22 millioni, Ruminiyaning 23 million aholisidan 16 millioni moddiy yoki nomoddiy ishlab chiqarish sohalarida mashg'ul bo'lsalar, O'zbekistonning 25 million aholisidan 5

millionga yaqini ishlab chiqarish, boshqaruv, tijorat, maonif, tibbiyot singari sohalarida faoliyat yuritmoqdalar. Tabiiyki, bunday holat vaqtincha muayyan iqtisodiy qiyminchiliklar tug'dirsada, har o'tgan yil moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishga millionlab yangi ishchi kuchlarining kelib qo'shilishiga va pirovard natijada mamlakatimizning umumiy salohiyati darajasini uzluksiz ravishda oshuviga olib keladi.

Istiqlol sharofati bilan ma'naviy tiklanish jarayonlari jadal kechayotgan mamlakatimizda oila instituti ijtimoiy hayotda tobora mustahkamroq o'rin egallab bormoqda. Bu borada yurtboshimiz I.A.Karimov asoslab bergan oila omilini mustahkamlash kontseptsiyasi e'tiborga sazovordir. "Oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, kelajak nasllar qanday inson bo'lib etishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'idir"<sup>1</sup>.

Oila mustaqil ijtimoiy institut bo'lib shakllanganidan buyon to istiqloq davrimizgacha ko'p qirali va murakkab yo'lni bosib o'tdi. Har bir tarixiy davrda oila a'zolarining o'zaro munosabatlari xilma-xil mazmun bilan boyib bordi. Oilaning jamiyatdagi muhim ijtimoiy institut sifatidagi o'rin xususida mutafakkirlarimiz ko'p ibratli gaplar aytishgan.

Xususan, bu boradagi chuqur fikr mulohazalari Abu Nasr Forobiyning «Fozil Odamlar shahri», Abu Rayhon Beruniyning «Mineralogiya», «Geodeziya», «Hindiston», «O'tgan avlodlar obidalari», Abu Ali ibn Sinoning «Axloq», «Axloq fani», «Oila xo'jaligi», Alisher Navoiyning «Hayrat-ul abron» va «Mahbub-ul qulub» asarlarida o'z ifodasini toigan.

XX asr boshlarida yurtimizda milliy ozodlik kurashchilari bo'lgan jadiclar oila instituti orqali jamiyatni isloh qilish uchun astoydil kurashganlar.

Oilaning huquqiy asoslari mamlakatimiz Konstitutsiyasining 66-bandida «Voyaga etgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar», deb maxsus qayd etiladi. SHu o'rinda qayd etish joizki, dunyo konstitutsiyalarining birortasida ham bunday mazmundagi huquqiy modda alohida ajratib ko'rsatilmagan bo'lib, masalarning bu tarzda qo'yilishi O'zbekistonda ota-ona va farzand munosabatlari umumdavlat darajasidagi favqulodda muhim masala ekanligidan dalolatdir

Jadiclar harakatining yirik nazarivotchisi professor A.Fitrat o'zi yashagan davr hayoti haqida kuyinib xalqning ahvoli ayanchli, yurtning umumjahon jarayonlaridan ancha orqada qolgan, ma'naviy qashshoqlanish yuz borgan deb yozadi. Bu tasodifiy emas edi. Negaki, o'tgan asming boshida, ya'ni A.Fitrat yashagan davrda SHarq oilalarga G'arb turmush tarzi singdirila boshlangan edi. U o'zining "Oila yoki oilani boshqarish tartiblari" asarida oila asosini to'g'ri qurish, oilada yosh avlodga jismoniy, aqliy va axloqiy tarbiya berish orqali mana shu turg'unlikdan qutulish, jamiyatni isloh qilish mumkinligini bayon qilgan. "Millat taqdiri mana shu millat vakillari yashagan oilaning holatiga bog'liqdir... Qaerda oila munosabati kuchli natijomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo'ladi"<sup>2</sup>, deb yozadi u mazkur asarda.

Fitrat o'z fikrini davom ettirib, «Agar bir mamlakat aholisi axloqsizlik va johillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo'l qo'ysa, shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi»<sup>3</sup>, deb yozadi.

Muallif oilaviy hayot o'z qonun va qoidalarga ega ekanligini, bu qonunlarga rioya qilish orqaligina odamlarni jaholatdan qutqarish mumkinligini bayon etadi.

Oila institutining barqarorligi jamiyatning barcha sohalariga o'z ta'sirini o'tkazadi. G'arb olimlari tadqiqotlarida oilaning inqirozi xususidagi nuqtai nazarlar keng bayon etilmoqda. Xususan, 1859 yilda «Boston Kuaterli Revyu» jurnali shunday deb yozgan edi: «Eski ma'nodagi oila hayotimizdan yo'qolmoqda va bu nafaqat institutlarimizning erkin xarakterini xavf ostida qoldiradi». Bunday fikrlar ko'pgina G'arb mamiakatlari bo'ylab aks-sado berib o'tdi. 1980 yilda Britaniyada konservatorlar partiyasi oila tushunchasini siyosiy jihatdan muhokama qildi. 1986 yilda Angliyada bosh vazir lavozimida ishlagan Margaret Tetcher

<sup>1</sup> Karimov I.A. Oila farovonligi — millat farovonligi. «Ma'rifat», 1997 yil 10 dekabr

<sup>2</sup> Abdurauof Fitrat. Oila. — T.: Ma'naviyat, 1998, 8-bet.

<sup>3</sup> O'sha joyda/..



konservatorlar partiyasi konferentsiyasida: «Bizning siyosatimiz oiladan, uning erkinligidan va uning xotirjamligidan boshlanadi» degandi. Boshqa tomondan, oilaning tanqidchilari oila institutining tushkunligini va hatto bopa-bora yo'qolib ketishini bashorat qiladilar.

Oilaning yo'qolishi to'g'risida hali asoslanmagan holda shunchalik ko'p gapirildiki, bunday umumiy mulohazalarga tanqidiy yondoshish lozim.

Tabiiyki, oila instituti bugungi kunda fundamental o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Ammo G'arb dunyosida yuz berayotgan ijtimoiy o'zgarishlarni o'z holicha SHarq olamiga, xususan, O'zbekiston turmush tarziga aynan ko'chirib talqin etish to'g'ri emasdir.

Oila millat sharafigini yuqori martabaga ko'taradigan mehr-muruvvat va madaniyat o'chog'i ham hisoblanadi. Mohiyat e'tiboriga ko'ra esa, oila ikki jinsga mansub insonlarning ya'ni, erkak va ayolning o'zaro hamjihatlikda yashay boshlashi, muhabbati, birbirlarini anglagan holda turmush kechirishi va ko'payish istagining, jamiyatni to'ldirish, avlodlarni muntazam yangilab turish, eng muhimi, «uni ham iqtisodiy, ham ma'naviy-axloqiy jihatdan mukammallashtirish yo'lida birgalikda qiladigan harakatning hosilasidir».

Oilaniig mustahkamligi jamiyat va davlat barqarorligi bilan mantiqiy yig'un hodisa sanaladi. Xalqimizning, uzoq yillik, murakkab tarixiy-madaniy tajribasi mo'baynida yuz bergan voqea-hodisalar mohiyatini jamiyatning ilk bo'g'ini bo'lgan oiladan izlash tendentsiyasini ko'plab mutafakkirlarimiz asarlarida uchratamiz. Millatimiz boshiga tushgan achchiq qismat dastavval oila tarbiyasidagi kamchilik oqibati ekanini ma'rifat ahllari yaxshi anglashgan. Bundan xalos bo'lishda oila tarbiyasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi, deb umid qilishgan. Fitratning «Oila yoki oilani boshqarish tartiblari» asarida bu haqda ibratli mulohazalar ilgari suriladi.

Uningcha, har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq, tinchlik va totuvlik esa, shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qaerda oila mustaqilligi kuchli intizom va tarbiyaga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo'ladi. Bu muddao amalida, tabiiyki, oila boshlig'ining ibratli alohida o'rin tutadi. Oila a'zolari o'rtasida o'zaro hurmat, mehr-muruvvat va oqibat omillari sog'lom muhitni yaratadi. Zero, sog'lom tarbiya oila a'zolari o'rtasida vakdillik, maqsadlar birligini yuzaga keltiradi. Aks holda esa, ichdan emirilish, ma'naviy inqiroz holatlari yuz beradi, bu esa har qanday tashqi ziyonlardan ko'ra talofatliroqdir.

Fitrat oilani millat manfaatiga xizmat qiluvchi, shu ruhni tarbiyalovchi beshik ekanligini alohida ta'kidlaydi. Oiladagi ijtimoiy foydali tarbiya esa jamiyatni mustahkamlovchi omil bo'lib, uning uyg'oqligi, harakatchanligi, ma'rifiy komilligiga taqalishini ta'kidlaydi. «Qaysi millatning umumiy sa'y-harakati va amali ko'p bo'lsa, kuch-qudrat va izzati ham shuncha salmoqli va buyuk bo'ladi», — deydi u va yurtdoshlarini shunga da'vat etadi. Tabiiyki, o'sha davrda hamma ham buni anglab etmagan, bu yo'lida jonbozlik ko'rsatadigan fidoylarga yo'l berilmagan, istibdod siyosati esa milliy yakdillikning barcha ko'rinishlari rivojiga monelik qilgan. SHu boisdan ham Fitrat Vatani mamlakatni didan sevuvchi, uning sha'ni sharafigini himoya qiluvchi fidoiy farzandlarni ko'plab tarbiyalab voyaga etkazish lozim, degan fikrni asoslab beradi.

Fitrat jamiyat a'zolarining fidoiyligi va ongliligi milliy taraqqiyotga, el-yurt obodligiga olib kelishiga ishongan. Fitrat XX asr boshlarida odamlarni Turkistonda amal qilgan tarqoqlik, xurofot va aqidalarni, mutelik va parokandalikni inkor etuvchi, jamiyatni sog'lomlashtiruvchi kuchga ega bo'lgan oilaga yangicha bir ko'z bilan qarashga undaydi. Ota-onaning birlamchi vazifasi — farzandini jamiyatga nafi tegadigan qilib hayotga tayyorlash, uni ongli va hushyor shaxs qilib jamiyatga qo'shishdan iborat. «Xalqning harakat qilishi, davlatdmand bo'lishi, jahongir bo'lishi, zaif bo'lib xo'rlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib e'tibordan qolishi, o'zgalarga tobe, qul va asir bo'lishi, bolaliqdan o'z ota-onalaridan olgan tarbiyaga bog'liq», — deb biladi u.

Demokratik jamiyat qurishning muhim tamoyillaridai biri erkin fuqaro shaxsini shakllantirish bilan bog'likdir. Erkinlik esa oiladagi ijtimoiy tarbiya yo'nalishining mahsulidir. Ana shu jarayon xalqimizning turmush tarzi, demografik holatiga ham bog'liqdir. Bu boradagi muhim

muammo — o'zbek oilalarining ko'p farzandligidir. Chunki aholining ko'payib borishida, uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida oiladagi serfarzandlik muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda nikohdan o'tish, oila qurish hollarining yuqoriligi ham oila sonining ko'payishiga, bu esa o'z navbatida, tug'ilishning o'sishiga bog'liq. 1960 yilda respublika bo'yicha oila a'zolarining o'rtacha soni 4,7 kishini tashkil qilgan bo'lsa, 1992 yilda 5,5, 1994 yilda 5,4 kishini tashkil etdi. 2000 yil ma'lumotlariga ko'ra esa, oila a'zolarining o'rtacha soni 5,2 kishidan iboratdir.

Mamlakatimizda 1998 yilning "Oila yili" deb e'lon qilinishi va shu munosabat bilan oila manfaatlarini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan tadbirlarning amaliyotga tatbiq etilishi, respublikamizda oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish, demokratik qadriyatlarining shakllanishida muhim o'ringa ega bo'lmoqda. Mustaqillik yillarida oila masalalarini ilmiy-amaliy o'rganishda milliy va diniy qadriyatlarimizning ahamiyatiga katta e'tibor berilishi esa bu boradagi katta imkoniyatlarni vujudga keltirmoqda. Bu imkoniyat oila a'zolari ma'naviyatini yuksaltirishga, ularning huquqiy va tibbiy ongini shakllantirishga, sog'lom turmush tarzini yaratishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, yoshlarimizda oilaviy hayotga bo'lgan hurmat oshmoqda.

Ayollarning ijtimoiy hayotdagi maqomini oshirishga qaratilgan barcha imkoniyat va sa'y-harakatlarini birlashtirish, ularni turmush sharoitlarini yaxshilash orqali jamiyatning yangilanishida ayollar ishtirokini kuchaytirish uchun sharoit yaratish ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Ma'lumki, mamlakatimizda I.A.Karimov tashabbusi bilan 1999 yilni «Ayollar yili» deb e'lon qilingan edi. Ayollar yili munosabati bilan qabul qilingan Davlat darajali mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida, bozor iqtisodiyotini shakllantirish hamda jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy asoslarini mustahkamlashda ayollarning maqomi, o'rni mustahkamlashga qaratildi.

«Saylov kampaniyasi jarayoni siyosiy partiyalar tomonidan ko'rsatiladigan nomzodlarning kamida 30 foiz xotin-qizlar bo'lishi shartligi to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan tartibi ijroiy ahamiyat kasb etganligini namoyon qildi. Qonunchilik palatasiga nomzodi qo'yilgan xotin-qizlar — jami 159 kishi — kuchli intiluvchanlik va yuksak professionalizmni namoyish etdi, siyosiy etuklik, aql-zakovatda raqiblaridan qolishmadi. Natijada Qonunchilik palatasiga saylangan deputatlarining qariyb 18 foizini xotin-qizlar tashkil etdi, bu esa 1999 yilda Oliy Majlisga bo'lgan saylovlardagidan ikki yarim baravar ko'pdin.

O'zbekiston prezidenti I.A.Karimov oila omiliga, imkoniyatlariga alohida to'xtalib «Vatan tuyg'usi oilaviy mehdan boshlanadi» deb ta'kidlagan edilar.

Oilada Vatan tarbiyasi muhim ahamiyatga egadir. Vatanga bo'lgan mehr dastavval otanonaga, aka-ukalarga, yaqin qarindoshlarga, qo'shnlarga bo'lgan munosabatlardan boshlanadi.

Tabiiyki, mustaqillikka erishilgandan so'nggi o'n uch yil yangi qadriyatlarga o'tish, o'zlashtirish va bu qadriyatlar asosida boshqacha yashashdan iborat murakkab jarayonlarni boshdan o'tkazish davri bo'ldi. Birgina madhiya misolini olaylik. Tarixiy manbalarning guvohlik berishiga ko'ra, gimnlar Vatan yo'lida yakka-yolg'iz jonini tikib, qurbon bo'lgan fidoiy qahramonlar ruhiga alqov, bag'ishlov, yana ham aniqroq aytadigan bo'lsak, tantanali marsiyadir. Tabiiyki, marsiya aytiladigan paytda marhumlar ruhining hurmati uchun odamlar o'z o'rinlaridan turib, jo'r bo'lib marsiyani ijro etishgan.

Amerika oilalaridagi erkin fuqaro shaxsini shakllantirishda demokratik qadriyatlarining qaror topishini quyidagi misolda ham ko'rish mumkin. Ma'lumki, Amerika oilalarida gimn ijro etilgan paytda hamama o'midan turib, qo'lini ko'ksiga qo'yib, birga ixlos bilan jo'r bo'lshadi. Endi shu holatning ko'rinishini O'zbekistonda bir tasavvur qilaylik. Ertalabki nonushta yoki kechki ovqat paytida televizorda madhiya ijro etilib qolsa, biror kishi ham o'midan turishni hayoliga keltirmaydi. Agar masalaga shunday yondashaversak, befarqlik namoyish etadigan bo'lsak, gimn qadriyatini mustaqillik ramzi sifatida qalbimizga jo' etishimiz qiyin. SHu boisdan ham Amerika oilalaridagi kabi mazkur qadriyatlarining shakllanish o'choqlarini oilalarga ko'chirishsa, Vatan tuyg'usini samaraliroq shakllantirish imkoniyatlari kengayadi.

Uzoq yillar mobaynida amalga oshirilgan kuzatishlar, xalqimiz tarixining sinchkovlik bilan qilingan tahlili shundan guvohlik beradiki, oilada otanonang farzandlar bilan qancha ko'p vaqt birga bo'lshisi, o'zaro muloqotlar, mehr tuyg'usini mustahkamlanishiga olib keladi. Mehr tarbiyasi

o'zbek oilarida turli darajada ekanligi o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar hamda kuzatuvlardan ravshan ko'rinadi. SHu narsa e'tiborga loyiqlik, respublikamizning turli hududlarida istiqomat qiluvchi ziyolilarning o'qituvchilar, shifokorlar, injenerlar, boshqaruv tuzilmalari vakillari, oliy ma'lumotli tijoratçilar) o'z farzandlari bilan bir kundagi muloqotlari hajmi o'rtacha 10-15 minut atrofidagi ko'rsatkichni ifodalayotganligi tashvishlanarli holdir. Ma'lumki, hayotga endigina kirib kelayotgan o'smirida atrof-muhit, odamlarda yuz berayotgan o'zgarishlar borasida har kunda o'nlab savollar, jumloqli holatlar yuzaga keladi. O'smir bunday savollarni vaqt etmaganligi sababli ota-onaga bera olmaganligi va malakali javobga ega bo'lmaganligidan jumboqlarning echimini tasodifiy shaxslardan, aksariyat hollarda o'z tengdoshlaridan izlashga majbur bo'ladilar. Nachijada kichik yoshdagi bolalar, o'smirlar har tomonlama to'g'ri, jamiyat va shaxs uchun ijtimoiy foydali bo'lgan malakali javoblarga ega bo'lmaydilar. Buning oqibatida esa yoshlar tarbiyasi muayyan izdan chiqib umumiy adoq, milliy an'analar ruhiga zid bo'lgan holatlar yuzaga keladi.

Tarbiya tizimida oila tarkibi, tug'ilajak farzandlarning yosh farqlari ham muhim ahamiyatga egadir. Ko'p yillik kuzatishlar, voyaga etmagan yoshlar tomonidan qilingan jinoiy xatti-harakatlar, tartibbuzarlik holatlarining asl sabablarini o'rganish shundan guvohlik beradiki, oila muhitida tinchlik, totuvlik, o'zaro mehrga chanqoq bo'lganlik, ota-onalarning o'zaro adovati, aka-ukalar o'rtasidagi mehsizlik tufayli aksariyat yoshlarning jinoyat ko'chasiga kirib qolishlari ma'lum bo'ldi. Aka-ukalar o'rtasidagi mehsizlik dastavval ota-onalarning o'z farzandlariga e'tibor bermasliklari, bu ishga juda kam vaqt ajratishlari bilan izohlansa, ikkinchi tomondan esa, farzandlar tug'ilishida biri va ikkinchisi o'rtasidagi yosh farqi masalasiga xalqimizda unuman ahamiyat berilmasligi ham jiddiy mas'aldir. Ruhiyatshunoslik ilmi nuqtai nazaridan o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, agar bola 1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan vaqtda ikkinchi farzand tug'ilsa, bolalar o'rtasida ona va otaga egalik qilish, suvuqli bo'lish, erkalik qilish borasida — bir qarashda kichik fakt tuyulsa-da, ammo bu faktning ong ortida mujassamlashuviga ko'ra jiddiy hodisa — o'zaro raqobat holati tarkib topadi. Agar tug'iladigan bolalar o'rtasidagi farq 4-5 yosh bo'lsa, katta farzand tomonidan o'z ukasini himoya qilish ruhi shakllanib ota-onasidan ukasini qizg'annaslik holati tarkib topadi. Bu bilan esa, aka-ukalar o'rtasida juda nozik bo'lgan mehming biologik omillar orqali rahna topishining oldi olinadi. Xalqimizda unchalik e'tibor berilmaydigan, ammo mehr tuyg'usiga rahna soluvchi yana bir jihat, bu aka-ukalar o'rtasidagi o'zaro janjallar hodisasi.

Aka va uka o'rtasidagi bahslar faqat so'z talashish, qarashlar yuzasidan tortishuv tarzidagi janjal bilan cheklansa, mehr-tuyg'usi jiddiy zarar ko'rmaydi. Mabodo, bu bahs mushtlashuvga etgudek bo'lsa, kichiklarning kattalarga bo'lgan ukalik mehri ildiziga jiddiy zarba beriladi. SHu narsa e'tiborga loyiqlik, musht urgan tomon mehni saqlashi mumkin bo'lsa-da, kaltaklangan tomon o'z akasiga nisbatan mehr tuyg'usini teran his eta olmay qoladi. YAqin qarindoshlar, er va xotin o'rtasidagi munosabatlarda zo'ravonlik qilish, urish hodisasining nechog'li zararli ekanligi bois, muqaddas kitobimiz bo'lgan Qur'oni Karimda ham zo'ravonlik qilmaslik, insonni o'z yaqinlariga va ayniqsa, xotinlarga zinhor-bazinhor qo'l ko'tarmaslik zarurligi to'g'risida alohida qayd etiladi (Qur'oni Karim, G'oshiya surasi, 22-oyat).

Xalqimiz tarixidan ulug' va qudratli saltanatlarining, asosan, ichki omillarga ko'ra, oilaviy tarbiya muammolari, otalar va bolalar, akalar va ukalar, opalar va aka-ukalar o'rtasidagi mehsizlik, o'zaro nifoqlar, yakdillik ruhining sustligi sababli zavol topganligini bilamiz. Taassufki, ayni shu sabablarga ko'ra Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Temuriylar va boshqa davlatlar inqirozga yuz tutgan edi.

Oila barqarorligi va Vatan salohiyatini oshirishda ona onilarning roli beqiyosdir. Darhaqiqat, ona muqaddas va cheksiz e'zoz-ehtiromga munosib zotdir. Xalqimiz onaga bo'lgan cheksiz hurmati, samimiy muhabbatlari borasida ko'pgina xalqlarga namuna bo'lgan an'ana va odatlar, marosimlar tizimiga ega. Mushtipar onalarimiz farzandni hayotga keltirganidan so'ng, to o'z vafotiga qadar faqat jigarbandi taqdirini o'ylab, unga omonlik, tinchlik, rizq-ro'z, baraka tilab yashab o'tadi. Onalarning farzandlariga yaxshilik istab, Yaratgandan panoah so'rashi, o'zi emay bolasiga edirib, o'zi kiyimay bolasiga kiydirib, o'zi ko'rmay o'tsada, bolasini ko'rishiga orzumandligi achinarli haqiqat.

Ammo bugungi shiddatkor zamon uchun farzandlarning faqat miqdoran ko'p bo'lishi, ularning sog'omon yurishini ta'minlashning o'ziga etarli bo'lmay qoldi. Zamonaga xos va mos yuksak ma'rifati, bunyodkor, tinib-tinchimas avlodni tayyorlash zarur. Bu esa davlat va jamiyat zimmasiga, eng avvalo oilaga, ona omilga ko'p naarsalarni bog'liq qilib qo'yimoqda. Onaning maqsadlari, turmush tarzi hayot mantig'i mazmunida davr ruhiga mos bo'lgan tamoyillar ya'ni, farzandlarga ta'lim, tarbiya berishni tubdan yaxshilash, ularga yondashuv uslublarini o'zgartirish zarurligini kun tartibiga qo'yimoqda.

Bu borada bugungi holat manzarasi o'zbek oilalarida turli daraja va ko'rinishlarda bo'lib, ulami quyidagicha tavsiflash maqsadga muvofiqdir.

1. Farzandlarning aniq maqsadlarini ko'zlab turli vositalar ko'magida hayotga faol tayyorlovchilar toifasi. Bu toifaga mansub oilalarda ona barcha o'zgarishlarning uyg'unlashtiruvchi va yo'naltiruvchisi sifatida ramoyon bo'ladi. Farzandlar o'z vaqtida, aniq belgilangan reja va tartib asosida maktabda o'qiydilar yoki universitetlarga tanlagan ixtisosliklarini puxta o'zlashtirish bilan band bo'ladilar. Rejaviy ta'lim qo'shimcha bilim olishlar usuli (repetitsiya, to'garaklar, uyushmalar) bilan muntazam ravishda uyg'unlashtiriladi. Ta'lim olish holati va mutaxassislikni egallash muammolari oila muhitida muhokama etib boriladi, uyda dars tayyorlash qat'iy tarzda muntazam amalga oshiriladi. Urf-odat va an'analarga me'yoriy doirasida ratsional amal qilinadi.

2. Oila muhitida tarbiya, odob-axloq masalalariga ta'lim ishlaridan ko'ra ustunroq ahamiyat beruvchilar toifasi. Bunday toifa vakillari oilaviy muhitda tinchlik, osoyishtalik, o'zaro hurmat saqlanishi, mahalla-yurtda mavqe-etiborda bo'lish, an'ana va urf-odalarga qat'iy amal qilish, yudagi gap ko'chaga chiqmasligiga jiddiy ahamiyat qaratib yashaydilar. Bunday oilalar farzandlarining ertangi kuni, ularni faol va bunyodkor shaxs sifatida hayotga tayyorlashning aniq rejalariga ega bo'lmasalar-da, o'z bolalarini jamiyatga bezarar o'sishidan ogoh bo'lib yashaydilar.

3. Oilada ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarda masofa mavjud bo'lgan toifa. Mazkur toifaga mansub oilalarda ota va ona farzandlari tarbiyasi va ta'lim olish saviyasi uchun maktablar mas'ul deb hisoblaydilar. Maktablar va boshqa ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilmaydilar, ota-onalar majlislariga kelmaydilar. Farzandlarining axloqiy va ma'rifiy holatlarini nazorat qilmaydilar. Bunday oilalarda har kim, asosan, o'zi uchun yashaydi.

Respublikamizdagi huquq tartibot idoralari ma'lumotlariga ko'ra, voyaga etmagan yoshlar o'rtasidagi tartibuzarlik, jinoyatchilik ko'chasiga kirib qolish holatlarining o'ndan to'qiz qismini ayni shunday toifadagi oilalar muhitida yuzaga chiqmoqda.

Mazkur tasnifga ko'ra, birinchi toifaga mansub oilalar miqdorining bugungi kun talablari darajasida faol o'rtib borishini ta'minlash o'ta muhimdir.

Oilalar muhitida ota va onalarning farzandlar taqdiri uchun favqulodda mas'ulligi masalasi rivojlangan barcha mamlakatlarda doimiy ravishda kun tartibida turadi. Xususan, Yaponiyada o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, o'zaro tanish ayollarning bir-birlari bilan uchrashib, o'tkazadigan suhbat, muloqotlari majmuida o'ttiz foizgacha vaqt o'z farzandlarining o'qish va ishlaridagi ahvoli yigirma foiz vaqt shaxsiy takomillashuv, ya'ni o'zlashtirgan yangi kasb-korlari, o'qigan kitoblari, ko'rgan filmlari haqida va faqat yigirma foizgacha vaqt tanish-bilishlarning maishiy holati, kayfiyatlari, sog'lig'i, turmush o'rtog'ining muammolarini masalalari band etar ekan.

Istiqlol sharofati bilan mamlakatimizda oila institutiga katta ijtimoiy ahamiyat berib kelinmoqda. Uning isboti sifatida mamlakatimizda an'anaga aylangan har bir yilga asosiy diqqat-e'tibor qaratilayotganligi katta ahamiyatga ega bo'lgan. SHuningdek, «Oila yili»ning e'lon qilinishi mazkur masalaga bevosita va «Sog'lom avlod», «Onalar va bolalar», «Obod mahalla», «Mehr-muruvvat», «Mustahkam oila» yillari mobaynida esa bilvosita tarzda doimiy e'tibor qaratib kelinmoqda. 2014 yil «Sog'lom bola yili» deb e'lon qilindi. Ushbu yilda qabul qilingan davlat dasturini ishlab chiqishda birinchi navbatda onalik va bolalikni himoya qilish, oilalarda sog'lom muhitni kuchaytirish, ularning iqtisodiy va ma'naviy asoslarini mustahkamlash kabi masalalar e'tibor markaziga qo'yilgan.

3. Rivojlangan demokratik mamlakatlarda XX asming ikkinchi yarmidan boshlab davlat boshqaruvining nomarkazlashuvi natijasida o'zini-o'zi boshqarish organlari jamiyatning asosiy institutlaridan biriga aylandi. Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish (G'arbda «munitsipal» deyiladi) deganda, u yoki bu ma'muriy-hududiy birliklardagi aholi vakolatlarini ifodalovchi, shuningdek, saylangan organlar va ularning ma'muriyatlari tomonidan amalga oshiriladigan, mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan ishlarni boshqarish tushuniladi.

Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish nazariyasi dastlab XVIII asrning ikkinchi yarmida G'arbiy Evropada paydo bo'lgan. Uning tabiati va jamiyatdagi o'rni mahalliy hokimiyatlar va o'zini-o'zi boshqarish organlarining fuqarolar tomonidan saylanish printsipi g'oyalari bilan bog'liqdir. YAngi tarixning ilk davrida fuqarolar tomonidan saylanadigan o'zini-o'zi boshqarish organlarning mustaqilligi kontseptsiyasi, ularning qishloq jamoalari va shaharlardagi ishlarga rahbarlik qilishida markaziy hokimiyatga nisbatan alohidalik hamda boshqaruvning mustaqilligiga imkoniyat yaratadi. Bu organlarga davlat boshqaruvini sohasidan tashqaridagi alohida bir bo'g'in sifatida qarash rusumga kiradi.

1985 yil 15 oktyabrda Evropa Ittifoqi tomonidan qabul qilingan «Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish to'g'risidagi Evropa Xartiyasi»ning 3-moddasida bu tushuncha quyidagicha ifodalangan: «Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish deganda, mahalliy o'zini-o'zi organlarining o'z mas'ulligida, mahalliy aholi manfaatlarini asosida, qonunlar doirasida uning davlat ishlarining aksariyat qismini boshqarish va uni real uddalay olish qobiliyatiga aytiladi. Bu huquqlar erkin, yashirin, teng, to'g'ridan-to'g'ri umumiy saylovlarda saylangan a'zolaridan iborat kengashlar yoki majlislar tomonidan amalga oshiriladi. Kengashlar yoki majlislar o'zlariga hisobotlar berib boruvchi ijroiya organlariga ega bo'lishi mumkin. Bu qoidalar fuqarolar majlislariga, referendumlarga yoki fuqarolar to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etishining qonun yo'l qo'ygan boshqa shakllariga murojaat etishini istisno etmaydi».

G'arb jamiyatshunosi olimlari mahalliy o'zini-o'zi boshqarishga doir tushunchalarning nazariy jihatlarini ham ishlab chiqqanlar. Unga binoan, «mahalliy boshqaruv» deganda, «davlat boshqaruvidan quyidagi barcha darajalarni, «mahalliy hokimiyat» deganda esa «saylangan kengash va uning ijroiya organlari vositasida o'z saylovchilari manfaatlarini ifoda etuvchi va harakat qiluvchi tashkilotlar» tushuniladi. SHuningdek, «mahalliy o'zini-o'zi boshqarish» esa «milliy boshqaruvdan quyi darajadagi demokratik avtonom birliklarning mahalliy aholi manfaatlarini asosida jamoatchilik muammolarini aksariyat qismini muvofiqlashtirishi va boshqarishi»dir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasida o'zini-o'zi boshqarish organlariga quyidagi huquqiy ta'rif berilgan: «SHaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini-o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi. O'zini-o'zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasini qonun bilan belgilanadi». Konstitutsiyaviy asoslari kelib chiqib, 1999 yil 14 aprelda qabul qilingan «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi (yangi tahriri) Qonunning 1-moddasida fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish tushunchasi quyidagicha ta'riflandi: «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarishi — fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan, ularning o'z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek, milliy va ma'naviy qadriyatlaridan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi mustaqil faoliyatidir». Ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda o'zini-o'zi boshqarish organlari tizimi tushunchasi va uning huquqiy maqomlari rivojlantirildi va ular ilg'or demokratik mamlakatlardagi huquqiy mezonlar darajasida ifodalana boshlandi.

Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish, mashhur olim Aleksis de Tokvilning talqinicha, «shunday bir siyosiy institutki, u nafaqat siyosatchilar uchun, balki umuman barcha fuqarolar uchun bir

maktabdir. Bu institutga xos bo'lgan imkoniyatlar shu qadar yuksakki, u fuqarolarning keng siyosiy ishtiroki uchun shart-sharoitlar yaratib beradi. O'zini-o'zi boshqarish organlari siyosiy madaniyat elementlarini shakllantirishning ham beqiyos omilidir. Oxir-oqibatda bu organlar faoliyati siyosiy tizimning bir butun barqarorligi va moslashuvchanligini ta'minlab beradi. Millat jamoaviy institutlarsiz ham erkin hukumat shakllantirish mumkin. Lekin u erkinlikning haqiqiy ruhiyatiga ega bo'la olmaydi.

XX asming ikkinchi yarmida «umumiy firovenlik davlati» nazariyasi bilan bog'liq holda munitsipal (o'zini-o'zi boshqarishga doir) kontseptsiyasi ham paydo bo'ldi. Munitsipalitetlar jamiyatning barha tbaqalari manfaatlarini ta'minlovchi va himoyalovchi ijtimoiy xizmat ko'rsatish vositasi sifatida qaraldi. Evropa, SHimoliy Amerika va Yaponiya kabi mamlakatlarda munitsipal kengashlar maqomi huquqiy jihatdan munitsipal ijroiya boshqaruvidan yuqori qo'yilgan bo'lib, ularning vakolatiga quyidagilar kiradi: mahalliy byudjetni qabul qilish, yuqori tashkilotlar tomonidan hal qilinmagan ayrim masalalar to'yicha me'yoriy qarorlar qabul qilish, mahalliy soliqlarni joriy etish, qarzlarni olish va ularni ishlatish masalalarini hal etish, munitsipalitetga qarashli mulkni tasarruf etish, shuningdek, ko'pchilik davlatlarda munitsipalitetning ijroiya rahbarlik organlarini tashkil etish va ularni nazorat qilish, mahalliy referendumlarni uyushtirish. AQSH ijtimoiy-siyosiy hayotida ham munitsipalitetlar muhim o'rin egallaydi. Chunki bu mamlakatda munitsipal boshqaruv funksiyalarini nomarkazlashtirish printsipti keng qo'llaniladi. Munitsipal maktablar, shifoxonalar, kutubxonalar, sanitar-iy ishlab chiqarish, suv bilan ta'minlash, parklar, yong'inga qarshi xizmatlarni boshqarish, asosan, munitsipal kengashlar tasarrufidadir. Ayrim mamlakatlarda (masalan, Germaniyada) kengashlar o'z vakolatlarini ijroiya organlarga berish huquqiga ham egadirlar.

Mamlakatimizda o'zini-o'zi boshqarish organlari fuqarolik jamiyatining asosiy istidati sifatida yildan-yilga takomillashib bormoqda. SHuningdek, mazkur organlarning boshqaruv tizimidagi ko'lanining kengayib borishi bilan huquqiy davlatning o'z vakolatlarini demokratik tamoyillar asosida amalga oshirishi uchun qulay va keng imkoniyatlar paydo bo'lmoqda.

«Mahalla» arabcha so'zdan kelib chiqib, «shahar ichidagi shahar» ma'nosini anglatadi. Tarixchi olim Narsaxiy «Buxoro tarixi» asarida bundan 1100 yil ilgari mahalla xalqning boshqaruv uslubi ekanligini yozgan edi. Qadimda mahalla nafaqat ijtimoiy, balki ma'muriy-hududiy tuzilma tarzida ham e'tirof etilgan. Alisher Navoiyning «Hayratul abror» («Yaxshi kishilarning hayratlanishi») asarida quyidagi band uchraydi: «SHaharlar otini mahalot etib, bo'ldi chu yuz shahar Hiri ot etib». Mahallaning «shahar ichidagi shaharcha» degan mazmuni yuqoridagi tashbehdan ko'rinib turibdiki, o'rta asrlarda Hiri deb atalgan Hiri shahri yuzta kichik «shaharcha» — mahallalardan tashkil topgan ekan.

Demak qadim zamonlardan qo'zg'ini-o'zi boshqarish organlarining ilk kurtaklari namoyora bo'lgan. SHarqda bu jarayon bir necha ming minglik tarixga ega bo'lgan mahallalar ko'rinishida rivojlangan bo'lsa, G'arb mamlakatlarida kishilarning o'z manfaat va qiziqishlarini jamiyatdagi munosabatlarda ifodalash hamda himoya qilish maqsadida har-xil uyushmalar, partiyalar, jamiyatlar, harakatlar va boshqa tuzilmalar sifatida paydo bo'lishiga asos solindi.

Uzoq yillar mahalla tarixi va sotsiologiyasini tadqiq etgan amerikalik olim D. Karlayl quyidagilarni yozadi: «Oila va do'st-yoronlar mahalla turmushining bosh asosi bo'lib kelgan va shundayligicha qoladi. Ular shaxsiy munosabatlarning tamal toshi sanaladi. Ular «sulola» deb ataluvchi, kishilarning birlashtiruvchi va ajratuvchi o'ta muhim tarmoq tuzilmasini yaratdi. YAqinlik munosabatlari asoslangan hamda nasl-nasab printsiplari bilan bog'lanishga ega bo'lgan o'zbeklar dunyoga keladigan, tarbiyalanadigan va odatda o'zining mahallasi bilan o'z ta'kid qiladigan joy hisoblanadi. Do'stlik barqaror tushuncha bo'lgan mahallada muvofiqlik saqlanadigan bo'ladi. Hamma mahalla tevaragida parvona bo'lar, shaxsiy sadoqat butun shahar bo'ylab tarqalar, ba'zan esa butun boshli mintaqani qamrab olar edi. Bunday an'anaparastlik sharoitida kimningdir tajribasi shaxsiy muloqatlar doirasi tasarrufidan tashqariga tez tarqalib ketadi. SHaxs har qanday masofadan turib sulola a'zolarining nikoh

tantanalari, marosimlarida qatnashish mumkin. Rang-barang oilaviy-qarindoshchilik aloqalarining mahalladan tashqarida ham, kundalik turmushda toshi bor, lekin ular mahalaniki singari tosh bo'sa olmaydi».

Sobiq SSSR davrida mahalla institutining mazmuni va vazifalari butunlay izdan chiqqan edi. Bu davrda mahallalar o'zining huquqiy maqomini yo'qotdilar. Ularning asosiy faoliyati sobiq kommunistik partiyaning mahalliy tashkilotlarini qo'llab-quvvatlashdan, shuningdek, mahalliy an'ana va urf-odatlar, odob-axloq me'yorlarini tashviqot-targ'ibot qilish, oilalardagi mamsimlar va boshqa tadbirlarni o'tkazishda kommunistik partiyaning «ko'z va qulog'ig'» bo'lib turish kabilardan iborat bo'lib keldi. Bu davrda qadimdan ma'naviyat, ta'lim va tarbiya masalalarini hal etib kelgan mahallalarning o'rni deyarli yo'qqa chiqarildi.

Mustaqillik davriga kelib fuqarolarning mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari qonuniy maqomini mustahkamlashga, ularni fuqarolik jamiyatining asosiy institutiga aylantirishga doir jiddiy islohotlar amalga oshirildi. O'zbekistonda mahallalar milliy mustaqillik davriga kelibgina, o'zini-o'zi boshqarish organiga aylandi. O'zbekiston Konstitutsiyasi mahalla maqomini fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organi sifatida mustahkamladi. Mamlakatda shaharcha, posyolka, qishloq, ovul va mahalla fuqarolar yig'inlari o'zini-o'zi boshqarish organlari huquqiy maqomini oldilar. Jumladan, mustaqillik davrida mamlakatda 10 mingga yaqin o'zini-o'zi boshqarish organlari shakllangan bo'lsa, ulardan 8142 tasini mahalla fuqarolar yig'inlari tashkil etadi. Mahalla mustaqil tashkilot sifatida qaytadan mustahkamlandi va ularning aksariyati o'zining qadimgi nomlarini va xalq o'rtasidagi obro'-e'tiborlarini qaytadan tiklab oldilar.

Mustaqillik yillarida mahalla tarixiy va rivojlangan mamlakatlardagi tushunchada aniq belgilangan ijtimoiy-demografik, madaniy-ma'naviy va hududiy-ma'muriy birlik sifatidagi maqomga erishdi. U o'z hududidagi fuqarolar o'rtasida an'analar va urf-odatlar, insoniy xo'jalik, huquqiy munosabatlar birligini tashkil etgani holda fuqarolarning o'zaro ijtimoiy munosabatlarini bog'lab turish vositasiga aylandi.

Mustaqillikning ilk davridan boshlab Prezident I.A.Karimov mahallalarni fuqarolik jamiyatining asosi deb bildi va ularni har tomonlama rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirib kelmog'ida. Prezident I.A.Karimov 1995 yildayoq shunday fikrni bildirdi: «Ma'lumki, asrlar mobaynida mahallalarda ko'pdan-ko'p hayotiy muammolar o'z echimini topib keladi. To'y-ma'rakalar ham, hayitu hasharlar ham mahalla ahlisiz o'tmaydi. Maxallalarda siyosiy, iqtisodiy va boshqa masalalarga doir jamoatchilik fikri shakllanadi. Bu esa xalqimizning turmush tarzi, ota-bobolarimizdan bizga meros bo'lib kelayotgan tafakkur tarzidir. Binobarin, hayotning o'zi mahallalarni rivojlantirish va ularni qo'llab-quvvatlashni taqozo etmog'ida. Mamlakatimizda ko'p qirali islohotlar amalga oshayotgan bir paytda mahalla jamiyat uchun ishonchli tayanch va ta'sirchan kuch bo'lib xizmat qilishi lozim».

Mustaqillik davrida mahallaning tashkiliy, ijtimoiy va huquqiy maqomini mustahkamlash borasida chuqur islohotlar amalga oshirildi. Eng avvalo, «mahalla» atamasi tarixda birinchi marta Konstitutsiyaga kiritildi. Unga aholining o'zini-o'zi boshqaruvining noyob shakli sifatidagi konstitutsiyaviy huquqiy maqom berildi. 1992 yilda O'zbekiston Prezidentining Respublika «Mahalla» xayriya jamg'amasining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 1998 yildagi «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini qo'llab-quvvatlash haqida»gi, 1999 yildagi «Aholini aniq yo'naltirilgan ijtimoiy madad bilan ta'minlashda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari rolini oshirish to'g'risida»gi Farmonlari, shuningdek, kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan qator farmon, qarorlar, qonunlar va boshqa me'voriy hujjatlar e'lon qilinishi uning isbotidir.

Hozirgi davrda mahallalarni ijtimoiy mavqini oshirish borasida olib borilayotgan ishlar ikkita yo'nalishni nazarda tutadi. Birinchisi, ma'naviy vazifa bo'lib, u xalqimizning ming yillik tarixidagi noyob, eng aziz an'alarini, qadriyatlarini qaytadan tiklash va rivojlantirishdan iborat. Ikkinchisi, siyosiy vazifa bo'lib, u Prezident I.A.Karimovning mahalla institutini bugungi zamon talablariga muvofiq tarzda tiklash, shuningdek, viloyat,

shahar, tuman hokimiyatlari zimmasiga yuklangan ko'pchilik vazifa va huquqlarini fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlariga, ya'ni mahallalarga berib, ular maqomini joy-joyiga qo'yib, shu tariqa jamiyatimiz hayotini demokratiyalashda yangi va juda muhim imkoniyatlarga erishishdan iboratdir.

Ayniqsa, mahalla fuqarolar yig'inlariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengas hlariga saylovlar o'tkazuvchi uchastka saylov komissiyalari a'zoligiga nomzodlarni o'krug tanlov komissiyalariga tasdiqlash uchun tavsiya etish huquqi berilgan. SHuningdek, mahalla fuqarolar yig'inlariga xalq deputatlari tuman, shahar Kengashi deputatligiga to'g'ridan-to'g'ri nomzod ko'rsatish. O'zbekiston Respubkasi Oliy Majlisi deputatligiga tashabbus guruhlari tomonidan ko'rsatiladigan nomzodlarni taklif etishda ishtirok etish kabi vakolalar va huquqlarning berilishi mahallalarni o'zini-o'zi boshqarish organlari sifatida jamiyatimiz siyosiy hayotidagi o'rnini yanada oshib borayotganligini ko'rsatadi.

Prezident I.A.Karimov ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning IX sessiyasidagi ma'ruza sida o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatini takomillashtirish xususida quyidagi fikrni bildiradi: «Hayotimizni erkinlashtirish yo'nalishlarining yana bir muhim yo'li — markazni va yuqori davlat boshqaruv idoralari vazifalarini davlat hokimiyatining quyi tuzilmalariga, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borishini ta'minlashdir». Albatta, davlat tomonidan mahallalarga katta boshqaruv vakolatlarini berishda avvalo, ularning aholi faolligini oshirishdagi o'rnini yuksaltirish ko'zda tutildi. CHunki mahalla fuqarolar yig'inlarida etarlicha huquq bo'lmasa, ular o'zini-o'zi boshqarishni bajarish qobiliyatiga ega bo'la olmas edilar. SHuningdek, mahallalarning aholi va davlat oldida mas'uliyat sezishlari uchun ham avvalo keng huquqlarga ega bo'lishlari lozim edi.

Hozirgi davrda jamiyatning siyosiy sohasini erkinlashtirish maqsadlaridan kelib chiqib, mahalla fuqarolar yig'inlariga boshqaruvning turli yo'nalishlariga etakchilik qilish vakolatlari berildi. Mahallalar o'z hududida yashayotgan fuqarolarning turli ijtimoiy muammolarini hal qilib berishda bevosita ishtirok etadilar: qariyalar, faxriylar, etimlar, baynalmilal-harbiylar, kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalar manfaatlari himoya qilinadi; mahalla faollarining mazkur faoliyatta ishtirok etishiga boshchilik qiladi; insonni ma'naviy yuksalishi va amaliy tashabbuslarini namoyon bo'lishi uchun shart-sharoit yaratadi; fuqarolar moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlanadi.

Mahalla fuqarolar yig'ini ijtimoiy ta'minot organlari va boshqa homiy tashkilotlar bilan birgalikda ijtimoiy yordam, kam ta'minlangan oilalar va yolg'iz kishilarga beg'araz moddiy yordam ajratish ishining barcha tashkiliy jihatlarini o'zi mustaqil ravishda bajaradi. SHu bilan birga, mahallalar o'z hududlarida ekologik muammolarni echish va aholi moddiy ahvolini yaxshilash, hashar yo'li bilan ko'klamzorlashtirish, tozalash ishlariga jalb qilish, mahalliy aholi o'rtasida atrof-muhitni asrash yuzasidan tushuntirish va tarbiyaviy ishlar olib borishga ham mas'uldir. Albatta, bu kabi faoliyatlar fuqarolar faolligini oshirish vositasida amalga oshirilmoqda.

SHu bilan birga, ko'plab qonunlar loyihalari, Konstitutsiyaga kiritiladigan qo'shimcha va o'zgarishlarni o'zida ifodalagan umumxalq referendumlariga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish avvalo mahalla ahli va faollari tomonidan muhokama qilinmoqda hamda qo'llab-quvvatlanmoqda. Boshqacha aytganda, mahallalar siyosiy qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtirokini faollashtirishning muhim vositasi ekanligi hayotning o'zi isbotlab berdi. Mamlakat siyosiy hayotida fuqarolarning siyosiy qarorlar qabul qilishidagi ishtirokini ta'minlab beruvchi asosiy bo'g'in, bu — mahalla fuqarolar yig'inlaridir. SHuningdek, fuqarolarning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirish qobiliyatiga ega bo'lgan birdan-bir boshqaruv tizimi ham mahalla fuqarolar yig'inlari.

Respublika «Mahalla» xayriya jang'armasi uning viloyat, shahar, tuman bo'limlari bilan hokimliklar hamkorligida har yili «Eng yaxshi mahalla», «Eng ibratli oksoqol», «Mahalla jonkuyari», «Eng tadbirkor mahalla oqsoqol» shiori ostida muttasil ko'rik-tanlovlar o'tkazib kelinadi. Ko'rik-tanlovlar



g'oliblari har yili obro'li komissiyalar tomonidan maxsus nishonlar, qimmatli esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadilar. Mazkur tadbirlar mahallalarni obodonlashtirish, ozoda saqlash, ayniqsa yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Mustaqillik davrida mahallalar fuqarolar yig'inlari oqsoqollari, «Mahalla» jamg'armasi va uning mahalliy tashkilotlari rahbarlarining sifat tarkibi yaxshilanib bordi va bormoqda.

Huquqiy demokratik davlatda saylov qonunlari va uni o'tkazish muhim o'rinni egallaydi. Buning yorqin isbotini fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga saylov o'tkazish ham istisno emas. 2001 yil may-iyun oylarida mamlakatimizda o'zini-o'zi boshqarish organlari — mahalla, ovul, qishloq, shaharcha fuqarolar yig'inlariga o'tkazilgan saylov bo'lgan, davlat rahbarlarining etuk kadrlar hisobiga sifat jihatdan o'zgarishiga olib kelda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Kengashining 2001 yil 12 apreldagi «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga saylov o'tkazishni tashkil etishi to'g'risida»gi qarorida tashkilotchilik qobiliyatiga hamda aholi o'rtasida yuqori obro'-e'tibor va hummatga sazovor bo'lgan, davlat hokimiyati organlari vakolatlarining bir qismi bosqichma-bosqich fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga berilishi munosabati bilan ushbu organlar oldida turgan vazifalarni hal etishga qodir bo'lgan shaxslar o'rasidan fuqarolar yig'inlari rais va ularning maslahatchilari lavozimlariga nomzodlar tanlash maqsadi qo'yildi.

Saylov kompaniyalari davridagi tashkiliy ishlar va amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida mamlakatimiz bo'yicha fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga saylovlar ijtimoiy-siyosiy hamda tashkiliy jihatdan yuksak saviyada, fuqarolarning ijtimoiy faolligida amalga oshdi. Saylovlarda 12 millionga yaqin fuqarolar ishtirok etdilar. Bu ko'rsatkich mamlakat katta yoshli aholisining qariyb 90 foizini tashkil etdi.

Fuqarolarning 9627 yig'inida, shu jumladan 1556 shaharcha, qishloq va ovul yig'inlarda, qishloqlardagi 4151 mahallalar va shaharlardagi 2138 mahallalar yig'inlarida, shuningdek, jamoatchilik asosida faoliyat ko'rsatayotgan 1782 mahalla fuqarolar yig'inlarida saylovlar bo'lib o'tdi. Fuqarolar yig'inlarida saylovlar bilan bir vaqtda fuqarolar yig'inlari raislari va oqsoqollarining oldingi saylovdan so'nggi o'tgan davr mobaynida qilgan ishlari to'g'risidagi hisobotlari eshitildi. Fuqarolar yig'inlari faoliyatining barcha yo'nalishlari bo'yicha fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarining olib borgan ishlari atroflicha va chuqur tahlil etildi. Qonunlar, Prezident Farmonlari, hukumat qarorlarini amaliy jihatdan ro'yobga chiqarishda mahallalarning mahalliy davlat hokimiyati organlariga bergan yordamlariga muhim e'tibor berildi. O'tgan hisobot davri (2,5 yillik) ishida kamchiliklar sabablari ham ochib tashlandi, ularni kelgusida bartaraf etish yuzasidan aniq chora-tadbirlar va rejalar qabul qilindi. O'zini o'zi boshqarish organlariga bo'lgan hisobot-saylov yig'ilishlaridagi jami 120 mingdan ortiq faollar so'zga chiqib, qo'yilgan masalalar yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bildirdilar. So'zga chiqqanlarning aksariyati mamlakatda tinchlik, barqarorlik va xavfsizlikni saqlab turish, aholining turli qatlamlarini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash yuzasidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni ma'qulladilar.

Mahalla fuqarolar yig'inlaridagi oqsoqollar saylovi millionlab fuqarolarni befarq qoldirmadi. Barcha saylovchilarda faol ishtirok etish, o'z nuqtai nazarni ifoda etishga intilishlar ochiq sezilib turdi. Mamlakatdagi o'zini-o'zi boshqarish organlarining 9627 ta (qishloq, ovul, shaharcha, mahalla) yig'inlari raisligiga jamoatchi ishchi guruhlari tomonidan tavsiya etilgan 22 ming nafardan ortiq nomzod orasidan tanlab olinishi saylovlarning muqobilik asosida o'tishiga va fuqarolar yig'inlari raisligiga munosib nomzodlarni saylanishiga imkon yaratdi.

O'zini-o'zi boshqarish organlariga bo'lgan saylovlar natijasi shuni ko'rsatdiki, bu saylovlar aholining keng qatlamlari uchun ijtimoiy-siyosiy faollik bag'ishladi va o'ziga xos demokratiya maktabi vazifasini ham o'tadi. Mustaqillik davrida o'zini-o'zi boshqarish organlarini fuqarolik jamiyati instituti sifatida isloh etish o'zining samarasini berdi. Mahallalar mamlakatdagi aholini o'zini-o'zi boshqarish jarayonlarida ishtirok etishlari, qarorlar qabul qilishda fuqarolar xohish va istaklarini e'tiborga olishga imkoniyatlar yaratishi bilan fuqarolik jamiyati institutiga aylanib bormoqda. Shuningdek, hozirgi davrga kelib davlatning aholini ijtimoiy himoya

qilish, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni aniqlash kabi vakolatlari ham deyarli mahallalarga berilgan.

Shu bilan birga, mahallalardagi tinch va osoyishta hayotni ta'minlash, oilalarni mustahkamlash chora-tadbirlarni ko'rish, etimlar va yolg'iz qolgan fuqarolarga mehr-muruvvat ko'rsatish, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarishga doir intilishlarini qondirish kabi serqirra jamoaviy boshqaruv ham mahalla fuqarolar yig'inlari faoliyatining asosiy yo'nalishini tashkil etmoqda, lekin shu bilan birga o'zini-o'zi boshqarish organlarini demokratlashtirish jarayonlari hali davom etadi. Ayniqsa, aholining huquqiy va siyosiy madaniyatini oshirish, siyosiy qarorlar qabul qilishda mahallalarning o'rnini yuksaltirish, mahallalarni mahalliy davlat hokimiyati organlaridan to'la mustaqil bo'lishini ta'minlaydigan huquqiy mexanizmlar yaratish, fuqarolarni mahallalar vositasida qonunlar ishlab chiqish va qabul qilish jarayonlaridagi umumxalq muhokamalarida faol ishtirok etishlarini ta'minlash yaqin istiqboldagi islohotlarning asosiy vazifasidir.

## VI - MA'VZU: "O'ZBEKISTONING JAHON HAMJAMIYATI BILAN HAMKORLIGIDA DEMOKRATIK TAMOYILLARGA ASOSLANISHI" – 2 soat

### Reja:

1. O'zbekistonning jahon hamjamiyatining to'laqonli sub'ektiga aylanishi.
2. Jahon hamjamiyatidagi demokratik o'zgarishlar.
3. O'zbekiston Respublikasining diplomatik aloqalarida demokratik tamoyillar.
4. O'zbekistonning jahon hamjamiyatida erishgan yutuqlari.

1. O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgandan so'ng o'z tashqi siyosatiga xalqaro hamjamiyatning to'laqonli sub'ekti sifatida amalga oshirish uchun real imkoniyatlarga ega bo'ldi. Endilikda tashqi siyosat mustaqil tarzda amalga oshirilmoqda.

Jammiyat va davlatlar tarixi shuni ko'rsatadiki, biron-bir mamlakat boshqa davlatlar bilan hamkorlik qilmasdan taraqqiyotga erishgan emas. SHarq va G'arb mamlakatlarini bir-biriga bog'lagan Buyuk Ipak yo'lining markazida joylashgan O'zbekiston bir necha asrlardan buyon dinlar, millatlar va madaniyatlarning tutashuv nuqtasi bo'lib kelmoqda.

Ayniqsa, Amir Temur hukmronligi, Temuriylar davrida dunyodagi yirik davlatlar Samarqand bilan o'z aloqalarini o'rnatganlar. Amir Temurning Frantsiya, Angliya, Ispaniya kirollari, o'nlab qo'shni davlatlarning hukmdorlari bilan yozishmalari o'sha davrdagi jo'shqin siyosiy, madaliy va tijoriy aloqalardan guvohlik beradi.

CHor Rossiyasi bosqinidan so'ng 130 yildan ortiq davom etgan mustamlaka davri mamlakatimizning tashqi aloqalarini uzib qo'ldi. Xonj bilan barcha munosabatlar itilochilarning nazorati va ruxsati bilan amalga oshirilardi. Bir paytlar dunyoga dong taratgan o'lkamiz chekka bir viloyat darajasiga tushirib qo'yildi. Sovetlar davrida esa chetga chiqarilgan bir-ikki diplomat hamda vazifasi oliy rubali xorijliklarni mehmon qilishdan iborat bo'lgan Tashqi ishlar vazirligidan boshqa hech narsa yo'q edi.

Istiqolning dastlabki yillaridanoq bevosita mamlakatimiz prezidenti Islom Karimov rahbarligida tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishlari va asosiy tamoyillari belgilandi hamda og'ishmay amalga oshirila boshlandi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilaradan iborat:

— mafkuraviy qarashlardan qat'iy nazar, hamkorlik uchun ochiqlik, unuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;

— davlatlarning suveren tengligi va chegaralar daxlsizligini hurmat qilish;

— nizolarni tinch yo'l bilan hal etish;

— kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik;

— inson huquqlari va erkinliklarini hurmatlash;

— ichki milliy qonunlar va huquqiy normalardan xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari va normalarining ustuvorligi;

- tajovuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga kirmaslik;
- davlatlararo aloqalarda teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik ustunligi;
- tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish, bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslik va boshqalar.

Bu tamoyillarga davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik kabi xalqaro huquqning umumiy qoidalari asos qilib olinadi.

Davlatimiz rahbari Islom Karimovning Oliy Majlis IIKinch chaqiriq birinchi sessiyasidan ma'ruzasida boshqa sohalarda qatori tashqi siyosat borasidagi navbatdagi vazifalar ham ko'rsatib o'tildi. Jahondagi barcha mamlakatlar bilan o'zaro manfaatlari aloqalarni yo'lga qo'yish, etakchi xalqaro iqtisodiy, moliyaviy hamda insonparvarlik tashkilotlari bilan hamkorlikni kuchaytirish bundan keyin ham ustuvor yo'nalish bo'lib qolishi ta'kidlanadi.

O'zbekiston Konstitutsiyasi «O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Qonunda belgilangan konstitutsiyaviy an'analarni davom ettiradi. Mazkur an'analarga ko'ra xalqaro huquq davlatimiz kurilishining muhim manbai bo'lib, O'zbekiston o'zining xalqaro huquq normalariga sodiqligini konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab, namoyish etmoqda.

Bu esa yosh mustaqil davlatimizning eng nufuzli xalqaro tashkilotlarga qabul qilinishiga imkon berdi. Respublikamizning mustaqil davlat sifatida boshqa davlatlar tomonidan diplomatik tan olinishiga, xalqaro iqtisodiy munosabatlarga kirishishiga yo'l ochdi.

BMT ustavi, Inson huquqlari to'g'risidagi umumjahon deklaratsiyaga va inson huquqlari haqidagi boshqa xalqaro aktlar, Xelsinki bitimlari, Parij va Madrid xaritalari qoidalari Konstitutsiyamizdan xalqaro huquq printsiplari va normalariga asos bo'ldi. Bunday konstitutsiyaviy yondashuv, ayniqsa, Konstitutsiyaning muqaddisida, 4-bobida, ikkinchi bo'limda 22, 23 va 26-bobda yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu boblarning tegishli ravishda, "Tashqi siyosat", "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari", "O'zbekiston Respublikasining sud hokimiyati", "Saylov tizimi", "Mudofaa va xavfsizlik" deb nomlanishi ham fikrimizning yorqin dalilidir.

XX asming so'ngi o'n yilligi ijtimoiy dunyoqarashi va jahon hamjamiyatning jo'g'rofiy-siyosiy tuzulishida tub o'zgarishlar davri bo'lib tarixga kirdi. Jahon hamjamiyati yangi davrga qadam qo'ydi. Bu davr o'zining ikki jihati bilan ajralib turadi. Birinchidan, bu davlatlar, xalqlar o'rtasidagi yaqinlashuv jarayonlari va har tomonlama hamkorlikning kuchayishi, yaxlit bo'lgan siyosiy, iqtisodiy hamda huquqiy makonlarning vujudga kelishi, hozirgi zamon xalqaro huquq normalarining yaratilishidir. Ikkinchidan, sotsialistik lagerning emirilishi, totalitar tuzumdagi davlatlarning tugatilishi, ular o'rnida mustaqil davlatlarning paydo bo'lishidir. Endilikda "sovuq urush"ga barham berildi, "kapitalistik" va "sotsialistik" degan tushunchalar o'rtasidagi farq amalda yo'q bo'lib borayapti. Mafkuraviy aqidalardan holi bo'lgan yangi, erkin tafakkurni shakllantirish zarurati paydo bo'ldi.

Prezidentimiz "O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyoti yo'li" kitobida O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining kontseptsiyasi to'g'risida, tashqi siyosiy yo'l, bu yo'lning huquqiy negizi va uni amalga oshirish vositalari haqida to'xtalib o'tgan. O'zbekiston tashqi siyosatining strategik yo'li, asosiy qoidalari va maqsadlari, uning ustuvor hamda mintaqaviy yo'nalishlari, xususiyatlari negizida respublikaning milliy manfaatlari o'z ifodasini topgan. Har qanday siyosat aql-idrok bilan ish to'tishni taqozo etadi. Rivojlanayotgan, tez taraqqiy etish uchun kuchli ilmiy, sanoat kuch-quvvatiga ega bo'lgan mamlakatning tashqi siyosati ehtirolardan holi bo'lishi lozim. Respublikamiz ana shunday davlatlar sirasiga kiradi. Yangi xalqaro iqtisodiy tartib uchun harakat qilish qoidalari O'zbekiston uchun ham diqqatga molik masaladir. Bu xom ashyo va sanoat mahsulotlari narx-navolarining adolati bo'lgan nisbati, rivojlanayotgan davlatlarning fan, texnika yutuqlaridan bahram and bo'lish imkoniyati va hokozalardir.

Tashqi siyosat faoliyat uchun huquqiy negiz yaratish birinchi galdagi vazifa hisoblanadi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun quyidagilar amalga oshirildi:

— xalqaro munosabatlarni o'rnatish tartibini belgilovchi yangi huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi;

— sobiq ittifoq ishtirokchi bo'lgan xalqaro huquqiy hujjatlar majmuasi respublika manfaatini nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqildi;

— O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos tushadigan hujjatlar ratifikatsiya qilindi;

Mamlakat xalqaro faoliyatini muvofiqlashtirib turadigan qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish, "Qabul qilingan xalqaro shartnomalar to'g'risida"gi Qonun, "Konsullik ustavi" shular jumlasidandir. Ulardan tashqari bojxona xizmatining huquqiy asoslarini yaratuvchi qonunlar. Havo kodeksi ham qabul qilindi. YUrtboshimiz I.A.Karimovning "O'zbekistonning o'z istiqbol va tarqiyot yo'li" kitobining tashqi siyosatga bag'ishlangan bobida ushbu faoliyat yo'nalishlari aniq-ravshan ifodalab berilgan. Jumladan, kitobda milliy manfaatlar O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor maqsadi ekanligi qat'iy bayon etilgan.

Manfaat bu zaruriy ehtiyojdir. Ehtiyojlar esa birinchi galdagi O'zbekiston uchun taraqqiyotning muayyan jug'rofiy va tabiiy, iqlimiy, demografik holatimiz, xalqimizning ko'pmillatli tarkibi uning tarixiy va madaniy me'rosi, ma'naviyat omili, ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyotining darajasi, xom ashyo va zamonaviy texnologiya bilan ta'minlanganligi, davlatning xalqaro munosabatlardagi o'rni va hokozolardir. Bu omillar O'zbekistonning ehtiyojlarini belgilaydi. Ehtiyojlar esa manfaatlarda o'z ifodasini topadi. Davlat manfaatlari uning tashqi siyosiy faoliyatini belgilaydi. SHu jihatdan, O'zbekistonning tashqi siyosiy manfaatlari xalqaro aloqalarni rivojlantirayotgan, uning tuzilmalari va faoliyatini belgilab berayotgan kuchdir.

Barcha davlat va xalqaro tashkilotlar bilan aloqa qilishda davlatimizning milliy manfaatlaridan kelib chiqiladi. Tabiiyki, bunda sherkdosh manfaatlari, ular tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlarini hisobga olinishi zarur. Zero, biz tashqi siyosatni tasavvur etib bo'lmaydi.

O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar va davlatlararo uyushmalar faoliyatidagi ishtiroki respublika tashqi siyosatining muhim yo'nalishlaridan biridir. Ushbu tashkilotlar jahon hamjamiyatiga kirish, xo'jalik aloqalarini o'rganish, ekologiya, tabiiy muammolarni hal etish, ilmiy-texnikaviy hamkorlikni rivojlantirishda katta yordam bermoqdalar.

Bugungi kunda o'z mustaqil tashqi siyosatini konstitutsiyaviy qoidalarga tayanib yuritayotgan O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'ektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligiyu kuch ishiatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik kabi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi.

O'zbekiston butun dunyo ko'z o'ngida tashqi siyosiy va madaniy aloqalarning boy tarixiga ega bo'lgan, mustaqil ravishda zamonaviy diplomatik aloqalarni amalga oshirayotgan tinchliksevar huquqiy davlat sifatida namoyon bo'lmoqda. Xalqaro huquq jihatidan O'zbekiston uchun asrlar osha buyuk bo'lib kelgan davlatlar ham, davlatchilik tarixi biznikiga o'xshash yosh mamlakatlar ham bab-baravardir.

O'zbekiston taraqqiyotning konstitutsiyaviy asosi sifatida inson huquqlari tiklanmokda. Xalqimizning ma'naviy imkoniyati, uning katta tabiiy va texnik zaxiralari, mustahkamlanib borayotgan xalqaro aloqalari demokratik taraqqiyot va inson huquqlariga rioya etish uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlar mavjudligiga ishonch tug'diradi. Natijada mamlakatimiz amalda yalinsiga diplomatik tan olinishiga va xalqaro iqtisodiy aloqalarga tortilishiga yo'l ochib berildi.

2.XX asrning oxirida dunyoning siyosiy makoni sifat jihatidan o'zgardi. Sovet Ittifoqi xalqlari harida sobiq sotsialistik hamdo'stlikdagi boshqa davlatlar bir partiyaviylik tizimi va markazdan turib rejalashtirish iqtisodiyotidan voz kechishdi. Oqibatda dunyoda antogonistik ijtimoiy-siyosiy tuzumlarining global qarama-qarshiligi barham topdi va dunyo siyosatida demokratik jamiyatlar salohiyati ancha oshdi. Evroosiyo hududida, jumladan, Markaziy va SHarqiy Evropa davlatlari, shuningdek, sobiq Sovet Ittifoqi davlatlarining rozligi orqali ijtimoiy-siyosiy tuzumning demokratik shakliga o'tildi. Agar bunday davlatlarda eng avvalo, Rossiyada amalga oshirilayotgan

islohotlar jarayoni muvaffaqiyatli yakunlansa Evropa, SHimoliy Amerika, Evrosiyoda bir-biriga yaqin ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tamoyillar asosida yashovchi, bir-biriga o'xshash qadriyatlarga e'tiqod qiluvchi, shu jumladan, global dunyo siyosati jarayonlariga bir xilda yondashuvchi xalqlar hamjamiyati shakllanadi.

«Birinchi» va «ikkinchi» dunyolar o'rtasidagi qarama-qarshilikka barham berilgandan so'ng avtoritar tuzumlar Afrika, Lotin Amerikasi, Osiyodagi o'z tarafdorini qo'llab-quvvatlashdan to'xtadilar. Negaki, bu davlatlar mafkuraviy ittifoqdosh sifatida o'z qiymatlarini yo'qotishdi va natijada moddiy hamda siyosiy yordamdan mahrum bo'lishdi. Oqibatda Somali, Liberiya, Afg'onistonda bo'linish vujudga qoldi va fuqarolar urushi boshlanib ketdi. Boshqa davlatlarning ko'pchiligi esa, masalan, Effopiya, Nikaragua, Jazoir avtoritarizm dan voz kecha boshlashdi.

«Sovuq ush» bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lmagan barcha qit'alarda kechgan keng miqyosli demokratiyalashtirish jarayoni 80-yillarning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Braziliya, Argentina, CHili boshqaruvining harbiy-avtoritar shakldan fuqarolik-parlamentar shakllariga o'tishdi. Bunday tendentsiya Markaziy Amerikada sal kechroq tarqaldi. Ushbu jarayonning e'tiborli natijalaridan biri shuki, 1994 yil 14 dekabrda SHimoliy va Janubiy Amerika mamlakatlari boshliqlarining uchrashuvida qatnashgan 34 ta davlat rahbari o'z davlatlarining demokratik yo'l bilan saylangan liderlari e'dilar. SHunga o'xshash demokratiyashtirish jarayonlari Filippin, Tayvan, Janubiy Koreya, Tailandda kuzatildi. 1998 yilda Pokistonda harbiy tuzum o'miga saylangan hukumat keldi.

Janubiy Afrika Respublikasining aparteid siyosatidan voz kechishi demokratiyaga qarab yo'l olinganligini ko'rsatdi. Afrikaning boshqa joylarida avtoritarizm jarayoni kuchaygana sekin kechdi. Biroq inqirozga uchrashi, Gana, Benin, Keniya, Zimbabvede demokratik islohotlarning ma'lum darajada oldinga siljishi demokratiyalashuv to'liqini bu qit'aga ham ta'sir qilmasdan o'tmaganini ko'rsatadi.

Aytib o'tish lozimki, demokratiya etuklikning bir nechta darajasiga ega. Bu frantsuz hamda amerika inqilobi davrlaridan boshlab, bugungi kungacha demokratik jamiyatlarning rivojlanishida yaqqol namoyon bo'ldi. Qator Afrika mamlakatlarida yoki sobiq Ittifoq o'rnida paydo bo'lgan yangi mustaqil davlatlarning ayrimlarida muntazam, ko'ppartiyaviylik saylovlari ko'rinishga ega bo'lgan demokratiyaning ilk shakllari, aytaylik, G'arbiy Evropa tilidagi etuk demokratik shakllaridan anchagina farq qiladi. Agar Linkolning demokratiyaga bergan «xalq saylagan va xalq manfaatlariga muvofiq, amalga oshiriladigan xalq boshqaruvi» ta'siridan kelib chiqadigan bo'lsak, eng ilg'or demokratiyalar ham mukammal emasdir.

Albatta, ko'p narsa «demokratiya» va «urush» tushunchalarining qanday ta'riflanishiga bog'liq. Davlat, qachonki uning ijroiya va qonun chiqaruvchi hokimiyatlari saylovlar yo'li bilan shakllantirilgan bo'lsa, saylovlarda eng kamida mustaqil ikkita partiya ishtirok etsa, katta yoshdagi aholining kamida yarmi ovoz berish huquqiga ega bo'lsa va hokimiyatning bir partiyadan ikkinchisiga o'tishi kamida bir marta tinch konstitutsion yo'l bilan amalga oshirilgan bo'lsa, demokratik xisoblanadi.

Jahon tarixining tadqiq etilishi shuni ko'rsatmoqdaki, demokratiyalar avtoritar tuzumlar bilan urush olib boradilar va juda ko'p boshqa demokratik davlatlar bilan ziddiyatlarga borsalar ham, hech qachon bu narsa urushgacha etib bormagan. Vestfal tizimi mavjud davr mobaynida demokratik davlatlar o'rtasidagi munosabatlar tor doirada bo'lganligi va ularning hamjihat bo'lishlariga avtoritar davlatlar ta'sir etganligini ko'rsatuvchi tanqidchilarda bunga ma'lum bir asos bor ekanligini tan olish zarur. Avtoritar davlatlar tomonidan tahdidning yo'qolishi yoki kamayishi bilan demokratik davlatlar bir-birlari bilan munosabatda o'zlarini qanday to'rtishlari ham noma'lum.

Agar XXI asrda ham demokratik davlatlarning o'zaro tinch munosabatlaridagi qonuniyat buzilmasa, unda hozir dunyoda ro'y berayotgan demokratiyaning keigayishi duiyo global zonasining ham kengayishini anglatadi. Ehtimol, yangi shakllanayotgan xalqaro munosabatlar tizimining Vestfal tizimidan birinchi va asosiy farqi aynan mana shundadir.

Global miqyosda demokratiya va avtoritarizm o'rtasidagi nisbatning o'zgarishi amerikalik tadqiqotchi F.Fukuyamning demokratiya g'alabasini o'ziga qilishga hamda shu ma'noda tarixiy formatsiyalar o'rtasidagi kurash sifatida «tarixning yakunlanganligi» to'g'risida e'lon qilishiga asos bo'lib xizmat qildi. Biroq demokratiyaning keng miqyosda yoyilib borayotgani uning to'liq g'alabasi degani emas. Kommunizm g'oyasi biroq o'zgartirilgan ko'rinishda bo'lsada, Xitoy, Vyetnam, SHimoliy Koreya, Laos, Kubada saqlanib qolindi, uning izlarini Sobiq Ittifoqning ayrim davlatlarida, Serbiyada sezish mumkin.

SHimoliy Koreyadan tashqari boshqa barcha sotsialistik mamlakatlarda bozor iqtisodiyoti elementlari paydo bo'lmoqda, ular u yoki bu ma'noda jahon iqtisodiy tizimiga jalb qilmoqda. Saqlanib qolgan ayrim kommunistik davlatlarning boshqa mamlakatlar bilan munosabatlari «sinfy kurash» tamoyilidan ko'ra, «birga tinch vashash» tamoyiliga asoslanadi. Qisman amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va xalqaro iqtisodiy aloqalar uchun ochiq bo'lishlik siyosiy erkinliklarni kengaytirishni talab etuvchi ijtimoiy kuchlarni yuzaga chiqaradi. Biroq birpartiyaviylik tizimi teskari tomonga qarab ish olib bormoqda. Natijada, liberalizmdan avtoritarizmga, avtoritarizmdan liberalizmga qarab harakat qiluvchi «arg'imchoq» effektini kuzatish mumkin.

XX asr tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, kommunistik tizim muqarrar ravishda shunday tashqi siyosatni ishlab chiqardiki, u demokratik jamiyatlar siyosatiga zid bo'ldi.

Bunday ziddiyatning mavjudligi ular o'rtasidagi harbiy mojaroni keltirib chiqarishi mumkinligi va ular o'rtasida munosabatlar bo'la olmasligi xususidagi fikrlar asoslangandir.

Hozirgi kunda dunyoda avtoritar tuzumdagi bir qancha davlatlar mavjud. Avtoritar tuzumda bo'lgan davlatlar orasida alohida o'rinni ekstremistik mazmundagi «islomiy» mamlakatlarga — Eron, Sudan, Afg'oniston egallaydi. «Islom fundamentalizmi» nomi bilan ataluvchi islom ekstremizmi xalqaro siyosiy harakati dunyo siyosatiga bu davlatlar o'z ta'sirini o'tkazish uchun imkon bermoqda.

G'arb demokratiyasining inkor etuvchi hamda zo'ravonlikka yo'l qo'yuvchi ushbu mafkuraviy oqim so'nggi yillarda YAqin SHarqning ko'pgina mamlakatlari aholisi va musulmon aholisi yuqori bo'lgan boshqa davlatlarda keng tarqalgan.

Demokratik davlatlar bilan hamkorlik qilishga intilayotgan kommunistik tuzumdagi davlatlardan farqli o'laroq, islom siyosiy ekstremizmi dinamik va Saudiya Arabistoni, Fors ko'rfazi mamlakatlari, Pokiston, Turkiya, Markaziy Osiyo davlatlari barqarorligiga katta xavf tug'dirmoqda.

Avtoritar davlatlarning saqlab qolinishi yoki ular sonining ortishi, ehtimol, ular o'rtasidagi, shuningdek, demokratik dunyo bilan o'rtalarida harbiy to'qnashuvlarga olib kelishi mumkin. Albatta, xalqaro munosabatlarning kelgusidagi rivojini tadqiq etishda demokratiya o'rtasidagi munosabatlar qonuniyatlarini, demokratiyaning avtoritar tuzumlarga ta'sirini yaxshilab tahlil etish lozim bo'ladi.

3. Xalqaro munosabatlarni rivojlantirishda jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilgan demokratik qadriyatlar, xalqaro huquq asosida o'z tashqi siyosatini yuritish, munosabatlarda kuch ishlatmasdan muzokaralar yordamida muammolarni hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralmashmaslik va davlatlarning suvereniteti hududiy yaxlitligini hurmat qilish muhim ahamiyatga egadir. O'zbekiston o'z diplomatiyasini yuqoridagi qadriyatlar asosida olib bormoqda.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda, O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvini ta'minlashda Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki kabi xalqaro moliyaviy, iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorlik ijobiy samara bermoqda. O'zbekiston xalq xo'jaligidagi aniq loyihalarga sarflanayotgan xorijiy samoyalar miqdori yildan-yilga ortib borayapti. Keyingi yillarda qad ko'tarayotgan zamonaviy inshootlar va yirik korxonalar bunga misol bo'la oladi.

O'zbekistonda investitsion muhimi shakllantirish, eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyot vujudga keltirish bo'yicha aloqalar rivojlanib bormoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish jarayoni izchillik bilan davom ettirilmoqda. Ayni paytda, mamlakati jahon bilan bog'lovchi kommunikatsion tizimlarni rivojlantirishga katta ahamiyat berilyapti. CHet ellardan taniqli iqtisodchilar, xorijiy kompaniyalar vakolatxonachali rahbarlari va mutaxassislari, yozuvchilar va

jumalislar bu tadbirlar tufayli O'zbekiston yaqin kelajakda mintaqadagi eng ilg'or davlatlardan biriga aylanishini bashorat qilmoqdalar.

O'zbekiston bir qator xalqaro tashkilotlar — Evropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (EXHT), Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (EKO) bilan teng huquqli a'zo sifatida Evropa Ittifoqi, NATO bilan esa maxsus bitimlar asosida samarali hamkorlik qilib kelmoqda. Jumladan, NATO bilan «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturi doirasidagi aloqalarimiz mintaqada tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga muhim hissa qo'shmoqda. AQSH va boshqa etakchi davlatlar askarlari bilai birgalikda har yili o'tkazilayotgan harbiy mashqlar qurolli kuchlarimiz uchun o'ziga xos mahorat maktabini o'taypti.

Evropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar rahbarlari va xukumat boshliqlarining Istanbul shahrida bo'lib o'tgan uchrashuvi davrimizning eng muhim anjumanlaridan biri bo'ldi. Respublikamiz Prezidentining mazkur anjumanidagi nutqi aniq takliflari va mulohazalari bilan yig'ilganlar e'tiborini qozondi. Ayniqsa, terrorizmga qarshi kurash bo'yicha xalqaro markaz tashkil etish borasidan taklif ko'plab davlatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi doirasida ana shunday markazning ta'sis etilishiga ham O'zbekiston rahbariyatining taklifi sabab bo'ldi.

O'zbekiston o'zining tashqi aloqalarini ham ko'p tomonlama, ham ikki tomonlama asosda tashkil etish tarafdoridir. Butungi kunda Er yuzining turli chekkalarida ishonchli va manfaatdor sheriklarimiz bor. Ularning doirasi muntazam kengayib bormoqda. SHU o'rinda Amerika Qo'shma SHtatlari bilan munosabatlarimizni tilga olishimiz mumkin. Bu munosabatlar ikkala davlatlar uchun ham muhim bo'lgan yo'nalishlarda izchillik bilan rivojlanib bormoqda. O'zbekiston rasmiy xay'atining 2002 yilda AQSHga tashrifi, strategik hamkorlikni vujudga kelishi va imzolangan xujjatlar, bir qator xalqaro anjumanlarda ikki davlat rahbarimiz o'zaro muloqotlari, samimiy yozishmalar o'zaro aloqalar darajasidai dalolat beradi. Dunyoning etakchi davlat, juda katta siyosiy, iqtisodiy, harbiy-texnikaviy, intellektual salohiyatga ega bo'lgan AQSH bilan har tomonlama munosabatlarni rivojlantirish va chuqurlashtirish mamlakatimiz uchun muhim ahamiyatga ega.

Evropa ittifoqi bilan 1996 yilda imzolangan sheriklik va hamkorlik haqidagi shartnoma 1999 yilning 1 iyulida kuchga kirdi. Mamlakatimizning Evropa davlatlari bilan keng miqyosli aloqalari uchun qulay imkoniyat vujudga keldi. Tabiiyki, Germaniya, Frantsiya, Buyuk Britaniya kabi ilg'or davlatlarning demokratik jamiyat qurish borasidagi tajribalari, ishlab chiqarishdagi ilg'or texnologiyalari biz uchun muhim ahamiyatga ega.

Keyingi yillarda SHarqiy va Janubi-SHarqiy Osiyo mamlakatlari — Yaponiya, Koreya Respublikasi, Xitoy va boshqa davlatlar bilan aloqalarimiz kengaydi. O'zaro manfaatli hamkorligimiz samaralarini birga qurilayotgan korxonalarda, qad ko'tarayotgan inshootlarda, bozorlarimizdagi xilma-xil mahsulotlarda ko'rish mumkin.

Albata, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo mamlakatlar, shu jumladan, Markaziy Osiyo respublikalari bilan hamkorlik tashqi siyos atimizning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Bunga sabab, Hamdo'stlik mamlakatlarning hududiy yaqinligi va iqtisodiy jihatdan bog'langanligina emas, balki chuqur tarixiy ildizlar, madaniy va ma'naviy aloqalar, kattatarixiy davr mobaynida xalqlarimizning rashtarak taqdiriga ega bo'lganligidir.

Rossiya Federatsiyasi bilan mustaqillik yillarida shakllangan o'zaro manfaatli va teng huquqli hamkorlik yaxshi samara berayotganligini alohida ta'kidlash zarur.

Ikki mamlakat o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilgan 1992 yildan buyon siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalarda jami 150 dan ortiq xujjat imzolangan. 1998 yil may oyida I.Karimovning Rossiyaga va o'sha yilning oktyabrida B.Eltsining mamlakatimizga rasmiy tashrifi, safar davomida qabul qilingan hujjatlar, ayniqsa, 1998-2007 yillarga mo'ljallangan iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi shartnoma o'zaro aloqalarni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. V.Putin prezident sifatida ilk safari O'zbekistondan boshlanganligi ham Rossiya Rahbariyati mamlakatimizni o'zining strategik sheriklaridan biri, Markaziy Osiyodagi etakchi davlat deb bilishidan dalolat beradi.

O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston o'rtasida yagona iqtisodiy makon tashkil etish haqida imzolangan shartnoma Markaziy Osiyo integratsiyasi yo'lidagi ilk qadami bo'lgan edi. 1998 yili bu shartnomaga Tojikiston ham qo'shildi. Hozirgacha o'zaro hamkorlik haqida 150 dan ortiq hujjat imzolandi. Endilikda Davlatlararo kengash ishlab tumbdi. Hamdo'stlik dasturlarini to'yogba chiqarish bo'yicha ijroiya qo'mita, Markaziy Osiyo hamkorligi va taraqqiyot banki tashkil etilgan. Mazkur integratsiya xalqimizning manfaatlariga to'la mos keladi, mamlakatimizda barqarorlik va tinchlikni mustahkamlashga yordam beradi. 2000 yil 20-21 aprel kunlari O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston prezidentlarining Toshkentda bo'lib o'tgan uchrashuvi chog'ida imzolangan terrorizmga, siyosiy va diniy ekstremizmga, xalqaro uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash yuzasidagi birgalikdagi harakatlar to'g'risidagi shartnoma bunga misol bo'la oladi.

4. Bugungi kunda O'zbekistonda demokratik jarayonlarni shunchaki e'tirof etish emas, balki uni rivojlantirishga e'tibor berilmoqda. Chunki demokratik qadriyatlarining rivojlanishi davlatning, xalqning taraqqiyotiga olib keladi. Demokratik qadriyatlarni himoyalash esa muhim ahamiyatga ega. SHuning uchun O'zbekiston tashqi siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri — mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash, xalqlar tinchligiga rahna soluvchi terrorizmning har qanday ko'rinishiga qarshi qat'iy kurash olib borishdan iborat. Davlatimiz ana shu maqsad yo'lida Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Evropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, bir qator davlatlararo va nohukumat xalqaro tashkilotlar bilan keng qamrovli aloqalarni izchil rivojlantirib bormoqda, ayni vaqtda bu tashkilotlar ishida faol ishtirok etmoqda. Jahon hamjamiyati O'zbekistonning mintaqa xavfsizligini ta'minlash, nizolarni siyosiy choralar bilan banaraf etish, Markaziy Osiyo mintaqasini yadro qurolidan holi hudud deb e'lon qilish, narkobiznesga qarshi kurashda sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish borasidagi konstruktiv tashabbuslarini qo'llab-quvvatlamoqda.

O'zbekiston poytaxti Toshkent bugungi kunda nufuzli xalqaro tashkilotlar ishtirokida bo'ladigan muhim xalqaro anjumanlar markaziga aylandi. Mazkur anjumanlarda qabul qilingan hujjatlarning ahamiyati va dolzarbligi jaxon hamjamiyati, jumladan, BMT Xavfsizlik Kengashi tomonidan e'tirof etilayotganligi O'zbekistonning xalqaro siyosatidagi nufuzi o'tib borayotganligidan dalolatdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida so'zlagan nutqida Markaziy Osiyoning yadroviy zona, deb e'lon qilish tashabbusini ilgari surdi. "Hozirgi zamon voqeligi shundayki, bir mamlakatning xavfsizligi boshqa davlat hisobidan ta'minlanishi mumkin emas, — dedi yurtboshimiz o'z nutqida, — mintaqa xavfsizligini butun jahon xavfsizligi muammolaridan ajratgan holda ko'rib bo'lmaydi. SHunga asoslanib, O'zbekiston yadro qurolining batamom tugatilishi uchun, yadro qurolini tarqatmaslik to'g'risidagi shartnomaning samarali harakat qilishi va uning hech bir maqsdatsiz uzaytirilishi uchun harakat qiladi... O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasining yadrosiz zona deb e'lon qilinishining qat'iy tarafdoridir".

Mazkur tashabbus Prezidentimizning 1996 yil dekabrda bo'lib o'tgan EXHT Lissabon uchrashuvida so'zlagan nutqida yana bir bor yig'ilganlar e'tiboriga havola etildi. Anjuman qatnashchilari Markaziy Osiyoni yadrosiz zona, deb e'lon qilish haqidagi fikrini katta qoniqish bilan kutib oldilar.

1997 yil aprel oyida Jeneva shahrida Markaziy Osiyodagi besh davlat ekspertlari mintaqaviy guruhining birinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi. O'sha yili iyun oyida O'zbekiston hay'ati birinchi bor atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlik (MAGATE) boshqaruvchilari kengashining Vena shahrida bo'lib o'tgan navbatdagi sessiyasida ishtirok etdi. O'zbekiston hay'ati rahbarining rasmiy bayonotida O'zbekiston Respublikasi va mintaqadagi boshqa davlatlarning yadrosiz zona tashkil etish borasidagi qarashlari bayon etildi.

1997 yil 14-16 sentyabr kunlari Toshkentda «Markaziy Osiyo — yadro qurolidan holi zona» mavzusida xalqaro konferentsiya bo'lib o'tdi. Unda 56 mamlakatdan va 16 xalqaro tashkilotdan 200 dan ortiq kishi ishtirok etdi. Islom Karimovning mazkur anjumanidagi nutqida bayon etilgan yadroviy



xavfsizlikni ta'minlash choralari haqidagi fikrlari anjuman qatnashchilari tomonidan to'la qo'llab-quvvatlandi.

Xalqaro amaliyotda bunday «yadrosiz zona»ni belgilashning yagona mezonini yo'q. Chunki har bir mintaka o'z xususiyati va ahamiyatiga ega. Ammo tadqiqotchilar yadrosiz zona tushunchasini shunday izohlaydilar: «Yadrosiz zona quroq-yarog'larni cheklash, yadroviy nizo chiqishi xavfini kamaytirish, mazkur zonaga kiradigan mamlakatlar xavfsizligini mustahkamlash va 1968 yilda imzolangan yadro qurolini tarqatmaslik haqidagi shartnomaning hayotga tatbiq etilishiga ko'maklashish vositasidir. Xalqaro shartnoma asosida yadro qurolini sinash, ishlab chiqarish va joylashtirish taqiqlangan, shuningdek, uning hududida va unga qarshi yadro qurolini qo'llash taqiqlangan zona-yadrosiz zona hisoblanadi».

Hozirgi paytda to'rtta yadrosiz zona mavjud — Antarktida (shartnoma 1961 yil 23 iyunda kuchga kirgan), Lotin Amerikasi (shartnoma 1969 yil 25 aprelda kuchga kirgan), Tinch okeanining janubiy qismi (shartnoma 1986 yil 11 dekabrda kuchga kirgan), Amerika qit'asi, barcha zonalar haqidagi shartnomalar O'zbekiston Respublikasi tomonidan e'tirof etilgan.

SHimoliy Evropada, Markaziy va Janubiy Osiyoda, YAqin SHarqda yadrosiz zonalar barpo etish g'oyalari mavjud. Bundan maqsad, yadro qurolini mavjud bo'lgan hududlarni cheklash, yadro urushi xavfini kamaytirishdir.

Markaziy Osiyoda yadrosiz zona barpo etish haqidagi O'zbekiston tashabbusi BMT va jahon jamoatchiligi tomonidan to'la ko'llab-quvvatlanmoqda. Bu taklif BMT Bosh Assambleyasining sessiyalarida muhokama qilindi va maxsus rezolyutsiya qabul qilindi.

Markaziy Osiyoda yadro qurolidan holi hudud barpo etish faqat mintaqadagina emas, balki jahonda ham tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda jahon hamjamiyatida iqtisodiy, harbiy qudrat bilan birgalikda mamlakatdagi demokratik jarayonlarning xarakteri bilan davlatlarning obro'-e'tibori belgilanmoqda. SHu jihatdan olganda, O'zbekistonda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan demokratik jarayonlar jahon hamjamiyatida mustahkam o'rin egallashga va milliy manfaatlarimiz asosida tashqi sivosat yurtishga imkoniyat yaratmoqda.

XX asming oxirida inqiloblar yuz yilligi jahon sahnasida sotsialistik tuzumning emirilishi bilan vakun topdi. Sobiq «qizil imperiya» hududida xalqaro munosabatlar va xalqaro huquqning to'laqonli sub'ektlari — yangi mustaqil davlatlar paydo bo'ldi. SHular qatori, uzoq davlatchilik tarixiga ega O'zbekiston Respublikasi ham o'z milliy taraqqiyot yo'lini tanlab oldi. Qadimgi madaniyat o'choqlaridan biri bo'lgan yurtimiz yana jahon hamjamiyati va uning ajralmas qismiga aylandi.

Mustahkam xavfsizlik, izchil iqtisodiy taraqqiyot uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, aholi turmushi darajasini ko'tarish, konstitutsion tuzum asoslarini mustahkamlash, millatlar ahuliga, xalqlar do'stligi, fuqarolar erkinliklari va haq-huquqlirini muhofaza qilish tashqi siyosatning asosiy maqsadlaridir. Ana shu maqsadlari ro'yobga chiqarish, jahon hamjamiyati bilan ta'lim aloqalarini yo'lga qo'yish istagida tashqi siyosiy va iqtisodiy faoliyatning milliy mexanizmlari tashkil qilindi.

1994 yilda tashkil etilgan respublika Tashqi ishlar vazirligi faoliyati tubdan isloh qilindi. 1992 yili Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi, 1991 yili Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki tashkil topdi. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi asosida diplomatiya xalqaro huquq va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida malakali kadrlar tayyorlashning davlat tizimi yaratildi. Tashqi aloqalar sohasi uchun milliy kadrlar tayyorlash maqsadida 1992 yili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti tashkil qilindi. Tashqi iqtisodiy va siyosiy faoliyatni tartibga soluvchi «CHet el investitsiyalari to'g'risida» Qonun (1998), «O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyati to'g'risida» Qonun (2000), «O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy printsiplari to'g'risida» Qonun (1996), «O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida» Qonun (1995), shuningdek, «Konsullik ustavi», O'zbekiston Respublikasi Harbiy doktrinasi kabi muhim hujjatlar qabul qilindin.

Mana shunday nazariy va amaliy qadamlar natijasi o'laroq, bugungi kunda davlatimiz mustaqilligini 170 ga yaqin mamlakatlar tan oldi. Ularning 120 nafari bilan diplomatik munosabatlar o'rnatilgan. O'zbekistonda 80 ortiq davlat va 60 ta yirik xalqaro

tashkilot missiyalari akkreditatsiya qilingan. O'z navbatida, O'zbekistonda ortiq yirik tashkilotlar, xalqaro huquq sub'ektlari bilan hamkorlik qilmokda. O'zbekiston fuqarolari tomonidan xorijiy davlatlarda ko'plab korxonalar va vakolatxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston qator davlat bilan "Investitsiyalarni himoyalash va rag'batlantirish to'g'risida" shartmoma imzolagan.

SHunday qilib, hozirgi kunda O'zbekiston jahon hamjamiyatida munosib o'rin egalladi va Markaziy Osiyodagi etakchi davlat sifatida e'tirof etilmoqda. Bunday obro'-e'tibor tarixiy davlatchiligimiz, ma'naviyatimiz va oldimizga qo'ygan maqsadlarimizga hamohangdir. O'zbekiston o'zining tinchliksevar, barqarorlikka asoslangan tashqi siyosatini davom ettiradi. Buning uchun etarli siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy imkoniyatlari mavjud.

## II-BO'LIM: "MILLIY G'OYA: ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOIYILLAR" FANI

### VII-MAVZU: "MILLIY G'OYA: ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOIYILLAR" FANINING PREDMETI, MUAMMOLAR DOIRASI, TARIXIY ILDIZLARI, SHAKLLANISH BOSQICHLARI- 2 soat.

#### Reja:

1. Fanning predmeti, ob'ekti, maqsadi, vazifalari va asosiy tushunchalari
2. Mafkura, milliy g'oya tushunchalari, ularning tuzilishi va namoyon bo'lish hususiyatlari
3. Insoniyat tarixida g'oya va mafkuralar namoyon bulishining asosiy bosqichlari.
4. Mustaqillik – milliy g'oya fanining bosh mavzusi. Ma'naviy jasorat – millat g'oyasi va ruhining ifodasi.

Insoniyat tarixiy taraqqiyotining sivilizatsiyalashgan davri tajribasi biron-bir jamiyatning ezgu g'oyalar va mafkurasiz rivojlana olmasligini tasdiqlamoqda. Mustaqillik tufayli O'zbekiston xalqi o'zini milliy-ma'naviy yangilanishda milliy istiqbol g'oyasiga tayanishga alohida e'tibor berdi. Mustabid tuzum davrida amal qilib kelingan, xalqimizning milliy-ma'naviy ruhiyatiga tamomila zid bo'lgan «kommunistik g'oya»dan voz kechildi. O'zbekiston xalqi o'z milliy g'oyasi regizlariga tayanagan holda rivojlanish yo'lini tanladi. Uning o'ziga xos sabablari mavjud, ular asosan quyidagilardan iborat:

Birinchidan, Mustaqillik tufayli mamlakatimiz xalqi o'ziga xos va mos rivojlanish yo'lini tanlash huquqiga ega bo'ldi. Bu esa xalqimizning tarixan qaror topgan milliy-madaniy meroslarini, qadriyatlarini, ma'naviy-ruhiy olamini qayta tiklagan holda o'z kelajagini ko'rish va qurish imkoniyatini berdi.

Ikkinchidan, «mustabid» totalitar tuzum davrida jamiyat qurilishining g'oyaviy asosi bo'lgan kommunistik mafkura targ'ibotchilari mamlakatimiz xalqlari, xususan, o'zbek xalqi turmush tarzi, dunyoqarashi, tarixi, urf-odatlarini, an'analari va milliy xususiyatlarini hisobga olmasdan bizga begona va yot bo'lgan qadriyatlarni, maqsadlarni singdirishga urinib kelgan. Buning asoratlaridan xalos bo'lishga qaratilgan ma'naviy ehtiyoj mavjud.

Uchinchidan, ma'lumki har qanday davlat yohud jamiyat maqsadsiz yashay olmaydi. U rivojlanish uchun ma'naviy asoslarni belgilab oladi. Tarixiy maqsad xalqning milliy-ma'naviy g'oyalarida o'z ifodasini topadi. Shu ma'noda o'zining mustaqil rivojlanish yo'lini tanlab olgan O'zbekistonda milliy g'oyani o'rganishga bo'lgan zarurat deb qaralishi lozim.

To'rtinchidan, jamiyat qurilishi tarixida har xil g'oyalar hukmronligi bo'lgan. G'oyaviy maqsadlar tufayli jamiyat hayotida turli xil voqealar ro'y bergan tabiiyki, ular turli xil oqibatlarini keltirib chiqargan. Demak, g'oya bilan g'oyaning, maqsad bilan maqsadning, fikr bilan fikrning farqini bilish va anglash uchun ham milliy istiqloq g'oyasini o'rganish zarur.

Beshinchidan, g'oyalar jamiyatdagi turli insonlar, ijtimoiy guruhlar, qatlamlar, xalqlar, millatlar maqsadi, orzu intilishlari, hayotni idrok etish ko'nikma va malakalari, xulq-atvor ko'rinishlari, qadriyatlari manfaati bilan uzviy bog'liq bo'ladi. U yoki bu g'oya qaysi manfaatni qanday tamoyillarga asoslangan holda ifoda etishiga qarab bir-biridan farqlanadi, uning maqsadiga va qanday g'oya ekanligiga baho beriladi.

Oltinchidan, g'oyalar ta'sir ko'lamini bilan ham bir-biridan farqlanadi. Ayrim g'oya tarafdorlari mutlaq haqiqatni e'tirof etishga da'vo qilishi mumkin. Ular o'z maqsadlarini boshqa xalqlarning milliy xususiyatlarini hisobga olmasdan, qanday yo'l bilan bo'lmasin «singdirishga» urinadi. Demak, bu borada har birimizdan o'gohlik talab etiladi. Farzandlarimiz o'z xalqi, mamlakatining tarixini, milliy-madaniy merosini, qadriyatlarini toptatmasligi, o'ziga xoslikni yo'qotmasligi uchun ham milliy g'oyani o'rganishi, bilishi kerak bo'ladi.

Yettinchidan, milliy istiqloq g'oyasini o'rganishning zarurligi bugungi dunyoda mafkuraviy kurashning davom etayotganligi bilan ham bog'liq. Insonlar ongi va qalbini egallash unga ta'sir ko'rsatib, o'z maqsad va muddaolarini bir tomonlama amalga oshirishga urinishlar to'xtamayotganligidan ham kelib chiqmoqda. Milliy istiqloq g'oyasi O'zbekiston xalqining tarixiy maqsadlarini amalga oshirish uchun ma'naviy-ruhiy kuch-qavvat manbai hisoblanadi, demokratik, fuqarolik jamiyatini qurish uchun ilmiy-nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Mustaqillikni mustahkamlash uchun xalqimizni birlashtiradigan, uning asriy ezgu maqsadlari bo'lgan «Kelajagi buyuk davlat»ni barpo etish, har bir shaxsning hayotiy manfaatlarini o'zida mujassam etadigan milliy mafkurani yaratish ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy taraqqiyotimizning muhim shartiga aylanmoqda. Milliy istiqloq g'oyasini fan sifatida o'rganishning sabablarini mamlakatimiz Prezidenti I.Karimov quyidagicha ta'kidlagan: «Oldimizga qo'ygan olijanob maqsad muddaolarimizga yetish, eski mafkuraviy asoratlardan batamom xalos bo'lish, g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, begona va yot g'oyalarning xurujidan himoyalanih, bunday tajovuzlarga qarshi tura oladigan har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazish zarurati xalqimiz va jamiyatimiz manfaatlariga mos yangi mafkurani shakllantirishni taqozo etmoqda»<sup>2</sup>. Ana shu hayotiy zarurat milliy istiqloq g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini fan sifatida o'rganishni taqozo etadi.

Milliy istiqloq g'oyasi-mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalari Islom Karimov asarlarida asoslangan ta'limot. Uning mazmuni quyidagilardan iborat:

-tarixiy xotirani uyg'otish, o'tmishdan saboq chiqarish va o'zlikni anglash mezonini bo'lish;

-xalqimizni tub maqsadlari ifodasi va jamiyat a'zolarini birlashtiruvchi g'oyaviy vazifasini o'tash;

-millat, xalq va jamiyatni birlashtiruvchi kuch, yuksak ishonch e'tiborining manbai bo'lish;

-O'zbekistonda yashovchi barcha xalq, millat, elat, ijtimoiy qatlam va uni vakillariga birday taalluqli bo'lish;

-millatimiz aholisi ongi va qalbidagi «O'zbekiston — yagona Vatan» degan tuyg'uni yuksak darajada shakllantirishga xizmat qilish;

-turli millat, qatlam, uning vakillari, siyosiy partiya va ijtimoiy guruhlar mafkurasidan ustun turadigan yuksak fenomen — ijtimoiy hodisa mazmuniga ega bo'lish;

-biron-bir dunyoqarashni mutloqlashtirmaslik yoki biron-bir kuch, partiya yoki guruh qo'lida siyosiy qurolga aylanmaslik;

-har qanday ilg'or g'oyani o'ziga sigindirish va har qanday yovuz g'ochga qarshi javob

bera olish;

-sub'ektivizm, valyuntorizm kabi illatlardan xoli va jamiyatimizning xolis fikriga tayanuvchi ob'ektiv mafkura bo'lish;

-so'z bilan ishini, nazariya bilan hayotni birlashtira olish;

-davr o'zgarishlariga qarab, o'zi ifodalaydigan g'oya, manfaat, muddoalarni amalga oshirishning yangi-yangi vositalarini tavsiya eta olish, ya'ni yangi cha vaziyatga tez moslashadigan hozirjavob va ijodiy bo'lish va boshqalar.

Har qanday fanning muayyan bilimlar tuzishi sifatidagi o'ziga xos mavzular tushunchalari, qonun va kategoriyalari bo'ladi. Ularning barchasi fan o'rganadigan soha, ya'ni predmetning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. «G'oya» va «mafkura» tushunchalari, ularning halqlar va davlatlar taqdiriga ta'siri, hozirgi zamondagi mafkuraviy jarayon, milliy istiqlol g'oyasining mazmun-mohiyatini tushunchalari, shakllanish qonuniyatlari, namoyon bo'lish xususiyatlari, uni xalqimiz qalbiga singish yo'llari va usullari ushbu fanning mohiyatini belgilaydi. Uning tushuncha va kategoriyalari bir butun, yaxlit tizim shaklida namoyon bo'ladi<sup>4</sup>. Milliy uyaning odamlarning ishonch va e'tiqodiga aylanishi tumush, hayotidan joy olishi bir qator omillarga bog'liq. Demak, bunda ham muayyan qonuniyatlar amal qiladi. Milliy istiqlol g'oyasining fan sifatida e'tirof etilishi uning o'ziga xos predmeti, ob'ekti, maqsad va vazifalari mavjudligini anglatadi.

**Birinchiidan**, boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar qatori «Milliy istiqlol g'oyasi» fanining ham muayyan bilimlar tizimi, ya'ni o'ziga xos mavzulari, tushunchalari, qonun va kategoriyalari mavjud.

**Ikkinchiidan**, uning barcha boshqa fanlar qatori o'z predmeti, ob'ekti, maqsad hamda vazifalari bor. Avvalo, har bir fan oldiga qo'yiladigan umumiy talablar milliy istiqlol g'oyasiga ham bevosita dahldor. Ayni paytda, milliy g'oyaning jamiyat, milliy madaniyat neshzlari asosida shakllanishi, xalqning ishonch va e'tiqodiga aylanishi bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlari mavjudligini ham hisobga olish kerak. Bunda har bir inson yoki shaxsning individual xususiyatlari, uning o'ziga xos dunyoqarashi, shunga mos tafakkur va hayot tarzi, milliy ong, o'zligini anglatganligi darajasi alohida o'ringa ega. Milliy an'analarga, tarixi, ona tili, madaniyatiga bo'lgan munosabatda shakllangan va mustahkamlangan qalbdagi ruhiyati, e'tiqodi, sadoqati bilan vatanparvarlik va millatparvarlik tuyg'ulari o'zining va millatining sha'ni, qad-qimmatini hurmat qilishda namoyon bo'ladi. Shuningdek, har bir insonda umuminsoniy qadriyatlar boshqa xalqlar va millatlarining madaniy yutuqlariga o'zaro manfaatdaraklik hamda milliy taraqqiyotida uni mustahkamlash nuqta nazaridan qarash, baholash ko'nikmalari, sa'y-harakatlari orqali o'z ifodasini topadi.

Ushbu fanning predmetini milliy madaniy meros va umuminsoniy qadriyatlarining o'zaro munosabati, milliy istiqlol bosh g'oyasi xalqning ishonch va e'tiqodiga aylanishi, «g'oya» va «mafkura» tushunchalari, ularning xalqlar, millatlar va davlatlar taqdiriga ta'sirini o'rganish tashkil etadi. Milliy istiqlol g'oyasi fanining predmetini faqat «g'oya va mafkura» tushunchalaridan iborat deb qabul qilish ushbu fanni tor doirada tushunishga olib keladi. Bu fanning predmetini hozirgi zamondagi mafkuraviy jarayonlar, uning ma'no mazmunidagi o'ziga xos jihatlari, ta'sir etish qonuniyatlari, ma'lum bir makonda va davrda namoyon bo'lish xususiyatlari, uni ko'p millatli davlatimiz fuqarolarining ongi va qalbiga singdirish yo'llari hamda uslublari ni aniqlash ham tashkil etadi.

Bu jarayon, **birinchiidan**, milliy g'oyaning fan talablari asosida, muayyan andoza, tartib va qoidalarga, bilim va tajriba tizimiga shunchaki tushavmasligi bilan ham alohida ajralib turadi. Uning ana shunday xususiyatga ega bo'lishi milliy istiqlol g'oyasi kishilarning ong va tafakkuri, dunyoqarashi, maqsad va intilishlari milliy-ma'naviy merosga munosabatning jamiyat hayotida namoyon bo'lish xususiyatlari bilan bog'liq; **Ikkinchiidan**, milliy istiqlol g'oyasining shakllanishi kishilar (xalq, millat, avlodlar) amaliy faoliyatida hamda o'zaro munosabatlarida ishonch va e'tiqodga aylanishining namoyon bo'lishi «bir chiziqli». yagona tartib, me'yorlarga osonlikcha tushavmaydi. Ayni paytda, fuqarolar, turli ijtimoiy guruhlar yoki qatlamlar, millat va elatlarni o'zaro mushtarak maqsadlar, g'oyalarni birlashtirib turmas ekan, ular o'rtasida o'zaro hamjihatlik, totuvlik ham bo'lmaydi. Shuning uchun ham, milliy istiqlol g'oyasining predmeti milliy

istiqlol g'oyasining shakllanishi, keng jamoatchilikning ishonchi va e'tiqodiga aylanishi, uning madaniy negizlarini ijtimoiy hayot, mehnat faoliyatida namovon bo'lish shart-sharoitlari, omillari, qonuniyatlarining ilmiy-nazariy asoslarini o'rganishdan iboratdir.

Milliy istiqlol g'oyasi — mustaqillikni qo'lga kiritish, uni mustahkamlash va rivojlantirish, O'zbekistonning dunyo hamjamiyatida o'ziga xos nufuzga ega bo'lishi uchun imkon yaratadigan xalqni millatni jipslashtirib turadigan maqsadlar, manfaatlar majmuidir. Ilmiy adabiyotlarda «g'oya», «muskura», «ideya» va «ideologiya» tushunchalari ishlatilmoqda. Ideya va ideologiya ko'proq G'arb davlatlarida hamda rus tilidagi mabnalarda uchraydi. Ideya iborasi yunon tilidagi idea so'zidan olingan, a ideologiya so'zining o'zagi bo'lib hisoblanadi va tushuncha yoxud fikr ma'nosini anglatadi»<sup>5</sup>.

Milliy istiqlol g'oyasining ob'ekti sifatida O'zbekistonning o'ziga xos tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, milliy-madaniy rivojlanish xususiyatlarini, qadriyatlarini e'tirof etish mumkin. Shuningdek, xalqning madaniyati, milliy-madaniy merosini, odamlarning ijtimoiy munosabatlarni qaror toptirish bilan bog'liq maqsadlarini jamiyat hayotida namoyon bo'lishini taxdal etish ham muhimdir. Shuningdek, fanning ob'ekti— O'zbekiston tanlagan taraqqiyot yo'li va ijtimoiy rivojlanishning milliy-ma'naviy negizlari, umumbashariy tamoyillar tashkil etadi.

Milliy istiqlol g'oyasi ijtimoiy taraqqiyot sohasidagi dunyo xalqlari tajribasi va vutuqlarini hisobga olgan holda shakllantirilgan bo'lib, O'zbekiston milliy rivojlanishining yangi yo'nalishi modelining milliy-nazariy asosidir. Negaki, O'zbekiston xalqining o'ziga xos shunday milliy-madaniy merosi va qadriyatlari mavjudki, ular mamlakatda yashayotgan har bir fuqaro, oila, xalq va millat hayotining barcha jabhalaridan chuqur o'tirib olgan. Ular orqali shu xalq, millatning «o'zligini», «borlig'ini» boshqa xalqlar yoki millatlar o'xshashligi (umumiyligi) va farqi (ayrimligi)ni anglab olish mumkin. Shu xususiyatlar saqlab qolinsa, O'zbekiston o'ziga xos va mos taraqqiyot yo'lidan rivojlanishi mumkin. Buning uchun milliy g'oya jamiyat hayoti sohalari bilan o'zaro uyg'unlashmog'i muhim ahamiyatga ega, Ana shunday ishonch. e'tiqod, milliy g'urur, o'zligini namoyon etish va qadrlash tuyg'ulari milliy istiqlol g'oyasini xalqning ishonch va e'tiqodiga aylanganligini ko'rsatuvchi muhim mezonidir.

Demak, milliy istiqlol g'oyasining maqsad va vazifalari umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi tamoyiliga to'la-to'kis mos kelishi, demokratik erkinliklar va inson huquqlarini saqlashga doir xalqaro andozalarga hamohangligi bilan ham insoniyat tarixidagi ko'pgina milliy g'oyalardan farq qiladi.

To'g'ri, milliy qadriyatlariga tayanmasdan ham «rivojlanishga» erishish mumkin. Yoki «biz qadriyatlarga ko'proq bog'lanib qolmoqdamiz, qadriyatlarimiz esa bizni taraqqiyotimizga ayrim hollarda turtki berish o'rni, halaqat qilmoqda», deyidiganlar ham topiladi. «Bunday qarashlar qaysi jihati bilan to'g'ri kelmaydi yoki uni qabul qilish qiyin», degan savollar doimiy ravishda mavjud bo'ladi.

Taraqqiyotga erishishning turli yo'llari mavjud. Aytilganidek, «biron bir andozani» qabul qilib ham xalq yoki millat o'z taraqqiyotini unga moslashtirishi mumkin. Lekin xalq yoki millatning milliy taraqqiyot yo'li tarixiy an'analari va merosiga to'g'ri kelmasdan, boshqa xalqning tarixiy rivojlanish tajribasini afzal ko'rsa, uning o'zligi qayerda qoladi?

Milliy rivojlanishida har bir xalq tili, madaniy xususiyatlarini hisobga olmasdan, qadriyatlariga befarq, loqayd qarasa va istagan «turmush tardi», urf-odat, qadriyatlarni o'zi uchun qabul qilaversa? O'z taraqqiyot yo'lini yo'qotib qo'yadi. Bunga mustabid sovet davri tipik misoldir. Shuning uchun ham har qanday rivojlanish andozasini emas, o'ziga xos va mos rivojlanish yo'lini e'tirof etish milliy istiqlol g'oyasiga to'g'ri keladi. Shu ma'noda, milliy istiqlol g'oyasini xalqimizning yangi jamiyat qurish borasidagi harakat dasturi deyish mumkin.

Milliy istiqlol g'oyasining asosiy maqsadi fuqarolarni, keng jamoatchilikni asosiy g'oyalari, maqsad va yo'nalishlari bilan O'zbekistonning taraqqiyot yo'lining ma'no va mazmuni, milliy-madaniy negizlari, xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularda ishonch

uyg'otish, ularni adolatli, demokratik fuqarolik jamiyati qurilishi maqsadlarini amalga oshirishga uyushtirishda ma'naviy-ruxdiy rag'batlantirishda namoyon bo'ladi. Milliy istiqlol g'oyasi fuqarolarni g'oyaviy jihatdan tarbiyalaydi. G'oya bilan g'oyaning, fikr bilan fikrning, jaholatdan ma'rifatni farqini anglashga, ma'rifatga ishonch va e'tiqodni mustahkamlashga xizmat qiladi. Fuqarolarda milliy istiqlol g'oyasiga zid bo'lgan yot va begona, zararli g'oyalardan saqlanishga, unga nisbatan fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan javob berish, unga nisbatan doimo tayyor bo'laolish immunitetini shakllantiradi. Milliy istiqlol g'oyasi mamlakatning oldida turgan uyug', bunyodkorlik ishlari undan ko'zlangan asosiy maqsad insonlarning erkin va farovon hayotga erishishi, ozod va obod Vatan qurish yo'lida har bir kishi uchun harakat yo'nalishi bo'lishga qaratilgan. Milliy istiqlol g'oyasi hech qachon kishilarning ongi va dunyoqarashini boshqarishni, ularni yana allaqanday «qolipga», «yagona andozaga» solishga qaratilgan emas. U fikrlar, g'oyalar xilma-xilligiga asoslanadi. Erkin fikrni uyg'otish va fikr erkinligini kafolatlab berish, o'zgarar fikrni tinglash, eshitish va aytishga imkoniyat yaratadi. Demak, milliy istiqlol g'oyasi «hukmron g'oyaga» intilishdan mutlaqo begona bo'lganligi bilan ham boshqa nosog'lom g'oyalardan farq qiladi. Milliy istiqlol g'oyasi voqea-hodisalarni bilish, tahlil etish, ularga baho berishga imkoniyat yaratib, bir qator ilmiy, tarbiyaviy va amaliy vazifalarni ham bajaradi. «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasida qisqa va muxtasar tarzda bayon etilgan.

Ulardan eng muhimlarini quyidagidek etmoqchimiz:

- odamlarimizda mustaqil dunyoqarash va erkin fikrlashni shakllantirish;
- milliy totuvlik, hamjihatlikni istiqbolimiz yo'lidagi eng katta g'oyalardan hisoblanishi nosog'lom mahalliychilik, urug'-aymoqchilik deb ataladigan ilatlardan holi etish
- hayotga endi qadam qo'yayotgan yosh avlodning dunyoqarashiga yangicha ma'no va mazmun baxsh etish orqali unda faolhayotiy pozitsiyani, milliy g'oyaga ishonch va e'tiqodni shakllantirish;
- jamiyatimizda sog'lom ijtimoiy muhitni yaratish, kishilar ongiga Vatan taqdiri uchun mas'ullik, yagona Vatan tuyg'usini mustahkamlash;
- istibdod davri asoratlari, qullik va mutelik kayfiyatlarining ongimizda, tafakkurimizda saqlanib qolayotgani sabablarini tahlil etish, ularni bartaraf etish yo'llarini topish zarurati bilan bog'liq vazifalarni haletishdan iboratdir. Demak, yangicha fikrlaydigan, mutelik tuyg'usidan xoli bo'lgan o'zligini anglagan, avlod-ajdodlarini, madaniy merosini yaxshi bilgan ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash istiqlol mafkurasining muhim vazifasidir.

Milliy istiqlol g'oyasi muayyan tushunchalarga asoslanadi. Ular turli xil bo'lib, jamiyatda shakllangan va mavjud bo'lgan fikrlar xilma-xilligi bilan kishilarning o'zaro ijtimoiy munosabatlari asosida amaliy hatti-harakati orqali namoyon bo'ladi.

«Milliy g'oya va istiqlol mafkurasida haqida gap borar ekan, - debta'kidlaydi Yurtboshimiz, — biz nihoyatda keng qamrovli, murakkab, serqirra, insoniyat tarixida aniq va mukammal ifodasi, tugal narnunasi hali-hanuz yaratilmagan tushunchalarni o'zimizga tasavvur qilishimiz kerak, deb o'ylayman. Bu tushunchalar Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi yuksak g'oyalarning ma'no-mazmunini teran anglab yetishga xizmat qiladi»<sup>6</sup>. Binobarin, milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushunchalari nisbiylik xususiyatiga egadir.

Milliy istiqlol g'oyasini o'rganishda quyidagi tushunchalarni hisobga olish zarur:

- turli jamiyatlar, xalqlar hayoti, milliy-madaniy qadriyatlarini, maqsadlari bilan bog'liq bo'lgan turli xil ma'no-mazmunga ega umumiy tushunchalar: «g'oya», «mafкура», «g'oyaning turli xil ko'rinishlari», «bunyodkor g'oyalar» va «yovuz, tajavvuzkor g'oyalar», «milliy g'oyalar» va «umumbashariy g'oyalar»;
- jamiyatning siyosiy hayoti, turli xil jamoat birlashmalari faoliyati bilan bog'liq maqsad va intilishlarni ifoda etadigan turli-xil siyosiy mafkuralar ko'rinishlari;
- O'zbekiston xalqining hayoti bilan bog'liq bo'lgan, uni o'zida aks ettiradigan va unga xizmat qiladigan «milliy istiqlol g'oyasi», «milliy istiqlol g'oyasining ma'naviy negizlari», «milliy rivojlanish g'oyasi», «milliy istiqlol mafkurasini», «milliy istiqlol g'oyasining asosiy g'oyalari», «milliy istiqlol g'oyasining bosh g'oyasi», «milliy istiqlol

g'oyasining umumbas hary tamoyillari» va boshqa tushunchalar.

Milliy istiqlol g'oyasi bilan bog'liq tushunchalarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u, asosan, O'zbekiston xalqi ijtimoiy, hayot sohalari rivoji bilan, uning milliy-madaniy merosi, urf-odatlari, qadriyatlarini, tili, madaniyati, tarixi, falsafasi, diniy ruhiyati bilan uzviy bog'liq. Milliy istiqlol g'oyasi milliylikni, milliy rivojlanish xususiyatlarini e'tirof etadi va unga hurmat bilan qaraydi. Milliy istiqlol g'oyasi «sinfiylik», «partiyaviylik» tamoyillariga asoslanmaydi. Boshqa mamlakat xalqlarining hayotiga o'z g'oyalari ni singdirishni da'vo qilmaydi. Bu bilan u «kommunistik g'oyadan» tubdan farq qiladi. Milliy istiqlol g'oyasi O'zbekiston Respublikasi nomini olgan o'zbek xalqi, millatining milliy-madaniy merosiga tayangan holda boshqa xalqlar madaniyati, maqsad va intilishlari bilan o'zaro mushtarak tarzda mamlakat ravnaqining ma'naviy-ruhiy, falsafiy omili sifatida xizmat qiladi.

Milliy istiqlol g'oyasini o'rganishni taqozo etadigan umumiy va o'ziga xos qonuniyatlar mavjud. Umumiy qonuniyatlar turli xalqlar, mamlakatlar, jamiyatlar hayotida amal qiladigan umumiy asosga ega bo'lgan ichki zaruriy bog'lanishlar bo'lib, u jamiyat va mafkuralar (g'oyalar) ning bir-birlari bilan uzviy bog'liqligi qonunidir. Jamiyat mafkurasiz, maqsadsiz yashay olmaydi. Demak, birinchidan, mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo'lmasa, odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar. Ikkinchidan, qaerdaki g'oyaviy bo'shliq vujudga kelsa, o'sha yerda begona g'oya asosida bo'lgan mafkuralar ta'siri uchun sharoit mavjud bo'ladi. Buni isboti uchun xoh tarixdan, xoh zamonamizdan ko'plab misollar keltirish qiyin emas<sup>7</sup>. U jamiyat oldidagi maqsadlar, uni amalga oshirish vositalaridir.

Milliy istiqlol g'oyasining tushunchalari bilan bir qatorda uning namoyon bo'lish qonunlari ham mavjud. Bular:

▪ turli xalqlar, turli jamiyatlar mavjud. Ularning maqsadlari ham rivojlanish yo'llari ham turli xil. Ya'ni rivojlanishning, ijtimoiy taraqqiyotning xilmaxilligi qonuni orqali namoyon bo'ladi;

▪ dunyoning mafkuraviy manzarasi turli xil maqsadlar, turli-xil manfaatlar, qarashlar bilan bog'liq holda namoyon bo'lgan va bo'lib qolmoqda. Bu ezgu g'oyalar bilan birga yovuz g'oyalarning ham yashovchanligini, «dunyoda mafkura sohasida kurashyugag» davom etib kelayotganligining asosida yotgan o'ziga xos jihatidir.

Lekin, har bir xalqning o'ziga xos ma'naviy ruhiyati, merosi, qadriyatlarini bilan bog'liq g'oyasi ham mavjud. Uni inkor etib bo'lmaydi. Uni anglamaslik u bilan bog'liq bo'lgan tumush tarzini, madaniyatidagi xususiyatlarini, tarixini, tilini, milliy-madaniy rivojlanish qonuniyatlarini e'tirof etmaslikka olib keladi. Bu oxir-oqibatda shu xalqni yoki mamlakatning «o'zligini» tan olmaslikka sabab bo'ladigan yo'ldir.

-Globallashuv jarayonining milliy g'oyaga ta'sir etishi ham o'ziga xos umumiy qonuniyatdir. Bu jarayon turli mamlakatlar, xalqlar hayotida ularning bir-biriga bog'liqligini, o'zaro ta'sirini oshiradi, ma'naviy, g'oyaviy hayotida aks etmasdan qolmaydi.

Milliy istiqlol g'oyasi to'g'risida fikr yuritganda, uning o'zbek xalqining hayoti, tumush tarzi, tarixi, madaniyati, milliy-madaniy merosi va qadriyatlarini bilan bog'liq bo'lgan hamda milliy g'oyasida aks etadigan o'ziga xos qonuniyatlarini ham mavjud. Bu qonuniyat milliy istiqlol g'oyasining mazmuni, maqsadi va xususiyati nuqtai nazaridan karaganda alohida, ustuvor ahamiyatga ega. Chunki, bu qonuniyatni hisobga olish o'zbek xalqining millatining kelajagi bilan o'zligini saqlab qolish hamda o'z negizida rivojlanishini, dunyo da o'ziga xos o'ringa ega bo'lishni e'tirof etish bilan bog'liq. Tarixiy jihatdan yondashganda, bu sohada «turli g'oyalar», «mafkuralar» ana shu muhim qonuniyatlariga zid bo'lgan holatlarni ham kuzatilishini ko'rsatadi. O'zbek xalqini tilidan,

madaniyatidan, tarixidan ajratib qo'yishga bo'lgan urinishlar bunga misoldir. Chunki yot va begona g'oyalar xalqning turmush tarzi, milliy-madaniy qadriyatlaridan ajratib qo'yish orqali uni zaiflashtirishga va o'z irodasiga bo'ysundirishga harakat qilgan. Yot va begona g'oyalar ba'zi xalqlarning millat sifatida rivojiga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazgan. Shuning uchun ham milliy istiqlol g'oyasiga tayanish va unga amal qilish O'zbekiston xalqining o'zligini saqlab qolish va o'ziga xos va mos rivojlanish ehtiyoji sifatida namoyon bo'ladi. Demak, milliy istiqlol g'oyasining qonuniyatlari har bir xalq uchun milliy o'ziga xosligini zamon yutuqlari bilan bog'lashning nafaqat kafolati, balki rivojlanish strategiyasi hamdir.

Milliy istiqlol g'oyasining amal qilish prinsiplarining o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi jamiyatning barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning g'oyaviy jihatarini belgilash bilan bog'liq. Shu nuqtai nazardan milliy istiqlol g'oyasining prinsiplari bir-biri bilan uzviy dialektik aloqadorlikda deysish mumkin. Ular o'z navbatida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi talablariga mos kelishi bilan uzviy bog'liq.

a) Milliy istiqlol g'oyasi insonparvarlik, inson qadr-qimmatini, sha'ni va onomusini, haq-huquqlari hamda manfaatlarining ustuvorligi prinsipiga tayanadi. Unda insonning hayoti oliy qadriyatdir. Bu prinsip o'tkinchi xarakterga ega bo'lmay, balki O'zbekistonning demokratik rivojlanish istiqbolini o'zida mujassam etadi. Bunda milliy g'oyaning insonparvarlik va demokratik prinsiplari inson hamda jamiyat manfaatlarini uyg'unligini belgilab beruvchi tayanch nuqta va jipslashtiruvchi omil vazifasini o'taydi. Demak, milliy istiqlol g'oyasi ikki muhim, bir-biri bilan bog'liq negizga tayanadi. Bu bir tomondan, O'zbekiston xalqining tarixi, turmush tarzi, urf-odat, an'analari, madaniyati bilan bog'liq milliy-madaniy merosi bo'lib, bu uning asosi, bosh negizi, tayanchi hisoblanadi. Ikkinchisi, dunyo xalqlari e'tirof etib, faqat ezgulikka, bunyodkorlik ishlariga, o'zaro totuvlik va hamjihatlikka xizmat qilib kelayotgan umuminsoniy tamoyillardir. Shu ma'noda milliy istiqlol g'oyasi umumbashariy qadriyatlarni e'tirof etadi.

b) Milliy qadriyatlarga sodiqlik-milliy g'oyaning tayanch negizlaridan biridir. Bu prinsip O'zbekiston hududida istiqomat qilayotgan har bir fuqaroning o'z milliy qadriyatlarini asrab-avaylash, kelajak avlodlarga yetkazishi uchun to'la imkoniyatlar yaratilishini ifodalaydi. O'tmishdan qolgan buyuk madaniy boyliklarimiz, mumtoz qadriyatlarimiz hurmat bilan qo'llanib, ularni ijodiy jihatdan o'rganish — bu prinsipning asosiy jihati. Lekin u narsani umumqonuniyat sifatida hisobga olish kerakki, umumbashariy qadriyatlar, avvalo, milliy-ma'naviy negizda shakllanadi. Xalq, millatning ruhiyati uning milliy-madaniy merosi orqali uning hayotida, maqsad va orzularida, jamiyat qurilishida o'zining aniq ifodasini topadi. Ijtimoiy taraqqiyot natijasida u yoki bu xalqlarga xos bo'lgan milliy-ma'naviy qadriyatlarning umuminsoniy mohiyati dunyo xalqlari rivoji uchun umumbashariy qadriyat sifatida xizmat qiladi. Ular bir-birini boyitadi, ayni paytda o'zaro mushtaraklikka ega ekanligi bilan ham ajralib turadi.

Milliy istiqlol g'oyasining turli xil fikr, g'oyalarga munosabati, uning ijtimoiy-ma'naviy hayotda aks etish usullarini anglash uchun, eng avvalo, turli xildagi g'oya va mafkura tushunchalarining mazmun-mohiyatini o'rganmoq zarur. Ma'lumki, har qanday tushuncha, fikr va qarash ham milliy g'oya bo'la olmaydi. Chunki shaxsiy fikr — o'ziga xos qarashdir, ijtimoiy fikr esa — voqelikka nisbatan o'zgarish yoki harakatni taqozo etadigan faol munosabatni ifodalaydi. G'oya ana shu munosabatni harakatga, jarayonga, zarurat tug'ilganda esa, butun bir davr tarixiga aylantiradi<sup>8</sup>. Jamiyat hayotida turli xil fikr, va g'oyalarning o'zini muhim. Lekin, ma'lum bir fikr mutlaqlikka intilsa yoki yakka hukmronlik qilsa, u jamiyat rivojiga katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demokchimanki, «ikki odam aynan bir xilda fikrlamagani kabi turli xalqlar, mamlakatlar ham aynan birbiriga o'xshashi, ya'ni bir xil tarixga, madaniyatga ega bo'lishi qadriyatlarini e'zozlashi, umumiy maqsadni ko'zlab ijtimoiy, rivojlanish yo'lini andoza sifatida olishi va faqat unga tayanishi mumkin emas.



Milliy istiqloq g'oyasining o'ziga xos jihati ham shundaki, u fikrlar va g'oyalar xilma-xilligini tan oladi. Jamiyatning yakka-yagona mafkurasi sifatida biron-bir fikr, g'oyani e'tirof etmaydi. Erkinlik, xususan, fikr erkinligi va xilma-xilligi prinsiplariga amal qilish milliy istiqloq g'oyasi uchun muhim. Fikr erkinligi va g'oyalar xilma-xilligiga asoslanish taraqqiyotni ta'mirlab turuvchi, inson salohiyatini oshiruvchi noyob imkoniyatdir.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, o'z davlatchiligini qo'lga kiritish, milliy va ijtimoiy ozodlikka erishish hech qerda yengil va osonlikcha bo'lmagan. Mustaqillikka erishgan har bir mamlakat o'z taraqqiyot yo'lini izlaydi, yangi jamiyat barpo etishda o'z andozasini ishlab chiqishga intiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat, odamlar o'rtasida tarkib topgan munosabatlar, ularning dunyoqarashi, jumladan, diniy e'tiqod, ruhiyati va xulq-atvor normalari ham shuni taqozo etadi. Masalan, dunyoda ijtimoiy taraqqiyot yo'lining turli variantlari mavjud. Turkiya, Janubiy Koreya, Shvesiya modellari va boshqalar bunga misoldir. Bir qancha musulmon mamlakatlari va yangi industrial mamlakatlarning tajribasi ham shuni ko'rsatadi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng Ovrupo mamlakatlari va Yaponiya xalq xo'jaligini qayta tiklash rejasi ham buning amaliy namunasi bo'ldi.

O'zbekiston boshqa davlatlar taraqqiyoti jarayonida to'plangan va respublika sharoitiga tadbiq qilsa bo'ladigan barcha ijobiy va maqbul tajribalardan, shak-shubhasiz, samarali foydalanadi. Biron-bir modelni, hatto u ijobiy natijalar bergan taqdirda ham, ko'r-korona ko'chirib olish to'g'ri emas. Aksincha, aniq-ravshan vositalar va usullar qaysi mamlakat uchun mo'ljallangan bo'lsa, o'sha mamlakatning o'ziga xos sharoitidagina ijobiy natija beradi.

Jahon xalqlari va o'zimizning amaliyotimizdan olingan barcha ijobiy tajribani rad etmagan holda o'z ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy taraqqiyot yo'limizni tanlab olish respublikaning qat'iy pozitsiyasidir. Bu—o'tmish yillarining xatolarini, davlat tuzilishining shakl va usullariga nisbatan mavjud qarashlarni idrok etish natijasidir. Bu, tarkib topgan ijtimoiy voqelikka berilgan real bahodir. Bu—O'zbekiston xalqining ijtimoiy taraqqiyotiga, munosib turmush sharoitiga intilishidir.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, soxta inqilobiy sakrashsiz, fojiali oqibatlarisiz va kuchli ijtimoiy larzalarsiz, evolyusion yo'l bilan normal, madaniyatli taraqqiyotga intilish—tanlab olingan yo'lning asosiy mazmuni va mohiyatidir. Odamlarning ongi va turmushiga uzoq yillar mobaynida, ko'pincha zo'rovonlik yo'li bilan singdirilgan narsalarni bir zunda o'zgartirish mumkin emas. Buning uchun ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashuviga va ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'yilishga barham berish bilan jamiyatni yangilash va o'zgartirish zarurligiga odamlarning o'zini ishonirish, harakatga keltiruvchi kuchlarni va mehnatning rag'batlantiruvchi omillarini o'zgartirish mumkin.

Mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning keskinligi, ularning o'ziga xos xususiyati bu muammolarni hal etishga alohida yondashuvni taqozo etadi. Turmush sharoiti va tarzining milliy xususiyatlari, Sharq madaniyatiga mansublik ham shuni talab etadi.

O'zbekistonning chinakam mustaqilligiga erishishdan iborat o'z yo'li respublikani rivojlantirishning milliy istiqloq g'oyasiga asoslangan quyidagi asosiy o'ziga xos xususiyatlari va shart-sharoitlarini har tomonlama hisobga olishga asoslanadi.

Avvalo, u aholining milliy-tarixiy turmush va tafakkur tarzidan, xalq, an'analari va urf-odatlaridan kelib chiqadi. Chuqur ildizi o'tmishdaga an'anaviy jamoa turmush tarziga borib taqaladigan kollektivchilik asoslari O'zbekiston xalqiga tarixan xosdir. Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, ochiq ko'ngillilik, millatidan qat'i nazar odamlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish, o'zgarlar kulfatiga hamdard bo'lish va o'zaro yordam tuyg'usi kishilar o'rtasidagi munosabatlarning me'yori hisoblanadi. O'zbeklar diyoriga, o'z Vataniغا mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, bilimga, ustozlarga, ma'rifatparvarlarga nisbatan alohida hurmat-ehtirom—O'zbekiston aholisiga xos fazilatlaridir. Odamlarning turmush tarzida, ruhiyatida, ma'naviy-axloqiy

qadriyatlarini shakllantirishda, islom diniga e'tiqod qiluvchi xalqlar bilan yaqinlashish istagida ham shu omil namoyon bo'ladi.

Mazkur mintaqaning qadimiy tarixi va madaniyati, bunda yashab o'tgan Sharq mutafakkirlari va faylasuflarining jahon madaniyatini rivojlantirishga qo'shgan g'oyat katta hissalarini ham bu yerda yashayotgan odamlar turmushining barcha tomonlariga sezilarli ta'sir o'tkazgan. O'tmishdagi allomalarning bebaho merosi qanchadan-qancha avlodlarning ma'naviy-ruhiy ongini va turmush tarzini shakllantirgan edi. U hamon ta'sir ko'rsatmoqda.

*Respublikadagi o'ziga xos demografik vaziyat—g'oyat muhim xususiyatlardan biridir.* Respublikamizda aholi va mehnat resurslari yuksak sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Aholining yarmidan ko'prog'i qishloq joylarda yashaydi va asosan dehqonchilik bilan shug'ullanadi. Aholi tarkibida 60 foizdan ko'prog'ini bolalar, o'smirlar, 25 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlar tashkil etadi.

O'z ajdodlari qadimdan yashab kelgan joylarga bog'langanlik, ko'chib yurishga moyillikning yo'qligi respublika aholisiga xos xususiyatdir.

Respublikaning yana bir xususiyati—aholi *milliy tarkibining o'ziga xosligidir.* Etnik tarkibda tub aholi ustun mavqeni egallaydi. Shu bilan bir vaqtda, respublika hududida o'z madaniyati va an'anasiga ega bo'lgan yuzdan ziyod millat vakillari yashab turibdi. O'zbekistonning milliy-madaniy jihatdan g'oyat rang-barangligi milliy o'zligini anglash va ma'naviy qayta tiklanishning kuchayib borishi bilan uzviy birlikda jamiyatni yangilash, uni ochiq jamiyatga aylantirish yo'lida qudratli omil bo'lib xizmat qiladi va respublikaning jahon hamjamiyatiga o'z shilishi uchun qulay sharoitlarni vujudga keltiradi.

*Keyingi o'n yillar mobaynida ma'lum qadriyatlarga ega bo'lgan kishilarning muayyan ijtimoiy ongi shakllanganligini ham e'tiborga olmaslik mumkin emas.* Bir tomondan, bu ijtimoiy tenglikka, kafolatlangan mehnat qilish huquqiga, yalpi bepul ta'lim va tibbiy xizmatga qat'iy tarafdorlikka intilishida namoyon bo'lmoqda. Ikkinchi tomondan esa, yakkahokimlikdan iborat ma'muriy-buyruqbozlik tizimi keltirib chiqargan insonning mulkka egalikdan va xo'jayinlik tuyg'usidan begonalashtirilganligi, tayyorga ayyorlik ruhiyati yuzaga keltirilganligida ko'rinadi.

Yangilanish va ijtimoiy taraqqiyotning o'zimiz tanlagan yo'li murakkab jarayon bo'lib, respublika ijtimoiy turmushining iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy-madaniy va boshqa barcha sohalarini qamrab oladi.

Xalq davlat hokimiyatining manbaidir. Uning xohish-irodasi davlat siyosatini belgilab beradi. Bu siyosat inson va jamiyatning farovonligini, O'zbekiston fuqarolarining munosib turmushini ta'minlashga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Oliy majlis qonunchilik palatasi va senatining qo'shma majlisidagi (2005 yil 28 yanvar) ma'ruzasida: mamlakatimizni rivojlantirish strategiyasi haqida gapirganda, shuni alohida ta'kidlashni istardimki, «boshqariladigan iqtisod», «boshqariladigan demokratiya» deb atalmish modellar bizga mutlaqo to'g'ri kelmaydi.

Shu ma'noda, mustaqillikni mustahkamlash, jamiyatni demokratlashtirish va yangilash biz uchun hamisha birinchi darajali ustuvor maqsad va vazifa bo'lib qolaveradi. Faqat mana shu asosda, mana shu negazda mamlakatdagi kambag'allik va qoloqlik muammolarini hal etish mumkin va zarur. Inkor etib bo'lmaydigan ushbu haqiqat shu. muqaddas zaminimizda yashaydigan har bir insonning qon-qoniga, vujudiga singib ketishini istardim», deb ta'kidlaydi<sup>3</sup>. Darhaqiqat, Yangilangan jamiyatning siyosiy va davlat tuzilishi insonga uning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy turmush tarzini erkin tanlab olishini kafolatlab berganligi bilan xarakterlanadi.

Bu siyosiy sohada quyidagilarni bildiradi:

— xalqning turmush tajribasiga, respublika aholisining milliy va madaniy an'analariga, barcha ijtimoiy guruhlari va qatlamlarining manfaatlariga mos keladigan haqiqiy demokratiya prinsiplarini qaror toptirish. Xalq ham bevosita, ham o'z vakillari

orqali davlat hokimiyatini amalga oshirishda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lishi lozimligini:

— qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati vakolatlarini ajratish asosida milliy davlatchilikni barpo etish Jamiyatning siyosiy tizimini, davlat idoralarining tuzilmasini tubdan yaxshilash, respublika hokimiyati bilan mahalliy hokimiyatning vakolatlari va vazifalarini aniq belgilab qo'yish, adolatli va insonparvar qonunchilikni vujudga keltirish lozim bo'ladi.

Kuchli ijroiya hokimiyati bo'lmasa, hatto eng demokratik yo'l bilan habul qilingan qarorlar ham bajarilmasligi mumkin. Bu esa qonuniy qarorlarning ro'yobga chiqarilishini, fuqarolarning huquq va erkinliklari himoya qilinishini, siyosiy va iqtisodiy islohotlar turmushga tatbiq etilishini ta'minlaydigan prezideratlik hokimiyatini mustahkamlash va rivojlantirishni taqozo etadi;

— barcha fuqarolarning qonun oldida huquqiy tengligini va qonunning ustunligini, jamiyat manfaatlarini himoya qilinishi va aholining xavfsizligini kafolatlaydigan huquqiy davlatni barpo etish. Qonuniylik va huquq-tartibot tantana qilmasa, shaxsning huquqlari va erkinliklari, qattiq; intizom, ichki uyushqoqlik va mas'uliyat ustuvor bo'lmasa, qonunlar va an'analar hurmat qilinmasa, huquqiy davlatni mavjud tutib bo'lmaydi;

— O'zbekistonda tug'ilgan, uning zaminida yashayotgan va mehnat qilayotgan har bir kishi, milliy mansubligidan va e'tiqodidan qat'i nazar, Respublikamizning teng huquqli fuqarosi bo'lishga munosibdir, degan insonparvarlik va vatanparvarlik qoidasini ro'yobga chiqarish. Avlod-ajdodlari yoki o'zlari o'tmishdagi fojiali voqealar sababli yurtiga ketib qolishga majbur bo'lgan o'zbeklar ham bemaol Respublikaning fuqarosi bo'lishlari kerak. O'zbekiston hududi o'zbeklarning milliy davlatchiligi bo'lgan birdan-bir hudud ekanligini e'tiborga olib Respublika o'zbeklar qarda yashamasin, ularning hammasi uchun madaniy va ma'naviy markaz bo'lib qolishi lozim;

— ozchilikdan iborat millatlarining manfaatlarini va huquqlarini himoya qilish, ularning madaniyati, tili, milliy urf-odatlarini va an'analarini saqlanishi hamda rivojlanishini kafolatli ta'minlash. davlat tuzilmalarining faoliyatida va jamoat turmushida faol qatnashish;

— bir mafkuraning, bir dunyoqarashning yakka hokimligidan qat'iyon voz kechish, siyosiy tashkilotlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligini tan olish. Bironta ham mafkura mutlaq haqiqatni bilishga da'vo qilishi mumkin emas.

Ma'naviylik va insonparvarlik, respublika hududida yashayotgan barcha xalqlarning an'analari va urf-odatlarini, dini, tili va madaniyatini hurmat qilish me'zoidalariga ustuvorlik berilishi;

— chinakam demokratiyaning zarur va qonuniy tarkibi sifatida ko'ppartiyaaviylikni amalga shakllan tirish. Ayni vaqtda, hokimiyatni zo'raonlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'ygani, respublikaning davlat mustaqilligiga, hududiy yaxlitligi va xavfsizligiga qarshi chiqadigan, milliy va diniy adovatni avj oldiradigan, konstitutsiyaviy tuzumiga, xalqning demokratik erkinliklari va ma'naviy negizlariga tajovuz qiladigan partiyalar va jamoat harakatlari qonundan tashqari bo'lishi kerakligi.

Ijtimoiy va ma'naviy sohada:

— insonparvarlik g'oyalari sodiqlik. Bu g'oyalarning oliy maqsadi inson, uning hayoti va shaxsiy daxlsizligi, erkinligi, shon-sharafi va qadr-qimmatini, yashash joyini tanlash huquqi. O'zbekistonning kundalik hayotida inson huquqlarining Umumiy deklaratsiyasida mustahkamlangan me'yorlarni izchillik bilan, og'ishmay qaror toptirish;

— ma'naviyat va axloqiyatni qayta tiklash. Xalqlarning madaniy merosiga ehtiyoqkorlik bilan munosabatda bo'lish. Noyob tarixiy yodgorliklarni saqlash va ta'mirlash, o'zbek xalqi yaratgan va milliy boyluk bo'lgan san'at asarlarini izlab topish va O'zbekistonga qaytarish;

— qadimgi va zamonaviy madaniy boyluklarni, adabiyot va san'atni bilish hamda

ko'paytirish Xalqning milliy madaniyati va o'ziga xosligini ifoda etuvchi vosita bo'lmish o'zbek tilini rivojlantirish, bu tilning davlat maqomini izchil va to'liq ro'yobga chiqarish, Respublika hududida yashovchi xalqlarning milliy madaniyatlari va tillariga o'zaro hurmat bilan munosabatda bo'lish;

— hurfiylik, vijdon va din erkinligi qoidalarini qaror toptirish. Bir dunyoqarashning yakkahokimligi yangilangan jamiyatga yotdir. Har bir inson o'z e'tiqodiga ega bo'lish, o'zining diniy marosimlarini erkin bajo keltirish huquqiga ega. Bugungi kunda din barcha illatlardan, yolg'on va riyokorlikdan poklanishga, yuksak axloqiy negizlar va ma'naviy fazilatlarni qayta tiklashga ko'maklashmoqda. Islom - otobobolarimizning dini, musulmonlarning ongi, turish-turmushining mohiyati, hayotining o'zidir. Davlat har bir musulmon uchun muqaddas bo'lgan Makkaga haj qilishda zarur yordam beradi;

— ijtimoiy adolat qoidalarini ro'yobga chiqarish, aholining eng nochor qatlamlari — keksalar, no gironlar, yetim-yesirlar, ko'p bolali oilalar, o'quvchi-yoshlarning davlat tomonidan ijtimoiy muhofazaga bo'lgan kafolatli huquqlarini ta'minlash. Eng taraqqiy etgan mamlakatlarda insonni ijtimoiy muhofaza qilish tizimi keng qo'llaniladi, bunga nihoyatda muhim ahamiyat beriladi, bizning sharoitimizda esa bu — fuqarolar totuvligini saqlab qolish kafolatidir;

— hamma uchun ma'qul bo'ladigan sifatli tibbiy xizmatni ta'minlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, chaqaloqlar o'limini kamaytirish, odamlar umrini uzaytirish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish. Aholiga yuqori malakali tibbiy yordam olish shakllarini erkin tanlash imkoniyatlarini yaratish;

— umumiy ta'lim olish, kasbni va tegishli maxsus tayyorgarlikdan o'tishni erkin tanlashda barchaga baravar huquq berish. Yangi demokratik ta'lim konsepsiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish lozim bo'ladi. Bunda o'zbek xalqining va respublika hududida yashovchi boshqa xalqlarning milliy, tarixiy va madaniy an'analari, ma'naviy tajribasi ta'lim va tarbiya tizimimizga uzviy ravishda kiritilishi zarur;

— ijodning barcha turlarini rivojlantirish, odamlarning iste'dod va qobiliyatlarini namoyon etishlari uchun shart-sharoitlarni yaratish, ma'naviy mulkni himoya qilish. Kishilar shuni aniq va ravshan anglab yetishlari kerakki, ma'naviy potentsialni ildam rivojlantirmay turib, respublikaning chinakam mustahilligini va ravnaq topishini ta'minlab bo'lmaydi.

Fuqarolar tinchliga va millatlararo totuvlikni ta'minlash, qonuniylik va huquq-tartibotni qaror toptirish mana shunday siyosiy, va konstitutsiyaviy tuzumga erishish kalitidir.

*Oila — jamiyatning negizi.* Bizning davlatimizni katta bir oila deb tushunish mumkin. Bunda o'zaro hurmat va qattiq tartib bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko'rsatmasa, yaxshi yashash mumkin emas. Oila turmush va vijdon qonunlari asosiga quriladi, o'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab-ehiyojlari va qadriyatlari shakllanadi. O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining, qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarining, qo'shnilarining omon-essonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajadagi ma'naviy qadriyat, inson qalbining g'aharidir.

Mustaqil o'zbek davlati — xalqimizning tarixiy yutug'idir. O'z davlati bilan faxrlanish va fuqarolarning vatanparvarligi jahondagi ko'pgina mamlakatlarning ilg'or namunalarga chiqib olishida yordam bergan. *Mamlakatimiz tuprog'ida yashab turgan va o'zini vatanparvar deb hisoblagan har bir kishi uning yaxlitligi va birligini asrab-avaylashi shart.*

Har bir insonning, ayniqsa, endigina hayotga qadam qo'yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o'rtaga qo'yilgan maqsadlarga erishish o'zlariga bog'liq ekanligini, ya'ni bu narsa ularning

sobitqadam g'ayrat-shijoatiga, to'la-to'kis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga bog'liq; ekanligini anglab yetishlari kerak. Xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimiz ravnaq topishining asosiy shartidir.

Xalqi yuz yillar mobaynida ozodlikni orzu qilgan O'zbekiston chinakam mustaqillikni qo'lga kiritib, gullab-yashnashi va farovonlikka erishishi, taraqqiy etgan demokratik davlatlar qatori xalqaro hamjamiyatda munosib o'rinni egallashi — biz ko'zlayotgan oliy maqsaddir. Bunga Mustaqil O'zbekistonning Konstitutsiyasi huquqiy kafolat bo'lib xizmat qiladi.

Milliy istiqlol g'oyasini faqat shu fanni o'rganish asosidagina egallash mumkin deb qarash bir tomonlama va noto'g'ri tasavvurdir. Aksincha, milliy istiqlol g'oyasi bilan barcha fanlar, xususan, falsafa, ijtimoiy iqtisod, ijtimoiy-siyosiy fanlar uzviy bog'liq. Bu fanlarning qanday g'oyaga asoslanishi, ularni o'qitish asosida yoshlar ongi va ishonchiga, qalbiga qanday g'oyalar singdirilishi har qanday jamiyat uchun ahamiyatlidir. Ayniqsa, mustabid tuzum davrida bu fanlarni o'ta mafkuralashtirib, xalqlar, mamlakatlar va millatlar taqdiriga, uning rivojlanish yo'li, milliy-madaniy merosiga, qadriyatlariga ham «sinfiy» manfaatlar «kommunistik g'oya» talablaridan kelib chiqib yondashilganligini aniq hisobga olish kerak. Natijada, O'zbekiston xalqi hayoti, tarixi «o'zga xalqlar tarixi»ni o'rganishdan iborat bo'lib qolgandi. Milliy madaniyat, qadriyatlar o'rnida soxta baynalmilallashtirilgan, mohiyatan milliylikni e'tirof etmaydigan, milliy qadriyatlardan begona shaklan milliy, mazmunan sotsialistik bo'lgan prinsipga bo'yusundirilgan edi. Butun ta'lim va tarbiya, fan va ilmiy muassasalar, madaniy-ma'rifiy ishlar, adabiyot va san'at, ijod uchun «sotsialistik realizm» muhim mezoniga aylangan, to'g'rirog'i, aylantirilgan edi. Shunga javob berish va shunga amal qilinishi shart edi. Bu barcha ijtimoiy-gumanitar fanlarning bir xil qolipga solinishiga, yagona kommunistik g'oya va mafkuraning targ'ibotchisiga aylanishiga olib keldi. Oqibatda, ijtimoiy-siyosiy fanlar rivojlanishdan to'xtadi. Fanlarning erkin rivojlanmasligi oqibatida ularning samaradorligi keskin pasayib borganligi ma'lum.

Bugun milliy istiqlol g'oyasining boshqa fanlar bilan munosabati to'g'risida fikr yuritilganda, avvalo, uni kommunistik g'oya prinsiplaridan tub farqini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Ayni paytda, fikrlar xilma-xilligi, g'oyalar xilma xilligi prinsipiga asoslanish, xalqning milliy-madaniy merosi va qadriyatlariga tayanishi hamda umumbashariy prinsiplarni e'tirof etish qoidasi fanlarning rivoji uchun keng imkoniyat beradi. Ikkinchidan, har bir fan yo'nalishlari (sohalari) orqali milliy istiqlol g'oyasi negizlarini bilib olish mumkin. Masalan, milliy istiqlol g'oyasining tarixiy negizlarini — tarix orqali, falsafiy jihatlarini — falsafa, iqtisodiy asoslarini — iqtisod, diniy asoslarini — dinshunoslik, adabiyot va san'at bilan bog'liq tomonlarini o'rganish orqali milliy g'oya kishilarning ishonch va e'tiqodiga aylanib boradi. Boshqa fanlar ham o'z predmeti, maqsad va vazifalari bilan shu mushtarak maqsadga xizmat qilishi tabiiy.

Milliy istiqlol g'oyasini alohida fan sifatida o'rganish esa uning o'ziga xos xususiyatlarini, ishonch va e'tiqodga aylanish bilan bog'liq qonuniyatlarining mavjudligini anglatadi. Uni alohida o'rganish yuqorida qayd etilgan fanlarning bevosita vazifasiga kirmaydi. Shu ma'noda, milliy istiqlol g'oyasi bilan bog'liq bo'lgan qonuniyatlarni o'rganish, uning o'ziga xos jihatlarini bilish O'zbekiston xalqlari hayotida muhim ahamiyatga ega. U quyidagi yo'nalishlarda o'zining aniq ifodasini topadi:

— Milliy istiqlol g'oyasi O'zbekistonning har bir fuqarosini O'zbekiston xalqlari, o'zbek xalqi hayoti, ma'naviy-ruhiiy, madaniy merosi, milliy-ma'naviy qadriyatlari bilan yaqindan tanishtiradi, uning mazmun va mohiyatini anglashga undaydi. Bu g'oya ularda milliy-ma'naviy negizlariga tayangan holda rivojlanish, uni qadrlash tuyg'ularini shakllantiradi va mustahkamlaydi;

— Milliy istiqlol g'oyasi prinsiplarining har bir fuqaroning ishonch va e'tiqodiga aylanishi, kishilarning xatti-harakati va faoliyati orqali mamlakat oldida turgan maqsadlarni birgalikda amalga oshirish uchun ularni mushtarak maqsadlar

atrofida jipslashtiradi, ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat beradi;

— yot, zararli, begona g'oyalarning ta'siridan saqlaydi, mafkuraviy immunitetni oshiradi. Prezidentimiz aytganlaridek, «fikrga qarshi fikr bilan, g'oyaga qarshi g'oya bilan, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan» kurashishni talab etadi. Chunki, o'zining mustaqil fikri, g'oyasi bo'lmagan odam yot va begona, yovuz g'oyalarga qarshi kurasha olmaydi;

— Milliy istiqlol g'oyasini o'rganish orqali inson turli xil g'oyaviy ta'sirlarning maqsad va muddaolarini bir-biridan farqlay oladi. Fuqarolarda, xususan, yoshlarning tarixiy xotirasi, milliy o'zligini anglashi milliy-ma'naviy qadriyatlariga bo'lgan sog'lom muhitni shakllantiradi va uni hurmat qilish ruhida tarbiyalaydi;

— Milliy istiqlol g'oyasini o'rganish, milliy g'urur, avlodlarga munosib vorislar bo'lish, ular bilan faxrlanish va ularga o'xshab o'z Vatanning ravnaqiga munosib hissa qo'shish bilan bog'liqdir. Hozirgi zamon ilm-fan yutuqlarini egallash, fan va texnologiyalarni o'zlashtirishga da'vat etadi. Vatandarlik tuyg'ularini oshiradi. O'z xalqiga va millatiga bo'lgan sadoqatini mustahkamlaydi. Kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyatni oshiradi. O'zbekistonning ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotga ega bo'lgan mustaqil mamlakat sifatida dunyo hamjamiyatida o'ziga xos o'ringa va nufuzga ega bo'lishi uchun fidoyilik bilan mehnat qilishga xizmat qiladi.

Mamlakatda fuqarolik jamiyati qurilishida uning ahamiyati doimo oshib boradi. Chunki, dunyoda turli xil g'oyalar, turli xil maqsadlar mavjud bo'lar ekan, milliy istiqlol g'oyasi tizim sifatida amal qilishi kerak. Shunda, O'zbekiston o'zining tadrijiy rivojiga ega bo'ladi. Milliy g'oya hayot o'zgarishlari bilan bog'liq holda doimo yangi-yangi muammolarga duch kelishi mumkin. Har bir davr, zamon va makon o'zgarishlari, unga bo'lgan ishonch va e'tiqod zaruratini doimo saqlab qoladi. Faqat uni yangi sharoitda yangicha yondashuv, yangicha texnologiyalarni joriy etish asosidagina odamlar ongi va tafakkuri, ishonch va e'tiqodi bilan bog'liq ma'naviy-ruhiy olamining negizi bo'lgan milliy istiqlol g'oyasi uzluksiz ravishda mustaqillikni mustahkamlashga va rivojlantirishga shart-sharoit yaratadi.

Milliy g'oyaning asosiy tushunchalari. Milliy g'oya muayyan tushunchalarga asoslanadi. Ular turli xil bo'lib, jamiyatda shakllangan va mavjud bo'lgan fikrlar xilma-xilligi bilan kishilarning o'zaro ijtimoiy munosabatlari asosida amaliy xatti-harakati orqali namoyon bo'ladi. Milliy g'oyaning asosiy tushunchalari nisbiylik xususiyatiga ega bo'lib, uni o'rganishda quyidagi tushunchalarni hisobga olish zarur:

1. Turli jamiyatlar, xalqaro hayot, milliy-madaniy qadriyatlar, maqsadlar bilan bog'liq turli xil ma'no-mazmunga ega bo'lgan umumiy tushunchalar: «g'oya», «mafkura», «g'oyaning turli xil ko'rinishlari», «bunyodkorlik g'oyalari» va «yovuz, tajovvuzkor g'oyalar», «Milliy g'oyalar» hamda umumbashariy g'oyalar» va h.k.

2. Jamiyatning siyosiy hayoti, turli xil jamoat birlashmalari faoliyati bilan bog'liq maqsad va intilishlarni ifoda etadigan turli xil siyosiy mafkuralar ko'rinishlardagi tushunchalar.

3. O'zbekiston xalqining hayoti bilan bog'liq bo'lgan, uni o'zida aks ettiradigan va unga xizmat qiladigan «milliy g'oya», «milliy g'oyaning ma'naviy negizlari», «milliy rivojlanish g'oyasi», «milliy mafkura», «milliy g'oyaning asosiy g'oyalari», «milliy g'oyaning bosh g'oyasi», «milliy g'oyaning unumbashariy tamoyillari» va boshqa tushunchalar mavjud.

Milliy g'oyasi bilan bog'liq tushunchalarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u, asosan, O'zbekiston xalqi ijtimoiy, hayot sohalarini rivoji bilan, uning milliy-madaniy merosi, urf-odatlarini, qadriyatlarini, tili, madaniyatini, tarixi, falsafasi, diniy ruhiyati bilan uzviy bog'liq. Milliy istiqlol g'oyasi milliylikni, milliy rivojlanish xususiyatlarini e'tirof etadi va unga hurmat bilan qaraydi.

Milliy g'oyasi «sinfiylik», «partiyaviylik», «inqilobiylik» tamoyillariga asoslanmaydi. U «kommunistik g'oya»dan tubdan farq qiladi.

Foya tushunchasi: G'oya – inson tafakkuri mahsuli bo'lib, muayyan maqsadni amalga oshirish uchun narsa va hodisalar to'g'risida ilgari surilgan izchil fikrlar shakli. Foya – inson

tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy harakterga ega bo'lgan, ruhiyatga kuchli ta'sir o'tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga chorlaydigan, maqsad-muddao sari yetaklaydigan kuchli, teran fikr. Inson ongining mahsuli sifatida g'oyalari tushuncha va fikrlar yordamida ifoda etiladi. G'oya - bu yoki bu ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotdagi voqea-hodisalarni yoq'illab-quvvatlaydi, himoya qiladi yoki rad etib unga qarshi kurashishga da'vat qiladi. Foya - inson tafakkuri mahsuli, milliy g'oya esa millat tafakkurining mahsulidir. Foya - ob'ektiv voqelik hodisalarining inson tafakkurida aks etishidir. Foyalar dunyoni o'rganishga va amaliy o'zgaruviga xizmat qiladi.

Har qanday tushuncha, fikr va qarash ham milliy g'oya bo'la olmaydi. Chunki shaxsiy fikr o'ziga xos bir qarashdir, ijtimoiy fikr esa - voqelikka nisbatan o'zgarish yoki harakatni taqozo etadigan faol munosabatni ifodalaydi. Foya ana shu munosabatni harakatga, jarayonga, zarurat tug'ilganda esa, butun bir davr tarixiga aylantiradi.

Muayyan bir g'oya dastlab biron-bir shaxsning ongida paydo bo'ladi. Ayni paytda u yuksak ijtimoiy mazmunga ega bo'lgani, jamiyatning taraqqiyot yo'lidagi ezgu intilishlarini aks ettirgani bois umuminsoniy haqiqatga aylanadi. Masalan, o'rta asrlarda jaholat va inkvizitsiya shaxsning orzu-intilishlari, erkinligi va tashabbuskorligi yo'lida to'siq bo'lib turgan paytda polyak olimi Nikolo Kopernik Yerning Quyosh atrofida aylanishiga doir geliotsentrizm nazariyasini olg'a surdi. Bu g'oya ham, avvalo, bir jasoratli shaxs qabidagi intilishlar ifodasi sifatida paydo bo'lgan, keyin xalq esa butun dunyoda e'tirof etilib, ilmiy tafakkurning tarkibiy qismiga aylangan.

Foya - mafkura - ijtimoiy ong formalaridan biri bo'lib, u har qanday jamiyatning ustqurmasida o'z ifodasini topadi. Foya - mafkura falsafiy tushuncha bo'lib, ma'lum maqsadga qaratilgan inson aql-zakovatini ifoda etuvchi g'oyalari va qarashlar yig'indisidir. Ammo, har qanday fikr va qarash ham g'oya bo'la olmaydi. Foya inson ongida paydo bo'lsada inson va jamiyat ruhiyatiga singib boradi. U odamning ichki dunyosiga kirib borib, uni harakatga keltiruvchi, yetaklovchi kuchga aylanadi.

Mafkura muayyan ijtimoiy guruh, ijtimoiy qatlam, millat, davlat, xalq va jamiyatning ehtiyojlari, maqsad-muammolari, manfaatlari, orzu intilishlari hamda ularni amalga oshirish tamoyillarini o'zida mujassam etadigan g'oyalari tizimidir.

Inson hayotida ham, jamiyat taraqqiyotida ham g'oyalari muhim o'rin tutadi. Shu ma'noda, insoniyat tarixi - g'oyalari tarixidir.

Xo'sh, g'oya nima, nega unga bu qadar katta e'tibor va ahamiyat beriladi? Ma'lumki, har qanday millat va xalq, har qanday ijtimoiy tuzum va davlat muayyan bir tamoyillar va qadriyatlar asosida hayot kechiradi hamda o'z manfaatlari, maqsad-muddoalari, orzu-intilishlarini ko'zlab harakat qiladi. Binobarin, ular hayotdagi ma'lum bir mafkuraga tayanadi.

Umuman, g'oya - bu tadqiqot maqsadini, uning yo'nalishi va mohiyatini ifodalaydigan ilmiy bilish shaklidir. Foya o'z tabiatiga ko'ra biror fikrdi, u tadqiqotchi miyasida uning amaliy va nazariy faoliyati asosida paydo bo'lib, borliqning to'g'ri yoki xato in'ikosidir.

Ilmiy bilishda g'oya muhim rol o'ynaydi. Foyalar tabiatiga ko'ra: a) ilmiy g'oyalari; b) badiiy g'oyalarga bo'linadi. Foyalar harakteriga ko'ra: a) borliqning to'g'ri, real in'ikosidan iborat g'oyalari, b) borliqning xato yoki fantastik in'ikosidan iborat g'oyalari. Shuningdek, g'oyalari: a) progressiv va b) reaksiyon g'oyalarga ham bo'linadi. Progressiv g'oyalari ilmiy bilishni rivojlantirishga xizmat qilsa, reaksiyon g'oyalari unga to'siqlik qiladi.

Xo'sh, mafkura nima, u qanday g'oyalari asosida shakllanadi va qay tarzda jamiyatni harakatga keltiradi? Nega ayrim mafkuralari ba'zi millatlarning, yuksalishiga sabab bo'lsa, ayrimlari butun-butun xalqlarni inqiroz va tanazzulga duchor etadi? «Milliy istiqlol g'oyasi» bo'yicha mafkura ma'ruzalarni aynan shu va shu kabi masalalar talqiniga bag'ishlangan.

Ma'lumki, inson o'zining aql-zakovati, iymon-e'tiqodi va ijodiy mehnati bilan boshqa barcha tirik jonzorlardan farq qiladi.

Inson - ongli mavjudot. Ongni shartli ravishda ikki katta qismga bo'lish mumkin: birinchisi, insonning ruhiy olami: ikkinchisi - fikriy olami, ya'ni tafakkur olamidir. Ruhiy olami (bu sohani ruhshunoslik ilmi - psixologiya tadqiq etadi) o'z tarkibiga sezgilar, idrok, tasavvur,

kechinma his-hayajon, diqqat, xotira va boshqalarni qamrab oladi. Tafakkurning mantiqiy shakllariga tushuncha, hukm va xulosa kiradi (bularni logika, ya'ni mantiq fani o'rganadi).

Falsafaning oltin qoidalaridan biri - til va tafakkur birligidir. Tilning eng birlamchi mahsulini so'z bo'lgani kabi, tafakkurning dastlabki shakli - tushunchadir. Tushunchalar bir yoki bir nechta so'zlar bilan ifodalanadi; ammo har qanday so'z ham tushuncha bo'la olmaydi. So'zlar vositasida anglatilgan fikr gap deb atalishini biz boshlang'ich sinflardan bil-ganmiz.

Inson tafakkuri voqelikni idrok etish mobaynida turli fikrlar, qarashlar, g'oyalar va ta'limotlar yaratadi. Binobarin, g'oyalar ham inson tafakkurining mahsulidir. Lekin tafakkur yaratgan har qanday fikr yoki qarash, mulohaza yoki nuqtai nazar g'oya bo'la olmaydi. Faqat eng kuchli, ta'sirchan, zalvorli fikrlargina g'oya bo'la olishi mumkin.

Foyalarning oddiy fikrlardan farqi yana shundaki, bular garchi tafakkurda paydo bo'lsa-da, inson (va jamiyat) ruhiyatiga, hatto tub qatlamlariga ham singib boradi. Foya shunday quvvatga egaki, u odamning ichki dunyosigacha kirib borib, uni harakatga keltiruvchi, maqsad sari yetaklovchi ruhiy-aqliy kuchga aylanadi.

Jahon tajribasiga nazar tashlasak, butun dunyo taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatgan nazariya, ta'limot va mafkuralarni yaratish uchun insoniyat tarixining turli davrlarida ulkan aql-zakovat, iste'dod va teran tafakkur egalari mislsiz zahmat chekkanini ko'ramiz. Sokrat va Platon, Konfutsiy va Najmiddin Kubro, Alisher Navoiy va Maxatma Gandi kabi buyuk mutafakkirlar faoliyati buning yaqqol tasdig'idir.

Foya mohiyatni ijtimoiy harakterga ega. Muayyan g'oyalar odatda alohida olingan shaxs ongida shakllanadi, kevinchalik esa jamiyatning turli qatlamlariga tarqaladi, turli elatlar va millatlar orasida yoyiladi. Mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan yangi avlod jamiyatda mavjud g'oyalar ta'siri da tarbiyalanadi, muayyan qarashlar va g'oyalarni o'z e'tiqodiga singdiradi, o'z navbatida yangi g'oyalarni yaratadi va targ'ib etadi.

Har bir narsaning o'z ibtidosi va intihosi bo'ladi. Foyalar ham o'z «umri»ga ega. Ular ham ma'lum makonda va zamonda paydo bo'lishi, jamiyat rivojiga muayyan hissa qo'shishi, kishilarning ongi va qalbidan joy olishi, o'z umrini yashab, joziba kuchi va quvvatini yo'qotgach, tarixiy xotiraga aylanishi ham mumkin. Foyaga ta'rif berish uchun uning mohiyatini namoyon etadigan asosiy xususiyatlarini sanab o'tish lozim bo'ladi. Foyaning eng muhim xususiyati - insonni va jamiyatni maqsad sari yetaklaydigan, ularni harakatga keltiradigan, safarbar etadigan kuch ekanidadir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, g'oya deb, inson tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy harakterga ega bo'lgan, ruhiyatga kuchli ta'sir o'tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga keltiradigan, ularni maqsad-muddao sari yetaklaydigan ulug'vor fikrga aytiladi.

Foyalarning turlari. Tafakkurning mahsulini sifatida g'oya tevarak olarni o'rganish, bilish jarayonida vujudga keladi. Ijtimoiy ongning barcha shakllari - ilm-fan, din, falsafa, san'at va badiiy adabiyot, axloq, siyosat va huquq - muayyan bir g'oyalarni yaratadi, ularga tayanadi va ularni rivojlantiradi. Ma'lum ma'noda aytish mumkinki, har bir ong sohasining o'z g'oyalari mavjud bo'ladi.

Mazmuni-mohiyatiga ko'ra namoyon bo'lish shakliga qarab, g'oyalarning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy-siyosiy g'oyalar;
- siyosiy g'oyalar.
- ilmiy g'oyalar;
- bunyodkor g'oyalar;
- buzg'unchi g'oyalar;
- diniy g'oyalar;
- falsafiy g'oyalar;
- badiiy g'oyalar;
- milliy g'oyalar;
- umuminsoniy g'oyalar va hokazo.



Ijtimoiy-siyosiy g'oyalar har bir xalq va umuman bashariyatning orzu-umidlari, maqsad-muddolarini ifodalaydi, erkin hayot va adolatli tuzumni tarannum etadi. Ozodlik va mustaqillik, adolat va haqiqat, tinchliksevarlik va insonparvarlik g'oyalari shular jumlasidandir. Asrlar mobaynida bunday buyuk o'lmas g'oyalar xalqlarga kuch-quvvat va ilhom bag'ishlab, ularni o'z erki uchun kurashga safarbar etib kelgan.

**Ilmiy g'oyalar** - fan taraqqiyotining samarasi, ilmiy kashfiyotlarning natijasi sifatida paydo bo'ladigan, turli fan sohalarining asosiy tamoyillari (prinsiplari), ustuvor qoidalari (postulatlarini) tashkil qiladigan ilmiy fikrlardir. **Ilmiy g'oyalar** - ilm-fan sohasida biron bir sensatsion yangilikni ilgari surish orqali uni hayotga tatbiq etish yo'lidagi urinishlar.

Foyalarning «hayoti» ularning paydo bo'lishi, rivojlanishi, boshqa g'oyalar bilan o'zaro munosabati, kurashi va nihoyat, eskirgan g'oyalarning yangilari bilan almashinishi, ayniqsa, ilmiy g'oyalar misolida yaqqol namoyon bo'ladi.

Qadimgi yunon faylasuflari tabiiy jismlarning eng kichik, bo'linmaydigan zarasi, deb «atom» tushunchasini kiritgan edilar. Ptolemey-Aristoteldan tortib, o'rta asr Ulug'bek astronomiyasigacha dunyoning markazi Yer deb hisoblab kelganlar; Yevklid geometriyasi, Nyuton mexanikasi, Darvin ta'limoti ham o'z davrining eng ilg'or ilmiy g'oyalariga asoslangan edi.

Ilm-fan taraqqiyoti atomning bo'linishini, koinot markazi Yer emasligini ham ishonchli dalillar bilan isbotladi, kvant mexanikasi, irsiyat nazariyasi va boshqa ko'plab kashfiyotlar qildi.

Dunyoga A.Eynshteyn, N.Bor, F.Rezerford, M.S.Kyuri va boshqalarning nomlarini mashhur qilgan yadro fizikasi sohasidagi kashfiyotlar ham ilmiy g'oyalar asosiga qurilgan. XX asrda insoniyat nihoyatda ko'p ilmiy g'oyalarni amaliyotga aylantirdi. Kosmik raketalar, kompyuter va uyali telefonlar, televidenie va boshqa sohalardagi yutuqlar bunga yorqin misol bo'ladi.

Fan taraqqiyoti uzluksiz va cheksizdir. Bu jarayonda amaliyot tasdiqlanmagan, eskirgan qarashlar yangi ilmiy g'oyalar bilan o'rin almashaveradi.

**Buzg'unchilik g'oyalari** esa xalqlar boshiga so'ngsiz kulfatlar keltiradi. Bunga Olis va yaqin tarixdan ko'plab misollar keltirish mumkin. O'rta asrlardagi salib yurishlari, diniy fanatizm va ateizm, fashizm va bolshevizmga asos bo'lgan g'ayriinsoniy g'oyalar shular jumlasidandir.

Yovuz g'oya va mafkuralarning eng ko'p tarqalgan shakli: aqidaparastlikdir. Bunday mafkuralar muayyan davrlarda Farbdada ham, Sharqda ham hukmronlik qilgan. Bu ijtimoiy illat insoniyat XXI asrga qadam qo'ygan hozirgi davrda ham dunyodagi tinchlik va taraqqiyotga tahdid solmoqda.

Aqidaparastlik, qanday shaklda bo'lmasin, hamma zamonlarda ham jamiyat uchun birdek xatarlidir.

O'rta asrlarda Farbdagi aqidaparastlik mafkurasiga bo'lgan inkvizitsiya cherkovning mutlaq hukmronligini o'rnatib, hur fikr rivojiga, jamiyat taraqqiyotiga to'siq bo'ldi. Galiley va Kopernik kabi yuzlab buyuk aql-zakovat sohiblari ana shunday aqidaparastlik ta'qibiga uchraganlar, Jordano Bruno ilmiy qarashlari uchun jaholat qurboni bo'lgan.

Sharqda esa Imom Buxoriy, Ibn Sino singari buyuk allomalar ham turli tazyiqlarga duchor bo'lganlar. Mansur Xalloy, Nasimiy, Boborahim Mashrab singari hur fikrli zotlar esa qatl etilgan.

Toki dunyoda taraqqiyotga intilish, bunyodkorlik hissi bor ekan, jamiyatda ilg'or g'oyalar tug'ilaveradi. Buzg'unchilik g'oyalari nimga vujudga kelishiga esa vayronkor intilishlar sabab bo'ladi. Shunday ekan, ya'ni doimo hushyor va ogoh bo'lib yashamoq hayotning asosiy zarurati bo'lib qolaveradi.

Demak, falsafada ilmiy bilishning asosiy shakllariga:

- ilmiy g'oya;
- muammo;
- gipoteza;

- nazariya;
- ilmiy oldindan ko'rishlar tashkil qiladi;

**Diniy g'oyalar** deb, har bir diniy ta'limot va oqimning asosini, diniy iymon-e'tiqodning negizini tashkil etuvchi aqidalarga aytiladi. Diniy g'oya va mafkuralar - insoniyat tafakkurining oddiylikdan murakkablikka qarab intilishida dunyoni, dunyo ichra o'zlikni anglashga qaratilgan diniy (ya'ni iymon-e'tiqodga asoslangan) qarashlar tizimi.

Ibtidoiy dinlar har bir narsaning jonli ekani, jonning abadiyligi, but va sanamlarning, tabiiy jism va hodisalarning ilohiy quvvatga egaligi to'g'risidagi qarashlarga asoslangan edi. Masalan, hindlarning diniy tasavvuf ariga ko'ra, jon ko'chib yuradi, bu hayotda u insonda bo'lsa, keyingi hayotda boshqa jonzotga o'tishi mumkin.

Ilohiy zotlar haqidagi fikrga tayanadigan politeizm dinlari vaqti kelib monoteistik - yakkaxudolik g'oyasi asosidagi dinlarga o'z o'rni bo'shatib bergan.

Yakkaxudolik g'oyasi milliy dinlarda (masalan, iudaizm)da, ayniqsa jahon dinlari - xristianlik va islomda o'z ifodasini yaqqol topgan. Xususan, islom dinida Allohning yagonaligi g'oyasi asosida uning barcha aqidalari, ruknlari, talab va majburiyatlari shakllangan.

**Falsafiy g'oyalar** har bir falsafiy ta'limotning asosini tashkil etadigan, olam va odam to'g'risidagi eng umumiy tushuncha va qarashlardir. Ular bizni o'rab turgan dunyoni bilish jarayonida, kishilik jamiyatining taraqqiyoti mobaynida to'plangan bilimlarni umumlashtirish, inson hayotining ma'no-mazmuni, uning baxt-saodati kabi masalalar ustida muhohaza yuritish asosida shakllanadi.

Insoniyat tarixida turli xalqlarning aql-zakovat sohiblari, dono faylasuf va ilohiyotchilari turfa xil g'oyalar yaratganlar. (Siz bular bilan falsafa tarixini o'rganish paytida batafsil tanishgansiz). Ammo falsafiy g'oyalar haqida gap ketganda, jahon falsafiy fikri rivojiga beqiyos hissa qo'shgan o'zbek mutafakkirlari yaratgan merosni yodga olmaslik mumkin emas.

Forobiyning fozil shahar to'g'risidagi, tasavvuf daholarining komil inson haqidagi, Ibn Sinoning tana va ruh munosabatiga oid, Alisher Navoiyning adolat va insoniylik borasidagi teran fikrlari falsafiy g'oyalarning yorqin namunasi.

**Badiiy g'oyalar** - adabiyot va san'at asarining asosiy ma'no-mazmunini tashkil etadigan, undan ko'zlangan maqsadga xizmat qiladigan yetakchi fikrlardir. Ular hayotdan olinadi, badiiy talqinlar asosida bayon etiladi, o'quvchida muayyan taassurot uyg'otadi. Abadiy qahramonlarni sevish, ularga ergashish hollari ham ana shu asosda ro'y beradi.

Badiiy ta'sir vositalari juda katta kuchga ega. Inson va jamiyat ongini o'zgartirishda, shaxs ruhiyatiga ta'sir o'tkazishda, odamlarni harakat va junbushga keltirishda badiiy adabiyot va san'atning ahamiyati beqiyosdir. Milliy istiqlol g'oyasini targ'ib etish, xalqning ongi va qalbiga singdirishda ham bular muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Milliy g'oya xalqning tub manfaatlarini ifoda etadigan, uni o'z oldiga qo'ygan maqsadlari sari birlashtiradigan va safarbar etadigan g'oyadir.

Milliy g'oya - u yoki bu millat, xalq, elatning milliy an'alarini, turmush tarzini va tanlab olgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy tizimni va umuman milliy manfaatlarni himoya qiladigan, qo'llab-quvvatlaydigan, ularni mustahkamlash uchun ko'maklashadigan qarashlar majmuidan iborat. O'z tarixi va taraqqiyotining tub burilish davrlarida har qanday millat va xalq kelajagini belgilaydi, unga yetishning o'ziga mos yo'llarini taylaydi. Ana shu jarayonga xos ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy yo'nalishlar bilan barcha g'oyaviy tamoyillarini ham belgilab oladi. Bunda butun millat uchun umumiy bo'lgan g'oyalar nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasida O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov tomonidan nazariy jihatdan asoslab berilgan «Vatan ravnaqi», «Yurt tinchligi», «Xalq farovonligi», «Komil inson», «Ijtimoiy hamkorlik», «Millatlararo hamjihatlik», «Diniy bag'rikenglik» kabi g'oyalar ana shunday umummilliy g'oyalar qatoriga kiradi.

**O'zbek milliy g'oyasi** - o'zbek xalqi milliy mafkurasining g'oyalari umuminsoniy qadriyatlarga tayanadi. Bu g'oyalar yer yuzidagi barcha tinchliksevar, ezgulikka intiluvchi xalqlar va millatlar, davlatlar qabul qiladilar.

Tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyoda 2 kuch: 1) bunyodkorlik va 2) buzg'unchilik g'oyalari hamisha o'zaro kurashadi. **Bunyodkorlik** g'oya insonni ulug'laydi, uning ruhiga qanot bag'ishlaydi. Sohibqiron Amir Temurning parokanda yurtini, mamlakatni obod qilish borasidagi ibratli faoliyatiga ana shunday ezu g'oyalar asos bo'lgan.

**Ozodlik g'oyasi** - mazlumlarni o'z erki uchun kurashga chorlaydigan, qullik va qaramlikning har qanday ko'rinishini inkor etadigan g'oyadir.

**Mustaqillik g'oyasi** - eng ulug' va ezu g'oya. Har bir xalq istiqloq tufayli o'ziga yot va begona tuzumdan, ijtimoiy tazyiqlardan xalos bo'ladi, o'z salohiyatini to'la-to'kis ishga solish, o'zi istagan va o'zi tanlagan yo'ldan borish imkoniyatini qo'lga kiritadi.

**Adolat va haqqoniyat g'oyalari** - insonning tabiati va ijtimoiy tuzumning mohiyatini belgilaydigan, qudratli kuchga ega bo'lgan g'oyalardir. Odamlar asrlar mobaynida odil jamiyatni orzu qilib, haqiqat tantanasi uchun kurashib kelgan. Adolat buzilgan yerda umidsizlik va tushkunlik hukm suradi. Adolat tantana qilingan jamiyat yuksaklikka ko'tariladi.

Har bir tarixiy davrda uning ruhini aks ettiradigan, xalqning qadriyatlarini va orzu-istaklariga mos keladigan g'oyalarni kishilarning ongi va qalbidan joy olgan. Ta'kidlash joizki, bashariyatning ziddiyatli tarixi mobaynida hayotbaxsh g'oyalar bilan bir qatorda, soxta va tuban niyatlar, tajovuzkor va g'arazli fikrlar ham ko'p bo'lgan. Binobarin, xalqlar va davlatlar taqdiriga ta'siri, o'zining sifatlariga ko'ra g'oyalar yuksak yotuban, bunyodkor yoki vayronkor, buzg'unchi yoxud ekstremistik, tajovuzkor bo'lishi ham mumkin.

Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, millat taraqqiyotiga, uning yuksalishiga xizmat qiladigan, xalqlarni jipslashtirib, oliy maqsadlarga safarbar etadigan g'oyalar yuksak g'oyalardir<sup>1</sup>. Odamlar orasiga nifoq, xalqlar o'rtasiga nizo soladigan, kishilarni turli tarafdarga ajratib, adovat qo'zg'aydigan tuban fikrlar buzg'unchi g'oyalarga misol bo'ladi. Aslida bunday qabih niyat va soxta shiorlarni g'oya deb atash ham shartlidir. Qaysi ijtimoiy birlik yoki qatlam orasida tarqalgani, qanday aholi guruhlari yoki elat-millatlarni harakatga keltirayotganiga qarab ham g'oyalarni turlarga ajratish mumkin.

Sohiblari, ya'ni g'oyani moddiylashtiruvchi, amaliyotga aylantiruvchi kuch kim ekaniga qarab, sinfiy g'oya, milliy g'oya, umumxalq g'oyasi, umuminsoniy g'oyalar ham mavjud bo'lishi mumkin. Albatta, muayyan bir xalq ommasini ma'lum bir tarixiy sharoitda harakatga undayotgan g'oya mazmunan umuminsoniy bo'lishi ham yoki tor manfaatlarini ko'zlaydigan sinfiy g'oya jamiyat va inson manfaatlariga zid bo'lishi ham mumkin.

Har bir avlod, har bir xalq, har bir davlatning o'z rivojlanish xususiyatini aks ettiradigan milliy g'oyalari bo'lgan.

**Ilmiy g'oya** ilmiy bilishning birinchi shaklidir.

**Mafkura tushunchasi**: jamiyat mafkurasiz bo'lmaydi. Chunki har bir davlat mustaqil taraqqiyot va rivojlanish yo'lini tanlab olar ekan, o'z taraqqiyot dasturi, qarashi, amalga oshirish tamoyillari, konsepsiyasiga ega bo'lmasdan o'z istiqbolini aniq ko'ra olmaydi.

Har qanday nazariya yoki talimnot bir tizimga solingan g'oyalar majmuidan iborat bo'ladi. Dunyoqarashning negizini va muayyan ishonch-e'tiqodning asosini ham g'oya tashkil etadi. Odamlar, ijtimoiy sinf va qatlamlarning, millat va davlatlarning manfaatlarini va maqsadlarini ham g'oyalarda ifoda etiladi.

O'z oldiga qo'ygan maqsadi, qanday jamiyat qurmoqchi ekan, bunga qanday yo'llar va vositalar bilan erishmoqchi bo'layotgani haqidagi g'oyalar tizimi har bir millat, xalq va jamiyatning milliy mafkurasining asosini tashkil etadi.

**Mafkura** (arab. - fikrlar majmui, nuqai nazarlar, e'tiqodlar tizimi) - muayyan ijtimoiy guruh yo qatlarning, millat, jamiyat yoki davlatning manfaatlarini, orzu-istak, maqsad va intilishlarini, ijtimoiy-ma'naviy tamoyillarini ifoda etadigan g'oyaviy-nazariy qarashlar hamda ularni amalga oshirish usul va vositalari tizimidir. Unda manfaatlarini ifodalayotgan kuch va qatlamlarning o'tmishi, bugungi kuni va istiqboli o'z ifodasini topadi.

<sup>1</sup> Karimov I. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. -T.: «O'zbekiston», 1999, 308-bet.

**Mafkura** (arab. «mafkura» – fikrlar, nuqtai nazarlar va e'tiqodlar tizimi. majmui) – jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g'oyalarni majmui.

**Mafkura** keng ma'noda: ijtimoiy borliqning jamiyat hayotining ma'naviy-siyosiy in'ikosidir, uning inson ongida aks etishi, inson tomonidan anglanib, butun tizim holiga keltirilishi va bu tizimning Amaliy faoliyatda nazariy asos hamda ruhiy tayanch bo'lib xizmat qilishidir.

**Mafkura** – bu istiqbolga erishilgandan kevin shakllangan va taraqqiy etayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotini va olib borilayotgan ham ichki ham tashqi siyosatni himoya qilib qo'llab-quvvatlaydigan qarashlar, nazariyalar majmuidir.

Turli ijtimoiy tuzumlar, jamiyatdagi har xil tabaqa va qatlam-larning mafkurasini turlicha bo'lishi tabiiy. Buning asosida manfaatlarining turlichaligi, ularni qondirish imkoniyatlari va uslublarining har xilligi yotadi. Sinfliy qutblashuv kuchaygan, sinfliy kurash avj olgan (yoki sun'iy ravishda keskinlashtirilgan) tuzumlarda mafkura o'ta siyosiy lashadi, aholini o'zaro qarama-qarshi qilib qo'yadi.

Ijtimoiy hamkorlikka asoslangan, erkin demokratik jamiyat barpo etishni ko'zlagan davlatlarda milliy mafkura aholining barcha qatlamlarini jipslashtirishga, umummanfaat va yagona maqsad yo'lida birlashishga chorlaydi. Bunday mafkuralarda ziddiyatli jihatlar emas, umuminsoniy tamoyillar kuchayib boradi.

O'zbekiston xalqining milliy istiqbol mafkurasini aynan jamiyatni jipslashtirishga, buyuk kelajak yo'lida yakdil harakat qilishga, barpo etilayotgan erkin fuqarolik jamiyatida har bir yurtidoshimizning o'ziga xos o'rni bo'lishiga erishishga safarbar etadi.

Prezidentimiz Islom Karimov mafkuraga shunday ta'rif bergan: «Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rnini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kuni o'rtasida o'ziga xos ko'priki bo'lishga qodir g'oyani men jamiyat mafkurasini deb bilaman»<sup>1</sup>. Binobarin, milliy mafkura har qanday xalqni xalq, millatni millat qiladigan, uning yo'li va maqsadlarini aniq-ravshan charog'on etadigan mayoqdir.

Insoniyat tarixi mobaynida turli shakldagi juda ko'plab mafkuralar yaratilgan, bahisob ijtimoiy-siyosiy kuchlar o'z g'oyalari va ta'limotlari bilan ruyardonga chiqqan, maqsad va niyatlariga yetishmoq uchun harakat qilgan. Biz har qanday mafkurani g'oyalarni tizimi sifatida talqin qilar ekanmiz, shuni unutmaslik kerakki, biror bir mafkuraning mohiyatini anglab yetish uchun faqat uning tarkibidagi g'oyalarni tahlil qilishning o'zi yetarli emas. O'tmishda turli kuchlar va guruhlar o'z g'arazli niyatlariga erishish, asl maqsadlarini yashirish uchun yuksak va jozibali g'oyalardan foydalangan. Eng yovuz bosqinchi va eng razil guruhlar ham o'z kirdikorlarini ezgu g'oyalarni bilan niqoblashga uringan.

Demak, mafkuraning mohiyati faqat uning asosiy g'oyalari vositasida emas, shu g'oyalarga erishish usullari va vositalari, umumetirof etilgan tamoyillari, ularning aksariyat omma manfaatlariga mosligi orqali ham namoyon bo'ladi. O'zining mudhish talab-ehiyojlari va yovuz niyatlarini boshqa xalqlar hisobiga qondirishni ko'zlab harakat etuvchi mafkuralar halokatga mahkumdur.

Mafkuralar, ma'no-mohiyatiga ko'ra, falsafiy, dunyoviy, diniy va boshqa turli ta'limotlar asosida yaratiladi. Xilma-xil ijtimoiy-siyosiy kuchlar o'z mafkuralarini yaratishda siyosiy g'oyalarni bilan birga, diniy oqimlar va ilm-fan yutuqlariga tayanadi, ulardan nazariy asos sifatida foydalanadi.

Mafkuraning falsafiy ildizlari haqida fikr yuritganda, uning falsafa ilmi xulosalariga aslanishi nazarda tutiladi. Bunga Farbdagi Uyg'onish davrini hamda o'rta asrlarda o'z milliy davlatchiligini tiklay boshlagan Yevropa xalqlarining har biri o'ziga xos mafkurasini yaratganini

<sup>1</sup> Karimov I. Jamiyatimiz mafkurasini xalqni - xalq, millatni millat qilishga xizmat qilsin. T.7. -T.: «O'zbekiston», 1999. 89-bet.

misol kelirish mumkin. Mazkur mafkuralar Rim imperiyasi parchalanganidan keyin o'z davlatchiligiga ega bo'lgan xalqlarning o'ziga xos qadriyatlari va mentaliteti zaminida vujudga kelgan milliy falsafalari asosida shakllandi. Shu bois o'sha davrdagi italyan, ingliz, fransuz falsafasi o'zi mansub bo'lgan jamiyatni birlashtirishga xizmat qildi. Shu bilan birga, bu milliy maktablar zaminida vujudga kelgan falsafiy ta'limotlar, ma'rifiy qarashlar insoniyat madaniyati xazinasiga salmoqli hissa bo'lib qo'shildi. Kant, Gegel, Feyerbax kabi mutafakkirlar nomi bilan shuhrat topgan nemis falsafasi xususida ham shunday fikrni aytish mumkin. Jumladan, haqiqiy milliy xususiyatlarga ega bo'lgan Gegel falsafasi Avstriya imperiyasidan ajralib, mustaqillik yo'lini tutgan Pruss monarxiyasining davlat mafkurasi darajasiga ko'tarilgan edi.

**Mafkuraning dunyoviy ildizlari** ma'rifiy dunyoga xos siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy munosabatlar majmuidan iboratdir. Insoniyat asrlar mobaynida bosqichma-bosqich dunyoviylik sari intilib keldi. Umume'tirof etilgan tamoyillar va qonun ustuvorligi, siyosiy plyuralizm, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi xususiyatlar dunyoviy jamiyatning asosini tashkil etadi. Bunday jamiyatda insonning haq-huquqlari va erkinliklari, jumladan, vijdon erkinligi ham qonun yo'li bilan kafolatlanadi. Ana shunday jamiyat mafkurasi «Dunyoviylik - dahriylik emas» degan tamoyil asosida rivojlanadi, ya'ni dinning jamiyat hayotida tutgan o'rnini va ahamiyatini aslo inkor etmaydi.

**Mafkuraning diniy ildizlari** deganda, u inson ongi va ruhiyati bilan uzviy bog'liq ekani va shu bois uning g'oyaviy ildizlari diniy ta'limotlarga borib taqalishi tushuniladi. Ya'ni, ko'pgina mafkuralarda Avesto, Veda va Upanishadlar, «Zabur», «Tavrot», «Injil» va «Qur'on» kabi ilohiy kitoblarda zikr etilgan ezgu g'oyalardan muayyan darajada o'z ifodasini topganini ko'ramiz.

Xitoy xalqining taraqqiyot yo'lini asoslab bergan Konfutsiy va Laosning ta'limotlari ham diniy qarashlarga asoslangan edi. Bu ta'limotlar asrlar mobaynida Xitoy xalqining milliy mafkurasi bo'lib kelgan.

Dunyoviy va diniy g'oyalar bir-birini boyitib borgan sharoitda taraqqiyot yuksak bosqichga ko'tariladi. Bunga bashariyat tarixida o'chmas iz qoldirgan Imom Buxoriy va Muso Xorazmiy, Imom Moturidiy va Abu Rayhon Beruniy, Imom Fazzoliy va Abu Nasr Forobiy singari buyuk zakovat sohiblari yonma-yon yashab faoliyat ko'rsatgan davr yorqin misol bo'la oladi.

Bunday jarayon bugungi dunyoda amaliyot falsafasi deb tan olingan pragmatizm, hayot falsafasi bo'lgan ekzistensializm kabi dunyoviy va diniy g'oyalardan oziqlangan ta'limotlar misolidaham ko'zga tashlanmoqda.

Ilmiy kashfiyotlar ham mafkura rivojiga katta ta'sir o'tkazadi. Zamonaviy fan yutuqlari, jumladan, kosmonavtika, kibernetika sohasidagi olamshumul yangiliklar, klonlashtirish, insonning gen-nasl haritasini aniqlash kabi buyuk kashfiyotlar odamlar tasavvurini keskin o'zgartirmoqda.

Ayni vaqtda yuksak ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, globalashuv jarayonlari, bir tomondan, inson aql-idrokining imkoniyatlariga, kelajakka ishonchni orttirayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, Xirosima, Nagasaki, Chernobil fojialari, ommaviy qirg'in qurollari, ekologik halokatlar, ma'naviy tanazzul kabi umumbashariy muammolarni ham keltirib chiqarmoqda.

Shunday ekan, ilm-fan va madaniyat borasidagi yutuqlardan oqilona foydalanish uchun ham jamiyatga sog'lom g'oya, sog'lom mafkura kerak.

#### **Mafkura funksiylari:**

1. Baholash.
2. Prognoz qilish.
3. Bilish tashkil etadi.

Shuningdek, milliy mafkurani asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

- 1) Dunyoqarashlik;
- 2) Qadriyatli.
- 3) Tarbiyaviy.
- 4) Birlashtiruvchilik va uyushtiruvchilik.

- 5) Tashkillashtirish va safarbar qilish.
- 6) Shaxs, millat manfaatini va maqsadini himoya qilish.
- 7) Milliy mustaqillik asoslarini mustahkamlash va g'oyaviy jihatdan ta'minlash.

**Mafkura (g'oya)ning asosiy xususiyatlarini quyidagilardan iborat:**

1. Ijtimoiy harakterda.
2. Ilmiylik.
3. Haqqoniylik, hayot bilan bog'liqlik.
4. Operativlik.
5. Ravshanlik, ommabop, emotsionallik.
6. Kurashchanlik.
7. Gumanarizm.
8. Ijodiy harakterda bo'ladi.

**Mafkura:**

1. Mustaqil dunyoqarash, erkin fikrlash, siyosiy faollik;
2. Milliy o'zlikni anglash. Manbalarga qaraganda o'zbeklar 3 ming yillikdan faqat 300 yildan oshiqroq davrda mustaqil yashagan.
3. Tarixiy xotiraga sadoqat.
4. Milliy qadriyatlarini rivojlantirish.
5. Milliy mentalitetga ega bo'lgan xususiyatlarning rivojlanishida ijobiy va salbiy illatlar bor.

Umuman, davlat va jamiyat qurilishi ishlarini amalga oshirish va boshqarishda tamoyillar muhim rol o'ynaydi. «Jamiyatni tamoyillar boshqaradi» degan fikrda katta ma'no bor. Ammo jamiyatning qanday tamoyillar asosida boshqarilishi muhim ahamiyatga ega. Davlat kuch-qudratining ma'naviy poydevori insonlar aql-zakovati va salohiyati bilan belgilanadi<sup>1</sup>.

Jahon tarixiy tajribasining ko'rsatishicha, dunyodagi biron-ta xalq, millat mafkurasiz yashamagan va yashay olmaydi. O'tmishda har qanday jamiyatning, davlatning o'ziga xos, o'ziga mos keladigan, uning uchun xizmat qiladigan, uning tub maqsadlari va manfaatlarini himoya qiladigan mafkurasi bo'lgan.

Mafkura bo'lmasa jamiyat yashay olmaydi. Prezidentimiz Islom Karimov «Tafakkur» jurnali bosh muharririning savollariga javoblarida bu xususda shunday deydi: «Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo'lmasa odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar. Ikkinchidan, qandaki, mafkuraviy bo'shliq vujudga kelsa, o'sha yerda begona mafkura hukmronlik qilishi ham tayin. Buning isboti uchun xoh tarixda, xoh zamonamizdan ko'plab misollar keltirish qiyin emas» (Asarlar. T.7., 4-bet).

**Mafkuraning asosiy turlari:**

1. Siyosiy mafkura.
2. Diniy mafkura.
3. Milliy mafkura.
4. Progressiv mafkura.
5. Reaksiyon mafkura.

Foya va mafkuralarning shakllari. Insoniyat tarixi turli g'oyalarning ezgulik va yovuzlik, ozodlik va istibdod, ma'rifat va jaholatga xizmat qilgan mafkuralar shaklida namoyon bo'lganidan dalolat beradi. Foya mafkuraga asos bo'ladi, mafkura esa muayyan g'oyani amalga oshirishga xizmat qiladi.

Insoniyat tarixi turli g'oyalarning ezgulik va yovuzlik, ozodlik va istibdod, ma'rifat va jaholatga xizmat qilgan mafkuralar shaklida namoyon bo'lganidan dalolat beradi. Ularning afsona va rivoyatlar vositasida ifoda etilgan mifologik, ilohiy qadriyatlar majmuasi bo'lgan diniy, olamga ilmiy yondashuv asosida vujudga kelgan dunyoviy ko'rinishlari mavjud.

Ibtidoiy hayot davrida mifologiyaga asoslangan diniy-ilohiy qarashlar asosidagi totemizm, animizm, fetishizm kabi g'oyaviy tizimlar - mafkura shakllari bo'lgan.

<sup>1</sup> Ergashev I. Taraqqiyot falsafasi. - T.: Akademiya, 2000. 38-bet.

Taraqqiyotning keyingi bosqichlarida milliy asosdagi hinduizm, iudaizm, konfutsiylik singari diniy mafkuralar shakllangan. Yaponlar esa o'zlarining milliy dini - sintoizmi yaratgan.

Rim imperiyasi shakllangan dastlabki davrda xristianlik dini asta-sekin uning mafkurasiga aylandi. Demak, dastlabki mafkura shakllari quyidagilardan iborat bo'lgan:

- 1) totemizm - indeealar tilida «urning ruhi», hayvon, o'simliklarga ishonish;
- 2) animizm - lot. Jon, ruh. Kishi ruhi, jonning borligiga ishonish;
- 3) fetishizm - portugal, fransuz so'z. «sehrli narsa», jonsiz narsaga ishonish;
- 4) hinduizm (milliy) 4 kasta: brahmonlar - ruhoniy, kshatriy-harbiy, savdo hunarmand;
- 5) iudaizm - yahudiyalar dini, qabila nomidan olingan;
- 6) konfutsiylik - er.avv. 551-479, Xitoy ta'limoti, inson samo qudratiga bog'liq;
- 7) sintoizm - yapoplar milliy dini;
- 8) xristianlik - mil.avv. I-III asrlarida Rim jamiyatida yoyilgan.

Olamning vujudga kelishi, mavjudlik qonuniyatlari, uning asosini nima tashkil etgani kabi masalalarni falsafiy talqin etish natijasida monizm, dualizm, plyuralizm, idealizm va materializm singari oqimlar vujudga keladi.

Demak, g'oya va mafkuraning dastlabki shakl va ko'rinishlari:

- 1) Monizm - olamning asosi yagona, bita deya ta'lim beruvchi yo'nalish.
- 2) Dualizm - olamning ibtidosi ham ruhiy-ilohiy, ham moddiy asosga egaligi haqidagi ta'limot.

3) Plyuralizm - olamning asosida ko'p narsalar yotishi haqidagi g'oyalarni ilgari suruvchi ta'limot.

4) Idealizm - olam va odamning yaralishi, yashashi va rivojlanish xususiyatlari, borliq handa yo'qlik masalalarida ruhiy va ilohiylik tamoyillarini ustuvor deb bilish, mutlaqlashtirishdir.

5) Materializm - olam va odam, borliqning yashashi, rivojlanishi masalalarida modda (materiya) va uning xossalarni, mutlaqlashtirishdir.

6) Teizm - ilohiylikni mutlaqlashtirish.

7) Ateizm - dahriylikni mutlaqlashtirish.

Muayyan tarixiy davrlarda milliy asosdagi diniy mafkuralar davlat ideologiyasi darajasiga ko'tarilgan. Zamoralar o'tishi bilan ularning ayrimlari o'z mavqeini yo'qotgan, lekin millat ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida saqlanib qolgan.

Ammo idealizm va materializm o'rtasidagi bahs-munozara hamda ularni murosaga keltirishga intiluvchi dualizm g'oyalari qadim zamonlardan buyon davom etib kelmoqda.

Hudo va ilohiy qadriyatlarni mutlaq rad etuvchi ateizm va aynan ana shu haqiqatlarni mutlaqlashtiruvchi teizm o'rtasidagi bahs-munozara ham uzoq tarixga ega.

Qadimgi sivilizatsiyalar tarixidan ma'lumki, o'sha davrlarda odamlarning dunyoqarashi, qabila va elatlarning mafkurasi afsona va rivoyatlar vositasida ifoda etilgan mifologik qarashlar sifatida mavjud bo'lgan. Jumladan, totemizm, animizm, fetishizm kabi ibtidoiy dinlar jonning abadiyligi, tabiatdagi narsa va hodisalarning ilohiy quvvatga ega ekani to'g'risidagi xilma-xil g'oya va qarashlarga asoslangan. Bu to'g'rida «Dinshunoslik» fanida kengroq ma'lumotlar berilgan.

Taraqqiyotning keyingi bosqichlarida milliy asosdagi hinduizm, iudaizm, konfutsiylik singari diniy mafkuralar shakllangan. Yaponlar esa o'zlarining milliy dini - sintoizmi yaratgan. Ularda diniy tamoyillar bilari birga muayyan millatning o'ziga xosligi, qadriyatlari, mentaliteti o'z aksini topganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu dinlar millat tarixining u yoki bu davrida davlat dini va mafkurasi darajasiga ko'tarilgan. Masalan, konfutsiylik bir necha yuz yillar davomida Xitoyda ana shunday mavqega ega bo'lgan.

Taraqqiyot jarayonida falsafiy g'oyalar ham muayyan tizim shaklini olgan. Masalan, olamning vujudga kelishi, mavjudlik qonuniyatlari, uning asosini nima tashkil etishi kabi masalalarni qadimgi odamlar xilma-xil hal qilganlar. Ularni falsafiy talqin etish natijasida

monizm va dualizm, idealizm va materializm singari oqimlar vujudga kelgan. Ularning har biri o'z ma'no mazmuniga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Xususan, monizm - olamning asosini bitta mohiyat tashkil etadi deb ta'lim beruvchi yo'nalish bo'lsa, dualizm - olamning ibtidosi ham ruhiy-ilohiy, ham moddiy asosga ega ekanini e'tirof etuvchi oqimdir.

Olam va odamning yarialishi, borliqning yashashi va rivojlanish qonuniyatlari, borliq hamda yo'qlik masalalarida ruhiy va ilohiylik tamoyillarini ustuvor deb bilish, mutlaqlashtirish idealizmining asosini tashkil qiladi.

Undan farq qiladigan materializm aynan ana shu masalalarda modda (materiya) va uning xos-salarini ustuvor deb bilish, mutlaqlashtirish asosida shakllangan.

Muayyan tarixiy davrlarda ba'zi mafkuralar davlat ideologiyasi darajasiga ko'tarilgan. Zamonlar o'tishi bilan ularning ayrimlari o'z mavqecini yo'qotgan, lekin millat ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida saqlanib qolgan. Xalq ulardan quvvat olgan, ma'naviy oziqlangan, ular orqali o'z qadriyatlarini saqlagan.

Shu bilan birga bir-biridan farq qiladigan mafkuralar o'rtasidagi bahs-munozara hamda ularni murosaga keltirishga intiluvchi g'oyalar mavjudligi ham qadim zamonlardan buyon davom etib kelmoqda. Xuddi shunday bir-biridan farq qiladigan, ya'ni xudo va ilohiy qadriyatlarni tamomila rad etuvchi ateizm va aynan shu haqiqatlarni mutlaqlashtiruvchi teizm o'rtasidagi bahs-munozara ham uzoq tarixga ega. Bu bahs-munozara hozir ham davom etmoqda.

XIX asrning 30-yillarida Fransiyada imperator Napoleon shaxsiga sig'inish va faranglarni ulug'lash bilan bog'liq shovinizm g'oyalari keng yoyildi. Keyinchalik u bir hukmron millatni boshqa xalqlardan ustun qo'yadigan, yoki boshqa biror ijtimoiy sub'ektni mutlaqlashtiradigan mafkuraviy aqidaga aylanib ketdi. Bugungi kunda «Buyuk millatchilik shovinizmi», «Buyuk davlatchilik shovinizmi», «Iroqiy shovinizm» kabi iboralar uchrab turadi.

Insoniyat tarixida o'z talab-ehtiyojlarini boshqa xalqlar hisobiga qondirish istagi talonchilik va bosqinchilik, buyuk davlatchilik va tajovuzkor millatchilik, fashizm va ekstremizm g'oyalari yuzaga keltirgan. Bunday g'oyalar xalqlar boshiga ko'p kulfat va musibatlar solgan.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, ba'zi buzg'unchi mafkura o'zining soxta jozibasini, aldov makri bilan omma ongini zaharlab, jamiyatda hukmron mavqecini egallab olishi mumkin. Masalan, XX asrning 30-yillarida Italiya va Germaniyada fashizmning g'alaba qozonishi nafaqat italyan va nemis xalqining, balki dunyodagi millionlab insonlarning boshiga cheksiz kulfat solgani tarixning achchiq saboqlaridan biridir. Holbuki bu g'oyalari mazkur davlatlarda asr boshidanoq namoyon bo'la boshlagan edi. Masalan, Italiyada 1910 yildan «Milliy g'oya» nomli jumal chiqib boshlagan, unda ko'proq agressiv millatchilik targ'ib qilinardi. Afsuski, o'z davrida bunga kam e'tibor berildi va u oxir oqibat hukmron g'oyaga aylandi. Ana shu sababdan ham bugungi kunda butun dunyodagi taraqqiyparvar gumanistik kuchlar bunday fojiali va noxush holatlar takrorlanmasligi uchun hamjihatlik bilan kurash olib borishi ijtimoiy zarurat bo'lib qoldi.

Fashizm misoli g'oya va mafkura insonparvarlik va taraqqiyot tamoyillarini, xalq taqdiridagi yuksalish zaruratini, umuminsoniy qadriyatlarni o'zida aks ettirmasa, aksincha, bu itilishlarni rad etsa, mohiyatiga ko'ra ularga zid bo'lsa, u jamiyat tanazzuliga sabab bo'lishini yaqqol ko'rsatadi.

O'z tarixini, asosan XIX asrdan boshlagan ana shunday mafkuralardan biri - sinfiy antagonizm g'oyalarni mutloqlashtirgan va hokimiyatni qurol kuchi bilan egallab olgan sobiq kommunistik tuzum mafkurasini edi. Sinfiy kurash g'oyasi asosiga qurilgan va millionlab kishilar taqdiri da mash'um iz qoldirgan bu mafkura jamiyatni bir-biriga zid tarafdarga ajratib yubordi. Sinfiy kurash chizig'i nafaqat ijtimoiy guruh va qatlamlar orqali, hatto oilalar va insonlar ruhiyati orqali ham o'tkazildi. Oqibatda «grajdanlar urushi»ga nazariy poydevor qo'yildi. Inson tabiatiga, uning mohiyati va ruhiyatiga zid bo'lgan birodarkushlik holati yaratildi. O'g'il otaga, uka akaga, do'st o'z birodariga qo'l ko'tarishi yoqlab chiqildi, rag'batlanirildi. Bular mardlik va sinfiy ongillik namunasini deb talqin etildi. Natijada milliy qadriyatlar toptildi, millionlab kishilar halok bo'ldi, butun-butun xalqlar o'z vatanidan badarg'a qilindi.



Zo'rikk asosiga qurilgan va ziddiyatli tizimga asos bo'lgan bu mafkura dunyoning oltidan bir qismini egallagan ulkan saltanat va sotsialistik lager hududida yetmish yil hukm surdi. Oxir-oqibat o'zining g'ayriinsoniy va g'ayrimilliy mohiyati, mustabid tabiati tufayli tanazzulga yuz tutdi. O'zi tayangan davlatni ham o'zi bilan birga olib ketdi.

Yovuz g'oya va unga asoslangan mafkuralarning eng ko'p tarqalgan shakllaridan biri diniy aqidaparastlikdir. Bunday g'oyalar muayyan davrlarda Farbda ham, Sharqda ham hukmronlik qilgan, odamlarga ko'pdan-ko'p qabohatlar keltirgan. Afsuski, bu ijtimoiy illat insoniyat XXI asrga qadam qo'yayotgan hozirgi davrda ham dunyodagi tinchlik va taraqqiyotga tahdid solmoqda, muayyan hududlarni egallab olmoqda. Afsuski, bu g'oyalar ortidan ergashadiganlar hozir ham bor. Ular bunday g'oyalarga asoslanib tinch aholiga qarshi terrorchilik, zo'rvonlik kabi jinoyatlarni amalga oshirmoqdalar, o'z niyatlarini qabih harakatlar orqali namoyon qilmoqdalar. Keyingi 15 yil ichida aqidaparastlar terrori natijasida 140 ming kishi halok bo'lgan Jazoir yoki 2001 yil kuzigacha 20 yildan ortiqroq urushni boshidan kechirgan Afg'oniston bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Xullas, aqidaparastlik qanday shaklda bo'lmasin, hamma zamonlarda ham jamiyat uchun birdek xatarli bo'lib, odamlar boshiga ko'plab kulfatlar keltirayapti. Hozirgi davrda ham hamma narsani inkor etishga, hech qanday ijtimoiy me'yor va qonun-qoidalarni tan olmaslikka da'vat etuvchi nigilizm, yoki ko'p hollarda vatansizlikni mutlaqlashtiradigan kosmopolitizm kabi mafkuralar turli ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda.

Foya va mafkuralarning tarixiy shakllarini, mazmun-mohiyatini azal-azaldan ezgulik va yovuzlik, bunyodkorlik va vayronkorlik o'rtasidagi kurash dialektikasi belgilab keladi. Ya'ni bosqinchilik, boshqalar hisobidan boyish, tajovuzkorlik, aqidaparastlik mafkuralariga qarama-qarshi o'laroq, ozodlik, mustaqillik va adolat g'oyalari uzluksiz maydonga chiqib, xalqlarning muzaffar bayrog'iga aylangan.

Bulardan boshqa mafkuraning tarixiy shakllariga quyidagilarni ham kiritish mumkin:

- 1) Konservatizm - lot. himoya - eskilik tarafdori.
- 2) Liberalizm - lot. shaxs erkinligi, shaxs manfaati.
- 3) Narxizm - beboshlik.
- 4) Sotsial reformizm .
- 5) Kommunizm - lot. umumiy va boshqalar.
- 6) Mafkura oqimlari
- 7) Radikalizm - lot. tomir, maydo burjda oqimi, islohotlarga yaqin.
- 8) Populizm - xalq ahvoli, evolyusion ta'limot;
- 9) Fashizm - lot. bog'lamoq.

#### **Mafkuraviy oqim turlari:**

- 1) irqchilik;
- 2) shovinizm;
- 3) zo'rvonlik;
- 4) dohiy shaxsiga sig'inish;
- 5) davlat yalpi hukmronligi;
- 6) shaxs ustidan kontrol o'rnatish;
- 7) militarizm kabi.

#### **Milliy mafkuraning asoslari:**

- 1) mustaqillik;
- 2) milliylik;
- 3) taraqqiyot.

## Siyosiy mafkuraning asosiy turlari:

1. Ijobiylik mohiyatiga ega bo'lgan siyosiy mafkuralar:	2. Salbiy mohiyatga ega bo'lgan siyosiy mafkuralar:
1) Liberal.	1) Fashistik.
2) Konservativ.	2) Kommunistik.
3) Milliy istiqloq mafkurasi.	3) Shovinstik.
4) Ekologik-siyosiy mafkuralar.	4) Anarxistik.
5) Diniy-siyosiy mafkuralar (krestian – demokratik, islom – tarqqiyot yo'li).	5) Diniy-siyosiy mafkuralar (vahhobiylik, hizbut-tahrir kabi)

### Bunyodkor g'oyalar va mafkuralarning jamiyat hayotidagi ijobiy ta'siri

Bunyodkor g'oya — insonni ulug'laydigan, uning kuch-g'ayrati va salohiyatini oshirib xalqi, Vatani, butun insoniyat uchun foydali ishlar qilishga safarbar etadigan. o'zida taraqqiyot, ma'rifat, do'stlik, tinchlik, adolat, halollik, poklik kabi ezgu his-tuyg'ularning urug'ini mujassam etadigan g'oyadir.

Insoniyat tarixi xilma-xil g'oya va mafkuralarning vujudga kelishi, bir-biri bilan munosabatidan iborat uzluksiz jarayondir. Bu jarayonda turli g'oyalar u yoki bu kuchlarga xizmat qilishi, o'ziga ishongan kishilarni qanday maqsadlar tomon yetaklashiga qarab bir-biridan farqlanadi.

Jahon tajribasiga nazar tashlasak, butun dunyo taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatgan nazariy ta'limot va mafkuralarni yaratish uchun insoniyat tarixining turli davrlarida ulkan aql-zakovat, iste'dod va teran tafakkur sohiblari mislsiz zahmat chekkanini ko'ramiz. Suqrot va Platon, Konfutsiy va Zardusht, Amir Temur, Alisher Navoiy, Maxatma Gandi kabi buyuk mutafakkirlarning faoliyati buning yaqqol tasdiq'idir.

Ularning har biri o'z davrida o'zi mansub xalqni bir-lashtiradigan ulkan ahamiyatga molik g'oyalarni yaratganlar. Bu g'oyalarga tayanib bunyodkorlik yo'lida, ezgu maqsadlarga erishish uchun hormay-tolmay mehnat qilganlar. Bu borada insoniyatga ezgulik g'oyalarini targ'ib qilgan Zardusht ham, «O'zini anglamoq buyuk saodat» ekanligini anglatgan Suqrot ham, «xalqni yakqalam qildim», deya insonparvarlik, adolat g'oyalarini kuylagan va qoniqish hissini tuygan Navoiy ham, Markazlashgan davlat tuzib, xalqni birlashtirib, uning adolat kuchiga ishonchini mustahkamlagan Amir Temur ham, Hindiston ozodligi yo'lida umrini baxshida aylagan, ma'rifat yo'li bilan g'olib chiqqan Maxatma Gandi ham bugungi avlodlar uchun ibrat namunasi bo'lgan ulug' insonlardir. Jamiyatda ezgu maqsadlarga xizmat qiladigan mafkuralarga bunyodkor g'oyalar asos bo'ladi.

Bunyodkorlik aql-zakovat, qalb bunyodkorligiga aylanganda chinakam qadr-qimmat kasb etadi. Masalan, sobiq sho'ro davrida insonlar qalbidagi bunyodkorlik tuyg'usini so'ndirgan tuzum o'zicha ko'p ishlarni, ulkan rejalarini amalga oshirish uchun urinib ko'rdi. Lekin qalb bunyodkorga aylanmagani uchun qilingan ishlarda baraka va samara bo'lmadi. Qalb bunyodkorligi esa e'tiqod bilan, pok niyat bilan nafaqat bugunni va ertani, balki olis kelajakni o'yab yaratishdir. Odamzodga azaldan aql-zakovat bilan qalb bunyodkorligi xos fazilatdir. Uning qalbi bilan qo'li bir maromda ishlasa, haqiqiy mo'jizalar bunyod etiladi. Necha asrlardan buyon dunyoni hayratga solib kelayotgan Misr ehromlari, Shahrisabzdagi Oqsaroy, Samarqandagi Bibixonim, Registon maydonidagi madrasalar majmui, Tojmahal yodgorligi, Eyfel minorasi, qanchadan-qancha san'at va madaniyat durdonalari — barchasi ana shunday bunyodkorlik namunasi. Bunday mo'jizalar bizning madaniy merosimizda, Xiva, Buxorodagi betakror obidalarimizda,

murnot san'at asarlarimizda yuksak axloqiylikka asoslangan urf-odat va an'analarimizda o'z aksini topgan.

Buyuk donishmand bobomiz Bahouddin Naqshband «Diling — Oллоhda, qo'ling — mehnatda bo'lsin» deya yaratuvchilikka da'vat etganlarida, har qanday ishni aql va e'tiqod bilan bajarishni nazarda tutganlar. Ushbu shiorda inson ko'nglida Oллоhga e'tiqod qo'yib, o'zi halol mehnati bilan tirikchilik o'tkazish va ilm-hunar o'rgatib Vatanni obod qilishga da'vat etiladi. Diniy ishlarni dunyoviy ishlar bilan bog'lab olib borish, dunyoviylik va diniy e'tiqodning mushtarakligi orqali jamiyatda barqarorlik, osoyishtalik va farovonlikka erishish mumkinligi g'oyasi targ'ib qilinadi. Mustaqillik yillarida, O'zbekistonda, Islom dinining ezgu g'oyalari milliy qadriyatlarimiz va turmush tarzimizga chuqur singib bormoqda. Umuman, e'tiqodni faoliyatga, faoliyatni esa e'tiqodga aylantirish xalqimizga xos. Masalan, yaxshilikni, ya'ni oddiy insoniy faoliyatni e'tiqod darajasiga ko'targanimiz yoki Oллоhga bo'lgan ishonch-e'tiqodimizni faqat ezgulik yo'lida xizmat qildirishni an'anaga aylantirganimiz (ya'ni, dinni niqob qilib mutaassiblikka, jaholatga, buzg'unchilikka berilmaganimiz) — burning tasdig'idir.

Bunyodkor g'oyalar bilan qurollangan kishilar farovon hayot, erkin jamiyat qurish uchun kurash olib borganligi tarixdan ma'lum. Bunday jarayon ijobiy g'oyalarning tug'ilishiga, ular esa, o'z navbatida, elatlar, xalqlar, millatlar manfaatlarini ifodalovchi hayot tarzining shakllanishi uchun asos bo'lgan. Shuningdek, milliy davlatlarning yuzuga kelishida bu g'oyalar yetakchi va yo'naltiruvchi ahamiyat kasb etgan. Buni biz o'zbek davlatchiligi g'oyalarning shakllanishi va takomili misolida ham kuzatishimiz mumkin.

Bunyodkorlik g'oyalari yurtni obod, xalq hayotini farovon qilishdek oliyjanob maqsadlar bilan ajralib turadi. Ular insoniyat sivilizatsiyaga erishgan davrlardan buyon jamiyat hayotining eng ezgu g'oyalari sifatida yashab kelmoqda. Prezident Islom Karimovning «O'zbek tom ma'noda bunyodkorlik», degan so'zlarida ham ana shu boqiy g'oyalarning ma'no-mazmuni o'z ifodasini topgan. Bunday bunyodkorlik xalqimizga otabobolaridan merosdir. Insoniyat tarixida odamlar ongi va shuuriga adolat, haqiqat, ezgulik, mehnatsevarlik kabi yuksak g'oyalar urug'ini sepgan zot, payg'ambar Zardusht yaratgan «Avesto» kitobidagi yuksak g'oyalar buyuk vatandoshimiz Zardushtning o'lmas mafkurasi edi.

Qariyb uch ming yil muqaddam — ma'rifat ziyosini jaholat bulutlari qoplab olgan davrda buyuk vatandoshimiz Zardusht yakkaxudolik va ezgulik g'oyalarni targ'ib qilishni boshlagan edi. Zardusht ta'limotida insonni ezgulikka da'vat etuvchi g'oyalar markaziy o'rinni egallaydi.

Ezgulik va yovuzlik kuchlari o'rtasidagi g'oyaviy kurash zar-dushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»da ham bayon etilgan. Unda harbiy to'qnashuvlar, bosqinchilik urushlari, jonivorlarni, hayvonlarni azoblash, odamlarga adolatsizlik, yolg'onchilik, ahdda vafosizlik, hiyonat qilish g'oyalari qoralanib, o'troq, osoyishta hayot kechirishga, mehnatga, dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanishga da'vat etadigan g'oyalar ulug'lanadi. Zardushtiylik dinida yer, suv, musaffo havo, ona tabiat e'zozlanadi. quruq yer ochib, uni bog'u ro'g'iga aylantirgan odam ilohiyot rahmatiga uchraydi, aksincha, bog'lar, ekinzorlarni, sug'orish inshootlarini buzganlar katta gunohga qoladi. Zardushtning bunyodkor g'oyalari insonlarni tirich-totuv yashashga, halol mehnat qilib Vatanni obod qilishga da'vat etadi.

«Avesto»da vatanparvarlik g'oyasi ulug'lanib, odamlarni barkamol bo'lishga da'vat etilgan. «Menga barkamol va dinogoh, vatansevar va anjumano, ahil, ezgu andishali, zulmatdan, tanglikdan quqaruvchi farzandlar bag'ishla. Toki ular manzil, shahar, o'lka va uning nom hamda ovozasini ko'tarsinlar», deyiladi<sup>17</sup>. Shuningdek, asarda ona zaminni e'zozlash, uni obod qilish g'oyalari targ'ib qilinadi. Jumladan, «Avesto»da yozilishicha, Zaminni hammadan ko'proq baxtiyor qilgan shaxs, hammadan ko'p bug'doy, gijoh va mevali daraxtlar ekkari zotdir! U quruq yerlarga suv chiqargan va suvli yerlarni shudgor qilgan zotdir!... — deyiladi.

Uzoq zamon ekilmagan va omoch tegmagan zamin baxtsizdir... Kimda-kim zaminni chap va o'ng qo'l bilan, o'ng qo'l va chap qo'l bilan shudgor qilsa, zamin unga farovonlik baxsh etadi... Zamin ham o'l-ko'l mevalarni in'om etadi.

Yerning shudgor qilinib, sara urug'lar sepilishi, bug'doy maysasining unib chiqishi o'sha yerdagi yovuz kuchlar, devlarning bu yerlarni tark etishi to'g'risidagi g'oya Avestoning Vandidat qismiga bag'islangan bo'limida quyidagicha berilgan:

«Qachonki egatlarda urug' yetilsa, devlar o'rinlaridan qo'padilar.

Qachonki bug'doy gurkirab ko'karsa, devlar dahshatdan titray boshlaydilar.

Qachonki bug'doy un bo'lsa, devlar nola chekadilar. Qachonki bug'doy xirmonga uyulsa, devlar nobud bo'ladilar. Qay bir xonadonda bug'doy bosh chiqarsa, devlar u xonadondan uzoqlashadilar. Qay bir xonadonda bug'doy ombori bo'lsa, go'yo qizdirilgan temir devlar bo'ynini chirmab tashlaydi» («Avesto», 115-bet).

«Avesto»da aks etgan Zardushtning «Ezgu niyat, ezgu so'z va ezgu amalni olqishlayman! Niyat, so'z va amallar ichidan men ezgu niyat, ezgu so'z va ezgu amalni tanlayman. Men barcha qabih andisha, qabih so'z va qabih amaldan yuz buraman»<sup>18</sup>, degan hikmatli so'zlari bugungi kunda ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bu o'lmas g'oyalar keyinchalik paydo bo'lgan dinlar, jumladan, xristianlik va islom tomonidan ham qabul qilindi. Demak, bu kitob o'z davrida shakllangan g'oyalarni tizimidan iborat bo'lgan jamiyat mafkurasini ifodalaydi.

Hindistonda paydo bo'lgan buddaviylik dini asta-sekin Janubiy, Sharqiy Osiyoda yashaydigan ko'pchilik xalqning mafkurasiga aylandi. Eramizning birinchi asrida Rim imperiyasida shakllangan xristianlik dini jahonning ko'pgina xalqlari va millatlari tomonidan qabul qilindi, ularning ma'naviy hayotiغا singdi. VI asrning oxirida Arabiston yarim orolida paydo bo'lgan islom dini o'rtadagi ahilik, birodarlik, hamjihatlik, ezgulik, yaratuvchilik g'oyalarni targ'ib qilganligi sababli dunyoning yuzdan ortiq mamlakatlari xalqlari o'rtasida tarqaldi, ularning ma'naviy hayoti, turmush tarzi va madaniyati rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xitoy va hind mutafakkirlarining jamiyat rivoji haqidagi qarashlari va bunyodkorlik g'oyalari ham Osiyoning «sharqona» ma'naviyatida o'ziga xos o'rin tutadi. Jumladan, buyuk Xitoy mutafakkiri Konfutsiyning (mil.av. 551-479) g'oyalari hanuzgacha Xitoy xalqi mafkurasida yetakchilik qilib kelmoqda.

Konfutsiyning falsafiy va axloqiy g'oyalari markazida inson, uning aqliy va ma'naviy qiyofasi, olamdagi hamda jamiyatdagi o'rni, vazifasi muammolari turadi. Bu g'oyaning asosi jamiyatni har qanday ijtimoiy larzalardan asrab qolish va insonlar manfaatini yuqori qo'yishga qaratilgan. Allomaning maqsadi xalqni mavjud tartib-qoidalarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash bo'lgan. Bu g'oyaga ko'ra, insonlar jamiyatning tabiiy taraqqiyotiga qarshi chiqmasligi, ya'ni inqilobiy yo'lni tanlamasligi kerak. Konfutsiy insoniyat haqida fikr yuritar ekan, odamlar ijtimoiy kelib chiqishi yoki jamiyatdagi mavqei orqali emas, balki odamiylik, adolatparvarlik, haqgo'ylik, samimiyat, farzandlik izzat-humati kabi yuksak ma'naviy fazilatlariga erishishi tufayli kamolotga yetishuvi mumkin deb, hisoblaydi.

Hayotning, borliqning mohiyatini anglash to'g'risidagi buddizm dinining asoschisi Siddxartxa Gautama qarashlari muhim o'rin tutadi. Har qanday insoniy tuyg'u, hissiyot, ehtiros va istak azob-uqubatlarni chuqurlashtiradi. Hayot mazmunan tug'ilish, sevish, o'lim, azobdan iborat. «Borliq girdobi»dan chiqib olish uchun g'aflatdan uyg'onish, dunyo mohiyatini anglash, hayotga chanqoqlikdan, ko'ngilxushliklarga, lazzatlarga, hokimiyatga, boylikka intilishlardan voz kechish lozim. Faqat shundagina «najot topish yo'li»ga kirish mumkin. Inson beshta axloqiy talabga amal qilishi lozim, deb e'tirof qili-nadi. Bu axloqiy talabga ko'ra, har bir kishi yomonlik qilishdan, yolg'on gapirishdan, o'g'rilik qilishdan, his-tuyg'ularga ortiqcha berilishdan, ichkilikdan o'zini tiyishi lozim.

Siddxartxa Gautama insonni hayotdagi azob-uqubatlardan qutqarishning yo'llarini topish haqidagi ta'limotida, uning yechimi insoning o'ziga bog'liqligini asoslashga urinib,

inson faqat o'z kuchiga tayan gan holda «najatning olijanob quyidagi sakkizlik yo'lidan» ongli harakati va sobitqadamligi ila o'z maqsadiga erishishi mumkin. degan g'oyani ilgari suradi. Buning uchun:

1. E'tiqod to'g'ri shakllangan bo'lishi;
2. Maqsad sari qat'iy harakat qilishi;
3. To'g'ri tafakkur va nutq bo'lishi;
4. To'g'ri fe'l-atvor bo'lishi;
5. To'g'ri turmush tarzi bo'lishi;
6. Kuch-g'ayratning to'g'ri maqsadga qaratilgan bo'lishi;
7. Fikr, maqsadning to'g'ri yo'naltirilgan bo'lishi;
8. Diqqat-e'tiborni to'g'ri orzu-niyat qilishga qaratish kerakligi ta'kidlanadi<sup>19</sup>.

Inson o'zining hayot faoliyati davomida ushbu qoidalariga rioya qilsa, dunyoning mohiyatini teranroq anglay boradi, maqsad muddoasiga erishib, oxir-oqibatda yuksak kamolotga va osoyishtalikka eritadi. Gautama ta'limotida, asosan, taqvodorlikning yo'llari va talablari to'g'risida fikr yuritiladi. Ushbu ta'limotda ilgari surilgan ijobiy axloqiy talablar, insonni o'zini idora qilishga da'vat etuvchi to'g'ri fikr yuritish, fe'l-atvorni to'g'ri bo'lishi, turmush tarzini to'g'ri tashkil etish, kuch-g'ayratri, niyatni to'g'ri maqsadga qaratish haqidagi g'oyalari insonlarni o'ziga jalb etgan va odamlar ushbu ta'limotni qabul qilib uning talablarini bajarganlar.

Insoniyat doimo yaxshilikni yoqlab, yomonlikka karshi kurashadi, yaratuvchanlik va bunyodkorlik unga xos bo'lgan buyuk fazilatlaridir. Sharq xalqlarining buyuk ijodkorligi, bunyodkorligi va qadriyatleri turli davrlar ta'sirida G'arbga, xususan, antik Yunon-Rim madaniyatiga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi. Masalan, A.Makedonskiyning ustosi, jahongir shogirdi Osiyoni mahf etgach, unga yuborilgan «Avesto» kitobini chuqur o'rgangan qadimgi yunon faylasufi va qomusiy olimi Arastu (Aristotel, mil. av. 384-322 y.) o'z g'oyalari ni boyitdi va unga muhim o'zgartirishlar kiritdi. U jamiyatda bo'lib o'tayotgan barcha voqeelklar tabiatga xos deb biladi. Bu bilan jamiyatni tubdan o'zgartirish g'oyalari ga qarshi chiqadi va jamiyat rivoji tabiiy jarayonlar tarzida kechishi kerak, deb hisoblaydi.

Aflotun (427-347 mil. avv.) esa g'oyalar umumiy tushunchalar sifatida odam aqliga bog'liq emas, ular ilohiy xususiyatga ega tushunchalar, deb izohlagan edi. Uning asosiy g'oyasi — ezgulik yoki yagonalik edi. Bunda oliy g'oya ko'pincha xudoga tenglashtirilardi. Bu faylasufning ustosi bo'lgan Suqrot (Sokrat, mil. av. 470-399 y.) esa bahs orqali, ya'ni muayyan masalalarni o'rtaga qo'yish va ularga javob topish yo'li bilan haqiqatni aniqlash mumkin, deb bilgan. U ezgulik va bilim donishmandlikdir, yaxshilik mohiyatini to'g'ri anglagan insongina yaxshilik qiladi deb, tushuntiradi. Suqrot adolatga xilof bo'lgan davlat boshqaruvining hamma shakllarini tanqid qiladi, faqatgina adolatli demokratik davlat boshqaruvini yoqlab chiqadi.

Abu Nasr Forobiy (873-950yy.) «Sharq Aristoteli» nomini olgan qomusiy alloma. 160 dan ortiq asar yaratgan. «Mantiqqa kirish kitobi», «Isbot kitobi», «Falsafaga izohlar», «Musiqqa haqida katta kitob», «Inson a'zolari haqida kitob». «Lug'atlar haqida kitob», «Shaharni boshqarish», «Fazilatli hulqlar» kabi asarlari bilan jahon madaniyati rivojiga beqiyos xissa qo'shgan.

«Avvalo onangga, yana onangga va yana onangga, so'ng otangga yaxshilik qil», «Sizlarning yaxshilaringiz ahloqi yoqimli bo'lganlaringizdir», «Ekmak niyatida qo'lingizda ko'chat turgan paytda behosdan qiyomat qoyim bo'lib qolishi aniq bo'lganda ham ulguransingiz uni ekib qo'yavering»<sup>20</sup>, degan da'vatlarda ezgulik va insonparvarlik g'oyalari mujassamlashgan. Sharqda, ya'ni Turon zaminida esa jamiyat rivoji va bunyodkorlik g'oyalari xususida Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy qarashlari o'ziga xos o'rin tutadi. «Al-muallim as-Soniy» («Ikkinchi muallim»), Sharq Aristoteli deb nom olgan o'zining «Fozil odamlar shahri», «Fuqarolik siyosati», «Baxt saodatga erishuv haqida» kabi asarlarida oliyjanob jamiyat, adolatli tuzum haqidagi o'z fikr-mulohazalarini bayon qilib, o'z davri uchun izchil ta'limot yaratdi. U har tomonlama

yetuk, barcha aholini baxt-saodatga, ilm-ma'rifatga olib boruvchi yuksak axloqqa ega ideal jamoa haqidagi g'oyalarni olg'a surdi.

O'sha davrning buyuk mutafakkirlari Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sinoning bu boradagi qarashlari ham o'ziga xosdir.

Ular har bir narsani kuzatish va tajriba asosida o'rganishga, keyin xulosa chiqarishga intilganlar, barcha bunyodkorlik insonning mehnatiga bog'liqligini ta'kidlaganlar. Buyuk o'zbek shoiri, mu-tafakkiri va davlat arbobi Alisher Navoiy esa o'z asarlari bilan jamiyat taraqqiyotining zamonasiga xos fazilatlarini yoritishga harakat qilgan. U she'rlari va dostonlarida razolatga, beqarorlikka, urush janjallarga, ma'rifatsizlik, jaholatga qarshi kurash g'oyalarni ulug'laydi. Insonlarni mehnatga, yaratuvchilikka, adolatga chaqiradi. Ma'rifatga asoslangan jamiyat yaratishni orzu qiladi. Uning bu orzulari «Farhod va Shirin», «Saddi Iskandariy» kabi dostonlarida o'z ifodasini topgan. Shoimning bevosita o'zi ham bunyodkorlik ishlariga bosh-qosh bo'lgan.

Abu Ali Ibn Sino(980-1037yy.). O'rta Osiyo xalqlari madaniyatini butun dunyoga taritgan mashhur hakim, qator tabiiy fanlar bilimdoni, Ovro'pada Avitsenna nomi bilan tanilgan buyuk qomusiy alloma. Ul zot yaratgan 450 dan ortiq asarlardan «Tib qonunlari», «Donishnoma», «Najot kitobi», «Turar joyning tuzilishi», «Insof Kitobi», «Tibbiy ko'rsatmalar haqida» kabi 160 ga yaqin asarlar bizgacha yetib kelgan.

Buyuk mutasavvufilar: Koja Yusuf Xamadoniy, Ahmad Yassaviy, Abdulholiq G'ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro; muhaddislar: Imom Buxoriy, Imom Termiziyning talimotlarida aks etgan komil inson g'oyalari, adolat haqidagi qarashlari jamiyatning sog'lom ma'naviy-ahloqiy ruhini saqlash va mustahkamlashga xizmat qildi. Bu g'oyalar Vatan va xalq manfaati yo'lida fidoyilik va insonparvarlikni ulug'ladi.

Ezgu g'oyalar Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumiy, Mirzo Abdulqodir Bedillar ijodida chuqur o'rin egalladi va o'zbek davlatchiligining rivojlanishida ham muhim omil bo'lib xizmat qildi. Bilim va aql-idrok orqali ezgu ishlar qilish to'g'risida Yusuf Xos Hojibning quyidagi fikrlari e'tiborga molik:«Tabiat kinga zakovat, aql-idrok, bilim bersa, u ezgu ishlar qilishga qo'l uradi»<sup>22</sup>, — deb yozgan edi «Qutadg'u bilig» (XI) nomli asarida. Amir Temurning «Temur tuzuklari», Nizomulmulkning «Siyosatnoma» kitoblarida davlat idorasi va aholi fuqaroga munosabatda adolat, insof, diyonat, el-yurt tinchligi va obodligi bosh g'oya sifatida ilgari surildi.

Bu g'oyalar Temuriylar davlati g'oyaviy prinsiplarining ustuvor yo'nalishi edi. Amir Temurning bunyodkorlik g'oyalari va amaliy faoliyati katta ahamiyatga ega bo'lib, uning asosiy maqsadi bunyodkorlik va yaratuvchilik edi. Jumladan, u «Temur tuzuklari»da: «Agar fuqarodan birining uy imorati buzilib, tuzatishga qurbi yetmasa, kerakli uskunalami yetkazib berib, unga yordam berilsin», deb ko'rsatma beradi. Shu o'rinda, Yurtboshimizning Amir Temur o'z davlatini aql-zakovat va huquqiy asos bilan idora etgan desak adolatdan bo'ladi, degan fikrlari nihoyatda o'rindir.

Zero, Sohibqiron o'z bunyodkorlik maqsadiga erishish uchun sobitqadamlik bilan harakat qilgan. Jumladan, bu haqda «Temur tuzuklari»da yozganidek, «Biror ishni bajarishni o'ylasam butun zeh-nim, vujudim bilan bog'lanib, bitirmaganimcha undan qo'limni tortmadim»<sup>23</sup>, — degan so'zlari bugun ham ibratlidir.

Uning Movarounnahr, Xuroson va boshqa joylarda bunyod etgan inshootlari, Temuriylar sulolasi davridagi madaniyat, fan va adabiyot sohasidagi yutuqlar bunga misol bo'la oladi. Barcha davrlarda va turli xalqlar tarixida milliy g'oya va mafkura o'zida gumanizm talablarini, xalqning iroda va intilishlarini aks ettirgan taqdirda jamiyatni birlashtirib, uning salohiyati va imkoniyatlarini to'la yuzaga chiqarishda beqiyos omil bo'ladi.

**Mirzo Ulug'bek (1394-1449 yy.)** Buyuk munajjim, davlat arbobi, ilm-fan va madaniyat homiysi, o'z davrida Samarqandda rasadxona qurdirib, astronomik maktab yaratgan olim. Ilmiy merosining gultuji—«Ziji jadidi Koragoniy» asari bo'lib, «Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola», «To'rt ulus tarixi» asarlari ham uning qalamiga mansub.

Hind xalqining buyuk farzandi Mahatma Gandi (1869-1948) o'z ma'naviyati, g'oyalari va ilg'or qarashlari bilan XX asrning buyuk shaxslaridan biriga aylandi. U mustamlakachilarga qarshi kurashning timsoli edi. U hindlar bilan musulmonlarning o'zaro do'stligini mustahkamlashga intildi. Gandi din bilan siyosatni bir biriga bog'lashga harakat qildi. Fidoyilik va vatanparvarlik namunalarini ko'rsatdi. Men uyim to'rt tomondan devor bilan o'ralib, derazalarim zich bekiub qo'yilishini istamayman. Barcha mamlakatlar madaniyati uyimga erkin kirib kelishini xohlaymanu, lekin uning oyog'imdan qoqib yiqitishini ham istamayman, degan edi. Darhaqiqat, Mahatma Gandi hind xalqining fidoiy vatanparvari bo'lib, u boshqa xalqlar ma'naviyati ta'sirida o'z xalqi madaniyati va taraqqiyotining yanada rivojlanishini istar edi.

Masalan, XX asrda dunyo hamjamiyati tomonidan tan olingan yaponcha taraqqiyot modelini olaylik. Yapon milliy mafkurasi «milliy davlatchilik tizimi» (kokutay), «fuqarolik burchi», «yapon ruhi», «tadbirkorlik», «umummilliylik», «fidoyilik», «vatanparvarlik», «paternalizm», «jamoaqa sadoqat», «rnodernizatsiya» kabi g'oya va tushunchalarga asoslanib, mamlakat erishgan yuksak natijalarga poydevor bo'ldi.

**Alisher Navoiy (1441-1501 yy.)**. O'zbek mumtoz adabiyotining asoschisi, buyuk mutafakkir va davlat arbobi. O'zbek tili jozibasini o'z «Xamsasi bilan butun olamga namoyon etgan ulug' so'z san'atorining «Badoyi ul-bi'do'ya», «Navodir ul-nihoy», «Zubdat ut-tavorix», «Chor kitob», «Majolis un-nafois», «Mahbub ul-qulub», «Xazoyin ul-maoniyy» kabi asarlari ham xalqimiz ma'naviy-ma'rifiy xazinasidan munosib o'rin egallagan.

Shunday bunyodkor g'oyalardan biri Janubiy Koreya mamlakati rivojiga katta hissa qo'shgan fidoiy inson Yong Ki Kimning yuksak g'oyalarga asoslangan vatanparvarlik faoliyati va bunyodkorlik ishlari diqqatga sazovor. O'tgan asrning 30 yillarida «12 oila—qishloqda» degan harakatni boshlab, giyoh ham ko'karmagan tashlandiq tepalikni sotib olib, obod qilishga kirishdi. Keyinchalik fermerlar tayyorlaydigan «Kanaan» (imkoniyatlar maktabi) ni ochadi. U hamisha faqat tashlandiq, giyoh o'sishi qiyin bo'lgan yerlarni olib, obod qilib, odamlarni o'z tashabbusi, g'oyasi bilan orqasidan ergashtirib mamlakat rivoji va obodonligiga o'z hissasini qo'shdi. Bugungi kunda «Kanaan» ta'lim dargohining bosh maqsadi — tinglovchilarda insoniy e'tiqod tuyg'ularini shakllantirish, ularga insoniy fazilatlar — komillik, o'zaro tenglik, birodarlik, vatanparvarlik hislarini singdirishdir. Vatan va millat ravnaqi yo'lida fidokorona mehnat qilish, tug'ilib o'sgan Vatanni jondan ortiq sevmqlik shart ekanligi har bir tinglovchiga singdiriladi. Bitta fidoiy, va-tanparvar insonning yuksak g'oyalarga asoslangan ishlari bugungi kunda keng tarqalib Janubiy Quriyaning obod bo'lishiga katta hissa bo'lib qo'shilmogda.

**Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530 yy.)**. Sharq madaniyati, adabiyoti va she'riyatida munosib o'rin egallagan adib, shoir, olim, yirik davlat arbobi va sarkarda. Uning jahon ommasiga mashhur bo'lgan shoh asari «Boburnoma»dan tashqari, «Mubayyin», «Xatti Boburiy», «Harb ishi» kabi asarlari va go'zal she'riyati mashhurdir.

Ozodlik, mustaqillik, tinchlik, adolat, tenglik, hamkorlik, do'stlik, birodarlik, hurfiylik, ma'rifatlik, bag'rikenglik, xalqparvarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, xayrixohlik, barqarorlik, tadbirkorlik, ishbiarmonlik, halollik, poklik va h.k. bunyodkorlik g'oyalarning ko'rinishlari bo'lsa, kelajakda ishonch, adolat, haqiqatni tan olish, jur'atli bo'lish, sobitqadamlik, mehr-muruvvat, sahovatlilik, bay-nalminallik, millatlararo do'stlik va birodarlik, fidoyilik, yurtga sadoqatlilik, tardqquyparvarlik, iymon-e'tiqodlilik, vijdon erkinligi, safarbar etish,

uyushtirish, farovonlik, tashabbuskorlik, ezigulik, yaratuvchilik, fikr erkinligi va g'oyalarning xilma-xilligini tan olish, bag'rikenglik—bunyodkor g'oyalarga xos xususiyatlardir.

### Vayronkor, yot g'oya va mafkuralarning jamiyat hayotiga salbiy ta'siri

Vayronkor g'oyalar — jamiyat, xalq va davlatlarning tanazzuli-ga sabab bo'ladi, g'ayriinsoniy maqsadlarga xizmat qiladi.

Insoniyat tarixida ezigulik va bunyodkorlik g'oyalari bilan yovuzlik va buzg'unchilik g'oyalari o'rtasida hamisha kurash bo'lganligi tarixdan ma'lum. Yovuzlik g'oyalari tarixda hamisha salbiy va yovuz kuchlar faoliyati hamda hukmronligini ifodalaydi. Salbiy yarishlarga turtki bo'lgan g'oyalarga, irqchilik, fashizm, terrorizm, mustamlakachilikni targ'ib qiluvchi g'oyalarga misol bo'ladi.

Insoniyatning, jumladan, O'zbekistonning bir necha yuz yillik tarixida ham turli bosqinchiliklar oqibatida zulm, zo'ravonlik, kulfat urug'larini sochish va qon to'kilishiga sabab bo'lgan buzg'unchi g'oyalar va mafkuralarning halokatli ta'siri bilan bog'liq voqealar ko'p bo'lgan. Bu g'oyalar o'zlarida mustabidlik intilishlarini goh yashirin, goh oshkora ifodalagan holda amalga oshgan.

Jumladan, bolshevizm bilan bir qatorda, XX asrning boshida mustabid g'oya va mafkuraning boshqa shakli — fashizm paydo bo'ldi.

Fashizm (ital. Fasismo—bog'lam, birlashma)—G'arb mamlakatlarida XX asr boshlaridagi og'ir iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy buxronlar davrida vujudga kelgan o'ta tajovuzkor va vayronkor g'oyalar asosida shakllangan insoniyatga qarshi nazariya va amaliyot. U jamiyatda o'ta reaksiyon va tajovuzkor doiralarning dunyoqarashi va manfaatini ifoda etgan holda, ochiqdan-ochiq terroristik diktaturaga, zo'ravonlik g'oyasiga tayanadi. Fashizمنىning muhim xususiyati — ochiqdan-ochiq shovinizm va irqchilik bo'lib, uning mohiyati jamiyatning barcha taraqqiyparvar qatlamlari, ilg'or fikrli a'zolariga qarshi kuch ishlatishning eng og'ir va zararli shakllarini qo'llash jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Fashizm o'z kirdikorlarini yashirish va xaspo'shlash uchun siyosiy tilyog'lamalik, yolg'on va bo'htonlardan ustalik bilan foydalanadi.

Fashizمنىning tashqi siyosati bosqinchilikdan va xalqaro terrorchilikdan iborat bo'lib, bunday siyosiy rejimlar XX asrning 30-yillarida Italiyada, Germaniyada, Portugaliyada, Ispaniyada va Sharqiy Yevropaning boshqa bir qancha mamlakatlarida o'rnatilgan edi. Fashistlar Germaniyasi militaristik Yaponiya bilan ittifoq tuzib, 1939-1945 yillardagi ikkinchi jahon urushini boshlagan. Bu urush insoniyatga mislsiz kulfat va falokatlar keltirdi, 50 milliondan ortiq odam halok bo'ldi, yuzlab shahar va qishloqlar vayron qilindi.

O'tgan asrning 70-yillariga kelib, Portugaliya, Gresiya, Ispaniyada ham fashistik tartiblar barbot bo'ldi. Ammo bugungi kunda ham ba'zi mamlakatlarda (Avstriya, Germaniya va b.) fashistik unsurlarning muayyan darajada faollashuvi kuzatilmog'da. Yangi fashizm g'oyasi insoniyat uchun zararli ekanligini har bir inson anglamog'ilozim.

Bolshevizm mafkurasini bo'lgan kommunistik ta'limot xalqlarning milliy-etnik o'ziga xosliklarini yo'qotish, «proletar baynalmilalligi» shiori bilan maydonga chiqqan bo'lsa, fashizm bir hukmron millatning «irqiy-etnik sofligi»ni mutlaqlashtirishni targ'ib-tashviq etdi. U irqchilikning homiysi hisoblanadi.

«Rasizizm» so'zi «rasa» (irq) atamasidan kelib chiqqan. Bu atama XVII asrdan boshlab Yevropada «insoniyat nasli»ni turli irqiy guruhlar, jumladan, «oq» va «sariq» irqqa ajratish uchun qo'llana boshladi.

Irqchilik—odamlar o'rtasidagi ijtimoiy tengsizlik, bosqinchilik, zo'ravonlik va urushlarni kishilarning turli irqqlarga mansubligi bilan oqlashga xizmat qiluvchi g'ayri-milliy ta'limot.

Irqchilik ta'limoti «oq tanli»larning afzalligi, ularning azaldan «oliy irq» etib tanlangani, boshqa irqqlarning esa «oq»larga qaraganda nomukammal yaratilganligi va hamisha taraqqiyotning quyi pog'onalarida turishini «asoslab» beradi. Uning asosiy g'oyasi



o'zining «ilohiy» tabiatiga ko'ra «oq» irqlarni «quyi» irqlar ustidan hukmron qilishga da'vat etishga qaratilgan edi. Irqchilik milliy mansubligi va terisining rangiga ko'ra farqlanib turuvchi kishilarga tazyiq o'tkazish, ularni haqoratlash, urish va o'ldirish kabi harakat-hodisalarda yaqqol namoyon bo'ldi. U buyuk davlatchilik, ashaddiy shovinizm, «tanlangan» xalqlarning milliy afzalligi g'oyalari bilan Chambarchas bog'lanib ketadi.

Irqchilik ta'limoti boshqa xalqlarga nisbatan bosqinchilik, talonchilik amaliyoti bilan yaqindan bog'liqdir. Irqchilik ta'limoti bilan qurollangan fashistlar Germaniyasi «oriylar irqi» hukmronligini o'rnatish maqsadida jahon urushini boshlagani bunga yaqqol misoldir. Hozir ham reaksiyon mafkuraga asoslangan kayfiyatdagi ayrim guruhlar, ularning nazariyotchilari irqchilik g'oyalari targ'ib etib, «qoloq» xalqlarning go'yo mustaqil rivojlanishga ruhiy tayyor emasliklarini da'vo qilmoqdalar. Dunyoning turli mintaqalaridagi bunday qarashlar va harakatlarni xalqlar ozodligini bo'g'ishga, ular ustidan hukmronlik o'rnatishga intilish deb tushunish mumkin. Sobiq ittifoq parchalanib ketganidan so'ng ba'zi imperiyacha fikrlovchi ayrim siyosatdonlar va ularning nazariyotchilari qarashlarida ham irqchilik kayfiyatlari paydo bo'lganini kuzatish mumkin. Bunday qarashlarning asossiz ekanini hayot ko'rsatmoqda. Ma'lumki, irqlar odamlarning ikkilamchi tashqi nasliy xususiyatlari (badanining rangi yuz-bosh tuzilishi kabi belgilari) bir xil bo'lgan, tarixiy davrda shakllangan guruhlardir. Dunyoda yevropalik, mo'g'ul va negrlilik belgilariga qarab ajratiladigan uch asosiy irq bor. Insonning jismoniy tuzilish asoslari (suyak, mushak, miya va tananing boshqa a'zolari) barcha irqqa mansub kishilarda bir xildir. Butun insoniyat yagona biologik turga—«*Nomo sapiens*»ga mansubdir. Tarixiy taraqqiyot davomida irqlarning aralashuvi—irqiy belgilarning o'zgarishi sodir bo'lib kelgan va u hozir ham davom etmoqda. Barcha irqlar madaniy taraqqiyotga birdek qobiliyatlidir. Irqchilik insoniyatga qarshi g'oyadir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida barcha irqlar va millatlarning teng huquqliligi belgilab qo'yilgan. Bu qoida jahon hamjamiyatining xalqaro huquq me'yorlariga javob beradi.

Bugungi kunda insoniyatga katta tahdid solayotgan yana bir eng yovuz g'oyalardan biri — terrorizmdir.

Terrorizm (lot. Teggog — qo'rquv, dahshat) — ma'lum yovuz maqsad yo'lida kuch ishlatib, odamlarni jismoniy yo'q qilishdan iborat bo'lgan g'oyaga asoslangan zo'rvonlik usuli. Qo'rqitish va dahshatga solish orqali o'z hukmini o'tkazishga urinish terrorchilikka xosdir. U iqtisodiy, siyosiy, diniy, g'oyaviy, irqiy, milliy, guruhiy, individual shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Jamiyatga doimiy qo'rquv, fitna, g'alamsizlik muhitini vujudga keltirish, zo'rvonlik yo'li bilan jamiyat barqarorligini buzish, gunohsiz kishilar, jumladan, bolalarning halok bo'lishiga olib keladigan siyosiy maqsaddagi o'ldirish va portlatishlar bu muhdish g'oyaning asl mohiyatini tashkil etadi.

Terrorizm harakatlari insoniyat tarixida yangilik emas. U insoniyat hayotiga tahluka va tahdid solib, turli g'arazli maqsadlarning, g'oyalari va xohish idoralarning timsoli sifatida yashaydi. Terrorizm ma'lum bir guruhning shaxsiy manfaatlari, o'z orzu-umidlari va g'ayriinsoniy xatti-harakatlarining majmuasidir. Ayni paytda, u ana shu maqsadlarning amalga oshishi uchun har qanday xunrezliklardan, qotilliklar va zulmdan qaytmaydi.

Terrorizm xatti-harakatlarining mazmuni va mohiyati bevosita zo'rvonlik, inson hayotiga tahdid va uning huquqlarini poymol etish bilan bog'liq bo'lgan. U butun mamlakatni xonavayron qilishga olib kelgan xalq, millat va mamlakat taqdirini butunlay boshqa o'zanga burib yuborib, o'z maqsadi va g'oyalarning ro'yobga chiqishi uchun hech narsadan tap tortmasdan hokimiyatga erishish da'vosidir. Ayni paytda, u har qanday fikrlash, aql-idrok doirasida ish yuritishdan xoli bo'lgan shafqatsizlik, ashaddiy xunxo'rlik, jazava va tazyiq bilan yovuz niyatini amalga oshiradigan bir to'da olomon faoliyatidir.

Terrorizm turli mamlakatlarda xilma-xil shakllarda va har xil maqsadlar asosida dunyoga keladi. Ma'lum bir mamlakat xalqlarining dunyoqarashi, ma'naviy-ruhiy Qiyofasi, aniqrog'i, ehtiyojlari, turmush tarzi bevosita ana shunday jaryonlarning shaklini,

qiyofasini, mohiyatini va rivojlanish jarayonlarini, boshqacha qilib aytganda, evolyusiyasini belgilaydi.

Uzlarning yovuz niyatlariga erishish uchun hokimiyatni Qo'lga kiritishni ko'zlovchi kuchlarning zo'ravonligi va qo'poruvchiligi siyosiy terrorga misol bo'ladi. Siyosiy terrorizm nafaqat jinoyatchi guruhlar, hatto ba'zi reaksion, agressiv ruxdagi rasmiy siyosiy kuchlar tomonidan uyushtirilishi va qo'llanishi ham mumkin.

Chorizm imperiyasining kolonial va shovinistik siyosati, sovet imperiyasining g'oyaviy qatog'onlari xalqimizga qarshi o'ziga xos terror edi. Bugungi kunda ham mustaqil rivojlanish yo'lidan borayotgan mamlakatimizga nisbatan g'araz niyat bilan qarovchi «yovuz» kuchlar terrorchilik yo'li bilan taraqqiyot yo'limizdan chalg'itishga, bizni qaramlikka, asoratga solishga urinmoqda. Ular vatanfurush xoinlardan ham, terrorchilikni «kasb» qilib olgan, «buyurtma» bo'yicha qo'poruvchilik va bosqinchilik bilan shug'ullanuvchi yollanma xalqaro terrorchi, jinoyatchi guruhlardan ham foydalanmoqdalar. 1999 yilgi fevral voqealari, Amerika Qo'shma Shtatlarida 2001 yil 11 sentabrda sodir bo'lgan voqealar, dunyoning turli mamlakatlarida amalga oshirilayotgan xuzrezliklar terrorchilar o'z maqsadlari yo'lida hech narsadan top tortmasliklarini ko'rsatib turibdi.

Mamlakatimiz Prezidenti I.K. Karimov «Nezavisimaya gazeta» (Moskva)ning muxbiri Viktoriya Panfilovaga (2005 yil 14 yanvar) bergan intervyusida: «Xalqaro terrorizm» tushunchasi 2001 yilning 11 sentabridan ayniqsa urf bo'ldi. Biroq bundan ancha avval ham Italiyada «Qizil brigadalar» va Germaniyada «Baoder-mayn xof» bir paytlar tinchlikni talab qiluvchi tashkilot sifatida matbuotga chiqqan, bugunga kelib esa eng ashaddiy terrorchilar, qotillar va zo'ra-vonlarni yetkazib beradigan tashkilotga aylangan. «Xizbut-tahrir»ni misol qilib keltirish mumkin. Shu sababli ham bizning ishonchimiz komilki, avvalambor, terrorchilar tomonidan yoshlarning ongiga singdirib, ularni elaktirishtirib ishlarga tortadigan yovuz mafkuraga qarshi keskin kurash olib borish kerak. «Terrorchilikka qarshi kurashda bizning prinsipimiz nuqtai nazarimiz o'zgartirani yo'q» — deb ta'kidlaydi<sup>24</sup>.

Darhaqiqat, terrorizm qanday bayroq ko'tarib chiqmasin, qanday shiorlar bilan riqoblanmasin, uning reaksion, jinoyatkorona mohiyatini farqlab olish, yovuz niyatini ochib tashlash ongli, hur fikrli insonning, har bir vatanparvar fuqaroning burchidir.

Yovuz g'oyalardan yana biri buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv rmillatayilikdir.

**Buyuk davlatchilik shovinizmi** — bir davlatning boshqa davlat yoki davlatlar ustidan siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy va harbiy hukmronligini o'rnatishga qaratilgan nazariya va amaliyot.

Xususan, XIX asr oxiridan boshlab Rossiya imperiyasining hukmron doiralari boshqa xalqlarga, jumladan, O'rta Osiyo xalqlariga nisbatan ana shunday siyosat olib borganlar. Ikkinchi jaho n urushidan keyingi davrlarda ham bir qancha mamlakatlar buyuk davlatchilik siyosatini xilma-xil ko'rinishda olib bordilar.

Prezident I.A. Karimov o'zining «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik xavfsizligimizga tahdid solayotgan muammolardan biri ekanligini alohida ta'kidlagan: «O'tgan mustaqil rivojlanish yillari davlatimizning suvereniteti va barqarorligiga tahdid saqlanib qolmoqda, deb aytilish uchun asos bo'la o'ladi. Bu tahdid buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik ruhidagi shiorlarda, bildirilayotgan fikrlarda, sharhlarda va muayyan hatti-harakatlarda namoyon bo'lmoqda»<sup>25</sup>.

Buyuk davlatchilik shovinizmi g'ayriinsoniy xususiyatga ega bo'lib, boshqa xalqlarni qaram qilish, iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayotda ularni kamsitishning o'ziga xos shaklidir.

Shovinizmning tarixan halokatli ekanligiga sabab shuki, haddan tashqari kuchayib ketgan va ayniqsa, o'z milliy mumtozligiga ishonishga asoslangan buyuk davlatchilik

zo'ravonlik asosiga qurilganligidadir. Bu esa, o'z navbatida, buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilikni ifoda etuvchi davlatlarning o'zida ko'plab qurbonlar va yo'qotishlarga olib keladi.

Shu bois aytish mumkinki, shovinizm, pirovardida, davlatning o'ziga zarba beradi, uning poydevorini kuchsizlantiradi, ichki ziddiyatlarni ko'chaytiradi. U jamiyatni parchalab yuborishga va uning uchun og'ir bo'lgan oqibatlarni keltirib chiqarishga qodir. Garchi tarixiy davrlari va shart-sharoitlari turlicha bo'lsada, Rim, Usmonlilar, Germaniya hamda Rossiya va Sovet imperiyalarining tarixidan bunga ko'plab misollar topish mumkin.

Shovinistik kuchlar bugungi kunda, birinchidan, mamlakat aholisiga axborot orqali va mafkuraviy yo'l bilan tazyiq o'tkazish, ikkinchidan, mintaqa davlatlari ichida ziddiyatlarni yuzaga keltirish, uchinchidan, jahon afkor ommasida O'zbekiston haqida noto'g'ri tasavvurlarni shakllantirishga harakat qilmoqda. Bu yo'lda ular xilma-xil usul va vositalardan foydalanmoqdalar.

Buyuk davlatchilik shovinizmi ham jaholatning bir ko'rinishi. Unga qarshi faqat ma'rifat bilan kurashish mumkin. Bunda, ayniqsa, xalqaro hamjamiyat, jumladan, uning teng huquqli a'zosi bo'lgan har bir davlat bilan o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatish yaxshi omil bo'lib xizmat qiladi. Ana shundagina mintaqamiz hech qachon sivilizatsiyalar to'qnashmaydigan, balki ular bir-biriga ijobiy ta'sir etib, bir-birini boyitadigan makonga aylanadi.

Diniy aqidaparastlik esa — siyosiy maqsadlar yo'lida mavjud ijtimoiy muammolarni ilk, ya'ni mazkur din paydo bo'lgan paytdagi arkonlar asosida hal etmoq niyatidagi harakat va qarashlardan iborat.

Aqidaparastlar diniy e'tiqod shakllanishining boshlang'ich davrida belgilangan, o'sha zamonadagi siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarga mos bo'lgan barcha yo'l-yo'riqlarning qat'iy hamda og'ishmay bajarilishini talab qiladilar va shu tariqa diniy oqimlarni ifodalashda qo'llanadigan isl ohot shaklini shart qilib qo'yadilar.

Islom arkonlarini niqob qilib olgan aqidaparastlarning asosiy g'oyasi — «sof islom» qat'iyatlariga (prinsiplariga) qaytish, maqsadi esa islomiy davlat joriy etishdan iborat. Aqidaparast guruhlar haqiqatni tushuntirish, ishontirish kabi usullar orqali targ'ib etishni tan olmaydi. Ular o'z g'oyalari bid'atli, g'ayriinsoniy bo'lishiga qaramasdan, o'ta johil va boshqalarga nisbatan murosasiz munosabatda bo'ladilar. O'zini shak-shubhasiz haq deb bilish, haqiqatni faqat men bilaman, degan qarashga asoslangan man-manlik esa, zo'ravonlikni yuzaga keltiradi. Ya'ni, aqidaparastlik ekstremizmning paydo bo'lishiga zamin yaratadi.

O'zbekistonda diniy ekstremizm va aqidaparastlikning islom dini niqobidagi ekstremizmi va aqidaparastligi shakli mavjud va aynan shu omil milliy xavfsizligamizga tahdididir.

Aqidaparastlarning g'oyalari o'ta zararli bo'lib, ularning fikricha, biz millatimizni jahonga tanitgan allomalarimiz Xorazmiy, Beruniy, Forobiy, Ibn Sino, Navoiy, Ulug'bek va tariximizdagi barcha ulug' zotlardan mahrum bo'lishimiz kerak. Chunki aqidaparastlar nazarida qarda tasavvuf bo'lsa, komil inson g'oyasi bo'lsa, bularning barchasi islomga va bizga yot va begona emish. Ular komil insonni kufr, deb bilishadi. Ularning fikricha, inson komil bo'lishi mumkin emas. Imom Termiziy, Najmiddin Kubro, Abdulxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy singari buyuk zotlar, jumladan, ota-bobolarimiz xilxonalarini va muqaddas joylarni tavof va ziyorat qilmaslik kerak emish. Bularning barchasi bizing turmush tarzimiz, milliy xususiyatlarimiz, an'alarimiznigina emas, xalqimizning o'ziga xos psixologiyasini ham barbod qilishga qaratilgandir. Tasavvufning komil inson g'oyasida insonning erki va taraqqiyoti ifodalanganligi diniy aqidaparastlar g'azabini keltiradi. Aqidaparastlik — jaholatdan boshqa narsa emas. U insonni bir mute, qul, taqdirning o'yinchog'i deb qaraydi. inson qalbi, ma'naviy ehtiyojlari bilan mutlaqo hisoblashmaydi.

Fundamentalistlar esa tasavvuf ta'sirida shakllangan adabiyot, falsafa, san'atdan ham voz kechish, umuman aql va his bilan yaratilgan barcha narsalarni yo'q qilishni talab qiladilar.

Aqidaparastlik va fundamentalizmning namoyon bo'lishini dunyoning ba'zi mamlakatlarida bugungi kunda mavjud hukmron dindan boshqa dini targ'ib qilganlar jazolanganligi, boshqa din va uning madaniy yodgorliklariga munosabatda bo'lib, uni yo'q qilishga urinishlarida ko'rishimiz mumkin. Masalan, Afg'oniston hududidagi buddizm diniga mansub 15 asr ilgari bunyod etilgan Bamiyon shahridagi madaniy yodgorliklar ham yo'q qilinishiga fatvo berilib, dunyodagi eng yirik va noyob Budda yodgorliklari tuti-lib, buzib tashlandi. Bu johilona xatti-harakatlar islom dini va tasavvuf ta'limotining o'zga dinlarga nisbatan bag'rikenglikka asoslangan munosabatlariga mutlaqo zid bo'lganligi uchun ham butun dunyo musulmonlari va barcha taraqqiyparvar kuchlar tomonidan qoralandi.

Islom dinining tasavvuf ta'limoti ahli esa hayotga va inson masalalariga keng qaraganlar. Bu chin ma'nosi bilan insonparvarlik ta'limotidir. Chunki so'fiylar, garchi chin musulmon sifatida shuhrat qozonib, islom dini uchun kurashgan bo'lsalarda, ammo hech qachon o'zga dinlarni kamsitmaganlar. Shu sababli ham tasavvuf diniy bag'rikenglik ta'limoti, inson kamolotiga yo'l qidirgan hamda jaholatga qarshi kurashib kelgan ma'rifiy ta'limotdir.

Aqidaparastlikka qarshi turadigan kuch—bu ilm-ma'rifatdir. Asrimiz boshida ham jadidlar yangi maktablar tashkil etib, yoshlarga dunyoviy bilim berib, aqidaparastlikka qarshi kurashgan edilar. Aqidaparastlar «dinni tozalash», «sof dinga qaytish» niqobi ostida tashviqot olib borib, odamlarni tahlikaga solish, qonli jinoyatlar sodir etish, jamiyatni xavf ostiga qo'yishga urinmoqdalar. Ularning bu xatti-harakatlari yosh mustaqil davlatimizga ochiqdan-ochiq tajovuzdan boshqa narsa emas, u milliy mustaqilligimizga ham qatta tahdidir.

**Diniy ekstremizm** — ma'lum siyosiy maqsadlar yo'lida va din niqobi ostida mutaassiblar yoki ularning irodasiga ko'ra ish ko'ruvchi guruhlar tomonidan olib boriladigan o'ta ashaddiy harakatlar va qarashlar majmuini anglatadi.

Boshqacharoq aytganda, diniy ekstremizm — muayyan diniy yo'nalish va tashkilotlardagi ashaddiy mutaassib unsurlar siyosiy faoliyatining mafkurasi. Bu fikrning isboti sifatida «Musulmon birodarlari» va undan ajralib chiqqan ko'plab diniy ekstremistik ruhdagi guruh va tashkilotlar tayanadigan asosiy g'oyalarni eslab o'tishimiz mumkin.

«Musulmon birodarlari» hech qanday ma'muriy-jo'g'rofiy hududni tan olmaydilar va pirovard maqsadda yer yuzidagi barcha mamlakatlarda yagona musulmonlar birligi va ularning diniy va dunyoviy hokimiyatini o'zida mujassamlashtirgan «xalifa» rahbarligidagi yagona musulmon davlati qurishni ko'zlaydilar. Bu shartni bajarmoq, niyatga yetmoq uchun har qanday xunrezlikka va birodarkushlikka fatvo beriladi.

Diniy ekstremizm namoyon bo'lishiga ko'ra hududiy, mintaqaviy, xalqaro shakllarga bo'linadi. Bunday qarashlar juda qadimiy ildizlarga ega bo'lib, hech qachon chegara bilmagan, millat, hududni tan olmagan, diniy ekstremizm barcha dinlar doirasida rivojlangan. Diniy ekstremistlar qaerda va qaysi din bayrog'i ostida faoliyat ko'rsatmasin, asosiy maqsadi diniy davlatni barpo qilish bo'lib, bu maqsadga o'zaro nizolar, ixtiloflar, qurolli to'qnashuvlar orqali, ya'ni qon to'kish va zo'rlilik bilan erishishni ko'zlaydilar.

Bu esa mustaqillikka ham, taraqqiyotga ham katta g'ov bo'ladi. Ekstremistik guruhlarining yagona maqsadi hokimiyatni qo'lga olish bo'lib, bu yo'lida ular eng jirkanch usullarni qo'llashdan ham tap tortmaydilar. Bugungi kungacha kelib ekstremizm nafaqat islom dunyosida, balki boshqa dinlar tarqalgan hududlarda ham, to'la-to'kis namoyon bo'lib qolmoqda.

Dunyoda inson huquqlari va demokratik tamoyillar ustuvor bo'lib borayotgan, qonun hamda xalqaro huquq qoidalari mamlakatlar, xalqlar, davlatlar orasidagi munosabatlarning asosiy tamoyiliga aylanayotgan hozirgi davrda diniy ekstremizmga o'rin qolmayapti. Ammo, bu unga qarshi kurashmaslik, hushyorlikni oshirmaslikni bildirmaydi. Mazkur sohada ham Prezidentimiz uqtirganlari kabi ogohlik, ezgu g'oyalar yo'lida kurash olib borish hayot va faoliyatning asosiy mezonini bo'lib qolmoqda.

Diniy ekstremizmni keltirib chiqaruvchi sabablar:

— dindan foydalanib, dinga aloqasi bo'lmagan siyosiy hamda boshqa tajovuzlar va maqsadlarni amalga oshirish uchun intilish;

— dinni niqob qilib, turli siyosiy mojarolar, ziddiyatlarni keltirib chiqarishga urinish;

— inson, millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini emas, balki dinning yashashga bo'lgan huquqini e'tirof etish;

— dinni dunyoqarash, tafakkurning yagona vositasi deb hisoblash.

O'z-o'zidan ravshanlik, bu hodisalar O'zbekistoning mustaqilligini mustahkamlash, uning xavfsizligini ta'minlash zarurligi nuqtai nazaridan qaraganda butunlay zararli g'oyalardir.

Hozirgi kunda bizning turmush tarzimizga, ruhiyatimizga nisbatan qilinayotgan ma'naviy-ma'rifiy hurujlarning turli usullari tobora noziklashib borayapti. Zararli g'oyalarni turli kinofilmlar, televidenie ko'rsatuvlari va radio eshittirishlari shaklida, gazeta-jurnallar, internet tamog'i va boshqa yo'nalishlarda uzluksiz ravishda taqishtirib, bizning milliy qadriyatlarimizni barbod etishga, mafkuraviy immunitetimizni susaytirishga, yoshlarimizni soxta g'oyalarning ta'siriga olishga muntazam harakat qilinmoqda. Yot, zararli g'oyalarning mamlakatimizga kirib kelishi xalqning milliy g'oyasini (maqsad va intilishlarini), taraqqiyot yo'lini o'ziga xos va mos bo'lmagan yo'nalishga burib yuborish, mamlakatlarning ijtimoiy, ma'naviy, siyosiy hayotini o'zgartirib yuborishi mumkin. Begona g'oyalarning mamlakatga kirib kelishi va fuqarolar o'rtasida tarqalishi katta xavf, salbiy oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkinligini e'tiborga olib, Abu Nasr Forobiy o'z vaqqida begona g'oyalarning zarari to'g'risida: «O'zga, begona g'oyalar kirib kelib, xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, an'analari tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin»<sup>26</sup>, deb yozgan edi.

Sobiq ittifoq davrida yurtimizga begona g'oyalar kirib keldi. Begona ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, siyosiy hayot qaror topdi. Turmush tarzimizdan begona urf-odat, an'analar joy oldi. O'zimizga xos va mos bo'lmagan kommunizm g'oyasi bilan yashay boshladik. Xalqimizning azaliy turmush tarzi, urf-odatlari psixologiyasi, qadriyatlari, insoniy munosabatlari, tarbiyasiga o'ta salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Bunday g'oyalar inson tabiatiga zid bo'lib, uni salbiy tomonga o'zgartiradi, unda nosog'lom turmush tarzini shakllantiradi, fikrlar xilma-xilligini cheklaydi, qaramlik, tobelik, mutelik muhitini yaratadi. Milliy tafakkur tarzini o'z negizlaridan begonlashtiradi, begona urf-odat, an'analarni targ'ib qiladi, ularning kirib kelishiga muhit yaratadi, mamlakatni, xalqni o'z milliy qadriyatlaridan, oxir-oqibat o'z taraqqiyot yo'lidan begonlashtiradi, jamiyatda xalqlar va millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglikka rahna solib, ichki ixtiloflar, parokanda-likka olib keladi.

Oilada yoshlarga sog'lom tarbiya berish, fuqarolarning imon e'tiqodini mustahkamlash, milliy g'urur va iftixor bilan yashashga erishish, har tomonlama komil shaxslik qilib tarbiyalash, mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, fuqarolar ongida milliy istiqloq g'oyalarini shakllantirish orqali urning oldini olishi mumkin.

Milliy istiqloq g'oyasiga zid salbiy holatlar: Befarqlik, maqtanchoqlik, xushomadgo'ylik, hasadgo'ylik, manmanlik, haqiqatni mensimaslik, tanish-bilishchilik, mahalliychilik, mansabparastlik. Ularni bartaraf etish uchun jamiyatda erkin fikr va fikrlashlar, g'oyalar xilma-xil-ligi, tanqid va o'z-o'zini tanqid muhitini yaratish,

demokratiya va oshkoralik muhitini kuchaytirish, sog'lom va erkin raqobat muhitini yuzaga keltirib, jamiyatda ilm-ma'rifatning mavqeini yanada oshirish zarur.

## VIII-MAVZU: "G'OYAVIY TAHDIDLARNING YO'NALISHLARI. MAFKURAVIY TAJOVUZ VA AXBOROT XAVFSIZLIGI" – 2 SOAT.

### Reja:

1. XXI asrda mafkuraviy munosabatlar keskinlashuvining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy sabablari.
2. Mahalliychilik, millat-chilik, unug' aymog'chilik, korrupsiyaga qarshi kurash mafkuraviy mustaqillik kafoloti.
3. Mafkuraviy tajovuz va unga qarshi milliy xavfsizlikni ta'minlash zarurati. Mafkuraviy tahdidning oshkora va vopiq xarakteri. Axborot xavfsizligining lokal va global ahamiyati.
4. "Mafkuraviy faoliyat" tushunchasi, uning mazmun-mohiyati va namoyon bo'lish xususiyatlari.

Milliy istiqloq g'ovasiga zid salbiy holatlar: Befarqlik, maqtanchoqlik, xushomadgo'ylik, hasadgo'ylik, manmanlik, haqiqatni mensimaslik, tanish-bilishchilik, mahalliychilik, mansabparastlik. Ulam barta'raf etish uchun jamiyatda erkin fikr va fikrlashlar, g'oyalar xilma-xil-ligi, tanqid va o'z-o'zini tanqid muhitini yaratish, demokratiya va oshkoralik muhitini kuchaytirish, sog'lom va erkin raqobat muhitini yuzaga keltirib, jamiyatda ilm-ma'rifatning mavqeini yanada oshirish zarur.

XXI asr boshlariga kelib, Markaziy Osiyoning ijtimoiy-siyosiy manzarasi uzgarib ketdi. "Xozirgi davrda Markaziy Osiyo siyosiy xaritasida ro'y bergan tub o'zgarishlar tufayli bu mintaqaga nisbatan geopolitik yondoshuvlarning ifodasi bo'lgan mafkuraviy kuchlar ulkan iqtisodiy salohiyat va qulay geopolitik mavqega ega bo'lgan bu mintaqani o'z manfaatlarini doirasiga tortishga intilmoqda. Ular o'z maqsadlariga erishish uchun ta'sir va bosim o'tkazishning barcha shakllarini qo'llamoqda".

Mazkur mavzu uchun Prezidentimizning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asari asosiy manba bo'lib hisoblanadi.

Mazkur asarda Islom Karimov tomonidan ko'rsatib berilgan xavfsizlikka tahdidlar, ularning umumbashariy va mintaqaviy xususiyatlari batafsil bayon qilingan. Ana shu tahdidlar orasida mintaqaviy jihatning ahamiyati alohida o'rin tutadi.

«Geosiyosat» tushunchasi o'zida ("geo"- "yer", "siyosat" esa – "davlat" va "ijtimoiy ish") ma'nolarini anglatadi. "Geosiyosat" atamasida geosiyosiy muddaolalar, ularning ko'rinishlari, turli xil davlat va xalqlarning manfaatlarini tizimi, unga bulgan yondashuv uslublari, vositalari, u yoki bu davlatning hududiy joylashuvi, salohiyatiga bo'lgan munosabatda ifodalangan maqsadlar o'z ifodasini topadi.

«Geosiyosat» uzoq tarixga ega bo'lsa-da, u tushuncha sifatida XX asrning boshlarida shakllangan. Bu atama R.Chellen tomonidan muomalaga kiritilgan bo'lib, hozirgi davrda davlatlar va dunyo mamlakatlari xalqaro siyosatida, falsafada, siyosat falsafasida keng qo'llanilmoqda. Geosiyosat ko'p qirrali tushuncha sifatida turli manfaatlarni o'zida mujassam etadi.

Hozirgi davrda geosiyosiy maqsadlarning ko'proq mafkuraviy siyosat bilan hamohangligini alohida ta'kidlash zarur. Bunda mafkuraviy ta'sir ko'rsatish geosiyosatning eng ta'sirchan vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Ya'ni, turli davlatlarning maqsadlari xalqning turli qatlamlari, xususan, yoshlar ongi va qalbiga mafkuraviy ta'sir ko'rsatish orqali ularning faoliyatini o'z ta'siriga, ya'ni manfaatlariga yo'naltirilgan mafkuraviy muhitni yaratishni ko'zlagan holda amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonni to'g'ridan-to'g'ri ko'ra bilish, uning qanday amalga oshirishini aniq bilish qiyin va murakkabdir. Ana shu sababdan ham

Prezidentimiz mafkuraviy poligonlar, yadro poligonlariga qaraganda, xavfliroq bo'lib qolganligini alohida ta'kidlaganlar.

Yadro poligonlari qareda joylashganini, uning quvvatini, qanday maqsadga yo'nalganligini muayyan darajada aniq bilish mumkin. Ammo, yovuz va yot mafkuraviy maqsadlarni qardan va qanday yo'llar bilan insonlar qalbini egallab olayotganligini osonlikcha bilib bo'lmaydi.

XX asr boshlarida Rossiyadagi oktabr davlat to'ntarishi va ayniqsa, ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda siyosatda ham, mafkurada ham amalda bir-biriga tamoman qarama-qarshi bo'lgan ikki ijtimoiy-siyosiy qutb, ikki tizim shakllandi.

"Sotsialistik" deb atalgan qutbda XX asr 80-yillaridan boshlanib, 90-yillarda poyoniga yetgan parokandalik, o'z navbatida, jahondagi ikki mafkuraviy yo'nalishni belgilab berdi. Birinchisi shuki, jamiyatni xayoliy (utopik) istiqbollar bilan chalg'itib kelgan kommunistik mafkuraning tanazzuli va yemirilishi oqibatida, u yakka hukmronlik qilgan ijtimoiy makonda sarosima, tahluka hamda mafkuraviy bo'shliq paydo bo'ldi.

Ikkinchisi shuki, o'zlarining muayyan siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy manfaatlariga asoslanib, sobiq sotsialistik sistema hududidagi mamlakatlarni mafkuraviy-g'oyaviy jihatdan bo'lib tashlashga urinish kuchaydi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ikkinchi jahon urushidan keyin xalqaro miqyosda kuchayib borgan va siyosiy mavqega ega bo'lgan patsifistik harakatlar jahon progressiv kuchlari tomonidan, xususan, 1954 yilda e'lon qilingan «Rassel-Eynshteyn» Manifesti ta'sirida shakllangan yangicha siyosiy tafakkur, harbiy-siyosiy jihatdan qudratli bo'lgan mamlakatlarning dunyoni bo'lib olish uchun harakatlari strategiyasi va taktikasida muayyan o'zgarishlarni taqazo etadi. Xalqaro maydonda o'zgarishlar kuchli mamlakatlarning jahon siyosiy xaritasini o'z geostrategik istaklariga mos ravishda o'zgartirish ishtiyoqlarini chegaralab qo'ydi. Bunday sharoitda xalqlarni ma'naviy-mafkuraviy jihatdan tobe etish va pirovard natijada butunlay qaram qilib olishga intilishlar to'xtamadi. Zero, ma'naviy-mafkuraviy qaramlik har qanday millatning va davlatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini chegaralab, tobe bo'lishga olib kelishning sirdan qaraganda o'ta bezovon, «gumanistik» yo'lidir.

Biroq, millatni yoki davlatni mafkuraviy-ma'naviy qaram qilib olish, muayyan siyosiy hamda iqtisodiy manfaatlardan kelib chiqadi. Bu-birinchidan. Ikkinchidan, siyosiy yoki iqtisodiy qaram qilib olayotgan millat yoxud davlat o'z hukmronlik mavqeini mustahkamlash uchun, albatta, ma'naviy-mafkuraviy omillardan ham foydalanadi. Tarixiy dalillarga murojaat qilib, buni tasdiqlaydigan ko'pdan-ko'p misollarni keltirishimiz mumkin. Masalan, boy tabiiy resurslarga ega bo'lgan Turkistonning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi asosida ma'lum iqtisodiy manfaatlar yotganligi aniq. Chunki, 1850 yillargacha paxta xom-ashyosining asosiy qismini chorizm Amerikadan sotib olar edi. Lekin Amerikada shu yillarda janubiy va shimoliy shtatlar o'rtasida boshlangan fuqarolar urushi qishloq xo'jaligini izdan chiqarib, paxtaning bahosini keskin oshirib yubordi. Dastlab 4 rubl bo'lgan bir pud paxtaning bahosi 1860 yillarga kelib, 8 martaga o'sib, 32 rublga yetdi. Shunday vaziyatda Rossiya yengil sanoat korxonalari o'z vakillarini podsho Aleksandr II ning huzuriga yuborib, ag'ar Turkiston Rossiyaning paxta xom-ashyosi bazasiga aylantirilsa, barcha harbiy xarajatlarni o'z zimmalariga olishlarini bayon qilgan edilar.

Albatta, bunday buyuk davlatchilik gegemonizmning asosida boshqa siyosiy manfaatlar ham yotgan, xususan, Buyuk Britaniyaning Hindistonni bosib olib, Osiyoda o'z mavqeini mustahkamlashi Rossiyani befarq qoldirmagan edi. Lekin, bu o'rinda gap bosib olingan o'lkalarda mustamlakachilik siyosatini mustahkamlash uchun mafkuraviy usul va vositalardan foydalanish ustida ketmoqda. Mustamlaka o'lkalar xalqlarini tarixiy xotirasidan mahrum qilish, milliy o'zligini, g'ururini, iftixorini so'ndirish, an'analarini yo'qotish mafkuraviy tajovuz siyosatining bosh yo'nalishiga aylandi.

Uchinchidan, endilikda millatlarni, xalqlarni, davlatlarni ma'naviy-mafkuraviy qaram qilishning shunday mukammal sistemalari tarkib topdiki, ular iqtisodiy blokada, harbiy

po'pisa, siyosiy tajovuz, ichki ziddiyatlarni rag'batlantiruvchi moliyaviy yordam va boshqa shakllarda namoyon bo'lmoqda.

Buyuk davlatchilik gegemonizmi insoniyatning ijtimoiy-siyosiy patologiyasi sifatida, ayrim siyosatdonlar aytayotganidek, urnuminsoniyat barqaror rivojlanishiga emas, balki kichik millatlarning yo'qolib ketishiga olib kelishi mumkinligini tarixiy tajribalar ko'rsatib turibdi.

Hozirgi davrda planetamiz va mintaqamizning mafkuraviy xaritasida g'oyat rang-baranglikni ko'rishimiz mumkin. Bu XX asrdagi ilmiy texnika taraqqiyotining natijasi bo'lgan xalqaro va davlatlararo aloqa kommunikatsiyalari, informatsiya vositalari, texnologik integratsiya jarayonlarining kuchayib ketishi bilan izohlanadi. O'tgan asrning bu xususiyati har bir millatning, madaniyatning bir tomondan, o'zligini saqlab qolishiga bo'lgan instinktiv intilishlarini kuchaytirib yuborayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, integratsiyalashuv tendensiyasini kuchaytirdi.

Bugun «ikki qutbli mafkura» ortasidagi kurashga barham berilgan bo'lsa-da, ammo dunyoda mafkuraviy kurashlar to'xtab qolgan yo'q. Aksincha, jahon maydonlarini mafkuraviy bo'lib olishga urinishlar turli yo'llar bilan amalga oshirilmoqda. Masalan, O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritganidan keyin mafkura sohasida hayot osonlikcha kecmadi. Milliy istiqlob g'oyasiga zid bo'lgan va begona g'oyalarning kirib kelishiga va yoshlarimiz ongini egallashga, ularni namaklatimizda belgigan ulug' maqsadlarni amalga oshirishdan og'dirishda urinishlar bo'lganligining guvohimiz. Bunday harakatlarning tarafdorlari «do'st», «millatdosh», «vatandosh», «dindosh», bo'lib ko'rinib maqsadida o'z g'oyalarni amalga oshirishga urindilar. Natijada, milliy qadriyatlarimizga zid bo'lgan turli xil qarashlar aholi, ayniqsa, yoshlar ongini egallashga harakat qildi.

Jahon geosiyosatida xalqlarni ma'naviy-mafkuraviy jihatdan tobe etishga intilish va boshqalar.

20-asr ajoyib ilmiy kashfiyotlar asri, inson koinot sirlari qo'yniga kirib borayotgan asr, axborot va g'oyat ulkan texnikaviy imkoniyatlar asri bo'ldi. Shu birga bu asrning oxiri diniy qadriyatlarining uyg'onish davri, vazmin, bexuda urinishlardan xoli diniy manaviy o'ziga xos tarzda qaytish davri bo'lib qoldi.

Jaxondagi eng yirik dinlardan bo'lgan islom ham shu kabi yalpi intilishlardan chetda qolgan yo'q. Aksincha, musulmon dunyosida xatto undan tashqarida ham so'nggi o'n yilliklar mobaynida ro'y bergan voqealar jaxon xamjamiyatida, Islom ovozasini, deb atalgan hodisa hodisa haqida gapirish imkonini beradi.

Ko'plab siyosatchilar, olimlar, jurnalistlar 20-asr oxirida yuz bergan, "islom uyg'onishi", "qayta islomlashish", "islom fenomeni", va boshqa turli tuman nomlar bilan atalgan hodisaning sabablarini tushuntirib borishga qarab xarakter qildilar. Bu tushunchalar haqida munozaraga kirishmagan holda, etiborni jaxon jamiyati hayotida islom qadriyatlarini tiklash bayrog'i ostida ro' berayotgan xodisalar g'oyat xilma-xil ko'p qirrali, ba'zan ziddiyatli va xatto qarama-qarshi qutbli yekanligiga qaratmoqchiman.

Shu bilan birga, aniq-ravshanlik, jaxon jamiyatчилиги bu jarayonlarga juda katta qiziqish bilan qarabgina qolm ayapi.

Uning diniy ekstrimizm va fundamentalizm kabi keskin xodisalar munosabati bilan bezovtalanayotgan, ba'zan yesa xatto xavfsiz ravotgan, ham ko'zga tashlanmoqda. Afsuski, hozirgi zamon tarixida ana shu o'ta keskin ko'erinishlar jiddiy mojorolarni, ziddiyatlarni keltirib chiqarishi, barqarorlik va xavfsizlikka tahdid solishi mumkinligi insoniyatni cho'chityapti.

Shundan darak beruvchi fikrlar anch bunch to'olanib qolgan. O'zbekistonning mustaqilligini mustahkamlash xavsizligini ta'minlash zarurligi nuqta nazaridan qaraganda bu xodisalar bizda ham jiddiy tashvish tug'dirmoqda.

Diniy yekstrizm va fundamentalizm binzning mintaqamiz uchun tug'dirishi mumkin bo'lgan xavf xatarlarini bevosita tahlil qilishga kirishishdan oldin etiborini odamlarning diniy eti qodlari bilan bog'liq har qanday muammo g'oya nozik yekanligiga, ularning dinining manaviy qadriyatlarini bilan shiorlaridan, xususan islomni qayta tiklash shioridan foydalanayotgan



muayyan kuchlar ko'zlayotgan, dinga aloqasi bo'lmagan siyosiy tajavuskor maqsadlar o'rtasidagi farqni tushuntirib olishlari ga yerishish zarurligiga qaratusini istardim.

OAV - eng asosiy, qudratli va ta'sirchan mafkura vositasidir. Ommaviy axborot vositalari - axborotni keng jamoatchilikka yetkazib beruvchi matbuot, radio, televidenie kabi vositalarga nisbatan ishlatuvchi tushuncha. Ommaviy axborot vositalarining jamiyat hayoti, fuqarolar faoliyatiga ta'siri nihoyatda kuchliligidan ularga nisbatan «*to'rtinchi hokimiyat*» atamasi ham qo'llanadi.

Ommaviy axborot vositalari ommaning o'ziga xos tarbiyachisi, muhim tadbirlarning tashkilotchisi, dolzarb muammolarni hal qilishning ta'sirchan quroli bo'lib xizmat qiladi. Aynan ommaviy axborot vositalari orqali milliy qadriyatlarimiz va umuminsoniy qadriyatlar, milliy g'oya va demokratik tamoyillar targ'ib-tashviq qilinadi. Ommaviy axborot vositalari doimo demokratiya va so'z erkinligining o'ziga xos o'lchovi, ko'rsatkichi bo'lib kelgan. Erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalari demokratik taraqqiyotni rag'batlantiradi va mustahkamlaydi.

OAVlarning ta'sir kuchi unda beriladigan materiallarning harakteriga bog'liq bo'ladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, berilayotgan materiallarning tezkorligiga, tahliliylik darajasiga alohida e'tibor beriladi.

Ommaviy axborot vositalarida materiallar ayni paytda qanday auditoriyaga e'tijallangani bilan ham ajralib turadi hamda iste'molchining yoshi, jinsi, bilim darajasi, daryoqarashi, milliy diniy mansubligi kabi omillarini hisobga olgan holda tuziladi.

Q.Nazarovning fikricha, tarqalganlik doirasi, qamrov darajasiga qarab mahalliy, mintamilliy, mintaqaviy ommaviy axborot vositalarini farqlash lozim bo'ladi. Ayni paytda bugungi kunda global miqyosda faoliyat ko'rsatayotgan va ta'sir doirasi katta bo'lgan telekanallar va axborot agentliklari borligini ham ta'kidlash zarur<sup>1</sup>.

Ijtimoiy hayotga ta'siri haqida gap ketganda, ommaviy axborot vositalari kuchi jamiyat hayotidagi dolzarb masalalarni ko'tarib chiqishida, uning samarali yechimlarini topishga urinishida, mavjud muammolarga jamiyat a'zolari diqqatini jalb qilishida, davlat organlari faoliyatini nazorat qilib borishida ko'rinadi. Shu ma'noda u xalqni hokimiyat bilan bog'lovchi vosita, mexanizm sifatida chiqadi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida zamonaviy texnik uskunalar, keng va chuqur fikrlovchi kadrlarga ega bo'lgan, yangicha mazmun-mohiyat kasb etadigan ommaviy axborot vositalari faoliyati uchun hamma sharoitlar yaratildi. O'zbekistonda ommaviy axborot vositalarining huquqiy poydevori barpo etildi. O'zbekiston Konstitutsiyasida ommaviy axborot vositalarining erkinligi, qonunga muvofiq ish yuritishi, senzura ga yo'l qo'ymasligi (67-modda) belgilab qo'yildi. Bugungi kunda mamlakatimizda xususiy ommaviy axborot vositalari faoliyat yurita boshladi. Dunyoning turli mamlakat-lari dan mustaqil ravishda axborotlar olish imkoniyati yuzaga keldi. OAV faoliyatini tartibga soluvchi bir qator qonunlar qabul qilindi.

1996 yil 26 avgustda Oliy Majlis tomonidan «Noshirlik faoliyati to'g'risida», «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida» qonunlar qabul qilindi. 1997 yil 24 aprelda «Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida», 1997 yil 26 dekabrda «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida» qonunlar qabul qilindi. Bu qonunlar O'zbekiston Respublikasi ommaviy axborot vositalarining demokratik jamiyatga xos huquqiy asoslarini belgilab berdi. Bugungi kunda mamlakatimizda 490 ta gazeta va 138 ta jurnal ro'yxatga olingan. 1996 yil may oyida O'zbekiston ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish va qo'llab-quvvatlash ijtimoiy-siyosiy jamg'amasini ham tashkil qilindi.

1996 yilning may oyidan boshlab respublikamızda AQShda joylashgan jahondagi yirik kompyuter tizimi «Internet» bilan aloqa o'rnatib, undan eng muhim yangiliklarni qabul qilib olishning yo'lga qo'yilgani O'zbekiston axborot vositalari tarixida ulkan yangilik bo'ldi. «Internet»ning 50 million abonentini bo'lib, jahondagi eng yirik axborot markazlari unga a'zo

<sup>1</sup> Nazarov Q., Ochil'diev A. Milliy istiqolot g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar. - T.: Yangi asr avlodi, 2002, 125 - 126-betlar.

bo'lishgan. U butun dunyo bo'yicha turli sohalardagi yangiliklar qabul qilib oladi hamda ana shu yangiliklarni o'z abonentlariga tez va aniq yetkazib beradi... 1996 yil 7 mayda «O'zbekistonning ijtimoiy taraqqiyotida televidenie va radioning rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» fannon qabul qilindi.

Unda O'zbekiston Davlat televidenie va radioeshittirish Qo'mitasi O'zeleradiokompaniyaga aylantirildi. Umuman, OAV mustaqillikni mustahkamlash, xalqqa tezkor va ob'ektiv harakterdagi axborotlarni yetkazib berish minoratiga aylandi.

Ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikrini shakllantirish, milliy istiqlol mafkurasini xalqimiz, avvalo yosh avlod ongiga singdirishda alohida o'rin tutadi. Ular Ma'naviy-ma'rifiy islohotlar jarayoni, bu boradagi muammolarni, jamiyat hayotining turli qirralarini tezkorlik bilan aks ettiradigan eng samarali vositadir. «*To'rtinchi hokimiyat*» hisoblangan OAVlari turli xil fikrlar, rang-barang qarash va yondashuvlarga keng yo'l ochib berishi, hayotimizda yuz berayotgan yangilanish va o'zgarishlarga odamlarning ongli munosabatini uyg'otishi, xolislik va haqqoniyat tamoyillariga tayyanb faoliyat yuritishi lozim.

Prezident Islom Karimov 2002 yil 29 avgustda Oliy Majlis 9-sessiyasidagi «O'zbekistonda demokratik o'zgarishlari yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari» ma'ruzasida belgilab berilgan 7 ta ustuvor yo'nalishlardan biri, *to'rtinchi yo'nalishda* bevosita inson huquqlari va erkinliklarini, so'z va matbuot erkinligini, shuningdek, oshkoralikni, jamiyatda o'tkazilayotgan islohotlar-ning ochiqligini ta'minlaydigan demokratik tamoyillarni so'zda yoki qog'ozda emas, amaliy hayotda joriy qilish zarurligini belgilab berdi.

Bunda axborot sohasini jadal rivojlantirish, ommaviy axborot vositalari - matbuot, radio - televidenie faoliyatini erkinlashtirish fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etish jarayonining uzviy tarkibiy qismiga aylanishi zarurligi aytib o'tildi. Bunda Prezidentimiz tomonidan «Ommaviy axborot vositalari sohasida iqtisodiy munosabatlarning asoslari to'g'risida», «Teleradio faoliyati to'g'risida»dagi qonunlarni qabul qilish zaruriyati haqida ham fikr yuritdi.<sup>2</sup>

Ommaviy axborot vositalari jamiyatda yuz berayotgan voqea-hodisalarni haqqoniy yoritish talab etiladi. Negaki, bordiyu berilayotgan xabarlar, ayniqsa xorijiy mamlakat xususiy teleradio kompaniyalari tomonidan uzatilayotgan noxolis ko'rsatuv va eshittirishlar fuqarolar siyosiy ongiga boshqacha ta'sir etishi mumkin. Shu boisdan ham Prezidentimiz Islom Karimov 2005 yil 12-13 may kunlari Andijon shahrida ro'y bergan voqealar munosabati bilan 14 may kuni Oqсарo qarorgohida, 17 may kuni O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida mamlakatimiz va chet el jurnalistlari hamda diplomatik korpus vakillari uchun o'tkazilgan matbuot anjumanlaridagi bayonotlar va muxbirlarning savollariga javoblari har qanday insonni befarq qoldirmaydi<sup>1</sup>. Shuningdek, davlatimiz rahbari 2005 yil 25 may kuni Xitoy Xalq Respublikasiga davlat tashrifi bilan jo'nab ketish oldidan Toshkent aeroportida ommaviy axborot vositalari uchun bergan intervyusi Andijondagi bo'lib o'tgan voqea-hodisalarga ob'ektiv baho berdi. Albatta buni talaba-yoshlar siyosiy ongiga yetkazish bugungi kunning talabidir.

**Hayotiylik** - bugungi kunda ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga qo'yilayotgan asosiy talab. Berilayotgan axborotlarning asosan yutuq-larni ko'rsatish, maqtovlardan iborat bo'lishi targ'ibotga qanchalik foydali yoki zararli ekanini chamalab ko'rish lozim. Hayot bor ekan, muammolar, kamchiliklar, nuqsonlar bo'laverishi tabiiy. Bu - isbot talab qilmaydigan aksioma. Shunday ekan, muammolarning mavjudligiga fojea sifatida emas, odatdagi narsa deb qarashga o'rganish kerak. Ularning borligini ko'rib, o'zini ko'rmaganlikka olish bilan faqat zarar keltirishi mumkin. Demak, muammolarni o'z vaqtda tan olish, ularni hal qilishga kirishish lozim<sup>3</sup>.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l - demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. - T.: 11-T. O'zbekiston, 2003, 23-27-betlar.

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. - T.: O'zbekiston, 2005 - 160 b.

<sup>3</sup> Ergashev I. va boshqalar. Milliy istiqlol g'oyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. - T.: Akademiya, 2005, 305 - 310 - betlar.

Targ'ibotning negizida faqatgina g'oyaga ishonch emas, g'oyani targ'ib qilayotgan insonga ishonch ham yotadi. Shu bois, maqsadli targ'ibotning yagona va hatto eng to'g'ri usuli ham emas. Demak, mafkuraviy hayotni faqat maqtash, uni benuqson tasvirlash orqali targ'ib qilish mumkin emas.

Masalan, bir vaqtlar AQSh fuqarolarida demokratik tamoyillar-ning bir oz qadrsizlanishi kuzatilgan edi. Mutaxassislar tomonidan bu muammoning turli yechimlari taklif qilindi, lekin targ'ibotning bir oz noan'anaviy usuli tanlab olindi: demokratiya kamchiliklari oshkora aytildi, uning ba'zan «ishlamayotgani» ochiq tanqid qilindi va unga muqobil sifatida kommunizm va monarxiya targ'ib etildi. Targ'ibotning bu usuli kutilgan samarani berdi: odamlar «yomon bo'lsa ham, demokratiyadan qo'yirasin» degan fikrga keldilar va demokratiyaning ashaddiy himoyachilariga aylandilar.

Bugungi kunda O'zbekistonda ommaviy axborot vositalarini haqiqiy «to'rтинchi hokimiyat»ga aylantirish muammosi o'ta dolzarb bo'lib turmoqda. Ularni mustaqil ijtimoiy kuchga, siyosiy tizimning to'laqonli bo'g'iniga va jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi ta'sirchan vositaga aylantirish vazifasi shuni talab etmoqda. Ommaviy axborot vositalarining erkin va mustaqil faoliyat yuritishlari uchun mustahkam huquqiy asos yaratilgan, jurnalistlarni tayyorlash masalasi davlat darajasida e'tibor berilmoqda, jumalist-kadrlarni o'zimizda tayyorlash bilan qanoatlanmay, bu soha mutaxassislarining xorijda ta'lim olishlaridan mablag' ayalmayotir.

Yetuk demokratik davlatlarda OAVlar jamiyatning «ko'zlari», «quloqlari» vazifasini bajaradilar. Ogohlantiruvchi tizim sifatida ular jamiyatdagi illatlardan xabar beruvchi, muammolarni dadil ko'tarib chiqib, ularning turli yechimlarini taklif qiluvchi qudratli kuchga aylangan.

Ommaviy axborot vositalari faoliyatining *pluralizm tamoyili* asosiga qurilishi demokratiyaning taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Ommaviy axborot vositalari orqali milliy istiqlol g'oyasini singdirishning yana bir muhim jihati mavjud. Bu jihat - axborot terroriga, mafkuraviy tahdidlarga munosib javob berish, ma'naviy-mafkuraviy jihatdan xalqimizni tobe etishga intilishlarning payini kesish va O'zbekiston fuqarolarida mafkuraviy immunitetni shakllantirish bilan bog'liq. Ommaviy axborot vositalarining ta'sir kuchini ko'rsatadigan shunday bir gap bor: «Har qanday puch g'oya, uydirma haftasiga uch martadan to'rt yil davomida takrorlansa - «haqiqat» tayyor bo'ladi, odamlar unga chippa-chin ishonadilar».

Oxirgi paytlarda informatsion xurujlarning tez-tez uyushtirilayotgani aslida urushga munosabatning o'zgaraganligidan, qurolning yangi turi kashf qilinganidan darak beradi. Bu qurol - axborotdir. Bunday qurol yordamida olib boriladigan informatsion urushlarda insonning ongi va qalbi nishonga olinadi.

Aslida, axborot maqsadga erishishning eng arzon vositasi ham sanaladi. Haqiqatan ham, informatsion hurujlar uyushtirish uchun u qadar ko'p mehnat, u qadar ko'p harakat, u qadar ko'p harajat talab etilmaydi. Garchi bunday mafkuraviy ekspansiya o'tishmalar va qon to'kishlarni keltirib chiqarmasa-da, milliy o'zlikni anglashni zaiflashtirish evaziga tanazzulga olib keladi.

Prezidentimiz ta'bir bilan aytganda, bunday informatsion qo'po-ruvchilikdan maqsad - mamlakatimiz zholisiga axborot orqali va mafkuraviy yo'l bilan tazyiq o'tkazish, jahon afkor ommasida O'zbekiston haqida noto'g'ri tasavvur tug'dirishga intilishdan iborat. «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasidagi ba'zi fikrlar ham bugungi xurujlarning maqsadini oydinlashtiradi.

Yirik siyosatchilardan biri Buyuk Britaniya sobiq Bosh vaziri Margaret Tetcher: «Ommaviy axborot vositalari - terrorchilar uchun kislorod vazifasini o'taydi», degan. Bu gapning mag'zini chaqqan odam «ommaviy axborot vositalari terrorchilar uchun havodek zarur ekan», degan xulosaga keladi.

Demak, ularning maqsadlari - o'ldirish emas, jarnoatchilikka kuchli ta'sir qilishdir. Taassufki, ba'zi ommaviy axborot vositalari o'zlari bilmagan holda terrorizmning buzg'unchilik, ko'poruvchilik ta'sirini yanada oshirishga «xizmat» qilib qo'yadilar. Ularning terror oqibatlari

haqidagi vahimiy axborotlari insonlardagi qo'rquvni, dahshatni, himoyasizlik hissini yanada kuchaytirib yuboradi. Bu kabi axborotlarga qarshi *aksiltarg'ibotni* uyushtirish zarurati tug'iladi.

*Aksiltarg'ibot* «g'oyaga qarshi g'oya bilan kurashish» tamoyiliga mos ravishda olib borilishi kerak. Bunda davlatimiz siyosatiga qarshi kuchlarning g'oyaviy hujumlarini qaytarish talab etiladi. Xususan:

- 1) xorijiy xumalistlarning hukumat siyosatini buzib talqin qiluvchi chiqishlariga;
- 2) diniy aqidaparastlarning tanlagan yo'limizga qarshi mafkuraviy qo'poruvchilik harakatlariga;
- 3) rivojlangan davlatlarning o'z mafkurasini hukmronligini o'zgartirish yo'lidagi urinishlariga;
- 4) axborot xilma-xilligi sharoitidagi informatsion tajovuzlarga;
- 5) odamlar ongida saqlanib qolgan kommunistik mafkuraning asoratlariga qarshi faol kurashish zarur.

*Aksiltarg'ibotni* tashkil etishda tezkorlik, qat'iyatlilik, hujumkorlik, murosasizlik talab qilinadi. Bu borada tayyorlangan materiallar dalillar bilan isbotlangan, haqqoniy, ommabop va barcha uchun tushunarli bo'lishi shart.

*Aksiltarg'ibot* salbiy ta'simining oldini oluvchi va fosh etuvchi shakllarda amalga oshiriladi. Oldini oluvchi yo'nalish asosan tarbiyaviy xarakterga ega bo'ladi. Bunda:

- 1) fuqarolarning pozitsiyalarini shakllantirishda g'oyaviy raqiblardan o'zib ketish;
- 2) insonlarni begona g'oyalarning noto'g'riligini fosh etishga va ularning dalillarini rad etishga o'rgatish;
- 3) pinhona ko'rinishdagi mafkuraviy tazyiqlarga nisbatan xushyorlikni oshirish;
- 4) yot mafkuraviy ta'sirlarga qarshi immunitetni shakllantirish asosiy maqsad qilib qo'yiladi.

#### *Aksiltarg'ibotning fosh etuvchi yo'nalishida:*

- 1) g'oyaviy dushmanlar tomonidan e'lon qilingan fikrlar va baholarni rad etish;
- 2) «mafkuraviy urush» olib borayotgan taraf tashviqotining mohiyatini ochib berish;
- 3) mafkuraviy tazyiq ko'rsatuvchi guruh yetakchilarini obro'sizlantirish;
- 4) raqiblarning ruhini susaytirish orqali ularning harakatlarini kuchsizlantirish asosiy maqsad qilib qo'yiladi.

*Aksiltarg'ibotning* har ikkala ko'rinishi o'zaro bog'liqlikda olib boriladi. Insonning ongi va qalbi uchun shiddatli kurash ketayotgan hozirgi paytda aksiltarg'ibot bilan maxsus shug'ullanish zarurligi, shak-shubhasizdir. Shu boisdan ham Prezidentimiz Islom Karimov 2005 yil 28 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida bu masalaga alohida e'tibor bergan edi. «Xalqimiz ommaviy axborot axborotlaridan mamlakatimiz va xorijda sodir bo'layotgan voqealar to'g'risida xolis va tezkor axborotlar olishni, shu bilan birga, birinchi navbatda, hokimiyat organlari va boshqaruv tuzumlarini faollashtirish haqidagi tanqidiy fikrlarni, islohotlar va yangilanishlar yo'lidagi ijar borishimizga to'siq bo'lib turgan nuqsonlar, havotdagi dolzarb muammolar hususida oshkora, professional tahliliy materiallarni kuadi»<sup>1</sup>.

*Mafkuraviy tarbiya samarali tashkil etish imkoniyatlari.* Bugungi voqelik milliy istiqbol g'oyasi targ'iboti masalasiga alohida e'tibor berishni talab qilmoqda. Chunki «Endilikda yadro maydonlarida emas, - degan edi I.A.Karimov, mafkura maydonlarida bo'layotgan kurashlar ko'p narsani hal qiladi». Hozirgi vaqtda qudratli davlatlar va muayyan siyosiy markazlar o'z maqsadlariga erishish uchun avvalo zabt etmoqchi, o'z ta'sir doirasiga olmoqchi bo'lgan mamlakatlarning aholisi ongining o'ziga qaram qilishga intilayotganligini ham unutmaslik kerak. Shu boisdan mafkura dunyosida bo'shliqqa yo'l qo'yib bo'lmazligini, shunday holat yuz bergan taqdirda bo'sh qolgan mafkura maydonida bizga begona, orzu-intilishlarimizga mutlaqo yot g'oyalar o'rin egallashga urinishi shubhasiz. Negaiki hozirgi paytda ro'y berayotgan ayrim salbiy

<sup>1</sup> Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. -T.: O'zbekiston, 2005. 52-bet.

holatlar, nojo'ya xatti-harakatlar, yovuz ishlar, avvalo, mafkuraviy bo'shliq tufayli sodir bo'lmoqda.

Shu boisdan ham *mafkuraviy tarbiyaning maqsadi* haqida 1999 yil iyun oyida «Hushyorlikka da'vat» mavzuidagi O'zbekiston milliy axborot agentligi muxbirining savollariga javoblarida Yurtboshimiz I.A.Karimov: «Hozirgi eng muhim, eng dolzarb vazifamiz - jamiyatimiz a'zolarini, avvalambor, voyaga yetib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirish, ularning qabida milliy g'oya, milliy mafkura, o'z Vataniга mehr-sadoqat tuyg'usini uyg'otish, o'zligini anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iboratdir»<sup>1</sup>, degan edi.

Harqanday yangi g'oya singari mafkura ham ommaning ongiga chuqur singsa, hayotda chuqur ildiz otsa, amaliyotda o'zini to'la oqlasagina real voqeikka, katta ijtimoiy kuchga aylanadi.

Milliy mafkuramizni hayotga tez va keng yoyish uchun, dastavval uning mohiyatini chuqur o'rganish, maqsadlari, asosiy yo'nalishlari, o'ziga xos xususiyatlarini bilib, o'zlashtirib olish, xalq o'rtasida keng targ'ib-tashviq etish, turli vosita va shakllardan foydalanish talab etiladi.

Endi ijtimoiy soha olimlari, mutaxassislar, ilg'or fikrli ziyoli-lar bu boradagi izlanishlarni chuqurlashtirib, umumlashgan nazariy xulosalarni ishlab chiqishlari, qisqacha aytganda, mafkuramizning asosiy maqsadlarini xalqqa soddada, haqqoniy, tushunarli tarzda ifodalab berishlari lozim.

Bizning milliy xususiyatlarimiz umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lanib ketgan. Asrlar davomida xalqimiz umumbashariy, umuminsoniy qadriyatlar takomiliga ulkan hissa qo'shgan. Turli millat vakillariga hurmat, ular bilan bahamjihat yashash, diniy bag'rikenglik, dunyoviy bilimlarga intilish, o'zga xalqlarning ilg'or tajribalari va madaniyatini o'rganish kabi xususiyatlar ham xalqimizda azaldan mujassam. Shu bilan birga, milliy tabiatimizga xos bo'lgan mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharmu hayo, ibo-iffat kabi betakror fazilatlar va xalqimizni ko'p jihatdan ajratib turadigan bag'rikenglik, mehmondo'stlik, oqko'ngillik xususiyatlari haqida ham uzoq gapirish mumkin.

Mana shu yuqoridagi holatlarni nazarda tutish, mamlakatimizdagi mafkuraviy jarayonlarga ham shu nuqtai nazardan yondashish, milliy istiqloq g'oyasi va milliy mafkuramizni targ'ib qilishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish zarurligini ko'rsatadi. Milliy istiqloq g'oyasini yosh avlod ongiga singdirish muayyan uslublar asosida olib borilgandagina yaxshi natija berishi mumkin.

Bu texnologik uslub tadbirlarning *ketma-ketligi, miqyosi va me'vori, davomiyligi va tamoyillari* singari jihatlarni qamrab oladi. Bu masalaning muhimligi yana shunda ko'rinadiki, targ'ibotdame'yoming buzilishi, milliy mafkura to'g'risida hadeb va noo'rin gapiraverish teskari samara berishi mumkin. Targ'ibot texnologiyasi milliy g'oya va milliy mafkura mazmun-mohiyatiga mos bo'lgan taqdirdagina kutilgan natijaga erishish mumkin.

O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot strategiyasini, o'zbek xalqining buyuk davlat barpo etish borasidagi maqsad-muddolarini, milliy istiqloq mafkurasining mohiyatini keng jamoatchilikka har tomonlama tushuntirish dolzarb vazifalardan biridir.

Istiqloq mafkurasini odamlar qalbi va ongiga singdirishda jamiyat hayotining barcha sohalarni qamrab olish, ta'lim-tarbiya, targ'ibot va tashviqotning samarali usul va vositalaridan oqilona foydalanish taqozo etiladi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda g'oya targ'iboti eng dolzarb masalalardan biriga aylangan. Endilikda uning targ'ibot-tashviqotiga ham yangicha texnologiyalar, usullar,

<sup>1</sup> Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. 8. Jild. -T.: «O'zbekiston», 2000. 24, 491-492-betlar.

<sup>2</sup> O'sha joyda 27-28-betlar

<sup>3</sup> Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. 8. Jild. T.: «O'zbekiston», 2000. 24, 503 - bet.

vositalarni jalb qilish lozim. Milliy istiqlol g'oyasi targ'ibotining ta'sirchanligini oshirish vazifasi ham bu jarayonda yangi texnologiyalarni keng qo'llash zarurati kuchaytiradi.

Mafkura targ'ibotida yangi texnologiyalarni qo'llashda jahonning bir qator davlatlarida to'plangan ilg'or tajribalardan foydalanish mumkin. Xususan, jahonda keng tarqalgan «to'rt qadamli» universal modeldan mafkura targ'ibotida foydalansa bo'ladi. Uning asosiy jihatlari quyidagicha:

**1-qadam: Muammoning qo'yilishi.** Mafkura targ'ibotida singdiri-lishi zarur bo'lgan g'oyalarni belgilab olinadi.

**2-qadam: Rejalashtirish va dasturlashtirish.** Bu bosqich uzoq muddatga mo'ljallangan kommunikativ (muloqot) vazifalar strategiyasini ishlab chiqishni nazarda tutadi.

**3-qadam: Muloqotga kirishish.** Milliy istiqlol mafkurasi targ'ibotini samarali tashkil etish uchun asosiy kommunikativ vazifalar rejalashtirilgan va aniq maqsadlar sari yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Uchinchi bosqich o'z ichiga quyidagi elementlarni qamrab oladi: *harakat strategiyasi, kommunikativ strategiya dasturni amalga oshirish rejas.*

**4-qadam: yakuniy xulosalar yasash.** Yakuniy xulosalar yasash ikki yo'nalishda: baholash mezonini ishlab chiqish va qayta aloqa kanalaridan olingan ma'lumotlarni o'rganish shaklida amalga oshiriladi. Baholash mezonini ishlab chiqishda kishilarga singdirilgan g'oya ularga qay darajada ta'sir etganligini aniqlashning ob'ektiv mezonlari belgilansa, qayta aloqa kanalaridan olingan materiallarni o'rganishda berilgan axborotlar soni, unga nisbatan javob reaksiyasi singdirilgan g'oya natijasida kishilar o'z harakatlarini qay daraja o'zgartirganliklari tahlil qilinadi, ularning mafkuraviy ta'sirga javob reaksiyasi o'rganiladi.

Milliy istiqlol mafkurasini singdirishda yangi texnologiyalardan foydalanish auditoriyani *segmentlashni* (turkumlarga ajratishni) taqozo etadi. Auditoriyani segmentlash quyidagi omillar asosida amalga oshiriladi:

**1) Geografik makonga ko'ra.** Kishilarning yashash joyi, mintaqada joylashgan o'rni bir-biridan farq qilishi tufayli milliy istiqlol g'oyasini singdirishda ularning yashash joyiga e'tiborni qarash lozim. Masalan, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari aholisining qarashlari, urf-odatlari Toshkent shahri yoki Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisining qarashlari va urf-odatlaridan ancha farq qiladi.

**2) Demografik omilga ko'ra.** Kishilarning yoshi, jinsi, oilaviy ahvoli bir-biridan farq qilgani bois ularning qarashlarida va qadriyatlarida ham muayyan tafovutlarni uchratish mumkin.

**3) Psixologik omilga ko'ra.** Kishilarning ruhiy holati ancha o'zgaruvchan bo'lsa-da, bu omil mafkura targ'ibotida katta ahamiyat kasb etadi.

**4) Ijtimoiy maqomiga ko'ra.** Kishilarning jamiyatda tutgan ijtimoiy maqomi ularning axborotni qay darajada qabul qilishlariga, bu axborotga qanday munosabat bildirishlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

**5) Obro'-e'tiboriga ko'ra.** Targ'ibotda yangi texnologiyalarni qo'llashda fikr yetakchilaridan foydalanish axborot yetkazishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Shu bois kishilarga ta'sir ko'rsatishda ularning obro'-e'tibori kishilarga bo'lgan ishonchidan mohirota foydalanish talab qilinadi.

**6) A'zolikka ko'ra.** Kishilar u yoki bu partiyaning, jamoat birlash-masiming a'zosi ekanligi mafkura targ'ibotida qo'l keluvchi omil sanaladi. Odatda, bitta guruhga mansub kishilarning qarashlarida umumiylik, o'xshashlik bo'ladi. Bu esa mafkura targ'ibotini bir qadar yengillashtirishga xizmat qiladi.

**7) Qararlar qabul qilishdagi ishtirokiga ko'ra.** Kishilarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ishtiroklari va faolliklari ularning axborotni qabul qilishlariga ta'sir ko'rsatgani bois bu omil milliy istiqlol g'oyasi targ'ibotida hisobga olinishi lozim.

Milliy istiqlol g'oyasi targ'ibotida auditoriyani segmentlash, kishi-larni alohida guruhlarga bo'lib ta'sir ko'rsatish katta ahamiyat kasb etadi.

Mafkura targ'ibotining bizda keng rasm bo'lgan turi *voizlarning faoliyati* bilan bog'liq. Targ'ibotning bu shakli samaradorligini oshirish alohida e'tibor talab qiladi. Chunki *birinchi*,

voizlar nutq soʻzlaydigan auditoriyalarga odamlarni toʻplash baʼzida majburiy tus oladi. Auditoriyaga ixtiyordan qarshi boshlab kelingan isonsonda esa hali vaʼzni eshitmayoq, ichki qarshilik paydo boʻladi. Demak, hali targʻibot boshlanmasidan oʻq u teskari samara berishi ehtimoli kuchayadi. *Ikkinchidan*, bunday noʻrozi auditoriyani oʻzi tomoniga ogʻdirish, unga taʼsir koʻrsatish, uni ilhomlantirish voizdan juda katta mahorat talab etadi.

Milliy istiqloq gʻoyasi targʻibotining taʼsirchanligini oshirishdagi eng asosiy shartlardan biri - zindandan targʻibot qilishdir. Inson unga taʼsir oʻtkazilayotganini sezmasligi lozim. Aslida, targʻibot davomida mafkura soʻzining ishlatilishi ham shart emas. Umuman, targʻibot-tashviqot ishlarida masalaning quyidagi jihatlari eʼtibor qaratish lozim:

1. Oldimizga qoʻyilgan maqsadlarga erishishdan har birimiz shaxsan manfaatdor ekanligimizga kishilarni ishon tirish;
2. Kelajagimizni koʻz oldimizga keltirish imkonini beradigan, ertangi kunimiz qanday boʻlishini koʻrsatadigan materiallar tayyorlash;
3. Dolzarb qadriyatlarini singdirish maqsadida jamoatchilik fikriga shu qadriyatlarini jozibali qilib yetkazish;
4. Ommaviy axborot vositalaridan maorif tarqatish tizimidan insonlarni aqliy jihatdan boyitish qurolini sifatida mohirona foydalanish;
5. Insonlarning erkin fikrlashini ragʻbatlantirish, ularni oʻz fikrlarini himoya qilishga oʻrgatish orqali mustaqil fikrlovchi insonni tarbiyalash;
6. Taraqqiyotimiz yoʻlida gʻov boʻlayotgan illatlarni fosh etish va tanqid qilish yoʻli bilan ularni samarali «davolash»;
7. Ommaviy axborot vositalaridan haqiqat koʻzguisi sifatida foydalanish orqali insonlarning ularga ishonchini kuchaytirish;
8. Yaqin oʻtmishimizda sodir boʻlgan yorqin voqealarga bagʻishlangan xronikal filmlarni yaratish yoʻli bilan yaxshi va yomon kunlarimizni bot-bot eslatib turish;
9. Insonlarda chuqur taassurot qoldirish maqsadida badiiy obrazlar orqali milliy mafkurani singdirish.

Mafkuraning targʻibotiga aynan shunday yondashish koʻproq samara beradi. Shunday boʻlsa ham insonlarning salohiyati, mehnati, vaqti, mulki va mablagʻlarini tanlangan maqsad sari yoʻnaltirish mumkin. Bu esa mafkuraviy siyosatning natijasini moddiy narsalarda - yuqori sifatli mahsulotlarda, badavlat turmushimizda, bunyodkorlik ishlarida, erkin va farovon hayotda, iqtisodiy oʻsishda «oʻlchash» imkonini beradi.

*Mafkuraviy tarbiya ishlari samaradorligini baholash mezonlari.* Mafkuralar kurashining jahonshumul jaryonini oʻrganish, uning monito-ringi, bu kurashning umumshariy va mintaqaviy muammolarini aniqlashga asosiy eʼtiborni qaratish zarur.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini roʻyobga chiqarish uchun Milliy dasturning monitoringi va bajarilishini ekspertiza qilish asosida uning ayrim qoidalari va tadbirlariga tuzatishlar kiritilishi koʻzda tutilgan.

*Mafkuraviy monitoring:* - Monitoring - inglizcha soʻz boʻlib tekshirib turish, nazorat maʼnosini bildiradi. Demak, *mafkuraviy monitoring* - bu insonning gʻoyaviy, mafkuraviy, xususan milliy mafkuraviy faoliyati orqali jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, maʼnaviy, yaʼni gʻoyaviy holatini kuzatish, baholash va oldindan aytib berish - prognozlashdir.

Milliy istiqloq gʻoyasi va milliy mafkura milliy va umuminsoniy gʻoyalarning yaxlit tizimi sifatida xalqimizni gʻoyaviy jihatdan mushtarak maqsad yoʻlida birlashtiruvchi kuch boʻlib quyidagi vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Demak, mafkuraviy monitoring tufayli:

1. Oʻzligimizni anglash, milliy, diniy, maʼnaviy qadriyatlarimizni joyiga qoʻyib, ularni yangi sifat bosqichiga koʻtarib, taʼsirchanligini oshiradi.
2. Milliy maqsadlarimizni hozirgi zamon umumshariy talablar bilan uygʻunlashtiradi.
3. Islom dini iymon, eʼtiqod, axloq va maʼrifat aqidasi ekanligidan kelib chiqib, «Olloh qal bimizda, yuragimizda» tamoyiliga safarbar etadi.
4. Milliy gʻoyasi va eʼtiqodimiz dushmanlariga qarshi mafkuraviy kurashish, fuqaroda Vatan tuygʻusi - «Men Oʻzbekistonlikman» degan iftixor tushunchasini shakllantiradi.

5. Jismoniy sogʻlom, zamonaviy tafakkurga ega boʻlgan avlodni tarbiyalaydi.

6. Milliy qadriyatlarimizni, urf-odat, anʼanalaramiz mohiyatini oshirib, millatlararo totuvlik, hamjihatlik va siyosiy-gʻoyaviy barqarorlikni taʼminlaydi.

Mafkuraviy monitoring asosida milliy istiqlof gʻoyasining shakllanishini nazorat, kuzatish natijasida milliy mafkuramiz quyidagi omillarga bogʻliqligi maʼlum boʻladi:

A) Aholi munosabatlarining tigʻizligi va dinamikasiga, yaʼni aholi zich joylashgan joylarda bunga katta eʼtibor zarurligi ayon boʻlmoqda.

B) Odatlarning shakllanishining muddati va bartaraf etish vositalariga bogʻliq boʻlishi kuzatilmogʻda. Masalan, vahhobiylilik yoki hizbut-tahrir-likka moyil odamlar toʻplangan joylardagilarning odat, koʻnikmalarini bilish zarur boʻladi.

S) Yangi odatlarning odamlar hayot sharoitlari va turmush darajasiga mosligiga bogʻliqligi sezilmogʻda.

D) Yangi gʻoyalarning odamlar tabiati va ruhiyatiga mosligiga bogʻliq boʻlayotganligi bilindi.

Umuman, mafkuraviy tarbiya ishlari samaradorligini baholash mezonlari koʻpincha milliy istiqlof gʻoya va milliy mafkuraning tarbiyaviy tamoyillariga bogʻliq boʻladi. Bu tamoyillarga quyidagi jarayonlarni kiritish mumkin:

1) Tushuntirishda va bayon etishda oddiylik va loʻndalik mavzuni yanada oydinlashtiradi.

2) Talab va taklimni doimiy nazorat ostiga olish.

3) Onga taʼsir etishning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish.

4) Ziyolilar mavqeini oshirish.

5) Turli bilimlarga ega boʻlgan ishtiroqni qoʻllab-quvvatlash.

6) Ommaviy axborot vositalarida xalq ruhiyatiga yaqinlashtirilgan yangi mafkuraviy materiallarni koʻpaytirish, doimiy «aks taʼsir» tamoyiliga amal qilish. («Taʼlim va tarbiya» jurnali. 2000. № 1-2, 40-bet).

Prezidentimiz Islom Karimov «Hushyorlikka daʼvat» asarida milliy gʻoya, milliy mafkura negizida odamlarning erkin hayot, obod va ozod Vatan qurish yoʻlidagi intilishlarini umumlashtirib, bu gʻoyalarni boyitib, rivojlantirib, uni yanada kuchaytiradigan idoralar faoliyati ishini yoʻlga qoʻyishning 4 muhim jihatiga eʼtibor qaratish zarurligi koʻrsatilgan. Bularni mafkuraviy tarbiya ishlari samaradorligini oshirish mezonlari sifatida baholash mumkin. Bu 4 zaruriy omillar quyidagilardan iborat:

1) Noʻдавlat, mustaqil tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish, ular imkoniyatlaridan toʻla foydalanish.

2) Maʼdaniy, maʼrifiy-mafkuraviy ishlarni yanada jonlantirish, yangi bosqichga koʻtarish, bu sohada barcha ishlarni muvofiqlashtirish. Maʼnaviyat va maʼrifat Respublika Kengashi, viloyat, shahar va tumani kengashlari mamlakat aholisi orasida milliy istiqlof gʻoyalarni taʼriflash, oʻrnatish va taʼshviq qilishini yagona maqsad sari safarbar etish.

3) Maktab, litsey va kollejlarda bevosita maʼnaviyat masalalari bilan shugʻullanadigan, joriy etilayotgan mutasaddi mutaxassislar lavozimi faoliyatini koʻtarish.

4) Maktab, litsey va kollejlarda bolalarimizning ongini yuksal-tirish, ularni ijobiy ishlar va tarbiyaviy tadbirlar bilan band qiladigan turli tashkilot va toʻgʻaroklar tuzish<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimi. 8- Jild- T: Oʻzbekiston, 2000. 29-30 – betlar.



**IX-MAVZU: "JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING IJTIMOYIY-G'OYAVIY ASOSLARI. GLOBALLASHUV JARAYONIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLANTIRISH VAZIFALARI" - 2 SOAT.**

**Reja:**

1. Millatlararo totuvlik, bag'rikenglik g'oyasining tarixiy, huquqiy asoslari hamda O'zbekistonda milliy-diniy bag'rikenglik va dunyoviylik.
2. Globallashuv jarayonida milliy g'oyaga ehtiyojning ortishi.
3. Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi va ikki qutbli dunyoning barham topishi.
4. Markaziy Osiyo intaqasidagi mafkuraviy jarayonlar hamda SHHT va Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati doirasidagi hamkorlik.

Milliy g'oya keng mazmunga ega. U ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik va milliy, diniy bag'rikenglik g'oyalari bilan o'zaro mushtarak. Shu nuqta nazardan aytish mumkinki, milliy g'oya bu faqat birgina millatning emas, balki jamiyat taraqqiyotiga, ravnaqiga umumiy maqsad yo'lida baholi qudrat hissa qo'shayotgan mamlakat fuqarolarining millati, irqi, diniy e'tiqodidan qat'iy nazar barchaning maqsad va manfaatlarini ifoda etadi.

*Milliy g'oya* - barcha sohalarida mavjud millatlar manfaatlarini o'zida ifoda etgan holda orzu qilingan kelajak jamiyatning asosini yaratish, mustahkamlash va rivojlantirish uchun bo'lgan umumimaqsad yo'nalishidagi harakatlar majmuini, milliy va diniy bag'rikenglikni uyg'otuvchi fikrlar, qarashlar, g'oyalarni ham o'zida ifoda etadi.

*«O'zbekiston - yagona Vatan» g'oyasi* milliy istiqlol mafkurasining asosiy tamoyillaridan biridir. Vatan - eng katta taqdir. Vatan - bu inson va uning avlod-ajdodlari kindik qoni to'kilgan oliy dargohdir. Vatan - bu ajdodlar maskani, el-yurt, xalq voyaga yetgan, uning tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlari, qadriyatlari chinakamiga shakllanib, o'sib kamol topib boradigan zaminidir. Vatan - bu xalqning o'tmishi, buguni va kelajagidir. «Vatan - muqaddas qadriyat». Taraqqiyot Vatandan boshlanadi.

Demak: *Milliy istiqlolimizning bosh shiori: «Yurtim deb, elim deb, yonib yashaylik!»*

*Bosh g'oyamiz: - «O'zbekiston - kelajagi buyuk davlat».*

*Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyasi va tamoyili: - «O'zbekiston - yagona Vatan»* deb nomlanadi.

*Yetakchi g'oyamiz: - «Turkiston - umumiy uyimiz».*

*Mafkuraviy-intellektual g'oyamiz: - «Kuch - bilim va tafakkur-da!»*

*Milliy g'ururimiz timsoli: - J.Manguberdi va Sohibqiron Amir Temur va h.k. bor.*

1. Ijtimoiy hamkorlik - milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalardan biri. Ijtimoiy hamkorlik deb, turli millatga, har xil ijtimoiy toifa, irq va dinga mansub kishilar va guruhlarining umumiy maqsad yo'lidagi hamjihatligiga aytiladi. Ijtimoiy hamkorlik - har bir yurtdoshimiz manfaatlaridagi mushtaraklikdan hosil bo'luvchi umummilliy maqsad va shunga erishishga qaratilgan harakat birligidir.

Albatta, bunday darajaga erishish o'z-o'zidan bo'lmaydi. Turli g'oyalar-ni bayroq qilib olgan kuchlarni bir maqsad yo'lida birlashtirish g'oyat mushkul. Lekin Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi shunga erishishni taqozo etadi.

Qarashlar rang-barangligi, fikrlar xilma-xilligi, so'z va fikr erkinligi jamiyatni sog'lomlashtiruvchi, uni mustahkamllovchi o'ta muhim omildir. Biroq - bu, xayolga kelgan gapni aytish, ko'ngil tusagan ishni qilish, o'z manfaati uchun hamma narsaga tayyor turish, degani emas. Bundan tashqari, erkin fikr degani, albatta, to'g'ri fikr degani ham emas. Erkinlikning o'zi esa anglab olingan zaruraddir. Demak, fikr erkinligi umummanfaat, umumjamiyat taraqqiyot yo'lidagi sog'lom harakat, sog'lom fikr yuritish, imon-e'tiqod yuzasidan ish tutish, demakdir. Ulug' bobokalonimiz Abu Nasr Forobiy ham «Agar fikrlari va harakatlari jamiyat manfaatlariga xizmat qilmaydigan bo'lsa, mamlakatni bunday kishilardan tozalash kerak», degan fikrni bejiz

aytmagan. Ming yillar mobaynida milliy davlatchiligimiz tarixiy tajribalarida sinovdan o'tgan bunday xulosalar hamon o'z qimmatini yo'qotmagan. Binobarin, bugungi va ertangi kunimiz uchun ham, albatta, xizmat qilajak.

Sho'rolar davrida yakka hukmronlik qilgan kommunistik mafkura sinfiylik va partiya-viyilik shiori ostida olamni faqat oq-qora bo'yoqlarda tasvirlashga, millatni ikkiga bo'lib tashlashga sabab bo'ldi. «Yot sinflar», ularning «damlari», ularga «hayrihohlar» jismanon yo'q qilindi. Buning sababi sho'rolar mafkurasida sinfiy manfaatlar, yagona partiya talablari umuminsoniy g'oyalardan ustun qo'yilganida edi.

Umuman jamiyatni sun'iy ravishda bo'lib, turli qarama-qarshilik-larni mutlaqlashtiradigan ta'limotlardan farqli o'laroq milliy istiqlolimizning ijtimoiy hamkorlik g'oyasi turli partiya, din qatamiga mansub xilma-xil jamiyat a'zolari qarashlaridagi tabiiy rang-baranglikni uyg'un-lashtiradi va umumiy taraqqiyot manfaatlariga bo'ysundirishga xizmat qiladi. Bu quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

**Birinchidan:** jamiyatning eng ustuvor maqsad va manfaatlarini o'zida mujassam etadigan ilg'or g'oyalar milliy taraqqiyotni harakatga keltiruvchi kuchga aylanadi.

**Ikkinchidan,** jamiyadagi har bir ijtimoiy toifa yoki guruh o'zining dasturiy maqsadlari va amaliy faoliyatini ana shu ustuvor milliy g'oyalar bilan uyg'unlashtirish milliy taraqqiyotning zaruratiga aylanadi.

**Uchinchidan,** har bir shaxs, ijtimoiy mavqei, dunyoqarashi va e'tiqodidan qat'i nazar, jamiyatning ustuvor maqsad va manfaatlarini aks ettiradigan milliy g'oyalarning amalga oshishi uchun o'zini mas'ul deb bilishi bu jarayonning asosiy tamoyilli hisoblanadi.

Aholining turli qatlamlari orasidagi munosabatlar va o'zaro ham-korlikni yaxshilash jamiyatdagi barqarorlikni mustahkamlashga zamin yara-tadi. Aksincha, ana shu hamkorlikning izdan chiqishi yoki munosabatlarning yomonlashuvi bu barqarorlikning buzilishiga olib keladi, ijtimoiy beqarorlik, siyosiy boshboshdoqlik va milliy parokandalikni keltirib chiqaradi.

Ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlash, hammanizning, birinchi galda, davlat va jamoat tashkilotlari, hamda jamiyatning ilg'or vakillari bo'lgan ziyolilar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Barchamiz Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligini ta'minlash uchun, ijtimoiy hamkorlik muhitiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan har qanday xavf-hatarning oldini olish, ularni bartaraf etish uchun zarur chora-tadbirlarni ko'mog'imiz darkor. Chunki shu aziz Vatan - barchamizniki, undagi tashvisini ham, g'am, yutuq va kamchiliklar, muvaffaqiyatlar hammanimizga tegishlidir.

**2. Millatlararo totuvlik** - milliy istiqlol mafkurasining aso-siy g'oyalaridan biri bo'lib, u muayyan hudud, davlatda turli millat vakil-larining hamjihat yashashi, hamkorlikda faoliyat yuritishini ifodalovchi tushuncha. Yoki boshqacha aytganda, millatlararo totuvlik g'oyasi umumbashariy qadriyat bo'lib, turli xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaq va davlatlar milliy taraqqiyotida muhim omildir.

**Bu g'oya** - bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlar-ga mansub kishilar o'rtasida o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlikni qaror toptirish va mustahkamlashning ma'naviy asosidir.

**Milliy g'oya** - har bir millat vakilining iste'dedi va salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratadi va uni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi kabi ezuq maqsadlar sari safarbar etadi.

Muayyan mamlakatga nom bergan (titul) millat bilan unda yashaydigan boshqa xalqlar o'rtasida hamjihatlik bo'lishi ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim omillaridan biridir. Aksincha, milliy g'oyaning ahamiyatini tushunib yetmaslik jamiyat hayotini, tinchlik va barqarorlikni izdan chiqarishi mumkin.

Millatlararo totuvlik va hamjihatlikka rahna soluvchi illat, bu - tajavvuzkor *millatchilik va shovinizm*dir. Bunday zarali g'oyalar ta'siriga tushgan jamiyat beqarorlik holatiga yuz tutishi muqarrar. XX asrda Yevropa xalqlarini asoratga solgan va ayrim davlatlarning tanazzuliga sabab bo'lgan fashizm yoki milliy xususiyatlar bilan hisoblashmagan va soxta baynalmilalchilik g'oyasiga asoslangan kommunizm g'oyasi bunga yaqqol misol bo'ladi.

O'zbekiston hududida qadim-qadimdan ko'plab millat va elat vakil-lari bahamjihat istiqomat qilib keladi. Ular o'rtasida asrlar davomida milliy nizolar bo'lmagani xalqimizning azaliy bag'rikengligini ko'rsatadi.

Shu bois bugungi kunda mamlakatimizda yashab kelayotgan millatlarni o'zaro hamjihatlik ruhida tarbiyalash maqsadi istiqol mafkurasining asosiy vazifalaridan biridir. U xalqimizga bo'lgan olijan oblik va insonparvarlik fazilatlariga asoslanadi.

Demak, mamlakatlarda ko'p millatlik omili demokratik o'zgarish-larni jadallashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning, fuqarolar jamiyati qurilishining ta'sirchan vositasiga aylanib qolgan.

Milliy munosabatlarga ziyraklik va noziklik bilan yondashmaslik, umummilliy tamoyillarga biroz e'tiborsizlik ham tinchlik va barqaror-likka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. I.A.Karimov o'z fikrini davom ettirib, shunday yozadi: «Ayni chog'da insoniyat tarixida buning aksini, ya'ni ko'p elati davlatlardagi millatlararo munosabatlarda uyg'unlikning yo'q-ligi, butun-butun xalqlar va mamlakatlarni ancha orqaga ulqotirib tashlagan ijtimoiy-siyosiy falokatlariga olib borganini ko'rsatuvchi misollar ham oz emas. Zero, ko'p elatlik nafaqat ayrim mamlakatlarning, balki butun-butun mintaqalarning ham ichki siyosiy barqarorligi va milliy xavfsiz-ligiga putur yetkazuvchi bosh omilga aylangan».

Millatlararo hamjihatlik qaror topmasa, tajovuzkor millatchilik va shovinizmning halokatli g'oyalari tarqalishi uchun qulay vaziyat yaratiladi. Milliy istiqol g'oyasining amal qilishiga, kishilar qalbi va ongiga singdirilishiga jiddiy zarar yetkazadi. Shuni hisobga olib, mamlakatimizda bu muammo ilmiy asosda, holisona hal qilinmoqda. Millatlar o'rtasida mojarolarga yo'l qo'ymaslik uchun etnik siyosatda shaxs huquqlari himoya qilinishining ustuvor bo'lishini, mamlakatlara ziddiyatlarni amaliy tarzda hal qiladigan usullarga asoslanishi bosh yo'limiz ekanligiga, bozor munosabatlarni iqtisodiy taraqqiyotda barcha millatlarga mansub aholining manfaatlariga mos kelishiga, har bir millat madaniyati, tili, urf-odat va an'analari, madaniy merosini rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda.

3. *Diniy bag'rikenglik* - xilma-xil diniy e'tiqodda bo'lgan kishi-larning olijanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor, hamjihat bo'lib, yashashi, kishilik jamiyati ravnaqi yo'lida xizmat qilishini anglatadi. Hozirda bu g'oya ezgulik yo'lida nafaqat dindorlar, balki jamiyatning barcha a'zolari hamkorligini nazarda tutadi. Diniy bag'rikenglik tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, ozod va obod Vatan qurishning muhim shartidir.

Q.Nazarovning fikricha, qadimdan diyorumizda buddaviylik, zardush-tiylik, nasroniylik, yaxudiylik, islom dinlari yonma-yon yashab kelgan, madaniyat markazlari hisoblangan shaharimizda masjid, cherkov, sinagoglar faoliyat ko'rsatgan. Ularda turli millat, elat va dinga mansub bo'lgan xalqlar, qavmlar o'z diniy amallarini emin-erkin ado etgan. Vatanimiz tarixining eng murakkab, ziddiyatli, og'ir davrlarida ham yurtimizdagi mavjud din vakillari orasida diniy asosda mojarolar bo'lgan emas. Bu yurtimiz xalqlarining diniy bag'rikenglik borasida katta tajribaga ega bo'lganidan dalolat beradi<sup>1</sup>.

Hozirda mamlakatimizda 15 diniy konfessiyaning tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqda. ularga o'z diniy marosimlarini o'tkazish va mamlakat hayotida faol ishtirok etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan. Bu boradagi huquqiy asoslar O'zbekiston Konstitutsiyasida, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonunda mustahkamlab qo'yilgan.

Ma'lumki, dunyodagi dinlar asl mohiyatiga ko'ra ezgulik g'oyasiga asoslanadi va tinchlik, yaxshilik, do'stlik kabi xususiyatlarga tayanadi. Odamlarni halollik, poklik, mehr-shafqat, birodarlik va bag'rikenglikka davlat etadi. Inson hayotining asl maqsadi inson va tabiatga nisbatan odilona, oqilona munosabatda bo'lish, doimo yaxshi, savobli ishlarni amalga oshirishdan iboratligini ta'kidlaydi. Shunday ekan, haqiqiy diniy qarashlar ortida diniy bag'rikenglik yotadi.

<sup>1</sup> Nazarov Q., Ochildiev A. Milliy istiqol g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar. - T.: YAngi asr avlodi, 2002, 36-37- betlar.

**1. Millatlazaro totuvlik va bag'rikenglikning asoslari.** Jahon keng, dunyoda mamlakat ko'p, lekin bu olamda betakror ona yurtimiz, O'zbekistonimiz yakka-yu yagonadir. O'zbekiston deb atalmish yurtning yagonaligi uning betakror tabiati, boy tarixi, mehnatkash insonlari bilan bir qatorda bu zaminida turli millat va elat vakillarining yagona oila farzandlaridek yashashlarida namoyon bo'lmoqda. Bunday ahillik, do'stlik va hamkorlik o'zining chuqur tarixiy ildizlariga va asosiga ham ega. Bu asoslar mamlakatimiz Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan.

Xususan, uning 18-moddasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdir<sup>1</sup>, - degan qoida ana shu bag'rikenglikning zamonaviy siyosiy-huquqiy ifodasidir.

Mazkur qoidada milliy hayotga, fuqarolarning milliy his-tuyg'u-lariga daxldor muhim ahamiyatga ega bo'lgan bir qator tamoyillar belgilab qo'yilgan.

**Birinchidari**, fuqarolarning milliy mansubliklaridan qat'iy nazar qonun oldida tengligi mustahkamlangan.

**Ikkinchidari**, fuqarolarning diniy e'tiqodidan qat'iy nazar bir xil huquq va erkinliklarga egaligi ta'kidlangan. Diniy qadriyatlar millat ma'naviyatining ajralmas qismi ekanini inobatga oladigan bo'lsak, mazkur qoidaning amaliy ahamiyati oydinlashadi.

**Uchinchidari**, fuqarolarning irqiy tengligi qayd etilgan. Irqchilik-dan g'ayriinsoniy mafkura va amaliyotning tariximizda umuman kuzatil-maganini alohida qayd etish lozim. Ammo ayrim mintaqalarda tajovuzkor millatchilik g'oyalari bilan qurollangan ayrim guruhlar diniy aqidapa-rastlik va irqchilik qarashlaridan o'z maqsadlari yo'lida foydalanishga urinayotganini ham unutmashlik zarur. Demak, muayyan hollarda ular uyushgan shaklda ham chiqishi mumkin. Islom dinini siyosatga aylantirayotgan, yovuzlik va terrorchilik mafkurasini yaratayotgan ko'plab radikal va ekstremistik markazlarning, birinchi navbatda, yoshlar ongini zaharlab, zombiga aylan-tirib, ulardan terrorchilar tayyorlash bo'yicha konveyer tashkil etayotgan, xalifalik tuzishdek turli xomxoylarni amalga oshirishga urinayotgan qabih kuchlarning ildizini qirqib tashlash kerak<sup>2</sup>.

Axborot globallashuvi kuzatilyotgan bugungi kunda turli g'oyalar hech qanday chegaralarni tan olmay kirib kelishini e'tiborga oladigan bo'lsak, ushbu tamoyilning ahamiyati yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

**Milliy-madaniy markazlar** - xalqlarning ma'naviy yaqinligi man-baidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 8-moddasida «O'zbekiston xalqini, millatidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi», deb aniq belgilab qo'yilgan. «O'zbekiston xalqi» tushunchasi mamlakatimizda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlik uchun ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari Konstitutsiyamizda «O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analarini hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi», deb ta'kidlangan. Bu borada hayotimizda ko'plab tadbirlar amalga oshirilmogda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda 136 millat, elat, xalq va etnik guruhlarning vakillari yashaydi. Ularning har biri o'z milliy madaniy urf-odatlari, an'analari, tiliga, konstitutsiyaviy huquqiy tenglikka ega.

Respublika Baxonalimal Madaniyat Markazi (RBMM) va milliy madaniyat markazlari (MMM)ning faoliyati bu yerda yashovchi xalqlarning milliy an'analari, urf-odatlari va marosimlarini qayta tiklash, ma'naviyat va madaniyatni rivojlantirish, millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirishga qaratilgan. Turli millatlarga mansub fuqarolarimizning katta umumxalq bayramlariga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish, mamlakat madaniy tumushidagi shonli voqealarni nishonlashda faol ishtirok etayotganliklari samimiy sahovat va

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2013.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. - T.: O'zbekiston, 2005. 64-65-betlar.

mehr oqibat muhitini yaratmoqda. Bu muhit bizga yagona oila tuyg'usini qayta-qayta his etish «O'zbekiston umumiy uyimiz» degan so'zlar zamiridagi chuqur ma'noni anglab olish imkonini beradi.

Dastlabki milliy madaniyat markazlari koreyslar, qozoqlar, yaxudiylar, armanlar tomonidan Respublika viloyatlarida 1989 yilda tuzildi. O'sha paytda ularning faoliyatini muvofiqlashtirib turish maqsadida O'zbekiston hukumati qaroriga binoan Madaniyat ishlari vazirligi huzurida Respublika millatlararo madaniyat markazi tashkil etildi. Ammo bu markazlarning chinakam rivojlanishi va ravnag topishi 1991 yildan mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin boshlandi. 1992 yilning yanvarida Prezident I.A.Karimovning tashabbusi bilan Respublika millatlararo Baynalmilal markazi qoshidagi Madaniyat ishlari vazirligi Respublika «Baynalmilal madaniyat» markaziga aylantirildi.

1992 yilda 12 ta milliy-madaniy markaz faoliyatini birlashtirgan bu jamoat tashkiloti - «Baynalmilal madaniyat» 2005 yilga kelib 120 ga yaqin markazlar ishini muvofiqlashtirib kelmoqda. Bugungi kunda ana shunday markazlarni tuzish bo'yicha 15 ta tashabbuskor guruh ish olib bormoqda.

RBMM to'g'risidagi nizomda uning mustaqil muassasa ekanligi belgilab qo'yilgan. Markaz milliy-madaniy markazlarning faoliyatiga rahbarlik qiladi. O'zbekistonda yashovchi milliy guruhlarning madaniy ehtiyoqlarini qondirishda davlat idoralariga va jamoat tashkilotlariga ko'maklashadi.

Respublika Baynalmilal Madaniyat Markazining moddiy texnikaviy baza bilan ta'minlanishi RBMM va MMM ishlarini faollashtirdi, ularning barlashuvi va samarali hamkorlik qilishi uchun keng istiqbolgar ochdi.

O'zbekistonda barcha millat vakillariga teng huquqli munosabat davlat qonuni bilan mustahkamlangan. Buning ijobati maktablarimizda 9 ta milliy tilda o'qitish ishlari, 20 tilda ommaviy axborot nashrlari faoliyat ko'rsatayotganligida ko'rinmoqda.

Mazkur milliy-madaniy markazlarning mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta'minlashdagi roli beqiyosdir. Milliy madaniy markazlarning asosiy vazifalari 3 yo'nalishga ega:

1) Har bir millatning tili, madaniyati, urf-odatlari va rasm-rusumlarini tiklash, tarixiy Vatani bilan aloqa va munosabatlarni jonlantirish, milliy his-tuyg'ularning namoyon bo'lishiga keng yo'l ochish.

2) Mustaqil O'zbekistonni o'zining haqiqiy vatani deb bilish va unga beminnat hamda sadoqat bilan xizmat qilish.

3) Vatani bilan mushtarak hayot kechirish, uning madaniyati, turmush tarzi va tilini o'rganish, mustaqil davlatga nomi berilgan millat bilan do'stlikda, hamkorlikda va totuvlikda yashash.

Ana shu 3 yo'nalishda olib borilayotgan ishlar yil sayin yangidan- yangi shakllarda, turlarda, yo'nalishlarda rang-barang bo'lib bormoqda. Shu jumladan:

- o'z milliy tarixini, madaniyatini, tilini, urf-odatlarini o'rganish to'garaklari ishlanmoqda;

- O'zbekiston tarixini, madaniyatini va tilini o'rganish to'garaklari faoliyat ko'rsatmoqda;

- milliy musiqa, raqs va hunar to'garaklari o'z ishini kengaytirmoqda;

- milliy bayram kunlariga bag'ishlab tadbirlar o'tkazmoqda, festi-vallar tashkil qilmoqda;

- tarixiy Vatanning rassomlari, yozuvchilari, shiorlari, oqimlari va baxshilari, madaniyat va siyosat arboblari bag'ishlangan ko'rgazmalar tashkil qilinmoqda;

- tarixiy Vatandan kelgan siyosiy arboblari va madaniyat namoyandalari bilan uchrashuvlar o'tkazilmoqda va h.k.

Umuman, milliy madaniyat markazlari O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashga katta hissa qo'shmoqdalar.

Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlarining o'z ona tilida o'qishi uchun keng imkoniyatlar yaratilgani, oliy o'quv yurtlari va maktablarda bunga amal

qili nayotgani, ko'plab tillarda gazeta va jur-nallar chop etilib, teleko'rsatuv va radioeshittirishlar olib borilayotgani va boshqa ishlar ham bu borada samarali faoliyatning yaqqol dalilidir.

Qaerdaki millatlararo totuvlik g'oyasining ahamiyati anglab yetilmasa, jamiyat, hayotida turli ziddiyatlar, muammolar vujudga kelsa, bu jarayon - tinchlik va barqarorlikka xavf soladi. Bugungi kunda jahonning ayrim mintaqalarida sodir bo'layotgan milliy nizolar shundan dalolat berib turibdi.

Turli millat vakillarining ijodiy tadbirlari, badiiy ko'rgazma-lari, bir tomondan, ayni millatning O'zbekiston fuqarosi sifatida o'z o'rni borligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, shu zaminda yashovchi barcha millat-larning O'zbekiston xalqi - O'zbekiston fuqarosi ekanligini namoyon etuvchi, mustahkamlovchi milliy g'oya atrofida birlashuviga olib boradi.

Bashariyat tushunchasi rang-o'rang millatlar va elatlar, shuningdek, turli din va irqqa mansub insonlarni o'ziga qamrab oladi. Demak, har bir inson bashariyat va ayni vaqtda o'z xalqi, o'z Vatani-ning farzandi hamdir. Har bir kishida o'z xalqining tili, ruhiyati, ana-analari, qadriyatlari barq urib turadi.

Milliy istiqloq g'oyasi o'z mazmun-muhoyatiga ko'ra barcha millatlar-ning umumiy manfaatlarini ro'yobga chiqaradi. Mamlakatda fuqarolararo va millatlararo totuvlik hamda ijtimoiy barqarorlik muhitini ta'minlashga xizmat qiladi.

Zotan, har qanday polietnik davlatda turli millatlar o'rtasidagi munosabatlar davlat va jamiyat taraqqiyotiga zamin yaratuvchi omillardan hisoblanadi.

2). Bag'rikenglik g'oyasini quyidagi sxema asosida tasvirlash mumkin.

3) Milliy-diniy bag'rikenglik g'oyasi hamda uning tarixiy va huquqiy asoslari. «Dinlararo bag'rikenglik g'oyasi - xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir -Vatarda, olijanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashini anglatadi»<sup>1</sup>. Din qadim-qadimdan aksariyat ma'naviy qadriyatlarni o'zida mujassam etib keladi.

Milliy va diniy qadriyatning asrlar osha bezavol yashab kelayotgani ham ularning bir-birlari bilan yaqin mushtarak maqsadlarga ega bo'lganligidan dalolat beradi. Chunki dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g'oyalarga asoslanadi, yaxshilik, tinchlik, do'stlik kabi fazilatlariga tayanadi. Odamlarni halollik va poklik, mehr-shafqat va bag'rikenglikka da'vat etadi. Hozirgi zaminda bu g'oya ezgulik yo'lida nafaqat dindorlar, balki butun jamiyat a'zolarining hamkorligini nazarda tutadi, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi. Masalan, azal-azaldan diyorimizda turli diniy ta'limotlar yonma-yon yashab kelgan. Asrlar davomida yirik shaharlarimizda masjid, cherkov, xonaqohlarning mavjud bo'lishi, turli millat va dinga mansub qavmlarning o'z diniy amallarini erkin ado etib kelayotgani buning tasdig'idir. Tariximizning eng murakkab, og'ir davrlarida ham ular o'rtasida diniy asosda mujarolar bo'lmagani xalqimizning dinlararo bag'rikenglik g'oyasiga amal qilib yashab kelayotganliklaridan dalolat beradi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda 15 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning o'z faoliyatini amalga oshirishi va mamlakat hayotida ishtirok etishi uchun hamma shart-sharoitlar yaratilgan. Bu boradagi huquqiy asoslar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonunda o'z ifodasini topgan. Ana shu asoslar mamlakatimizdagi barcha din vakillarining hamkor, hamjihat bo'lib, ulug' va mushtarak g'oyalari yo'lida harakat qilishi uchun imkon yaratadi.

Hozirgi vaqtda O'zbekistondagi turli konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar o'z faoliyatini o'zaro teng huquqlilik, hamdo'stlik va hamkorlik asosida amalga oshirmoqda. Diniy bag'rikenglik turli dinlarning, turli dinlarga mansub kishilarning hamdo'stlik munosabatlarinigina nazarda tutmaydi, balki e'tiqodidan qat'iy nazar barcha kishilarning tengligi, umumiy ezuq maqsad yo'lida hamkorlikni ham qamrab oladi. Diniy qarashga ko'ra ham, madaniy, jumladan, ilmiy qarashga ko'ra ham inson eng oliy mavjudotdir.

<sup>1</sup> Ergashev I., Nabiev E. Va boshqa. Milliy istiqloq g'oyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. - T.: Akademiya. 2005. 271- bet.

Diniylik dunyoviylikka xizmat qilishi mumkin deganda, dunyoqarashning ezigulik, yaxshilik, halollik, tinchlik, do'stlik kabi yuksak insoniy fazilatlarini tarbiyalashni nazarda tutamiz. Haqiqatan ham diniy ta'limotlar, u dunyo hayotini tasvirlash vositasida bu dunyoda yuksak fazilatlariga ega bo'lishga undaydi.

Diniy bag'rikenglikning qaror topishi, mustahkamlanishi, rivojlanishi barcha kishilarni e'tiqodidan qat'iy nazar milliy g'oya va mafkurani amalga oshirish yo'lida birlashtiradi. U mafkurani milliy g'oya va kishilar ongi hamda qalbiga joylashishiga yordam beradi.

Aksincha, diniy bag'rikenglikni tor ma'noda tushunish, bir tomonlama talqin qilish umumiy maqsadlardan chalg'itib, kishilarni o'zaro guruhlariga bo'lib yuborishi mumkin. Shuningdek, ayrim guruhlarning g'arazli manfaatlariga xizmat qiluvchi diniy niqobni yuzaga keltiradi.

Bu haqida mamlakat Prezidenti I.A.Karimov shunday yozadi: «Afsus-ki, insoniyat taraxida diniy ongning ajralmas qismi bo'lgan odamlardagi e'tiqoddan faqat bunyodkor kuch sifatida emas, balki vayron qiluvchi kuch, hatto fanatizm (o'ta ketgan mutaassiblik) sifatida foydalanilganligini ko'rsatuvchi misollar ko'p. Fanatizmning o'ziga xos xususiyati va ko'rinishlari, avvalambor, o'z dinining haqiqiylikiga o'ta qattiq ishonish, boshqa diniy e'tiqodlarga murosasiz munosabatda bo'lishdan iboratdir. Aynan fanatizmga yo'liqqan odamlar yoki ularning guruhlari jamiyatda beqarorlik to'loqini keltirib chiqarishga qodir bo'ladilar»<sup>1</sup>.

O'zbekistonda yangi demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarini yaratishga kirishilgan hozirgi o'tish davrida diniy bag'rikenglik qanchalik muhim bo'lsa, diniy bag'rikenglik uchun milliy mafkura ham shunchalik muhimdir. Milliy mafkuraning yuksak g'oyalari, o'z navbatida, dinning haqiqiy mohiyatini jamiyat taraqqiyotidagi o'rini anglab olishga yordam beradi. Diniy bag'rikenglik g'oyasini to'g'ri tushunishga yordam berib, barcha kishilarni e'tiqodidan qat'iy nazar birlashtiradi. Milliy istiqloq mafkurasi kishilar ongi va qalbiga singganda diniy mutaassiblikka, ayirmachilikka hech qanday o'rin qolmaydi.

Respublikamiz aholisining milliy qiyyofasi faqat Sharq emas, balki, Farb sivilizatsiyasiga mos umuminsoniy tamoyillar, islom, xristianlik va boshqa dinlarga e'tiqod, an'ana va urfodatlar, rang-barang turmus h tarzidan iborat ma'naviy mezonlarni o'zida aks ettiradi.

Hozirgi kunga kelib respublikamiz bo'yicha jami 2104 ta diniy tashkilot, shu jumladan, O'zbekistonda musulmonlari idorasi, Rus pravoslav cherkovi, Toshkent va O'rta Osiyo yeparxiyasi, Yevangel xristian baptistlar cherkovlari Ittifoqi, Rim katolik cherkovi, To'liq injil xristianlar markazi, O'zbekiston bibliya jamiyati, 1906 ta masjid, 163 ta xristian cherkovi, 7 ta yahudiylar jamoasi, 7 ta bahoiylar jamoasi, 2 ta Krishnanani anglash jamiyati va 13 ta diniy o'quv yurti (1 ta Islom masjidi, 10 madrasa va 1 ta pravoslav va 1 ta to'liq injil xristianlari seminariyasi) davlat ro'yxatidan o'tgan.

O'zbekistonda dunyoviylik bilan diniylik o'rtasida andoza sifatida qo'llash mumkin bo'lgan yangi nisbatning shakllanishi natijasida dinlararo bag'rikenglik va millatlararo totuvlikning ta'minlangani, qolaversa, tabarruk zaminimizning azaldan umumjahon tamadduni markazlaridan biri bo'lgani barchaga ayon.

Dunyodagi musulmon mamlakatlarini 3 guruhga bo'lish mumkin:

1. Islom mamlakatlari.
2. Islom davlat dini mamlakatlari.
3. Huquqiy demokratik musulmon davlatlari (Din davlatidan ajratilgan) O'zbekiston

ana shu 3-turdagi huquqiy demokratik musulmon davlatlari qatoridan joy olgan. Davlatimiz diniy tashkilotlar bilan quyidagi tamoyillar asosida ish olib bormoqda:

- Dindorlarning diniy tuyg'ularini hurmat qilish.
- Diniy e'tiqodlarini fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish.
- Diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni taqib qilishga yo'l qo'ymaslik.

<sup>1</sup> Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. -T.6. -T.: O'zbekiston, 1998, 54-be.

- Ma'naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarini qaror topirish ishida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot qilish yo'llarini izlash zarurati.

- Dindan buzg'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmasligini e'tirof etish kabilardir.

Bugun O'zbekiston diniy bag'rikenglik (tolerantlik) va dinlararo munosabatlarda faqat MDH davlatlariga emas, balki butun dunyoga namuna bo'lmoqda. Bu haqda Moskva va Butunrus Patriarxi Aleksey II, AQSh senatori Xillari Klinton xonim, AQShning sobiq davlat kotibi Madlen Olbrayt va lordaniya qirolligi shahzodasi Hasan ben Talol yurtimizga ziyoratlari vaqtida ta'kidlab o'tganlar. Albatta, xalqimizga azaldan xos bo'lgan bu xislat o'zining uzoq tarixiga ega.

So'nggi yillarda butun dunyo, shu jumladan, mintaqamizda kuchayib borayotgan *diniy aqidaparastlik* va jangarilik islomning asl mohiyati bo'lgan bag'rikenglikka zid bo'lgan harakatlarga sabab bo'lmoqda. Bu harakat va g'arazli oqimlarning nomlari va shiorlari turlicha bo'lishiga qaramay, maqsadlari bir - dindan niqob sifatida foydalanib, davlat siyosatiga aralashish, hokimiyatni qo'lga kiritishdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" kitobida dinning jamiyat hayotida tutgan o'rni haqida, jumladan, shunday deydi: "Biz din bundan buyon ham aholini eng oliy ruhiy, axloqiy va ma'naviy qadriyatlardan, tarixiy va madaniy merosdan bahramand qilish tarafdorimiz. Lekin biz hech qachon diniy da'vatlar hokimiyat uchun kurashga, siyosat, iqtisodiyot va qonunshunoslikka aralashish uchun bayroq bo'lishiga yo'l qo'ymaymiz. Chunki bu holni davlatimizning xavfsizligi, barqarorligi uchun jiddiy xavf-xatar deb hisoblaymiz". (Karimov I.A. Asarlar. T.6. 59 -bet).

Xulosa o'mida shuni aytish mumkinki, milliy bag'rikenglik - turli millatga mansub kishilarning bir-birlarining tilini, dinini, turmush tarzi, urf-odatini va an'analarni, milliy-madaniy merosini hurmat qilishni, ularning sha'ni, qadr-qimmatini, or-nonusini qadrlash orqali amalga oshadigan o'ziga xos ma'naviy kenglikni (bag'rikenglikni) anglatadi. Milliy bag'rikenglik bunga zid bo'lgan, milliy manfaatga ziyon yetkazish hisobiga ta'minlanmaydi. U turli millat manfaatlarini uyg'un ko'rish va ta'minlash asosida mustahkamlani b boradi.

Diniy bag'rikenglik ham dinlararo hamda har bir dinning ichidagi turli xil yo'nalishlar va mazhablarning euzu g'oyalarni qadrlash, bir-birlarini hurmat qilish asosida amalga oshadi.

Bu milliy g'oya amal qiladigan ustuvor g'oyalari sifatida milliy bag'rikenglik va dinlararo bag'rikenglikka asoslanish turli xalqlar va millatlar o'rtasida o'zaro hamjihatlik, totuvlikni ta'minlash orqali erkin va farovon hayot qurish yo'lida, insonlarning tub hayotiy maqsadlari bilan mushtarakdir.

Demak, millatlararo totuvlik - umumbashariy qadriyat bo'lib, turli xil xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaqa va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, shu joydagi tinchlik va barqarorlikning, bir mamlakat doirasida milliy manfaatlarini teng qondirish, ular rivojini ta'minlashning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Millatlararo totuvlik g'oyasi - bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlikning ma'naviy asosidir. Bu g'oya - har bir millat vakilining iste'dodi va salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratadi va uni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi ezu maqsadlar sari safarbar etadi.

"Islom qadari" konsepsiyasi. Bu risola Malayziya davlati Bosh vaziri, moliya va ichki xavfsizlik vaziri Abdulla Ahmad Badaviyning Malayziya birlashgan milliy tashkilotining 2004 yil 23 sentabrda (Malayziya poytaxti Kuala-Lumpur shahrida) bo'lib o'tgan 55-umumiy yig'ilishidagi ma'ruzasi bayoni. O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning 2005 yil 2-4 oktabr kunlari Malayziyaga davlat tashrifi davomida unga Malayziya Bosh Vaziri A.Badaviy tomonidan tuhfa etildi.

O'zbekiston va Malayziya davlatlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar do'stlik, manfaatli hamkorlik aloqalari asosida izchil rivojlanib bormoqda.



Hozirgi murakkab va tahlikali davrda jahonda ayrim siyosiy doiralar xalqaro jamoatchilikni chalg'itib, o'z manfaatlarini ko'zlagan holda, islom dinini g'arazli maqsadlarda talqin qilish, uning asl insoniy mohiyatini soxtalashtirish va shu tariqa dunyo musulmonlari orasini buzish, ular o'rtasida qarama-qarshilik, ziddiyat, turli nizo va adovatlar tug'dirishga uriniyotgani ko'pchilikni tashvishga solmoqda. Prezidentimiz Islom Karimov yuqorida bayon etilgan bunday tahdidlardan keng jamoatchilikni doimo ogoh etib kelmoqda. Ayniqsa davlat rahbarining «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid. Barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari», «Olloh qalbmizda, yuragimizda» kitoblarida, ko'plab chiqishlarida bunday xavf-xatarlarning ildizlari har tomonlama chuqur ochilib, ulami bartaraf etish yo'llari ko'rsatib berilgan edi. Shu asosda mamlakatimizda din va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirishning ma'naviy-ma'rifiy mezonlari ishlab chiqildi, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurash olib borishning usullari shakllandi. («Ma'rifat», 2005 yil 29 oktabr).

Arabcha «hadari» so'zi shahar sivilizatsiyasi, shahar madaniyati degan ma'nolarni anglatadi. «Islom hadari» iborasi esa islomiy madaniyat, islom sivilizatsiyasi ma'nolarini bildiradi. Shu bois «Islom hadari» konsepsiyasi «Madaniy, taraqqiyparvar islom konsepsiyasi» deb ataladi.

«Islom hadari» konsepsiyasi o'n qo'ida prinsipga asoslanadi:

1. ollohga iymon-e'tiqodli bo'lish;
2. xukumatning xalq ishonchini qozongan, adolatli bo'lishi bo'lishi;
3. ozod va mustaqil xalq;
4. ilm-fanni egallash;
5. barcha sohalarda mutanosib iqtisodiy rivojlanish;
6. yuksak hayot darajasi;
7. milliy ozchilik va xotin-qizlar huquqlarining himoya qilinishi;
8. madaniy va axloqiy muhitning yaxlitligi;
9. atrof-muhitni asrash;
10. yuksak mudofaa qudrati.

Malayziya Bosh vaziri A.Badavi yning «Islom hadari» risolasida ilgari surilgan g'oya va qarashlar ko'p jihatdan muqaddas islom dinini asrash, uning o'lmas an'ana va qadriyatlarini bugungi taraqqiyot bilan uyg'unlashtirish borasidagi bizning intilishlarimizga mos keladi. Malayziya aholisining ko'pchiligini musulmonlar tashkil qiladi. Shuningdek, bu mamlakatda turli etnik qatlam va diniy konfessiya vakillaridani iborat ko'pmillatli davlatdir. «Islom hadari» konsepsiyasida zamonaviy ilmu hunarlarni egallash, doimo mehnat qilib yashash, halollik va adolatli boshqaruv targ'ib qilinadi, musulmonlar jamoasi har tomonlama rivojlanishga, bag'rikenglikka, uzoqni ko'zlab ish tutishga davat etiladi, yoshlarning dunyoviy bilimlarini chuquregallashi, shu tariqa o'z munosib o'rini topishi qo'llab-quvvatlanadi.

**Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi. Hozirgi davr** - dunyo g'oyaviy qarama-qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchliroq bo'lib borayotgan davrdir. Butun Yer yuzi o'lamzod uchun yagona makon bo'lib hisoblanadi. Ammo tarixda mavjud chegaralarni o'zgartirish, muayyan hududlarni bosib olish uchun son-sannoqsiz urushlar bo'lgan. Bu jarayonda esa urush qurollari muntazam takomillashib borgan. Mazkur urushlar to XX asrgacha asosan ko'proq bir yo'likki davlat yoxuj mintaga o'rtasida bo'lgan. XX asrda ro'y bergan ikkita jahon urushida o'nlab davlatlar, bir necha qit'a mamlakatlari ishtirok etgan.

Xullas, urush qurollari takomilashib boraverdi. Bugungi kunda ular boshqa hududni bosib olish u yoqda tursin, balki butun Yer sayyorasidagi hayotni bir necha marta yo'q qilib tashlashga yetadi. Insoniyat XX asr oxiriga kelib bir qator chegara bilmaydigan muammolarga duch keldi. Urush va tinchlik, ekologik falokatlar, ma'naviy qashshoqlik, narkobiznes, terrorism kabi muammolar ana shular jumlasidandir.

XXI asr boshlariga kelib dunyo mamlakatlari o'rtasida o'zaro ta'sir shu qadar kuchayib ketdiki, bu jarayondan to'la ihtolaniib olgan birorta ham davlat yo'q. Globallashuvning turli

mamlakatlarga o'tkazayotgan ta'siri ham turlicha. Bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, axborot, ma'naviy salohiyatlari va siyosati qanday ekani bilan bog'liq.

**Globallashuv** (globalizatsiya) – lotincha «glob» so'zidan olingan bo'lib, aynan uni «dumaloqlashuv», «quralashuv» deb tarjima qilish mumkin. Yer sharining, Yer kurrasining fan-texnika yutuqlari tufayli insoniyat ixtiyorida huddi bir butun sharga, kuraga aylanishini tushuntirish uchun ishlatiladi. Insoniyat taraqqiyoti Ayni vaqtda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish jarayonidir. Bu jarayon asardan asarga, ming yillar davom etgan...

**Globallashuv** – turli mamlakatlar iqtisodiy, madaniyati, ma'naviyati, odamlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir va bog'liqlikning kuchayishidir. Globallashuvga berilgan ta'riflar juda ko'p. Fransuz tadqiqotchisi B.Bandi ta'rifida globallashuv jarayonining 3 o'lchovli ekaniga urg'u beriladi:

1. **Globallashuv** - muttasil davom etadigan tarixiy jarayon.

2. **Globallashuv** - jahonning gomogenlashuvi (bir jinsli) va universallasuvi jarayoni

3. **Globallashuv** - milliy chegaralarning «yuvilib ketish» jarayoni.

Rossiyalik A.Parshev globallashuvga quyidagicha ta'rif beradi: «Aslida, globallashuvning asosiy mazmuni boshqa mamlakatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotning qo'shimcha qiymatini, dunyodagi asosiy zahiralarni o'zlashtirishdan iborat».

Globallashuvning mamlakatlar iqtisodiy siyosati va ma'naviyatiga o'tkazishi mumkin bo'lgan ijobiy va salbiy ta'siri xususida Hindistonning mashhur davlat arbobi Mahatma Gandining quyidagi so'zlarida yaxshi ifodalangan: «Men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib o'tira olmayman, chunki uyinga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga, o'chilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo'lib uyimni ag'dar-to'ntar qilib tashlashi, o'z zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman».

Shuning uchun ham milliy istiqlol g'oyasi bugungi globallashuv jarayonida uyimizni, hayotimizni toza havo bilan ta'minlab, ayni paytda, «dovullar»dan saqlash omili ekanligini ang'lash mumkin.

**Globallashuvning ijobiy tomoni shundan iboratki**, u xalqlarning, davlatlarning, milliy madaniyat va iqtisodiyotlarning yaqinlashishini tezlashtiradi, ularning rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

**Globallashuvning salbiy tomoni shundan iboratki**, ko'p ming-ming mayda, qoloq etnik guruhlar va millatlarning madaniyati, tili, rasm-rusmlari jahon bo'ylab kuchayib borayotgan globallashuv jarayonlarida kata millatlar, yirik milliy madaniyatlar, boy tillar bilan raqobatlasha olmay, o'z-o'zidan faol ijtimoiy-iqtisodiy, lisoniy-zaboniy hayotdan chintga chiqib qolmoqda. Bunday sharoitda har bir ongli fuqaroning vazifasi – o'z millatining raqobatbardoshligini ko'tarish, buning uchun uning faol siyosati, tadbirkor iqtisodiyoti, madaniyatida salmoqli yutuqlari uchun kurashishdir. Buning uchun mustaqil O'zbekistonning har bir fuqarosi 4 ta sifatga ega bo'lishi kerak: 1) zamonaviy mutaxassis bo'lishi; 2) o'zbek davlat tili, rus tili, ingliz tillarini mukammal bilishi; 3) doim o'z bilim doirasini yangilab borishi va 4) tadbirkor-tashabbuskor bo'lishi kerak (Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at. Mualliflar: M.Abdullaev va boshqalar. – T.: Sharq, 2006. – 528 b.)

**Globallashuv jarayoni murakkab hodisa.** Uning turli mamlakatlar iqtisodiy, siyosati va ma'naviyatiga o'tkazayotgan ta'siri murakkabligi sababli unga nisbatan ham jahonda bir-biriga qarshi, muxolifatda bo'lgan ikki guruh: 1) globalistlar va 2) aksilglobalistlar guruhlari vujudga keladi.

1. **Globalistlar** - globallashuv tarafdorlaridir. Ular orasida davlat arboblari, siyosatdonlar, sanoatchi va biznesmenlar ko'proq uchraydi.

XX asr o'rtalarida globallashuvning institutsionlashuvi (tashkil-lashuvi) kuchaygandan keyin bu jarayon tezlashdi. Masalan, Butunjahon savdo tashkiloti, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki, Yevropa taraqqiyoti va tiklanish banki tashkilotlari globalistlar ta'sirida vujudga keladi.

2. **Aksilglobalistlar** - globallashuv muxoliflari bo'lib, ular orasida ko'proq so'li kuchlar, kasaba uyushmalari va yoshlar tashkilotining vakillari bor. MDH hududida aksilglobalistlar

Rossiya Federatsiyasi hududida faol harakat olib bormoqda. Bu yerda ular turli anjumanlar, seminarlar o'tkazish uchun to'planib turadilar.

Aksiglobalistlar faoliyati ham bugungi kunda kuchaydi. Lekin faqat uning salbiy oqibatlarigagina emas, umuman unga qarshi chiqmoqda. Masalan, rossiyalik faylasuf va yozuvchi A.Zinovev «Aksiglobalizm vektorlari» nomli anjumanda shunday degan edi: «Globallashuv yangi jahon urushidir. U yangi tipdagi jahon urushi. Bu urushda tirik qolishning qarshilik ko'rsatishdan boshqa yo'lini ko'rmayapman. Faqat qarshilik!».

Umuman globalashuv «mafkuralashishdan» xoli bo'lishi kerak.

Dunyoda globallashuv, axborot oqimining tezlashuvi va intensivlashuvi, universal texnologiyalar bilan bog'liq umumbashariy jarayonlar jadallashib bormoqdi. Bunday sharoitda mafkuraviy vositalar orqali o'z ta'sir doirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va harakatlar ham yo'q emas. Tajovuzkor millatchilik va shovinizm, neofashizm va fundamentalizm, irqchilik va diniy ekstremizm mafkuralari shular jumlasidandir. Natijada dunyoda inson qalbi va ongini egallash uchun kurash tobora kuchayib bormoqda. Bu hol bugungi kunda dunyoning mafkuraviy manzarasini belgilab bermoqda.

1. Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi.

2. Globallashuvning ijobiy natijalari.

3. Globallashuvning salbiy oqibatlari.

XX asr so'ngida ro'y bergan ulkan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, ikki qutbli dunyoning barham topishi natijasida nisbiy muvozanatning buzilishi jahonning mafkuraviy manzarasini tubdan o'zgartirib yubordi.

XX asrda dunyoda g'oyaviy qarama-qarshiliklar keskin va murakkab tu solgan davr bo'ldi. XX asr so'ngida ikki qutbli dunyoning barham topishi, nisbiy muvozanatning buzilishi natijasida jahondagi mafkuraviy manzaralar tubdan o'zgardi. Yurtboshimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, «XX asr oxirida dunyoda jo'g'rofiy-siyosiy ahamiyati va ko'lami jihatidan noyob o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bu o'zgarishlar betakror. Ular nafaqat mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda vujudga kelgan qarashlar va ularning mexanizmlarini chuqur o'ylab ko'rishni, balki ko'p jihatdan qayta baholashni ham talab qiladi. «Sovuq urush» davrida xalqaro munosabatlarga asos bo'lgan ko'p qoidalar, tamoyillar va g'oyalarni tubdan qayta ko'rib chiqish talab qilinmoqda. Butun dunyo yaxlit va bir-biriga bog'liq tizim bo'lib bormoqda, unda o'zi - o'zidan qanoatlanishga va mahdudlikka o'rin yo'q. Bu hol hozirgi xalqaro munosabatlarni shakllantirganda, xalqaro tuzilmalar bilan o'zaro aloqalarda va ularning faoliyatida ishtirok etganda mutlaqo yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishni zarur qilib qo'yimoqda»<sup>1</sup>.

maydonlarini mafkuraviy bo'lib olishga urinishlar:

1. Siyosiy (buyuk davlatchilik shovinizmi).

2. Diniy (diniy ekstremistik va aqidaparastlik, panislomizm).

3. Badiiy (G'arb turmush tarzini targ'ib qiluvchi, Amerikacha turmush tarzini targ'ib qiluvchi, zo'ravonlik, yovuzlik va boshqa axloqsizliklarni targ'ib qiluvchi).

XX asr oxiri va XXI asr boshlariga kelib kommunistik va sotsialistik partiya ta'siridagi sotsializm lageri parchalandi. Dunyo mamlakatlari rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarga bo'lindi. Anashu rivojlangan ba'zi mamlakatlar o'z milliy mustaqilligini qo'lga kiritgan, rivojlanayotgan mamlakatlarni, jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan bo'lib olishga urinmoqdalar. Bular quyidagi holatlarda ko'rinadi:

Dunyoni bo'lib olishga urinayotgan mafkuralarning shakllari:

1. Buyuk davlatchilik mafkurasi.

2. Diniy ekstremistik mafkuralar.

3. Pansovetizm mafkurasi.

4. Panislomizm mafkurasi.

5. G'arb turmush tarzini ifodalagan mafkuralar.

6. Amerikacha turmush tarzini ifodalagan mafkuralar.

<sup>1</sup> Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. 6-Jild. - T.: «O'zbekiston», 1998, 240-241 - betlar.

7. Turli diniy sektolarning g'oyalarni ifodalovchi mafkuralar.

1. **Buyuk davlatchilik shovinizmi** - (*Shovinizm* - fran. burjua mil-latchiligining o'ta reaksion formasi). Shovinizm siyosati boshqa millat va xalqlarga nafrat va dushmanlikni avj oltirishga qaratilgan. Shovinizm go'yo to'laqonli bo'lmagan boshqa millatlar va irqlar ustidan hukmronlik qi-lishga da'vat etilgan bir millatning alohidaligini («mumtozligini») targ'ib etadi.

Shovinizm ba'zi ko'p sonli millatlarning nafaqat ko'p millatli imperiya doirasida, balki uni o'rab turgan jo'g'rofiy - siyosiy makonda ham o'zining mutlaq hukmronligini o'matish uchun kurashda namoyon bo'ladi. Davlat yetakchi mavqe (davlat)ga ega bo'lgan, o'z millatini «oliy» millat deb e'lon qilgan millat hukmron ekspluatator sinflarning ideologiyasi va siyosati bo'lgan buyuk davlatchilik shovinizm, shovinizm va millatchilikning bir turidir.

**Buyuk davlatchilik shovinizmi** boshqa millatlar va mamlakatlar bilan o'zaro madaniyatli hamkorlik qilishga tayyor emaslikdan kelib chiqqdi. Uning ifodachilari harbiy imperiyalardir. Bu imperiyalarning iqtisodiyoti bosib olingan hududlarni ekspluatatsiya qilar va hatto ularning hayotiy manbalari hisobiga yashar edi. Ayni chog'da bo'ysundirilgan xalqlarga ularga madaniy jihatdan va umuman milliy jihatdan norasoligi haqidagi halokatli g'oya singdirilar edi.

Buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik bir-birini to'ldiradi, bular o'z davlati manfaatini ilgari surib, milliy qadriyatlarini tayyorlashda, milliy madaniyatlar va ma'naviy qadriyatlarini oyoq osti qilishda, avtoritar tuzum o'matishda, boshqa mamlakat xalqlarini itoatgo'y qilib saqlab turishda, hozir esa sobiq Itifoqni tiklash uchun qilayotgan harakatida, o'z ta'sir doirasini boshqa mustaqil davlatlarda saqlab qolish uchun intilishda, millatlar o'rtasida o'zaro ishonchsizlik tug'dirishda, xalqaro-huquqiy me'yorlarni inkor etishda, tashqi iqtisodiy aloqalarni to'sishda, yangi mustamlakachilikni zo'rlab qabul qildirish harakatida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Prezident Islom Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida...» asarida shovinizmga «Shovinizm ba'zi ko'p sonli millatlarning nafaqat ko'p millatli imperiya doirasida, balki uni o'rab turgan jo'g'rofiy-siyosiy makonda ham o'zining mutlaq hukmronligini o'matish uchun kurashida namoyon bo'ladi» deb ta'rif bergan (Karimov I.A. Asarlar. T.6. 65-bet). Bunday davlatlarga ko'proq iqtisodiy jihatdan zaif, ichki beqaror davlatlar nishon bo'ladi.

O'zbekistonni, avvalo Rossiya imperiyasi, keyin sovet imperiyasi yuritgan buyuk davlatchilik shovinizmi jafolarni tortgan hozirgi paytda, XXI asr boshlariga kelib bu davr turlicha talqin etilmoqda. Bu talqin-larning 2 tasi haqida «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida...» asarida fikr yuritilgan:

1) «Birinchi andozaning» mualliflari, - deyiladi asarda, - ehtirol samimiy tarzda, mintaqa Rossiya imperiyasi tarkibidagi Turkiston muxtoriyati sifatida rivojlanib, o'z metropoliyasidan zarur rag'batlarni olib turar edi. Chunki podsho Rossiyasi mahalliy an'analar va asoslarni yo'q qilmagan va buzmagan holda o'lkaning burjuacha tadrijiy rivojlanishini rag'batlantirgan edi, deb hisoblaydilar». Ushbu guruh mualliflari mintaqada o'tkazilgan bolshevikcha tajriba, shu jumladan, milliy davlat chegaralanishi, iqtisodiyotning haddan tashqari ixti soslashtirilishini keskin tanqid qiladilar va bularni Markaziy Osiyo mintaqasidagi hozirgi ziddiyatlarning asosiy sabablar, deb hisoblaydilar. Shu bilan birga ular kommunistik tuzumdan keyingi yangi Rossiya Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlashtiruvchi rolni o'ynash uchun juda mos keladi, degan g'oyani ilgari suradilar.

2) Boshqa fikrga ko'ra, mintaqadagi muammolarni o'lkaning mustamlaka o'tmishi keltirib chiqargan. Bu fikr tarafdorlari o'lkani o'z tarixiy va milliy negizlariga qaytarishni taklif qiladi. Bunga musulmon davlat-larga ergashgan, ular bilan yaqinroq integratsiyaga kirishgan taqdirdagina erishish mumkin, deb hisoblaydilar.

Ikkala nuqtai nazarda ilmiylikka nisbatan siyosat va ehtirolsalar usturligi yaqqol ko'rinib turibdi. Bu nuqtai nazarlar ayni buyuk davlat-chilik shovinizmi va agressiv millatchilikning hurujlari tufayli kelib chiqqan.

Mustaqillikka erishib, bugungi kunda rivojlanayotgan Markaziy Osiyo respublikalarini asabiylilik bilan, alam bilan qarshi olmoqdalar. Bunga Rossiya matbuotida chiqayotgan tahlilliy matenallar yaqqol misol bo'la oladi. 1997 yil 26 martda «Novaya nezavisimnaya gazeta» sonida

bosilgan «MDH: tarixining ibtidosimi yoki intihosi» bosh maqolasida «sobiq Sovet respublikalari uchun mustaqil davlatga aylanish imkoniyatini berishdan iborat Rossiyaning xatosi», bu «xato»ni to'g'rilash haqidagi imperiyachilik da'volari bilan chiqqan edi.

Maqolada go'yo Rossiya «Janub tahdidi» deb atalgan tahdid vujudga keldi, Rossiya shakllanib borayotgan Markaziy Osiyo hamdo'stlik blokini parchalab yuborishi zarur, degan agressiv takliflari ilgari suriladi.

Prezident Islom Karimov 2005 yil 14 yanvarda «Nezavisimaya gazeta» (Moskva) muxbirining savollariga javobi «Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar, deb hisoblashar edi» deb nomlanib, mazkur intervyuda bunday holatlarga o'z vaqtida javob berib, Ukrainadagi «Zarg'aldoq inqilobi», «Gruziya va Ukrainada so'nggi paytlarda sodir bo'lgan voqea-larni», O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy jarayonlaridagi o'zgarishlar bilan chuqur tahlil qilib berdi.<sup>1</sup>

Hozirgi kunda buyuk davlatchilik g'oyalari mazmunan o'sha-o'sha bo'lsada, unga endilikda o'ta zamonaviy shakl berilmoqda. Mustaqillikning dastlabki yillarida bular rus millatining mumtozligini tiklash, Rossiya tevaragida kuchli jo'g'rofiy - siyosiy maydon yaratish, «Yagona va ahil xalqlar oilasi»ni tiklash, yangi mustaqil davlatlarning qaysi biri bilan hamkorlik qilish, qaysilarini ajratib qo'yish va boshqa sohalar da ko'rinmoqda.

Mustaqil O'zbekiston uchun bugungi kunda buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik tug'dirayotgan tahdidlarning real xavfi quyidagilardan iborat:

- 1) Xalqaro, davlatlararo va elatlararo qarama-qarshilikni keltirib chiqarish.
- 2) Xalqaro-huquqiy va ichki davlat suverenitetimizni ro'yobga chiqarishga qarshilik ko'rsatish.
- 3) O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalarini chegaralashga, ularni teng huquqli bo'lmagan sharoitga solib qo'yishga urinish.
- 4) Mamlakatimiz aholisiga elektron, radio-axborot vositalari orqali mafkuraviy yo'l bilan tazyiq o'tkazish, jahon afkor ommasida O'zbekiston haqida noto'g'ri tasavvur tug'dirishga intilish.
- 5) Millatlar o'rtasidagi o'zaro ishonchsizlikni keltirib chiqarish, millatlararo munosabatlarni keskinlashtirish.
- 6) Yangi mustamlakachilik va yangi imperiyachilik yondashuvlarini zo'rab qabul qildirish, hamma sohalaridagi o'zaro manfaatli va teng huquqli hamkorlikni sekinlashtirish xavfi.

2. Panislomizm - XIX asr oxirida O'rta Sharqdagi musulmon mamlakatlarida vujudga kelgan diniy - siyosiy oqim. Asoschisi - Jamol ad-din al-Afg'oniy. Panislomizm tarafdorlari musulmonlarning «birligi» va ularni xalifa rahbarligidagi yagona musulmon davlatiga birlashtirish zarurligi g'oyasini ilgari surgan. Ayni vaqtda panislomizm tarafdorlari diniy islohotchilik pozitsiyasida turib, islom dinini davr talablariga muvofiq isloh qilishga intilganlar.

XX asr boshlarida Turkiya sultonlari bu nazariyadan foydalanib, musulmon xalqlarini o'z qo'l ostida birlashtirishga uringan. Bu oqim Vah-hobiylar, «Hizbut-tahrir» kabi diniy oqimlarda bugungi kunda O'zbekistonda xalifalik davlatini tiklash uchun urinish bo'ldi.

«Panislomizm» g'oyasida hozirgi kunda turli xristian konfessiyalari ham targ'ibot va tashviqot ishlarini olib bormoqdalar.

XX asr boshlarida quyidagi oqimlar ham mavjud bo'lgan.

3. Panturkizm - bolshevizmning ashaddiy dushmani edi. I jahon urushi arafasida «Yosh turklar partiyasi», Rossiyaga qarshi urush ochishda yagona tashviqot-targ'ibot quroli vazifasini o'tadi, jadidchilik harakatini avj oldirishda bosh rolni o'ynadi. Panturkizm oqimi, uning siyosati Tatariston va Boshqiriston o'lkalariga 1912 yillarda kirib keldi. Bolshevizm XX asr 20-30 yillarda ularni «millatchilik»da ayblab, «Sho'roga qarshi» sifatida bosh liderlarini qirib tashladi.

<sup>1</sup> Karimov I.A. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar, deb hisoblashar edi. - T.: «O'zbekiston», 2005. - 64 b.

*Panturkistlar* - oq va qizil imperiya istibdodiga, adolatsizlik va tengsizlikka qarshi kurashgan, ozodlik va mustaqillik yo'lida jon fido qilganlar sifatida tarixda qolishdi. Ular qonxo'rlik, hunrezlik va zulmga qarshi adolat uchun kurashuvchi xalqparvarlar edi.<sup>1</sup>

1) Rossiyada bolsheviklar tomonidan «mushtumzo'r - pomestnik» hisoblangan Kondratev guruhi «Sanoat partiyasi» yuzaga kelgan.

2) Tataristonda panislomizm va panturkizm oqimlari sifatida «Sulton Alievchilik» qaror topgan edi.

3) Qirimda «Ibrahimovchilik».

4) Ozarbayjonda «Milliy partiya».

5) O'zbekistonda «Munavarqorichilik» - «Milliy istiqol» mahfiy partiyasi faoliyat ko'rsatgan.

4. *Pansovetizm*. Buyuk davlatchilik shovinizmi bugungi kunda pansove-tizm bilan o'ziga xos tarzda qo'shilib ketgan. Pansovetizm tushunchasi uzoq vaqt davomida bir ittifoq doirasida yashash natijasida ijtimoiy-madaniy hayotda yuzaga kelgan muayyan yaqinlik, o'xshashlik, umumiylik, iqtisodiy aloqadorlik va bog'liqlikni mutlaqlashtirishga asoslangan.

Ammo, Prezidentimiz o'rinli ta'kidlaganidek, bunday qarashlar ortida ham sodda kishilarning bosh-ko'zini aylantirib, o'z umrini yashab bo'lgan g'oyalarni hayotimizga qaytadan tiqishtirishga, shu yo'l bilan yana eski tuzumni tiklashga, bir so'z bilan aytganda, milliy o'zligimizni yo'qotishga qaratilgan intilish yotganligini yoddan chiqarmaslik zarur.

5. *Xalifalikni tiklash.*

6. *Islom modernizmi.*

7. *Islom traditsion alizmi.*

8. *Islom fundamentalizmi.*

Bu oqimlar diniy va dunyoviy hokimiyatni o'zida mujassamlashtirgan xalifa rahbarligidagi yagona musulmon davlatiga birlashtirishni ko'zlagan, sog'lom mantiqqa mutlaqo zidda vodon iborat. XX asr 80-yillarida «Musulmon birodarlari» tashkilotining fraksiyalarga bo'linib ketishi natijasida quyidagi diniy tashkilot va partiyalar ham yuzaga kelgan:

1) «Islom ozodlik partiyasi»

2) «Sotsial islohotlar jamiyati»

3) «At - Takfir val - Hijra»

4) «Junud Alloh»

5) «Jihad»

6) «Hizbulloh» kabi.

Bundan boshqa yana quyidagi diniy oqimlar ham mavjud:

7) Vahhobiylik (XVIII asrda paydo bo'lgan).

8) Ahmadiya (IX asrda Pokistonda).

9) Hizb-at-tahrir (1953 yilda Isroilda - tushuntirish, harakat, to'ntarish).

10) Tablig'chilar - yetkazish ma'no. XX asr Hindistonda, islomga chorlash.

11) Akromiyalar - 1997-1999 yillarda Farg'onada va 2005 yil 12-13 mayda Andijon oqim sardoriga bo'ysunish (Akrom Yo'ldoshev boshchiligidagi).

12) Nurchilar - Turkiyada, hokimiyat uchun kurashga chorlash.

13) Tavba-ekstremistik ruhdagi harakat. Bokuda va O'zbekistonga (1991 yil).

14) Islom uyg'onish partiyasi - 1989-1991 yillarda Tojikistonda.

15) Islom lashkarlari - 1990-1992 yillarda Namanganda «Otavai-xon» masjidida.

16) Adolat - 1990-1992 yillarda Namanganda paydo bo'ldi.

1991 yil 14 iyunda O'zbekiston Oliy Kengashining 12 - chaqiriq 5- sessiyasida «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonuni qabul qilingan edi. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunning yangi tahriri 1998 yil 1 mayda Oliy Majlisning II-sessiyasida qabul qilindi.

<sup>1</sup> Uzoqov H. Panturkizm - bolshevizmning ashaddiy dushmani // «Xalq ta'limi». 1998, №3, 57-62- betlar.

Umuman, Islom ekstremizmi, fundamentalizmi tomonidan O'zbekiston xavfsizligiga solinayotgan tahdidlar quyidagilardan iborat:

1) Dindor musulmonlarning islohotchi davlatga ishonchini yo'qotish, demokratik jamiyatni obro'sizlantirish, barqarorlikni va milliy totuvlikni buzishga urinmoqda.

2) Asossiz davlatlar orqali yoshlarni mutelik, erksizlik holiga tushirib qo'yish, aqliga va taqdiriga hukmron bo'lish.

3) Qarama-qarshilikni keltirib chiqarib mamlakatni parchalab tashlash.

4) Din uchun kurashuvchi jangorilarning yangi avlodini vujudga keltirish.

5) Musulmon va nomusulmon mamlakatlar orasida O'zbekiston obro'-sini to'kish, obro'sizlantirish.

6) Islom va boshqa sivilizatsiyalar o'rtasida ziddiyatlarni keltirib chiqarish.

7) Omma ongida soxta tasavvurlarni qaror toptirish.

«Bu radikal guruhlarining barchasini birlashtirib turadigan umumiy bir xususiyat bor. Ular, mohiyat e'tiboriga ko'ra, biz uchun mutlaqo' yot bo'lgan bir maqsadni - diniy davlat, musulmon xalifaligini o'rnatishni targ'ib qilmoqda»<sup>1</sup>.

### Globallashuv jarayonida milliy g'oyaga ehtiyojning ortishi

Globallashuv jarayonida milliy istiqlol g'oyasining eng muhim funksiyasi, ya'ni milliy va ma'naviy o'zlikni himoyalash alohida ahamiyat kasb etadi. Aslida milliy g'oyaning 1) bilish; 2) tarbiyaviy; 3) regulativ; 4) kommunikativ; 5) normativ, qadriyatli; 6) safarbar etish, yo'naltirish; 7) himoya; 8) g'oyaviy bandlik kabi funksiyalarni bajarishi uchun yoshlar va aholi ongida faqat bilim, tasavvur sifatida emas, ishonch va e'tiqod sifatida shakllanishi lozim.

Milliy istiqlol g'oyasini targ'ib qilishda ma'naviyatni rivojlantirishda asosiy yondashuv ma'rifiy yondashuv bo'lsa ham bu jarayon milliy istiqlol g'oyasining xususiyatlari bilan bog'liq. Jahondagi globallashuv jarayonlari ana shu g'oyaga bo'lgan ehtiyojni keskin kuchaytiradi. Aslini olganda, globallashuv jarayoni bo'lmasa, milliy g'oyaga ham ehtiyoj oshmas edi. Chunki globallashuv bo'lmaganda har bir xalq va millatning ma'naviyati o'zicha mavjud bo'lar va imkoniyat darajasida rivoj topardi. Tashqi ta'sir va tahdidning yo'qligi esa milliy g'oyaga ehtiyojni ham dolzarblashtirmas edi.

Milliy istiqlol g'oyasining mohiyati shundaki, u odamlar ongida, xotirasida g'oyaligicha qolmay, amaliyotga, hayotga aylangan taqdirdagina haqiqiy milliy va haqiqiy istiqlol g'oyasi bo'lishi mumkin. Shundagina u globallashuv sharoitida milliy ma'naviyatni va ma'naviy o'zlikni tashqi nosog'lom g'oyaviy tahdidlardan himoya qiladigan kuchga aylanadi<sup>2</sup>.

Bugungi kunda inson ongi va qalbi uchun kurash keskin tus olayotgan ekan, xilma-xil qarashlarning mafkura maydonida hukmronlik qilishga intilishi tabiiy, albatta. Bunga e'tiqod umumiylikiga asoslangan holda yakka mafkura hukmronligini ta'minlash orqali jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan o'ziga qaram qilishga bo'layotgan xatti-harakatlarni misol keltirish mumkin.

Diniy aqidaparastlik ham shular jumlasidandir. Masalan, islom dinidagi hozirgi aqidaparastlar ijtimoiy, milliy xususiyati, qaysi davlatga mansubligidan qat'iy nazar, barcha musulmonlarning ma'naviy birligi haqidagi tasavvurlarga tayanib, ularni yagona xalifalik ostida siyosiy birlashuvi g'oyasini asoslashga harakat qiladi. Ko'rinib turibdiki, bu ideologiya diniy asosda birlashuv g'oyasini birinchi o'ringa qo'yadi.

Ammo, jiddiy e'tibor beriladigan bo'lsa, birinchidan, ular milliy suverenitetdan voz kechish hisobiga yagona davlat tuzishni ko'zlayotganliklari ma'lum bo'ladi. Ikkinchidan, xalifalikni tiklashga, uning to'g'ri ekan iniasoslashga urinuvchilar, bu hol aynan millat sifatida o'zligimizni anglashga yo'l qo'ymasligini yashiradilar. Bu g'oyani taqishtirishda ular bizning

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. -T.: O'zbekiston, 2005. 53-bet.

<sup>2</sup> Ergashev I. va boshq. Milliy istiqlol g'oyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. -T.: Akademiya, 2005. 87-bet.

islom diniga e'tiqod qilishimizga alohida urg'u beradilar. Bundan tashqari, bu oqim tarafdorlari xalifalik bayrog'i ostida birlashishni noislomiy dunyoga qarshi turish maqsadi bilan bog'lashlarini ham ta'kidlash zarur.

Bunday yondashuv o'ta xavfli ekanligi hech kimga sir emas. Zero, u insoniyatning diniy asosda qarama-qarshi qutblarga bo'linib ketishiga, ba'zan «sivilizatsiyalar to'qnashuvi» deb ataladigan hodisaning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Mafkura va mafkuraviy tarbiya masalasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan, demokratik, huquqiy davlat, erkin fuqarolik jamiyatining asoslarini yaratayotgan mamlakatimiz uchun ham muhim hayotiy ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda. Zero, ko'zlangan maqsadlarga ushbu orzu-umid va in'tilish-larni o'zida mujassamlashtirgan g'oyaviy-nazariy qarashlar majmui bo'lmish milliy mafkura va unga asoslangan tarbiya tizimisiz erishish mumkin emasligi aniq.

«Men, - deb yozadi Prezidentimiz, - Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir» degan fikrini ko'p mu shohada qilaman.

Buyuk ma'rifatparvaming bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdir» (Karimov I.A. Asarlar. T.7. 93-94-betlar).

Bu masalaning dolzarbligi yuqorida qayd etilgan mafkura shakllarining xavfini bartaraf etish zarurligi bilan ham belgilanadi. Zero, Prezidentimiz ta'kidlagandek, ularga g'oya va ma'rifat yo'li bilan qarshi kurashish lozim.

Mamlakatimizdagi mavjud ijtimoiy hamkorlik, milliy birlik va hamjihatlikni saqlab qolish va rivojlantirish yo'li bilangina qo'lga kiritilgan istiqoltni himoya qilamiz. Xalqaro hamjamiyat, shu jumladan tarix taqozosi bilan aloqalar kuchli rivojlangan davlatlar bilan teng huquqli, izzat-ikromli munosabat, o'zaro manfaadi aloqalar esa mustaqil-likni mustahkamlashning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Ana shundagina, Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, mintaqamiz hech qachon sivilizatsiyalar to'qnashmaydigan, balki ular bir-biriga ta'sir etib, bir-birini boyitish-ning ibratli namunasi ni beradigan makonga aylanadi.

1. Geosiyosiy maqsadlarga erishish yo'lidagi mafkuraviy ta'sir o'tka-zishning «Bo'lib tashla va hukmronlik qil» degan qadimiy tamoyilining quyidagi yo'llari mavjud:

1) Mamlakat ichida ijtimoiy parokandalikni keltirib chiqarish.  
2) Mintaqa davlatlari o'rtasida turli ziddiyatlarni yuzaga keltirish. Mintaqada geg emonlikka asoslanib, davlatni zaiflashirish orqali o'z «ittifoqchisiga» aylantirishga erishish.

3) Xalqaro maydonda muayyan mamlakat haqida noto'g'ri, noxolis tasav-vurlarni shakllantirish.

2. Mintaqada geostretetik manfaatlarni ifodalovchi «Bo'lib tashla, va hukmronlik qil» tamoyilini to'ldirishga xizmat qiluvchi «Irtiyozli hamkorlikni belgilash» tamoyili ham mavjud. Uning maqsadi:

1) Har bir davlat kim balandir shiori bilan imtiyozli hamkorlikka asoslanishi.  
2) Aynm achilikni shakllantirish.  
3) «Nomaqbul» davlatlar imkoniyatlarini cheklash.  
4) Maqsad - muayyan mintaqaga ta'sir o'tkazish plandamiga ega bo'lish.  
3. «Teng huquqli va o'zaro foydali hamkorlik» tamoyili geostro-tegin manfaatlarni ro'yobga chiqarish va davlatlararo aloqalarni mustahkam-lashning eng oqilona va to'g'ri yo'lidir. O'zbekiston bunga amal qilib kelmoqda.

Mafkuraviy poligonlar kurashi. Poligon - (grek. serqirra). Mafkuraviy poligon deb, odamlarning qalbi va ongini egallashga qaratilgan g'oya yoki mafkurani mablag', ham zamonaviy texnik vositalar bilan kuchlantirib, moddiy va ma'naviy tashviqot qurollarini ishga solib, dunyodagi axborot va fikr oqimini o'z foydasi yo'lida boshqarib turadigan g'oyaviy markazga aytiladi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Bugungi kunda odamzod ma'lum bir davlatlar va siyosiy kuchlarning manfaatlarigagina xizmat qiladigan, olis - yaqin manbalardan tarqaladigan, turli ma'no-mazmundagi mafkuraviy kuchlarning ta'sirini doimiy sezib



yashamoqda». (Karimov I.A. Asarlar. T. 7. 85-86-betlar). Shuning uchun ham bugungi kunda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchli.

Chunki ularning ta'siri radio, televidenie, gazeta-jurnal, Internet; umuman, hamma axborot tarmoqlari orqali kirib kelmoqda. Ular odamlarni uyda ham, ko'chada ham, ishda ham tinch qo'ymasligi mumkin.

Yadro poligonida tayyorlangan qurol faqat muayyan hududni vayron qiladi, ammo mafkuraviy poligonlardan turli axborotlar, badiiy asarlar, o'yinchoqlar, kundalik ehtiyoj mollari shaklida tarqalayotgan vositalar esa insonlarning qalbi va ongini egallashga qaratilgandir. Masalan, «diniy adabiyot» niqobi ostida xorijdan olib kelinayotgan ayrim kitoblarda dinga siyosiy tus beriladi, jihod haqida noto'g'ri ma'lumotlar targ'ibotlariga ishonib, noto'g'ri yo'lga kirib ketishi mumkin. Yoki behayollikni, vahshiylik va zo'rovonlikni targ'ib etadigan filmlar ham mafkuraviy poligonlardan yuborilayotgan zararli ta'sirlardandir.

Bunda ommaviy axborot vositalari orqali psixologik ta'sir o'tkazishning yangidan-yangi usullaridan foydalanadilar. Xususan, milliy hayotimizga xos muayyan xususiyatlarni ochiqdan-ochiq qoralash, yerga urish yoki ayrim tarixiy voqea-hodisalarni umuman bo'lmagandek, jahon madaniyati, ilmu-faniga ulkan hissa qo'shgan ulug' allomalarimizning bizga aloqasi yo'qdek qilib ko'rsatishga urinishlar mavjud.

Shuningdek, mintaqa davlatlari o'rtasida ziddiyatlar keltirib chiqarish va jahon afkor ommasida O'zbekiston haqida noto'g'ri tasavvur tug'dirishga bo'layotgan intilishlarni hech qachon e'tibordan chetda qoldirmasligimiz lozim.

Xullas, hozirgi zamonda inson qalbi va ongi uchun kurash nihoyatda murakkab tus olgan. Bu geopolitika va globallashuv jarayonlari bilan qo'shilib, uyg'unlashib ketmoqda. Markaziy Osiyoda ham, unga nisbatan ta'sirlarda ham ana shunday serqirra jarayon, xilma-xil xususiyat, turlicha xatti-harakatlar mavjud. Bularning barchasini anglash, ro'y berayotgan voqea-hodisalarning mag'zini chaqish, mustahkam mafkuraviy immunitetni shakllantirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

### Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi va ikki qutbli dunyoning barham topishi

*Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi* (yer sharini qamrab olish, dunyo miqyosidagi, umumiy). - g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlarining kengayishi oqibatida unga Yer yuzining barcha mintaqalari tortilganligini, mafkuraviy kurash umumbashariy miqyos kasb etganini ifodalovchi tushuncha. Bugungi dunyoda mislsiz ilmiy kashfiyotlar, ulkan texnikaviy imkoniyatlar, universal texnologiyalar, axborot tarqatishning globallashuvi, ya'ni ularning butun kurrai zaminni qamrab olish jarayoni shiddat bilan bormoqda. Masalan, Internet tizimi orqali axborot almashuv, binobarin, g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlari ham tobora kengaymoqda.

Aslida axborot sohasidagi globallashuv insoniyat uchun, dunyoning barcha hududlaridagi odamlarning o'zaro muloqoti uchun, ilm-fan va madaniy boyliklarni o'zlashtirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadigan jarayondir.

Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvida bir-biridan farq qiladigan ikki yo'nalish, tendensiya mavjud:

1. Insoniyat sivilizatsiyasi tarixida erishgan har qanday moddiy va ma'naviy qadriyatlarining umuminsoniy jihatlari tarixiy makon doirasidan chiqib baynalminallashib, universallashib bormoqda. Boshqacha aytganda, milliy va umuminsoniylik tamoyillarining integratsiyalashuv jarayoni kuchmoqda.

2. Millatlar va davlatlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy rivojlanishidagi beqarorlik, ular manfaatlaridagi o'ziga xoslikni mutlaqlashtirish insoniyatga, shu jumladan, o'z millatining kelajagiga xavf tug'diradigan salbiy hodisalarning mafkuralashgan holda globallashuviga olib kelmoqda. Bu xalqaro terrorizm, ekstremizm, funda-mentalizm va narkobiznes hodisalarida namoyon bo'lmoqda. Biron bir hudud yoki mamlakatda paydo

bo'layotgan g'oyalar tez fursatda butun jahonga yoyilmoqda. Natijada, odamzot ma'lum bir davlatlar va siyosiy kuchlarning bosimini sezib yashamoqda.

Bu jarayonning muhim xususiyatlaridan biri - turli mamlakatlarni mafkuraviy zabt etish g'oyat katta iqtisodiy manfaatlar bilan qo'shilishib ketganidir. Mafkuraviy globallashuv saviyasi past audio va videokassetalar, axloqsizlik, tubanlik va yovuzlikni targ'ib qiladigan «san'at asarlari»ning ham keng tarqalishiga sabab bo'lmoqda. Foyaviy-mafkuraviy tazyiq va tajovuzlarning oldini olish uchun esa har bir millat, davlat o'zining g'oyaviy-mafkuraviy daxsizligini ta'minlaydigan chora-tadbirlarni ko'rish zarur bo'lmoqda.

Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati va ma'naviyati ham Sharq va Farbnl tutashtirgan karvon yo'llarida joylashgani sababli ham Sharq, ham Farb madaniyatidan bahramand bo'lgan. Natijada har bir xalq o'zlari uchun ana shu madaniyatning ijobiy tomonlarini o'zlashtirgan, ularga ijodiy yondashib yangi cho'qqilarga ko'targan. Masalan, Abu Rayxon Beruniy Xitoy, Hindiston, Yunoniston va rim falsafasi, tabiiy fanlarini chuqur o'zlashtirgan edi. Forobiy ham o'nlab tillarni bilgan va o'nlab xalqlar madaniyati va ma'naviyatini chuqur o'rgangan. Yaxshi, ijobiy g'oyalar o'rganilgan, ijodiy rivojlantirilgan. Lekin ular negzida yot g'oyalar ham kirib qolgan. Shunday g'oyalar borki, ular ochiq chehra bilan eshigimizni taqillatib kirib keladi. Shunday g'oyalar ham borki, ular «o'g'ri» kabi tuyuk qidiradi.

Eshik qoqib keladigan g'oyalar milliy ma'naviyatni boyitadi, rivojlantiradi. XX asr boshlaridagi o'zbek madaniyati va ma'naviyati hamda uning asr oxiridagi holati o'rtasida jiddiy tafovut bor. Bu tafovutni adabiyot, san'at, fan, hatto oddiy yursh-turish va kiyim-kechak, turmush sohalari ham kuzatish mumkin. XX asr boshida o'zbek adabiyotida dramaturgiya janri shakllanmagan edi. M.Behbudiy, Fitrat, M.Abdura-shidxonov singari ma'rifatparvarlarning sa'y-harakatlari tufayli dramaturgiya shakllandi...

Biron-bir hudud yoki mamlakatda paydo bo'layotgan g'oyalar tez fursatda butun jahonga yoyilmoqda. Natijada odamzot ma'lum bir davlatlar va siyosiy kuchlarning manfaatlariga xizmat qiladigan, o'lis-yaqin manbalardan tarqaladigan, turli mafkuraviy markazlarning bosimini doimiy ravishda sezib yashamoqda.

Bunday vaziyatda o'z mustaqil fikriga, sobit e'tiqodiga, mustahkam iroda va dunyoqarashiga ega bo'lmagan odam goh oshkora, goh pinhona ko'rinishda namoyon bo'layotgan mafkuraviy tazyiqlarga bardosh bera olmaydi. Yaponiyada paydo bo'lgan «AUM Sinrikoy» kabi zararli o'qimlar turli mamlakatlardagi minglab yosh yigit-qizlarni irodasidan, ong-shuuridan mahrum qilib, zombiga aylantirib qo'ygani bu fikrning dalilidir.

Umuman, dunyodagi misilsiz ilmiy kashfiyotlar, universal texnologiyalar va axborot tarqatishning globallashuvi yuzaga keldi. Bu jarayonlar o'z navbatida dunyodagi yuz berayotgan mafkuraviy vaziyatga, munosabatlarga jiddiy ta'sir ko'rsata boshladi. Ilmiy kashfiyotlar globallashuvida mafkura bevosita ta'sir etishi ob'ektiv va sub'ektiv omillar bilan uzviy bog'lanib ketgan.

Demak, g'oyalar va qarashlarning jamiyatdagi ma'lum guruh manfaatlariga bo'ysundirilishi va mafkuralashtirilishi - jamiyat uchun, sivilizatsiyalar uchun «sabiy omilga» aylanadi.

Natijada, jamiyatlar bir - biriga qarama - qarshi bo'lgan qublar bo'linishigacha borib yetadi. Hodisani «turmushdan», *«jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy negizi»*da deb tushunish falsafasi bir tomonla-madir. Bu - *«turmush, ijtimoiy borliq ularni belgilaydi»*, degan an'anaviy falsafaga xos bo'lib, unda muayyan maqsadlar jamiyat hayotining «mafkuralashib» borishiga asos bo'lgan.

Buni sobiq totalitar mafkuraga xos bo'lgan tarixiy voqelik to'la tasdiqlaydi. Hozirgi zamon falsafasi esa turmushning ongga ta'sirini hisobga olgan holda, ongning faol ta'sir ko'rsatishi va uni belgilashi to'g'risidagi g'oyaga asoslanmoqda. Jamiyatning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy rivojlanish darajasi hamda uning taraqqiyot yo'li inson ongi va tafakkuri darajasiga bevosita hamda uning taraqqiyot yo'li inson ongi va tafakkuri darajasiga bevosita bog'liq bo'ladi. (Ergashev I. Taraqqiyot falsafasi. Toshkent: «Akademiya», 2000. 15- bet).

Hozirgi kunda til, madaniyat, urf-odatlardagi umumiylik, boshqacha aytganda, etnik birlikka asoslangan holda yagona mafkuraviy maydonni keltirish borasidagi qarashlar ham mavjud. Bunday qarashlarning shakllanish tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Bugungi kunda ularning har biri o'ziga xos tarzda dunyoning mafkuraviy manzarasida muayyan o'rinni egallashga urinmoqda.

Markaziy Osiyoda ham murakkab mafkuraviy jarayonlar bormoqda. Bunda, avvalo, Markaziy Osiyo xalqlari mustahkam do'stligining ahamiyatini alohida ta'kidlash lozim. Chunki, mintaqa tub xalqlarining ma'naviy ildizlari bir, ruhi, turmush tarzi yaqin, ular ana shu boy manbadan birdek bahra oladilar. Shu ma'noda ham ular birligini mustahkamlash umummintaqaviy ma'naviy yuksalishimizga o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazib turaveradi. Bu jarayonga qarshi qaratilgan har qanday mafkuraviy ta'sir yoki harakatlar umummintaqaviy barqarorlikka xalaqit beradi.

Nima uchun kishilar ongi va qalbi uchun kurash turli mafkuralarning bosh maqsadiga aylanib qoldi? Gap shundaki g'oya faqatgina inson qalbini egallaganda, inson ma'naviy-ruhiy holatining uzviy qismiga aylanganidagina harakatga da'vat etuvchi, rag'batlantiruvchi kuchga, harakat uchun qo'llanmaga aylanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda nafaqat inson ongini, balki qalbini ham egallash mafkuraviy kurashning bosh maqsadi bo'lib qolmoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasidagi mafkuraviy jarayonlar tizimida Afg'onistonda 2001 yil kuzigacha davom etgan fuqarolar urushi ham alohida o'rin egalladi. Yigirma yildan ortiq davom etgan harbiy majoralar oqibatida umumiinsoniy sivilizatsiyadan uzilib qolgan Afg'oniston hududi xalqaro terrorchilik va diniy ekstremizm, qurol-yaroq va giyohvand moddalarning noqonuniy savdosi o'chog'i bo'lib keldi. Bu esa turli zararli g'oyalarning terrorchilik, tahdid va tahlika yo'li bilan butun mintaqaga yoyilish xavfini tug'dirgan edi.

Keng miqyosli integratsiya va globallashuv jarayonlari jahon taraqqiyotining hozirgi paytdagi muhim xususiyatlaridan biri ekanini e'tirof etgan holda, ularning kuchli mafkuraviy ta'sir o'tkazish vositasi ekanini ham unutmaslik dardor.

Mustaqil davlatlar Hamdo'stligi (MDH) va Markaziy Osiyo davlatlari hududlarida tuzilgan quyidagi xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarni ko'rsatib o'tish mumkin:

**1. Mustaqil Davlatlar Ham do'stligi (MDH).** 1991 yil 21 dekabrda Almatida 11 davlat: Rossiya, Ukraina, Belarus, Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Azarbayjon, Armaniston, Moldaviya davlatlari boshliqlarining kengashida MDH tuzildi. MDHga 1993 yil 24 dekabrda Ashxabadda Gruziya ham qo'shildi. O'zbekiston mazkur MDH tashkilotining iqtisodiy integratsiya doirasida qatnashib kelmokda.

O'zbekiston MDH ning Kollektiv xavfsizlik shartnomasida 1992-1999 yillarda qatnashdi. 2005 yildan boshlab yana Kollektiv Xavfsizlik shartnomasida qatnashmokda.

**2. «6+2» guruhi.** (1998-2001 yillar). BMT kotibiyati binosida 1998 yil 21 sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan tashkil topgandi. Bu guruh Afg'onistondagi harbiy mojoralarni siyosiy yo'l bilan hal etishga qaratilgan edi. Mazkur guruhga: Eron IR, Xitoy XR, Pokiston IR, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston + AQSh va Rossiya davlatlari kirgan edi. 1999 yil 19-20 iyulda Toshkent anjumanida «Afg'onistondagi mojaroni tinch yo'l bilan bartaraf etishning asosiy tamoyillari to'g'risida»gi Toshkent Deklaratsiyasi imzolandi. Bu hujjatda Afg'onistonda yangi hukumat tuzish, mojaroni tinch yo'l bilan hal etish, qachoqlarni qaytarish, minalardan tozalash, umumiy bitim imzolash, moliyaviy yordam kabi mintaqaviy dolzarb g'oyalar ko'tarilgan edi. Lekin 2001 yil 11 sentabrda Umarshayx boshchiligidagi talibon qo'shinlari, islom ekstremistlari AQShga terroristik xurujidan so'ng NATO blokiga a'zo davlatlarning harbiy kuchlari Afg'onistonga kiritilib, islomiy talibon qo'shinlari tor-mor bo'lgach «6+2» guruhi o'z-o'zidan barham topdi.

**Globallashuvning ijobiy natijalari** - XX asrdagi zamonaviy ilm-fan yutuqlari odamlar tasavvurini keskin o'zgartirib yubordi. Respublikamiz intellektual salohiyati XXI asrga kelib jahondagi ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlardan ilgirilib ketdi. Olimlarimiz buyuk bobolarimizning o'zlashtirib, tarixiy merosimizni chuqur o'rganib, dolzarb muammolarni tadqiq qilishga dadil kirishib, o'z mehnatlari bilan Respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga hissa

qo'shmoqdalar. Respublikamizda quyi-dagi yo'nalishlar bo'yicha jahon darajasidagi ilmiy maktablar yaratilgan:

1. *Matematika, ehtimollar nazariyasi*, tabiiy va ijtimoiy jarayonlarni matematik modellash, informatika va hisoblash texnikasi. Astronomiya sohasida qadim zamonlardayoq kashfiyotlar yaratilgan (Ahmad Farg'oni, Beruniy. Ulug'beklarning kashfiyotlari).

2. *Sanocat usulida o'zlashtirish* uchun yaroqli mineral xom ashyo zahiralarning hosil bo'lishiga olib keladigan geologik jarayonlarning qonuniyatlarini o'rganish bilan bog'liq tadqiqotlar.

3. *Molekular genetik*a, gen-hujayra injeneriyasi, biotexnologiya sohasidagi tadqiqotlar. Bular mikrobiologiya sanoatida, atrof-muhitni muhofaza qilishda fan-texnika taraqqiyotini ta'minlashning zarur omilidir. Respublikada organik va noorganik kimyo, o'simlik moddolari kimyosi, biologiya va genetik, biotexnologiyalarni yaratish sohasida ilmiy maktablar shakllandi va rivojlandi. O'zbek seleksiyalari yutuqlarini alohida ta'kidlash lozim. Keyingi yillarda g'o'zaning 30 dan ortiq istiqbolli navlari yaratildi.

4. *Moddalarning kompleks fizikaviy-kimyoviy xossalarni* o'rta-g'ri bilan bog'liq tadqiqotlar yo'lga qo'yilgan. O'zbekiston radiotsion materialshunoslik va geliomaterialshunoslik kabi yo'nalishlarda butun dunyoda e'tirof etilgan ustunlikka ega. O'zbekistonda yuqori energiyalar fizikasi sohasida ilmiy maktab vujudga keldi.

5. *Jahon va mamlakatimiz tarixi*, O'zbekistonning madaniy va ma'naviy merosi, o'zbek tili va adabiyotining tarixiy rivojlanishi tadqiq etilmoqda.

2000 yilning sentabr oyida ham BMT Bosh Assambleyasi «Ming yillik sammiti»da, 2003 yil 29 mayda SHHTning Moskva sammitida, 2004 yil 17 iyunda Toshkent sammitida, 2005 yil 5 iyulda Ostona SHHTning sammitlarida Prezidentimiz mintaqamiz xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan xalqaro terrorizm va narkobiznessga qarshi faol kurashish, Markaziy Osiyo mintaqasidagi barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash va jahon xavfsizlik tizimini takomillashtirish muammolariga e'tibor qaratdi. Mintaqa xalqlari uchun o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan bu jarayonni to'g'ri anglab yetgan Markaziy Osiyo mamlakatlarining rahbarlari faqat 2000 yilning o'zida bir necha bor uchrashuvlar o'tkazdi. Xususan, 2000 yil oktabr oyida Toshkentda bo'lib o'tgan uchrashuvda «Markaziy Osiyoda narkotiklarning noqonuniy savdosi, uyushgan jinoyatchilik va terrorchilikka qarshi kurash bo'yicha hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari» to'g'risidagi o'ta muhim hujjat imzolandi.

Umuman, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot va globalashuv jarayonlari aqidaparastlik (arab. e'tiqod) va jaholatga tamomila ziddir.

**Diniy aqidaparastlik** - esa siyosiy maqsadlar yo'lida mavjud ijtimoiy muammolarni ilk, ya'ni mazkur dinday paydo bo'lgan paytdagi arkonlar asosida hal etmoq niyatidagi harakat va qarashlardan iborat. Islomiy aqidaparastlik - zamonaviy islomda mavjud 3 yo'nalishdan (qolgan 2 tasi: traditsionalizm va modernizm) biri Islom aqidaparastligining asosiy g'oyasi - «sof islom» qat'iyatlariga (printsipilariga) qaytish, maqsad esa - islomiy davlat va taraqqiyot yo'lini joriy etishdan iborat.

**Globalashuvning salbiy oqibatlariga** albatta o'z vaqtida kurash olib borish lozim. Yoshlarda dunyodagi mafkuraviy manzarasini va globalashuv jarayonlarini teran anglash va bu borada zarur ko'nikmalar hosil qilib bormoq lozim. Buning uchun biz yuqorida bayon etganimizdek, islom ekstremizmi va aqidaparastligiga keskin kurash olib bormoq uchun siyosiy, huquqiy, ma'naviy bilimlarimizni chuqurlashtirishimiz lozim. Diniy ekstremizmi va aqidaparastlikning keltirib chiqarayotgan sabablarini o'rganmoq kerak.

1) *Birinchi sababi* - mustamlakachilik va yangi mustamlakachilik, buyuk davlatchilik shovinizmi.

2) *Xalqaro munosabatlarda* musulmonlarga qarshi zo'rovonlik, musulmon davlatlarining Farb mamlakatlaridan kuchayib ketmasligiga erishish niyati, «parchalab tashla va hukmronlik qil» degan ko'p siralangan siyosatni davom ettirish.

<sup>1</sup> Irsov B. Din, aqidaparastlik va tahdid. -T.: «Ma'naviyat», 2000, 4,7-8-betlar.

3) *Uchinchi sabab* - iqtisodiy kamsitishlar, kalondimog'lik. Boshqa madaniyat, boshqa sivilizatsiyaning xususidan, ko'p asrlik ildizlariga ega Sharq falsafasining bir qismi bo'lgan islom sivilizatsiyasining fazilatlarini, umuman, islomning o'zini yaxshi bilmaslik, tushunmaslik hollari kabi sabablarni ham ko'rsatib o'tish mumkin.

### Sharq va G'arb mamlakatlari hayotida milliy g'oya ko'rinishlari hamda inson qalbi va ongi uchun kurash

Biroq ta'kidlash joizki, turli davlatlarda «barkamol inson» tushunchasiga turli sifatlarni nisbat beriladi. Har bir davlat o'z fuqarolarida zamon talablariga mos sifatlarni va jamiyat maqsadlariga mos qadriyatlarini qaror toptirishga harakat qiladi. Doimiy yuksalish haqida qayg'uradigan yetakchi davlatlarning bu boradagi tajribasi bilan tanishish foydadan xoli emas.

1. AQShda fuqaro va yoshlarni g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyalash masalasi. Amerikaliklarga qanday g'oya va qadriyatlar singdirilmoqda? Fuqaro va yoshlar tarbiyasi quyidagi g'oyaviy ustunlarga tayanadi.

AQSh fuqarolari Konstitutsiyani, Amerika davlatchiligining asoslari va demokratik tamoyillarni muqaddas deb biladilar va bu tuyg'uni yoshlar ongiga singdirish haqida tinimsiz qayg'uradilar. Yoshlarda erkin yashashga ishtiyok, mustaqillikni qadrlash tuyg'usi shakllantiriladi.

AQSh ning fan va texnologiyalar sohasida boshqa davlatlardan o'zib ketganligining sababi shundaki, avvalo Amerikada erkin va ijodiy fikr qadrlanadi hamda o'zgaracha fikrlaydiganlarga nisbatan bag'rikenglik qaror toptirilgan. Lekin amerikalik fuqaroni tarbiyalashning eng asosiy jihati boshqa bir g'oyada yashirin. U ham bo'lsa, har bir insonni noyob iste'do'egasi deb bilish, har bir shaxsga hazrat inson sifatida murojaat qilishdir.

Insonga bunday munosabat, so'zsiz, uning salohiyatini yuzaga chiqarishga imkon beradi. Aynan shu g'oya ta'sirida amerikaliklar orasida o'zini «o'rta miyona odam» deb biladigan yoxud «men bir oddiy odam» deb gapiradigan kishilar nihoyatda kam uchraydi. Amerika fuqarolari adolatni ham o'ziga xos tarzda tushunadilar: shaxs nimga erishsa, qanday maqomni egallasa, bunga faqat o'z qalbi va iste'dodi bilanгина yetishadi.

Shunday qilib, har bir amerikalik bolaligidan o'q kimgadir va nimagadir orqa qilishga emas, balki o'z kuchiga tayanishga o'rgatiladi. Har bir amerikalikda kelajakka ishonch uyg'otiladi. Huddi ana shu «Amerika orzusi» kishilarni yangi maqsadlar sari rag'batlantiradi, yangi g'oyalarni amalga oshirishga shavq uyg'otadi. Urnuman, demokratiya qoidalari va erkinlik Amerika mafkurasining poydevorini tashkil etadi. Bunday tarbiya natijasida faqat o'z kuchiga ishonish, ruhiy ozodlik va mustaqil fikrlash kabi xislatlar amerikaliklarning qon-qoniga singib ketgan.

Albatta, «AQSh da bu borada muammo yo'q ekan» degan xulosa chiqarib bo'lmaydi. Oxirgi paytlarda erkinlikka hadeb urg'u beraverish o'qibatida amerikaliklar erkinlikni jamiyat oldidagi majburiyatlardan ham ozodlik sifatida idrok eta boshladilar. Shu bois hozirgi kunda AQShning ziyoli-lari tomonidan yangi mafkura - «liberal - natsionalizm» mafkurasini yaratish zarurligi haqidagi fikr o'rtaga tashlanmoqda. Bu mafkura milliy va irqiy jihatdan bo'limib ketgan ko'p sonli ijtimoiy guruhlarni «AQSh - millatlar hamjamiyatidir» g'oyasi atrofida birlashtirishni nazarda tutadi. E'tibor beradigan bo'lsak, yangi mafkurada milliy omilning ustuvorligi o'qatilmoqda. Demak, gap AQShda asta-sekinlik bilan yagona milliy vujudni shakllantirish, xalqning birdamligini kuchaytirishga xizmat qiluvchi mafkurani yaratish haqida borayotir.

2. Yaponiyada milliy mafkura tarbiyasi. Sharqning eng ilg'or mamlakatlardan biri Yaponiyada fuqaroni, yoshlarni tarbiyalashning eng samarali va ta'sirchan usulidan foydalaniladi. Bunday tarbiyaning asosiy maskani sifatida maktab tanlangan. Chunki maktabda bola bilim olishdan tashqari shaxs sifatida ham shakllanadi. Kunchiqar mamlakatda fuqaro tarbiyasi «axloqiy tarbiya» tizimi doirasida amalga oshiriladi. Rasmiy hujjatlarda «axloqiy tarbiya» tizimi quyidagicha nomlanadi: 1) «harakterni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim»; 2)

«davlat uchun maqbul axloqiy sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan faoliyat»; 3) «fuqarolik axloqi asoslarini tarbiyalash»<sup>1</sup>.

Aslida, bu tizim millatni tarbiyalash tizimi vazifasini o'taydi. Undan qudratli g'oyaviy ta'sir vositasi sifatida ham foydalaniladi. Ko'pchilik olimlarning fikricha, aynan «*axloqiy tarbiya*» tizimi Yaponiya mamlakati iqtisodiy ravnaqining g'oyaviy asosini tashkil qiladi. Chunki bu tizim ishlab chiqarishda ma'naviy salohiyatdan unumli foydalanishga yo'naltirilgan. Shu boisdan ham ingliz faylasufi Tomas Gobbs (1588-1679) «Davlatning qandayligi haqida xulosa chiqarish uchun avvalo odamlarning axloqi, qiziqishlari va fe'l-atvorini o'rganish joizdir» degan edi.

Ikkinchi jahon urushidan haroba bo'lib chiqqan Yaponiya mamlakatining 30-40 yilda ishlab chiqarish hajmi bo'yicha dunyoda ikkinchi o'ringa chiqib olgan ko'pchilikning xayratini uyg'otadi. «Kichik bir orolning bunday qisqa vaqtda hunamandchilik ustaxonalaridan avtomatlashgan sanoatgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tganligini qanday tushuntirish mumkin?». Mazkur savolga yaponlar quyidagicha javob beradilar: «*Salohiyat insonlarda yashirin*». Yaponiya mevojmentining oltin qoidasiga ko'ra, insondan qimmatroq boylik yo'q. Yapon kishisida quyidagi qadriyat va sifatlarni qator toptiriladi:

*mehnatsevarlik, intizomlilik va jamoaviylik* yapon milliy harakteriga xos xususiyatlar sanaladi. Biroq, davlat bu bilan qanoatlanmay, o'z fuqarolarida ushbu sifatlarini mustahkamlash va kuchaytirish vazifasini *maorifga* yuklaydi. Natijada, maktablarda *guruhiy birdamlikni tarbiyalashga* alohida e'tibor qaratiladi. Bunda kollektivning yutug'i ham, mag'lubiyati ham guruhning har bir a'zosiga bog'liq ekanligi haqidagi g'oya singdiriladi. o'z rolini aniq bilish va shunga yarasha mas'uliyatni his qilish talab etiladi. Bunday tarbiya ko'rgan fuqaro jamoa muam-molarini o'zining shaxsiy muammolari sifatida qabul qiladi. Olimlarning fikricha, aynan shunday guruhiy birdamlik (yaponchada «aydagarasyugi») tufayli mamlakat misli ko'rilmagan iqtisodiy yutuqlarga erishdi.

Mehnat yapon kishisi uchun axloqiy qadriyat sanaladi. Uning qadriyat darajasiga ko'tarilishida «axloqiy tarbiya» tizimining roli beqiyos. Gap shundaki, yapon kishisiga maktabdayoq quyidagi g'oyalarni singdiriladi: 1) «Fa-qat tirishqoqlik va mehnat bilan muvaffaqiyatga erishish mumkin», 2) «O'z ustingda tinimsiz ishla - shunda birovdan kam bo'lmaysan». Bu kabi g'oyalar ta'sirida ulg'aygan yapon kishisi o'zining barcha harakatlarini quyidagi mantiqqa bo'sundiradi: «*Bor imkoniyatlarini ishga sol!*»

Shunday qilib, davlat o'z fuqarolarida tirishqoqlik va hafsala, qunt va g'ayratni maqsadli ravishda qator toptiradi. Intizomdan jamiyat manfaatlarida foydalanish borasida esa yaponlar boshqalarga o'mak bo'la oladi. «*Ahloqiy tarbiya*» natijasida Yaponiyada fuqarolar mehnat intizomining buzilishini shunchaki salbiy illat deb hisoblamay, balki uni Vatanga hiyonat deb qabul qiladilar. Yaponiyada *fuqaro tarbiyasi zamon ehtiyojlari va jamiyat manfaatlariga moslashtirib boriladi*. Aynan shu tufayli yapon fuqarolari jamiyat taraqqiyotini harakatlantiruvchi qudratli kuch deb biladilar. Ko'rinish, turibdiki, millat kelajagini o'ylaydigan hech bir davlat fuqaro tarbiyasi masalasini e'tiborsiz qoldira olmaydi.

3. O'zbekistonda «fuqaro tarbiyasi». Milliy g'oya va O'zbekiston tajribasi ko'tarilgan masalaning muhimligi O'zbekistonda ham bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilishga undaydi. E'tibor berib qaraydigan bo'lsak, bizda «*fuqaro tarbiyasi*» haqida kam gapiriladi. Lekin bizda bu vazifa o'z holiga tashlab qo'yilgan emas. O'zbekistonda fuqaro tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor sohasi bo'lib, asosan ikki yo'nalishda:

1) Kadrlar tayyorlash milliy dasturi doirasida va 2) Milliy istiqol g'oyasini singdirish vositasida amalga oshirilmoqda. Ko'rinib turibdiki, bizda ham fuqaro tarbiyasini amalga oshiruvchi maskan sifatida maktab tanlangan. Chunki maktabda bola bilim olishdan tashqari shaxs sifatida ham shakllanadi. Demak, *maorifga* millat fuqarosini tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifa yuklangan. Maorif, xalq ta'limi yo'li bilan komil inson qiyofasini yaratish zarur.

<sup>1</sup> Ergashev I. va boshq. Milliy istiqol g'oyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. -T.: Akademiya, 2005. 302-bet.

Milliy g'oya - millatning o'tmishi, buguni va istiqbolini o'zida mujassamlashtirgan, uning tub manfaatlarini va maqsadlarini ifodalab, taraqqiyotga xizmat qiladigan ijtimoiy g'oya shakli.

Milliy g'oya o'z mohiyatiga ko'ra, xalq, millat taqdiriga daxldor bo'lgan, qisqa yoki uzoq muddatda hal etilishi kerak bo'lgan vazifalar va imo'ljallarni ham aks ettiradi. O'z davrida (1941-1945 yillarda) fashistlar bosib olgan Fransiyada «Qarshilik ko'rsatish» g'oyasining milliy g'oya darajasiga ko'tarilgani va Fransiyaning ozod etilishi bilan o'z ahamiyatini yo'qotgani fikrimizga dalil bo'la oladi<sup>1</sup>.

U yoki bu g'oyaning milliy g'oya sifatida maydonga chiqishi millatning o'tmishi, mavjud holati bilan bevosita bog'liq. Ana shu ikki negizga tayangan holdagina u millatning qisqa yoki uzoq vaqtda erishishi lozim bo'lgan maqsad-muddaolari va imo'ljallarini to'g'ri ifodalay olishi mumkin.

Har qanday milliy g'oyada umuminsoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan g'oyalar mavjud. Masalan, «Milliy yarash» g'oyasi fuqarolar, urushi ketayotgan davlatlar uchun xos hayotiy mazmunga ega. Yoki «Manfaatli hamkorlik» g'oyasi dunyoning barcha mamlakatlari uchun birdek ahamiyatga ega.

O'zbek modeli tushunchasi, avvalo, O'zbekistonning mustaqil milliy taraqqiyoti qanday bo'lishi lozimligini asoslaydigan, uni muayyan maqsadlarga yo'naltiradigan eng umumiy nazariy xulosalar va imo'ljalar bilan davlatning belgilangan maqsadlarga erishishga qaratilgan amaliy siyosatining musharakligini anglatadi.

**Milliy istiqloq mafkurasining asosiy maqsadi: ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishidir.** Xalq ommasini milliy g'oya atrofida birlashtirish, kishilarni ma'naviy-ruhiy jihatdan ulug'vor ishlarga tayyorlash va safarbar etishdan iborat. Pirovard natijada bunga erishishning yo'llari, vositalari va usullari ham ushbu maqsaddan kelib chiqadi.

Prezidentimiz Islom Karimov mustaqillikning dastlabki yillari-dayoq milliy istiqloq g'oyasi va mafkurasini shakllantirish zarurati haqida qayg'urgan edi. Chunki «Milliy mustaqil davlat bor ekan, uning mustaqilligi va erkinligiga, an'ana va urf-odatlariga tahdid soladigan, uni o'z ta'siriga olish, uning ustidan hukmronlik qilish, uning boyliklaridan o'z manfaati yo'lida foydalanishga qaratilgan intilish va harakatlar doimiy xavf sifatida saqlanib qolishi muqarrar». Yurtboshimiz 2005 yil 14 mayda Oqsaroyda 12-13 may kunlari Andijon shahrida ro'y bergan voqealar munosabati bilan mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari uchun o'tkazilgan matbuot anjumanida ham ta'kidlaganidek, «har bir davlatning o'z tarixi bor, o'ziga xos shart-sharoiti bor. Shuning uchun ham ayrim voqealarni «atirgul rangli inqilob», boshqasini - «apelsin rangli inqilob», uchinchisini - «loarang inqilob» deb atashga bo'lgan urinishlar mutlaqo samarasizdir»<sup>2</sup>. Demak, milliy g'oyaning zarurligi, eng avvalo, mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash uchun zarurdir. Uning zarurati quyidagi **maqsadlarni** amalga oshirish bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi:

1. Oldimizga qo'ngan O'lijanob maqsad-muddoalarimizga, ya'ni ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish.
2. Eski mafkuraviy asoratlardan batamom xalos bo'lish.
3. Foyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik.
4. Uzoq davrlar mobaynida odamlar ongida hukmron bo'lgan begona va yot g'oyalarning yanada qaytadan tiklanishiga yo'l qo'ymaslik.
5. Xalqimiz tabiatiga zid bo'lgan o'zga g'oyalardan, ayniqsa, yosh avlodni himoya qilish.
6. Har qanday tajovvuzkor g'oyalarga qarshi tura oladigan har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazish zaruratining mustaqillikni mustahkamlashdagi o'mini anglash orqali harakat dasturiga ega bo'lish.

<sup>1</sup> Nazarov Q., Ochildiev A. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushunchalar, tarqoyillar va atamalar. - T.: Yangi asr avlodi, 2002. 113-114-betlar.

<sup>2</sup> Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. - T.: O'zbekiston, 2005. 35-36-betlar.

7. Mustaqillikni davlatimizning har bir fuqarosida Vatan taqdiri uchun ma'ullik tuyg'usi bo'lishi uchun ham zarur.

Mustaqillikni mustahkamlashda milliy g'oyadan ko'zlangan maqsadlar-ning keng qamrovli ilmiy-nazariy va amaliy yo'nalishlari Prezident Islom Karimov asarlarida, nutq va ma'ruzalarida o'zining aniq konseptual ifodasini topgan.

Demak, milliy g'oyaning negizidagi muhim ustuvor maqsad - mustaqillikni bundan buyon ham asrab-avaylash, himoya qilish va mustahkamlash bo'lib qolaverar ekan, uning zarurligi hech bir davrda o'z ahamiyatini yo'qotmaydi<sup>1</sup>.

O'zbekistonda yangi jamiyat barpo etilmoqda. Jamiyat deganda biz odamlar uyushib, jamoa va xalq bo'lib yashaydigan ijtimoiy-siyosiy tuzumni tushunamiz. Yangi jamiyat deganda esa xalqning maqsad-muddaolari va manfaatlarini asosida barpo etilayotgan fuqarolik jamiyati tushuniladi. O'zbekistonda barpo etilayotgan ana shu jamiyatning ma'no-mazmunini Prezidentimiz Islom Karimov 2005 yil 28 yanvarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida quyidagicha ifodalab berdi: «Bizning asosiy uzoq muddatli va strategik vazifamiz avvalgicha qoladi - bu demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish jarayonlari va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarini mustahkamlash yo'lidan og'ishmay, izchil va qat'iyat bilan borishdir»<sup>2</sup>.

**Strategik maqsad** - uzoqqa mo'ljallangan umumiy aniq rejani ifodalaydi.

Xalqimizning yangi jamiyat barpo etish yo'lidagi orzu-intilishlari uning milliy g'oyasi va mafkurasini shakllantirishni hayotiy zaruratga aylantirdi. «Chunki milliy g'oya bo'lsa, maqsad oydinlashadi. Ezgu maqsad esa har bir kishini safarbarlikka da'vat etadi, jamiyatni yanada birlashtiradi. O'z milliy g'oyasi, milliy mafkurasiga ega bo'lgan davlat mustahkam, qudratli va obod bo'ladi» (Karimov I.A. Asarlar, T.8, 473-bet). O'zbekiston xalqi milliy istiqlol g'oyasi: asosida yangi jamiyat barpo etmoqda.

Bu g'oya xalqimizning ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidagi maqsad-muddaolarini ifoda etadigan, ularni amalga oshirish yo'lida barcha yurtdoshlarimizni uyushtirib, bunyodkorlik ishlariga safarbar qiladigan, milliy istiqlol mafkurasiga asos bo'ladigan g'oya va tushunchalar tizimidir.

Milliy istiqlol g'oyasining tushuncha va tamoyillari Prezident Islom Karimov asarlari asosida ishlab chiqilgan va «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» nomi bilan risola holida chop etilgan.

**Tushuncha** deb, narsa-hodisaning asosiy qonuniyatlari, belgi-xususiyatlarini o'zida aks ettiradigan bilim va tasavvurlarga aytiladi.

**Tamoyil deganda** esa narsa-hodisalarning mohiyati va namoyon bo'lishiga xos ustuvor xususiyatlar tushuniladi. Demak, milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillari deganda, milliy g'oyamizning asosiy qonuniyat hamda belgilarini o'zida aks ettiradigan bilim va tasavvurlarni, uning mohiyati va namoyon bo'lishiga xos ustuvor xususiyatlarni anglaymiz.

Har qanday mafkura muayyan asosiy maqsadlarga xizmat qiladi, bu yo'lida xilma-xil vazifalarni bajaradi. Mustaqillikni mustahkamlashda milliy g'oyadan ko'zlangan maqsad jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikni, sarhadlarimiz daxlsizligini, mamlaka-timuz hududiy yaxlitligini ta'minlashdan iborat. Bu yo'lida, xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mafkuraning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Odamlarni muayyan g'oyaga ishontirish va mo'ljallash funksiyasi.
2. Shu g'oya atrofida kishilarni uyushtirish va birlashtirish funk-siyasi.
3. Foyani amalga oshirish uchun safarbar etish.
4. Kishilarni ma'naviy-ruhiy jihatdan rag'batlantirish.
5. Foyaviy tarbiyalash.
6. Foyaviy immunitetni shakllantirish.

<sup>1</sup> Ergashev I. va boshq. Milliy istiqlol g'oyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. - T.: Akademiya, 2005. 116-117-bet.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modemi-zat va isloh etishdir. - T.: «O'zbekiston», 2005, 34-bet.



7. Harakat dasturi bo'lish.
8. Amortizatsiyalash, ijtimoiy keskinlikni yumshatish funksiyasi.
9. Muayyan ijtimoiy guruh manfaatlarini ifoda etish va himoyalash funksiyasi.

Milliy g'oyada O'zbekiston xalqining mamlakatimiz rivojida belgilab olgan asosiy maqsad va muddaolarining ifodasi mujassamlashgani.

*Birinchi*dan, o'z kelajagini ko'rmoqchi va qurmoqchi bo'lgan har qanday davlat yoki jamiyat, albatta, o'z milliy g'oyasiga suyanishi va tayanishi zarurligi bilan bog'liq. Davlat tizimi, uni boshqarish va olib borilayotgan siyosat aniq ifodalangan mafkura asosida qurilmog'i lozim. «...*Oldin g'oya paydo bo'ladi, undan keyin g'oya asosida mafkura, mafkura asosida esa tizim, siyosat paydo bo'ladi*» (Karimov I.A. Asarlar. T.8. 464-465-betlar). Demak o'z milliy g'oyasiga tayanmagan jamiyat inqirozga uchrab, o'z yo'lini yo'qotadi.

*Ikkinchi*dan, milliy g'oya asosida O'zbekiston xalqining, odamlari ongi, tafakkurini o'zgartimasdan turib ko'zlangan oliy maqsad - ozod va obod jamiyatni, erkin va farovon hayotni barmoq etib bo'lmaydi. Buning uchun esa, odamlar muayyan g'oyaga ishonishi va tayanishi zarur. Bu jarayon o'z-o'zidan harakatga kelmaydi. Ishontirmoq uchun u ilmiy va hayotiy, to'g'ri ekanligiga e'tibor berish kerak, maqsad va muddaolarni ifodalashi lozim.

*Uchinchi*dan, milliy g'oyaning zarurligi millatning o'zligini to'la anglash jarayoni bilan bog'liq. O'zligini anglagan millat ajralib ketishga emas, balki millatlarning ma'rifatlashish jarayoni mustahkamlanib boradi. Milliy g'oyada bugungi hayotning eng dolzarb muammolari, strategik maqsadlari bilan dialektik bog'lanishi uning yashash shartidir.

*To'rtinchi*dan, bugun bizning tarixiy o'zgarishlar davrida totalitar tuzumdan erkin demokratik bozor munosabatlariga asoslangan demokratik tuzumga o'tish sharoitida yashayotganligimizdan kelib chiqmoqda. O'tish davrida o'ziga xos murakkab g'ov va to'siqlarga duch kelish tabiiy jarayon. Demak, milliy g'oya mustaqillikni mustahkamlash g'oyasining o'zagi bo'lgan - tanlagan taraqqiyot yo'limizning to'g'ri, adolatli va haqqoniy ekanligiga ishonitirish orqali buyukkorlik ishlariga xalqni safarbar etish uchun xizmat qiladi.

Mustaqillikni mustahkamlash, avaylab-asrash, himoya qilishda milliy g'oyaning o'rnini boshqa biron bir omil bosolmaydi. Shu boisdan ham davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, maqsad va vazifalarini ma'naviy jihatdan ta'minlash, bugungi kunda mamlakatimiz uchun o'ta dolzarb masaladir. Prezident Islom Karimov «Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir» ma'ruzasida ta'kidlaganidek, «mustaqillikni mustahkamlash, jamiyatni demokratlashtirish va yangilash biz uchun harnisha birinchi darajali ustuvor maqsad va vazifa bo'lib qolaveradi».

Ana shu asosiy maqsadlardan tashqari, milliy istiqlol mafkura-sining mazmun-mohiyatidan kelib chiqadigan o'ziga xos **maqsad va vazifalari** ham bor.

- «Xalqni buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish;
- mamlakatimizda yashayotgan, millati, tili va dinidan qat'iy nazar, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati uchun mas'uliyat sezib yashashga chorlash;
- ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an'analari-mizga munosib bo'lishga erishish;
- yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga davat etish, shu muqaddas zamin uchun fidoyilikni hayot mezoniga aylantirish - milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadidir» (Karimov I.A. Asarlar. T.9. 222-bet).

Ana shu yuqoridagi **maqsadni** amalga oshirish uchun bir qator quyidagi vazifalarni bajarish lozim:

1. Mustaqil va erkin tafakkurni shakllantirish. Buning uchun tafakkur to'la ozod bo'lishi lozim.
2. Jamiyatda sog'lom ma'naviy muhitni yaratishdan iborat. Bu hurfiylik bilan uzviy bog'liq bo'lgan jarayondir.
3. Millatning o'zligini anglashi, muqaddas qadriyatlarini asrab-avaylashi, vatandarparvarlik kabi tuyg'ularni kamol toptirish.

4. Imon-e'tiqod, insof-diyonat, sahovat, halollik, mehr-oqibat, sharmu hayo kabi fazilatlarini yuksaltirish.
5. Mamlakat ko'p millatli xalqi ongi va qalbida «O'zbekiston - yagona Vatan» degan tushunchani shakllantirish va mustahkamlash.
6. Milliy istiqlol g'oyasini xalq ongi va qalbiga singdirish uchun eng zamonaviy, qulay ma'naviy vosita va usullardan foydalanish lozim.
7. Milliy mafkura hayot hodisalariga hozirjavob bo'lishi, yot va zararli g'oyalarning hurujiga o'z vaqtida javob berishi kerak.
8. Har bir yurtdoshimizning intellektual-ma'naviy salohiyatini ro'yobga chiqarish zarur.
9. Kishilarni yaratuvchilik faoliyatiga safarbar etishi darkor, chunki u g'oyaviy himoya vositasi hamdir.

Umuman, milliy istiqlol mafkurasining barcha vazifalari yagona maqsadga - Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash, yurtimizda ozod va obod Vatan barpo etish, erkin va farovon jamiyat qurish uchun xizmat qiladi. Mafkuraning asosiy maqsadi ushbu yo'lida xalqimizni jipslashtirish, kishilar ongida mustaqil dunyoqarash va ogohlik xissini tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazish, fuqarolarimizda begona va buzgunchi g'oyalarga qarshi mustahkam mafkura viy immunitetni tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lib qolaveradi<sup>1</sup>.

### Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalari

**Istiqlol mafkurasini** - har bir kishining jamiyat hayotidagi faoliyati, yurti, millati, o'zi va oilasi oldidagi burch va mas'uliyatini qay darajada his etayotgani va bajarayotganini belgilaydigan ma'naviy mezon hamdir.

Milliy istiqlol mafkurasining yurtimizda yashovchi har bir fuqaro uchun qadriligi shundaki, uning mohiyatida umuminsoniy tamoyillar yotadi.

Milliy istiqlol mafkurasini manfaatlar tizimi bilan uyg'un bog'langan bo'lib, u quyidagi holatlar bilan ifodalanadi:

1. Mamlakat hududiy yaxlitligi va mustaqilligini saqlab, chegara-larimiz butunligi va daxlsizligini ta'min etishga xizmat qiladi. Boshqacha aytganda bu yurtimizning fazo va vaqtidagi umumiy birligini ta'minlovchi manfaat.

2. Yurtning tinchligi va osoyishtaligi, ya'ni davlatimizning harbiy, iqtisodiy (energetik), ekologik, informatsion va g'oyaviy tahdidlardan muhofazalanganligi.

3. Mamlakatda fuqarolararo va millatlararo totuvlik, ijtimoiy barqarorlik muhitini ta'minlash manfaati.

4. Har bir oila va butun xalqning farovonligini ta'minlash, ya'ni badavlatlilik manfaati.

5. Jamiyatda adolat ustuvorligi, demokratiya, o'z-o'zini boshqarish tamoyilini ta'minlanishi.

«Milliy istiqlol mafkurasini turli siyosiy partiya va ijtimoiy guruhlar mafkurasidan ustun turadigan sotsial fenomen - ijtimoiy hodisadir. Bu mafkurada biron-bir dunyoqarash mutlaqlashtirilmaydi yoki u mavjud siyosiy hokimiyatni mustahkamlash maqsadida siyosiy qurolga aylan-tirilmaydi». Balki, u o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga xizmat qiladi, barcha siyosiy partiyalar, millat va qavmlar, guruh va qatlamlarning yuqorida qayd etilgan umumiy manfaat-larini ifodalaydi.

Har qanday mafkura singari milliy istiqlol mafkurasini ham o'ziga xos amal qilish tamoyillariga ega. Bu tamoyillar, umuminsoniy va milliy qadriyatlar uyg'unligi, xalqaro andoza va talablarga moslik, xalqning barcha qatlamlari maqsad-muddolarini o'zida ifoda etish bilan tavsiflanadi. Ular bir-birini taqozo etadi, o'zaro bog'liqlik va aloqadorlikda namoyon bo'ladi

<sup>1</sup> Nazarov Q., Ochilidiev A. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar. -T.: Yangi asr avlodi, 2002. 106-109-betlar.

Mafkuramiz tom ma'nodagi milliy mafkuraga aylanishi uchun quyidagi talablarga javob berishi zarur:

- inson qalbi va ongiga ijobiy ta'sir etadigan tushuncha va tuyg'ular, go'zal va hayotiy g'oyalar tizimini o'zida mujassam etishi, ya'ni bu mafkura har bir fuqaroning ezgu niyatlarini ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratadigan eng maqbul yo'lni ko'rsata olishi;

- millat, xalq va jamiyatni birlashtiruvchi kuch, yuksak ishonch-e'tiqod manbai bo'lishi, ya'ni u tom ma'noda so'z bilan ishni, nazariya bilan hayotni birlashtira olishi, O'zbekistonda yashovchi barcha xalq, millat, elat, ijtimoiy qatlamlar va din vakillariga birday taalluqli bo'lishi;

- har qanday ilg'or g'oyani o'ziga singdirishi va har qanday yovuz g'oyaga qarshi javob bera olishi, ya'ni ikkiyuzlamachilikdan holi va jamoatchi-likning ob'ektiv fikriga tayanuvchi mafkura bo'lishi;

- zamon va davr o'zgarishlariga qarab, o'zi ifodalaydigan manfaat, maqsad-muddalarni amalga oshirishning yangi-yangi vositalarini tavsiya eta olishi, ya'ni yangicha vaziyatga tez moslasha oladigan hozirjavob va ijodiy bo'lishi.

Milliy istiqlol g'oyasi tizimida bosh g'oya va asosiy g'oyalar, ular oziqlanadigan manbalar, ularning amal qilish tamoyillari muhim o'rin tutadi. Bu tizim milliy istiqlol mafkurasini yaratishga asos bo'ladi. Ya'ni milliy istiqlol mafkurasini milliy istiqlol g'oyasi asosida vujudga keladi. Chunki mafkura g'oyani amalga oshirish jarayonida paydo bo'ladi. Shu boisdan ham u g'oyaga nisbatan kengroq tizimni shakllantiradi. Xalqimizning milliy istiqlol mafkurasini milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillari asosida shakllanmoqda. Shuning uchun milliy istiqlol g'oyasi tizimidagi bosh va asosiy g'oyalar haqida gapirar ekanmiz, ularni milliy istiqlol mafkurasining bosh g'oyasi va asosiy g'oyalari deymiz.

*Milliy istiqlol mafkurasining bosh g'oyasi - ozod va obod Vatani, erkin va farovon hayot barpo etishdir.* Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalari esa quyidagilar tashkil etadi:

1. Vatani ravnaqi.
2. Yurt tinchligi.
3. Xalq farovonligi.
4. Komil inson.
5. Ijtimoiy hamkorlik.
6. Millatlararo totuvlik.
7. Diniy bag'rikenglik

(tolerantlik)

O'zbekiston Konstitutsiyasining 12-moddasida «O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi.

Hech qaysi mafkura davlat mafkurasini sifatida o'rnatilishi mumkin emas», deyilgan.

Milliy istiqlolning asosiy g'oyalari xalqimiz mustaqil taraqqiyot yo'lidagi bosh g'oyasidan kelib chiqadi. O'zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo'lidagi bosh g'oyasi - mustaqillikni mustahkamlash, ozod va obod Vatani, erkin va farovon hayot barpo etishdir. Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalari o'zining ma'no - mohiyati, falsafasi, jozibasini bilan bosh g'oyani xalqimizning qalbi va ongiga yanada chuqurroq singdirishga xizmat qiladi.

Vatani - bu xalqning o'rni, buguni va kelajagi. Xalqimiz Vatani ostonadan boshlanadi, deb bejiz aytmagan. Kishi ulg'aygan sari uning Vatani haqidagi tushunchasi ham kengaya boshlaydi, asta-sekin ostonaga, uy, mahalla, qishloq, shahar, tuman, viloyat, va nihoyat, mamlakat darajasiga ko'tarildi. Tushuncha va kechinmalar nuqtai nazaridan esa vatanparvarlik tarixiy taraqqiyot jarayonida paydo bo'lib, tashqi muhit va davrlar ta'sirida shakllangan va o'zgarib kelgan ijtimoiy-ruhiy tuyg'udir.

Vatani ravnaqi g'oyasi mazmunini har bir kishining manfaatlarini yurt manfaatlarini bilan uyg'unlashtiruvchi, uni xalq baxt-saodati yo'lida xizmat qilishga undovchi bunyodkor g'oyadir. U milliy istiqlolning oliy maqsadi - O'zbekistonda yashayotgan barcha fuqarolarning el-yurt kamoli bilan bog'liq orzu-umidlarini amalga oshirishni ifodalaydi. Vatani g'oyasini amalga oshirishda: 1) ijtimoiy barqarorlik, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, mahallaning mavqegini oshirish, aholini ijtimoiy himoyalash tamoyillari muhim hisoblanadi; 2) hayotda demokratik tamoyillarning ustuvorligi, muqobil partiyalar, jamiyatni erkinlashtirish, davlatning islohotchilik funksiyasi, aholi siyosiy ongi va madaniyatini oshirish zarur; 3) mulkchilikni shakllantirish, kichik va o'rta biznesni, tadbirkorlikni rivojlantirish kerak; 4) intellektual

salohiyatini oshirish; 5) qonun ustuvorligiga erishish, huquqiy demokratik jamiyat qurish kabilar kiradi.

**Yurt tinchligi** - mamlakat barqaror taraqqiyotining garovi, bebafo ne'mat, ulug' saodatdir. **Tinchlik** - insonning hayotiy ehtiyoji, amin-erkin yashashi va kamol topishining eng zarur omilidir. Boshariyat o'z taraqqiyoti-ning barcha bosqichlarida, avvalo, tinchlik-totuvlikka intilib kelgan. Tinchlikni saqlash va mustahkamlash masalasi umumbashariy muammodir. Insoniyat taraqqiyotining masalasi umumbashariy muammodir. Insoniyat taraqqiyotining asosiy masalalari tinchlik-totuvlik holatidagina samarali hal etilgan. Tinchlikni saqlash muammosini o'z-o'zidan kishilarning xohish-istagi, orzu-umidlari bilan hal qilib bo'lmaydi. Insoniyat uchun muqaddas bu qadriyatga doimo izchil va qat'iy harakatlar tufayligina erishiladi.

Xalq farovonligi har bir shaxs va oila farovonligi bilan bog'liq. Bunda insonning shaxsiy manfaatlari jamiyat manfaatlari bilan uyg'unlashib ketadi va har bir fuqaroning farovonligi - butun jamiyat farovonligidir, degan tamoyil amalga oshadi.

### **Milliy istiqloq g'oyasining O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlash va uning o'ziga xos rivojlanish xususiyatlari**

Milliy istiqloq mafkurasi keng xalq ommasining manfaatlarini, maqsad va ideallarini ifoda etadi. «Milliy istiqloq mafkurasi, o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga xizmat qiladi, barcha siyosiy partiyalar, guruh va qatlamlarning-butun xalqimizning umumiy manfaatlarini ifodalaydi».

#### **Milliy istiqloq mafkurasi**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslanadi.

2. Xalqning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviyati, an'ana va udumlari, ulug' bobokalonlarning o'lmas merosidan oziqlanadi.

3. Adolat va haqiqat, erkinlik va mustaqillik g'oyalari hamda xalq-ning ishonch va e'tiqodini aks ettiradi.

4. Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi.

5. Jamiyat a'zolarini, aholining barcha qatlamlarini O'zbekiston-ning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etadi.

6. Millati, tili va dinidan qat'iy nazar, mamlakatning har bir fuqarosi qalbida ona Vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalari sadoqat va o'zaro hurmat tuyg'usini qaror toptiradi.

7. Jamoatchilik qalbi va ongiga fikrlar xilma-xilligi, vijdon erkinligi tamoyillariga rioya qilgan holda ma'rifiy yo'l bilan singdiriladi.

8. U har bir vatandoshimizning oilasi, jamiyat, el-yurt oldidagi burch va mas'uliyatini qay darajada ado etayotganini belgilaydigan ma'naviy mezonidir.

9. Bu - O'zbekistonda istiqomat qiladigan va o'z taqdirini shu muqaddas zamin bilan bog'lagan har bir kishining «Vatanim menga nima berdi» deb emas, balki «Men Vatanim ravnaqi uchun nima qilyapman» degan mas'uliyat tuyg'usi bilan yashashi demak.

Mafkura dunyosida bo'shliqqa yo'l qo'yib bo'lmaydi. Chunki bo'sh qolgan mafkura mafdonini bizga begona, vot g'oyalari egallashi ayon bo'ldi. «Hozirgi paytda ro'y berayotgan ayrim salbiy holatlar, nojo'ya xatti-harakatlar, yovuz ishlar, avvalo, mafkuraviy bo'shliq tufayli sodir bo'lmog'unda», degan edi Prezidentimiz Islom Karimov

Milliy istiqloq g'oyasining mustaqillikni mustahkamlashda namoyon bo'lish jarayoni o'zining bir qator quyidagi xususiyatlariga ega:

1. Bugungi kunda odamlar «Mafkura poligonlari yadro poligonlari»ga nisbatan ko'proq kuchga ega ekanligini anglab yetmoqda.

2. Harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiqni sezish, ko'rish, oldini olish mumkin. Ammo g'oyaviy tazyiqning ta'siri va oqibatlarini tezda ilg'ab olish qiyin.

3. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib hech bir jamiyat o'z oliy maqsadiga erisha olmaydi, chunki milliy g'oya - millat tafakkuri va ongining mahsuli, siyosiy ong darajasi har bir

millatning rivojini belgilaydigan omillardir. Milliy mafkura, avvalo, o'zligimizni, muqaddas an'ana-larimizni anglashga yordam berishi shart.

4. Jamiyatimizda mavjud bo'lgan xilma-xil fikrlar, har qanday insonning e'tiqodi va dunyoqarashidan qat'iy nazar ularning barchasini milliy bayroq atrofida birlashtiradigan, eng buyuk maqsadlar sari chorlaydigan bo'lishi lozim.

5. Milliy mafkura har qanday tajovuzkor millatchilik va shunga o'xshagan unsurlardan, boshqa xalq, millat, elatlarni kamsitish kabi qarashlardan xoli bo'lib, jahon hamjamiyatida munosi bizzat qozonishi zarur.

6. Milliy g'oya, birinchi navbatda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalamog'i darkor<sup>1</sup>.

Mustaqil O'zbekistonning taraqqiyoti va buyuk kelajagi bir qancha muhim vazifa va muammolarni hal etishga bog'liq. Shunday vazifalardan biri *milliy istiqol mafkurasiga ishonch va e'tiqodni mustah-kamlashdan iborat*. Bu bir qator shart-sharoitlardan kelib chiqadi:

1) Mustaqillikning dastlabki yillarida eski, yagona mafkuradan butunlay voz kechilayotgan, hali yangi mafkura ishlab chiqilmagan va shakllanmagan, ilmiy asoslanmaganligi bilan bog'liq edi.

2) Hech qanday jamiyat mafkurasiz yashay olmaydi. Odamlar qandaydir sog'lom bir g'oyaga muhtoj bo'ladi.

3) Demokratik jamiyat qurish jarayonida mustaqillikni mustah-kamlash uchun milliy mafkura suv va havodek zarur. Milliy g'oya - jamiyat hayotining barcha sohalarini o'zida qamrab oladi. Shu boisdan ham Prezident Islom Karimov mustaqillikning ilk yillarida, 1993 yildayoq «Milliy istiqol mafkurasini yaratish va hayotimizga tatbiq etish» zarurligini uqtirgan edi (Karimov I.A. Asarlar. T.1. 203-bet).

O'zbekiston uchun milliy istiqol mafkurasining tarixiy zarurligi va uning demokratik jamiyat qurishdagi o'rni bir qator quyidagi muammolarni hal etish bilan ham bog'liqdir:

1. Milliy istiqol mafkura kishilarda milliy madaniyatning, milliy ongning, milliy g'ururning usishi va rivojlanishini ta'minlash omili sifatida mustaqillikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

2. Milliy istiqol mafkurasida kishilarda milliy birdamlik va hamjihatlik tuyg'usini shakllantirishga, tarbiyalashga xizmat qiladi.

3. Milliy istiqol mafkurasida xalqni sevishga, qadrlashga da'vat etadi, mustaqillik barqarorligini ta'minlab odamlar ongi va qalbiga chuqur singdiradi.

O'zbekiston Konstitutsiyasi loyihasini yaratishda 30 ga yaqin xorijiy davlatlardagi qonunchilik tajribalari o'rganildi. Kommunistik mafkuradan, sinfiylikdan, partiyaviylikdan holi bo'lgan asosiy qonun yaratildi. Prezident Islom Karimov milliy istiqol g'oyasi va mafkurasini yaratishda ko'plab asarlar yozdi va ularni sharhlab bera oldi.

4. Mamlakatimiz siyosiy hayotining barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish borasida bir talay ishlar amalga oshirildi.

5. Ko'ppartiyaviylik yanada shakllanib bormoqda.

6. Muxolifat konstitutsiyaviy mezon doirasida faoliyat ko'rsatib, aniq dasturiy hujjatga ega bo'lishi kerak.

7. Haqiqiy muxolifatning vujudga kelishi uchun, uning hokimiyat bilan g'oyaviy va amaliy takliflar kirita oladigan bo'lishi lozim.

Mustaqillikni mustahkamlashda O'zbekiston milliy istiqol mafkurasining ilmiy-nazariy jihatlari quyidagi xulosalardan o'z ifodasini topadi:

- Mafkura O'zbekiston jamiyatida juda zarur, chunki mafkura bo'lmas, odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar.

- XX asrda yashagan zamondoshlarimiz ko'p sinovlar, azob-uqubatlar, fojialar, urushlar, qatag'onlarni boshidan kechirdi.

<sup>1</sup> Ergashev I. va boshq. Milliy istiqol g'oyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. -T: Akademiya, 2005. 120-130-bet.

- Insoniyat tarixida axborot asri deb tan olingan XXI asrda ham turli mamlakatlarda ning o'zaro kurashi shiddatli tus olmoqda.

Milliy istiqlol g'oyasi butun jamiyat, butun millat, butun o'zbekistonliklar uchun xizmat qiladi. Milliy qadriyatlarimizni baholaganda, ularning milliy g'oyaga nechog'lik mos ekanini nazarda tutamiz. Lekin biz baholash jarayonida faqat alohida bir inson, muayyan ijtimoiy guruh manfaatini emas, balki umuminsoniy jamiyatimiz, barcha o'zbekistonliklar manfaatini nazarda tutamiz. Shu bois, yuqorida zikr etilgan mezon va tamoyillardan foydalanib, O'zbekistonimizni jahondagi eng ilg'or davlatlar qatoriga qo'shishga harakat qilinmoqda. Bu mamlakatimizning jahondagi nufuzini, uning kelajagini belgilaydi.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi tomonidan Prezident Islom Karimovning "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" deb nomlangan yangi kitobi nashr etildi. Kitobdan Yurtboshimizning mamlakatimiz mustaqilligi arafasida va mustaqillikning dastlabki davrida (1989-1991 yillarda) olib borgan jo'shqin va serqirra siyosiy-ijtimoiy faoliyatini aks ettiradigan ma'ruza va nutqlar, suxbat, maqola va intervyular o'rin olgan.

Kitob shaklida ilk bor chop etilayotgan bu chiqishlarning "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" deb nomlanishi albatta bejiz emas. Bu kitob yaqin o'tmishimizning murakkab tarixiy-siyosiy bosqichlarini, jumladan, tasavvur qilish xam qiyin bo'lgan g'oyat og'ir va taxlikali bir vaziyatda O'zbekiston xabari sifatida ish boshlagan Islom Karimovning o'lkamizni chuqur inqirozdan olib chiqish, uni qat'iyat va matonat bilan istiqlol sari boshlash. Vatanimiz mustaqilligini e'lon qilish, umumxalq saylovida g'olib chiqib, Prezidentlik qasamyodini qabul qilishigacha bo'lgan, tinimsiz kurashlar, keskin sinov va mashaqqatlar bilan o'tgan faoliyat davrini o'z ichiga oladi.

Kitobga kiritilgan nutq va ma'ruzalarda o'sha davrdagi o'ta dramatik voqealar, tarixiy o'zgarishlar qanday murakkab vaziyatlarda Yuz bergani, ularning tafsiloti, sabab va oqibatlari atroflicha yoritib beriladi.

Ma'lumki, 1989 yilning o'rtalarida KPSS Markaziy Komiteti, sovet xukumati tomonidan O'zbekistonga nisbatan qatag'on siyosati yangi bosqichda davom ettirilib, "paxta ishi", "O'zbeklar ishi" deb nom olgan siyosiy kampaniyalar avj olgan edi. Kommunistik partiyaning bosh nashri bo'lgan "Pravda" gazetasining "Oltin xazinasi ustidagi ilon" deb nom olgan maqolasida, boshqa yetakchi markaziy nashrlarda xalqimiz boshiga tinimsiz tuxmat va bo'xtorlar yog'dirilmoqda edi. Sobiq Markazdan yuborilgan, el-yurtimiz o'rtasida "desantchilar" deb nom olgan guruxlar tomonidan qancha-qancha begunox insonlar, butun-butun oilalar ta'aviq va ta'qiblarga uchraganini jamoatchiligimiz yaxshi eslaydi.

Ana shunday og'ir bir sharoitda Yurtboshimiz tomonidan xalqimiz qalbidagi asriy o'zu - istiqlol g'oyasi ulkan jasorat bilan ilgari surilib, uni amalga oshirish uchun tarixiy qadamlar qo'yilgan kitobning asosiy mavzusini tashkil etadi. Agarki bu kitobning ma'no-mazmunini ta'sir so'z bilan ifoda etadigan bo'lsak, Vatanimiz mustaqilligi, ta'bir joiz bo'lsa, yangi xayot, yangi jamiyat binosi uchun zamin bo'lgan xalq qiluvchi dasturiy maqsad va g'ovalarni Islom Karimov o'sha dalg'ali yillardayoq, uzoqni ko'rgan xolda, o'ziga nechog'lik aniq-ravshan tasavvur etgan, mazkur to'planning xar bir sahifasidan bamisoli "qizil ip" bo'lib o'tishini ta'kidlash o'rindir.

Shu davr mobaynida o'lkamizda ro'y bergan Farg'ona, Guliston, Bo'ka, O'sh, Namangan voqealari paytida, tarixda "GKChP" deb nom olgan, SSSR davlatining so'nggi kunlarida bir gurux imperiyaparast kuchlar tomonidan amalga oshirilgan siyosiy to'ntarish chog'ida va bo'lgan shu kabi o'ta keskin vaziyatlarda Islom Karimovning yakkayu yagona to'g'ri yo'lni topa olgan xalqimizning tinchligi va xavfsizligini ta'minlash uchun kechayu kunduz tinimsiz mashaqqatli faoliyat olib borganini tasdiqlaydigan tarixiy manbalar xam ushbu kitobda o'z aksini topgan.

Mamlakatimizni jar yoqasiga olib kelib qo'ygan og'ir ijtimoiy-iqtisodiy axvolni o'zgaritish xalq dardiga damon bo'lish, yillar davomida yechilmasdan kelgan muammolarni xalq ehtiyojlarini maqsadida axoliga uy-joy qurish uchun uchastka maydonlari va tomorqa yerlari ajratish, paxta yakkaxo'kimligiga barxam berish borasida davlatimiz raxbari tomonidan keng ko'lanli ishlar amalga oshirildi. Ana shunday chora-tadbirlar tufayli respublika bo'yicha 700 mingta o'la, a'loq berilgan, muallif ta'biri bilan aytganda, kichikroq bir davlatning axolisiga teng bo'lgan.

million yangi oila paydo bo'lgani, qurilish materiallari ishlab chiqarish, odamlarga kredit berish, o'z xo'jaligini yuritish uchun urug'lik, chorva mollari va parranda ajratishga qaratilgan ulkan ishlar xaqida ma'lumot beradigan chiqishlar xam shu to'plamdan o'rin olgan.

Bugungi kunda dunyoda "O'zbek modeli" deb nom olgan taraqqiyot yo'limizning asosiy prinsiplarining dastlabki kurtaklari so'kin kabinetlarda emas, aksincha, o'sha yillarda keskin siyosiy kurashlar, baxs va tortishuvlar jarayonida tug'ilib, 90-yillarga kelib yaxlit ta'limotga aylangani xaqida ushbu kitobdagi chiqishlar orqali xar tomonlama tasavvurga ega bo'lish mumkin.

Mustaqillik g'oyalari keng qanot yoza boshlagan, xalqimiz ozodlik va erkinlikka intilgan bir paytda Yurtimizning dadil qadamlarini ko'rolmaydigan g'arazli kuchlar sobiq Markazda xam, o'zimizda xam topiladi. Bunday siyosiy o'yin va fitnalarga bir misol sifatida 1991 yil 17-19 avgust kunlari – Islom Karimov Xindiston Respublikasida rasmiy safarda bo'lgan paytda yuz bergan voqealarni keltirish mumkin. Mamlakat raxbarining O'zbekistonda emasligidan foydalanib, yurtimizdagi ayrim raxbarlar GKChPning noqonuniy qarorlarini qo'llab-quvvatlaydi, shu tariqa o'zining siyosiy va ma'raviy qiyofasini ko'rsatadi. Faqatgina yurtboshimizning mustaxkam irodasi, oqilona va vazmin siyosati tufayli GKChP tarafdori bo'lgan siyosiy avantyuristlar o'z qabix niyatiga yetolmagani xam kitobdagi chiqishlarda ifodasini topgan.

Afsuski, bugun vaqt o'tishi bilan ana shu voqealarni ko'rgan-bilgan, ularga bevosita guvoh bo'lgan odamlarning soni tobora kamayib bormoqda. Yaqin tariximizning mash'um bir davrida sodir bo'lgan bu voqealarni bilmasdan, ularning moxiyatini chuqur anglamasdan turib el-Yurtimizning istiqolga erishish yo'lidagi kurashlar tarixini barcha murakkabliklari bilan to'liq tasavvur etib bo'lmaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, mazkur kitobdan o'rin olgan tarixiy xujjatlar, nutq va ma'ruzalarning bugungi va ertangi kunimiz uchun o'ta muxim axamiyatga ega ekani yanada yaqqol ayon bo'ladi.

Muxtasar aytganda, to'plamga kiritilgan xar bir chiqishni mutolaa qilish jarayonida biz yangi tariximizning o'zimiz bilmagan, anglanagan yana ko'plab qirralarini yangitdan kashf etamiz, istiqol moxiyatini, "tarixiy burilish pallasida xalq dardi, millat qayg'usi buyuk shaxslarni yaratishi"ni yanada chuquroq anglaymiz.

Shu ma'noda, Prezident Islom Karimovning "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" kitobi xalqimizning siyosiy tafakkur xazinasiga qo'shilgan bebaxo xissa bo'lib, mamlakatimizning istiqol tarixini o'rganish va anglashda beqiyos tarixiy axamiyat kasb etadi.

## ADABIYOTLAR:

### 1. Asosiy adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — T.: O'zbekiston, 2013. — 32-bet.
2. O'zbekiston Respublikasi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi (yangi tahriri). O'zbekiston Respublikasining qonuni — T.: Adolat, 1998. 31-bet.
3. "Davlat tili haqida"gi (yangi tahrir) O'zbekiston Respublikasining qonuni. — T.: O'zbekiston, 1997. 22-bet.
4. "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. — T.: O'zbekiston, 1989. 30-bet.
5. O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi. — T.: Adolat, 1996. 263-bet.
6. O'zbekiston Respublikasida masofaviy ta'lim tizimini yaratish va rivojlantirish kontsepsiyasi (Loyiha) // Xabar, 2004 yil 20 fevral.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Mehr va muruvvat yili" dasturi to'g'risida qarori // O'zbekiston ovozi. — 2004. 29 yanvar.
8. "2004—2009 yillardagi ta'limni rivojlantirish dasturini amalga oshirish chiqarilgan qarori to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. — T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2004. 28(112)-son, 5-8-betlar.
9. "Mehr va muruvvat yili" dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha Respublika komissiyasini tuzish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi // Xalq so'zi. — 2003. 13 dekabr.
10. «Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani bo'yicha o'quv dasturini tayyorlash va ta'lim tizimiga joriy etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 18 yanvardagi Farmoyishi.
11. "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni // Oliy Majlis Axborotnomasi, 1996.
12. "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni // Oliy Majlis Axborotnomasi, 2004.
13. "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun va "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga (89-moddasiga, 93-moddasining 15-bandiga, 102-moddasining ikkinchi qismiga) tuzatishlar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihalariga sharhlar // «Xalq so'zi», 2006 yil 9 noyabr.
14. Karimov I.A. Xalqimizning otashqalb farzandi // O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. 1 — jild. — T.: O'zbekiston, 1996. 364-bet.
15. Karimov I.A. O'zbekiston o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li // O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. 1 — jild. — T.: O'zbekiston, 1996. 364-bet.
16. Karimov I.A. Hallollik va fidoyilik — faoliyatimizning asosiy mezon bo'lsin // Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2 — jild. — T.: O'zbekiston, 1996. 380-bet.
17. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari // Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3 — jild. — T.: O'zbekiston, 1996. 366-bet.
18. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida // Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3 — jild. — T.: O'zbekiston, 1996. 366-bet.
19. Karimov I.A. Taraqqiyotning qudratli qanoti // Bunyodqorlik yo'lidan. 4 — jild. — T.: O'zbekiston, 1996. 349-bet.
20. Karimov I.A. Mintaqada xavfsizlik va hamkorlik uchun // Bunyodqorlik yo'lidan. 4 — jild. — T.: O'zbekiston, 1996. 349-bet.
21. Karimov I.A. Yangicha tafakkurga keng yo'l // Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. 6-jild. — T.: O'zbekiston, 1998. 429-bet.



22. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari//Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida.6—jild. —T.:O'zbekiston, 1998. — 429- bet.
23. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. — T.:O'zbekiston, 1998. 686- bet.
24. Karimov I.A. O'loh qalbimizda, yuragimizda. — T.:O'zbekiston, 1999. 47 -bet.
25. Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'lirniz bilan qurmoqdamiZ// Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz.7—jild. —T.:O'zbekiston, 1999. 410- bet.
26. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda//Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz.7—jild. —T.:O'zbekiston, 1999. 410- bet.
27. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin//Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz.7—jild. —T.: O'zbekiston, 1999. 410- bet.
28. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q//Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz.7—jild. —T.:O'zbekiston, 1999. 410- bet.
29. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi-xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir //Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz.8—jild. —T.:O'zbekiston, 2000. 528- bet.
30. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz //Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz.8—jild. — T.:O'zbekiston, 2000. 528- bet.
31. Karimov I.A. O'zbekiston Konstitutsiyasining 8 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqi//Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz.9—jild. —T.:O'zbekiston, 2001. 432- bet.
32. Karimov I.A. Adolat – qonun ustuvorligida//Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10—jild. —T.:O'zbekiston, 2002. 432- bet.
33. Karimov I.A. Vatanimiz tinchligi va xavfsizligi o'z kuch-qudratimizga xalqimizning hamjihatligi va buqilmas irodasiga bog'liq.// Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq.12—jild. —T.:O'zbekiston, 2004. 400- bet.
34. Karimov I.A. Tadbirkorlar va ishbilamolnar ijtimoiy qatlami O'zbekiston siyosiy maydonida o'z o'rmini egallashi lozim (Prezidentning yangi tuzilayotgan siyosiy partiya tashabbus guruhi a'zolari bilan uchrashuvdagi nutqi) // O'zbekiston ovozi.- 2003. - 9 oktyabr.
35. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratiyalashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. —T.:O'zbekiston, 2005. 96- bet.
36. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. —T.:O'zbekiston, 1997
37. Karimov I.A. Jamiyatimizni berkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimiz hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezonlari va maqsadidir. 15 jild. — T.: O'zbekiston, 2007. — 318 b
38. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida 16-jild. — T.: O'zbekiston, 2008. — 366 b
39. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash – bizning oliy maqsadimiz. 17-jild. — T.: O'zbekiston, 2009. — 280 b
40. Karimov I.A. Jahon inqirozining oqiballarini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko'tarilish sari. 18-jild. — T.: O'zbekiston, 2010. — 280 b
41. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O'zbekiston, 1997.
42. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch. T.: O'zbekiston, 2008.
43. Karimov I.A. Jaxon moliyaviy –iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf yetishning yo'llari va choralari. T.: O'zbekiston, 2009
44. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. —T.: O'zbekiston, 2009.
45. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. — T.: O'zbekiston, 2010
46. Karimov I.A. Bu muqaddas Vatanda azizdir inson. — T.: O'zbekiston, 2010

47. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish qva fuqarolik jamiyatini shakllantirish konsepsiyasi. (12 noyabr 2010 yildagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatning qo'ma majlisidagi ma'ruzası)

370 b  
48. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. — T.: O'zbekiston, 2011 —

49. Karimov I.A. "Inson xotirasi boqiy qadr qimmati ulug'". 09.05.2012y. Toshkent.

50. Karimov I.A. 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. 19.01.2012

#### Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Abdullaev YU. Vahhobiylik ildizlari. — F.:Farg'ona, 1998. 64- bet.
2. Abduraxmonov F. Mustaqillik va milliy manfaatlar. — T.:Fan, 1994. 108- bet.
3. Alisher Navoiy. Lisonat tayr. —T.:G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991. 346- bet.
4. Abilov O'. Milliy g'oya, ma'naviy omillar. —T: Ma'naviyat, 1999
5. Alimova D. Insoniyat tarixi — g'oya va mafkuralar tarixi. —T: Yangi asr avlodi, 2001.
6. Achildiev A. Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar. —T.:O'zbekiston, 2004. 133- bet.
7. Achildiev A. Milliy g'oya, inson va zamon. —T.:YAngi asr avlodi, 2001. 96-bet.
8. Achildiev A. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi. — T.:YAngi asr avlodi, 2000. 32- bet.
9. Axmedov G', Sattorov A. O'zbekiston: inson huquqlari va qonunlar. —T.:A dolat, 1999. 176- bet.
10. Bekmuradov M., Bematov A. Milliy mentalitet va ma'naviyat. —T.:Adolat, 2002. 79- bet.
11. Boboev H., G'ofurov Z. O'zbekistonda siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy ta'limotlar taraqqiyoti. —T.:YAngi asr avlodi, 2001. 479 -bet.
12. Begmatov A. Ma'naviyat falsafasi yohud Islom Karimov asarlarida yangi falsafiy tizimning yaratilishi. —T.:SHarq, 2000. 96- bet.
13. Begmatov A. Ma'naviyat falsafasi yoxud Islom karimov asarlarida yangi falsafiy tizimning yaratilishi. — T.: O'zbekiston, 2000
14. Beti Readon. Bag'rikenglik: tinchlik sari olg'a qadam. —T.:YUNESKO, 2002. 164- bet.
15. Boboev G', G'ofurov 3. Milliy istiqlol mafkurası va taraqqiyot. —T.: Yangi asr avlodi, 2001.
16. G'oyibov N. Amir Temur davri ma'naviyati: Badi'a. —T.:G'.G'ulom nomidagi Abadiyot va san'at nashriyoti, 2001. 48- bet.
17. Gafarli M.M., Kasaev A.Ch. Rivojlanishning o'zbek modeli, tinchlik va barqarorlik — taraqqiyot omili. — T.: O'zbekiston, 2000
18. Jakbarov M. Komil inson g'oyasi:tarixiy-falsafiytahlil. —T: Abu Ali ibn Sino . 2000.
19. Jakbarov M. Komil inson g'oyasi. — T: Yangi asr avlodi, 2002.
20. Jo'raev N. Mafkuraviy immunitet.—T:Ma'naviyat, 2001
21. Jalilov SH. Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari. —T.:O'zbekiston, 2001. 160 - bet.
22. Jalolov A. Demokratiya — mashaqqatli surur. —T.:Universitet, 2000. 349- bet.
23. Jalolov A. Mustaqillik mas'uliyati. —T.:O'zbekiston, 1996. 256- bet.
24. Jalolov M. O'zbekiston: Mustaqillik, ma'naviyat, mafkura: falsafiy-siyosiy musohabalar va maqolalar). —T.:O'zbekiston, 1994. 96 -bet.
25. Jumaev R. Davlat va jamiyat: demokratlashtirish yo'lida. —T.: SHarq, 1998. 143 -bet.

26. Jo'raev N. O'zligini anglash mavridi. —T.:O'zbekiston, 1990. 126- bet.
27. Jo'raev N. G'oyaviy immunitet yo'ki ma'naviy hamkorlik tuyg'usi. —T.:O'zbekiston, 2002. 64- bet.
28. Jo'raev U, Sai'djonov I. Dunyo dinlari tarixi. —T.:SHarq, 1998. 74 -bet.
29. Zakurlaev A. G'oyal ar kurashi. —T.:Movarounnahr, 2000. 63- bet.
30. Islomov Z.M. Fuqarolik jamiyati: kecha, bugun, ertaga. — T.: 2002
31. Kamilova S. Diniy e'tiqod, aqidaparastlik, siyosat. —T.:O'zbekiston, 1999. 23- bet.
32. Karimova V., Umarov A., Quronov M. Milliy istiqloq g'oyasini xalqimiz ongiga singdirish omillari va vositalari. —T.Yangi asr avlodi, 2001.
33. Levitin L. O'zbekiston tarixiy burilish pallasida. —T.: O'zbekiston, 2001. 367- bet.
34. Mamashokirov S va boshqalar. O'zbekistonda yangi jamiyat qurilishining g'oyaviy-mafkuraviy masalalari. (o'quv-uslubiy qo'llanma). — T.: 2004
35. Mamashokirov S, Tog'ayev Sh. Erkin va farovon hayot qurilishining g'oyaviy-mafkuraviy masalalari. — T: Ma'naviyat, 2007
36. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. —T.: O'zbekiston, 2000
37. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. (o'quv qo'llanma). Q.Nazarov tahriri ostida. — T.: Yangi asr avlodi, 2002
38. Milliy istiqloq g'oyasi (O'zR Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik). I.Ergashev tahriri ostida. — T.: Akademiya, 2005
39. Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati. Nazarov Q tahriri ostida. —T.: Akademiya nashriyoti, 2007
40. Milliy istiqloq g'oyasini xalqimiz ongiga singdirish omillari va vositalari. — T.: 2002
41. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy xususiyatlari, falsafiy va tarixiy ildizlari. — T.: 2002
42. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar. (qisqa izohli tajribaviy lug'at) — T.: Yangi asr avlodi, 2002
43. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. — T.: O'zbekiston, 2001.
44. Milliy istiqloq g'oyasi va mafkurasi: falsafiy va huquqiy jihatlari. — T, 2001.
45. Millatlararo munosabatlar madaniyati va baynalminal dunyoqarash G'S. Kamilova, Z.G'ofurov va boshq. —T.:O'zbekiston, 1993. 135- bet.
46. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar G'O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatining ishchi guruhi. — T.:O'zbekiston, 2000. 77- bet.
47. Milliy istiqloq g'oyasi targ'ibotining ilmiy asoslari. —T., 2002.
48. Milliy g'oya — bizning g'oya. — T., 2001.
49. Millatlararo hamjihatlik - barqarorlik omili. —T, 1999.
50. Milliy istiqloq g'oyasi nazariya va amaliyot. — T.: Ijod dunyosi, 2002
51. Musurmonova O. Oila ma'naviyati —milliy g'urur. —T.:O'qituvchi, 2000. 200 - bet.
52. Nazarov Q. Qadriyatlar tizimining barqarorligi va o'zgarishlari. —T., 1999. 86- bet.
53. Nazarov Q. Milliy istiqloq g'oyasining asosiy maqsad va vazifalari. —T.: Yangi asr avlodi, 2001
54. Nazarov Q. G'oyalar falsafasi. — T.: Akademiya, 2011
55. Otamurotov S, Mamashokirov S, Xolbekov A: Markaziy Osiyo: g'oyaviy jarayonlar va mafkuraviy ta'hdidlar. — T: Yangi asr avlodi, 2001.
56. Olimov S Milliy mafkura — xalq tayanadigap kuch. T, 2000.
57. Paxrutdinov SH. "Ta'hdid" tushunchasi: nazariya va amaliyot. —T.: Abu Ali Ibn Sino, 1998. 63- bet.
58. Rahmonov D. Milliy munosabatlar va ularning siyosiy-huquqiy boshqarilishi (Hozirgi zamon amaliyotidani). —T.:Fan, 1990. 232- bet.
59. Sagdullaev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. —T.:O'qituvchi,

1996. I 12- bet.

60. To'raev Sh. Demokratik jarayonlar va milliy g'oya. —T.: Ma'naviyat, 2008.
61. Otamurotov S., Mamashokirov S., Holbekov A., Lafasov M. Markaziy Osiyo: g'oyaviy jarayonlar va mafkuraviy tahdidlar. —T.: Ijod dunyosi, 2002. 3 i- bet.
62. .Parlamentarizm: xorijiy mamlakatlar tajribasi (R.M.Alimov tahriri ostida). —T.: SHarq, 2004.
63. Sagdullaev A., Aminov B., Mavlonov O'., Norqulov N. O'zbekiston tarixi: Davlat va jamiyat taraqqiyoti. —T.: Akademiya, 2000. 271 - bet.
64. Tulenov J., G'ofurov Z. Millatlararo hamjihatlik davlatimiz boyligi. —T.: O'zbekiston, 1999. 21- bet.
65. Tulenov J., Qodirov B., G'ofurov Z. Ma'naviy yuksalish sari. —T.: Mehnat, 2000.
- 191- bet.
66. Tulenova G.J. Barkamol yosh avled – istiqloq tayanchi. —T.: Fan va texnologiya, 2004
67. Tulenova G.J. Istiqloq va millatlararo munosabatlar taraqqiyoti. —T.: TATU, 2005
68. Qirg'izboev M. Demokratik ko'ppartiyaviylik va parlamentarizm tamoyillarini rivojlantirish masalalari // O'zbekiston fuqarolik jamiyati sari kitobida. —T.: SHarq, 2003.
69. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: siyosiy partiyalar, mafkuralar, madaniyatlar. —T.: SHarq, 1998. 160- bet.
70. O'tamurodov A., Azizov SH. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati barpo etilishining tsivilizatsiyaviy paradigmalari to'g'risida // O'zbekiston fuqarolik jamiyati sari (R.M.Alimov tahriri ostida). —T.: SHarq, 2003.


## MUNDARIJA:

KIRISH.....	3
I-Mavzu: O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Demokratik jamiyat to'g'risidagi dastlabki qarashlar va ularning rivojlanish bosqichlari.....	4
II-Mavzu: O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishda o'tish davrining zarurligi. Mustaqillik va demokratik jamiyat qurilishining «O'zbek modeli».....	18
III-Mavzu: Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish omillari.....	34
IV-Mavzu: Jamiyat iqtisodiy hayotini erkinlashtirish va demokratlashtirish.....	51
V-Mavzu: Demokratik jamiyat shakllanishida nodavlat va jamoat birlashmalari, oila, mahalla va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining o'rni.....	63
VI-Mavzu: O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligida demokratik tamoyillarga asoslanishi.....	82
VII-Mavzu: "Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar" fanining predmeti, muammolar doirasi, tarixiy ildizlari, shakllanish bosqichlari.....	90
VIII-Mavzu: G'oyaviy tahdidlarning yo'nalishlari. Mafkuraviy tajovuz va axborot xavfsizligi.....	126
IX-mavzu: "Jamiyat barqarorligini ta'minlashning ijtimoiy-g'oyaviy asoslari. Globallashuv jarayonida mafkuraviy immunitetni shakllantirish vazifalari".....	137
Adabiyotlar.....	168

“Milliy istiqloq g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. O’zbekistonda demokratik jamiat qurish nazariyasi va amaliyoti” kursidan ma’ruzalar matni

Тошкент ахборот технологиялари университети АКТС КТ факультети Илмий-услубий кенгаши йиғилишда муҳокама этилиб, босишга тавсия этилди (2014 йил 29.10, 9 -сон мажлис баённомаси)

Тузувчи: ф.ф.д., профессор. Г.Ж. Туленова

Мухаррир:  С.Х.Абдуллаева

Бичими 60x84 1/16

Босма табағи -10,875 Адади – 30

Буюртма - № 112

Тошкент ахборот технологиялари университети  
“ALOQACHI” нашриёт-матбаа марказида чоп  
этилди.

Тошкент ш, Амир Темур кучаси, 108 – уй